

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**HAYDARALI MUHAMEDOV**

**XORIJIY MAMLAKATLAR  
DAVLATI VA HUQUQI TARIXI  
(Yangi davr davlati va huquqi)**

Darslik

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan  
yurisprudensiya yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim oladigan talabalarga  
darslik sifatida tavsiya etilgan.

**TOSHKENT – 2018**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2017-yil 24-avgustdagi 603-sonli buyrug‘iga asosan darslik sifatida nashr etish uchun tavsiya etilgan.

**KBK 67.3(0)**

**M 93**

**Muhamedov H.M.** Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi (Yangi davr davlati va huquqi). Darslik. III qism. Oliy o‘quv yurtlarining yurisprudensiya yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalar uchun darslik / Mas’ul muharrir: O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, yuridik fanlar doktori, professor A.X.Saidov. – T.: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2018. – 341 bet.

**Taqrizchilar:**

**X.T.Odilqoriyev**, yuridik fanlar doktori, professor.

**A.A.To‘laganov**, yuridik fanlar doktori, dotsent.

**F.A.Muhiddinova**, yuridik fanlar doktori, dotsent.

Mazkur darslikda Angliya, AQSH, Fransiya, Germaniya, Rossiya, Yaponiya va Xitoyda yangi davr davlatchiligining kelib chiqishi shart-sharoitlari, sabablari, xususiyatlari va rivojlanish bosqichlari, xususan, ularda konstitutsiyaviy boshqaruvning joriy qilinishi va taraqqiy etishi masalalari, shu bilan birga yangi davrda jahon mamlakatlari asosiy huquqiy tizimlarining shakllanishi va rivojlanishi, alohida davlatlar huquqining asosiy manbalari, sohalari, institutlari va o‘ziga xos xususiyatlari yoritiladi.

Darslik oliy o‘quv yurtlarining huquqshunoslik va tarix yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalar, shuningdek davlat va huquq sohasida tadqiqot olib borayotgan mutaxassislar uchun mo‘ljallangan.

**ISBN: 978-9943-380-86-8**

© **Haydarali Muhamedov.**

© **Toshkent davlat yuridik universiteti 2018.**

## MUNDARIJA

Kirish.....	6
<b>Asosiy tushuncha va iboralar.....</b>	<b>9</b>
<b>I bob. Yangi davrda Angliya.....</b>	<b>21</b>
1§. XVII asrdagi ingliz inqilobi va Angliya davlat tuzumidagi o‘zgarishlar.....	21
2-§. Stuartlar sulolasining qayta tiklanishi.....	32
3-§. “Shonli inqilob” va uning oqibatlari.....	34
4-§. XVIII asrda konstitutsiyaviy monarxiyaning rivojlanishi.....	38
5-§. Saylov islohotlari .....	43
6-§. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Angliyaning siyosiy tuzumidagi o‘zgarishlar.....	48
7-§. Ijroiya hokimiyatining kuchayishi.....	52
<b>II bob. AQSHning tashkil topishi va yangi davrda konstitutsiyaviy rivojlanishi .....</b>	<b>55</b>
1-§. Shimoliy Amerika mustamlakalari va ularda boshqaruvning tashkil etilishi .....	55
2-§. Mustaqillik uchun kurash va Mustaqillik deklaratsiyasining e’lon qilinishi .....	59
3-§. Yangi davlat apparatining tashkil qilinishi va Shimoliy Amerika davlatlari (shtatlari)ning birinchi konstitutsiyalari .....	65
4-§. AQSHning 1781-yilgi “konfederatsiya moddalari” .....	67
5-§. AQSHning konfederatsiyadan federatsiyaga o‘tib o‘tishi va .....	68
1787-yilgi Konstitutsiyasi .....	68
6-§. 1791-yilgi “Huquqlar to‘g‘risida”gi Bill .....	72
7-§. Federal davlat apparatining tashkil qilinishi.....	73
8-§. AQSHda siyosiy partiyalarning shakllanishi va rasmiylashtirilishi... 75	
9-§. AQSH hududining kengayishi va shtatlar sonining ko‘payishi .....	79
10-§. 1861–1865-yillardagi fuqarolar urushi va uning ijtimoiy-siyosiy natijalari.....	80
11-§. XIX asr oxiri XX asr boshida AQSH ijtimoiy-siyosiy tuzumidagi o‘zgarishlar .....	85

<b>III bob. Yangi davrda Fransiyaning konstitutsiyaviy rivojlanishi</b> .....	88
1-§. 1789–1794-yillardagi buyuk fransuz inqilobi, uning shart-sharoitlari, bosqichlari va xususiyatlari.....	88
2-§. Fransiya ilk konstitutsiyaviy monarxiya va uning davlat tuzumi...	94
3-§. Jirondistlar respublikasi .....	109
4-§. Yakobinchilar respublikasi .....	111
5-§. Termidorchilar davlat to‘ntarishi va direktoriya hukmronligi .....	123
6-§. Konsullik va imperiya davrida (1799-yil noyabr – 1814-yil aprel) Fransiyaning ijtimoiy-siyosiy tuzumi .....	128
7-§. Fransiya qonuniy monarxiya va iyul imperiyasi	
1814–1830-yillardagi xartiyalar.....	138
8-§. Ikkinchi respublika va 1848-yilgi Konstitutsiya .....	146
9-§. Lui Bonapartning 1851-yilgi davlat to‘ntarishi va ikkinchi imperiyaning davlat tuzumi.....	150
10-§. 1871-yilgi Parij kommunasi .....	153
11-§. Fransiya Uchinchi respublikaning o‘rnatilishi va 1875-yilgi konstitutsiyaviy qonunlar .....	157
<b>IV bob. Yangi davrda Germaniya</b> .....	163
1-§. Napoleon bosqini va “German millati muqaddas Rim imperiyasi”ning qulashi.....	16163
2-§. German davlatlarining “Reyn ittifoqi” .....	164
3-§. Vena kongressi va German ittifoqining tashkil topishi.....	166
4-§. German davlatlarining birinchi konstitutsiyalari.....	168
5-§. 1848-yilgi inqilob va uning german konstitutsiyashunosligi rivojlanishiga ta’siri.....	170
6-§. Germaniya imperiyasining 1849-yilgi Frankfurt Konstitutsiyasi ....	172
7-§. Prussiyaning 1850-yilgi konstitutsiyaviy xartiyasi .....	176
8-§. 1867-yilgi Avstriya-Vengriya ittifoqi.....	181
9-§. Prussiyaning gemonlik uchun kurashi va Shimoliy-Germaniya ittifoqi .....	182
10-§. Germaniya imperiyasining 1871-yilgi Konstitutsiyasi .....	187
11-§. Kayzer Germaniyasining siyosiy rejimi .....	190

<b>V bob. Yangi davrda Yaponiya davlatchiligining rivoji</b> .....	196
1-§. Yaponiyaning XIX asr 60-yillarigacha davlat tuzumi .....	196
2-§. Meydzi inqilobi va imperator hokimiyatining qayta tiklanishi .....	198
3-§. XIX asrning 70-80-yillaridagi burjua islohotlari .....	200
4-§. Siyosiy tuzumni demokratlashtirish uchun kurash va siyosiy partiyalarning shakllanishi .....	204
5-§. Yaponiyaning 1889-yilgi Konstitutsiyasi .....	206
6-§. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar: sud, prokuratura va advokatura .....	211
7-§. XIX asr oxirida Yaponiya davlat tuzumidagi o'zgarishlar .....	214
<b>VI bob. Yangi davrda Xitoy</b> .....	217
1-§. Sin imperiyasining inqirozi va g'arb davlatlarining agressiyasi .....	217
2-§. Taypinlarning "Samoviy mo'l-ko'lchilik davlati" ("Taypin tyango") .....	220
3-§. "Islohotlarning yuz kuni" .....	223
4-§. 1911-yilgi Sinxay inqilobi va monarxiyaning qulashi .....	226
<b>VII bob. Yangi davr huquqining asosiy belgilari</b> .....	230
1-§. Yangi davr huquqining shakllanishi va rivojlanishi .....	230
2-§. Angliya huquqi .....	241
3-§. AQSH huquqi .....	272
4-§. Fransiya huquqi .....	292
5-§. Germaniya huquqi .....	315
<b>Qisqacha xronologik jadval</b> .....	337
<b>Mavzular bo'yicha tavsiya qilinadigan adabiyotlar</b> .....	339

## KIRISH

XVI asrda Niderlandiyada yuz bergan inqilob mahalliy xarakterga ega bo'lib, XVII asrdagi ingliz inqilobi yoki XVIII asr oxirlaridagi buyuk fransuz inqilobi singari qo'shni davlatlarga katta ta'sir ko'rsatmadi.

Yangi davr o'rta asrlardan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning miqyosi va jadalligi bilan, ularning natijasida yangi tipdagi sivilizatsiyaning vujudga kelishi bilan farq qiladi. Yangi davrning mazmun-mohiyati ijtimoiy-siyosiy jihatdan o'zidan avvalgi davrdagi singari turli mamlakatlarda ayni paytda bir xil bo'lmadi. Yangi ijtimoiy-siyosiy tuzum dastlab faqat g'arbiy Yevropaning ayrim mamlakatlari va AQSHda o'rnatildi. Dunyoning boshqa mintaqalarida feodal munosabatlar, ba'zan esa hatto ibtidoiy jamoa munosabatlari saqlanib qolgandi. Biroq yangi va hukmron g'oya (tendensiya) butun dunyoning keyingi rivojlanishini belgilab berdi. Feodal munosabatlar dastlab markaziy va sharqiy Yevropada, shuningdek Osiyo va Lotin Amerikasining ba'zi mamlakatlarida asta-sekin barham topdi. Ayni paytda yirik kapitalistik mamlakatlar qoloq mamlakatlarni o'z mustamlakalariga aylantirib bordilar. Mustamlakachilik tizimi XVI asrda asosan ispanlar va portugallarning okean ortidagi yerlarni bosib olishi bilan boshlandi,

XVII–XVIII asrlarda tashabbus gollandiyaliklar, inglizlar va fransuzlar qo'liga o'tib, bu tizim yanada rivoj topdi. XVIII asrdayoq Osiyo va Amerikadagi mustamlaka yerlar uchun Angliya bilan Fransiya o'rtasida g'oyat qattiq kurash bordi.

Kapitalistik mamlakatlarning mustamlakachilik tizimi dastlabki jang'arishning shaklan va mazmunan shavqatsiz manbalaridan biri bo'ldi. Kapitalistik mamlakatlardagi mehnatkashlarning ahvoli juda og'ir edi. Noiqtisodiy feodal ekspluatatsiya o'rniga yanada shafqatsiz bo'lgan kapitalistik ekspluatatsiya kelgan edi.

Lekin shunga qaramay, burjua tuzumining g'alabasi insoniyatning ijtimoiy taraqqiyot yo'lidagi harakatining yangi va juda katta muhim qadami bo'ldi. Buning natijasida ishlab chiqaruvchi kuchlarning misli ko'rilmagan darajada va jadal rivojlanishi uchun, davlat va huquqning mazmun-mohiyati sifat jihatidan o'zgarishi uchun shart-sharoitlar yaratildi. Xususiy huquqiy munosabatlar sohasida barcha fuqarolarning yuridik tengligi o'rnatildi.

Bu tub o'zgarishlardan oldin mafkurada chinakam inqilob yuz berdi. Yangi falsafiy, siyosiy-huquqiy, iqtisodiy g'oyalar tug'ilib, ularda yangi jamiyat qaror topishining muqarrarligi, uning asoslari, bo'lg'usi davlat va huquqning prinsiplari obyektiv asoslab berildi. Dastlab ko'p g'oyalar diniy

shaklda amalga oshirildi. Chunki bu diniy dunyoqarash hukmron bo'lgan feodalizm davrida paydo bo'lgan nazariy ta'limotlar uchun tabiiy holat edi. Biroq XVIII asrdayoq feodalizmga qarshi mafkura dunyoviy xarakter kasb etdi. Burjua inqiloblari bo'lib o'tgan Niderlandiya, Angliya, AQSH davlat-huquqiy tajribasiga, shuningdek antik demokratiya tajribasiga asoslangan golland va ingliz olimlari: Spinoza, Lokk, Miltonlarning g'oyalarini rivojlantirgan fransuz mutafakkirlari Volter, Gelvetsiy, Monteske, Russo o'sha davr ilg'or siyosiy fikrlarining asosiy xulosalarini bayon qilishga muvaffaq bo'ldilar.

Davlat-huquqiy mafkura sohasida hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolgan qoidalar birinchi marta ancha izchil tarzda asoslab berildi. Insonning tabiiy va ajralmas huquqlariga alohida o'rin ajratildi. Davlat inson huquqlarini hadya qilmaydi, ularni cheklashi ham mumkin emas, uning vazifasi bu huquqlarni himoya qilishdir. Faqat shunday davlat huquqiy hisoblanishi mumkin. Fuqarolarning erkinliklari va xavfsizligi ta'minlanishiga hokimiyatlarning taqsimlanishi – davlat hokimiyatining bir-biridan mustaqil tashkil etilgan va bir-birini tiyib turuvchi 3 asosiy tarmoqqa: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi xizmat qilishi lozim. Sudyalarning almashtirilmasligi prinsipi sud mustaqilligining eng muhim kafolati sifatida asoslab berildi.

Bu ta'limotlarning aksariyati o'sha vaqtda hokimiyat tepasiga intilayotgan burjuaziyaning mafkurasi bo'lib qoldi. Moddiy jihatdan ancha kuchli, tashkiliy jihatdan mustahkam, g'oyaviy-siyosiy jihatdan uyushgan burjuaziya feodalizmga qarshi kurashda butun millatning vakili sifatida maydonga chiqdi. Dastlabki davrda burjuaziya, haqiqatdan ham, shunday bo'ldi. Lekin u hokimiyatni qo'lga kiritgach ahvol o'zgarib bordi.

Dvoryanlarni hokimiyatdan to'liq mahrum etish mumkin bo'lmagan, yoki aksincha, ularning asosiy qismi burjuaziyalashgan mamlakatlarda burjuaziya va dvoryanlarning hukmron ittifoqi vujudga keldi, oqibatda esa konstitutsiyaviy monarxiya shaklidagi davlat boshqaruvi o'rnatildi. Faqat keyinchalik ko'p hollarda yangi inqiloblarga olib kelgan navbatdagi siyosiy kurash natijasida konstitutsiyaviy monarxiya dvoryan-burjuaziya monarxiyasidan asta-sekin burjua parlamentar monarxiyaga, ba'zan esa respublikaga aylandi. Inqilob boshidan burjua-demokratik xarakterga ega bo'lgan mamlakatlarda asosan boshqaruvning respublika shakli o'rnatildi. Biroq XVII-XVIII asrlardagi barcha inqiloblarda yangi hukmron sinflar butun davlat hokimiyatini o'z qo'llarida to'plashga harakat qildilar. Bunda nazariyada keltirilgan va deklaratsiyalarda e'lon qilingan demokratiya

cheklandi. Senzli saylov tizimlari joriy qilindi. Xalqdan ajralib qolgan davlat mexanizmi ko‘pincha eski tartibotlarni saqlab qoldi. Bu jarayonning mantiqiy yakuni ba’zi mamlakatlarda konstitutsiya shakllari bilan niqoblangan avtoritar rejimlarni o‘rnatilishi bo‘ldi. Qayerda demokratiya saqlanib qolgan bo‘lsa, u elitar xarakter kasb etgan.

Iqtisodiy munosabatlar sohasida davlatga “tungi qo‘riqchi” roli ajratilgan. Davlat iqtisodiy munosabatlarni qo‘riqlashga yo‘naltirilib, bu munosabatlarning amal qilishiga aralashmasligi lozim edi. Shu tariqa ekspluatatsiyani kuchaytirishga yuridik chegaralar qo‘yish imkoniyati ham yo‘qqa chiqarilgan edi.

Bunday sharoitlarda ijtimoiy kurash mazmun jihatdan yangi sifatga ega bo‘ldi. Yevropaning ancha rivojlangan mamlakatlarida XIX asrning 30-40-yillarida ishchilar sinfining mustaqil siyosiy kuch sifatidagi birinchi ommaviy chiqishlari bo‘lib o‘tdi. Davlat ularni harbiy-politsiya kuchi yordamida bostirish bilan birga ko‘pincha ularga yon berishlar qilishiga to‘g‘ri keldi. XIX asrning 2-yarmida sotsial qonunchilik paydo bo‘ldi, kasaba uyushmalari tan olindi, ba’zi saylov senzlari tugatildi, matbuot, yig‘ilishlar o‘tkazish, siyosiy partiyalarga birlashish erkinliklari sohasidagi cheklovlar bekor qilindi. Shu tariqa yangi davr davlatchiligi rivojlanishidagi asosiy tendensiya – liberal demokratiya birmuncha saqlanib qoldi. Liberal demokratiya o‘zining har qancha cheklanganligiga qaramay, vakillik muassasalari tarixida, fuqarolarning huquq va erkinliklari o‘rnatilishida muhim bosqich bo‘ldi.



## Asosiy tushuncha va iboralar

**Abolitsionizm** (*ing.*) – biror qonunni bekor qilish ko‘zda tutilgan harakat, XVIII asrning oxiri va XIX asrning birinchi yarmida jahondagi ko‘pgina mamlakatlarda, ayniqsa, AQSHda qul sotish va negrlarni qullikdan ozod qilishni talab etgan ommaviy-ijtimoiy harakat.

**Avtokratiya** (*yun. autos – o‘zim, kratos – hokimiyat*) – yakka shaxsning hech qanday qonun, huquqiy me‘yorlar bilan cheklanmagan yagona hokimligi.

**Avtoritarizm** (*lot. auctoritas – hokimiyat*) – davlatni idora qilish usuli. Avtoritarizmda siyosiy hokimiyat hukmdor shaxsning yoki yetakchining siyosiy irodasi va qarorlari asosida amalga oshiriladi.

**Agrar islohotlar** – davlatning yerga mulkchilik munosabatlari va yerda xo‘jalik yuritish usullarini o‘zgartirishga qaratilgan chora-tadbirlari majmui.

**Adliya** (*arab, adl – adolat, to‘g‘rilik, haqqoniylik, odil sudlov, xolislik*) – sudlov muassasalari, sud tashkilotlari va ular faoliyatini anglatadigan tushuncha. Adliya keng ma‘nodagi huquqdir.

**Akt** (*lot. actus – harakat, as turn – hujjat*) – ma‘lum shaklda tuzilgan rasmiy hujjat.

**Anglikan cherkovi** – Angliyada absolutizm kuchaygan davrda qirolning mutlaq hokimiyati ostidagi cherkov.

**Arxiyepiskop** (*yun.*) – xristian cherkovining oliy martabali diniy mansabdorlaridan biri, mitropolitdan keyin ikkinchi o‘rinda turgan va yepiskoplar faoliyatini nazorat qilish huquqidan foydalangan. Bosh nazoratchi – cherkov nazoratchisi.

**Aristokratiya** (*yun. aristokratia – yaxshilar hukmronligi*) – iqtisodiy hukmron sinf, zodagonlarning siyosiy hokimiyati, hukmronligi.

**Barshina** (*rus.*) – yer rentasining ruscha nomi (ishlab berish rentasi), krepostnoy huquq davrida dehqonlarning pomeschchik, monastir va cherkov yerlarida o‘z ish qurollari bilan haftada bir necha kun majburan va haq to‘lamay ishlatish.

**Birinchi imperiya** – Fransiyada Konsullik davridan (1799–1804-yillar) keyingi Napoleon I (Bonapart) imperiyasi davri (1804–1814- va 1815-yillar).

**Bojxona ittifoqi** – ikki yoki undan ortiq davlatlar o‘rtasida o‘zaro bojxona chegaralarini bekor qilish, boshqa mamlakatlar uchun yagona boj tariflarini joriy etish to‘g‘risidagi bitim; davlatlarning bojxona siyosati sohasida hamkorlikda faoliyat olib borish maqsadlaridagi birlashuvi.

**Bonapartizm** – birinchi marta Fransiyada 1789–1794-yillardagi burjua inqilobi tugagach, Napoleon Bonapart diktaturasi o‘rnatilgan vaqtda vujudga kelgan.

**Bryumer** (*fr.*) – tuman, yog‘ingarchilik oyi – 1793-yil Fransiyada konvent tomonidan joriy etilgan Yangi kalendarga asosan yilning ikkinchi oyi (22–24-oktabr, 20–23-noyabr).

**Britaniya imperiyasi** – Buyuk Britaniya va unga qaram bo‘lgan mustamlakalarni ifodalaydigan tushuncha.

**Bundesrat** (*nem. Bundesrat*) 1) Germaniyada yerlarning vakillik organi; 2) Germaniyada (1871–1918) parlamentning yuqori palatasi.

**Burmistr** (*nem.*) – krepostnoy huquq davrida pomeschchik tomonidan dehqonlar ustidan qo‘yilgan ishonchli oqsoqol (gumashta); 1861-yilgi islohotdan so‘ng eng katta volostlardagi oqsoqollar.

**Buyuk davlatchilik shovinizmi** – ko‘p millatli mamlakatlarda tarixiy taraqqiyot jarayonida davlatda yetakchi mavqeni egallagan, o‘z millatini “oliy” millat deb e‘lon qilgan hukmron millat mafkurasi va siyosati, shovinizm va millatchilikning bir turi.

**Buyuk fransuz inqilobi** – Fransiya tarixida mustabid tuzumga barham bergan va yangi ijtimoiy taraqqiyotga yo‘l ochgan inqilob (1789–1799).

**Ministrlik** – muayyan davlatlarda alohida bir sohaga rahbarlik qiladigan ijrochi organ.

**Vigilar** – Angliyada qirolni taxtdan ag‘darib tashlash tarafdorlari.

**Versalchilar** – 1871-yil 18-martda dunyoda birinchi proletariat diktaturasi – Parij Kommunasi tashkil topgach, Versalga qochib ketgan Ter boshchiligidagi aksilingilobiy hukumat rahbarlari va tarafdorlari.

**Veto** (*lat.*) – man etaman, taqiqlayman, taqiq, taqiqlash, man qilish; davlatning biror organi tomonidan boshqa organ qarorining amalga oshirilishiga to‘sqinlik qilish uchun tamomila yoki shartli ravishda taqiqlab qo‘yish.

**Gabsburglar** (*nem.*) – “Germaniya millatining Muqaddas Rim imperiyasi” deb atalgan davlatda (1273–1438-yillar tanaffus bilan, keyin 1438–1806-yillar), Avstriya imperiyasi (rasman 1804-yildan boshlab), Avstriya-Vengriya (1867–1918-yillar)da hukmronlik qilgan sulola.

**General-gubernator** (*lat.*) – “podsho noibi”; General gubernator lavozimi Rossiya imperiyasida 1775-yilda joriy qilingan bo‘lib, 1917-yilgacha davom etgan; oliy mansabdor shaxslardan biri, bir yoki bir necha guberniyaning harbiy-ma‘muriy, politsiya hokimi.

**General shtatlar** (*fr.*) – o‘rta asrlarda Fransiya va Niderlandiyada toifalar vakillari (ruhoniylar, dvoryanlar va shaharliklar)ning oliy organi.

**Gersog** (*nem.*) – eng yuqori dvoryan unvonlaridan biri; g‘arbiy Yevropada o‘rta asrlarning oxiri va yangi zamonda mulkdor knyaz hamda yuqori tabaqa dvoryanlar unvoni.

**Gomstedlar** (*ingl.*) – hovli-joy, tomorqa yer; AQSH, Avstraliya va Yangi Zelandiyada mustamlakachilik maqsadi bilan ko‘chib keluvchilarga bepul yoki ma‘lum imtiyoz bilan beriladigan hovli-joy, tomorqa-uchastka.

**Gomindan** (*xit.*) – milliy partiya; Xitoyda 1912-yil avgustida monarxiya ag‘darilgach, Sun-Yatsen boshchiligidagi Tunmenxey jamiyati bir necha liberal-burjua tashkilotlari bilan birlashib, Sun Yatsen boshchiligida antifeodal, antiimperialistik partiya sifatida Gomindan tuzilgan.

**“Guruch g‘alayonlari”** – 1918-yil avgust-sentabr oylarida Yaponiyadagi ommaviy-inqilobiy harakatlar.

**Davlat departamenti** – AQSHda Tashqi ishlar ministrligining rasmiy nomi.

**Davlat dumasi** – Rossiya samoderjaviesi tomonidan 1905–1907-yillar inqilobining tazyiqi ostida chorizmning siyosiy hokimiyatni tamomila o‘z qo‘lida saqlab qolgani holda, burjuaziya bilan ittifoq tuzish va mamlakatni burjua monarxiyasi yo‘liga solib yuborish uchun tashkil etilgan, cheklangan huquqqa ega bo‘lgan vakillik qonun chiqaruvchi muassasasi.

**Davlat kengashi** (Gossovet) – Rossiyada 1810-yildan boshlab oliy qonun chiqarishda kengash beruvchi, 1906–1917-yillarda esa rasman oliy qonun chiqaruvchi organ.

**Diktatura** (*lot.*) – cheklanmagan hokimiyat, hukmron sinfning o‘z sinfiy dushmanlari qarshiligini bostirish uchun shu sinf kuchiga bevosita suyanuvchi, hech narsa bilan cheklanmagan davlat hokimiyati.

**Direktoriya** (*lot., fr.*) – boshqarish, rahbarlik qilish; 1795–1799-yillarda Fransiyada davlat hokimiyatining rahbar organi. Direktoriya hukmronligi termidor konventidan boshlab Napoleon Bonapartning davlat to‘ntarishigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan.

**Jandarmeriya** (*frans. gendarmerie*) – harbiy tashkilotga ega bo‘lib mamlakat ichkarisida va armiyada soqchilik vazifalarini bajargan politsiya. Dastlab 1791-yil Fransiyada vujudga kelgan. 1815-yilda rus armiyasida jandarm qismlari tuzilgan. 1827–1917-yillarda Rossiyada siyosiy politsiya vazifasini bajaruvchi alohida jandarm korpusi mavjud bo‘lgan.

**Jandarmlar** (*fr. gens d’armes*) – qurollangan kishilar.

**Jentrilar** – yangi dvoryanlar, qo‘y boqib, yung sotib yuruvchi dvoryanlar.

**Jirondist** – XVIII asr oxiridagi fransuz burjua inqilobi davrida yirik burjuaziya manfaatlarini ko‘zlab feodalizmga qarshi kurashgan, ammo xalq ommasidan qo‘rqib, bu tuzumni inqilobiy yo‘l bilan o‘zgartirishni istamagan siyosiy guruhga mansub kishi; jirona partiyasining a‘zosi, 1791-yilgi qonun chiqaruvchi majlisda asosiy o‘rinni egallagan vakillarning ko‘pchiligi jirondalik bo‘lgani uchun shunday nom olgan. Jirondistlar – konstitutsiyaning kuchda qolishini talab qilgan yirik burjuaziya tarafdorlari.

**Zemskiy yig‘ilishlar** (Земские собрания) – (uyezd va guberniya yig‘ilishlari) – Rossiyada 1864–1917-yillarda farmoyish beruvchi muassasalar.

**Zemstvo boshlig‘i** (Земский начальник) – Oktabr davlat to‘ntarishidan oldin Rossiyada dvoryanlardan tayinlangan mansabdor shaxs. Chor Rossiyasida ma‘lum bir rayondagi dehqonlar ustidan qo‘yiladigan va ularni boshqarish, sud qilish huquqiga ega bo‘lgan mansabdor. Dehqonlar ustidan ma‘muriy va sud hokimiyati zemstvo boshlig‘i qo‘lida bo‘lgan. Zemstvo boshlig‘i dehqonlar ustidan krepostnik-pomeshchiklar hokimiyatini mustahkamlash uchun podsho Aleksandr III tomonidan 1889-yilda joriy etilgan. Har bir uyezdda bir nechadan zemstvo boshlig‘i bo‘lardi.

**Zemskiy** – umumdavlat, umumxalq, xalq lashkari; Zemskiy sobor (“Земский собор”); qadimgi Rossiyada toifali vakillar yig‘ilishi. “Земский союз” – Oktabr davlat to‘ntarishigacha burjua-demokratik dasturiga ega bo‘lgan mahalliy liberal arboblarning siyosiy tashkiloti.

**Zemstvo** – Chor Rossiyasida 1864-yilda dvoryan-burjua vakillaridan tashkil etilgan va mahalliy ishlarni boshqarib turgan muassasalar tizimi, guberniya yoki uyezdlardagi shu xildagi ayrim muassasa.

**Ikki partiyali tizim** – bir qancha demokratik davlatlarda rasm bo‘lgan siyosiy tizim; bunda 2 yetakchi partiya hokimiyat uchun kurash olib boradi (AQSHda – respublikachilar partiyasi bilan demokratlar partiyasi, Buyuk Britaniyada – Konservatorlar partiyasi bilan 1920-yillargacha Liberallar partiyasi, so‘ngra esa uning o‘rnini egallagan Leyboristlar partiyasi).

**Immunitet** (*lot.*) – o‘rta asrlarda g‘arbiy Yevropada feodalning muayyan hududda ayrim vazifalarni bajarish (sud qilish, soliq yig‘ish kabi) huquqi.

**Impichment** (*ing. impeachment*) – ayrim davlatlarda, masalan, AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiyada oliy mansabdor shaxslar (mamlakat prezidenti, hukumat boshlig‘i va sh.k.)ni javobgarlikka tortish va ularning jinoyatlari to‘g‘risidagi ishlarni sudda ko‘rib chiqishning alohida tartibi.

**Independentlar** (*ingl.*) – mustaqillar; XVII asrda ingliz burjua inqilobi davrida Oliver Kromvel (1599–1658) rahbarligida vujudga kelib, oʻrta savdo-sanoat burjuaziyasi va burjualashayotgan dvoryanlarning oʻrta tabaqasi manfaatlarini ifodalovchi siyosiy partiya.

**Inkvizitsiya** (*lot. inquisitio – qidiruv*) – katolik cherkovining sud-tergov tashkiloti; XIII asrda bidʼatchilarga qarshi kurashish maqsadida tuzilgan. XVIII-XIX asrlar davomida inkvizitsiya tugatildi.

**Inson va fuqaroning huquq va erkinliklari** – insonga bekam-u koʻst yashash imkoniyatini beruvchi va iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy sohalarda oʻz imkoniyat va talablarining amalga oshirilishini taʼminlovchi huquqiy maqom.

**Ispravnik** (*rus.*) – Chor Rossiyasida 1862-yildan to 1917-yilgacha gubernator tomonidan tayinlanib kelgan uyezd boshligʻi.

**Iyul monarxiyasi** – Fransiya tarixida Restavratsiya rejimi tugagach, 1830-yilgi iyul inqilobidan boshlab 1848-yil fevral inqilobigacha boʻlgan davr.

**Iyul ordonanslari** (*fr.*) – 1830-yil 25-iyulda fransuz qiroli Karl va knyaz J. Polinyak boshchiligidagi hukumat aʼzolari tomonidan eʼlon qilingan olti farmon (ordonanslar). Iyul ordonanslarida mamlakatda yarim absolyut tartibni va yirik dvoryan yer egalarining cheklanmagan hukmronligini oʻrnatish koʻzda tutilgan edi.

**Kadetlar** (*konstitutsion-demokratik partiya*) – Rossiyada liberal-monarxistik, imperialistik burjuaziyaning 1905-yil oktabrida tashkil topgan siyosiy partiyasi.

**Kavaleriya** (*frans. cavaleria*) – otliq askarlar, suvoriylar.

**Kayzer** – german imperatori.

**Kapitalizm** – xususiy mulk, bozor iqtisodiyoti va demokratik institutlarga asoslangan jamiyat turi.

**Kartel** (*fr.*) – monopoliya shakllaridan biri boʻlib, bir xil yoki bir-biriga yaqin boʻlgan mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar egalarining ittifoqi; yirik sanoat birlashmasi; sanoatning biron sohasida korxonalar egalarining bozorda tanho hukmronlik qilishi, oʻzaro raqobat qilmaslik, bahoni oshirish va eng koʻp foyda olish maqsadida tuzgan ittifoqi. Ayniqsa, Germaniyada kartel keng tarqalgandi. Agar 1865-yilda 4ta kartel mavjud boʻlsa, 1900-yilda 30ta; 1925-yilda 2100 kartel bor edi.

**Kodifikatsiya** – qonunlarni toʻplamlashtirish.

**Konstebel** (*ingl.*) – 1) Angliyada oʻrta asrlarda oliy saroy mansabi, dastlab “Buyuk otboqar”; 2) hozirgi Angliyada qalʼa yoki saroy komendanti; 3) Angliya va AQSHda politsiya mansabdorlaridan biri.

**Kommuna** (*fr. lot.*) – 1) feodalizm davrida uzoq kurash natijasida yirik feodal-senordan mustaqillikni qo‘lga kiritgan shahar; 2) Parij Kommunasasi – 1871-yil 18-martdan 28-maygacha hokimiyatni qo‘lda saqlagan birinchi proletariat diktaturasi; 3) umumiy mulk va mehnat asosida birlashgan odamlar jamoasi; kommunistik prinsiplarga asoslangan ijtimoiy tuzum; 4) qishloq xo‘jalik kommunasi – qishloq xo‘jalik kooperatsiyasining yuqori shakli. Qishloq xo‘jalik kommunasida hamma va har qanday ishlab chiqarish vositalari umumlashtiriladi.

**Konservatorlar** – eski tartiblar tarafdorlari bo‘lib, yer egalarining manfaatlarini himoya qilgan.

**Konsul** (*lot.*) – maslahatchi; 1) qadimgi Rim respublikasi davrida saylangan ikki mansabdorning unvoni; 2) Fransiyada XVIII asr oxirida Napoleon Bonapart to‘ntarishidan boshlab o‘zini imperator deb e‘lon qilguncha o‘tgan davrda cheksiz huquqqa ega bo‘lib, ijro etuvchi hokimiyatni qo‘lda saqlab turgan uch kishining unvoni (Napoleon Bonapart birinchi konsul edi); 3) boshqa biror davlatda o‘z davlati va o‘z mamlakati fuqarolarining manfaatlarini himoya qilish hamda shu davlat bilan diplomatik munosabat olib borish uchun tayinlangan elchi.

**Krepostnoy huquq** – feodal jamiyatida pomeschik yeriga biritilgan va unga qaram bo‘lgan dehqonlarga, ularning mehnati va mol-mulkiga cheksiz egalik qilish huquqi.

**Krepostnoy** – krepostnoy huquq bilan bog‘liq bo‘lgan dehqon; krepostnoy xo‘jalik.

**Ku-kluks-klan** (*ingl.*) – AQSHda reaksion fashistik-terrorchi tashkilot. U dastlab Amerikada fuqarolar urushida (1861–1865) quldorlar mag‘lubiyatga uchragach, janubiy shtatlarda quldor-plantatorlar tomonidan (1865) amalda negrlarning qulligini tiklash maqsadida tashkil qilingan.

**Legislatura** – koloniyalar vakillik idoralari.

**Legitimistlar** (*lot.*) – podshoparastlar, legitimizm tarafdorlari – “qonuniy” sulola tarafdorlari bo‘lgan monarxiyachilar; Fransiyada asosan katta zamindor aslzodalar va ruhoniylar yuqori tabaqasidan tashkil topgan. Legitimistlar partiyasi Fransiyada XVIII asr oxiridagi inqilob natijasida ag‘darib tashlangan Burbonlar sulolasini qo‘llab-quvvatlaganlar va bu sulolani restavratsiya qilishda ma‘lum rol o‘ynaganlar.

**Leyboristlar** (*ingl.*) – Angliyada 1900-yilda tashkil etilgan partiya nomi, u 1900-yilgacha “Ishchilar vakillari komiteti” deb atalgan.

**Lendlord** (*ingl.*) – Buyuk Britaniyada imtiyozli aslzodalar ichidan chiqqan pomeschik, katta yer egasi; lendlordlar fermerlarga yerni ijaraga berib, ko‘p daromad olardilar.

**“Le shapelbe” qonuni** – bu qonunda ishchilarning tashkilotlarga uyushishi, stachkalar qilishi taqiqlanib, bunday harakatlarga nisbatan jazolar belgilandi.

**Liberal partiya** (*lat.*) – Angliyada yirik va o‘rta burjuaziyaning partiyasi.

**Liberal demokratik partiya** – uning asosiy dasturi shaxs erkinligi hamda savdo erkinligini amalga oshirishdan iborat edi.

**Liberal** (*lot. liberalis*) – 1) dastlabki ma’nosi hur fikrli, erkin shaxs. Murosasoz ma’nosini ham anglatadi; 2) liberalizm izdoshi va tarafdori.

**Liberalizm** – XVII-XVIII asrlarda Yevropa mamlakatlarida yuzaga kelgan va fuqaroviy, siyosiy, iqtisodiy erkinliklarga oid asosiy qoidalarni e’lon qilgan g‘oyaviy va ijtimoiy-siyosiy oqim. Liberalizm J.Lokk, A.Smit, Sh.Monteske va boshqalarning mutlaq hokimiyatga qarshi qaratilgan nazariyalariga asoslanadi.

**Lokk (Locke) Jon** – ingliz faylasufi, liberalizm asoschisi.

**Lord** (*ing. Lord*) – 1) o‘rta asrlarda Angliyada dastlab yer egalarining nomi, keyinchalik ingliz oliy dvoryanlarining umumlashma unvoni. Britaniya parlamentida lordlar palatasini tashkil etuvchi qirollik per (Fransiya va Angliya oliy zodagonlari vakillarining nomi)lariga berilgan. XIX asrdan fan va madaniyat arboblari unvoni; 2) Buyuk Britaniyadagi ba’zi mansablarning tarkibiy qismi (masalan, lord-kansler – lordlar palatasining raisi, lord-mer – London hamda boshqa yirik shaharlarda mahalliy hukumat idoralari boshlig‘i).

**“Meydzi inqilobi”** – feodal boshqarish tizimini tugatgan, biroq tamom bo‘lmagan inqilob. U siyosiy hokimiyatning daymyo va syogunlardan imperator, yarim feodal pomeschiklar va burjuaziya qo‘liga o‘tishini ta’minladi.

**Mayorat** (*nem.*) – Angliya, Fransiya, Germaniya kabi ba’zi bir mamlakatlarda feodalizm zamonidan qolgan bo‘linmas vorislik tartibi.

**Maxfiy kengash** – Angliya qirollari huzuridagi kengash; Maxfiy kengash a’zolarini qirol ministrlardan, yirik mansabdorlar va oliy ruhoniylardan tayinlardi.

**Mesdiminor** – mayda jinoyatlar.

**Metropoliya** – hukmron davlat; boshqa mamlakatlarni bosib olib mustamlakaga aylantirgan va ularni ekspluatatsiya qiluvchi davlat; mustamlakalarga ega bo‘lgan mamlakatning o‘zi.

**Milliy gvardiya** – fransuz burjua inqilobi davrida tuzilgan, saylab qo‘yilgan qo‘mondonligi bo‘lgan qurolli fuqarolar lashkari.

**“Muqaddas ittifoq”** – Napoleon I imperiyasi tugatilgach 1815-yil 26-sentabrda Parijda Avstriya, Prussiya va Rossiya monarxlari o‘rtasida tuzilgan va 1833-yilgacha davom etgan reaksion ittifoq. “Muqaddas ittifoq” tashkil topgach, ko‘p o‘tmay unga Fransiya va boshqa ba’zi davlatlar ham kirgan. “Muqaddas ittifoq” 1814-1815-yillarda Vena kongressida belgilangan chegaralarning daxlsizligini ta’minlash, inqilobiy va milliy ozodlik harakatlariga qarshi kurash olib borishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘ygan.

**Narodniklik**, narodniklar – XIX asrning 60-70-yillarida rus inqilobiy harakatida mayda burjua oqimi. Narodniklar asosan ziyolilarga mansub bo‘lgan raznochinets (turli toifa)lardan tashkil topgan edi.

**Natsional-liberallar** (*nem.*) – Germaniyada 1866–1918-yillarda yirik sanoat va savdo burjuaziyasining manfaatlarini ifodalagan siyosiy partiya; u 1918-yil oxirida “Xalq partiyasi” degan yangi nom olgan.

**Nigilizm** (*lot.*) – nigilistik ideologiya, ijtimoiy normalarni, prinsiplarni, odamzod tomonidan yaratilgan hamma narsalarni, jumladan, madaniy merosni, milliy madaniyatni, xalqlarning milliy mustaqilligi va shu kabilarni asossiz ravishda inkor qilish.

**“Oktabr Manifesti”** (1905-yil 17-oktabr) – Nikolay II tomonidan 1905-yil Oktabr siyosiy stachkasi kunlarida e‘lon qilingan manifest. Podsho xalqqa “fuqarolik erkinliklari” va “qonun chiqaruvchi дума” va’da qilgan. Ammo podsho hukumati stachkalarni to‘xtatish, so‘ngra inqilobni tor-mor keltirish uchun “Oktabr manifesti”dan siyosiy nayrang sifatida foydalanishni ko‘zda tutgan edi.

**Oktabristlar** – Rossiyada yirik savdo-sanoat burjuaziyasi va yirik pomeshchiklar faoliyatini ifodalovchi rus o‘ng burjua-monarxist aksilinqilobiy partiya.

**Pangermanizm** – XIX asrda german burjuaziyasi va yunkerlarning eng tajovuzkor namoyandalari tomonidan ilgari surilgan reaksion, shovinistik siyosiy doktrina. Pangermanistlar mustamlakalarni qayta taqsimlashni, boshqa xalqlar, asosan slavyanlarning yerlarini bosib olish hisobiga Germaniya imperiyasini zo‘r berib kengaytirish va “Ulug‘ Germaniya” vujudga keltirishni talab qildilar. 1891-yilda pangermanistlar Pangerman ittifoqini tuzdilar. Pangermanistlar nemislarning jahondagi barcha xalqlardan ustunligi haqidagi insoniyatga qarshi qaratilgan irqiy “nazariya”ni targ‘ib qildilar.

**Pandekt** – rim huquqini rasmiy dogmatik asoslarda o‘rganuvchi fan.

**“Pandekt huquqi”** – hozirgi zamon Rim huquqi.



**Parlamentarizm** – hokimiyatlar tizimida rasman parlament asosiy rol o‘ynaydigan davlat tuzumi.

**Pendlton qonuni** – 1883-yilda qabul qilingan AQSH parlamentining fuqaro xizmatini takomillashtirish to‘g‘risidagi qonuni. Bunga ko‘ra AQSHning barcha amaldorlari da‘vo qilinayotgan mansabga tanlov asosida qabul qilinishi, imtihonlar amaliy xarakterga ega bo‘lishi, barcha mansablar tanlov asosida eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan kishilar orasidan tanlab olinishi, mansabga tasdiqlash oldidan sinov muddatini o‘tashi belgilandi.

**Prezident** (*lot. praesidens – oldinda o‘tiruvchi*) – 1) hozirgi ko‘pchilik respublika shaklida idora qilinadigan mamlakatlarda saylab qo‘yiladigan davlat boshlig‘i; 2) ayrim ilmiy va jamoat tashkilotlarida, partiyalar, jamiyatlar, uyushmalar (shu jumladan, xalqaro uyushmalarda ham)da ijrochi organ boshlig‘i.

**Prezidentlik boshqaruvi** – favqulodda holatlar joriy etilganda davlat boshqaruvida qo‘llaniladigan vaqtinchalik boshqaruv shakli. U asosan federativ tuzilishdagi davlat boshqaruvi (masalan, AQSH, Hindiston)da qo‘llaniladi. Subyektlar federal konstitutsiya yoki qonunlarni, hukumatning qonuniy talablarini buzganda, inson huquqlari poymol etilganda, jiddiy tartibsizliklar ro‘y berganda, federativ davlatning yagonaligiga xavf solinganda, kuchli zilzila, suv toshqinlari va shu kabilarda amalga oshiriladi. Prezidentlik boshqaruvi davlat boshlig‘ining maxsus farmoni (dekreti) bilan e‘lon qilinadi. Prezidentlik boshqaruvi paytida tegishli davlat hokimiyati va boshqaruv organlari vakolatlari to‘xtatiladi, ularning vazifasini bajarish prezident tuzadigan organ yoki prezident tayinlagan mansabdor shaxs zimmasiga yuklanadi.

**Puritanlar** (*ingl.*) – XVI-XVII asrlarda Angliya va Shotlandiyadagi kalvinizm tarafdorlari; puritanlar burjuaziya va yangi dvoryanlar manfaatlarini ko‘zlab absolutizmga va anglikan cherkoviga qarshi chiqqanlar. Puritanlar ancha mo‘tadil presveterianlarga va keskin choralar ko‘rishni talab etuvchi ancha radikallar – independentlarga bo‘lingan. Puritanlar XVII asr ingliz burjua inqilobini tayyorlash va o‘tkazishda katta rol o‘ynaganlar.

**Reyxskansler** (*nem.*) – davlat kansleri, imperiya kansleri, 1871–1945-yillarda Germaniyada hukumat boshlig‘ining unvoni. Imperiya davrida (1871–1919) reyxskansler pruss yuqori byurokratlaridan imperator tomonidan tayinlanar va faqat uning oldida javobgar bo‘lar edi. Respublika davrida (1919–1933) prezident tomonidan tayinlanadigan reyxskansler parlament kabineti boshlig‘i hisoblanar va o‘zi tutayotgan siyosiy yo‘l haqida Reyxstag oldida javobgar bo‘lar edi.

**Reyxsrat** (*nem.*) – 1) sobiq Avstriya-Vengriya imperiyasida ikki palatali parlament; 2) federatsiyali tartib mavjud bo‘lgan Germaniya respublikasida (1919–1934) o‘lkalar vakillari kengashi amal qilgan davrda turli joylar yuqori palatasi.

**Reyxstag** (*nem. Reichstag*) – “German millatining Muqaddas Rim imperiyasi”da markaziy hokimiyat organlaridan biri yoki imperiya seymi, Shimoliy German Ittifoqida 1867-yildan boshlab Germaniya parlamenti, 1871-yilda esa Germaniya imperiyasining parlamenti, Kayzer imperiyasi halokatidan so‘ng Veymar respublikasi (1919) deb atalgan respublikaning parlamenti bo‘lib qolgan. Markaziy hokimiyatning qonun chiqaruvchi organi quyi palatasi.

**Respublika** (*lot. respublica, res – ish va publicus – ijtimoiy, umumxalq*) – davlat boshqaruvi shakli, unda barcha davlat hokimiyati organlari saylab qo‘yiladi yoki umummilliy vakolatli muassasalar (parlamentlar) tomonidan shakllantiriladi, fuqarolar esa shaxsiy va siyosiy huquqlarga ega bo‘ladilar.

**Samoderjaviya** – monarxning cheklanmagan hokimiyatiga asoslangan davlat tuzumi, mustabid hokimiyat; inqilobdan oldingi Rossiyada dvoryan-pomeshchiklar diktaturasi; XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab pomeshchiklar va burjuaziya diktaturasini amalga oshiruvchi siyosiy tuzum; absolutizm.

**Samuraylar** – Yaponiyada imtiyozli dvoryan-harbiylar kastasining a‘zosi, ritsar.

**Sekularizatsiya** (*lot.*) – cherkov mulklari (ko‘pincha yer)ni davlat ixtiyoriga olish.

**Senat** (*lot.*) – AQSH, Fransiya va boshqa ba‘zi mamlakatlarda yuqori palata.

**“Taypin tyango”**– Umumiy baxt-farovonlik ilohiy davlati.

**Torilar** (*ingl.*) – Angliyada katta yer egalari – dvoryanlar va ruhoniylarning manfaatlarini ifodalovchi siyosiy partiya; qirol tarafdorlari. XVII asr 70-yillarining oxiri 80-yillarining boshlarida yuzaga kelgan.

**Tred-yunionizm** (*ingl.*) – ishchilar harakatida proletariat partiyasining rahbarlik rolini inkor etuvchi, siyosiy kurashdan bosh tortuvchi va ishchilar sinfi rahbarlarini burjuaziya bilan hamkorlik qilishga olib kelgan mayda burjua oqimi. Angliya va AQSHda kasaba ittifoqlarining nomi. Angliyada tred-yunionizm birinchi marta 1824-yilda asosan malakali ishchilar o‘rtasida o‘zaro yordam jamiyati shaklida vujudga kelgan.

**Trest** (*ingl.*) – monopoliyalarning asosiy shakllaridan biri. Trestning kartel va sindikatlardan farqi shundaki, shu birlashmaga kirgan korxonalar savdo va ishlab chiqarishdagi mustaqilligini yo‘qotib, yagona boshqarmaga bo‘ysunadilar. Korxonalarning sobiq egalari paychiga aylanadilar. Ular o‘zlari qo‘shgan kapitalning miqdoriga qarab daromad oladilar.

**Trizn** – xoinlik.

**“Tuzilish haqidagi akt”** – 1701-yil 12-iyundagi qonun bo‘lib, bu “Taxt vorisligi to‘g‘risidagi akt” ham deyiladi.

**Tyudorlar** (Tudor) – Angliyadagi qirollar sulolasi (1485–1603). Qizil va Oq gullar urushidan so‘ng hokimiyat tepasiga kelgan. Yangi dvoryanlar va shahar burjuaziyasiga tayangan.

**Tyan van** – samoviy podsho.

**Unifikatsiya** – yagonalashtirish.

**Fabrika** (*lot. fabrica – ustaxona*) – mashina tizimlarini qo‘llashga asoslangan sanoat korxonasi, yirik mashinalashgan ishlab chiqarish shakli. Fabrika XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi choragida paydo bo‘ldi.

**Fashizm** (*ital.*) – oshkora terroristik diktatura shakllaridan biri. Fashizm demokratiyani yo‘q qilishga, shafqatsiz terror qilish, irqiy jihatdan ta‘qib etish, vahshiyona tajovuzkorlik yo‘li bilan xalqlarni qullikka solishga qaratilgan kuch; Birinchi jahon urushi (1914–1918) vaqtida vujudga kelgan ashaddiy reaksiya oqimi.

**Favqulodda holat** – davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining, korxonalarning, muassasalarning va tashkilotlarning alohida ish rejimi. Bunda fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda yuridik shaxslarning huquqlariga maxsus qonun bilan belgilangan cheklashlarga yo‘l qo‘yiladi, shuningdek ularga qo‘shimcha majburiyatlar yuklanishi mumkin. Favqulodda holat odatda vaqtinchalik tadbir bo‘lib, real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, ichki qurolli mojarolar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiyalar yuz bergan taqdirda fuqarolarning xavfsizligini ta‘minlashni ko‘zlab joriy etiladi.

**Feloniya** – og‘ir jinoyatlar.

**Fuqarolik** – shaxsning muayyan davlat bilan doimiy siyosiy huquqiy aloqasi; bu aloqa shaxs va davlatning o‘zaro huquq va majburiyatlarida ifodalanadi.

**Fuqarolik kodeksi** – fuqarolik huquqining eng muhim va asosiy qoidalarini belgilaydigan kodifikatsiyalashtirilgan normalardan iborat qonun hujjati.

**“Xalq sotsialistlari”** – mayda burjuaziya partiyasi. Xalq sotsialistlari Rossiyada 1906-yil eserlarning o‘ng qanotidan ajralib chiqishi natijasida tashkil topgan; qishloqda quloqlar yuqori tabaqasining manfaatlarini himoya qilgan, uning vakillari Sovet hokimiyatiga qarshi kurashdilar.

**Xartiya** (*yun.*) – ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan ba’zi bir hujjatlar nomi. Angliyada erkinliklarning buyuk xartiyasi; 1814-yilda Fransiya Konstitutsiyasi xartiya deb atalgan.

**Xomashyo** – konlardan olingan foydali qazilmalar va boshqa tabiiy resurslar, ulardan ishlab chiqarilgan va yana ishlov talab etadigan mahsulotlar.

**Chartistlar** – Angliyada ishchilar harakati.

**“Shaharlar haqidagi nizom”** – Rossiyada 1870-yil 16-iyunda qabul qilingan Nizom. Bunga ko‘ra shahar majlisi, shahar dumasini va uning ijroiya organi shahar upravalari tashkil qilingan.

**Shtreykbrexerlar** (*nem.*) – korxonalar egalari tomonidan ishchilarning sinfiy hamkorligini buzish va stachkada qatnashishdan bosh tortish yoki ish tashlagan ishchilar o‘rniga ishlatish uchun jalb etilgan shaxslar.

**Sezarizm** (*lot.*) – xalq huquqi prinsiplarini rasman e‘tirof qiluvchi bir shaxsning tanho diktaturasi – Yuliy Sezardan boshlangan (mil. avv. 100–44) siyosiy tizim. Sezarizm zaminida avvalgi respublika muassasalari mavjud bo‘lsa-da, ammo diktator qo‘lida itoatkor qurol bo‘lib qolgan. Sezarizm tizimi Fransiyada Napoleon I va Napoleon III tomonidan tiklangan.

**Yunkerlar**, yunkerlik – Prussiya va Germaniyada katta yer egalari, pomeshchiklar; yunkerlar ashaddiy reaksiya, shovinizm tayanchlaridan biri. Yunkerlar Germaniyada fashistlarning hokimiyat tepasiga kelishiga yordam qilganlar.

**Yakobinchilar** – ular montanyarlar ham deb atalib, rahbarlari Robesper, Marat bo‘lib, mayda burjuaziya vakillari sifatida demokratik kayfiyatda edilar.


**Qora guruhchilar** (черносотенцы) – Chor Rossiyasida “qora guruhchi” (“чёрная сотня”) deb atalgan, podsho hukumati tomonidan inqilobiy harakatlarga qarshi kurash maqsadida 1905–1907-yillarda tuzilgan inqilobiy-monarxistik pogromchi tashkilotlar (“Mixail Arxangel ittifoqi”, “Rus xalqi ittifoqi”ning ishtirokchilari). Qora guruhchilar monarxistik namoyishlar uyushtirar, yahudiylarni pogrom – qirg‘in qilar, inqilobiy ishchilar, studentlar, taraqqiyparvar arboblardan bilan o‘chakishar va ularni kaltaklashni uyushtirar edilar. Qora guruhchilar pogromchiligi Stolipin reaksiyasi yillarida (1908–1912) keng avj oldi.

## I BOB. YANGI DAVRDA ANGLIYA

*XVII asrdagi ingliz inqilobi va Angliya davlat tuzumidagi o'zgarishlar. Stuartlar sulolasining qayta tiklanishi. "Shonli inqilob" va uning oqibatlari. XVIII asrda konstitutsiyaviy monarxiyaning rivojlanishi. Saylov islohotlari. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Angliyaning siyosiy tuzumidagi o'zgarishlar. Ijroiya hokimiyatning kuchayishi. Britan mustamlakachilik imperiyasi.*

### 1-§. XVII asrdagi ingliz inqilobi va Angliya davlat tuzumidagi o'zgarishlar


#### XVII asrdagi ingliz burjua inqilobining xususiyatlari va asosiy bosqichlari



namoyon bo'lgan.

Harakatning mafkuraviy ko'rinishini o'rta asrlardagi ijtimoiy harakatlar uchun xarakterli bo'lgan hukmron cherkovni isloh qilish va eski urf-odatlar va erkinliklarni qayta tiklash tashkil etgan. Shular bilan bir qatorda, ingliz burjua inqilobida ilk bora yangi davr burjua inqiloblari rivojlanishining asosiy qonuniyatlari yaqqol

Shu bois ingliz inqilobi Buyuk fransuz burjua inqilobining timsoli degan nom olgan.




Ingliz burjua inqilobida burjuaziyaning yangi dvoryanlar bilan ittifoqi natijasida bu inqilob tugallanmay, oxiriga yetmay qoldi. Oqibatda inqilobning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy yutuqlari ham to'liq bo'lmadi.


Lendlordlarga qarashli yirik yer egaligining saqlanib qolganligi, yerlarni dehqonlarga bermay, agrar masalaning hal qilinishi – ingliz inqilobining iqtisodiy sohada tugallanmaganligini ko'rsatardi. Siyosiy sohada burjuaziya hokimiyatni yangi yer aristokratiyasi bilan bo'lib olishiga to'g'ri keldi. Bunda yer aristokratiyasi dastlab hal qiluvchi rol o'ynardi. Buning natijasida Angliyada burjua, konstitutsiyaviy monarxiya paydo bo'lib, unda vakillik organi bilan bir qatorda feodal muassasalar, jumladan, kuchli qirol hokimiyati, lordlar palatasi, Yashirin kengash saqlanib qolgan. Keyinchalik XVIII va XIX asrlardagi agrar hamda sanoat to'ntarishlari natijasida kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari hukmron bo'lib qoldi va siyosiy hokimiyatda sanoat burjuaziyasi rahbarlikni qo'lga oldi. Bu vaqt mobaynida Britaniyaning yarim feodal, aristokratik siyosiy tizimi asta-sekin burjua-demokratik tizimiga aylanib bordi.

**Siyosiy oqimlar.** Inqilob arafasi davomida ikkita qarama-qarshi siyosiy va diniy konsepsiyalarni, shuningdek turli ijtimoiy manfaatlarni ifodalovchi ikkita lager shakllandi.

Angliyada absolutizm asoslarini himoya qilishda va muxolifatni cherkov byurokratik apparati bilan bostirib turishda ingliz cherkovi muhim rol o‘ynadi. Shuning uchun ham burjuaziyaning ijtimoiy-siyosiy talablari diniy niqoblangan edi.



Shu bilan birga inqilobiy lager ijtimoiy jihatdan ham, diniy e‘tiqod nuqtayi nazaridan ham yagona bo‘lmagan. Inqilob davomida puritanlar lageri uchta asosiy oqimga: **presviterianlar**, **independentlar** va **levellerlarga** bo‘linib ketgan.



Angliya inqilobi qirol va parlamentning an'anaviy o'zaro bir-biriga qarama-qarshiligidan rivojlangan. Inqilob dasturining muhim (siyosiy) qismi parlament muxolifati tomonidan XVII asrning 20-yillaridayoq

### **1628 yilgi Huquq to'g'risidagi petitsiyadagi talablar**

1. Aholi parlament tasdig'idan o'tmagan zayomlar olishga va soliqlar to'lashga majbur etilmasligi lozim.
2. Sudning qonuniy hukmisiz va mamlakat qonunidan tashqari hech kim qamoqqa olinishi va mulkidan mahrum qilinishi mumkin emas.
3. Harbiy davr qonunlari asosida fuqarolarni qamash to'xtatilishi lozim.
4. Qo'shinlarning aholi uylarida turish tartibi tugatilishi lozim.

absolutizmning iqtisodiy va siyosiy inqirozi keskinlashuvi darajasiga qarab tayyorlangan edi.

Parlament **1628-yilda Huquq to'g'risidagi petitsiyani** e'lon qilib, unda qirol ma'muriyati suiiste'molliklarini sanab o'tdi va o'zining qator talablarini ilgari surdi. Shunday qilib, Petitsiyada inqilobning asosiy siyosiy masalasi bo'lgan qirolning fuqarolar hayoti va mulkiga nisbatan huquqlari haqidagi masala – xususiy mulkning daxlsizligi

haqidagi masala ham ko'tarilgan edi. Unda “mulkni himoya qilish qonun va odil sudning asl maqsadidir“ deb qayt etiladi.

Parlament muxolifatining talablari parlamentning tarqatib yuborilishiga va (1629–1640-yillarda) parlamentsiz idora qilinishi boshlanishiga olib keldi. Bu davrda qirol xazinani to'ldirish uchun barcha yangi yig'img'lar va jarimalarni yakka o'zi joriy qilgan, mamlakatdagi norozilik chiqishlarini favqulodda sudlar yordamida bostirib turgan. Biroq Shotlandiya bilan urush boshlanishi natijasida qirol yangi parlamentga murojaat qilishga majbur bo'ldi. 1637-yilda Shotlandiyada qo'zg'olon ko'tarilib, bunga sabab Karl Ining bu yerda absolutizm tartiblarini o'rnatishga intilishi bo'lgan edi. Xazinaning bo'shab qolganligi uchun qirol 1640-yil 13-aprelda parlament chaqirdi. Lekin u qirolning umidini chippakka chiqardi. Parlament qirolning pul so'rab qilgan murojaatiga javoban “qirol maslahatchilari”ni, ya'ni ministrnlarni jazolash va parlamentsiz idora yillarida hukumat tomonidan qilgan suiiste'molliklarni to'xtatish to'g'risida talab qo'ydi. Parlament Shotlandiya bilan urushni davom ettirishga pul ajratmadi, balki shotlandlar bilan bevosita muzokara boshladi. Shundan keyin Karl I bu parlamentni ham tezda (1640-yil 5-mayda) tarqatib yubordi. Bu parlament ozgina vaqt (2 hafta) davom etgani uchun **Qisqa parlament** deb nom oldi.



1640-yil bahori va yozidan e'tiboran dehqonlar harakati yanada kuchaydi. Parlament tarqatildandan keyin shotlandlar yana hujum boshladilar. 1640-yilning kuziga kelib Karl Ining ahvoli juda tang bo'lib qoldi, Shuning uchun 1640-yil 3-noyabrda yana parlamentni chaqirishga majbur bo'ldi. 1653-yil aprelogacha faoliyat ko'rsatgan mazkur parlament **Uzoq parlament** degan nom oldi. Unda presvityerianlar hukmron mavqeni egalladilar. Uzoq parlamentning faoliyati bilan inqilobning birinchi – konstitutsiyaviy bosqichi boshlandi.

### **Eslab qoling!**

#### **Ingliz inqilobi bosqichlari:**

- 1) Konstitutsiyaviy bosqich (1640-yil 3-noyabrdan 1642-yil 22-avgustgacha);
- 2) Birinchi fuqarolar urushi davri (1642–1646 yillar);
- 3) Inqilobning demokratik mazmunini chuqurlashtirish uchun kurash davri (1646–1649 yillar);
- 4) Independentlar respublikasi davri (1649–1653 yillar).

1640–1641-yillar mobaynida parlament qirolidan qator muhim huquqiy hujjatlarni tasdiqlab olishga muvaffaq bo'ldi. Hammadan avval umumpalatasining tashabbusi bilan Karl I ning asosiy maslahatchilari – graf Strafford, arxiyepiskop Lod qatl etildilar, shuningdek hukumatning boshqa eng faol bir qancha arboblari qamoqqa olindi va qatl etildi. Shu tariqa parlamentning oliy mansabdor shaxslariga nisbatan impichment huquqi o'rnatildi.


**1641-yil 16-fevralda “Uch yillik akt”** qabul qilinib, *unga ko'ra parlament har uch yilda kamida bir marta chaqirilib turishi belgilandi, agar bunga qirol norozi bo'lsa, parlament boshqa shaxslar (pyerlar, sheriflar) tomonidan chaqirilishi mumkin edi. Shuningdek, parlament chaqirilgach uni 50 kun ichida tarqatib yuborilmasligi; uzoq parlamentning majlislarini parlamentning o'zi tomonidan chiqariladigan hujjatdan tashqari uzib qo'yish, kechiktirish va tarqatib yuborish taqiqlanishi to'g'risida qoidalar o'rnatildi.*

Shu tariqa, parlamentsiz boshqaruvga qaytish imkoniyati cheklandi. Nihoyat 1641-yil iyulida Yashirin kengashning sud ishlarini yuritish sohasidagi vakolatlarini cheklovchi va favqulodda tribunalar tizimini, avvalo, Yulduz palatasi va yuqori komissiyani tugatishni nazarda tutuvchi ikkita hujjat qabul qilindi. 1641-yilning yozida qabul qilingan bir qator hujjatlar bilan fuqarolar mulkning daxlsizligi e'lon qilindi, qirol o'zboshimchalik bilan turli jarimalar solish huquqidan mahrum etildi.

**1641-yil 1-dekabrida qabul qilingan “Buyuk Remonstratsiya”** inqilobning dasturiy hujjati bo‘lib qoldi. Xususan, unda qirol bundan buyon muhim davlat mansablariga parlament ishonchini qozongan kishilarni qo‘yishi lozimligi belgilandi.

Bu aslida mansabdor shaxslarning parlament oldidagi siyosiy javobgarligini anglatib, qirol tomonidan uning asosiy imtiyoziga, ijroiya hokimiyatiga hujum sifatida qabul qilindi. Qirol Ulug‘ remonstratsiyani tasdiqlashni rad etdi.

**Parlamentning** 1641-yilgi hujjatlari qirolning mutlaq yakka hokimligini cheklashga qaratildi hamda ma’lum ko‘rinishlardagi konstitutsiyaviy monarxiyaga o‘tishni anglatar edi. Biroq burjua davlatining bunday shakli qirol va parlament o‘rtasida fuqarolar urushining (1642–1647-yillarda va 1648–1649-yillarda) boshlanishi munosabati bilan amalda o‘rnatilmay qolgan edi.



Shu tariqa bir tomondan parlament, ikkinchi tomondan, qirol Angliyaning turli hududlarini nazorat qilib, o‘z hududlarida to‘la qonun chiqarish va ma’muriyatchilik vakolatlaridan foydalandilar. Bu davrda qirol va parlament faoliyatining asosiy yo‘nalishi o‘z armiyalarini tashkil etish bo‘lib qolgan edi. Parlament nazorat qilib turgan hududda qonun chiqarish va ijroiya hokimiyat to‘liq unga tegishli edi. Parlament bu vaqtda mavjud harbiy tizimni isloh qilishni nazarda tutuvchi qator qonun va ordonanslar chiqardi. 1642-yilda parlament **“Militsiya haqidagi ordonans”**ni bir necha marta tasdiqlasa ham, lekin u qirol tomonidan imzolanmadi. *Ushbu ordonansga ko‘ra, xalq lashkarlarining qo‘mondonlari faqat parlament roziligi bilan tayinlanar va faqat parlament oldida javobgar edilar.* Qirol bunga javoban **Proklamatsiya** chiqarib, *xalq lashkarlarining qirolning ruxsatisiz parlament xohishicha, harakat qilishini taqiqladi.* Parlament 1642-yil yozda “Protestatsiya” deb nomlangan hujjat qabul qilib, unda qirol dan yana “Militsiya haqidagi ordonans”ni tasdiqlashni talab qildi va qirolga o‘n to‘qqiz taklif deb atalgan hujjat – **Buyuk remonstratsiyada** qo‘yilgan asosiy talablarning

qisqacha ro'yxati yuborildi. *Parlament Maxfiy kengash a'zolari, yuqori lavozimli shaxslar va qolgan boshliqlarni qirol tomonidan faqat parlament roziligi bilan tayinlanishini, bundan buyon katoliklarga qarshi qaratilgan qonunlarga qat'iy rioya qilinishini, papa tarafdorlarining lordlar palatasidan chiqarilishini va yangi pyerlar parlamentning ikkala palatasi roziligi bilan tayinlanishini talab qildi. Nihoyat qirol dan cherkovni isloh qilishga rozilik berishni va parlamentga "delinkventlar"ni (jinoyatchilarni), ya'ni Londondan qochib, qirolga qo'shilgan va o'zlarini royalistlar deb atagan kishilarni, ya'ni parlament dushmanlarini parlament ixtiyoriga topshirilishini talab qildi.*

Qirol bu talablarni rad qildi. Bu javob fuqarolar urushini muqarrar qilib qo'ydi. Parlament o'z armiyasini ta'minlash va boshqa harbiy xarajatlarni qoplash uchun zarur mablag'lar topish maqsadida delinkventlarning yerlarini musodara qilish to'g'risida qaror qabul qildi. Uzoq parlamentning agrar sohadagi qonunlariga ana shu tarzda asos solingan edi.

1642-yil yozida Karl I parlamentga qarshi urush e'lon qildi. Bunda qirol tarafida feodal qoloq shimoliy va g'arbiy grafliklar, shuningdek ingliz cherkovi turgan. Ular "kavalerlar" degan umumiy laqabni oldi.

Parlament tarafida iqtisodiy rivojlangan markazlar turgan. Parlament tarafdorlari "dumaloq boshlar" (sochi olinganlar) deb atalgan edi.

### **Eslab qoling!**

Fuqarolar urushi davomida, 1645-yil 28-yanvarida parlament (quyi palata) armiyani isloh qilish, ya'ni "**yangi model**"dagi **armiya** tuzish haqida ordonans qabul qildi.

*Bunga asosan, grafliklar mablag'i hisobiga saqlanadigan ayrim otryadlar o'rniga parlament tomonidan ajratiladigan mablag'lar hisobiga saqlanadigan doimiy armiya tuzilib, u yagona qo'mondonlik ostiga qo'yildi. "Yangi xil" armiya davlat hisobidan saqlanadigan bo'ldi. Unga inqilobiy xalq qo'shildi. Bu armiyaning askarlari asosan erkin dehqonlar va hunarmandlardan iborat edi. Yuqori qo'mondonlar tarkibi asosan dvoryanlardan iborat bo'lib, kichik va o'rta darajali qo'mondonlarning ancha qismi xalq orasidan yetishib chiqqan kishilar edi. Ofitserlik lavozimiga ijtimoiy kelib chiqishi bo'yicha emas, shaxsiy qobiliyatiga qarab tayinlanadigan bo'ldi. Bu tadbirlar parlament armiyasini intizomli va jangovar armiyaga aylanishiga olib keldi. O.Kromvel tomonidan qayta tuzilgan ushbu armiya 1645-yil 14-iyunda Nezbi yonida qirol armiyasi ustidan qat'iy g'alaba qozondi.*

**Birinchi fuqarolar urushi davrida** uzoq parlament tomonidan boshqa **qator muhim islohotlar ham o'tkazilgan**. Bular inqilobning presviterian-independentlar yuqori qismining "nazorati ostida" chuqurlashib borganligidan dalolat berardi. *1643-yil kuzida yepiskoplik tugatildi, ya'ni eski anglikan davlat cherkovi bekor qilindi va yangi davlat cherkovi – presviterian cherkovi joriy etildi. Yepiskoplar va royalistlar yerlari davlat tomonidan musodara qilinib, sotuvga qo'yildi.* Bunday tadbirlar natijasida yer mulkining anchagina qismi burjuaziya va jentri qo'liga o'tdi. Bu yerlarning Yangi huquqiy holati 1646-yil fevralida chiqarilgan Akt bilan mustahkamlandi. Unga ko'ra, ritsarlarning **yer-mulki** va shu asosda qirol foydasiga bajariladigan majburiyatlar bekor qilindi. Ilgari Angliyada barcha katta yer-mulklar qirolga ritsar bo'lib xizmat qilish yoki (XVII asrda) bunday xizmat o'rniga pul to'lash sharti bilan qirol tomonidan beriladigan feodal yer-mulklar hisoblanardi. Endi bu to'lovlarning hammasi bekor qilinadi va bu bilan ritsarlarning yer-mulki hech qanday shartlar bilan bog'lanmagan batamom "burjua mulki" bo'lgan erga o'xshab qoladi. Ammo parlament katta yer egalarining feodal asosda yer-mulk tutishini bekor qilsa ham, lekin kopigolder-dehqonlar katta yer egalariga bo'lgan feodal qaramligini bekor qilmadi. Binobarin, "yerga kopya asosida egalik qiluvchilar" umumiy huquq deb atalgan huquq asosida emas, balki feodal huquq asosida ish olib boruvchi yer egasi bo'lishi bilan birga, manor lordlariga ilgarigidek soliq to'lashlari va turli majburiyatlarni bajarishlari kerak edi. Shunday qilib, pomeschiklar o'zlariga qarashli yerlarni xususiy mulkka aylantirib olishdan iborat burjuacha huquqqa ega bo'lib olib, dehqonlarning yerlarini ilgarigidek o'z qaramog'larida saqlab qoldilar, ya'ni feodal mulkka aylantirdilar. Shu tariqa agrar masala faqat burjuaziya va yangi dvoryanlar foydasini ko'zlab bir tomonlama hal qilindi. Ritsarlarning yer-mulklari vassal majburiyatlardan ozod etildi, biroq kopigold saqlanib qoldi. Kopigolder-dehqonlar yer egalari bo'lmay, balki lendlordlarga qaram bo'lib qolaverdi. Bundan tashqari, dehqonlarning asosiy ommasi yerga egalik qila olmas edi, chunki yerlar juda yuqori narxlarda sotuvga qo'yilgandi. Nihoyat, parlament dehqonlar yerlariga g'ov tutilishining qonuniyligini tasdiqlagan edi.

Urushning tugashi va qirolning asirga olinishi parlamentda presviterianlar va independentlarning asosiy ommasi o'rtasidagi kurashni yanada keskinlashtirdi. Presviterianlarning qirolni ochiqdan ochiq qo'llab quvvatlab chiqishlari ikkinchi fuqarolar urushiga olib keldi. 1648-yil dekabrda independent rahbarlar armiyadagi "levellerlik" kayfiyatlari kuchayganligini hisobga olib, parlamentni 140ta presviteriandan tozaladi. Siyosiy hokimiyat independentlar qo'liga o'tdi.

**1649-yil 4-yanvarda** umumpalata o'zini Angliyada oliy hokimiyat egasi, uning qarorlari qirol va lordlar palatasining roziligisiz qonun kuchiga ega deb e'lon qildi. Ko'p o'tmay, 1649-yil 27-yanvarda oliy sud qirolni o'lim jazosiga hukm qildi. Hukm 30-yanvarda ijro etildi. Karl Stuartning kallasi tanasidan judo qilindi.

Oradan bir hafta o'tgach, umumpalataga ikkita qonun loyihasi kiritiladi, ulardan biri "mustabid hokimiyatning tarmog'i" bo'lgan lordlar palatasini tugatish to'g'risida, ikkinchisi esa "keraksiz, mashaqqat chektiradigan, ingliz xalqining ozodligi, xavfsizligi va manfaatlari uchun zararli bo'lgan" qirol hokimiyatini bekor qilish to'g'risida edi. **Qirollik unvonini bekor qilish to'g'risidagi hujjat 1649-yil 17-martda, lordlar palatasini tugatish to'g'risidagi hujjat esa 19-martda e'lon qilingan edi.**

1649-yil 4-yanvarda umumpalata o'zini Angliyada oliy hokimiyat egasi, uning qarorlari qirol va lordlar palatasining roziligisiz qonun kuchiga ega deb e'lon qildi.

1649-yil 19-mayda qabul qilingan parlament hujjati bilan Angliyada boshqaruvning respublika shakli konstitutsiyaviy rasmiylashtirildi.

"Parlamentdagi Xalq Vakillari" davlatning oliy hokimiyati ekanligi e'lon qilindi.

Oliy ijroiya hokimiyat organi Davlat kengashi bo'lib qoldi va u parlament oldida javob beradigan bo'ldi.

**Davlat kengashining vazifalariga** monarxiyaning qayta tiklanishiga qarshi turish, mamlakat qurolli kuchlarini boshqarish, soliqlar o'rnatish, savdo va mamlakat tashqi siyosatini boshqarish kabilar kirdi. Biroq mamlakatda oliy ijroiya hokimiyati amalda Kromvel boshchiligidagi harbiy kengash qo'lida to'plangan edi.

Respublika o'rnatilishi bilan inqilobning ravnaq topishi tamom bo'ldi, inqilob o'z oldiga qo'yilgan barcha obyektiv vazifalarni hal qilmasdan o'z yuksalishdan to'xtadi. Biroq respublika ta'sis etilishi bilan ijtimoiy kurash kuchsizlanmadi, balki ancha keskin shakllarga kirdi. Royalistlar yerlarining yangidan musodara qilinishi, qirollik yerlarining sotilishi (1649-yilgi hujjat bilan) va 50-yillarning boshidagi Irlandiyadagi bosqinchilik urushlari independentlarning ko'pchilik qismini yirik yer egalari aylantirdi. Ular endi inqilobni to'xtatishga harakat qildilar. Levellyerlar uchun esa respublikaning e'lon qilinishi faqat qayta qurishlar uchun kurashning boshlang'ich bosqichi bo'ldi xolos. Asosan, o'rta hol dehqonlar va hunarmandlardan tashkil etilgan armiyada levellyerlarning ta'siri yanada kuchayishda davom etgan. Shunday sharoitlarda, independentlarning liderlari, armiyaning yuqori qismiga tayanib, diktatura rejimini o'rnatdilar.

Shuni ta'kidlash lozimki, respublika o'zining o'rnatilishidan xalq oldida qarzdor bo'lishiga qaramay, uning uchun hech narsa qilmadi. Respublikaning zaifligi ham ana shunda edi. Va, albatta, bu uning muqarrar halokatiga olib kelardi.

**Kromvel protektarati.** O.Kromvel hokimiyati tobora shaxsiy diktatura xaraktyeriga ega bo'lib bordi. Kromvel parlamentdan o'ziga tegishlicha tayanch ololmaganligi bois, uni 1653-yilda tarqatib yubordi.

Kromvel va uning ofitserlar kengashi uzoq parlamentni haydab yuborib, Angliyaning "**Boshqarish quroli**" deb nom olgan yangi konstitutsiyasini ishlab chiqdi.

Bu hujjat "Xalq bitimi"da nazarda tutilgan tamoyillarni butunlay inkor qildi hamda Kromvelning protektarati nomi bilan ma'lum bo'lgan diktaturani mustahkamladi. Yangi konstitutsiyaga binoan Kromvel lord-protektor (himoyachi, homiy) degan titulni olib, "respublika"ning umrbod rahbari bo'lib oldi, Angliya rasmiy ravishda shunday deb ataladigan bo'ldi.

"Boshqarish quroli" bo'yicha **oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat** lord-protektor va parlament qo'lida to'plandi. Parlament bir palatali edi. Parlamentni burjuaziya va jentri vakillaridan iborat tarkibda saylash maqsadida ancha yuqori mulk senzi (hamma uchun 200 funt sterling) o'rnatildi. Protektarat parlamenti xalqning vakillik organi emas edi. "**Boshqarish quroli**"ga ko'ra, katoliklar va urushda qirol tomonida turib ishtirok etgan shaxslar saylov huquqidan mahrum etilgan edi.



O.Kromvel

Konstitutsiya bo'yicha **oliy ijroiya hokimiyati** lord-protektor va Davlat kengashiga tegishli bo'ldi. Davlat kengashi a'zolarining soni 13tadan 21tagacha bo'lishi mumkin edi. Kengash

a'zolarini tayinlash lord-protektorga bog'liq bo'lib, **lord-protektor juda keng vakolatlarga ega edi. U qurolli kuchlarga qo'mondonlik qilish, urush e'lon qilish va sulh tuzish, oliy ijroiya organining yangi a'zolarini va ma'muriy okrug ofitserlarini tayinlash huquqiga ega edi.**

**Armiya** protektorning asosiy tayanchi bo'lib qolaverdi. Armiyani ushlab turish va hukumatning boshqa harajatlarini qoplash uchun yillik soliq joriy etildi. U lord-protektorning roziligisiz parlament tomonidan bekor qilinishi yoki kamaytirilishi mumkin emasdi. Shunday qilib, lord-protektorning moliyaviy imtiyozlari, xuddi mutlaq yakka hokimnikiga o'xshab, amalda nazoratsiz edi.

Tez orada Kromvel parlamentni chaqirmay qo'ydi, Davlat kengashi a'zolarini o'z istagiga ko'ra tayinlab qo'ya boshladi. 1657-yilda yuqori palata qayta tiklandi. Mahalliy boshqaruv Kromvel armiyasining generallari qo'lida to'plandi. Butun armiya 11ta harbiy ma'muriy okrugga bo'lingan bo'lib, ularning tepasiga general-gubernatorlar (general-mayorlar) qo'yilgan edi. General-mayorlar cheklanmagan politsiya vakolatiga ega bo'lib, o'zlariga topshirilgan okrugini idora qilar, soliqlar yig'ar, aholining "axloqini" kuzatib turar, muxolifatni xarakteridan qat'i nazar, ta'qib qilar va ayovsiz bostirar edi. Qo'zg'olon ko'tarishga urinishlar shafqatsiz bostirilardi, uning qatnashchilari esa rahm-shafqat qilinmay o'ldirilardi.

### **Eslab qoling!**

"Boshqarish quroli" garchand yakka shaxsning diktaturasini vujudga keltirgan bo'lsada, lekin bu diktatura o'z mohiyati jihatidan burjuaziya va yangi dvoryanlarning dikturasini edi.

Respublikachilarning parlamentdan haydab yuborilishi va yuqori palataning qayta tiklanishi monarxiya tarafdorlarini umidvor qiladi. Parlament Kromvelga qirollik tojini taklif etadi. Ammo respublikachilik kayfiyati kuchli bo'lgan armiya, xalq, oliy tabaqa generallar ham Kromvelning tojni qabul qilishiga qat'iy norozilik bildirdi. Kromvelning eng yaqin yordamchilari va protektarat rejimining tarafdorlari – oliy tabaqa generallar monarxiyaning tiklanishiga qarshi chiqdilar.

Lordlar palatasining tiklanishi bilan parlamentda yuqori palataning huquq va vazifalari hamda Angliyaning idora shakli haqida yana tortishuvlar boshlandi. Shundan keyin **Kromvel parlamentni tugatishga qaror qilib, uni 1658-yilning 4-fevralida tarqatib yubordi**, lekin bir necha oy o'tgach, 3-sentabrda uning o'zi ham vafot etdi.

Protektaratning so'nggi yillarida burjuaziya bilan dvoryanlarning kuchayib borayotgan qayta tiklash tendensiyasi Kromvel vafotidan bir necha oy o'tgach, "Stuartlarning an'anaviy monarxiyasi"ni tiklash bilan tugallandi. Buning sababi esa protektarat bir qancha yutuqlarni qo'lga kiritishiga qaramay, o'zining asosiy vazifasi – ingliz jamoatchiligi ichida jo'sh urayotgan xalq inqilobiy kuchini bostirishni hal qilmadi. Protektarat "tartib" o'rnatishi lozim edi. Ammo 50-yillarning ikkinchi yarmida Yangi jiddiy xalq harakatlari yuz berdi.

## 2-§. Stuartlar sulolasining qayta tiklanishi

Independentlar vakilining shaxsiy hokimiyati o'z mohiyati va shakli bo'yicha inqilob davomida o'z mavqelarini ancha mustahkamlab olgan burjua-dvoryanlar yuqori qismining manfaatlariga to'liq javob bera olmas edi. Chunki burjuaziya va jentrining asosiy dushmani endilikda qirol hokimiyati emas, balki quyi tabaqalarning harakati bo'lib qolgan edi. Qolaversa, 1658-yilda O.Kromvelning o'limi ham voqealarning borishini o'zgartirib yubordi. Hokimiyat ma'lum muddat uning o'g'li Richard Kromvel qo'liga o'tdi. Richard jamiyatda hech qanday obro'-e'tibor va siyosiy nufuzga ega emas edi. 1659-yilda Uzoq parlament "quyruq'i" (qoldig'i) o'zini ta'sis etuvchi hokimiyat deb e'lon qildi. Bu parlamentda qirol tarafdorlari – "qirol, lordlar va jamoa"ni talab qilgan eski konstitutsiya tarafdorlari ko'pchilikni tashkil etdi. Parlament 1660-yilgi **Bred deklaratsiyasi** deb atalgan hujjatda bayon qilingan shartlar asosida Karl II ga taxtni egallashni taklif etadi. Shu tariqa **1660-yilda Stuartlar restavratsiyasi** (ilgari ag'darilgan siyosiy tuzumning qayta tiklanishi) sodir bo'ldi.

**Bred deklaratsiyasida** yangi qirol fuqarolar urushi davrida royalistlardan, qirol va cherkovdan musodara qilingan yerlar yangi dvoryanlar va burjuaziya qo'lida saqlanib qoladi, diniy e'tiqodlar uchun ta'qib qilish tugatiladi, monarxiya dushmanlariga nisbatan umumiy afv e'lon qilinadi, deb va'da bergan edi. Deklaratsiyada, xususan, armiyani ushlab turish, royalistlarning yerlari, inqilobda ishtirok etganlarni afv etish va diniy e'tiqod haqidagi masalalar parlament tomonidan hal etiladi, deyilgan edi.

Biroq mamlakatdagi siyosiy kuchlarning yangidan joylanishi **feodal reaksiyaning kuchayishiga** olib keldi. G'azabi qaynagan emmigrant to'dasi bilan birga Angliyaga qaytib kelgan Karl II Bred deklaratsiyasida qilingan va'dalarni unutdi. Qattiq siyosiy reaksiya va terror boshlandi. "Podshoni o'ldiruvchilar" qatl qilindi, Kromvel va Ayrton jasadlarini haqorat qildilar va dorga osdilar. Absolutizm tayanchi bo'lgan anglikan davlat cherkovi, Yashirin kengash va inqilobdan oldingi boshqa davlat organlari (juda nafrat bilan qaraladigan Yulduz palatasi va yuqori komissiyadan tashqari) va ularni shakllantirishning eski tartibi qayta tiklandi. Shuningdek, 40-yillarda royalistlardan musodara qilingan yerlarning bir qismi yangi egalaridan qaytarib olindi. Presviterian ruhoniylar yana ta'qib ostiga olindi.

Karl II va uning taxt vorisi (ukasi) Yakov II ning absolyutizmni qayta tiklashga intilishi, shuningdek monarxlarning kapitalizmni xush ko'rishlari mamlakatda tobora ko'p noroziliklar keltirib chiqara boshladi.




Bu vaqtda parlament, ilgorigidek qirol va muxolifat tarafdorlarining o‘zaro qarshi kurashida siyosiy minbar bo‘lib qolgan edi.

**Angliyadagi siyosiy partiyalar. Torilar** – qirol va uning hokimiyatini kuchaytirish tarafdorlari. Torilar saroy aristokratlari, qisman jentrlar, shuningdek ruhoniylar vakillari partiyasi edi. **Vigilar** – savdogarlar, moliya va sanoat burjuaziyasi hamda inqilob davomida boyib ketgan jentrlar yuqori qismining vakillaridan iborat partiya.

Dastlab Angliya parlamentida uzoq vaqt torilarning vakillari hukmronlik qilgan. Vigilar oppozitsiyada turib va doimo ta‘qib ostiga olinib, parlament orqali fuqarolar daxlsizligining kafolatlari haqidagi qonun qabul qilinishiga harakat qildilar.

Vigilar o‘zlarining bu maqsadlariga faqat 1679-yildagina, ya‘ni parlamentda ko‘pchilik o‘ringa ega bo‘lib olganlaridagina erishgan edilar. Ular shu yili qulay imkoniyatdan foydalanib, parlament umumpalatasi orqali o‘zboshimchalik bilan qamoqqa olishlar to‘xtatilishini talab qilib chiqdilar.



Natijada **1679-yil 26-mayda** parlamentda konstitutsiyaviy kurash tarixida mashhur bo‘lgan **Habeas korpus akt (Habeas Corpus act)**, ya‘ni shaxs huquqlari kafolatlari haqidagi qonun qabul qilingan. *Bu qonunga ko‘ra, har qanday qamoqqa olingan mahbus shaxsan o‘zi yoki qarindoshlari va tanishlari orqali Angliyadagi yuqori sudlardan biriga Habeas korpus haqida buyruq berishini talab qilishi mumkin edi. Bunda sudyalari*

*tomonidan berilgan yozma buyruqqa asosan mahbusning ishini yurituvchi shaxs 24 soat ichida qamoqqa olish sabablarini ko‘rsatgan holda uni sudga olib kelishi lozim edi. Agar ish yurituvchi bunday buyruqqa bo‘ysunmasa, undan birinchi marta yirik jarima undirilishi, ikkinchisida mansabidan bo‘shatilishi belgilangan. Sud qamoqqa olish asoslarini ko‘rib chiqib, mahbusni sudgacha garovga qo‘yib yuborish yoki qamoqda ushlab turish yoxud butunlay ozod qilish haqida qaror qabul qilgan.*

Habeas korpus haqidagi buyruq bo‘yicha ozodlikka chiqarilgan shaxsni yana ilgorigi asos bilan ikkinchi marta qamoqqa olish mumkin emas edi. Bunday holda qaytadan qamoqqa olgan shaxsga nisbatan

500 funt sterling jarima solingan. Xuddi shuningdek, Habeas korpus haqida buyruq berishni rad etgan sudyaga nisbatan ham 500 funt sterling jarima solingan.

Mahbuslarni sudgacha pulga garovga ozod qilish protsedurasi ilgari ma'lum edi. Biroq birinchi marta aktda ko'rsatilgan buyruqlarni bajarmaslikda aybdor bo'lgan shaxslarning javobgarligi o'rnatildi.

Bu akt davlatga hiyonat yoki og'ir jinoyat sodir etib qamoqqa olingan shaxslarga, shuningdek fuqarolik ishlari bo'yicha qamoqqa olingan shaxslarga nisbatan qo'llanilmagan.

### **Eslab qoling!**

Parlament xalq g'alayonlari bo'lgan hollarda Habeas korpus aktini to'xtatib qo'yish huquqini o'zida saqlab qolgan edi.

Habeas korpus aktning qabul qilinishi so'zsiz progressiv ahamiyatga ega bo'ldi. Avvalo bu qonun vigilar va ularning tarafdorlarini qirol hokimiyati tomonidan qilinadigan ta'qiblardan saqlab, daxlsizlik kafolatlarini o'rnatdi, qolaversa keyinchalik Angliyada eng muhim konstitutsiyaviy hujjatlardan biri bo'lib qoldi.

Habeas korpus akti Karl II tomonidan shu shart bilan tasdiqlandiki, buning evaziga vigilar Yakov IIning taxtni egallashiga qarshilik ko'rsatmasliklari lozim edi. Bu inqilobdan keyin Angliyadagi birinchi o'zaro kelishuv edi. Angliya tarixi kelajakda ana shunday o'zaro kelishuvlar ta'siri ostida rivojlandi.

### **3-§. "Shonli inqilob" va uning oqibatlari**

Yangi qirol Yakov II (1633–1701) Angliya taxtiga 1685-yilda o'tirdi va ochiqdan ochiq burjuaziyaga qarshi siyosat yurgiza boshladi. U Habeas korpus aktini bekor qilishga va fransuz tovarlaridan olinadigan boj miqdorini pasaytirishga muvaffaq bo'ldi. Parlament muxolifati va savdo-sanoat doiralari bundan juda qattiq g'azabga keldi. Yakov II o'z akasi singari Lyudovik XIVdan qarz oldi va Karl IIning Angliyada katolik dinini tiklash to'g'risidagi va'dasini bajarishga kirishdi. U 1673-yilda qabul qilingan qasamyod to'g'risidagi aktga xilof ravishda katoliklarni muhim davlat vazifalariga tayinlay boshladi, 1687-yilda katoliklarga huquq bergan din erkinligi to'g'risida deklaratsiya chiqardi. Angliya cherkovining muxolifatchiligi va mamlakatda katoliklikka qarshi dushmanlik kayfiyati kuchli bo'lishiga qaramay Yakov II katolitsizmni tiklashni ko'zlagan edi.

Katoliklar cherkovini tiklash natijasida monastir yer egaligi tiklanishi, burjuaziya va jentri tomonidan egallab olingan yerlar qayta taqsimlanishi kerak edi. Bularning hammasi so‘nggi Stuartning qulashini yaqinlashtirdi, chunki uning siyosati burjuaziya bilan yangi dvoryanlarning tub manfaatlariga xavf tug‘dira boshlagan edi. Undan ham ko‘ra bu siyosat davom ettirilgan taqdirda xalqning yana bosh ko‘tarib chiqishi muqarrar edi.

Shu sababli qirol tarafdorlari – torilar ham undan yuz o‘gira boshladilar. Asosiy qismi torilardan tashkil etilgan parlament ham qirolni qo‘llab-quvvatlamay qo‘ydi.

Ana shunday sharoitlarda va umuman inqilob sharpasi vigilar bilan torilarni umumiy til topishga majbur etdi.

### **Eslab qoling!**

Torilar va vigilar o‘z kuchlarini birlashtirib, **1688-yilning kuzida tarixga “shonli inqilob”** nomi bilan kirgan saroy to‘ntarishini amalga oshirdilar.

Bu xalqning ishtirokisiz, “qon to‘kilmay qilingan” inqilob bo‘lganligi uchun uni “shonli inqilob” deb atagan edilar.

Bu inqilobni vigilar va torilar juda ustalik bilan amalga oshirgan edilar. Ular Yakov II taxtdan voz kechishni hatto hayoliga keltirmagan bir paytda uning Gollandiyadagi kuyovi Vilgelm Oranskiy va qizi Mariyaga Angliyaga kelishni va go‘yo Yakov II taxtdan voz kechganligi munosabati bilan bo‘sh qoldi deb e‘lon qilingan Angliya taxtini egallashni taklif qilganlar. Natijada 1688-yilning noyabrida Vilgelm Oranskiy o‘z qo‘shinlari bilan Angliya poytaxtiga kirib keldi, Yakov jang qilmay Londondan qochib, Angliyadan “o‘z ixtiyori” bilan chiqib ketdi. Qirol taxti “bo‘sh” deb e‘lon qilindi.

1689-yilning yanvarida yig‘ilib, “konvent” deb atalgan va favqulodda vakolatlar olgan parlament Yakov Ilni “taxtdan voz kechgan” deb e‘lon qildi va qirol hokimiyatini Gollandiya shtatgalteri Vilgelm Oranskiyga (1689–1702-yillar) topshirdi.

**1689-yilning 13-fevralida** Vilgelm va Mariya Angliyaning qirol va qirolichasi deb e‘lon qilindi hamda ularga butun urf-odatlariga rioya qilingan holda tantanali suratda toj kiydirildi. Shu vaqtdan boshlab **Angliyada konstitutsiyaviy monarxiya batamom o‘rnatildi.**

Yangi o‘zaro kelishuvning mazmuni shundan iborat ediki, siyosiy hokimiyat markazda ham, joylarda ham burjuaziya manfaatlariga rioya

qilish majburiyatini o'z zimmasiga olgan yer egalari qo'lida saqlanib qoldi. Endilikda bu kuchlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar ushbu bitimni va ingliz jamiyati siyosiy barqarorligining buzilishiga olib keladigan "prinsipial" xarakterga ega bo'lmasligi lozim edi.

Bunday kelishuvning eng muhim siyosiy natijasi Angliyada konstitutsiyaviy monarxiyaning o'rnatilishi bo'ldi. Bu parlamentning 1689-yilgi "*Huquqlar to'g'risidagi Bill*" va 1701-yilgi "*Taxt vorisligi haqidagi akt*"da mustahkamlandi.

Yuqorida aytib o'tilgan konstitutsiyaviy xaraktyerdagi hujjatlar singari, "**Huquqlar to'g'risidagi Bill**" ham Yakov II tomonidan sodir etilgan qonunbuzarliklarni sanash bilan boshlanadi. So'ngra *qirolning parlament roziligisiz qonunlarni to'xtatish yoki ularning biror moddasini bekor qilish huquqiga ega emasligi ko'rsatildi. Parlamentda muhokamalar va parlamentga iltimosnomalar topshirish erkinliklari o'rnatildi; parlamentda so'zga chiqqanlik uchun ta'qib qilish taqiqlandi.*

*Parlamentni muntazam ravishda chaqirib turish qat'iy qilib qo'yildi.* Oqibatda bu qoida yanada aniqlashtirilib, parlamentning vakolat muddati dastlab 3 yil, keyin esa 7 yil qilib belgilandi. Billga ko'ra, *solliq joriy qilish va solliq yig'ish parlament roziligiga bog'liq qilib qo'yildi.* Ma'lum tarkibdagi va miqdordagi armiyani saqlash uchun qirolga ruxsat berish to'g'risidagi aktni parlament har yili yangilardi.

*Qirol fuqarolari unga iltimosnomalar bilan murojaat qilish huquqini olib, hech kim bunday iltimosnomalar uchun ta'qib qilinmaydigan bo'ldi.*

*Favqulodda solliqlar, jarimalar talab qilish taqiqlandi, qonunda nazarda tutilmagan jazolarning qo'llanilmasligi belgilandi.*

Qasamyod to'g'risidagi 1673-yilgi akt yangidan tiklandi, bu akt endilikda katoliklarga nisbatan izchillik bilan qo'llanilar, dissentyerlar deb ataladigan protestantlarga bir qancha yengilliklar berardi.

*Shunday qilib, "Huquqlar to'g'risidagi Bill" parlamentning hokimiyat organlari tizimida tutgan o'rnini belgilab, unga qonun chiqarish sohasida keng vakolatlar taqdim qildi.* To'g'ri, garchand juda aniq bo'lmasa-da, hokimiyatning ijroiya va qonun chiqarish sohalari o'rtasida chegara qo'yildi. Qirol parlament bilan birgalikda qonun chiqarish faoliyatida ishtirok etib, unga mutlaq veto huquqi tegishli edi. Bundan tashqari, qirolga bir talay ijroiya va sud hokimiyati saqlanib qoldi.

**"Taxt vorisligi haqidagi akt"** Angliyaning yana bir juda muhim konstitutsiyaviy qonuni bo'lib qoldi. Unga binoan farzandsiz Vilgelm bilan Mariyadan keyin ingliz taxti Yakov IIning kenja qizi Annaga, so'ngra, stuartlarga yondosh bo'lgan – Gannoverlar sulolasiga o'tishi

kerak edi. Bundan tashqari, mazkur Qonun 1689-yilgi “Huquqlar to‘g‘risidagi Bill”ni qirol hokimiyatiga tegishli bo‘lgan bir qancha yangi muhim cheklashlar bilan to‘ldirdi.

Angliyada konstitutsiyaviy tuzum rivojlanishida “Taxt vorisligi to‘g‘risidagi akt”da belgilangan quyidagi **ikkita yangi qoida** muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

### **Eslab qoling!**

**Birinchisi** – **kontrassignatura tamoyili** bo‘lib, unga ko‘ra, *qirol tomonidan chiqariladigan hujjatlar faqat ministrlar imzosi bo‘lgan taqdirdagina haqiqiy hisoblanadi.*

Boshqacha aytganda, har bir aktda qonun loyihasini taqdim etgan Maxfiy kengash a‘zosining imzosi bo‘lishi kerak edi. Bu bilan qonunlarni tasdiqlash javobgarligi amalda qirolning zimmasidan olib tashlanib (chunki “qirol xato qilishi mumkin emas”), qirol ministrlariga yuklanar edi.

Mazkur aktda o‘rnatilgan **ikkinchi muhim qoida** *sudyalarning almashtirilmasligi tamoyilidir.*

Bu vaqtgacha sudyalari o‘z mansablarini “qirolga kerak” bo‘lgunlaricha egallab turardilar. Endi *mazkur aktga asosan sudyalari “o‘zlarini yaxshi tutgan” vaqtlari davomida o‘z vazifalarini bajarib turaverardilar. Ularni mansablaridan faqat parlament qarori bo‘yicha*


*chetlatish mumkin edi.* Bu qoida ingliz konstitutsiyasining rivojlanishida juda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Chunki u sud hokimiyatining ijroiya hokimiyatidan ajratilganligini e‘lon qildi.

**1701-yilgi qonun** *umumpalata qoralagan siyosiy jinoyatchilarga nisbatan qirol afvi kuchga ega emasligini ham e‘lon qildi.*

Shunday qilib aytish mumkinki ingliz konstitutsiyasi, garchand yetarlicha izchillik bilan ishlanmagan bo‘lsa ham hokimiyatning taqsimlanishi g‘oyasi asosida tuzildi.

### **“Huquqlar to‘g‘risidagi Bill”**

Yangi qirol Vilgelm III taxtga o‘tirar ekan, 1689-yilda “Huquqlar to‘g‘risidagi Deklaratsiya” chiqardi. Bu deklaratsiya oqibatda qirol hokimiyatini cheklab qo‘yuvchi “Huquqlar to‘g‘risidagi Bill” degan nom oldi. Billning asosiy ahamiyati shunda ediki, bunga ko‘ra, parlamentning qonun chiqarish sohasidagi ustunligi o‘rnatildi.



Biroq yuqoridagilar bilan bir qatorda XVII–XVIII asr qonunchiligi hokimiyatlarning o‘zaro munosabatlari haqidagi masalani oxirigacha hal qilmadi. Hokimiyatning dualizmi saqlanishda davom etdi: XVII – XVIII asrlardagi Angliya davlat tuzumining dualistik monarxiya sifatida belgilanishi tasodifiy emas. Qirollik imtiyozi ilgari qonun bilan belgilanmagan edi. Qirol parlament orqali o‘tadigan qonun loyihalariga mutlaq veto huquqini saqlab qoldi. Parlament uch qism (qirol va ikkita palata)dan tashkil topganligi haqidagi tasavvur nazariy jihatdan o‘zgarishsiz qoldi. Qirol va uning hukumati bu vaqtda parlament oldida hech qanday javobgar bo‘lmadi.

#### **4-§. XVIII asrda konstitutsiyaviy monarxiyaning rivojlanishi**


Shunday qilib, XVIII asrning boshiga kelganda Angliyada quyidagi uchta muhim konstitutsiyaviy qonun: **Habeas korpus akt**, **Huquqlar to‘g‘risidagi Bill**, **Taxt vorisligi haqidagi akt** qabul qilinib, ular ingliz konstitutsiyasining yozilgan qismini tashkil etgan.

**Ingliz konstitutsiyasining o‘ziga xos xususiyati shunda ediki, u yagona qonun hujjati bo‘lmagan.** Ingliz konstitutsiyasining muhim qismini alohida yozilgan qonunlar bilan bir qatorda uning amaliyotda o‘rnatilgan, biroq yozilmagan shartli qoidalari ham tashkil etadi. Bular **konstitutsiyaviy pretsedent** bo‘lib, ayni shunday qoidalarning o‘rnatilishi XVIII asrda ingliz konstitutsiyasining rivojlanishini belgilangan. *Ulardan asosiylari qirolning Ministrlar kabineti majlislarida qatnashmasligi; hukumatning saylovlarda g‘olib chiqqan partiya a‘zolaridan tuzilishi; hukumat (Ministrlar kabineti)ning jamoaviy javobgarligi; qirolning veto huquqidan voz kechishi hisoblanadi.*

## Eslab qoling!

**XVIII asrda Angliyaning konstitutsiyaviy rivojlanishida quyidagi ikkita asosiy yo‘nalishni ajratib ko‘rsatish mumkin:**

- 1) *parlamentning yuksalishi;*
- 2) *Ministrlar kabinetining tashkil topishi.*



Ikkala siyosiy partiya (torilar va vigilar) saylovchilar doirasini qisqartirishga harakat qilardi. Biroq vigilar umuman mulk senzi o‘rnatilishi uchun, torilar esa yer senzi uchun kurashdi. **1710-yilda chiqarilgan qonunga** ko‘ra, *parlamentga saylanish uchun ko‘chmas mulkdan qishloq joylarida 600 funt sterling, shaharlarda 300 funt sterling yillik daromadga ega bo‘lish talab qilingan.* Yuqori mulk senzi va eski o‘rta asr saylov tizimi parlamentda aristokratiyaning hukmronligini ta‘minlagan.

## Eslab qoling!

1701-yilgi “Taxt vorisligi haqidagi akt” quyi palata a‘zolarining bir vaqtda davlat mansabini egallab turishini taqiqlagan. Biroq 1706-yilgi akt bilan o‘rnatilgan qoidaga ko‘ra, quyi palata a‘zolari, agar davlat mansablariga tayinlangan bo‘lib, parlamentda qolishni xohlasalar, qayta saylanishlari lozim edi.

Shunday qilib, quyi palata o‘z ijtimoiy tarkibi bo‘yicha yuqori palatadan kam farq qilardi. Bu esa parlamentda aristokratiyaning hukmronligini ta‘minlanardi. Biroq ingliz aristokratiyasi yopiq tabaqa bo‘lmay, uning safi boyigan sanoatchilar, savdogarlar hisobiga kengayib borgan. Ingliz aristokratiyasi faqat o‘z manfaatlarinigina emas, balki burjuaziyaning ham manfaatlarini ifoda etishni bilgan. Shu bois uning hukmronlik mavqeyi saqlanib qolgan.

Parlament ijtimoiy tarkibining bunchalik aniq bo'lganligi uning vakolatlarini kengaytirish imkoniyatini tug'dirgan. Hukmron sinflar parlamentga to'la hokimiyat berib qo'yishdan aslo cho'chimagan. 1707-yildan qirol hokimiyati veto huquqidan mutlaqo foydalanmay qo'ydi, bu bilan butun qonun chiqarish hokimiyatini to'liq parlamentga o'tkazdi. Ayni vaqtda parlament amalda o'z saylovchilari bilan aloqasini tobora uza bordi.

**1716-yilda qonun qabul qilinib, parlamentning vakolat muddati uch yildan yetti yilgacha uzaytirildi.** Bu esa parlament partiyalarini saylovchi aholidan tobora mustaqil qilib qo'yar edi. So'ngra parlament amalda noma'lum bir vaqtga o'rta asr parlament saylov tizimini mustahkamladi, vaholanki XVIII asr sharoitida bu tizim g'oyat bema'ni tizim bo'lib qolgan edi: Bu tizim restavratsiya natijasida tiklangan edi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, *parlament majlislari yashirin ravishda o'tkazilardi.* Butun XVIII asr mobaynida parlament o'z muzokaralarini jon-jahdi bilan sir saqlab keldi. Parlament protokollari rasmiy ravishda bosib chiqarilmasdi. Xususiy shaxslar tomonidan parlament deputatlarining nutqlarini yozib olish va matbuotda e'lon qilish ham taqiqlangan edi. Parlament "Britaniya senati"ning sirini oshkor qilgan jurnalistlar va pamfletistlarni bir necha bor qattiq javobgarlikka tortgandi.

**Ministrlar kabineti.** XVIII asr mobaynida parlamentarizmning britanacha modeliga asos solgan britan monarxiasining asosiy yo'nalishlari qirol hokimiyatining yanada cheklanishi hamda ijroiya va qonun chiqarish hokimiyatlarining o'zaro munosabatlaridagi yangi tamoyillarning o'rnatilishi, xususan, "hukumat javobgarligi"ning vujudga kelishidan iborat bo'ldi. Bu o'zgarishlarning eng muhim xususiyati shunda bo'ldiki, ular odatda qandaydir konstitutsiyaviy hujjatlar bilan rasmiylashtirilmadi, balki ikki partiyaning "a'lo hazratlari hukumati"ni tuzish huquq uchun raqobat qilishi natijasidagi siyosiy tajribasi jarayonida vujudga keldi.

Ministrlar kabineti Yashirin kengashdan ajralib chiqdi. Ma'lumki, Yashirin kengash a'zolari qirol tomonidan tanlab olinardi. Vaqti-vaqti bilan u yoki bu kengash a'zolariga ma'lum tarmoqlarga rahbarlik qilish topshirib qo'yilardi. Ana shunday turdagi ministrarning yig'indisi kabinetni tashkil etgan. Ammo bu kabinet qonun bilan ham, nazariya bilan ham tan olinmagan edi.

Biroq hayot nazariyadan ustun turadi. Ministrlar kabineti yuridik jihatdan mavjud bo'lmagan. Lekin amalda u nafaqat harakat qildi, balki tobora mustahkamlanib bordi. Har holda ministrlar kabinetining kelib chiqishi muqarrar edi.



Kabinet mavjud edi, lekin ko'zga tashlanmasdi. Uning majlislari qat'iy maxfiy suratda o'tardi. U o'z majlislarini o'tkazish uchun uzoq vaqtgacha hatto ma'lum bir binosiga ham ega emasdi.

### **Eslab qoling!**

XIX asrning oxiridagina kabinet majlislari uchun Dauningstritdagi uy ajratilgan edi. Shunda ham u kabinet majlislari deb emas, balki "Yashirin kengashning ba'zi a'zolari o'rtasidagi tasodifiy kengash" deb hisoblangan.

**Monarx** davlat boshlig'i bo'lib qolaverdi. Lekin u amalda faqat nomigagina ijroiya hokimiyat boshlig'i edi. Bunga XVIII asrning boshlarida, ayniqsa, Gannover sulolasi (1714-yildan) qiroligi davrida vujudga kelgan dastlabki pretsedentlar – konstitutsiyaviy odatlar ham imkon tug'dirgan edi. Darhaqiqat, qirol 1707-yildan boshlab parlament tomonidan qabul qilingan qonunlarga veto qo'yish huquqidan foydalanmay qo'ydi. Ingliz tilini bilmagan qirol Georg I (1714–1772) kabinet majlislariga kelmay qo'rgan. Bu juda muhim siyosiy oqibatlar keltirib chiqargan. Jiddiy bir siyosiy ta'sirga ega bo'lmagan qirollar real hokimiyatni ministrlar kabinetiga berib qo'rgan, kabinet esa davlat idorasining hamma tizginini o'z qo'lida to'plab olgan edi. Bunday yozilmagan qoida asosida ministrlar kabineti qirolsiz majlislar o'tkazib, uning a'zolari qirol tomonidan qilinadigan tazyiqlardan xalos bo'lgan. Bu esa mazkur organning mustaqilligini kuchaytirgan, bundan tashqari, uning rahbarlik mavqeini kuchayishiga imkon tug'dirgan. Kabinet "Hazrati oliylari"ning nomidan, lekin amalda mustaqil harakat qila boshlagan.

1711-yilda "Qirol nohaq bo'lishi mumkin emas" degan shaklda **qirolning javobgar emasligi tamoyilining** tan olinishi oqibatida kabinet bilan qirol o'rtasidagi munosabatlar o'zgardi. Bu tamoyilning o'rnatilishi kontrassignatura qoidasining mantiqiy davomi bo'ldi. Ma'lumki, kontrassignatura qoidasi 1701-yilgi "Taxt vorisligi haqidagi akt" bilan belgilanib, unga ko'ra qirol va tegishli ministr tomonidan imzolangan hujjat uchun faqat ministr javobgar bo'lgan. Monarxning javobgar bo'lmashligi tamoyilining o'rnatilishi bilan qirol real hokimiyatdan mahrum etilgan edi. Qirol o'zining ko'p sonli imtiyozlaridan birortasini ham mustaqil amalga oshira olmas edi. Shu tariqa, "qirol podsholik qiladi, lekin idora qilmaydi" degan qoida vujudga kelgan edi.

Parlament yordamida Ministrlar kabineti tezda qirolni ikkinchi o'ringa surib qo'ydi. Lekin o'sha vaqtdayoq kabinet bilan parlament o'rtasida kelishmovchiliklar kelib chiqqanligi ma'lum

bo'lib qoldi. Bu shu tariqa ma'lum bo'lib qolganki, birorta ham hukumat, agar umumpalata deputatlarining ko'pchiligi tomonidan qo'llab-quvvatlanmasa, hokimiyat tepasida tura olmasdi, ya'ni qonun o'tkazish, budjetni tasdiqlash, **askarlar** to'plash, urush e'lon qilish va sulh tuzish huquqlarini amalga oshira olmas edi.

Javobgarlikning kabinet a'zolari zimmasiga o'tkazilishi ularning faoliyati ustidan parlament nazoratining o'rnatilishiga olib keldi. Kabinet a'zolarining parlament oldidagi javobgarligi shunda namoyon bo'lganki, kabinet a'zolarining siyosati umumpalata tomonidan ma'qullanmasa, ular iste'foga chiqishlari lozim edi. XVIII asrning birinchi yarmida kabinet a'zolarining parlament oldidagi javobgarligi individual xarakterga ega bo'ldi.

### **Eslab qoling!**

**Ministrlarning birgalikdagi javobgarligi** ingliz parlamentarizmining eng muhim tamoyili sifatida XVIII asrning oxirida shakllandi.

*Qirolning Ministrlar kabinetiga ta'sirini kuchsizlantirgan muhim qoida uning oliy davlat mansabdor shaxslarini tayinlash va bo'shatish huquqining cheklanishi edi.* Bu, o'z navbatida, parlament va siyosiy partiyalarning kuchayishi bilan bog'liq edi. Qirol parlamentdagi ko'pchilikning fikri bilan hisoblashishga majbur edi.

Masalan, qirol Georg II 1727-yilda bosh ministr R.Uolpolni ishdan bo'shatadi, lekin Uolpol umumpalata tomonidan keng qo'llab-quvvatlanishi oqibatida uni yana hokimiyat tepasiga qaytarishga majbur bo'ldi, chunki parlament qirolning bunday qarorini tasdiqlamagan edi.

XVIII asrning o'rtasida ingliz konstitutsiyaviy amaliyotida shunday qoida o'rnatiladiki, bunga ko'ra, qirol eng muhim kabinet lavozimlariga faqat parlamentning ko'pchiligi va ularning lidyerlari tomonidan qo'llaniladigan shaxslardan tayinlaydigan bo'ldi.

Qirolning Ministrlar kabinetiga ta'sirining zaiflashishi parlamentning Ministrlar kabineti ustidan nazoratini kuchaytirgan.

Hozirgi kunda ham Ministrlar kabineti bilan parlament o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning asosini belgilovchi juda muhim tamoyil XVIII asrning birinchi yarmida shakllanib, bunga ko'ra *kabinet parlament umumpalatasining ko'pchilik a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlanib turgan davrda hokimiyat tepasida turishi mumkinligi* o'rnatilgan. Bunga yana o'sha Uolpol va uning hukumati misol bo'ladi. Nihoyat 1782-yilda Nort kabineti umumpalata bilan siyosiy kelishmovchilik oqibatida to'liq tarkibda iste'foga chiqqan edi. Shu narsa ayon bo'ladigi, agar parlament, ayniqsa, hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan budjetni tasdiqlashda umumpalata kabinet siyosatiga qarshi bo'lsa, mamlakatni boshqarib

bo'lmis edi. Faqat parlamentda ko'pchilik o'ringa ega bo'lgan partiya liderlaridan tuzilgan kabinetgina parlament bilan hamkorlik qilishi mumkin.

Shunday qilib, XVIII asr mobaynida Buyuk Britaniyaning Ministrlar kabineti qirolidan ajralib turadigan, davlatning asosiy mansabdor shaxslaridan, ya'ni parlamentda ko'pchilik o'rin olgan va umumpalata oldida javobgar hisoblangan partiya liderlaridan iborat tarkibdagi oliy davlat boshqaruv organi bo'lib qoldi. Bunday hukumat javobgar hukumat nomini oldi. Uning mavjudligi XVIII asrning oxirida Angliyada vujudga kelgan parlament tizimining o'ziga xos belgisi hisoblanadi.

### **Eslab qoling!**

**Yana bir yangilik – kabinetni partiyaviy asosda tashkil etish tartibi joriy qilindi.**

## **5-§. Saylov islohotlari**

**XIX asr boshidagi siyosiy tizim.** XIX asrning boshiga kelib Angliyada ancha rivojlangan siyosiy tizim qaror topdi. Jamiyatning sinfiy tuzilishidagi o'zgarishlar **asosiy siyosiy partiyalar – torilar va vigilarning** ijtimoiy bazasida ham o'z aksini topgan. **Torilar** pomeshchiklar va moliya burjuaziyasining partiyasi bo'lib, tarixiy an'analarni, konservatizmni tarqatuvchilar edi. Ular yangiliklarni qabul qilib, imkon qadar ko'proq eskiliklarni saqlab qolishga harakat qilardilar. **Vigilar** sanoat burjuaziyasining manfaatlarini ifoda etgan. Torilar va vigilar o'rtasidagi hokimiyat uchun kurash, bir tomondan, sanoat burjuaziyasi, boshqa tomondan, savdo-moliya burjuaziyasi bilan birlashgan lendlordlar o'rtasidagi siyosiy hukmronlik uchun kurashni ifoda etgan.

Bu ikkala partiya XVIII asr davomida hokimiyat tepasida almashinib turgan. "Shonli inqilob" oqibatida va XVIII asrning o'rtalarigacha parlamentda vigilar hukmronlik qildi. 1783-yilda torilar umumpalata ko'pchilikni tashkil qilib, 1830-yilgacha hukmronlik qildilar.

Torilar hokimiyat tepasida uzoq vaqt turib, jamiyat, davlat tizimidagi kuchlar nisbatini, ijroiya hokimiyatni, xususan, **qirol imtiyozlarini** kuchaytirish tomonga o'zgartirishga harakat qilganlar.

## Qirolning vakolatlari

Rasman davlat boshlig'i hisoblangan va uning qo'lida butun hukumatga oid hokimiyat to'plangan.

U xalqaro munosabatlarda davlat nomidan chiqqan, urush e'lon qilgan, sulh tuzgan, elchilarni tayinlagan va chaqirib olgan, qurolli kuchlar bosh qo'mondoni b'lgan.

Yashirin kengash va parlament qirol nomidan harakat qilgan.

Qirol ministrnlarni tayinlagan va bo'shargan, umum palatani muddatidan ilgari tarqatib yuborish, lordlar palatasining yangi a'zolarini tayinlash huquqiga ega bo'lgan.

Biroq qirol o'zining ana shunday ko'p sonli imtiyozlaridan birontasini ham real amalga oshira olmagan. Yozilmagan konstitutsiya mutlaqo boshqacha qoida o'rnatgan edi. Bunga ko'ra, monarxiya o'zining haqiqiy mazmunidan mahrum etilgan edi. Ministrlar kabineti va uning boshlig'i – bosh ministrning faoliyati qonun bilan tartibga solinmay, balki to'liq ravishda yozilmagan qoidalar bilan belgilandi. Bu XVIII asrning o'rtalarida parlamentning ba'zi vakillari tomonidan birinchi ministr lavozimiga qarshi e'tiroz bildirilishiga asos bo'ldi. Ularning fikricha, birinchi ministr lavozimi qonunga zid keladi va davlat uchun xavflidir. Biroq bu amaliyot parlamentarizm amaliyotini tashkil etib, undan endi qaytib bo'lmas edi.

Ministrlar kabineti parlamentda ko'pchilikni tashkil etganlardan iborat tarkibda edi.

### **Eslab qoling!**

XIX asrga kelib **ingliz siyosiy tizimining eng muhim elementi parlament** bo'lib qoladi.

### **Saylov islohotlari uchun kurash.**

Urushdan keyingi iqtisodiy turg'unlik hukm surayotgan va ishsizlik ko'payotgan sharoitda xalq ommasi ahvolining yanada yomonlashuvi natijasida Angliyada 1816–1818-yillarda xalq harakatlari ko'tarildi qimmatchilikka qarshi ommaviy g'alayonlar, ish haqining yanada kamaytirilishiga qarshi katta stachkalar o'tkazildi. Bunda ishchilar, batraklar va xonavayron bo'lgan mayda burjuaziya qatnashdi. 1817-yilda

hukumat Habeas korpus aktini vaqtincha harakatdan to'xtatdi va repressiya qo'lladi, demokratik va progressiv kuchlarga qarshi quvg'in kuchaytirildi. Biroq 1918-yilda Habeas korpus akti yana kuchga kiritildi va yana xalq g'alayonlari ko'tarildi.

1830-yilda siyosiy kurash nihoyatda keskinlashdi. Bunga ma'lum bir darajada Fransiyadagi Iyul inqilobi ham yordam berdi. 1830-yilning iyulida parlamentga yangi saylov o'tkazildi; saylov qizg'in borayotgan davrda Fransiyadagi iyul inqilobining g'alabasi to'g'risida xabar kelishi islohot tarafdorlarining muvaffaqiyat qozonishiga yordam berdi.

### **Eslab qoling!**

Mayda burjuaziya va ishchilar siyosiy tuzumning demokratlashtirilishini hamda umumiy saylov huquqi joriy etilishini talab qildi. Saylov islohotlari uchun harakatni sanoat burjuaziyasi ham qo'llab-quvvatladi.

**1832-yilgi saylov islohoti va uning ahamiyati.** Parlament islohoti haqidagi qonun 56ta "chirik qishloqlar"ni parlamentda vakillik huquqidan mahrum qildi, 30ta "chirik qishloqlar" bundan buyon parlamentga ikkitadan emas, bittadan deputat jo'natadigan bo'ldi. Sanoat to'ntarishi yillarida bunyod bo'lgan va shu vaqtga qadar parlamentda o'z vakiliga ega bo'lmagan yangi shaharlar mazkur qonunga binoan parlamentga 65ta deputat yuborish huquqiga ega bo'ldi, biroq sanoat burjuaziyasining bu kuchayishini baravarlashtirish uchun qishloq orkuglari vakillarining soni 65taga ko'paytirildi. Shotlandiya bilan Irlandiyaga qo'shimcha 13ta o'rin berildi. Bu yangi o'rinlarning hammasi "chirik qishloqlar" va kichik shaharlarning vakillari sonini yuqoridagicha kamaytirish natijasida olingandi. Shu tariqa mandatlar qayta taqsimlandi.

*Islohot natijasida shaharlarda yiliga 10 funt sterling renta to'laydigan hovli egalari, shuningdek bu xil hovlilarni ijaraga oluvchilar, 21 yoshga to'lgan erkaklar saylovda ovoz berish huquqiga ega bo'ldilar.*

Kambag'allar foydasiga soliq to'lash talabi bilan bu shart ishchilarni va shaharning barcha kambag'allarini saylovchilar qatoridan chiqarib qo'ydi.

Qishloq tumanlarida yiliga kamida 40 shilling daromad oladigan yer egalari ovoz berish huquqiga ega bo'ldilar; qisqa muddat bilan ijaraga yer olgan va yiliga 50 funt sterling ijara haqi to'laydigan ijarachilar, shuningdek uzoq muddatga ijaraga yer olgan va yiliga 10 funt sterling ijara haqi to'laydigan ijarachilar, ya'ni boyroq kishilar saylovda ovoz berish huquqiga ega bo'ldilar.

Bu tizim mayda fermerlar – ijarachilarga qarshi qaratilgan edi. Mazkur Qonunga ko‘ra 6 oy muddat bilan o‘troqlik senzi ham o‘rnatildi.

1832-yilgi islohot 20 ming kishi chamasidagi yangi saylovchilarni vujudga keltirib, umumiy saylovchilar sonini 652 ming kishiga etkazdi.

Biroq saylov huquqi uchun qattiq turib kurashgan ishchilar va mayda burjuaziya saylovda ovoz berish huquqini olmadi. Yangi saylovchilar asosan shahar burjuaziyasidan iborat edi. Islohot saylov okruglarining haddan tashqari, tengsizligini tugatmadi. Saylovlarda ochiq ovoz berish tartibi saqlanib qoldi.

**1832-yilgi islohot** feodal an’analar yo‘li bilan tashkil qilinadigan vakillik o‘rniga umumpalatasining burjuaziya parlamentiga aylanishiga yordam berdi. Sanoat burjuaziyasini parlamentga kirishiga yo‘l ochdi va shu asnoda sanoat burjuaziyasining aristokratiya bilan o‘zaro murosaga kelishini ta‘minladi. Kabinetning qirolidan to‘la mustaqil bo‘lishi uchun imkon tug‘dirdi, chunki qirolning orqasida turgan aristokratiya endi kabinetni umumpalatasidagi zarur ko‘pchilik bilan ta‘minlay olmadi.

1832-yilgi parlament islohoti parlamentda sanoat burjuaziyasining vakilligini ta‘minladi. Mazkur islohot yer aristokratiyasi bilan sanoat burjuaziyasi o‘rtasidagi o‘zaro kelishuv natijasi edi.

XVIII asrda ishlab chiqilgan hukumat javobgarligi tamoyili yanada mustahkamlandi: **ministrlik hokimiyati beixtiyor parlamentda ko‘pchilik o‘rin olgan partiya qo‘liga o‘tdi.** Kabinet parlamentda ko‘pchilikni tashkil etgan yangi liderlarga o‘rin ajratib, parlament oppozitsiyasida rahbarlik mavqeyini egalladi. Javobgar hukumat tushunchasining kelib chiqishi munosabati bilan bu davrda toj-taxt ahvolini belgilovchi tamoyil, ya‘ni “qirol podsholik qiladi, lekin boshqarmaydi” degan qarash qaror topdi. Bu shartli, yozilmagan qoida ingliz parlamentarizmining eng muhim asosiy qoidasi edi.

### **Eslab qoling!**

**1832-yilgi islohot oqibatida** siyosiy partiyalar qaytadan tug‘ildi. Partiyalarning avvalgi nomlari o‘z ma‘nosini yo‘qotgan edi. Shu sababli **torilar – konservatorlar partiyasi deb, vigilar – liberallar partiyasi deb qayta nomlandi.**

Vaqt o‘tishi bilan liberalizm va konservatizm qudratli siyosiy oqimga aylanib, burjua jamiyati va davlati rivojining butun bir yo‘lini ko‘rsatib berdi.

Partiyalarning faqat nomlarigina emas, balki ularning tuzilishi ham o‘zgardi. Islohotlar qabul qilingandan keyin saylovchilarni qayd etish,

saylovchilar ro'yxatlarini tuzish zaruriyati paydo bo'ldi. Bu funksiyalarni joylarda partiya tashkilotlariga birlashgan partiya a'zolari o'z zimmasiga oldi.

1832-yilgi islohot markaziy davlat apparatining qayta tashkil etilishiga turtki berdi. Chunonchi, moliya ministrligidagi o'rta asrlardan saqlanib qolgan mansablar tugatildi, harbiy-dengiz ministrligi ancha soddalashtirildi, ichki ishlar ministrligi va savdo ministrligining roli kuchaytirildi. Umuman, davlat apparatining qayta tashkil etilishi markaziy ma'muriyat faoliyatining ancha kengayishi va jonlanishiga olib keldi.

Bu vaqtda shahar o'zini o'zi boshqarish islohoti ham o'tkazildi. Xususan, shaharlarning kengashlari tashkil etilib, ularga shaharlar mulkini boshqarish, politsiyaga boshchilik qilish, tartibni saqlash bo'yicha qarorlar chiqarish masalalari topshirildi. Graflikda va davlat prixodlarida ahvol o'zgarishsiz qolib, u yerlarda ilgarigidek murosaga keltiruvchi sudyalalar va pomeschiklarning o'zboshimchaligi hukm surdi.

**1867-yilgi islohot** deputatlik o'rinlarini yangidan qayta taqsimlanishini nazarda tutdi. *Unga ko'ra, 11 ta "chirik joy" umumpalatasiga deputatlar saylash huquqidan butunlay mahrum etildi, 35 ta "chirik joy" esa faqat bitta deputat saylash huquqini saqlab qoldi.* Shu tariqa, 1832-yilgi qonundan keyin saqlanib qolgan 46 ta "chirik joy" parlamentga deputatlar yuborish huquqidan mahrum etildi, bo'sh qolgan o'rinlar esa yirik sanoat shaharlariga va grafliklarga berildi. London parlamenti to'rt deputat yuborish huquqini oldi.

Yangi qonun shahar aholisining saylov huquqini ancha o'zgartirdi. Shaharlarda yashab, yiliga kamida 10 funt sterlingdan ijara haqi to'laydigan, kambag'allar foydasiga soliq to'laydigan va mazkur joyning o'zida kamida bir yil istiqomat qilgan kishilarning barchasi saylov huquqini oldi.

Grafliklarda (qishloqlarda) yiliga kamida 12 funt sterlingdan haq to'laydigan ijarachilar, shu bilan birga yiliga 5 funt sterlingdan daromad oladigan xususiy yer egalari saylash huquqiga ega edilar.

**Islohotlarning muhim yangiligi shunda ediki,** *unga ko'ra, kichik kvartallarni ijaraga olib, uy egalariga ijara haqi to'laydigan ko'p sonli ijarachilar ham kambag'allar foydasiga bevosita soliq to'lovchilar hisoblangan.*

Shu munosabat bilan saylovchilar ro'yxatiga faqat uy egalarigina emas, balki unda istiqomat qiluvchi barcha katta yoshli erkaklar ham kiritilgan. Shunday qilib, saylovchilar ro'yxatlari mayda burjuaziya, hunarmandlar va ishchilar hisobiga kengaydi.

1867-yilgi islohot natijasida Angliyadagi saylovchilar soni 1 milliondan 2,5 million kishiga ko‘paydi (katta yoshdagi aholi taxminan 16 million kishini tashkil etardi).


Biroq Angliyaning 2/3 qismini tashkil etgan katta yoshli erkak va ayollar ilgargidek saylov huquqidan mahrum edi. 1872-yilgacha saylovlarda ochiq ovoz berish tartibi ham, saylov okruglarining eskicha, noteng taqsimlanishi ham saqlanib qolgan edi.

**Islohot natijasida ishchilar sinfi erishgan yana bir yutuq – xo‘jayinlar va xizmatkorlar haqidagi qonunning bekor qilinishi bo‘ldi. 1867-yilgi qonunga muvofiq, sud oldida kapitalist xo‘jayin ham, ishchi ham rasman, yuridik jihatdan teng qilib qo‘yildi.** Albatta, yuridik, rasmiy teng huquqlilik bilan amaldagi teng huquqlilik o‘rtasida osmon bilan yercha farq bor edi.

1867-yilgi islohot sanoat kapitalining real siyosiy hokimiyati o‘shiga olib kelgan ingliz konstitutsionalizmining o‘ttiz yillik rivojlanish yo‘liga yakun yasadi.

## 6-§. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Angliyaning siyosiy tuzumidagi o‘zgarishlar

Bu vaqtda Angliyaning siyosiy tizimida siyosiy partiyalar yanada faollashib, tarkibiy va funksional jihatdan rasmiylashishda davom etdi.



**Liberallar**, asosan, yirik burjuaziyaning manfaatlarini ifoda etgan, mayda burjuaziya tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, ishchilar sinfining yuqori qismiga muhim ta’sir o‘tkazgan.

Liberal partiya o‘z faoliyatini muvaffaqiyatli olib borish maqsadida XIX asrning 60–70-yillarida o‘z ish metodini o‘zgartirdi; barcha saylov okruglarida partiyaning shtatli chinovniklari ishlaydigan doimiy qo‘mitalar tuzildi. Partiyaga rahbarlik qilish markazdan turib amalga oshiriladigan bo‘ldi. Yangi



tizimni tashkil etish 1877-yilda butun mamlakat miqyosida “Milliy liberal federatsiyasi”ning tuzilishi bilan nihoyasiga etdi. Bu federatsiya liberal partiyaning bir qadar rasmiylashgan siyosiy tashkilot bo‘lib ishlashiga asos soldi. Dizraeli zaharxandalik bilan bu tashkilotni amerikacha termin bilan “kokes” deb atagan. Buning ma’nosi saylovlarning “uydurmaligi”, saylov kurashida harom ishlar va ayyorliklar ishlatish deganidir.

1880-yildagi saylovlarda liberallar umumpalatasida konservatorlardan 100 ta ortiq o‘rin oldilar. Lekin Gladstonning ikkinchi hukumati (1880–1885) burjua liberalizmining inqirozga uchraganligini, uning klassik tamoyillari yangi vaziyatga mos kelmay qolganligini yaqqol ko‘rsatib berdi.

**Konservativ partiya** XIX asrning 80-yillarigacha o‘z kuchi va ta’siri bo‘yicha liberallarga yon berib keldi. U, asosan, yer egalariga, yirik fermerlarga va ingliz cherkoviga tayangan. XIX asrning 70-yillari oxirida konservatorlar liberallarga taqlid qilib, “kokes” bilan raqobat qilish niyatida o‘zlarining ommaviy tashkilotlarini (masalan, “Boychechak liga”sini) tuzdilar. Konservatorlar partiyasining qayta qurish ishlari **1883-yilda “Konservatorlar assotsiatsiyalari milliy ittifoqi” tuzilishi** bilan tugallandi. U joylarda saylov faoliyatini markazlashtirish jihatidan qisqa vaqt ichida “liberallar federatsiyasi”dan ilgarilab, juda keng tarqalgan agentlari orqali ish ko‘rdi va markazlashgan partiya mablag‘lari fondidan saylov kurashi uchun foydalandi.

**XIX asrning 70-yillarini Angliya liberal davlati gullab-yashnagan yillar** deb atash mumkin. Bu vaqtda liberallar hokimiyat tepasida turib, o‘z tomonlariga ko‘pchilik saylovchilarni jalb qilishga intilib, qator islohotlar o‘tkazdilar.

XIX asrning oxiri ishlab chiqarishning yangi tarmoqlarining va shunga mos ishchilarning yangi qatlamlarining paydo bo‘lishi hisobiga ishchilar harakatining faollashuvi va tred-yunionlar sonining o‘sishi bilan nishonlangan. Shu asnoda amaldagi qonunlar ishchilar ittifoqlarini yuridik shaxs huquqlaridan mahrum etgan va ish tashlagan ishchilarni tred-yunionlar tomonidan qo‘llanishiga imkon bermasdi. Biroq 1867-yilgi islohotdan keyin ishchilarning ovoz berish uchun kurashi terd-yunionlarning tan olinishiga olib keladi.

**1871-yilda liberallar shunday qonun** qabul qilinishiga erishganlarki, *bunga ko‘ra, tred-yunionlarning o‘z vakillari orqali sudda ishtirok etishlariga ruxsat etilgan.*

Tred-yunionlar yuridik shaxs sifatida uzil-kesil e'tirof qilinib, stachkalar boshlangan taqdirda o'z rahbarlari va kasaba ittifoq kassalarining daxlsizligiga ko'z tutishlari mumkin bo'ladi. Bir varakayiga parlamentda ikkita qonun qabul qilinib, Angliyada matlubot va ishlab chiqarish kooperatsiyalari qonunlashtirildi.

1875-yilda konservativ kabinet ishchilarga qator yon berishlarni amalga oshirdi. Ishchilarning nafratiga sazovor bo'lib kelgan "Xo'jayinlar va xizmatkorlar to'g'risida"gi qonun shu yili **"Korxonalar egalari va ishchilar to'g'risida"** degan yangi qonun bilan almashtirildi. *Unga muvofiq ishchilarning mehnat bitimini buzgani uchun turmaga qamalishi bekor qilinib, shu vaqtdan boshlab ishga yollash to'g'risidagi shartnomaning buzilganligi to'g'risidagi ish sudda ko'rilganda korxonalar egalari ham, ishchilar ham teng huquqli taraflar deb qaraladigan bo'ldi.*

O'sha yili **"Bolalarning mehnatini muhofaza qilish"** qonuni qabul qilindi. *Unga muvofiq, 10 yoshga to'lmagan bolalarni ishga yollash taqiqlandi.* Dizraeli tred-yunionlarning 54 soatli ish haftasi to'g'risidagi talabini bajarishdan bosh tortdi-yu, lekin ish vaqtini haftasiga 57 soat qilib cheklash to'g'risida qonun chiqartirdi. Bundan tashqari, **"Jamoat sog'lig'ini saqlash to'g'risida"** (1857 yil), ya'ni shaharlardagi sanitariya choralari to'g'risida qonun qabul qilindi. Konservatorlar partiyasi ushbu choralarning hammasini omma o'rtasida obro' qozonish niyatida amalga oshirgan edi.

**1906-yilda Buyuk Britaniyada leyboristlar (ishchilar) partiyasi tashkil topdi.** Unga tred-yunionlar, Mustaqil ishchilar partiyasi, Sotsial-demokratik federatsiya hamda boshqa ishchi tashkilotlari va partiyalari a'zo bo'lib kirdi. Uning maqsadi parlamentga o'z deputatlarini o'tkazish edi.

Yangi partiyada mayda burjuaziya va ishchi aristokratiyasi hal qiluvchi ta'sirga ega bo'ldi. 1906-yildagi parlament saylovlarida leyboristlar partiyasi jiddiy muvaffaqiyat qozonib, parlamentga o'zining 29 ta deputatini o'tkazdi. Dastlab leyboristlar liberallarning so'l qanoati bo'lib qoldi, xolos. Lekin oqibatda ular liberallar va konservatorlar bilan raqobat qiladigan doimiy mustaqil fraksiya tashkil qildilar.

**XIX asr oxiridagi saylov islohotlari.** XIX asr oxirida saylov huquqining demokratlashtirilishiga qaratilgan qator qonunlar qabul qilindi.

Liberal hukumat, o'sha vaqtda juda keng tarqalgan saylovchilarni sotib olish tajribasini tugatishga harakat qilib, **1872-yilda yashirin ovoz berish haqidagi qonunni** o'tkazdi. Biroq bu chora unga muvaffaqiyat

keltirmadi. **1883-yilgi qonun** saylov xarajatlarini qisqartirdi va saylov agentlarini omma oldida javob berishga majbur etdi. Saylovga oid jinoyatlarning ro'yxatlari o'rnatilib, ular uchun jazolar kuchaytirildi.

**1884–1885-yillarda uchinchi saylov islohoti** o'tkazildi. U ilgari ikkita islohotning xatolarini to'g'rilashga, xususan, saylov senzlari xilma-xilligini tugatishga qaratilgan edi.

**1884-yilgi qonun** shaharlarda mulk senzini bekor qildi, qishloq joylarida (grafliklarda) ijaraga kvartira olib turuvchi kishilarga va mayda ijarachilarga saylovda ovoz berish huquqini berdi. Shu tariqa mayda ijarachilar ham 1867-yilgi islohot bilan shahar aholisiga berilgan saylovda ovoz berish huquqiga ega bo'ldilar. Bu islohot natijasida saylovchilar soni ikki baravarga oshdi.

**1885-yilgi qonun** bilan parlamentdagi deputatlik o'rinlari yangidan qayta taqsimlandi. Unga ko'ra, 16 mingdan kam aholisi bo'lgan 105 ta "joy" mustaqil vakillikdan mahrum bo'ldi; 57 mingdan kam aholisi bo'lgan shaharlar bittadan o'rin oldi; ancha yirik shaharlar uchun mandatlar ko'paytirildi. Shaharlar va grafliklar okruglarga bo'lindi. Okruglarning aholisi 50–54 ming kishidan iborat bo'lib, ular bittadan deputat saylardilar.

1884–1885-yilgi saylov islohotlari saylov tizimidagi ko'p jiddiy kamchiliklarni bartaraf etmadi. Saylovchilar va mandatlar soni o'rtasidagi nomutanosiblik saqlanib qoldi. Bir qancha okruglarda ovoz berish huquqini beruvchi kvartiralarni egallab turgan shaxslar bir qancha ovoz olgan, lekin kvartiralarga ega bo'lmagan aholining ko'pgina qismi saylov huquqiga ega emas edi. Saylovlar butun mamlakat bo'yicha bir kunda o'tkazilmasdi. Deputatlar taqdirlanib turmasdi. Saylovlarning majoritar tizimi saqlanib qolgandi. Bunga muvofiq, agar nomzodlar mutlaq ko'pchilik ovoz olmasalar, u holda kim nisbatan ko'p ovoz olsa, o'sha g'alaba qozongan.

**Mahalliy boshqaruv va sud islohotlari.** Islohotlarning keyingi bosqichi konservatorlar partiyasi bilan bog'liq edi. **1888-yilda ular grafliklarda mahalliy islohot** o'tkazib, unga ko'ra, shaharlarning 1835-yil o'rnatilgan o'zini o'zi boshqarish tizimi grafliklarga ham tarqatildi. Butun ma'muriy hokimiyat grafliklarda tashkil etilgan saylanadigan kengashlarga o'tkazildi. Murosaga keltiruvchi sudyalarda faqat sud funksiyalari saqlanib qoldi. Aholisi 300 kishidan ortiq bo'lgan prixodlarda ham saylanuvchi kengashlar tashkil etildi.

Islohot natijasida mahalliy o'zini o'zi boshqarish aristokratiyadan burjuaziyaga o'tdi.

Liberallar tomonidan amalga oshirilgan sud islohoti natijasida hali feodalizm davrida vujudga kelgan oliy sud muassasalari tizimi soddalashtirilib, Angliyaning barcha yuqori sudlari yagona Oliy sudga birlashtirildi. **Oliy sud Yuqori sud va fuqarolik ishlari bo'yicha Apellatsion suddan** iborat tarkibda tashkil etildi.

### **Eslab qoling!**

**1832-yilgi saylov islohoti bilan deputatlarning soni qayta belgilandi, yosh va mulk senzi joriy qilindi.**

**1867-yilgi saylov islohoti bilan deputatlar soni qayta taqsimlandi, saylovchilar ro'yxati mayda burjuaziya, hunarmandlar va ishchilar hisobiga kengaydi.**

**1884-1885-yilgi saylov islohoti bilan mulk senzlari bekor qilindi, mayda ijarachilarga saylovda qatnashish huquqi berildi.**

## **7-§. Ijroiya hokimiyatining kuchayishi**

**Ministrlar Kabineti** parlament yordamida oliy ijroiya hokimiyat organi bo'lib olib, XIX asrning ikkinchi yarmida parlamentning o'zidan ustunlik qila boshladi. Bu jarayonni qator holatlar keltirib chiqargandi.

**Ministrlar Kabineti** hukmron partiyalarning asosiy qismini tashkil etgan, hukmron partiya bilan munosabatda markaz bo'lgan, partiyaning barcha a'zosi unga bo'ysungan, amalda qonun chiqarish vazifasini bajargan.

**Parlamentning** ustunligi uning ijtimoiy bazasi juda tor bo'lib turgan vaqtda o'rnatilgan edi. Bunday parlamentga hech qo'rqmay butun qonun chiqarish va ijroiya hokimiyat ustidan nazorat qilish hokimiyatini berish mumkin edi. 1867-yilgi islohot yangi elementlarga parlamentga ta'sir o'tkazish imkoniyatini berdi. Bu holat hukmron sinflarni parlamentning vakolatlarini qisqartirishga majbur etgan, chunki parlament o'z vakolatlaridan demokratiya manfaatlarida foydalanishi va shu tariqa hukmron sinflar manfaatlariga putur yetkazishi mumkin edi.

Bundan tashqari, ingliz parlamentining sustkashligi XIX asrning oxirida qizg'in va gurkiragan iqtisodiy va ijtimoiy hayotga javob bermasdi. Davlat boshqaruvining kengayib va ko'payib borayotgan vazifalari zudlik bilan qarorlar qabul qilishni talab qilardi. Lekin parlament buni ta'minlay olmasdi. Parlamentda ish yuritish tartibining o'zgartirilishi eski parlament mashinasining yangi sharoitlarga moslashtirishga urinish edi.

1887-yilda parlament muzokaralarining yopiq o'tkazilishi qoidasi joriy qilindi. Bu esa juda muhim hisoblangan parlament erkinliklaridan birini yo'qqa chiqardi. Endi har qanday deputat xohlagan vaqtda munozarali masalani ovozga qo'yish haqidagi taklifga spiker (umumpalatasi raisi) e'tiroz bildirmasa, ovozga qo'ya olgan. Shundan so'ng taklifni ko'pchilik deputatlar ma'qullab ovoz bersa, lekin bu ovozlar yuztadan kam bo'lmasa, u qabul qilingan deb hisoblanardi. Munozaralarni to'xtatishning boshqa usullari ham paydo bo'lgan. Bu **“gilotina”** degan nom bilan atalib, uning mohiyati shundan iborat ediki, bunda palata munozarali masalani ovozga qo'yish kuni va soatini oldindan tayinlardi. 1909-yilda spikerga o'z xohishi bo'yicha muhokamaga taalluqli tuzatishlarni qilish, keraksiz masalalarni chiqarib tashlash huquqi berildi. Bunday usul “kenguru-gilotina” degan nom oldi.

Bunday yangiliklarning joriy etilishi tufayli parlament bahslari deyarli qilinmay qo'yib, muxolifat esa har vaqt tinchlantirilishi mumkin edi. XIX asrning 80-yillaridan boshlab umumpalata majlislarining o'ndan to'qqiztasi hukumatdan chiqadigan qonunlarni muhokama qilishga ajratilgan. Oqibatda muxolifatning qonunchilik tashabbuskorligi yo'qqa chiqarilgan. Biroq bular nafaqat muxolifiyatga nisbatan qilingan, balki ko'pchilik deputatlar ham Ministrlar Kabinetining faoliyatini muhokama qilish bo'yicha o'z imkoniyatlaridan cheklab qo'yilgan edi.

Yuqoridagilarning hammasi hukmron partiyalar yuqori qismining, ya'ni Ministrlar Kabinetining roli kuchayishiga olib kelgan.

Hukmron partiyaga nisbatan munosabatda kabinet – bu markaz bo'lgan. Kabinetga partiyaning har bir a'zosi bo'ysunishi lozim edi. Ministrlar kabinetining amalda qonun chiqaruvchilik roli tobora mustahkamlanib borgan. Bundan tashqari, u boshqaruv apparatiga rahbarlikni amalga oshirgan. Natijada ingliz parlamentarizmining asosiy sharti – kabinet javobgarligi qoidasi o'z ahamiyatini yo'qotgan. Parlament siyosiy tizimdagi o'zining yetakchi o'rnini Ministrlar Kabinetiga bo'shatib bergan.

**Lordlar palatasining yangi holati. 1911-yilgi islohot.** Lordlar palatasi o'z ijtimoiy tarkibi bo'yicha aristokratiyaning tayanchi va haqiqatda konservativ partiyaning parlamentda davom etishi hisoblangan. Konservatorlar parlamentda kamchilik bo'lib qolganda va qandaydir muhim masala bo'yicha mag'lubiyatga uchraganda, lordlar palatasi o'zining tiyib turish funksiyasidan foydalanib, kurashayotgan tomonlardan birini himoya qilib chiqqan. Bu bilan ikki palatali tizimning haqiqiy mohiyati buzilgan.

Bu lordlar palatasini qayta qurishga yoki tarqatib yuborishga harakat qilayotgan liberallarni tashvishga solmay iloji yo‘q edi.

### **Eslab qoling!**

Liberallarning lordlar palatasi bilan kurashi natijasida **1911-yilgi parlament haqidagi Akt** vujudga keladi.

*qo‘ydi: bundan buyon umumpalatasida qabul qilingan Bill, agar shu palataning uch sessiyasida qabul qilingan bo‘lsa, lordlar palatasi har safar ma‘qullamaganligiga qaramay, qonun kuchini olaveradigan bo‘lib qoldi. Agar lordlar palatasi Billni uchinchi safar ham tasdiqlamasa, uni chetlab, to‘g‘ridan to‘g‘ri qirolning tasdig‘iga jo‘natilgan.* Bunda Billni birinchi sessiyaning ikkinchi o‘qishi bilan uchinchi sessiyaning oxirgi o‘qishi o‘rtasida ikki yildan ortiq vaqt o‘tgan bo‘lishi shart edi. Yangi qonun lordlar palatasini moliya masalalarini hal qilishdan ham chetlashtirib qo‘ydi. Moliyaviy qonunlarni o‘tkazish uchun lordlar palatasining roziligi umuman so‘ralmasdi. Mazkur qonunga asosan parlamentning ishlash muddati yetti yildan besh yilga qisqartirildi.

1911 yilgi islohot faqat partiyalar o‘rtasidagi kurash mahsuli emasdi. Uning o‘tkazilishini Ministrlar Kabinetining kuchayishi hamda lordlar palatasi ijtimoiy tarkibining o‘zgarishi ham taqozo qilgan. XX asrning boshiga kelib urug‘chilik aristokratiyasi va burjuaziyaning qo‘shilishi yuz berdi. Bunda burjuaziya yaqqol ustunlik qildi. Burjuaziya, yuqori palatadan to‘liq voz kechmagan holda, kuchli Ministrlar Kabinetiga umid bog‘lagan. Chunki bunday Ministrlar Kabineti umumpalatasining kuchsizligi sharoitida burjuaziyaning manfaatlarini yetarlicha to‘liq ta‘minlash imkoniyatiga ega bo‘ldi. 1911-yilgi qonun, shuningdek umumpalatasi a‘zolariga maosh joriy qildi.

### ***Nazorat uchun savol va topshiriqlar***

1. *Ingliz burjua inqilobining asosiy xususiyatlari va natijalari nimalardan iborat bo‘ldi?*

2. *Angliyaning yozilmagan konstitutsiyasini tashkil etgan hujjatlarning mazmun-mohiyati haqida nimalarni bilasiz?*

3. *Yangi davrda Angliyada qonun chiqarish hokimiyati va ijro hokimiyati o‘rtasidagi muvozanat qay tarzda o‘zgarib borganligiga baho bering.*

4. *Angliyaning yangi davr davlat tuzumi o‘rta asrlar davlat tuzumidan qanday farq qiladi?*

## II BOB

### AQSHNING TASHKIL TOPISHI VA YANGI DAVRDA KONSTITUTSIYAVIY RIVOJLANISHI

*Shimoliy Amerika mustamlakalari va ularda boshqaruvning tashkil etilishi. Mustaqillik uchun kurash va “Mustaqillik deklaratsiyasi”ning e’lon qilinishi. Yangi davlat apparatining tashkil qilinishi va Shimoliy Amerika davlatlari (shtatlari)ning birinchi konstitutsiyalari. AQSHning 1781-yilgi “konfederatsiya moddalari”. AQSHning konfederatsiyadan federatsiyaga o’sib o’tishi va 1787-yilgi Konstitutsiyasi. 1791-yilgi “Huquqlar to’g’risidagi Bill”. Federal davlat apparatining tashkil qilinishi. AQSHda siyosiy partiyalarning shakllanishi va rasmiylashtirilishi. AQSH hududining kengayishi va shtatlar sonining ko’payishi. 1861–1865-yillardagi fuqarolar urushi va uning ijtimoiy-siyosiy natijalari. XIX asr oxiri XX asr boshida AQSH ijtimoiy-siyosiy tuzumidagi o’zgarishlar.*

#### **1-§. Shimoliy Amerika mustamlakalari va ularda boshqaruvning tashkil etilishi**

Ma’lumki, AQSHning hozirgi hududida qadim vaqtlardan buyon hindular va eskimoslar yashagan. Ko’pgina tarixchilarning taxminicha, ularning ota-bobolari bundan 20–25 ming yillar oldin Osiyodan ko’chib kelganlar. XI–XIV asrlarda Shimoliy Amerikaga asosan grenlandiyalik islandlar ahyon-ahyonda safar qilib turganlar.

Shimoliy Amerikaga XVI asr oxirlarida kelgan inglizlar uzoq tura olmadilar. Doimiy mustamlakaga aylantirish 1607-yildan, ya’ni **Virginiya** (qirolicha Yelizaveta ismidan) deb nomlangan mustamlaka barpo qilingandan keyin boshlandi. Angliya XVIII asr o’rtalarida asosiy raqiblarini surib chiqarib, qit’ada o’zining 13 ta mustamlakasini barpo qildi. Bulardan **Nyu-Gempshir** (1622-yilda tashkil etilgan), **Massachusets** (1628-yilda tashkil etilgan), **Konnektikut** (1634–1637-yillarda tashkil etilgan), **Rod-Aylend** (1636–1643-yillarda tashkil etilgan) “Yangi Angliya” mustamlakalari deb atalardi. Ingliz inqilobining boshlanib ketishi natijasida mutamlakalar bilan metropoliya o’rtasidagi aloqa zaiflashib, hindular bilan kurash kuchayib ketganligi tufayli bu mustamlakalar ichki boshqarish ishlarida to’la mustaqillikni saqlaganlari holda “Yangi Angliyaning birlashgan mustamlakalari” (1642–1643-yillarda) degan nom ostida ittifoq tuzganlar.


Markaziy rayonda **Nyu-York** (1664), **Nyu-Jersi** (1664), **Pensilvaniya** (1681) degan mustamlakalar bunyodga keldi, Pensilvaniyadan **Delaver** (1704) ajralib chiqdi. Janubda Virginiyadan tashqari **Merilend** (1634), **Shimoliy Korolina** va **Janubiy Korolina** (1663), **Jorjiya** (1733) degan mustamlakalar tashkil topdi.

Bu mustamlakalar geografik joylashishi va qishloq xo‘jaligi rivojlanishi nuqtayi nazaridan **shimoliy, markaziy va janubiy mustamlakalar**ga bo‘linadi.

Shimolda qishloq xo‘jaligida mayda va o‘rta hol fermerlar hukmronlik qilardi.

Markaziy mustamlakalarda mayda va o‘rta hol fermerlar bilan birga yirik yer egalari ham bor edi. Masalan, Nyu-York mustamlakasida 2,5 mln akrdan ko‘proq yer yirik yer egalari qo‘lida edi.

Janubda esa qishloq xo‘jaligida yirik yer egalari hukmronlik qilib, plantatsiyali ishlab chiqarish mavjud edi.



Yirik yer egalari o‘z yerlarini nasldan naslga qoldirish sharti bilan ijaraga berar yoki bo‘lmasa, kichik-kichik uchastkalarga bo‘lib sotar edilar. Bir necha grafliklar aholisining oltidan besh qismi chek yer va ijaraga olingan yerlarda yashar edi. Yerning bahosi tobora o‘smoqda, renta ham oshib bormoqda edi. Mayda fermerlar har yili yirik yer egalari to‘lashi lozim bo‘lgan bu renta (kvitrent deb ham ataladi) feodal xarakterga ega bo‘lib, bevosita ishlab chiqaruvchilarning g‘azabini keltirar, bu g‘azab ko‘pincha qo‘zg‘olonga aylanib ketar edi, ammo ko‘proq ular o‘z yerlaridan g‘arb tomonga ketib qolar edilar.

Shimoliy Amerika mustamlakalarida XVIII asrning boshlarigacha **skvatterlik**, ya‘ni ko‘chib kelgan aholi tomonidan yerlarning “g‘ayri qonuniy” tarzda bosib olish keng tarqalgan edi. XVIII asrning 30-yillarida Angliya parlamenti yangi hududlarga ijozatsiz ko‘chib borishni, yerlarni bosib olishni va chegara posyolkalaridan tashqariga chiqishni taqiqlovchi



*qonunlar qabul qildi. Binobarin, bu vaqtga kelib barcha muhim yerlar kolonistlar tomonidan egallab olingan edi. 1763-yilgi qirol proklamatsiyasiga binoan Allegandan nariga ko'chib borish taqiqlangan edi.*

Mustamlakalar sekinlik bilan bo'lsa ham, iqtisodiy rivojlana bordi. To'qimachilik ustaxonalari, tegirmonlar, temir va g'isht zavodlari, kemasozlik korxonalar va boshqa korxonalar paydo bo'ldi. XVIII asrda manfakturalar ancha keng tarqaldi, sanoatda mashinalar qo'llanila boshlandi.

### **Eslab qoling!**

Angliya hukumati Shimoliy Amerikada o'z mustamlakalarining iqtisodiy rivojlanishiga yo'l bermaslikka va mustamlakalarni xomashyo bazasi sifatida ushlab turishga harakat qilardi.

Metropoliyalar mustamlakalarning rivojlanishi yo'lida g'ov bo'lib turar edilar, metropoliya mustamlakalarning raqobat qilishidan va, ayniqsa, iqtisodiy jihatdan tobora mustaqil bo'lib borayotganligidan cho'chib, Amerikada sanoat va savdoni bo'g'ib tashlashga, mustamlakalarni o'zining xom-ashyo bazasi hamda tovarlarini sotadigan bozor sifatida saqlab qolishga intilar edi.


Angliya hukumati mustamlakalarda ko'pgina sanoat mollari ishlab chiqarishni, sanoat korxonalarini qurishni, shuningdek Angliyadan mustamlakalarga ustalar, mashinalar va ixtirolar olib borishni taqiqlovchi ko'pdan ko'p farmoyishlar chiqardi. 1750-yilda parlament mustamlakalarda temir qirquvchi va prokat qiluvchi korxonalar qurishni va ularni kengaytirishni, mix va asbob-uskunalar yasash uchun ketadigan sifatsiz temirpo'latdan tashqari, tayyor buyumlar ishlab chiqarishni taqiqlab qo'ydi. Angliya burjuaziyasi mustamlaka bozorida o'z monopoliyasini saqlab qolishga intilib, o'z mustamlakalariga boshqa mamlakatlar va ularning mustamlakalari bilan bevosita savdo-sotiq ishlari olib borishni man etdi. Temir, mis rudasi, tamaki, mo'ynalar va boshqa buyumlar hamda mahsulotlar faqat metropoliyalarga jo'natilishi kerak edi.

Biroq Angliya qanchalik harakat qilmasin, bu yerda sanoatning o'sishiga, mustamlakalarni tashqi mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarining rivojlanishiga to'sqinlik qila olmadi.

Mustamlakalarning iqtisodiy rivojlanishiga ularning siyosiy parokandaligi ham xalaqit bermoqda edi. 13 ta mustamlakaning har biri o'zining alohida tuzumiga va idora qilish shakliga ega edi. Dastlabki

mustamlakalar (Virginiya, Nyu-Plimut<sup>1</sup>, Massachusets) sof tijorat korxonalari edi. Ularning huquqiy holati mustamlakachilik xartiyalari bilan belgilanardi. Bunday xartiyalar Britaniya taxti va u yoki bu kompaniyalarning aksionyerlari o'rtasidagi o'ziga xos shartnomalar bo'lgan. Toj-taxt va mustamlakalar o'rtasidagi munosabatlarning keyingi rivojlanishi tobora siyosiy xarakter kasb etib bordi.

Britaniya mustamlakachilik boshqaruv tizimi XVII asrning oxirida shakllandi. Bu vaqtga kelib 13 ta mustamlaka tashkil etilgan va ular o'z huquqiy holati bo'yicha uch guruhga bo'lingan edi.



**Rod-Aylend va Konnektikud o'zini o'zi boshqaruvchi xartiyalariga ega mustamlakalar** bo'lib, amalda o'ziga xos respublikalar hisoblanardi, chunki ularning hududidagi barcha boshqarish organlari saylovlar yo'li bilan tashkil qilinardi. **Pensilvaniya, Delaver va Merilend xususiy egalikdagi mustamlakalar** edi. Boshqa sakkizta mustamlaka – **Massachusets, Nyu-Gempshir, Nyu-York, Nyu-Jersi, Virginiya, Shimoliy Korolina, Janubiy Korolina va Jorjiya qirollik mustamlakalari** bo'lgan. Bu mustamlakalar qirolning o'zi tayinlaydigan gubernatorlar tomonidan boshqarilar edi, ammo shu bilan birga ikki palatali qonun chiqarish majlislari ham tashkil qilingandi. Mustamlakalar qonun chiqaruvchi majlislarining qarorlari yo qirol tomonidan tayinlangan va mutlaq veto huquqiga ega bo'lgan gubernator tomonidan yoki Yashirin kengash orqali qirol tomonidan bekor qilinishi mumkin edi.

Mustamlakalarga in'om qilingan **qirollik xartiyalarida** metropoliyalarda harakatda bo'lgan *huquq va erkinliklar*, jumladan, *hammaning qonun oldida tengligi, ishlarning qasamxo'rlik sudlarida adolatli hal etish huquqi, jinoyat jarayonida tortishuvchilik prinsipi, erkin ko'chib yurish huquqi, diniy e'tiqod erkinligi, shafqatsiz va og'ir jazolardan himoyalash huquqi va boshqalar* taqdim qilingan edi.

<sup>1</sup> Bu mustamlaka 1620-yilda tashkil etilib, 1691-yilda Massachusetsga qo'shib olingan.

Ingliz mustamlakalaridagi siyosiy-huquqiy muassasalar va qarashlar Angliya ta'siri ostida rivojlandi, biroq ular hammadan avval mustamlaka jamiyatining iqtisodiy ehtiyojlarini aks ettirdi. Mustamlakalarda konstitutsiyashunoslik tug'ilishining eng boshidanoq ikki bir-biriga qarama-qarshi tendensiya – reaksiyon va demokratik yo'nalish yuzaga keldi. **Massachusettsda reaksiyon tendensiya ancha kuchli bo'lib, teokratik oligarxiya o'rnatilgan edi, har qanday demokratiya, erkin fikr yuritish va dinga beparvolik ko'rinishlari ta'qib qilinardi.** Bu “puritan respublikasi”da hokimiyat aristokratik va burjua elementlariga tegishli edi.

Konnektikut mustamlakasi Massachusettsdan haydalgan, agrar va siyosiy cheklanishlardan, diniy ta'qiblardan norozi bo'lgan kolonistlar tomonidan tashkil qilinib, bu yerda demokratik tendensiya kuchli edi. **Konnektikutning boshqaruv organlari – gubernator va Asosiy sud (vakillik muassasasi) saylab qo'yilardi,** buning ustiga mustamlaka aholisiga aktiv saylov huquqining taqdim qilinganligi qandaydir diniy talablar bilan bog'liq emasdi.

Shu bilan birga, **o'zini o'zi boshqaruvchi Rod-Aylend** mustamlakasi yanada ko'proq darajadagi demokratik respublika hisoblanardi. Bu yerda bir palatali qonun chiqarish organi bilan vakillik boshqaruv shakli joriy qilingan, cherkov davlatdan ajratilgan edi, tez-tez saylovlar amalga oshirilardi, fuqarolarning teng huquqliligi, kollektiv va yakka tartibdagi qonunchilik tashabbusi, referendumlar o'tkazish nazarda tutilgandi.

Janubiy mustamlakalarda – yirik plantator-quldorlar, shimoliy mustamlakalarda – yirik yer egalari va burjuaziya (mo'yna va ro'm bilan savdo qiluvchilar, kontrabandistlar, qulpushlar) jamiyatning boy qatlamlari edi.

*Biroq barcha mustamlakalar ingliz qonunlariga muvofiq tarzda idora qilinishi kerak edi.* Saylovlar juda yuqori mulk senziga qarab o'tkazilardi.

Ko'pgina mustamlakalarda hindular, negrlar va oq tanli qullargina emas, hattoki ishchilar, hunarmandlar va fermerlar ham siyosiy huquqlardan mahrum etilgan edilar.

## **2-§. Mustaqillik uchun kurash va Mustaqillik deklaratsiyasining e'lon qilinishi**

Ingliz inqilobi mustamlakalarda ozodlik uchun kurashning boshlanishiga katta ta'sir etdi. Parlament 1644-yilda mustamlakalarni chetdan olib kirilgan va chetga chiqarilgan mollar uchun boj to'lashdan ozod qilganida, Massachusetts bu ozodlikni o'zi chiqargan tarzida amalga oshirib, “ingliz parlamentining qonunlari faqat Angliyadagina kuchga ega” deb aytdi.

Janubiy mustamlakalarda aristokratlar, katta yer-mulk va plantatsiya egalari, ayniqsa, anglikanlar va royalistlar ko'pchilikni tashkil qilar edilar. Qirolning qatl qilinishiga va respublika o'rnatilishiga bu yerdagilar qattiq norozilik bildirdilar va ochiqdan ochiq qo'zg'olon ko'tardilar. Virginiyada qirolning qatl qilinganligiga qarshi norozilik bildirishdan bosh tortgan va qatl etilgan qirolning o'g'lini qirol deb e'tirof etmagan shaxslar davlat xoinlari deb e'lon qilindi. Bu xildagi inqiloblar boshqa janubiy mustamlakalarda yuz berdi. Bunga javoban parlament, o'z navbatida, 1650-yilda respublikani e'tirof qilmagan kolonistlarni xoin deb e'lon qildi hamda ular bilan har qanday aloqa qilishni man etdi. Bardabos orolida (Kichik antil orollari) royalistlar respublikaga qarshi kurashish uchun 6 ming kishidan iborat ko'ngilli lashkar tuzdilar. Ammo ingliz eskadrasi orolga yaqin kelib qolganda, ular ancha bo'shashdilar. Biroq respublika g'alaba qilgan bo'lsa ham, ba'zi yon berishlarga rozi bo'ldi. Diniy e'tiqod erkinligi berildi, soliqlar mahalliy aholining roziligisiz belgilanmaydigan bo'ldi, barcha davlatlar bilan (Angliya bilan urush holatida bo'lgan davlatlar bundan mustasno) savdo-sotiq ishlari olib borish erkinligi berildi. Ko'p o'tmay boshqa respublikalar ham ana shu xildagi imtiyozli shartlar bilan respublikaga bo'ysundilar (1652).

Keng xalq ommasining mustamlakachi ma'murlarga qarshi yer uchun va siyosiy huquqlar uchun kurashi mustamlakalar bunyodga kelgan paytdanoq boshlanib, tobora keskinlashib bordi.

Mehnatkashlarga qarshi kurashda mustamlaka va metropoliyalarning hukmron sinflari bir bo'lib harakat qildilar. Biroq bularning o'rtasida bir qancha masalalar yuzasidan: siyosiy huquqlarni kengaytirish, mustamlakalarning siyosiy birligi, kolonistlarning soliq yig'ish huquqi (mus-tamlakachi boy qatlamlar bu huquqdan mustamlakalardan maosh olib turuvchi amaldorlarni nazorat qilish uchun foydalanar edilar) yuzasidan kelishmovchiliklar bor edi.

1754-yilda Olbenida mustamlakalar vakillarining syezdi chaqirildi. Bu syezdda B. Franklinning mustamlakalar ittifoqi tuzish to'g'risidagi loyihasi o'zgartishlar bilan qabul qilindi. Bu loyihaning yetarli darajada demokratik bo'lmagani va Angliya qirol tomonidan tayinlanadigan prezidentga juda katta imtiyozlar berilganligi mustamlakalardagi ko'pgina kishilarga yoqmadi. Londonda, aksincha, loyihani ortiq darajada demokratik va metropoliya uchun xavfli deb hisoblar edi. U yerda ishlab chiqilgan boshqa loyihaga binoan gubernatorlar hokimiyati kuchaytirildi; shu paytdan boshlab amaldorlarga va qo'shinlarga maoshni ingliz g'aznasi mustamlakalardan yig'ib olinadigan soliqlar hisobidan to'lashi kerak edi. O'z-o'zidan ma'lumki, ingliz loyhasini kolonistlar norozilik bilan qarshi oldilar.

Bu esa metropoliyaga qarshi kurashning keskinlashuvida va Amerikaliklar milliy ongining o‘shida kattagina rol o‘ynadi. Shuni aytish kerakki, Amerikaliklarning milliy ongi nisbatan sekin shakllandi: XVIII asrning o‘rtalarida kolonist o‘zini Amerikalik deb hisoblamasdan, balki virginiyalik, pensilvaniyalik, konnektikutlik deb hisoblardi. Ammo obyektiv iqtisodiy sharoitlar tufayli yangi millat tarkib topmoqda edi.

Amerikaliklarning bir yarim asr davomida metropoliyadan uzoq yerdagi umumiy hududida birgalikda yashab kelganligi Shimoliy Amerikaliklar millatining tashkil topishini taqozo qilgan obyektiv omillardan biri bo‘ldi. Mustamlakalar iqtisodiy mustaqilligining o‘shishi va ichki aloqalarning yo‘lga qo‘yilishi, milliy bozorning vujudga kelishi – yangi millat shakllanishida hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qildi. Madaniyat, matbuot, maorifning rivojlanishi milliy ongning, birdamlik, birlashish g‘oyalarining paydo bo‘lishiga yordam berdi.

Mustamlakalar bilan metropoliya o‘rtasidagi ziddiyatlarning kuchayishi inqilobni muqarrar qilib qo‘ydi. Ishlab chiqaruvchi kuchlar o‘sgan va mustamlakalar rivojlangan sari ular bilan metropoliya o‘rtasidagi ziddiyatlar ham kuchayib bordi. Negrlarning qul qilinishi, oq tanlilarni majburiy ishlatish, feodalizm elementlari va jaholatparastlik kabilarning hammasi mustamlakalarning rivojlanishi yo‘lidagi g‘ov bo‘lib, yer uchun, iqtisodiy mustaqillik va siyosiy birlik uchun kurashayotgan turli ijtimoiy qatlamlarda norozilik tug‘dirmoqda edi.

1763-yilda Fransiya bilan sulh Shartnomasi tuzilgandan keyin qariyb 10 ming kishilik ingliz qo‘shinlari mustamlakalarda qoldirildi va shaharlarga joylashtirildi. Angliya monopoliyalarini qo‘riqlovchi qonunlarning qat’iy suratda bajarilishini nazorat qilib turish, kolonistlarning savdo kemalarini tintuv qilish va shu kabi vazifalar fuqaroviy harbiy ma’murlarga yuklatilgan edi. Mustamlakalarga joylashtirilgan armiya kolonistlar hisobidan yashashi kerak edi. *1762-yilda tovarlarga yangi poshlina joriy qilinib, mustamlakalarda kredit biletlari chiqarish taqiqlandi*, kolonistlarning o‘zlarida esa tanga pul yo‘q edi. Buning oqibatida mustamlakalarda muomala vositalariga ehtiyoj keskin oshib ketdi va iqtisodiy ahvol ham juda og‘irlashdi.

**Hukumatning agrar siyosati** keng xalq ommasida katta norozilik tug‘dirayotgan edi. Kolonistlar Allegan ortidagi barcha yerlarni o‘zlariga qarashli deb hisobladilar, chunki ular urush vaqtida Fransiyadan tortib olingan ayni mana shu hududlar uchun kurashgan edilar. Biroq urush tugagan zahoti bu qo‘lga kiritilgan yerlar podsho mulki deb e‘lon qilindi. **1763-yilgi farmonga binoan kolonistlarga Allegan bilan Missisipi**

*o'rtasidagi yerlarni egallash va ishlash man etildi.* Kolonistlar qirol farmoniga itoat qilmadilar. Ingliz qirolidan Amerika yerlariga xartiya olgan zamindorlarga qarshi yer uchun kurash keyinchalik mustaqillik uchun urush boshlanib ketishining muqaddimasi bo'ldi.

Yetti yillik urush natijasida juda ko'payib ketgan davlat qarzlarini uzish uchun hukumatning kolonistlarni soliq to'lashga majbur qilishi munosabati bilan mavjud ziddiyatlar yanada keskinlashib ketdi. Kolonistlar bilan hukumat o'rtasida soliqlar tufayli avj olib ketgan kurash zamirida aslida hokimiyat uchun kurash masalasi yotar edi.

**1763–1764-yillarda mustamlakalarda “kaukus” deb atalgan tashkilotlar, klublar va yashirin uyushmalar vujudga keldi.** 1765-yilda tuzilgan “Hurriyat farzandlari”, shuningdek, “Hurriyat qizlari” tashkiloti anchagina kuchli vatanparvar xalqchil tashkilotlar edi. Bu tashkilotlarda ishchilar, hunarmandlar, mayda fermerlar, baliqchilar, burjuaziya va intelligensiyaning bir qismi faol qatnashdi. Burjuaziya va intelligensiyaning bir qismi orasidan kurashning inqilobiy usulini yoqlab chiqqan Tomas Jefferson, Semyuel Adams va boshqalar ko'zga tashlanib turar edilar.

Metropoliya dushmanlari orasida mo'tadil elementlar hukmron guruh edi. Bular (Jon Adams, Vashington va boshqalar) xalq harakatidan qo'rqar, kurashning passiv metodlarini, masalan, boykotni afzal ko'rar edilar. Ular burjuaziya asosiy qismining, plantatorlarning manfaatlarini ifoda etar edilar. Bularning ko'pchiligi so'llashib, inqilobiy lagerga o'tdilar, ozchiligi o'nglashib keyinchalik qirol siyosatini so'zsiz quvvatlash tarafdori bo'lgan loyalistlar lageriga qo'shilib ketdi.

Mustaqillik arafasida **mustamlakalarda sanoat va savdoning rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik** maqsadida turli choralar ko'rila boshlandi. **1765-yilda** Angliya parlamenti **mustamlakalarga qarshi qaratilgan ikkita qonun** qabul qildi: bulardan biri **“qo'shinlarni joylashtirish qonuni”** bo'lib, *bu qonun ingliz hukumatiga mustamlakalarga cheklanmagan miqdorda qo'shinlar yuborish va ularni aholi uylariga joylashtirish huquqini berar edi,* **ikkinchi qonun** *har qanday hujjatlar, gazetalar, risolalar, e'lonlar ustidan gerb solig'i solish to'g'risida* edi. Bu qonunlar mustamlakalarda juda katta g'azab tug'dirdi, bu narsa burjua elementlarining qarshi ta'sir ko'rsatishiga qaramay, ommaviy g'alayonlarga aylanib ketdi.

**Taunshend qonuniga binoan 1767-yilda bir qancha tovarlarga bojxona poshlinasi joriy qilindi.** Poshlinadan tushgan daromad chinovniklar va harbiy ma'murlarning ta'minotiga sarflanar edi, binobarin ular

kolonistlardan mustaqil bo‘lib qolgan edilar. Jazo choralari kuchayib ketdi. G‘alayonlarni bostirish va qo‘zg‘olonning oldini olish uchun 1768-yilda Bostonga harbiy yordamchi kuchlar keltirildi. So‘ngra hukumat siyosiy jinoyatlarda ayblangan kolonistlarni Angliyaga olib ketib, o‘sha yerda sud qilishni buyurdi. Ma‘murlarga qarshilik ko‘rsatgan mustamlaka majlislari tarqatib yuborildi. Bu tadbirlarning hammasi kolonistlarning g‘azabini oshirdi. Kolonistlar qo‘shinlarning olib chiqib ketilishini, o‘zlarining huquqlarini paymol qiluvchi hamma poshlina va qonun qonunlarning bekor qilinishini talab qildilar. Parlament Taunshend qonunini bekor qilish bilan yana qisman va muvaqqat yon berishga majbur bo‘ldi.

Sharqiy rayonlarda, ayniqsa, Massachusetsda ishchilar, hunarmandlar va fermerlar metropoliyaning faol tarafdorlarini ushlab olib, qattiq jazolar edilar. 1768-yilda Massachusetsda oq tanli qullar g‘alayon ko‘tardilar. Qo‘shinlar bilan to‘qnashuvlar tez-tez bo‘lib turar edi.

1770-yildan boshlab ingliz choyini sotib olishga qarshi kurash davom etdi. Ingliz hokimiyatining ramzi sifatida bu choy uchun juda oz poshlina saqlanib qolingani edi. 1773-yil dekabrda Bostonda bir guruh shaxslar hindu kiyimini kiyib, kemaga chiqib olishib bir toy choyni dengizga cho‘ktirib yuborganlar (buni *bostoncha choy ichish* deb ham atashadi).

1774-yilgi “qo‘shinlarni joylashtirish qonuni”ning majburan amalga oshirilishi va boshqa chora-tadbirlar mustamlakalarda inqilobiy kayfiyatni kuchaytirib yubordi, ana shu tadbirlardan biri 1774-yil 26-iyundagi “**Kvebek qonuni**”, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Unga k o‘ra fermerlar ham, yer olibsotlar va yirik mulkdorlar ham yerdan mahrum etilgan edilar. Angliyaning bu harakatlari xalq g‘azabini oshirib yubordi va uni mustaqillik uchun urushga chorladi.

1774-yil 5-sentabrda mustamlakalar aholisi Angliyaga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish uchun o‘z vakillarini birinchi qit‘a Kongressiga yubordi. Kongress Angliya qirolidan mustamlakalar manfaatlarini buzadigan qonunlarning bekor qilinishini talab qildi va ingliz tovarlariga boykot e‘lon qildi.

**1775-yil 19-aprelda** Boston shahri yaqinida qurol-yarog‘ omborlarini bosib olishga harakat qilgan Angliya askarlari kolonistlar tomonidan tor-mor keltirildi. Bu kun **mustaqillik uchun urushning boshlanishi bo‘ldi**.

Mustaqillik uchun urush o‘z xarakteri, vazifalari va harakatlanuvchi kuchlari nuqtayi nazaridan, Amerikalik olim U.Fosterning ko‘rsatishicha, “demokratik oqim ta’siri kuchli bo‘lgan burjua inqilobi” edi.

Ma'lumki, inqilobiy omma kongressga oliy hokimiyat deb qarar edi. Biroq kongress uzoq vaqtgacha milliy ta'sis majlisi rolini bajarishdan o'zini chetga tortib kelardi. Bu vaqtga kelib ahvol ancha o'zgargan. Kongress endi qo'zg'olon ko'targan mustamlakalarning hukumati – markaziy inqilobiy organ bo'lib qoldi. Ikkinchi qit'a Kongressi nihoyat iyun oyida doimiy armiya tuzish haqida qaror qabul qildi va Jorj Vashingtonni oliy bosh qo'mondon etib sayladi. **Kongress, Angliya qiroliga petitsiya yubordi.** *Unda kongress qirol hokimiyatiga o'z sadoqatini bildirdi va barcha masalalarni tinch yo'l bilan hal qilishni iltimos qildi.* Shuningdek, ingliz xalqiga qarata murojaat ham yuborilgan edi.

Angliya hukumati petitsiyani rad etib, mustamlakalarni isyon holatida deb e'lon qildi, ular bilan savdo-sotiqni taqiqladi, ularning to'la qamal holatida ekanligini e'lon qildi, mustamlakalarga qo'shimcha askar yubordi. Bularning hammasi mustamlakalarning inqilobiy kurashini kuchaytirdi.

Inqilobiy voqealarning borishiga va kolonistlarning siyosiy-huquqiy ongiga **1776-yil 12-iyunda** Konvent tomonidan ma'qullangan **Virginiya huquqlari deklaratsiyasi** juda katta ta'sir ko'rsatdi. Bu deklaratsiya Amerika konstitutsiyashunosligi tarixidagi muhim hujjatlardan biri hisoblanadi. U inson huquqlari haqidagi birinchi deklaratsiya edi. *Unda barcha kishilar o'z tabiatiga ko'ra bir xil darajada erkin va mustaqildirlar hamda o'zlariga xos huquqlarga egadirlar, ular bu huquqlardan voz kechishlari va o'z avlodlarini mahrum qilishlari mumkin emas, kishilar yashash, erkinlik, mulkka ega bo'lish, baxtli bo'lish va xavfsizlikka intilish kabi huquqlarga ega* deb e'lon qilingandi.

Deklaratsiyada dinga e'tiqod kuch va zo'rlik yo'li bilan emas, balki ishonch va idrok asosida bo'lishi lozimligi belgilangandi.

Deklaratsiyada *butun hokimiyat tepasida xalq turishi va u xalqning ishonchli vakillaridan tarkib topishi, hukmdorlar esa xalqning ishonchli xizmatkorlari hisoblanishi va xalq oldida mas'ul ekanliklari* e'lon qilingandi. Deklaratsiyaning, ayniqsa, **3-moddasi** o'z davrida alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Unda o'sha vaqtning qat'iy inqilobiy talablaridan biri *xalqning hukumat agar uning manfaatlariga javob bermasa, uni o'zgartirish, ag'darib tashlash huquqi* mustahkamlangan edi. Mazkur tarixiy hujjatda *matbuot erkinligining e'lon qilinganligi uning muhim o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.*

III Qit'a kongressi **1776-yil 4-iyulda** demokrat Tomas Jefferson tomonidan yozilgan **Shimoliy Amerika mustamlakalarining mustaqilligi to'g'risidagi Deklaratsiyani** tasdiqladi.



## “Mustaqillik deklaratsiyasi”da Yangi davlat – Amerika Qo‘shma Shtatlari tuzilganligi e‘lon qilindi.

Unda Angliyadan to‘la mustaqil bo‘lib ajralib chiqilganligi quyidagicha asoslab ko‘rsatildi: *“Biz quyidagi haqiqatni hammaga ayon haqiqat deb hisoblaymiz. Barcha kishilar teng yaratilgan. Yaratuvchi ularning hammasiga ma‘lum huquqlar: yashash, ozodlik, baxt-saodatga intilish huquqlarini bergan...”*

*Bu huquqlarni ta‘minlash uchun kishilar orasida hukumatlar ta‘sis etilgan, bu hukumatlar, o‘z navbatida, ana shu kishilarning roziligiga qarab adolat bilan hokimiyatni boshqarishi kerak...*

*Agar hukumatning mazkur shakli shu maqsadni amalga oshirilishi uchun halokatli bo‘lsa, xalqning o‘zi uni o‘zgartirishga yoki yo‘q qilib yuborishga va yangi hukumat ta‘sis etishga haqqi bor, bunday hukumat shu xalqning xavfsizligiga hamda baxtli yashashiga yordam beradigan prinsipga asoslangan va hokimiyat ishlarini shu tarzda tashkil eta oladigan bo‘lishi kerakki, juda ko‘p xiyonatlar va uzurpatsiya yo‘li bilan cheklanmagan istibdod hukmronligi ostida bu xalqni qul qilib olish niyati borligi ma‘lum bo‘lib qolgudek bo‘lsa, xalq bunday hukumatni ag‘darib tashlashi kerak va ag‘darib tashlashi zarur”<sup>1</sup>.*

Deklaratsiyada Angliya hukumati tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar, suiiste‘molliklar sanab ko‘rsatildi. Unda *xalqning hukumat tuzish va ag‘darib tashlash huquqi mavjudligi e‘tirof etildi.*

Deklaratsiyada ezilgan *xalqning qo‘zg‘olon ko‘tarish huquqiga ega ekanligi rasmiylashtirildi, “xalq suvereniteti” g‘oyasi qonunlashtirildi.*

Deklaratsiya yangi, mustaqil, progressiv davlat tashkil topganligini rasmiylashtirdi. Shu bilan birga, deklaratsiya loyihasidan plantator-quldorlarning tazyiqi ostida qullikni va qul savdosini qoralovchi modda olib tashlandi. Lekin unda hindular va qullar huquqlari haqida hech narsa deyilmadi.

### **3-§. Yangi davlat apparatining tashkil qilinishi va Shimoliy Amerika davlatlari (shtatlari)ning birinchi konstitutsiyalari**

Mustaqillik uchun urush davridayoq qurolli kurashga rahbarlik qilish uchun turli qo‘mitalar tuzila boshlangan edi. Xususan, ingliz tovarlariga nisbatan boykotning bajarilishini kuzatib borish 1772-yilda tuzilgan “korrespondent qo‘mitalari”ga bo‘ysunuvchi maxsus “nazorat qo‘mitalari”ga topshirilgan edi. 1774-yilda Nyu-York, Pensilvaniya va

---

<sup>1</sup> Хрестоматия по всеобщей истории государства и права. Т. 2. /Под. ред. К.И.Батыра и Е.В.Поликарповой.- М.: Юрист, 1996. – В.53.

Jorjiyadan tashqari barcha mustamlakalarda **viloyat kongresslari** tashkil qilindi. Xususan, Massachusettsda gubernatorning taqiqlashiga qaramay, 1774-yil oktabrda viloyat kongressi chaqirilgan edi. Bu kongress qonun chiqaruvchi inqilobiy organ bo'lib qoldi. **Xavfsizlik qo'mitasi esa ijroiya hokimiyat edi.** Shuningdek, harbiy qo'mita ta'sis etildi va militsiyaga odam yollash o'tkazildi. Urushga tayyorgarlik ko'rishda "hurriyat farzandlari" jamiyati juda muhim rol o'ynadi. 1774-yilning sentabrida Shimoliy Amerikadagi Angliya mustamlakalarining hukmron doiralari vakillaridan iborat birinchi Qit'a kongressi chaqirilgan edi. 1775-yil 10-mayda ikkinchi Qit'a kongressi chaqiriladi. Shunday qilib, mustamlakalarda mustaqillik e'lon qilingunga qadar qonunlashtirilmagan, mahalliy, viloyat va qita organlar tizimi vujudga kelgan edi. Bu yangi davlat apparatida savdogarlar, yirik yer egalari, sanoatchilar va boshqalar siyosiy hukmronlikni o'z qo'llariga olgan edilar. Mustaqillikka qadar AQSHning qurolli kuchlari ham tashkil topa boshlagan edi. 1774-yil oktabrda Massachusetts viloyat kongressi qarori bilan militsiya tashkil qilindi. 1775-yilda Virjiniya viloyat kongressi mudofaa qo'mitalarini tuzgan edi. Shu kabi qurolli kuchlar boshqa mustamlakalarda ham tashkil qilindi. Bunday ko'ngillilardan iborat qurolli kuchlar keyinchalik doimiy armiyaga aylantirildi. 1775-yil II Qit'a kongressi J.Vashington qo'mondonligidagi umumqit'a milliy armiyasini tuzdi.

Mustaqillik e'lon qilingandan keyin har bir mustamlaka mustaqil davlat (shtat) bo'lib qoldi. 1776–1780-yillar davomida bularning ko'pchiligi o'z konstitutsiyalarini qabul qildi. Barcha shtatlarning konstitutsiyalari Huquqlar deklaratsiyasi bilan yoki Huquqlar haqidagi Bill bilan boshlanadi. Ularda ingliz fuqarolari uchun an'anaviy bo'lgan huquq va erkinliklar, "og'ir tushmaydigan" garov asosida qamoqdan ozod qilish, "tez va adolatli" sud, "Habeas corpus" protsedurasi va boshqalar sanab ko'rsatilgan edi.

### **Eslab qoling!**

#### **Konstitutsiyalarda quyidagi huquq va erkinliklar ko'rsatilgan:**

- 1) matbuot va saylov erkinligi, ko'pchilikning hukumatni almashtirish va **o'zgartirish** huquqi;
- 2) so'z, yig'ilishlar o'tkazish, petitsiyalar berish, qurol taqib yurish erkinliklari, turarjoy daxlsizligi;
- 3) mol-mulkni tegishli kompensatsiya qilmay turib (o'rnini qoplamay) olish, urush vaqtidagi qonunlarni tinchlik vaqtida qo'llash, o'ziga o'zi qarshi ko'rsatma berishga majburlash va boshqalar taqiqlanishi.

*Barcha konstitutsiyalar hokimiyatlarning taqsimlanishi prinsipidan kelib chiqdi.* Nyu-York, Massachusets va Nyu-Gempshir shtatlaridan tashqari barcha shtatlarda parlamentlarning roli kuchaytirilgan va ijroiya hokimiyat mavqeyi pasaytirilgan edi. Faqat ikkita shtatda gubernatorlar veto huquqidan foydalanganlar. Shtatlarning ko'pchiligida sudyalari ijroiya hokimiyat tomonidan emas, balki qonun chiqaruvchi majlislar tomonidan tayinlangan va mustaqil deb e'lon qilingan. Shtatlarning konstitutsiyalarida o'sha davrda hukmron bo'lgan "jamoat shartnomasi" "xalq suvereniteti" va "tabiiy huquq" nazariyalari o'z aksini topgan edi. Ularda xalq suvereniteti e'lon qilingan bo'lsa ham, ammo hali katta mulk senzi, o'troqlik senzi va boshqa cheklashlar belgilangan edi. Masalan, senator mansabiga ega bo'lish uchun Nyu-Jersi va Myerlendda ming funt sterling, Janubiy Korolinada esa ikki ming funt sterling talab qilinardi.

Bu konstitutsiyalarga binoan *shtatlarda boshqarishning respublika shakli o'rnatilib, qonun chiqarish organlari asosan 2 palatali parlamentlardan iborat edi.* Quyi palatalar umumiy saylovlar asosida tashkil qilinardi. Yuqori palatalar (senatorlar) esa katta mulk egalari vakillaridan tayinlanar edi. Faqat Pensilvaniya shtatida bir palatali qonun chiqarish organi tuzilgan edi.

*Ijroiya hokimiyat (hukumat) shtatlarda tayinlanadigan gubernatorlar tomonidan amalga oshirilardi,* faqat Pensilvaniyada prezident boshchiligidagi kengashga tegishli edi.

#### **4-§. AQSHning 1781-yilgi "konfederatsiya moddalari"**

Bu aslida AQSHning birinchi konstitutsiyasi hisoblanardi. U Mustaqillik deklaratsiyasini tuzish davrida "birlashgan mustamlakalar" konstitutsiyasi loyihasini tuzuvchi komissiya tomonidan ishlab chiqildi. Bu komissiya 1776-yil 12-iyulda qit'a kongressiga ushbu loyihani taqdim qiladi. Kongress uni 1777-yilda tasdiqlaydi. Bu konstitutsiya loyihasi 1781-yil 1-martda barcha shtatlarning qonun chiqarish organlari tomonidan tasdiqlangandan keyin kuchga kiradi.

1781-yilgi "konfederatsiya moddalari"ga binoan qo'shma shtatlar ittifoqdosh davlat emas, davlatlar (shtatlar) ittifoqi (konfederatsiya) deb ataldi. Uning preambulasida ko'rsatilganidek, bu hujjat "Shtatlar o'rtasidagi abadiy ittifoq" tuzilganligini yuridik rasmiylashtirdi.

"Konfederatsiya moddalari"da belgilanganidek, umumkonfederatsiya ishlariga rahbarlik qilish uchun ayrim shtatlarning qonun chiqarish organlari tomonidan tayinlanadigan *bir palatali kongress* tashkil qilinadi.

Bunda shtatlarning vakillari bitta ovozga ega. Kongress sessiyalari o'rtasidagi davrda har bir shtatning (konfederatsiya a'zosining) bittadan vakili (delegati) tarkibida "shtatlar qo'mitasi" tuziladi.

"Konfederatsiya moddalari"da *konfederatsiya kongressining huquqlari jiddiy cheklangan edi*. Masalan, urush masalasini hal qilishda, xalqaro shartnomalar tuzishda, pul tamg'alash normalarini belgilashda, qurolli kuchlar miqdorini aniqlashda konfederatsiya a'zolarining kamida to'qqiztasining roziligi talab qilinardi. Konstitutsiyaga binoan Kongress o'z mablag'iga ega emasdi, chunki u soliqlar belgilash va yig'ish huquqidan mahrum edi. Kongress konfederatsiya a'zolarini o'z qarorlarini bajarishga majbur qila olmasdi, shtatlarning ichki ishlariga aralashishga haqqi yo'q edi va hokazo.

Kongress qarorlari shtatlarning uchdan ikki qismi tomonidan ma'qullansagina, kuchga kirardi. Bu qarorlar ayrim shtatlarning ijroiya organlari tomonidan amalga oshirilishi kerak edi.

### **Eslab qoling!**

#### **"Konfederatsiya moddalari"**

**II modda:** *ayrim shtatlar o'z suverenitetini va mustaqil hokimiyatini saqlab qoladi.*

**III modda:** *umumiy mudofaa, o'z ozodliklarini ta'minlash hamda o'zaro va "umumiy farovonlik" uchun "doimiy do'stlik" konfederatsiyaning maqsadi.*

**VI modda:** *har bir shtat: 1) o'z armiyasi va flotiga ega bo'ladi; 2) tashqi hujum bo'lgan taqdirda urush boshlashi mumkin; 3) umumkonfederatsiya oliy organi roziligi bilan elchilar yuborish va qabul qilish, o'zaro shartnoma va ittifoqlar tuzish huquqiga egadir.*

**IX modda:** *umumkonfederatsiya kongressi urush va tinchlik masalasini hal qilish, elchilarni tayinlash va qabul qilish, xalqaro shartnomalar tuzish, pul tamg'alash qoidalarini belgilash, og'irlik o'lchovlarini belgilash, aloqa vositalarini tartibga solish, konfederatsiya mansabdor shaxslarini tayinlash, qurolli kuchlarni tashkil qilish va boshqarish, konfederatsiya a'zolarining o'zaro nizolarini hal qilish, hindular bilan muzokaralar olib borish vakolatlariga ega.*

### **1787-yilgi Konstitutsiyasi**

1781-yilgi "konfederatsiya moddalari" shtatlarning zaif, kuchsiz birlashmasini belgilab, ularning ijtimoiy-siyosiy rivojlanishiga to'sqinlik qilardi. Konfederatsiya tuzumi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va uning xalqaro ahvolini mustahkamlash uchun g'ov bo'lib qolgan edi. Mamlakatning siyosiy va iqtisodiy tarqoqligi, ichki va tashqi savdoning tartibga solinmaganligi, har bir shtatning o'z bojxona tarifiga va pul

tizimiga ega bo'lishi, chet mamlakatlar bilan diplomatik munosabatlarning tartibga solinmaganligi AQSH hukmron doiralari o'z manfaatlarini himoya qila oladigan kuchli, markazlashgan davlat apparatlarini vujudga keltirishga da'vat etdi. Ularga hukmronlikni mustahkamlab beradigan qattiqqo'l hokimiyat kerak edi. Konfederatsiya esa bunday hokimiyatni bunyodga keltira olmadi. Shtatlar hindular bilan to'xtovsiz urush olib borayotgan edilar.

Bundan tashqari, AQSHda mustaqillik e'lon qilingan, "konfederatsiya moddalari" qabul qilingan bo'lsa ham, ammo Angliya bilan urush davom etardi. Angliyaga qarshi urush 1783-yilda tugatilib, sulh tuzilgan. Urush davomida xalq ommasi yanada qashshoqlashdi, fermerlar qarz evaziga sudxo'rlarga qaram bo'lib qoldilar, urush xarajatlari mehnatkashlar zimmasiga og'ir yuk bo'lib tushdi, soliqlar miqdori oshdi. Natijada xalq qo'zg'olonlari boshlanib ketdi. 1780-1781 va 1783-yillardagi askarlar qo'zg'oloni, 1786-1787-yillarda Massachusets shtatida ko'tarilgan xalq qo'zg'oloni, ayniqsa, hukmron doiralarni qo'rqitib qo'ydi. Shunday qilib, yagona davlat barpo qilinishini iqtisodiy va siyosiy sabablar taqozo qilayotgan edi.


Shuningdek, markazlashgan davlatning tashkil etilishi, hukmron doiralarning fikricha, Shimoliy Amerika davlatlarining xalqaro obro'sini ancha ko'tarishi lozim edi. Mana shunday sharoitda "Konfederatsiya moddalari"ni qayta ko'rib chiqish uchun Filadelfiyada Konvent chaqiriladi. U 1787-yil 25-maydan 17-sentabrgacha davom etdi va xalqdan yashirincha AQSHning yangi Konstitutsiyasi loyihasini ishlab chiqdi.

To'rt oy davom etgan munozaralardan keyin ishlab chiqilgan konstitutsiya AQSH tarixida katta rol o'ynadi. U yirik burjuaziya bilan quldorlar o'rtasida murosasozlik rolini o'ynadi.

**1787-yil 17-sentabrda Konvent Konstitutsiya loyihasini ma'qulladi. Unga ko'ra, AQSH davlatlar ittifoqidan (konfederatsiyadan) ittifoq davlatga – federatsiyaga aylandi.**

AQSH Konstitutsiyasi tuzilishiga ko'ra, preambula va 7ta moddadan iborat bo'lib, ulardan faqat 4tasi bo'limlarga ajratilgan.

Konstitutsiya davlatshunoslik nazariyasining "hokimiyatlarning taqsimlanishi" prinsipiga asoslandi.



**Kongress** federal mansabdor shaxslarni, jumladan, prezidentni ham impeachment<sup>1</sup> tartibida sud qilish huquqiga ega. Bunda tergov ishlarini vakillar palatasi olib boradi, senat esa sud qiladi. Konstitutsiyaga binoan, federal Kongress poshina va soliqlarni belgilash, pul tamg‘alash va uning qiymatini belgilash, chet mamlakatlarga va ayrim shtatlarga qarz berish, tosh-tarozi, og‘irlik o‘lchov birliklarini o‘rnatish, ichki va tashqi savdoni tartibga solish, sudlarni tashkil etish, qo‘shma shtatlarning mudofaasini ta‘minlash, urush e‘lon qilish, armiya va flot tuzish va ta‘minlash, federal qonunlarni ijro qilish va qo‘zg‘olonlarni bostirish uchun politsiyadan foydalanish kabi huquqlarga ega bo‘lgan.

Shuningdek, Konstitutsiyada kelajakda Kongressning huquqlari kengaytirilishi mumkinligi nazarda tutildi. Konstitutsiyaga binoan federal Kongressning tergovsiz sud qilish haqida, dvoryanlik imtiyozlarini joriy qilish haqida va shu kabi qonunlarni qabul qilishi qat‘iyan man qilindi. Federal organlar xalqaro munosabatlarda AQSH nomidan harakat qilish va shartnomalar tuzish huquqiga ega.

**Senat** har bir shtatning qonun chiqaruvchi majlisi tomonidan ikkitadan olti yil muddatga saylanadigan senatorlardan tashkil topadi. Senatning uchdan bir qismi har ikki yilda Yangilanib turishi kerak. **Vakillar palatasi** proporsional saylov tizimi asosida – aholi soniga qarab xalq, ya‘ni saylov korpusi tomonidan ikki yil muddatga saylanadi. Hamma saylovlar juft sonli yillarda o‘tkaziladi. Qonun avval vakillar palatasida qabul qilinadi va so‘ng senat tomonidan tasdiqlanadi. Senatning rozilgisiz bironta ham qonun qabul qilinishi mumkin emas. Qabul qilingan qonun prezident tomonidan imzo qo‘yilgandan keyin kuchga kiradi.

<sup>1</sup> Impichment (Impeachment) – parlament tomonidan davlat xizmatida turgan mansabdor shaxsga nisbatan jinoiy javobgarlik qo‘zg‘ash.

## 1787-yilgi Konstitutsiyaga ko‘ra prezident maqomi

Ikki pog‘onali saylov tizimi asosida to‘rt yil muddatga saylanadi.
Ijroiya hokimiyat, davlat va hukumat boshlig‘i, qurolli kuchlarning oliy bosh qo‘mondoni.
Kongressga o‘z faoliyati yuzasidan hisobot bermaydi.
Faqat xoinlikda, poraxo‘rlikda aybdor deb hisoblangandagina prezident va ministrlar mansablaridan olinishlari mumkin.
Senat roziligi bilan xalqaro shartnomalarni imzolash, elchilar, konsullar, Oliy sud a‘zolarini va oliy federal mansabdor shaxslarni tayinlash vakolatlariga ega.

**Prezident**, shuningdek Kongress qonunlariga veto qo‘yish huquqidan foydalanadi. Prezident vetosi Kongress palatalari deputatlarining uchdan ikki qismidan ko‘prog‘ining qarshiligi bilan bekor qilinishi mumkin.

Prezident vaqti-vaqti bilan qo‘shma shtatlarning ahvoli haqida Kongressga axborot berib turadi va u Kongressning favqulodda sessiyalarini chaqirishi mumkin.

**Federatsiya sud hokimiyati** Oliy sud va Kongress tomonidan tashkil qilinadigan quyi federal sudlar tomonidan amalga oshiriladi. Barcha sudyalar (oliy sud a‘zolari ham) senatning “roziligi” bilan prezident tomonidan tayinlanadi. Oliy sud Senat azolarining 2/3 qismining roziligi bilan prezident tomonidan umrbod muddatga tayinlanadi.

### 1789-yil sentabrdagi “Sud tuzilishi haqida”gi qonun bilan

- 1) Oliy sud bosh sudya va 5ta assotsiatsiyalangan sudyalardan iborat tarkibda tashkil qilindi (keyinchalik Oliy sud a‘zolarining soni bir necha marta o‘zgartirildi);
- 2) 1869-yildan boshlab Oliy sud tarkibi 9ta sudyadan iborat o‘zgarmas qilib o‘rnatildi;
- 3) AQSH 13ta sud rayonlariga bo‘lindi;
- 4) Men va Kentukidan tashqari sud rayonlari 3ta sud okruglariga birlashtirildi.

Oliy sud barcha qonunlar va shartnomalarni ularning Konstitutsiyaga muvofiqligi nuqtayi nazaridan sharhlash va ularni Konstitutsiya ruhiga munosib emas deb bekor qilish huquqiga ega.

Konstitutsiyada ayrim shtatlarning huquqlari to‘la belgilanmadi. Lekin shtatlar federal kongressga tegishli bironta ham masalani hal qilish huquqiga ega emas. Konstitutsiyaga ko‘ra, shtatlar federatsiya ixtiyorida bo‘lmagan fuqarolik, jinoyat, mehnat, protsessual huquqlar sohasida qonunlar qabul qilish, respublika tuzumini saqlab

qolish sharti bilan o‘z konstitutsiyalarini qabul qilish huquqiga egadirlar.

**Konstitutsiyani o'zgartirish yoki unga qo'shimcha kiritish uchun juda murakkab tartib o'rnatilgan.** Konstitutsiyaga qo'shimcha faqat Kongressning har ikkala palatasining yoki maxsus chaqirilgan Konvent a'zolarining uchdan ikki qismi ijobiy ovoz bergandagina hamda bu qo'shimchalar to'rtidan uch shtatlarning qonun chiqarish majlislari tomonidan ma'qullangandagina qabul qilingan deb hisoblanadi. **Saylov huquqi** turli shtatlarda ularning Konstitutsiyalari bo'yicha turlicha edi. *Xotin-qizlar, negrlar va mahalliy hindular saylov huquqlaridan mahrum etilgandi.* Unda *yuqori mulk, o'troqlik, ma'lumot senzleri va boshqa cheklashlar mavjud edi.*

Konstitutsiyada mulk huquqi qattiq himoya qilingan. Konstitutsiyada qul savdosi va qochoq qullarni qaytarish haqida alohida modda bor edi. Konstitutsiyada demokratik huquq va erkinliklar, shtatlarning suveren huquqlari haqida hech narsa deyilmagan edi. Shuning uchun Konstitutsiya ayrim shtatlar tomonidan tasdiqlanishi davrida bu kamchiliklar ko'rsatildi. Konstitutsiya ko'pchilik shtatlar tomonidan tasdiqlangan bo'lsa ham, ammo 1789-yilda federal Kongress unga "Huquqlar to'g'risidagi Bill" (qonun) deb ataluvchi birinchi 10ta tuzatish kiritdi va bu tuzatishlar faqat 1791-yilda barcha shtatlar tomonidan tasdiqlagach, kuchga kirdi.

## **6-§. 1791-yilgi "Huquqlar to'g'risidagi Bill"**

AQSH Konstitutsiyasining asl matnida fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga bag'ishlangan maxsus moddalar yoki bo'limlar yo'q edi. Demokratik elementlarning tazyiqi ostida **1789-yil sentabrda** D. Medison tomonidan **Konstitutsiyaga kiritilgan 10 ta tuzatish** qabul qilindi, bu tuzatishlar 1791-yil dekabrda shtatlar tomonidan ratifikatsiya qilindi va bir vaqtda kuchga kirdi. "Huquqlar to'g'risidagi Bill" deb nom olgan bu qo'shimchalar konstitutsiyaning o'sha davr uchun progressiv tomonini kuchaytirdi.

Konstitutsiyaga kiritilgan ushbu tuzatishlarning yettitasi (I, II, IV, V, VI, VII, VIII tuzatishlar) **fuqarolarning siyosiy hamda shaxsiy huquq va erkinliklariga** bag'ishlandi. Xususan, **I tuzatish diniy e'tiqod erkinligi, so'z va matbuot erkinligi, xalqning tinch yig'ilishlar o'tkazish va hukumatga petitsiya bilan murojaat qilish huquqi haqidagi normalarni** belgiladi. **II tuzatish xalqning qurol saqlash va ko'tarib yurish huquqini** kafolatladi. **IV tuzatish shaxs, turar-joy va mulk daxlsizligini** mustahkamladi. **V tuzatishda qasamxo'rlar sudi va protsessual kafolatlarni** haqida, xususiyl mulkning bepul olinishi taqiqlanishini belgilab qo'ydi. **VI, VII va VIII tuzatishlar protsessual prinsiplar va kafolatlarga**



bag'ishlanib, ularda qasamxo'r maslahatchilar ishtirokida ko'rilishi lozim bo'lgan fuqarolik va jinoiy ishlar doirasi belgilandi. Bu tuzatishlar bilan *haddan ortiq soliqlar joriy qilish va favqulodda jarimalar belgilash, shuningdek shafqatsiz va g'ayrioddiy jazolar berish taqiqlandi.*

III tuzatishga binoan, hech bir askarning tinchlik vaqtida qandaydir uyga uning egasining roziligisiz joylashishi mumkin emasligi, urush vaqtida esa bu faqat qonun bilan o'rnatilgan tartibda bo'lishi lozimligi belgilandi.

**IX tuzatishda** *fuqarolarning Konstitutsiyada to'g'ridan to'g'ri ko'rsatilgan huquqlaridan cheklanishiga yo'l qo'yilmasligi o'rnatildi.* **X tuzatish** esa, umuman, fuqarolik huquqlari haqida emas edi. Unda *Qo'shma Shtatlarga mazkur Konstitutsiya bilan berilmagan vakolatlarning tegishlicha shtatlar yoki xalq ixtiyorida qoldirilishi ko'rsatildi.*

Xalq kurashib qo'lga kiritgan va uning kattagina g'alabasi bo'lgan bu tuzatishlar, shubhasiz, Amerika demokratiyasining muhim g'alabasi edi. Biroq shu bilan birga, aytib o'tish lozimki, bu hujjat Konstitutsiyaning o'zi singari fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari va erkinliklari haqida hech qanday normalar belgilamadi. "Huquqlar to'g'risidagi Bill"da nazarda tutilgan qisqacha me'yorlar Oliy sudning ko'p sonli qarorlarida har tomonlama sharhlab berildi, shuningdek Kongressning yuzlab hujjatlarida batafsil aniqlashtirildi.

"Huquqlar to'g'risidagi Bill" fuqarolarning muhim siyosiy va shaxsiy huquq hamda erkinliklarini belgilagan bo'lsa ham, ammo keyinchalik fuqarolarning bu huquqlaridan ba'zilarini cheklovchi qonunlar ham paydo bo'ldi.

### **7-§. Federal davlat apparatining tashkil qilinishi**

AQSH Konstitutsiyasi 1789-yil 4-martdan kuchga kirdi. Shu kuni AQSH Kongressi o'zining birinchi sessiyasiga yig'ilgan edi. Bu vaqtga kelib yangidan tashkil etilgan federativ respublika qator qiyinchiliklarni boshidan kechirmoqda edi: konfederatsiya davlat g'aznasini bo'shatib qo'ygan va qarzga botib qolgan edi; garchand bojxona to'lovlari joriy qilingan bo'lsa ham, lekin uni yig'ish uchun apparat yo'q edi; hali ijroiya hokimiyat apparati, federal sud tizimi tashkil qilinmagandi; armiya bor-yo'g'i 672 ofitser va askarlardan iborat edi. Ana shunday sharoitda mamlakatda ijtimoiy tengsizlik, iqtisodiy tartibsizlik, ajralib chiqishga intilish tendensiyasi hukmron edi. Xalqaro ahvol ham juda murakkab va o'ta xavfli edi.

**1789 yil 30 apreldan boshlab AQSHning birinchi prezidenti Jorj Vashington o‘z lavozimini amalga oshirishga kirishdi.** Shundan so‘ng shoshma-shosharlik bilan ijroiya hokimiyat apparati tashkil qilindi.

**Dastlabki departamentlar – davlat, harbiy va moliya departamentlarini** tuzish haqidagi qonunlar qabul qilindi. **Bosh attorney** lavozimi ta‘sis etildi. 1790-yil fevralda Oliy sud o‘zining birinchi majlisiga yig‘ildi.

Shunday qilib, tashkiliy jihatdan alohida shtatlarning sud tizimlari bilan bog‘liq bo‘lmagan uch pog‘onali federal sud tizimi ta‘sis etildi. Bundan tashqari, **1789-yilgi qonun AQSHda attorney (adliya) xizmatiga asos soldi.** AQSH sud hokimiyati uchun Oliy sudning **“Medisonga qarshi Merberi ishi”** bo‘yicha 1803-yilda chiqargan qarori juda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu ishning mohiyati quyidagicha edi.

Davlat kotibi J.Medisonni V.Merberi degan odam Kolumbiya federal okrugida hakam sudya lavozimini egallash uchun patent bermaganlikda ayblab, suddan uni shunday patent berishga majburlovchi sud buyrug‘i chiqarishini so‘ragan. Oliy sudya J.Marshal ishni ko‘rib chiqib, sudga shunday sud buyruqlari chiqarish vakolatini beruvchi 1789-yilgi **“Sud tuzilishi haqida”**gi Qonunning 13-moddasi AQSH Konstitutsiyasiga ziddir degan xulosaga keladi. Shu tariqa *“konstitutsiyaga zid keladigan har qanday qonun ahamiyatsiz”* degan prinsip shakllandi va bu prinsip konstitutsiyaviy nazorat ta‘limoti va amaliyotiga asos qilib olindi.

Dastlabki o‘ttiz yil ichida federatsiyaning statut huquqi asoslari yaratildi. 1789-yilda Kongress **“qonunlar paketi”**ni qabul qildi. Unga **“Naturalizatsiya haqida”**gi, **“Chet elliklar haqida”**gi, **“Dushmanlik qiluvchi chet elliklar haqida”**gi, **“Isyon haqida”**gi qonunlar kiradi. **“Isyon haqida”**gi qonunda hukumatni ag‘darish maqsadida til biriktirganlik uchun, AQSH hukumati va prezidentini sharmanda qiluvchi, badnom qiluvchi, obro‘cini to‘kuvchi ma‘lumotlar tarqatganlik uchun sud tomonidan jazolar berilishi nazarda tutilgandi. Bu qonun Mustaqillik deklaratsiyasi va **“Huquqlar to‘g‘risidagi Bill”**ga ochiqdan ochiq qarama-qarshi edi.

AQSH Konstitutsiyasi kuchga kirgandan keyin dastlabki yigirma yil ichida unga XI va XII tuzatishlar kiritildi. **XI tuzatish** ittifoq hokimiyatining cheklanishi va shtatlar huquqlarining kengaytirilishi tarafdorlarining talabi bilan *1795-yilda qabul qilinib, shtatlarning boshqa shtatlar fuqarolari yoki chet elliklar tomonidan sud qilinishidan daxlsizlik huquqini o‘rnatdi.* 1804-yilda kiritilgan **XII tuzatish** prezident va vitse-prezident nomzodlari uchun alohida-alohida ovoz berishni joriy qilib, prezidentni saylash jarayonini yangi qoida bilan to‘ldirdi.

## 8-§. Siyosiy partiyalarning shakllanishi va rasmiylashtirilishi

Konstitutsiyani demokratlashtirish yo‘lidagi harakat munosabati bilan boshlangan keskin siyosiy kurash jarayonida **AQSHda ikkita partiya** – 1787-yilda konstitutsion Konvent tuzib chiqqan konstitutsiyani yoqlovchi **federalistlar partiyasi** va demokratik huquq va erkinliklarni himoya etishga qaratilgan dastlabki o‘nta tuzatishni (“huquqlar haqidagi loyiha”) konstitutsiyaga kiritish uchun harakat qilganlarga boshchilik qiluvchi **antifederalistlar partiyasi, ya’ni respublikachilar partiyasi** tarkib topdi.

1789–1801-yillarda hokimiyat tepasida turgan **federalistlar partiyasi yirik burjuaziya – savdogarlar, manufakturachilar, kema egalari, bank korchalonlari, yer olibsotarlar, shuningdek katta plantatorlar partiyasi edi**. Bu partiyaqa Vashington mahkamasining moliya boshqarmasi kotibi, demokratiyaning ashaddiy dushmani, konstitutsion monarxiya tarafdori Aleksandr Gamilton boshchilik qilar edi. Gamilton vujudga keltirgan moliya tizimi (milliy bankning monopoliya huquqlaridan foydalanishi, davlat krediti va soliq tizimi) davlat apparatida poraxo‘rlik, sotqinlik paydo bo‘lishiga olib keldi, bu hol mehnatkashlarni g‘azabga keltirdi. Federalistlar manfaatini ifoda etuvchi guruhlar moliyaviy va iqtisodiy jihatdan Angliya bilan savdo qilishga bog‘liq bo‘lganliklari sababli, ular tashqi siyosat sohasida ham Angliya bilan yaqinlashish yo‘lini tuta boshladilar.

Jefferson boshchilik qilgan **respublikachilar ham plantatorlarning bir qismiga, maydaroq plantatorlarga tayanar edilar. Burjuaziyaning bir qismi, fermerlar, hunarmandlar va mayda burjuaziya respublikachilarga ergashdi**, chunki respublikachilar yer olishni yengillashtirishni va mehnatkashlarga demokratik yon berishni yoqlab chiqqan edilar.

Antifederalistlar burjua-demokratik va so‘l liberal tendensiyani ifoda etib, ularning keng ommaga ta’siri kuchli edi. Jefferson, Genri va boshqalar yangi “aristokratiya va oligarxiya tomonidan” hokimiyatning uzurpatsiya qilinishiga qarshi, demokratik tuzum uchun kurashdilar va konvent yangi konstitutsiya tuzish uchun xalqdan vakolat olmaganligini isbotlashga urindilar.

Demokratlar o‘z vaqtida yagona davlat tuzishni yoqlab chiqqan edilar. Biroq tarkib topgan hozirgi kuchli markaziy hokimiyat shu turishda ayrim shtatlar qo‘lga kiritgan demokratik g‘alabalarni yo‘q qilishi mumkin deb o‘ylar edi. Demokratlar uchun antifederalizm federal konstitutsiyaga qarshi uni demokratlashtirish uchun kurash vositasi edi.

O'sha vaqtda shakllangan ikki partiyaviylik tizimi tashkiliy jihatdan aniq rasmiylashtirilmagan edi va 1824-yilga qadar yashadi.

1812–1815-yillardagi urushdan keyin federalistlar partiyasi inqirozga yuz tutgan edi, shu sababdan respublikachilar 1816 va 1820-yillarda unchalik oppozitsiyaga duch kelmay, prezidentlik lavozimiga o'z nomzodi – Jeyms Monroni o'tkazdi.

Respublikachilar plantator quldorlarning, fermerlar va shahar mayda burjuaziyasi keng doiralarning blokiga tayanardi; bu blok bir tomondan, quldorlar, va ikkinchi tomondan, fermerlar hamda Shimol burjuaziyasi o'rtasida hali u vaqtda murosaga kelish imkoniyati borligi asosida vujudga kelgan edi. Ko'p o'tmay respublikachilar partiyasi ichidan tug'ilib kelayotgan sanoat burjuaziyasining manfaatlarini ko'zlagan guruh ajralib chiqdi. Bu guruh o'zini **“milliy respublikachilar”** deb atay boshladi.

**1828-yilda demokratlar partiyasiga asos solindi;** bu partiya plantator quldorlar, fermerlar, mayda burjuaziya va qisman ishchilarning siyosiy blokiga boshchilik qildi.

20-yillarning oxirida dastlabki **ishchi partiyalari** ham maydonga keldi. Ular mahalliy xarakterdagi partiyalar bo'lib, ko'pincha faqat birgina shtat doirasida ayrim sotsial yoki siyosiy ilohotlar o'tkazish uchun kurashdilar.

Shimoli-sharqdagi yirik kapitalistik doiralarning manfaatlarini ifodalagan va **1834-yildan boshlab o'zlariga “viglar” deb nom bergan “milliy respublikachilar”** AQSH bankini himoya qilib chiqdilar.

Shu tariqa, 30-yillarda federalistlar partiyasining xarobalari o'rnida Shimol burjuaziyasining yangi siyosiy tashkiloti – viglar vujudga keldi. O'sha vaqtning o'zida kokuslar o'rniga milliy partiyaviy konventlar kelib, prezidentlikka nomzodlar ko'rsatish tartibini monopoliya qilib oldilar. Shu bilan birga, rotatsiya tizimi (“o'ljalar tizimi”) vujudga kelib, unga binoan prezidentning partiyaviy mansubligi almashishi federal apparatning partiyaviy belgi bo'yicha almashishiga olib keldi.

**Demokratlar va viglardan iborat bo'lgan ikki partiyaviylik tizimi** ba'zi o'ziga xos xususiyatlari bilan ilgarigi partiyaviy tizimdan farq qilardi. *Bu tizimning o'ziga xos belgisi shunda ediki, hech qaysi asosiy partiyalar o'zlari dastlab vujudga kelgan an'anaviy mintaqalarda ustun mavqeyega ega bo'lmaganlar.*

Dastlabki partiyalarga xos bo'lgan aniq g'oyaviy to'siqlarning yo'qligi ularning ommaviy zichligiga sabab bo'ldi.

1848-yil fevralida tuzilgan sulh shartlariga ko'ra, Meksika hududining beshdan ikki qismi AQSHga o'tdi. Meksika hududlarining bosib olinishi

natijasida qulchilikni yangi hududlarga yoyish masalasidagi kurashning kuchayishi uchun yangi bir zamin vujudga keldi. Bu masala 40-yillarning oxirida siyosiy hayotda markaziy o‘rin tutdi va siyosiy partiyalarning qaytadan guruhlariga bo‘linishiga asos soldi; siyosiy partiyalarning qaytadan guruhlariga bo‘linishi 50-yillarda fuqarolar urushi arafasida tugallandi.

1846-yilda pensilvaniyalik demokrat David Vilmot Meksikadan AQSHga qo‘shib olinadigan hududlarning hammasida qulchilikni taqiqlash to‘g‘risida konstitutsiyaga tuzatish kiritishni taklif qildi. Vilmot taklifi vakillar palatasidan o‘tgan bo‘lsa-da, ammo senat uni rad etdi.

Abolitsionistlarning<sup>1</sup> 1840-yilda tashkil etilgan **“Ozodlik partiyasi”** ham yangi hududlarda qulchilikning taqiqlanishini himoya qildi; bu partiya 1848-yilda Buffalodagi syezdda tuzilgan “ozod yer” (frisoylerlar) partiyasining o‘zagi bo‘ldi. Qulchilik tarafdorlari bo‘lmagan respublikachilarning bir qismi frisoylerlarga qo‘shildi. Ammo bunday ajralish respublikachilar orasidagina emas, balki demokratlar partiyasi ichida ham boshlangan edi.

**Frisoylerlar partiyasining** asosiy ommasini fermerlar tashkil etar edi. Frisoylerlar *dasturida* “*yerning qulchilikdan xalos etilishi, so‘z erkinligi, mehnat qilish erkinligi hamda odamlarning erkin bo‘lishlari*” va yerni bepul taqsimlab berishni ko‘zda tutgan agrar islohot o‘tkazilishi talab qilingan edi. Sanoat ishchilari frisoylerlarni keng qo‘llab-quvvatlar edi. Ishchilarning “Milliy islohotlar assotsiatsiyasi” nomli ommaviy tashkiloti frisoylerlarga qo‘shildi. Shimoli-g‘arbiy shtatlarda frisoylerlar tarafdorlarining soni, ayniqsa, ko‘p edi.

Quldorlik latifundiyalarini yo‘q qilish va ular o‘rnida fermerlarning mayda xo‘jaliklarini barpo etish to‘g‘risida frisoylyerlar tomonidan ilgari surilgan talab progressiv hodisa edi.

Quldorlar **1850-yil kongressda qochoq tutqunlar to‘g‘risida qonun** qabul qilinishiga yerishdilar, *bu qonunga ko‘ra shimoliy shtatlarning ma‘murlari qochoq qullarni tutib, ularni xo‘jayinlariga yetkazib berishlari lozim edi*. Quldorlar o‘z xo‘jayinlarining qo‘lidan allaqachonlar qochib ketgan negrlarni bu qonun asosida qul qilishga urindilar.

Bu qonun mamlakatda xalq ommasi noroziligining kuchayishiga va absolitsionizmning avj olishiga sabab bo‘ldi. 1854-yilda Kongress quldorlarning siquvi bilan **Kanzas-Nebraska Bili** deb atalgan qonun loyihasini qabul qildi, *bu Billga ko‘ra yangi hududlarda qulchilik bo‘lish-*

---

<sup>1</sup> Abolitsionistlar – (ingilizcha aboison) bekor qilish, tugatish so‘zidan olinib, ular qo‘shinni bekor qilish uchun kurashuvchilar edi.

*bo'lmisligi to'g'risidagi masalani ko'chib boruvchilarning o'zlari hal qiladigan bo'ldi.* Shunday qilib, qulchilikning 1820-yilda "Missuri bitimi"da belgilangan shimoliy chegarasi bekor qilindi. Quldorlar qulchilikni yanada shimol tomonlarda o'rnatib, uni butun g'arbiy yerlarga ham yoymoqchi edilar.

Kanzas shtati konstitutsiyasini qabul qilish uchun 1854-yil mahalliy konventga (majlisga) saylovlar bo'lishi kerak edi. Kanzas hududi terror yo'li bilan quldorlar foydasiga ovoz bildirish uchun bu yerga maxsus kelgan qurolli shaykalar bilan to'lib ketdi. Quldorlarning shaykalariga qarshi kurashish uchun shimoldan qurollangan fermerlar yetib keldi. Abolitsionistlar Lourens shahrida mustahkamlanib olib, shu yerda konvent chaqirdilar. Qurolli kurash boshlanib ketdi. Plantatorlar Kanzasni quldorlik shtati deb e'lon qildilar.

Quldorlar 1857-yilda negr Dred Skott ishi yuzasidan sharmandali qaror chiqargan AQSH Oliy sudidan ham o'z manfaatlari yo'lida foydalanganlar. Dred Skott qulchilik taqiqlangan shtatlardan birida ko'p yillardan beri yashab kelayotganligiga qaramay, Oliy sud u negr bo'lganligi uchun xo'jayinining mulki hisoblanadi va har qanday shtatda barcha huquqlardan mahrum qilinadi deb qaror chiqardi.

Oliy sudning qarori qulchilikni butun mamlakatga yoyish niyati borligini bildirar edi. *1860-yilda senat qulchilikni AQSHning hamma hududida qonuniy deb e'lon qildi.*

Bu qarorlar qulchilikning tarqalishiga qarshi bo'lganlarning hammasini qattiq g'azablantirdi.

XIX asrning 50-yillarida qulchilik haqidagi masala bo'yicha qarama-qarshiliklarning birdaniga kuchayishi ikkala partiyani juda og'ir ahvolga solib qo'ydi. Kanzasdagi voqealar, ayniqsa, qulchilik masalasi ustida turli guruhlar o'rtasida bo'layotgan kurash munosabati bilan, eski siyosiy partiyalarning inqirozini kuchaytirdi. "Demokratlar-viglar" tizimini saqlab qolishga qaratilgan urinish to'la-to'kis muvaffaqiyatsizlik bilan tugadi. Viglar partiyasi tarqalib ketdi. Demokratlar partiyasida Shimoliy qanot bilan janubiy qanot o'rtasida ixtiloflar keskinlashdi. Bu partiya ekstremistik quldorchilik fraksiyasiga aylandi.

### **Eslab qoling!**

**1854-yilda** quldorlik tizimini tanqid qilish bilan chiqqan **respublikachilar partiyasi tuzildi.** Bunga frisoyletlarning abolitsionistik partiyasi tarafdorlarining bir qismi, shuningdek viglarning bir qismi va demokratlar partiyasidan ajralib chiqqan guruh kirdi.

Amerika burjuaziyasi ikki partiyali tizimdan ustalik bilan foydalanib keldi. Agar hokimiyat tepasida respublikachilar turgan bo'lsa, demokratlar hukumatni "tanqid qilib" va o'zlarini xalq manfaatlarini himoya qiluvchilar qilib ko'rsatib, norozilarning katta qismini o'z tomonlariga og'dirib oldilar. Demokratlar g'alaba qilgan taqdirda oppozitsiyachi partiya rolini respublikachilar o'ynardilar. Shu tariqa, burjua partiyalaridan har gal bittasi norozilarni o'ziga og'dirib turadigan markaz bo'lardi, bu narsa uchinchi, boshqa biron-bir partiya tuzish yo'lida jiddiy to'siq bo'lib keldi.

## 9-§. AQSH hududining kengayishi va shtatlar sonining ko'payishi

Amerika xalqining mustaqillik uchun Angliyaga qarshi olib borilgan inqilobiy urushda g'alaba qozonishi AQSHning mustaqil milliy taraqqiyoti uchun qulay sharoit yaratib berdi. Ayni zamonda Yevropada uzoq davom etgan qattiq urushlar Amerika respublikasiga o'z chegaralarini ancha kengaytirishga imkon berdi.

Konstitutsiya qabul qilinganidan to 1861-yilgi Fuqarolar urushi boshlangunga qadar **AQSH hududi sotib olishlar va to'g'ridan to'g'ri agressiyalar natijasida ancha kengaydi.** *1803-yilda T.Jefferson qulay imkoniyatdan foydalanib, Napoleondan Luizianani – Missisipi daryosining g'arbida qoyali tog'largacha cho'zilgan juda katta hududni arzimagan 15 mln. dollarga sotib oldi.*

Luiziananing Konstitutsiyaga xilof ravishda va Kongressni chetlab o'tgan holda sotib olinishi hamda AQSHga qo'shib olinishi natijasida mamlakatning avvalgi hududi ikki baravar ko'paydi.

Agar XIX asrning boshlarida AQSH Atlantika okeani sohillari bo'ylab qariyb 892 ming kvadrat milya<sup>1</sup> maydonni ishg'ol etgan bo'lsa, Luiziana sotib olinganidan keyin uning maydoni yana 828 ming kvadrat milyaga kengaydi.

Shundan keyingi davrlarda mamlakat hududini kengaytirish, garchi AQSH hukumati bu ishga "kommersiya" bitimi tusini berishga intilgan bo'lsa ham, endi o'zgalar hududlarini ochiqdan ochiq bosib olishdan iborat bo'ldi. *1818-yilda AQSH chekinib borgan hindu qabilalarini o'z qo'shinlari bilan quvib borib, Ispaniya mustamlakasi Floridani ishg'ol qildi,* so'ngra 1819-yilda Ispaniya bilan tuzilgan shartnoma asosida ispan yer egalari foydasiga 5 million dollar to'lash majburiyatini olib, o'zining bu bosqinchiligini mustahkamladi.

---

<sup>1</sup> AQSHda 1 milya 1,6 kmga teng.

AQSHni hududiy kengaytirish jarayoni qadimiy tub aholi – hindularga qarshi ko‘pdan ko‘p adolatsiz va shafqatsiz urushlar olib borishdan iboratdir. 1812–1825-yillardagi urushdan keyin hindu qabilalarini Missisipi daryosidan g‘arb tomondagi yomon va chekka yerlarga, hindular uchun ajratilgan rezervatsiyalarga majburan ko‘chirish boshlandi.

**1845-yilda Texasni anneksiya qilish** natijasida AQSH hajmi deyarli Fransiya hududiga teng keladigan hududni qo‘lga kiritib oldi. Shundan keyin **Meksikaga qarshi 1846–1848-yillardagi bosqinchilik urushi natijasida AQSH Meksikadan Texas bilan bir qatorda Kaliforniya, Arizona, Nyu-Meksika, Nevada, Yutani va Koloradoning bir qismini tortib oldi.** O‘sha vaqtda ularning hududini qo‘shib hisoblaganda Germaniya va Fransiya hududidan kattaroq edi. 1850-yilga kelib AQSH hududi qariyb 3 million kvadrat milyaga etgan edi.

*Shtatlarning soni yarim asr mobaynida 16tadan 30taga, aholisi esa 1800-yildagi 5 million 300 ming kishidan 1850-yilda 23 million 200 ming kishiga etdi.*

Keyingi o‘n yilliklarda ham AQSH o‘z hududiy ekspansiyasini eskicha usullar bilan amalga oshirishda davom etdi. **1867 yilda Rossiya podshosi Aleksandr II AQSHga ulkan Alyaskani (uning maydoni Fransiyaning maydonidan deyarli uch baravar katta edi) juda arzimagan 7,2 mln. dollarga sotib yubordi.** 1898-yilgi ispan-amerika urushi natijasida AQSH Puerto-Riko, Gdem oroli va Filippinni egallab oldi, rasman mustaqil deb e‘lon qilingan Kubani okkupatsiya qildi.

1862-yilda AQSH hukumati hindu qabilalariga qarshi Yangi urush davrini boshlab yubordi, bu urushlar yana bir necha o‘n yilga cho‘zildi.

Bu urushlar juda shafqatsizlik va qonunsizlik bilan: “Faqat o‘lgan hindugina yaxshi” degan shior ostida olib borildi. Hamma jazo ekspeditsiyalari va yoppasiga qiynash natijasida hindu qabilalari faqat o‘z yerlaridan mahrum bo‘libgina qolmasdan, ularni maxsus rezervatsiyalarga haydab borib, shunday kunga soldilarki, u yerlarda boshlari muhtojlikdan chiqmay bora-bora qirilib ketdilar.

## **10-§. 1861–1865-yillardagi fuqarolar urushi va uning ijtimoiy-siyosiy natijalari**

AQSH tashkil topganidan keyin dastlabki o‘ttiz yil ichida quldorlik hukmron bo‘lgan janub bilan sanoat rivojlangan Shimol o‘rtasidagi ziddiyatlar quldorchilik shtatlarining iqtisodiy rivojlanishi bilan tez o‘sib bordi. Shimol burjuaziyasi bilan Janub quldorlari o‘rtasida siyosiy ustunlik uchun kurash keskin tus oldi.



Paxta, shakarqamish va tamaki yetishtiradigan quldorlik plantatsiyalarida qullar mehnati bilan juda katta foydalar olinishi yangi-yangi qullar va yangi-yangi hududlar egallab olishni talab qildirdi. Illinoys ittifoq tarkibiga qabul qilingandan keyin mamlakatda 11ta erkin shtatlar va 10ta quldorchilik shtatlari mavjud edi.

Shimoliy shtatlarda iqtisodiy taraqqiyot ancha tez sur'atlar bilan borganligidan bu yerda aholi ham quldorlik hukm surgan janubdagiga qaraganda ancha tez ko'payib bordi. Shu sababdan kongressning vakillar palatasida Shimolning mavqeyi, Janubning mavqeyiga qaraganda mastahkamroq edi, chunki vakillar palatasiga deputatlar aholining soniga proporsional ravishda saylanar edi. Har qaysi shtatdan ikkitadan senator bo'lgan, senatda esa qaysi tomonning ustun bo'lishi quldorlik shtatlari qancha-yu, erkin shtatlar qanchaligiga bog'liq edi; shu sababdan siyosiy ustunlik uchun kurash har bir yangi shtat quldorlik shtati bo'ladimi yoki erkin shtat bo'ladimi degan masalani hal etish uchun kurashga aylanib ketar edi. 1818-yilda Missouri shtatini Ittifoqqa qabul qilish navbati kelganda, kongressda quldorlik dushmanlari Missouri shtatida qulchilikni taqiqlashni talab qildilar. Bu janjal juda keskin tus oldi va kongress doirasidan ancha tashqariga chiqdi. Qulchilik to'g'risidagi masala birinchi marta milliy muammoga aylandi.

Biroq hali G'arbda fermerlarning ham, plantatorlarning ham ko'chib borib joylashishi uchun yetarli maydon bo'lganligidan, Shimol burjuaziyasi bilan Janub quldorlari o'rtasida murosaga kelish mumkin edi. Janjal **1820-yilda Missouri murosasi** bilan hal qilindi. *Uning mohiyati shundan iborat ediki, Ittifoqqa Missouri quldorlik shtati bo'lib, Men esa erkin shtat bo'lib qabul qilindi. Ayni vaqtda shimol tomonda qisman qulchilik taqiqlandi.*

Shu tariqa mamlakat quldorlik zonasiga va fermerlik hamda kapitalistik yollanma mehnat zonasiga bo'lindi. Missouri murosasi yollanma mehnat bilan qullar mehnatiga asoslangan tizimlar o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilmadi, balki ular o'rtasidagi to'qnashuvni birmuncha vaqt keyinga surdi, xolos.

Birinchi Missouri murosasi deb nom olgan bu siyosiy bitim senatda quldorlik va erkin shtatlar vakilligining tarixiy tengligini ta'minlashga qaratilgan edi.

Yangi tashkil etilgan shtatlar (Nyu-Meksika, Yuta)da qulchilik masalasida quldorlarga yanada yon berilishi **1850-yilda ikkinchi Missouri murosasiga** olib keldi. *Bunga ko'ra, tegishli hududlarning aholisi o'z hududlarini erkin shtat bo'ladimi yoki quldorlik shtatlari bo'ladimi, degan*

*masalani o'zlari hal qiladigan bo'ldilar.* Federal hokimiyat organlarida quldorlarning ko'pchilik bo'lganligi ularga 1854-yilda Missuri murosasidan voz kechish imkonini berdi. Natijada qulchilikning boshqa shtatlar va hududda tarqalishi yo'lidagi har qanday cheklovlar tugatildi.

50-yillar oxirida AQSHda inqilobiy vaziyat etila boshladi.

1860-yil 6-noyabrda prezidentlik postiga respublikachilar partiyasining asoschilaridan hisoblangan, qulchilikni cheklash va asta-sekin tugatish tarafdori bo'lgan Avraam Linkolnning saylanishi mamlakatdagi ijtimoiy kuchlar nisbati abolitsionistlar foydasiga o'zgarganligini va quldorlarning ko'p yillik gegemonligi barbod bo'lganligini ko'rsatdi.

Linkolnning prezident bo'lib saylanishiga javoban quldorlar Shimoldan ajralib chiqishga qaror berdilar. Janubiy shtatlarning "setsessiya" (parchalanish), yoki AQSHdan ajralib chiqish rejasi Linkoln saylanmasdan ilgariyoq tuzib chiqilgan edi, 7-noyabrda esa quldorlarning Charlstonidagi syezdi ajralib chiqish haqida qaror qabul qildi, 20 dekabrda Janubiy Korolina o'zining AQSH tarkibidan chiqqanligini bildirdi, uning ketidan boshqa 10ta quldorlik shtati ajralib chiqdi. Plantatorlar "oq tanli kambag'allar"ning ajralib chiqishga qarshi harakatlarini vahshiyona bostirdilar. 1861-yil fevralida isyonchilar Montgomeridagi konventda quldorlik davlati – **Amerika shtatlari konfederatsiyasi** tuzilganligini e'lon qildilar va qulchilikning o'taketgan tarafdori katta plantator D.Devisni o'zlarining prezidenti qilib sayladilar. Qabul qilingan konstitutsiyada quldorlik – yangi davlat asosi, qullik esa negrlarning "tabiiy" holati, deb e'lon qilindi. Biroq isyonchilarning maqsadi bu bilan cheklanmas edi. Ular mamlakatni va, avvalo, g'arbiy hududlarni bosib olishga intildilar.

Linkoln hokimiyat tepasiga kelgandan keyin, tez orada urush harakatlari boshlanib ketdi. **1861-yil 12-aprelda isyonchilar janubiy Korolinadagi Semter qal'asini to'pga tutib va bosib olib, fuqarolar urushini boshlab yubordilar. Bu urush to'rt yilga cho'zildi va 1865-yil 26-mayda tugadi.**

Linkoln hukumati xalqning tazyiqi ostida, garchi shartlar qo'yib bo'lsa ham, bir qator inqilobiy-demokratik talablarni amalga oshirishga qaror berdi. 1862-yil mayida Linkoln **gomstedlar to'g'risidagi qonunni**, ya'ni *har bir kishining g'arbda 160 akrdan bepul yer uchastkasi olish huquqi to'g'risidagi qonunni* imzoladi. 1862-yil sentabrida prezident 1863-yilning 1-yanvaridan e'tiboran **negrlarni ozod qilish to'g'risida proklamatsiya** chiqardi. Negrlarga siyosiy huquqlar ham, yer ham berilmadi; biroq shunga qaramay, qulchilikka qaqshatqich zarba berilgan edi.

Fuqarolar urushi tamom bo'lishi bilan sobiq isyonchilarga qarshi kurash tugagani yo'q. Xalq ommasining siquvi bilan kongress **1865-yil fevralida** *butun mamlakatda qulchilikni taqiqlash to'g'risida konstitutsiyaga* **13-tuzatishni** qabul qildi. Negrlarning siyosiy faolligi o'sdi, janubiy shtatlarning bir qanchasida esa ularning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlaridagi vakillari faol progressiv ish olib bordi. Ba'zi joylarda negrlar plantatsiyalarni bosib olib, o'zaro taqsim qildilar.

Plantatorlar negrlarning siyosiy faoliyatiga qarshi, ularning yarim qullik holatini saqlab qolish maqsadida, prezident Jonson (1865–1869) hukumatining rag'batlantirishi bilan negrlarni va abolitsionistlarni terror qilar, toshbo'ron qilib vahshiyona jazolar edilar. Shu maqsadda maxsus qurollangan shaykalar tuzilgan edi, ular orasida **Ku-kluksklan terroristik tashkiloti** asosiy rol o'ynar edi. Ku-kluksklanchi shaykalar Yangi Orlean, Memfis va boshqa shaharlarda negrlarni qonli qirg'in qilardi. Plantatorlar janubiy shtatlarda joriy qilingan **“qoralar kodeksi” deb atalgan kodekslarda** *negrlarga yerga egalik qilish, aqliy mehnat bilan shug'ullanish, majlislar o'tkazish, oq tanlilar bilan nikohda bo'lish taqiqlangan edi; xizmatkor negrlarga tan jazosi berish mumkin edi.* Federal qo'shinlar negrlarning qo'zg'olonlarini bostirishda plantatorlarga bir necha marta yordam berdi.

Jonson hukumatining siyosati negrlardagina emas, balki Shimolning keng mehnatkashlar ommasida ham qattiq norozilik tug'dirdi. Urushning sobiq qatnashchilari bo'lgan ishchi va negrlarning ommaviy mitinglari va s'ezdlari o'tkazilib, ularda plantatorlarni jazoga tortish va prezident Jonsonni sudga berish talab qilindi. Xalq ommasining siquvi bilan **1866-yilda kongress negrlarning fuqarolik huquqlari to'g'risidagi qonunni** qabul qildi, keyin **1868 yilda** *esa hindulardan tashqari, AQSHdagi hamma aholining fuqarolik tengligi haqida va isyon qatnashchilarining huquqlarini cheklash to'g'risida konstitutsiyaga kiritilgan* **XIV tuzatish kuchga kirdi.** Biroq bu tuzatishda belgilangan qoidalar bir asr mobaynida sobiq qullar uchun hech narsa bermadi.

AQSHdagi Fuqarolik urushi qulchilikka qarshi adolatli xalq urushi edi, ishchilar, fermerlar va negrlar hal qiluvchi rol o'ynagan burjuademokratik inqilob edi. Mehnatkashlar ommasining zo'r g'ayrati bilan Fuqarolik urushida g'alabaga erishildi va siyosiy tuzum bir qadar demokratlashdi: ishchilar, fermerlar va negrlar progressiv burjuaziya gegemonligida inqilobning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'ldilar. Biroq bu g'alabaning samaralaridan asosan yirik burjuaziya foydalandi.

Mamlakatda yirik burjuaziya diktaturasi mustahkamlandi. Markaziy hokimiyat kuchaytirildi.

Janubda 1870-yilga qadar hamma ilgarigi isyonkor shtatlarda negrlarga ovoz berish huquqini ta'minlash va konstitutsiyaga kiritilgan XIV tuzatishni ratifikatsiya qilish yuzasidan "Konventlar" (syездlar) o'tkazildi. **1870-yilda konstitutsiyaga kiritilgan XV tuzatish** ham qabul qilindi, *bu tuzatishda "irqi, terisining rangi yoki avvalgi qullik holatini bahona qilib" saylovlarda ishtirok qilishni har qanaqasiga cheklash taqiqlangan edi.* Shtatlarning hukumatlari va federal kongressga kongressmenlar va senatorlar saylandi. Rekonstruksiya qilingan shtatlardagi yangi hukumatlarning xarakterli tomoni shu ediki, ularda negrlar ham qatnashardi.

**Fuqarolar urushining muhim oqibati Avraam Linkoln davrida prezidentlik hokimiyatining ancha kuchayganligi bo'ldi.** Bu AQSH tarixining keyingi davrlarida ham kuchli prezidentlik hokimiyatining o'rnatilishiga muhim ta'sir ko'rsatdi.

Qonli fuqarolar urushi Janubni iqtisodiy va siyosiy jihatdan alg'ov-dalg'ov holatiga olib keldi. Janubiy shtatlarni ittifoqqa batamom birlashtirish uchun 12 yil kerak bo'ldi. Faqat parchalangan konfederatsiyaning shtatlaridan federal qo'shinlar olib chiqib ketilgandan keyingina bu yerdagi ahvol barqarorlashdi. Shu vaqtdan boshlab yangi demokratik partiya bu mintaqada to'la-to'kis ta'sirga ega bo'ldi. Janubda kapitalizm jadal rivojlana boshladi.

AQSHning ikkala mintaqasining ijtimoiy va iqtisodiy ahvoli tobora birxillashib bordi (garchand ular o'rtasidagi ko'pgina farqlar hatto hozirgi vaqtgacha saqlanib qolgan bo'lsa ham).

AQSHda fuqarolar urushi tugaganidan boshlab XX asrning boshlariga qadar ijtimoiy hayotning barcha sohalarida juda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi.

U hali XIX asrning 60-yillaridagi agrar respublikadan U.Mak Kinli va Teodor Ruzvelt prezidentliklari davrida (XIX asrning oxiri XX asrning boshida) trestlar hukmron bo'lgan industrial davlatga aylandi.

AQSH aholisi 40 yil ichida 31 milliondan 76 million kishiga ko'paydi.

Bu vaqt mobaynida mamlakatga 15 mln. muxojirlar keldi. Ularning asosiy qismini Sharqiy va Janubiy Yevropadan kelganlar tashkil etdi. Yirik sanoat shaharlari: Nyu-York, Chikago, Pitsburg, Klivlend, Detroyt tez sur'atlar bilan o'sib bordi. **Ittifoq tarkibiga 12ta yangi shtatlar qa-bul qilindi.** Amerikalashgan hududlar bilan "yovvoyi g'arb"ni ajratib turuvchi "chegara" yo'qoldi. Hindu qabilalari o'zlarining tub yerlaridan haydaldi va zo'rlik yo'li bilan rezervatsiyalarga ko'chirildi.

## 11-§. XIX asr oxiri XX asr boshida AQSH ijtimoiy-siyosiy tuzumidagi o'zgarishlar

AQSHning o'z mustamlaka imperiyasiga ega bo'lgan jahon davlatiga aylanishi siyosiy tizimning barcha jabhalarida muhim o'zgarishlar bilan birga kechdi. Biroq asosan hokimiyatning markaziy organlari funksiyasini kengaytirishga qaratilgan bu o'zgarishlar huquq tizimida har doim ham o'z ifodasini topavermadi. Uning ko'p qismi yuridik rasmiylashtirilmay, konstitutsiyaviy xarakterga ega bo'ldi va amalda harakat qildi (buni amerikaliklar **“jonli konstitutsiya”** deyishadi). Bu davrda AQSH Konstitutsiyasiga faqat ikkita tuzatish XVI va XVII tuzatishlar kiritildi. Bu tuzatishlar 1913-yilda ratifikatsiya qilingandi. **XVI tuzatish** *Kongressning soliq sohasidagi vakolatlarini ancha kengaytirdi. Bu tuzatishga ko'ra, daromadlarning miqdoriga qarab olinadigan soliq ham ko'payib boradigan bo'ldi. 3 ming dollardan oshiq (oilali kishilarning esa 4 ming dollardan oshiq) daromadidan 1 foiz soliq olinadigan bo'ldi. 20 ming dollardan oshiq daromaddan esa daromadning miqdori ko'payib borishiga qarab oshib boradigan qo'shimcha soliq olinadigan bo'ldi. 500 ming dollardan ortiq daromaddan olinadigan eng ko'p soliq 6 foizdan oshmaganligi sababli yangi qonun yirik kapital manfaatlariga zarar yetkazmas edi.*

### Eslab qoling!

#### **Konstitutsiyaga kiritilgan XVII tuzatish:**

- 1) senatorlarning tayinlanishiga oid eski tartibni bekor qildi;
- 2) to'g'ridan to'g'ri saylovlar joriy qildi;
- 3) ilgari ayrim shtatlarning qonun chiqaruvchi majlislari tomonidan saylanadigan senatorlar endi xalqning ovoz berishi bilan saylanadigan bo'ldi;
- 4) senatni shakllantirish tartibini demokratlashtirdi;
- 5) senatning nufuzi va ta'sirini ancha oshirdi.

**1910-yilgi “parlament inqilobi”** Kongress uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Buning natijasida shu vaqtgacha juda qudratli bo'lib kelgan spiker palatalarning barcha doimiy qo'mitalari a'zolarini tayinlash huquqidan va Billar hamda rezolutsiyalarni ko'rib chiqish tartibini belgilovchi qo'mitaga a'zolikdan mahrum bo'ldi. Bu tadbir doimiy qo'mitalarning ta'sir o'tkazuvchi nufuzli guruhlar bilan ancha

moslashuvchan munosabatlar o'rnatilishiga yordam berdi, chunki qo'mitalarda ham, xuddi Kongress palatalarida bo'lgani singari partiyalar vakillarining munosabatlari o'rnatilgandi. Ayni vaqtda qonunlar qabul qilish jarayonini ataylab cho'zish kabi holatlarni tugatish choralari ham ko'rildi. Bularning hammasi Kongress ishlarining samaradorligi oshishiga olib keldi.

1901-yil 14-sentabrda prezident U.Mak Kinli bir anarxist tomonidan qilingan suiqasd natijasida o'ldirilgandan keyin Konstitutsiyaga muvofiq vitse-prezident T.Ruzvelt yangi saylovlar o'tkazilguncha prezidentlik vazifasini bajarishga kirishdi. U 1904-yilda yana prezident etib saylanib, 1909-yilgacha shu lavozimni egallab turdi. Uning davrida "kongressning hukmronligi" davri, ya'ni uning prezident hokimiyatidan nisbatan mustaqilligi to'la-to'kis tamom bo'ldi. Oldingi prezidentlar (Garrison, Klivlend va Mak Kinli) o'zlarini kongressning agentlari deb hisoblashardi, ya'ni prezidentlik hokimiyatini parlament ruhida talqin qilardilar.

T.Ruzvelt ichki va tashqi siyosatda prezident hokimiyatining yuqoriligini faqat amaliyotda namoyish qilibgina qolmasdan, u o'zining kongress oldida emas, balki bevosita xalq oldida hisob beruvchi kuchli prezident hokimiyati konsepsiyasini ta'riflab berdi.

Birinchi jahon urushi arafasida prezident Vilson bojxona tariflari to'g'risida **Undervud qonuni** degan nom bilan mashhur bo'lgan yangi qonunni o'tkazdi. Bu yangi qonun Peyn-Oldirich qonuniga nisbatan *tarif stavkalarini 10 foiz kamaytirdi*. Bojlardan keladigan davlat daromadining kamaygan qismini daromad solig'idan keladigan tushumlar qoplashi kerak edi. Konstitutsiyaga XVI tuzatish ana shu tarzda qabul qilingan edi.

**Rezerv banklarning federal tizimi to'g'risida 1913-yilda qabul qilingan qonun** katta ahamiyatga ega bo'ldi. *Bu qonunga muvofiq mamlakat 12ta hududiy bo'lakka bo'lindi, har bir hududiy birlikda barcha milliy va boshqa mahalliy banklarning faoliyatini birlashtiruvchi rezerv bank tashkil qilindi*. Banklarning bu yangi tizimi yirik magnatlarning urush vaqtida o'z rejalarini o'tkazishlariga yordam berdi.

1914-yilda kongress **Kleytonning trestlarga qarshi qonunini** qabul qildi. Yangi qonun Sherman qonunining asosiy moddalarini o'z kuchida qoldirib, shu bilan birga "kasaba uyushmalar va fermerlarning tashkilotlari erkin savdoni cheklashga qaratilgan bitim deb hisoblanmasligi lozim" deb maxsus pisanda qilib qo'ydi.

### ***Nazorat uchun savol va topshiriqlar:***

1. AQSHning tashkil topishi Shimoliy Amerika mustamlakalarining mustaqillik uchun urushining asosiy natijasi bo'ldi.

*Shimoliy Amerika mustamlakalarining mustaqillik uchun urushining shart-sharoitlari, sabablari va xususiyatlari nimalardan iborat edi?*

2. AQSH tashkil topgandan keyin uning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shuningdek huquqni muhofaza qiluvchi organlari ham tashkil etildi.

*Yangi davrda AQSH davlat apparatining shakllanishi va o'sib borish jarayonini tushuntirib bera olasizmi?*

3. Ma'lumki, dunyoda birinchi Konstitutsiya 1787-yilda AQSHda qabul qilinib, unga yangi davrda 17ta tuzatish kiritilgan.

*Ushbu tuzatishlarning kiritilishi maqsad va sabablariga hamda mohiyatiga baho bering.*

4. Bilamizki, 1787-yilgi AQSH Konstitutsiyasi hokimiyatlarning taqsimlanish tamoyilini mustahkamlaydi.

*Davlat hokimiyatini tashkil etishda mazkur tamoyilning ahamiyatini tushuntirib bering.*

### **III BOB.**

## **YANGI DAVRDA FRANSIYANING KONSTITUTSIYAVIY RIVOJLANISHI**

*1789–1794-yillardagi buyuk fransuz inqilobi, uning shart sharoitlari, bosqichlari va xususiyatlari. Fransiya ilk konstitutsiyaviy monarxiya va uning davlat tuzumi. Jirondistlar respublikasi. Yakobinchilar diktaturasi. Termidorchilar davlat to‘ntarishi va Direktoriya hukmronligi. Konsullik va imperiya davrida (1799-yil noyabr–1814-yil aprel) Fransiyaning davlat tuzumi. Fransiya qonuniy monarxiya va iyul imperiyasi. 1814- va 1830-yillardagi “xartiyalar”. Ikkinchi respublika va 1848-yilgi Konstitutsiya. Lui Bonapartning 1851-yilgi davlat to‘ntarishi va ikkinchi imperiyaning davlat tuzumi. 1871-yilgi Parij Kommunasi. Fransiya uchinchi respublikaning o‘rnatilishi va 1875-yilgi konstitutsiyaviy qonunlar.*

#### **1-§. 1789–1794-yillardagi buyuk fransuz inqilobi, uning shart-sharoitlari, bosqichlari va xususiyatlari**

XVIII asr oxiridagi buyuk fransuz inqilobi Yevropadagi inqiloblarning yakunlovchisi va eng mashhuri bo‘lib, juda katta tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi. U feodalizmga hal qiluvchi zarba berdi. Uni ag‘darib, yemirib tashladi. Bu faqat Fransiya uchun emas, balki butun Yevropaning taqdiri uchun ham juda katta progressiv ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu inqilobning asosiy kuchi va harakatlantiruvchi kuchi xalq edi.

#### **Fransuz inqilobi oqibatida**



Feodal ishlab chiqarish munosabatlari tugatildi.

Dehqonlar feodallar zulmidan ozod bo‘ldi.

Yangi, burjua ishlab chiqarish munosabatlari vujudga keldi.


Feodal tartiblarga barham berildi va burjua demokratiyasining rivojlanishiga shart-sharoit yaratildi.

Xalq ommasining inqilobda faol qatnashishi Fransiya mustahkam inqilobiy an‘analarning rivojlanishiga, fransuz xalqida milliy xarakterning tarkib topishiga juda katta ta‘sir ko‘rsatdi.



Buyuk fransuz inqilobi ozodlik bayrog'ini ko'tarib chiqdi, burjua demokratiyasining prinsiplarini e'lon qildi.

Fransiya XVIII asrda absolut monarxiya davlati bo'lib qolish bilan birga, Yevropaning eng qudratli davlatiga aylangan edi. XVII asrda boshlangan Fransiya yerlarini birlashtirish jarayoni XVIII asr oxirida tugallanib, u yanada yirik mustamlaka davlatiga ham aylangan edi. Inqilob arafasida Fransiyaning uch tabaqadan iborat ijtimoiy tuzumi mavjud edi.



Inqilob arafasida imtiyozli tabaqa bo'lmish dvoryanlar va ruhoniylar butun aholining bor-yo'g'i bir foizini tashkil etib, qirollikdagi 80 foiz yerlarga egalik qilib turar, tabaqa imtiyozlaridan foydalanishar, soliqlardan ozod edilar.

**Dvoryanlar** eski dvoryanlar va mantiya dvoryanlaridan iborat edi. **Mantiya dvoryanlari** xizmat evaziga dvoryanlik unvonini olgan kishilar edi. Bular ko'pchilikni tashkil qilib, tabaqa imtiyozlaridan to'liq foydalana olmasdilar. Lekin ular ham eski tuzumning, mutlaq monarxiyaning saqlanib qolishidan manfaatdor bo'lib, siyosiy jihatdan zodagonlar va ruhoniylar bilan hamfikir edilar.

Fransiya aholisining asosiy qismini, ya'ni 99 foizini uchinchi tabaqa tashkil etardi.

XVIII asr oxirlarida **dehqonlarning** asosiy qismi krepostnoy qaramlikdan ozod etilgan bo'lsa ham, ammo ularning zimmasida ko'pdanko'p turlicha majburiyatlar mavjud edi. Dehqon avvalgidek *yeridan mahrum edi. U yerdan foydalanganlik uchun obrok (chinsh), turli mahsulot va pul soliqlari, cherkovga ushr to'lab turardi.*

Fransiyada ham kapitalistik munosabatlar rivojlanib, pul rentasi o'sib bordi, dehqonlar qashshoqlashib, ishsizlar, daydilar ko'paydi. XVIII asr davomida dehqonlar qo'zg'olonlari kuchayib ketdi.

XVIII asr oxiriga kelib mamlakat iqtisodida to'la hukmronlik qilayotgan, ammo siyosiy huquqlardan mahrum bo'lgan **burjuaziya** uchinchi tabaqaning siyosiy avangardi bo'lib qoldi. Juda katta boylik, savdo va sanoat ana shu burjuaziya qo'lida edi. Bunday mulkiy tengsizlikdan qat'i nazar, XVIII asr oxirida Fransiya burjuaziyasi siyosiy jihatdan bir frontga birlashib, ilg'or mafkura targ'ibotchisi edi. U eski tuzumga, absolutizmga qarshi kurashda yagona frontga birlashgan edi. *Burjaziya uchinchi tabaqaning eski tuzumga qarshi kurashiga boshchilik qildi. U e'lon qilgan keng umumdemokratik dastur xalq ommasini o'ziga jalb qildi.*

XVIII asrda savdo-sotiq va sanoatning rivojlanishi burjuaziyaning mavqeyining yanada mustahkamlanishiga olib keldi. Burjuaziya qirol va dvoryanlarning tanho hukmronlik qilishini xohlamas, o'zi ham davlatni boshqarishga faol intilardi. Fransiyada XVIII asr oxiriga kelib feodal absolut tuzum tangligi nihoyasiga etdi. Bular asosan qishloq xo'jaligida, sanoatda va savdo-sotiqda namoyon bo'la boshladi.

Feodal tartiblar qishloq xo'jaligining rivojlanishidagi asosiy to'siqqa aylana boshladi.

Inqilob arafasida **Fransiya asosan agrar mamlakat edi.** Uning 25 million aholisidan 23 millioni qishloqlarda yashar, mamlakat jami daromadining to'rtidan uch qismidan ko'prog'ini qishloq xo'jaligi berardi. Yerlarning deyarli hammasi dvoryanlarning va cherkovning mulki edi.

Yirik pomeshchik xo'jaligi deyarli yo'q bo'lib, **dehqonlar** asosan kichik-kichik tomorqalarda yoki dvoryanlardan ijaraga olingan yerlarda ishlab dvoryanlar va cherkov foydasiga ko'p miqdorda soliq to'lardilar.

Dehqonlar dvoryanlardan ketish yoki uning ustidan shikoyat qilish huquqlaridan mahrum edilar. Ular olingan hosilning o'ndan bir qismini pul yoki natura tarzida cherkovga berishga majbur edilar.

Davlat soliqlari ham nihoyatda ko'p bo'lib, dehqonlar har yili hosilning yigirmadan bir qismini jon solig'i sifatida to'lardilar va bundan tashqari kishi boshiga kamida 7 funt tuzni majburiy narxda sotib olishlari lozim edi.

Shunday qilib, dehqonlarning huquqsizligi, feodal to'lovlar, dvoryanlar foydasiga ishlab berishi, davlat soliqlari, cherkovga ishlab berish va boshqa turli soliqlar dehqonlarni xonavayron qilardi. Ular qashshoqlashib ekinzorlarni kengaytirishdan, hosildorligini oshirishdan, ishlab chiqarish vositalarini yangilashdan mahrum bo'lishardi.

Shu tariqa feodal tartiblar qishloq xo'jaligining o'sishi uchun to'siq bo'lib qolgandi. Dehqonlar orasida zolim dvoryanlarga, cherkov ruhoniylariga va qirol hokimiyatiga nafrat tobora ortib borardi. Ammo dehqonlar tarqoq va savodsiz bo'lganligi uchun inqilobga ko'tarila olmas edilar.

Yangi yetilib kelayotgan burjuaziya dehqonlarni o'z tomonlariga og'dirib olishlari uchun feodal tartiblarni tugatish asosiy masala edi. Chunki bu masala burjua inqilobi davomida burjuaziyaning dehqonlar bilan absolutizmga va feodalizmga qarshi ittifoq tuzishi uchun sharoit yaratdi. Bunday ittifoqdan badavlat burjuaziya manfaatdor edi, chunki feodal majburiyatlar bekor qilinsa, ular o'z yerlarining to'la xo'jayinlari bo'lib qolardilar. Sanoat va savdo-sotiqning rivojlanishiga ham feodal tuzum to'sqinlik qilardi.

Mamlakatda hunarmandchilik jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bir paytda, hunarmandlar olibsotarlarga va xomashyo taqsimlash bilan shug'ullanuvchi kishilarga qaram bo'lib qolgan edilar. Fransiya XVIII asrda chetga mahsulot olib chiqarishni bir necha barobar ko'paytirdi. Mustamlakalar bilan savdo qilish XVIII asrda o'n barobardan oshib ketdi.

Biroq mustamlaka va chet el bilan savdo qilish uchun kompaniyalar qirolidan imtiyozli huquq sotib olishlari kerak edi. Ichki bozordagi son-sanoqsiz ichki boj to'lovlari, mamlakatning turli qismlaridagi har xil tosh-tarozular bu savdoga xalaqit berardi. Senorlar va monastirlar o'z yerlari orqali mol tashib o'tganligi uchun katta boj olishardi. Bu esa ichki savdoni qiyinlashtirardi.

Shunday qilib, eskirgan feodal tartiblar qishloq xo'jaligida ham, sanoatda ham, savdoda ham ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishiga xalaqit bermoqda edi, endilikda ularni bekor qilish zaruriyati tug'ilib qoldi. Boshqacha qilib aytganda, ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi eskirgan ishlab chiqarish munosabatlariga zid bo'lib qoldi.

Inqilobning mafkuraviy g'oyalarini ishlab chiqishda va uni xalq ommasi orasida yoyishda fransuz ma'rifatparvarlaridan Monteske, Volter, Russo, Mele va Didrolarning xizmati katta bo'lib, ular inqilobning siyosiy tomonini belgilab berdilar.

## Eslab qoling!

### **Fransiyada inqilobiy vaziyatning pishib yetilganligi quyidagi holatlarda namoyon bo'ldi:**

**birinchidan,** hukmron tabaqalar o'z hukmronligini o'zgartirmasdan saqlab qolishi mumkin bo'lmay qoldi.

**ikkinchidan,** ezilgan sinflarning muhtojligi va kulfatlari odatdagidan og'irlashdi.

**uchinchidan,** ma'lum sharoitda ularning faolligi kuchayib ketdi.

Inqilob arafasida dehqonlarning va shahar kambag'allarining qudratli qo'zg'olonlari bo'lib o'tdi. Ustiga-ustak, inqilobdan avvalgi qurg'oqchilik natijasidagi ocharchilik ahvolni juda og'irlashtirdi.


Fransiya iqtisodiy inqirozga yuz tutdi. Ayniqsa, Lyudovik XVI hukumati mamlakatni og'ir moliyaviy halokatga olib kelgan edi. Bundan qutulishning birdan bir yo'li imtiyozli tabaqalardan (dvoryanlar va ruhoniylardan) ham davlat solig'ini undirish edi. Hukmron doiralarning ba'zi vakillari bu tadbirni qo'llashni taklif qildilar. Lekin Lyudovik XVI absolutizm tayanchi bo'lgan bu kuchlarga qarshi borishni istamadi. Bu masalani 1787-yilgi oliy zadogonlar kengashida hal qilmoqchi bo'ldi. Ammo natija bermadi. Shundan so'ng **1789-yil 5-mayda qirol hukumati 1614-yildan beri chaqirilmagan General shtatlarni – tabaqa-vakillik muassasasi majlisini chaqirishga majbur bo'ladi.** General shtatlarga har qaysi tabaqadan deputatlar saylangan bo'lib, 301ta deputat dvoryanlar tabaqasini, 270ta deputat ruhoniylar tabaqasini va 588ta deputat quyi – uchinchi tabaqaning manfaatini himoya qilardi. Unda yangi soliqlar joriy qilish masalasi hal qilinishi kerak edi.

Ma'lumki, an'anaga ko'ra General shtatlarda biror masalani muhokama qilish yuzasidan ovoz berish tabaqalar bo'yicha alohida-alohida o'tkazilardi. Bunda hukmron tabaqalar – dvoryanlar va ruhoniylar doimo ustunlikka erishar edilar, chunki ularning manfaatlari bir xil edi. Uchinchi tabaqa vakillari har bir masalani General shtatlarning umumiy qo'shma majlisida yakka-yakka ovoz berish yo'li bilan hal qilishni talab qildilar. Bunday tartibda ovoz berish vakillari son jihatidan ko'p bo'lgan uchinchi tabaqaga ustunlik berar edi. Lekin uchinchi tabaqaning bu talabi rad qilindi.

Shundan so'ng General shtatlar majlisida qirol va uning tarafdorlari bilan uchinchi tabaqa o'rtasida ochiqdan ochiq siyosiy kurash boshlanib ketdi. **1789-yil 17-iyunda uchinchi tabaqa vakillari o'zlarini Milliy**

**Majlis**, ya'ni *Fransiya millatining vakillari deb e'lon qildi*. Keyinchalik Lyudovik XVI hukumati Milliy majlisga qarshi kurash yo'liga o'tganidan so'ng, **1789-yil 9-iyulda Milliy Majlis o'zini Ta'sis majlisi**, ya'ni yangi siyosiy tuzum o'rnatish vakolatiga ega bo'lgan oliy organ deb e'lon qildi.

Qirol hukumati Milliy Ta'sis majlisini tarqatib yuborishga urindi. Lekin shahar kambag'allari, hunarmandlar, savdogarlar, ziyolilar va mayda burjuaziya qirol hukumatiga qarshi qurolli qo'zg'olon ko'taradilar va **1789-yil 14-iyulda absolutizm tayanchi hisoblangan Bastiliya turmasini egallab oladilar hamda siyosiy mahbuslarni ozod qiladilar**. Bu kun buyuk fransuz inqilobining boshlanishi va fransuz xalqining milliy bayram kuni bo'lib qoldi.



### **Buyuk fransuz inqilobining bosqichlari:**

1. **1789-yil 14-iyuldan 1792-yil 10-avgustgacha**. Bu davrda mutlaq monarxiya tugatilib, konstitutsiyaviy monarxiya o'rnatildi.

2. **1792-yil 10-avgustdan 1793-yil 2-iyungacha**. Bu davrda qirol hokimiyati ag'darib tashlandi. Fransiya tarixida birinchi marta respublika e'lon qilindi, respublikachi-jirondistlar hukmronligi o'rnatildi.

3. **1793-yil 2-iyundan 1794-yil 27-iyulgacha**. Bu davrda Yakobinchilar diktaturasi hukm suradi.

## 2-§. Fransiyada Ilk konstitutsiyaviy monarxiya va uning davlat tuzumi

Shunday qilib, 1789-yil 14-iyulda xalqning qurolli qo'zg'oloni natijasida qirollik qal'asi – Bastiliyaning ishg'ol qilinishi yangi Fransiyaning tug'ilgan kuni bo'lib qoldi. Bu shonli kun hozirgi vaqtda ham fransuz xalqining milliy bayrami sifatida nishonlanadi.

Parijda boshlangan inqilob tez orada butun mamlakatni qamrab oldi. Qo'zg'olonchilar qirol amaldorlarini haydab yubordilar, dehqonlar feodal majburiyatlarni bajarishni rad etdilar. Trua, Amen, Sherbur, Ruan va boshqa ko'pgina provinsial shaharlarda mahalliy boshqaruvning eski organlari tugatildi. Qo'shinlarning ko'pchiligi qirol generallariga bo'ysunmay qo'ydi. Askarlar xalqqa qarata o'q uzishdan bosh tortdilar.

Ta'sis majlisida (ya'ni poytaxtda) hukmron mavqeni egallab olgan uchinchi tabaqaning yuqori qismi (yirik burjuaziya) xalq harakatidan joylarda siyosiy hokimiyatni egallab olish uchun foydalandi. Mahalliy boshqaruvning yangi o'zini o'zi boshqarish organlari – **munitsipalitetlar** tuzildi. Ularda uchinchi tabaqaning ancha badavlat kishilari rahbarlik rolini o'ynadi. Milliy Ta'sis majlisida, Parijning va viloyatlarning munitsipalitetlarida konstitutsion monarxistlar – burjualashgan dvoryanlar bilan yirik burjuaziyaning, moliyachilar, kema egalari, sanoatchilar, savdogarlarning siyosiy vakillari hukmronlik qilar edi.

Burjuaziya o'z qurolli kuchlarini tashkil qilishga kirishdi. Milliy gvardiyaga, ya'ni hududiy ko'ngillilar qo'shiniga qabul qilish e'lon qilindi. Har bir milliy gvardiyachi o'z hisobidan qimmatbaho qurol-yarog' va harbiy aslahalar olishi lozim edi. Bu amalda mulksiz fuqarolarning milliy gvardiyaga kirishiga yo'l qo'ymasdi. Yirik burjuaziya to'p-zambaraklar sotib olish, harbiy ta'lim va boshqalarni ta'minlardi. U milliy gvardiyaning qo'mondonlik lavozimlariga o'z nomzodlarini ilgari surishga muvaffaq bo'ldi. Milliy gvardiyaga qo'mondon etib Amerika Qo'shma Shtatlarining mustaqilligi uchun olib borilgan urush qatnashchisi markiz M.J.Lafayet tayinlandi. Markiz Lafayet inqilobdan ilgariyoq burjua islohotlari tarafdori bo'lib ish ko'rgan va o'sha vaqtda mamlakatda juda katta obro' qozongan edi.

Oqibatda davlat hokimiyati badavlat burjular va liberal dvoryanlar vakillarining manfaatlarini ifoda etuvchi siyosiy guruh qo'liga o'tdi. Uning rahbarlari markiz Lafayet, abbat Sieyes, astronom olim Bayi, sotsiolog olim A.Barnav, A.Lamet va graf Onore Mirabo edilar. Ularning orasida, ayniqsa, graf Mirabo ajoyib notiq, lekin prinsipsiz siyosatchi edi. Ular eski

tuzumni to‘la tugatishga harakat qilmadilar. Ularning oliy maqsadi konstitutsiyaviy monarxiya edi, shu sababli ular o‘zlarini konstitutsionalistlar deb atadilar. Konstitutsionalistlarning siyosiy faoliyati negizida dvoryanlar bilan o‘zaro yon berishlar asosidagi kelishuv yotardi.

### **Eslab qoling!**

**Agrar masala** XVIII asr oxiridagi buyuk fransuz inqilobining asosiy masalasi hisoblanardi. Fransiya millatining ko'pchiligini tashkil qilgan dehqonlar uchun feodal qaramlikdan qutulish hayotiy zaruriyat bo'lib qolgandi.

Dehqonlarning feodal qaramlikdan qutulishi sanoat va savdoni rivojlantirishning ham zarur sharti edi.

1789-yilning yozida dehqonlar harakatining kuchli sur'atda yuksalishi Ta'sis majlisini agrar masala bilan darhol shug'ullanishga majbur etdi. Natijada **Ta'sis majlisi "Feodal rejimni batamom yo'qotish" to'g'risidagi qarorni** tantanali ravishda e'lon qildi, **1789-yil 4-avgustda "Feodal yer egaligini tugatish to'g'risida"**, **1789-yil 11-avgustda esa dehqonlarning feodal majburiyatlarini tugatish haqida dekretlar chiqardi.** *Lekin dehqonlarning eng muhim majburiyatlari – chinsh va barshchina saqlanib qoldi.* Dvoryanlar faqat shaxsiy huquqlar deb atalgan huquqlardan (servajdan, senorlar sudidan, "jonsiz qo'l" huquqidan, tanho ov qilish huquqidan va boshqalardan), ya'ni haqiqatda inqilobning daslabki kunlarida va inqilob arafasidayoq yo'qolgan huquqlardangina badalsiz voz kehdilar.

Ta'sis majlisi uzoq tortishuvlardan so'ng *senz, natural obrok (shamper), barshchina, senzni sotish va meros qilib qoldirishda senorga bir marta to'lanadigan bojlar kabi asosiy feodal huquqlar haqida dekretlar* qabul qildi. **1790-yilgi dekretlar bilan dehqonlarning o'z majburiyatlarini sotib olishlari mumkinligi** e'lon qilindi. Ammo bu shartlar dehqonlar uchun juda og'ir edi: majburiyatlarning narxi juda yuqori belgilanib, dehqonlar amalda ularni sotib ololmadilar. Shu sababli feodallarga soliq to'lashdan bosh torta boshladilar. Aldanib umidlari puchga chiqqan dehqonlar kurashni davom ettirdilar. Chunki inqilobning birinchi bosqichida agrar masala uzil-kesil hal qilinmay qolgan edi.

Dehqonlar pomeschchiklarga soliq to'lashdan, majburiyat bajarishdan butunlay bosh tortdilar va ilgarigi jamoa yerlarini qaytarib olmoqchi bo'ldilar.

1790-yilning yanvaridan boshlab dehqonlarning g'alayonlari kuchaydi. Bretanda bir oy ichida (1790-yil fevralda) pomeschiklarning 37ta qasriga o't qo'yib yuborildi. Kersi, Pyerigor, Ruer vilotlarida kuchli g'alayonlar ko'tarildi.

Ta'sis majlisi 1790-yilning fevral–iyul oylarida chiqargan qonunlarida dehqonlarning g'alayonlarini tugatish vositasini topmoqchi bo'ldi, lekin dehqonlar uchun aydarlik hech narsa qilinmadi. **1790-yilning 15-martida chiqarilgan dekretga binoan pomeschiklar triaja huquqidan mahrum etildi, bu huquqqa ko'ra jamoa yerlarini taqsimlashda uchdan bir qism yerni pomeschiklar olar edi.** Endi bu tartib tugatildi. Biroq pomeschiklar ilgari tortib olgan yerlar sud orqali qaytarib olinishi kerak edi, sud esa odatda ishni yirik burjuaziya bilan pomeschiklar foydasiga hal qilar edi. **1790-yilning mayida feodallar foydasiga bajariladigan majburiyatlardan haq to'lab qutulishning dehqonlar uchun juda murakab, og'ir va amalda bajarib bo'lmaydigan tartibi belgilandi. To'lanadigan haq dehqonning bir yilda bajaradigan majburiyati qiymatidan yigirma hissa ortiq belgilandi; majburiyatlarning hammasi uchun bir yo'la haq to'lash kerak edi.** Bu qonun dehqonlar g'alayonlarining yangidan ko'tarilishiga sabab bo'ldi.

**1790-yilning 15-mayida chiqarilgan dekretga** muvofiq, *milliy mulklarni kimoshdi savdosi orqali, pulni 12 yilda to'lash sharti bilan mayda uchastkalariga bo'lib sotishga ruxsat etildi.* Ammo **1790-yilning** iyulida majlis 12 yillik muddatni 4 yilga keltirdi va yerlarni mayda uchastkalariga bo'lib sotishni bekor qildi. Yerlar katta-katta uchastkalariga bo'lib sotiladigan bo'ldi; yerlarga juda yuqori baho qo'yildi, kimoshdi savdosi yo'li bilan sotishda yerning narxi yana ham oshib ketdi. Yer sotish ishlarini munitsipalitetlar olib bordi. Ta'sis majlisi agrar masalani biroz keyinroq uzil-kesil hal qildi.


**Inqilobning birinchi bosqichida** Milliy Ta'sis majlisining **1790-yil 15-yanvardagi dekreti bilan eski senorliklar tugatilib, mamlakat hududi 83ta departamentga, departamentlar distriktlarga, distriktlar esa kommunalarga bo'lindi. Har bir ma'muriy hududiy birlikda o'zini o'zi boshqarish organlari saylanib qo'yildi.**

**1790-yilgi dekretlarga asosan katolik cherkovi davlat nazoratiga olindi. Cherkov desyatnasi bekor qilindi. Cherkovdan tortib olingan yerlar xususiy shaxslarga sotildi. Cherkov yurisdiksiyasi (sud qilish huquqi) cheklandi. Fuqarolik holatini qayd qilish cherkovdan olinib, davlat organlariga berildi. Diniy mansabdorlar saylab qo'yiladigan bo'ldi. Cherkov mansabdorlari ham davlatdan maosh oladigan bo'ldi.**



Ta'sis majlisi tomonidan savdo-sotiq sohasida ham bir qancha dekretlar chiqarilib, sexlar tugatildi, g'alla savdosi erkinligi joriy qilindi.

1790-yilda Fransiyada iqtisodiy jonlanish alomatlari ro'y bera boshladi. Iqtisodiy jonlanish ishchilarning o'z mehnat sharoitlarini yaxshilash uchun, ish haqini oshirish uchun, ish kunini qisqartirish uchun kurashini kuchaytirdi. Ishchi ittifoqlarining soni tezlik bilan o'sib bordi. Stachka kurashining o'sishini to'xtatish va ishchilarning siyosiy tashkilotlarini boshidayoq bo'g'ib tashlash uchun, Ta'sis majlisi 1791-yil 14-iyunda bir dekret qabul qildi, uni deputat **Le Shapele** taklif etgan edi. **Bu qonunning mohiyati shundan iborat ediki, burjuaziya ishchilarni ittifoq, uyushmalar tuzish va stachkalar o'tkazish sohasida endigina qo'lga kiritilgan huquqdan mahrum qildi.**



**“Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi”.** 1789-yil 26-avgustda Ta'sis majlisi AQSH “Mustaqillik deklaratsiyasi” asosida qabul qildi. “Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi”da millat oliy hokimiyat manbayi deb e'lon qilindi. Bu esa, o'z navbatida, mutlaq monarxiyaning tugatilganligini bildirar, ammo konstitutsion monarxiyaning saqlanib qolishiga yo'l qo'yar edi.

Bu **deklaratsiya kirish qism va 17ta moddadan iborat** edi. Uning kirish qismida “Fransiya xalqining vakillari Milliy ta'sis majlisini tashkil qiladilar va faqat inson huquqlariga nisbatan adolatsizlik ijtimoiy ofatlarni va hukumatlarning noto'g'ri harakatlarini keltirib chiqaradi deb hisoblab, insonning tabiiy va muqaddas huquqlari to'g'risidagi deklaratsiya qabul qilishga qaror qildi” deyilgan edi. Uning asosiy qismida insonning tabiiy va ajralmas huquqlari, xalq suvereniteti va xalq hokimiyatining taqsimlanish prinsiplari e'lon qilingan.

Deklaratsiya o'z zamonida absolutizmga qarshi demokratiya uchun kurashda juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Feodal-absolutistik tuzum

hukm surgan davrda Deklaratsiya e'lon qilgan tenglik, erkinlik, do'stlik, xalq suvereniteti prinsiplari o'sha zamon kishilarida juda katta taassurot qoldirdi.

Biroq shu bilan birga, Deklaratsiyaning barcha fuqarolar uchun adolat o'rnatganligi haqidagi qoidalari ancha mavhumiy bo'lib qolgan edi. Bu unga ma'lum darajada muayyan tarixiy sharh berish imkonini yaratdi.

### **“Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi”**

**1-modda.** *“Kishilar erkin va huquqda teng bo'lib tug'iladilar va keyin ham erkin, huquqda tengliklaricha qoladilar. Ijtimoiy farqlar faqat umumning foydasiga asoslangan bo'lmog'i mumkin”.*

**2-modda.** *“Har bir davlatning maqsadi insonlarning tabiiy huquqlarini ta'minlash, ya'ni erkinlik, xavfsizlik, mulkka egalik qilish va zulmga qarshilik ko'rsatish kabi insonning huquqlarini himoya qilishdir”.*

**3-modda.** *“Xalq suverenitetining asosiy manbayi xalq va hech qanday korporatsiya yoki shaxs xalqdan mustaqil hokimiyatga ega bo'la olmaydi”.*

**4-modda.** *“Mustaqillik boshqalarga zarar keltirmaydigan hamma narsani qilishdan tashkil topadi. Bu narsalar qonun bilan belgilanadi”.*

**5-modda.** *“Qonun jamiyatda zararli bo'lgan harakatlarni taqiqlashi mumkin”.*

**6-modda.** *“Qonun umum erkning ifodasi, hamma fuqarolar qonun ishlab chiqarishda o'zlari yoki vakillari orqali ishtirok etadi”.*

**7-modda.** *“Hech kim qonunda ko'rsatilgan holatlardan tashqari ayblanishi, qamalishi va ushlanishi mumkin emas, kimki qonuniy holda ayblansa va ushlansa, so'zsiz bo'ysinishi kerak”.*

**8-modda.** *“Qonun jazoning qattiq va muhim turlarini o'rnatishi mumkin. Hech kim qonundan tashqari holatda jazolanishi mumkin emas”.*

**9-modda.** *“Agar biror kishining aybliligi isbotlanmagan bo'lsa, unga qattiq choralar qo'llansa, qonun bilan qattiq jazolanadi”.*

**10-modda.** *“Har kim o'z fikrini, hatto diniy bo'lsa ham izhor etish huquqiga ega”.*

**11-modda.** *“Mustaqil fikrini aytish – inson huquqlarining qimmatligidan biri, shunga binoan u yozishi, nashr qilishi mumkin”.*

**12-modda.** *“Qurolli kuchlardan inson huquqlarini ta'minlashda foydalaniladi”.*

**13-modda.** *“Qurolli kuchlar va ma'muriy hokimiyatni ushlab turish uchun umumiy badal to'lovlar yig'iladi. U hamma fuqarolar o'rtasida teng taqsimlanadi”.*

**14-modda.** “Barcha fuqarolar o‘zlari yoki o‘z vakillari orqali davlat solig‘i o‘rnatish zarurligini bildirish, uni olishga erkin xohish bildirish, uni xarajat qilinishini kuzatib turish va uni majburiy miqdorini belgilash, bunday soliq olish asosini, tartibini va muddatini aniqlash huquqiga egadirlar”.

**15-modda.** “Jamiyat mansabdor shaxsdan unga biriktirilgan vazifa haqida hisobot talab qilish huquqiga ega”.

**16-moddada** davlatni idora etishda hokimiyatning taqsimlanishi prinsipi haqida gapirilgan.

**17-modda.** “Xususiy mulk daxlsiz va muqaddas bo‘lgani uchun undan qonunda belgilangan holdan tashqari hech kim mahrum etilishi mumkin emas. Xususiy mulk jamiyatning qonunan tasdiqlangan ehtiyoji ochiqdan ochiq talab etgan va adolatli yo‘l bilan oldin haq to‘langan taqdirda tortib olinishi mumkin”.

Inqilob davrida Deklaratsiyada inson va fuqaro huquqlarining e‘lon qilinishini dehqonlar va ko‘p ishchilar feodal zulmning tugatilishi, dvoryanlar yerlarining taqsimlanishi, bu yerlarga nisbatan ularning mulk huquqining o‘rnatilishi sifatida qabul qildilar. Ko‘p ishchilar qishloqlar bilan aloqani uzmay, mustaqil xo‘jayin bo‘lishni orzu qildilar. Ishsizlik kamayishi, oziq-ovqat mahsulotlari narxining pasayishi, oddiy fuqarolarga Deklaratsiyada e‘lon qilingan huquqlarning berilishi kutildi. Biroq amalda bular to‘la ta‘minlanmadi.

Hokimiyat tepasiga kelgan burjuaziya Deklaratsiyani faqat o‘z manfaatlariga mos tarzda talqin qildi. Yangi hukmron doiralarda tez orada Deklaratsiya prinsiplarini buza boshladi. **1789-yil dekabrda Ta‘sis majlisi saylovchilar uchun mulkiy va boshqa senzlar joriy qilinishi haqida dekret qabul qildi.** Unda “Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi”ga batamom zid bo‘lgan *senzli saylov tizimi* qabul qilingan edi. Bu saylov tizimi *fuqarolarni mulkiy va moddiy ahvoriga qarab, “aktiv” va “passiv” fuqarolarga ajratgan edi.*

*25 yoshga to‘lgan, biron kimsada maosh olib ishlamaydigan, milliy gvardiya ro‘yxatiga kirgan hamda mardikorning kamida uch kunlik mahalliy ish haqi miqdorida to‘g‘ri soliq to‘lab turadigan erkaklarga saylovchi vakillar saylash huquqi berildi.* Ma‘lumki, uch kunlik ish haqi katta pul emas edi, lekin milliy gvardiyaga kirgan bo‘lishi kerakligi to‘g‘risidagi talab juda ko‘p fuqarolarni saylovda qatnashishdan chetlashtirar edi. Milliy gvardiyaga kiruvchi kishi oziq-ovqat, kiyim-bosh va qurol-yarog‘ bilan o‘zini o‘zi ta‘minlashi lozim edi, bu esa juda qimmatga tushar edi. *O‘n kunlik ish haqi miqdorida soliq to‘laydigan kishilar saylovchi vakil bo‘lib saylana olar edi.* **1789-yilning oxirida**

**chiqarilgan qonunga ko‘ra, bir kumush marka (qariyb 50 livr) miqdorida to‘g‘ri soliq to‘laydigan yoki biron yer mulki bo‘lgan shaxslargina deputatlikka saylanishi mumkin edi.** Ammo keyinroq borib, **1791-yilning 27-avgustida** bu qaror yirik burjua foydasiga o‘zgartirildi. “Kumush marka” to‘g‘risidagi modda bekor qilindi. Buning o‘rniga mulkiy senz oshirildi. Saylovchi vakil bo‘lish, ya’ni boshqacha qilib aytganda, departament ma’murlarini va majlis deputatlarini saylaydigan departament yig‘ilishlarida qatnashish huquqiga faqat yer mulkidan kamida 150–200 kunlik ish haqi miqdorida daromad oladigan shaxslargina ega bo‘la olar edi.

Senzli saylov tizimining joriy etilishi fuqarolarning siyosiy tengsizligini vujudga keltirdi.

1790-yilning yanvar-fevral oylarida yangi saylov tizimi asosida munitsipal organlarga saylovlar o‘tkazildi.

1791-yilda Fransiyaning 26 million aholisidan 4,3 millionga yaqin kishi “aktiv” fuqaro hisoblanar edi.

**Ta’sis majlisining qonunchilik faoliyati.** Inqilobning ushbu birinchi bosqichida savdo va sanoatning rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi o‘rta asrlarga xos bir qator institutlar tugatildi. Tabaqaviy bo‘linishni bekor qiluvchi sex tizimi, ichki bojlar va hokazolarning bekor qilinishi haqidagi dekretlar qabul qilindi.

Mamlakatning eski hududiy bo‘linishining tugatilishi ham progressiv tadbir bo‘ldi. Natijada yagona ma’muriy-hududiy bo‘linish joriy qilinib, *mamlakat hududi departamentlarga, distriklarga, kantonlarga va kommunalarga* bo‘lindi. Ta’sis majlisida yangi ma’muriy-hududiy chegaralar, mahalliy boshqaruv organlarining strukturasi va kompetensiyasi va shular bilan bog‘liq boshqa masalalar bir necha marta muhokama qilindi va aniqlashtirildi.

**1790-yilning may-iyun oylarida Parijda yangi ma’muriy tuzilish joriy qilindi va poytaxt rayonlarga bo‘lindi: distriklar tugatilib, Parij 48 seksiyaga bo‘lindi.** Seksiyalarning majlislarida faqat “aktiv” fuqarolar qatnasha olar edi. Seksiyalarni chaqirish tartibi atayin murakkablashtirilganligidan, ularning qo‘shma majlislarini o‘tkazish imkoniyati juda ham qiyinlashtirib qo‘yilgan edi. Yirik burjuaziyaning va burjualashgan dvoryanlarning siyosiy hukmronligi ana shu tariqa o‘rnatildi.

Ta’sis majlisi “davlat ichidagi davlat” holatida bo‘lgan ba’zi bir viloyatlarning imtiyozlarini bekor qildi va bu islohot, shubhasiz, katta progressiv ahamiyatga ega bo‘ldi. Inqilob fransuz burjua millatining tarkib topish jarayoni tugallanishiga g‘oyat katta yordam berdi.

**1789 yilning oktabrida** *Fransiya 83ta hududiy jihatdan bir-biriga teng departamentga bo'lini. Departamentlarni ma'muriy kengashlar va besh kishidan iborat ijroiya direktoriyalari idora qilar edi.* Yagona ma'muriy tizim, yagona soliq tizimi joriy qilinishi, votchina sudlarining tugatilishi va ichki bojxonalarning yopib tashlanishi natijasida Fransiya ayrim qismlarini bir-biri bilan bog'lanmaslik holati yo'qoldi. Bu bilan mamlakat ichida kapitalizmning rivojlanishiga, savdo va sanoat aloqalarining kuchayishiga xalaqit berib kelgan sun'iy g'ovlar bitirildi.

**Ta'sis majlisi toifalar o'rtasidagi tafovutlarni ham yo'q qildi.** Dvoryanlarni qolgan-qutgan yuridik imtiyozlaridan mahrum etish va barcha fuqarolarning rasmiy tengligini ta'min qilish uchun, **Ta'sis majlisi 1790-yil 19-iyunda chiqargan dekretida** *merosiy dvoryanlik tartibotini va u bilan bog'liq bo'lgan hamma unvonlarni bekor qildi.*

Cherkov mulkini millat ixtiyoriga berilishi haqidagi dekretlar chiqarildi. **1789-yilning 2-noyabridagi dekret bilan cherkovlarning barcha mulki millat mulki deb e'lon qilindi.** Cherkovdan musodara qilib olingan va millat mulki deb e'lon qilingan yerlar davlat qarzini to'lash uchun sotildi.

**1790-yilning iyul-noyabr oylarida chiqarilgan dekretlar ruhoniylarning fuqarolik tuzumi deb atalgan tartib joriy qildi.** Fransuz katolik cherkovi bundan buyon ma'muriy jihatdan Vatikanga emas, balki davlatga tobe bo'lishi kerak edi.

*Yepiskoplar va poplar saylovchi vakillar tomonidan saylanishi lozim edi. Yepiskoplar departamentlarning, poplar qavmlarning saylovchi vakillari tomonidan saylanishi kerak edi.*

Davlat din xizmatchilariga maosh to'laydigan bo'ldi, din xizmatchilari esa, o'z navbatida, konstitutsiyaga qasamyod qilishlari kerak edi. Ilgari cherkov bajarib kelgan ba'zi ishlarni (tug'ilish, o'lish va nikohni ro'yxat qilishni) davlat olib boradigan bo'ldi.

Majlis moliya inqirozini bartaraf qilish va davlat qarzini to'lash uchun 1789-yilning 16–21-dekabrida davlat pul majburiyatlari, ya'ni assignatlar chiqarishga qaror qildi, bu assignatlar cherkov mulklarini sotishdan tushishi kerak bo'lgan summa (400 million livr) miqdorida belgilandi.

Dastlab yirik kupyuralarda (har qaysisi 1000 livrdan) chiqarilgan assignatlar besh foiz daromad keltiradigan alohida turdagi qog'ozlar edi. 1790-yil 16-17-aprelda va 29-sentabrda chiqarilgan dekretlar assignatlarni qog'oz pulga aylantirdi. U daromad keltiradigan qog'ozlik ahamiyatini yo'qotdi, mayda kupyuralarda chiqarildi va muomalada tanga o'rnida yurishi lozim edi. Keyinchalik ko'plab chiqarilgan sari qadri tez keta boshladi.

Ta'sis majlisi savdo-sanoat sohasidagi siyosatda burjuaziyaning turli tabaqalari manfaatlarini bir-biriga muvofiq keltirish yo'lini axtardi. Bir nechta dekretlar chiqarilib, hukumat o'rnatgan qonun-qoida va tartiblar bekor qilindi, *sexlar tugatildi, g'alla savdosi erkinligi joriy qilindi. 1791-yilgi boj tarifi chetdan tovarlar keltirishni, masalan, zig'irpoya kalavasi va binokorlik materiallari keltirishni man qildi.*

Ta'sis majlisi qabul etgan **solliq tizimi** xarakterlidir. Yirik kapitalga oz soliq solingani holda mayda sanoatchilarga birmuncha katta soliq solinadigan bo'ldi, dehqonlarga ham og'ir soliqlar solindi.

General shtatlarga saylov vaqtida berilgan deputatlik "nakazlari"dayoq negrlarni qullikdan ozod qilish g'oyasi ilgari surilgan edi. Inqilobning boshlarida San-Domingo va Martiniki degan fransuz mustamlakalaridagi negrlar qo'zg'olon ko'targan edi. Ammo Ta'sis majlisida "Qora tanlilarning do'stlari" deb atalgan kichik bir guruhdan boshqa qul oldi-sotdisini bekor qilish tarafdorlari yo'q edi, ba'zi bir deputatlar – dvoryanlar va burjuaziya liberal doiralarning vakillari mustamlakalarni ekspluatatsiya qilishdan shaxsan manfaatdor edilar. Shu sababli majlis 1790-yil 8-mart qonunini qabul qilish bilan cheklandi. Bu qonunda mustamlakalarning majlislarini chaqirishga ruxsat etildi-yu, ammo u majlislarga eng boy mulatlarning vakillarigina qatnashirildi. Mulatlarga Fransiyaning Millat majlisida qatnashish huquqini berish qat'iyon rad etildi. **Mustamlakalardagi qullik bekor qilinmadi.**

Xalq ommasining mustaqil siyosiy harakatlariga qarshilik ko'rsatish maqsadida Ta'sis majlisi **harbiy qonun** deb atalgan qonun chiqardi, *bu qonun xalq g'alayonlari vaqtida harbiy holat e'lon qilish va "isyonchi to'dalar"ga qarshi qurol ishlatish haqidagi 1789-yil 21-oktabr dekreti* edi.

**1791-yilgi Konstitutsiya.** Ta'sis majlisi Deklaratsiyani tuzish bilan bir vaqtda Konstitutsiya ishlab chiqishga ham kirishgan edi. 1789 yilning oxiridayoq Ta'sis majlisi qonun chiqarish hokimiyatining oliy organi, qirol, hukumat, sud kabilarning huquqiy holatini, saylov tizimini belgilovchi asosiy konstitutsiyaviy prinsiplarni muhokama qilgan va tasdiqlagan edi. Lekin mamlakatdagi keskin siyosiy kurash Majlis e'tiborini doimo boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarga qaratishga majbur etib keldi.

Konstitutsiya ishlab chiqish ishlari orqaga surilib qolaverdi. Konstitutsiyaning alohida qoidalari qonunlar ko'rinishida qabul qilindi. Bunday qonunlar har doim bir-biriga muvofiq bo'lavermadi. Natijada Majlis konstitutsiyaviy aktlarni tanlab olish va tizimga solish bo'yicha

maxsus komissiya tuzdi. Komissiya tez orada konstitutsiyaviy qonunlar to'plamini ishlab chiqdi. Bu konstitutsiyaviy qonunlar to'plami Konstitutsiya loyihasiga asos qilib olindi.

**Konstitutsiya 1791-yil 3-sentabrda Ta'sis majlisi tomonidan qabul qilindi.** Konstitutsiya kirish, uchta qism va yettita bo'limdan iborat qilib tuzilgan edi.

Kirish qismining o'zi 1789-yilgi "Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi" va "huquqlar kafolati" deb nomlangan bo'limlardan iborat edi.

Konstitutsiyaning **preambulasida** *tabaqa imtiyozlari, feodal tartiblar, titul va u bilan bog'liq imtiyozlar, votchina sudi, davlat mansablarini meros tariqasida egallash, sotish bekor qilinganligi ko'rsatildi.* Shuningdek, feodallarning tabaqa, sex tuzumi, korporatsiyalari, shaxsiy imtiyozlari bekor qilinganligi mustahkamlandi.

Uning birinchi bo'limi "**Konstitutsiya bilan ta'minlangan asosiy qoidalar**" deb nomlanib, unda *fuqarolarning bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurish, so'z, vijdon erkinliklari kabilari e'lon qilindi.*

Ushbu bo'limda qonun chiqarish hokimiyatining tabiiy va fuqarolik huquqlarini himoya qilish lozimligi, huquqlarni cheklashga qaratilgan qonunlar qabul qila olmasligi belgilandi. Konstitutsiyada qanday hollarda shaxslarni qamoqqa olish va ushlab turish mumkinligi, qonunni buzgan shaxslarning javobgarliklari ko'rsatilgan edi. Unda ham xususiy mulk muqaddas deb e'lon qilindi. Konstitutsiyada bepul xalq maorifi tashkil etilib, ularning boquvchisiz qolgan bolalarga va kam ta'minlangan oilalarga yordam berishi va sog'lom kishilarga ish izlayotgan vaqtda yordam berishi belgilangan edi.

Konstitutsiyaning "**Qirollikning bo'linishi**" deb atalgan **ikkinchi bo'limida** Fransiyaning Yangi ma'muriy-hududiy bo'linishi mustahkamlandi. *Unga ko'ra Fransiya oddiy, unitar davlat deb e'lon qilinib, uning hududi 83ta departamentga, departamentlar okruglarga va kantonlarga bo'lindi.*

Mahalliy ma'muriyat saylov yo'li bilan tashkil qilinadigan bo'ldi. Qirol hokimiyati mahalliy boshqaruv ustidan nazorat qilish, departament boshliqlarini ishdan bo'shatish va departament ma'muriyati qabul qilgan qarorlarni bekor qilish huquqlariga ega bo'ldi.

Konstitutsiyaning ikkinchi bo'limida *Fransiya fuqaroligining asoslari, fuqarolik qasamyodi, fuqarolikni yo'qotish faqat fuqarolik shartnomasi asosida tuzilganligi, fuqarolikning haqiqiyliigi, cherkovning davlatdan ajratilganligi, fuqarolik holatini faqat davlat organlari tomonidan ro'yxatga olinishi haqidagi me'yorlar belgilangan edi.*

Konstitutsiyaning **uchinchi bo‘limi “Davlat hokimiyati”** deb nomlanib, unda *davlatning boshqarish shakli, saylov huquqi haqidagi me’yorlar* belgilangan edi.

*Bu qismda suverenitet – millat qo‘lida, u har qanday hokimiyatning manbasi ekanligi, millat hokimiyatni o‘zi saylagan vakillari orqali amalga oshirishi, bir palatali Milliy Majlis hamda qirol millatning vakili ekanligi, ya’ni Fransiyada konstitutsion monarxiya o‘rnatilganligi mustahkamlandi.*

Konstitutsiyada Sh.Monteske va D.Lokklarning hokimiyatni taqsimlash nazariyasi o‘z aksini topdi. Bunga ko‘ra, **qonun chiqarish hokimiyati Milliy majlisga, ijroiya hokimiyat qirolga, sud hokimiyati esa xalq tomonidan saylab qo‘yiladigan sudyalarga tegishli bo‘ldi.**

Xullas, Konstitutsiya hokimiyatlarning taqsimlanishi, monarxiyaning cheklanishi, milliy suverenitet va vakillik boshqaruviga asoslangan davlat tuzumini o‘rnatdi.

Konstitutsiyaga binoan oliy qonun chiqarish organi – bir palatali Milliy Majlis ikki yilga saylanardi va qirol tomonidan tarqatib yuborilishi mumkin emas edi.

### **Milliy Majlis vakolatlari:**

- *harbiy ishlar sohasida – qurolli kuchlar miqdori va tarkibi haqida har yili qarorlar chiqarish, ularning pul bilan ta’minlanishini belgilash, urush e’lon qilish;*

- *moliya sohasida – har yili budjet tuzish va tasdiqlash, soliqlar belgilash, davlat mablag‘larining xarajat qilinishini nazorat qilish;*

- *ma’muriy boshqaruv sohasida – davlat mansablarini o‘rnatish va tugatish;*

- *adliya sohasida – Yuqori sud oldida ministrnlarni va boshqa oliy mansabdor shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish, davlat xavfsizligiga qarshi fitna uyushtirishda gumonlanuvchi shaxslarga nisbatan jinoiy ta’qib qo‘zg‘ash;*

- *tashqi munosabatlar sohasida – chet davlatlar bilan tuzilgan shartnomalarni ratifikatsiya qilish.*

Milliy Majlis deputatlari daxlsizlik huquqidan foydalangan. Deputatlar o‘z majburiyatlarini bajarish chog‘ida sodir etgan harakatlari yoki bildirgan fikrlari uchun jinoiy javobgarlikka tortilishlari va sud qilinishlari mumkin emasdi. Ularni umumiy tartibda jinoiy javobgarlikka tortish uchun Milliy Majlis roziligi talab qilinardi.

Milliy Majlisning eng asosiy vazifasi qonunlar qabul qilish edi. Uning tomonidan qabul qilingan qonunlar loyihasi qirol tasdig‘iga



yuborilardi. Biroq qirol tomonidan rad etilgan qonun loyihasi Milliy Majlisning ikki marta yangi saylangan tarkibi tomonidan qayta qabul qilinsa, qonuniy kuchga kirardi. Ya'ni qirol Milliy Majlis chiqargan qonun va boshqa aktlarga ikki marta veto qo'yish huquqiga ega edi. Uchinchi marta esa uni imzolashga va ijrosini ta'minlashga majbur edi. Qirol veto huquqini moliya va konstitutsiyaga taalluqli aktlarga umuman qo'llay olmasdi.

Konstitutsiyada shunday tartib o'rnatilgan ediki, unga binoan Milliy Majlis sessiyalari qirol xohishi bilan emas, bevosita qonun kuchi bilan chaqirilishi lozim edi.

**Qirol** ijroiya hokimiyatni o'zi tayinlagan ministrlar yordamida amalga oshirardi.

Konstitutsiyada *“bundan buyon qirol o'z xohishi bilan emas, balki konstitutsiyada ko'zda tutilgan qonunlar bilan hokimiyatni boshqaradi, u Xudoning yerdagi noibi” bo'lib emas, balki “fransuzlar qiroli” bo'lib hokimiyatni boshqaradi*” deyilgan edi (3-qism 1-bo'limning 1-moddasi). Unda yana shunday belgilanadi: *“Qirol faqat qonun bo'yicha davlatni boshqaradi va faqatgina qonun nomi bilan xalqni bo'ysundiradi. Fransiyada qonundan yuqori hokimiyat yo'q”* (3-qism 1-bo'limning 3-moddasi).

Demak, qirolning ijroiya hokimiyati ancha cheklangan edi. U faqat Milliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonun doirasidagina faoliyat yuritardi. **Kontrassignatura qoidasi joriy qilinib, qirol farmoyishlari tegishli ministr tomonidan imzolanganidan keyin kuchga kirardi.** Bunday qabul qilingan qaror uchun qirol emas, imzo qo'ygan ministr javobgar edi. Ministrlar qirol tomonidan tayinlanardi, lekin noqonuniy xatti-harakatlari uchun Milliy Majlis tomonidan sudga berilishlari mumkin edi.

Konstitutsiyada qirol “xalqqa va qonunga” sodiqlik haqida qasamyod qiladi deyilgan edi.

**1791-yilgi Konstitutsiyaga binoan qirolni taxtdan tushirish mumkin bo'lgan holatlar:** *agar qirol: 1) qasamyod qilmasa; 2) amaldagi hokimiyatga qarshi harbiy to'ntarish yasasa, yoki harbiy to'ntarishga sharoit yaratib bersa; 3) chet elga qochib ketsa, taxtdan tushirilishi mumkin edi.*


*Bunday hollarda qirol “oddiy fuqarolar safiga” kirardi.*

Konstitutsiya qirol hokimiyatini cheklash bilan bir qatorda unga bir qancha huquqlar ham berdi. *Qirol davlat boshqaruvida eng yuqori mavqeni egallab, jamoat tartibi va tinchligini saqlash vazifasini bajarishi lozim edi. U harbiy va boshqa yuqori davlat mansabdor shaxslarini*

*tayinlash, urush e'lon qilish huquqiga ega edi. Qirol yakka holda ministrnlarni tayinlardi va ularni ishdan bo'shatardi hamda ularning ish faoliyatini boshqarib turardi. Qirolning farmoyishlarini har bir ministr bajarishi shart edi.*

Konstitutsiyaning 3-bo'lim 2-bobida qirolning konstitutsiyaviy maqomi belgilanib, *“Qirol hokimiyati bo'linmasdir, taxt hukmdor sulolaning erkaklari liniyasi bo'yicha birinchi tug'ilganiga meros qilib qoldiriladi, ayrim hollarda xotinlar va ularning avlodlariga meros qilinadi”* deb ko'rsatilgan edi.

Konstitutsiyada **Yuqori sud** tashkil qilish nazarda tutilgandi. Yuqori sud ministrnlarning huquqbuzarliklarini, shuningdek davlat xavfsizligiga tahdid qiluvchi jinoyatlarni ko'rib hal qilishi lozim edi.



Konstitutsiyaning **saylov tizimiga** bag'ishlangan bo'limlari alohida ahamiyatga ega. Aslida bunda asosiy masala – mamlakatni kim boshqarishi masalasi hal qilindi.

Milliy Majlis deputatlari ikki pog'onali saylov asosida saylanishlari lozim edi. Konstitutsiyaga binoan Fransiya saylovchilari faol va passiv guruhlarga bo'linib, faqatgina 25 yoshga to'lgan, 3 kunlik ish haqi miqdorida soliq to'laydigan, qonunda ko'zda tutilgan vaqt mobaynida bir joyda muqim yashayotgan, munitsipalitet milliy gvardiyasi ro'yxatiga olingan faol fuqarolargina davlat organlariga saylanish huquqiga ega edi. Saylanuvchilarning mol-mulki yoki maoshi 100–400 kunlik ish haqidan kam bo'lmasligi talab qilinardi.

Konstitutsiyaning **to'rtinchi bo'limi “Davlatning qurolli kuchlari”** deb nomlanib, unda milliy gvardiya to'g'risidagi nizomlar belgilandi. Bunda Milliy gvardiya qurolli kuchlarning motiviga kirmasligi, u faol fuqarolar tomonidan ixtiyoriy ravishda tashkil etilishi, qo'mondonlari ma'lum muddatga saylanishi ko'rsatilgan edi. Konstitutsiyaga binoan qurolli kuchlardan mamlakatdagi ichki tartibni qo'riqlash uchun faqat parlament roziligi bilan foydalanish mumkin edi.

Konstitutsiyaning **beshinch**i bo‘limi **“Davlat soliqlari haqida”** bo‘lib, bunda soliqlar faqat parlament tomonidan muhokama etilib belgilanishi ko‘rsatildi.

**Oltinchi bo‘limda** bosqinchilik urushlaridan boshqa xalqlarning erkinligiga qarshi foydalanish to‘g‘risida ko‘rsatilgan edi.

**“Konstitutsiyaviy qarorlarni qayta ko‘rib chiqish to‘g‘risida”**gi yettinchi bo‘limga binoan qirol Konstitutsiyaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish o‘lmas edi. Konstitutsiya Fransiya mustamlakalariga taalluqli bo‘lmay, u yerlarda qulchilik davom etaverdi.

Konstitutsiyada **milliy suverenitet va vakillik boshqaruvi prinsiplari** o‘z timsolini topgandi. Unda shunday deyiladi: *“Suverenitet millatga tegishli: u bo‘linmas, daxlsiz va ajralmasdir. Xalqning biron-bir qismi hech qanday shaxs uni amalga oshirishni o‘zlashtirib olishi mumkin emas”*. Shu tariqa Konstitutsiyada qirol hokimiyatining cheksizligi, ilohiy qudrati rad etildi. Qirol millat irodasi bilan tasdiqlanadi va konstitutsiyaviy qonunga itoat etadi, demak, uning hokimiyati konstitutsiyaviy cheklanadi.

Milliy suverenitetning konstitutsiyaviy mustahkamlanishi progressiv hodisa hisoblanib, undan senzli saylov huquqini asoslash uchun foydalanildi. Millat o‘z xohishi bo‘yicha muayyan doiradagi shaxslarni saylash shartlari va tartibini o‘rnatishi, shuningdek ma‘lum tayinlangan shaxslarga milliy hukumatni ishonib topshirishi mumkin edi. Konstitutsiyada millatning o‘ziga tegishli hokimiyatni amalga oshirish uchun o‘zi saylagan yoki tayinlagan vakillariga vakolat berishi nazarda tutilgandi: *“Millat butun hokimiyatning yagona manbayi bo‘lib, uni faqat vakolat berish yo‘li bilan amalga oshirish mumkin. Fransuz konstitutsiyasi vakillik xarakteriga ega; qonunchilik korpusi va qirol vakillar hisoblanadi”* (III bo‘lim 2-band).

Konstitutsiya vakillik boshqaruvi tushunchasini kiritib, uni senzli saylov huquqi bilan chambarchas bog‘ladi. Biroq vakillik boshqaruvi qat‘iy saylov asosida bo‘lmadi: qirol Milliy Majlis bilan bir qatorda millat vakili deb e‘lon qilindi.

Konstitutsiya qonun chiqarish hokimiyatini Milliy Majlisning alohida deputatlari o‘rtasida bo‘linishi imkoniyatini qat‘iyankor inkor qilardi. Unda qonun chiqarish faoliyati alohida xohish-istaklar yig‘indisining ifodasi sifatida emas, balki umumiy ommaviy irodaning ifodalanishi deb hisoblangan. Bunda deputat tomonidan amalga oshiriladigan hokimiyat uning saylovchilarining hokimiyati emas, butun millatning hokimiyati

ekanligi nazarda tutilgan. Konstitutsiyada “*departamentlar bo'yicha saylangan vakillar alohida departamentlarning vakillari emas, butun millatning vakilidir...*” (III bo‘lim III qism 3-band) deyiladi.

Konstitutsiyaga binoan deputatlar saylovchilar oldida javobgar emas va ulardan mustaqil edilar. Deputatlar saylov kampaniyasi davomidagi va‘dalari bilan bog‘liq emas edilar. “*Saylovchilar deputatlarga hech qanday nakazlar bera olmasdilar*” (III bo‘lim III qism 7-band). Deputatni o‘z saylovchilari tomonidan chaqirib olinishi taqiqlangan edi.

**Siyosiy guruhlar.** Kurashlarning keskinlashuvi antifeodal lagerda siyosiy kuchlarning ajralib ketishini tezlashtirdi. Ta’sis majlisi deputatlari muhim masalalar bo‘yicha o‘xshash qarashlarga rioya qilib, yagona liniya ishlab chiqish uchun fraksiya yig‘ilishlariga to‘planib turardilar. Majlisdan tashqari xuddi o‘sha maqsadlarda klublar tashkil qilindi. Klublar yagona fikrli kishilarning o‘ziga xos birlashish shakli bo‘lib qoldi.

Inqilob davrida siyosiy klublar katta rol o‘ynadi, bu klublar mamlakatni tashvishga solgan eng muhim masalalar ustida munozaralar olib boriladigan markaz bo‘lib xizmat qildi. 1789-yil yozida Versalda vujudga kelgan Bretan klubi dastlabki klublardan edi. Uning tarkibida uchinchi toifaning vakillari, burjualashgan dvoryan-liberallarning rahbarlari, burjua demokratlar bor edi. Ular konstitutsion-monarxistlar edi. 1789-yilning 5-6-oktabridagi ommaviy harakatdan keyin qirol va majlis bilan birgalikda Bretan klubi ham Versaldan Parijga ko‘chib keldi, bu yerda klub a‘zolari “Konstitutsiya do‘stlari jamiyati” deb nomlangan yangi klub tashkil qildilar, lekin uning nomi bir binoning nomidan olinib Yakobinchilar klubi deb ataldi, uning majlislari shu binoda bo‘lar edi: bu bino avliyo Yakov monastrining kutubxonasi edi. Yakobinchilar klubining provinsiyada filiallari bor edi: 1790-yilda – 100tacha, 1791-yilning boshlarida – 227ta filiali, o‘sha yilning iyunida esa 406ta bo‘limi bor edi. Shu tariqa provinsial shaharlarda ham o‘z bo‘limlariga ega bo‘lgan Parij klublari katta ahamiyat kasb etdi.

Klublar ma’lum siyosiy guruh tarafdorlarini birlashtirib turardilar va shu yo‘l bilan o‘sha vaqtda Fransiyada mavjud bo‘lmagan siyosiy partiyalarning o‘rnini to‘ldirardilar.

Siyosiy guruhlardan birontasi ham o‘zini qandaydir ijtimoiy guruhning manfaatlarini ifodalovchi vakil deb hisoblamadi. Ko‘pchilik o‘zining klubdagi ishtirokini ma’rifatning muayyan g‘oyalarini hayotga tatbiq qilish bo‘yicha subyektiv qabul qilgan. Biroq obyektiv jihatdan ular o‘zlarining ijtimoiy kelib chiqishlariga qarab ko‘proq u yoki bu ijtimoiy guruhning mavqeyini himoya qilardilar.

## **Eslab qoling!**

1791-yilga kelib uchta asosiy guruh shakllangan edi. Yakobinchilar klubi ichidagi ixtiloflar natijasida undan **Felyanlar klubi** deb nom olgan yangi guruh ajralib chiqadi.

Bu klub ilgari Felyanlar ordeni monaxlariga qarashli monastir binosiga joylashgani uchun shunday deb atalgan edi. Unda dvoryanlarning va yirik burjuaziyaning inqilobga qarshi kurashish uchun jipslashgan konstitutsion-monarxiyachi vakillari birlashdi.

Jironda departamentidan saylangan deputatlar rahbarlik qilgan **jirondistlar** asosan savdo-sanoat, birinchi navbatda provinsial, o'rtahol burjuaziya vakillaridan iborat edi. **Yakobinchilar** esa mayda, qisman o'rtahol burjuaziyaning, hunarmandlar va dehqonlarning manfaatlarini ifoda etardi.

1789–1791-yillarda mamlakat siyosiy hayotida felyanlar hukmronlik qildi.

### **3-§. Jirondistlar respublikasi**

1792-yilda mamlakatdagi siyosiy kurashga inqilobiy Fransiya atrofida yuz berayotgan tashqi siyosiy ahvol tobora ko'proq ta'sir o'tkaza boshladi. Fransiya qarshi Yevropadagi yirik monarxiyalarning harbiy koalitsiyasi vujudga keldi. Inqilobiy Fransiya harbiy jihatdan tor-mor qilish va unda eski tartiblarni qayta tiklash koalitsiyaning maqsadi deb e'lon qilindi. Isyonchi dvoryanlar o'zlarining kelajakka bo'lgan umidlarini chet el bosqinchilariga bog'ladilar. Qirol saroyi fitna markazi bo'lib chiqdi va mamlakatni urushga tortdi.


Natijada xalqning monarxiyadan noroziligi kuchaydi. Bu noroziliklar, ayniqsa, qirolning chet el intervansiyasiga boshchilik qilish maqsadida qochishga urinishi muvaffaqiyatsiz chiqqandan so'ng yanada o'sdi. Xalq hali qirolning xiyonati haqida dalillarga ega emasdi, biroq u saroyning niyatlarini, uning dvoryan muhojirlar va Fransiya dushman chet el hukumatlari bilan maxfiy aloqalarini tushunib yetdi.

Bu vaqtga kelib poytaxtning o'zini o'zi boshqaruvchi organi – Parij Kommunasining ahamiyati ortdi. U Parij seksiyalari (ma'muriy birliklar – poytaxtning alohida tumanlari mahalliy boshqaruv organlari) vakillaridan iborat edi. Har bir seksiya Kommunaga uchtadan saylangan delegatlarini yuborardi. Seksiyalar General shtatlarga saylovlar vaqtidayoq vujudga kelgan edi. Inqilobda g'alaba qozongandan keyin ular shaharning tegishli tumanlarida boshqaruvni ochiqdan ochiq o'z qo'llariga oladilar. Dastlab Kommunada felyanlar, so'ngra jirondistlar ustun ta'sirga ega bo'ldilar, lekin Yakobinchilar tarafdorlarining soni tobora ortib bordi.

**1792-yil 10-avgustda** shturm bilan qirol saroyi olindi, felyanlar boshqaruvi ag‘darildi. 1792-yil 10-avgust tunda qo‘zg‘olonchilarning Parij Kommunasi tashkil topdi (unda Yakobinchilar ko‘pchilikni tashkil etardi). Unga avvalgi Kommunaning ko‘p qismi (80 kishiga yaqini) qo‘shildi. Lyudovik XVI hokimiyatdan voz kechtirildi. Qonun chiqaruvchi majlis uni qamoqqa olmadi va unga Luksemburg saroyini rezidensiya qilib berdi, ammo Kommuna o‘z hokimiyatini ishga solib, Lyudovik XVI ni qamoqqa oldi va uni Tampl qal‘asiga soldi. Qonun chiqaruvchi majlis Lyudovik XVI ning ministrларini o‘rnidan olib, yangi hukumat – ko‘pchiligi jirondistlardan iborat bo‘lgan Muvaqqat ijroiya kengashi tuzdi. Faqat birgina montanyar – Danton hukumat tarkibiga adliya ministri bo‘lib kirdi. **Milliy Konvent chaqirish to‘g‘risida dekret chiqarilib, unda 21 yoshdan kam bo‘lmagan erkaklarning hammasiga saylov huquqi berildi. Tarixda birinchi marta erkaklar uchun umumiy saylov huquqi joriy qilindi.** Shunday qilib, mehnatkashlar ommasining qurolli qo‘zg‘oloni natijasida monarxiya ag‘darib tashlandi va 1791-yilgi konstitutsiya o‘rnatgan senz tizimi tugatildi.

G‘olibona xalq qo‘zg‘oloni Fransiyada ming yildan beri hukmronlik qilib kelgan monarxiyani ag‘darib tashladi. Inqilob o‘z taraqqiyotining yangi, yanada yuksak bosqichiga ko‘tarildi.

Kommuna Qonunchilik majlisini qator muhim qarorlar qabul qilishga majbur etdi. 10-avgust dekretlari bilan qirol ijroiya hokimiyat boshlig‘i vazifalaridan chetlashtirildi, Qonunchilik majlisiga vaqtinchalik ministrларni tayinlash huquqi berildi (lekin bunda ministrлар Qonunchilik majlisi a‘zolaridan bo‘lmasligi kerak edi), davlat hokimiyatining yangi oliy organi – Milliy konvent chaqirilishi haqida e‘lon qilindi.



Deputat yoki saylovchi vakil sifatida saylanish uchun 25 yoshga to'lgan bo'lishlik hamda yuqoridagi shartlar talab qilinardi. Saylovlar Qonunchilik majlisiga saylovlar singari usulda o'tkazilardi. Barcha munitsipalitetlarga va sudlarga Yangi saylov huquqi asosida qayta saylovlar o'tkazish haqida qaror qabul qilindi.

Keyingi kunlarda Parij Kommunasini bir qancha aksilinqilobchilarni qamoqqa oldi. Ular ustidan sud qilish uchun Milliy majlisning **1792-yil 17-avgustda** chiqargan dekreti bilan **Favqulodda jinoiy tribunal ta'asis etildi.**

Aralash hukumat o'rniga Qonunchilik majlisi Muvaqqat ijroiya kengash tuzdi.

1792-yil sentabrda Konventga saylovlar nihoyasiga yetdi va 783ta deputatlar saylandi. Bulardan 34tasi koloniyalardan saylangan edi. Deputatlarning 200ga yaqini jirondistlar, 100ga yaqini Yakobinchilar edi. *Yakobinchilar Konventda yuqoridan joy oldilar. Shuning uchun ularni "tog'liklar" (montanyarlar) deb atay boshladilar.* Ko'pchilik deputatlar hech qanday guruhga kirmadilar.

Konvent o'z ishini interventlar ustidan Valmedagi g'alaba kunlari boshladi. Umumxalq bayrami va yuqori ko'tarinkilik ruhida o'tgan majlisda tomonlarning vaqtincha yarashuvi kuzatildi. Konvent Fransiyada monarxiyaning tugatilganligini va 1791-yilgi Konstitutsiya bekor qilinganini, shu bilan birga fuqarolarning aktiv va passiv fuqarolarga bo'linishini (1792-yil 21-22-sentabrdagi dekret bilan) bir ovozdan tasdiqladi.

### **Eslab qoling!**

**1792-yil 25-sentabrdagi** dekret bilan **Fransiya** yagona va bo'linmas **respublika** deb e'lon qilindi.

Shu bilan birga, eng muhim masala – qishloqda feodal munosabatlarni batamom va to'la tugatish masalasi hal qilinmay qoldi.

### **4-§. Yakobinchilar respublikasi**

Jirondistlarning ag'darilishi va tog'liklarning (montanyarlarning) tantanasi buyuk fransuz inqilobining uchinchi bosqichga o'tganligini – Yakobinchilar diktaturasining o'rnatilganligini bildirar edi.

Yakobinchilar o'z hukmronligini feodallardan musodara qilingan yerlarni dehqonlarga sotish haqida qonun chiqarish bilan boshladilar. Chunki dehqonlarning yerga ega bo'lish bilan bog'liq juda muhim hayotiy manfaatlari shu vaqtgacha to'la qondirilmagan edi va ular o'z talablarining bajarilishi yo'lida kurashni davom ettirardilar. Shu sababli **Konvent**

**3-iyunda maxsus dekret** qabul qildi. *Bu dekretga muvofiq, muhojirlardan musodara qilib olingan yerlar mayda uchastkalarga bo'ldi va uzoq muddatga to'lash sharti bilan sotildi.* Bu dekretda muhojirlarning jamoa yerlari yo'q joylardagi mulklaridan qishloqning har bir kambag'aliga bir arpandan (qariyb 0,5 gektardan) yer ajratib berish ko'zda tutilgan edi.

Konvent **10-iyunda yana bir muhim qonun** qabul qildi. *Unga binoan pomeshchiklar tomonidan jamoalardan tortib olingan yerlar jamoalarga qaytarib beriladigan bo'ldi va jamoadagi aholining kamida to'rt dan uch qismi xohlagan taqdirda, jamoa yerlarini aholi jon boshiga teng baravar taqsimlashga ijozat berildi.*

Yakobinchilarning **agrар siyosatida 1793-yil 17-iyul dekreti** asosiy ahamiyatga ega bo'ldi. *Bu dekret bilan Konvent feodallarning huquqlarini hech qanday to'lovsiz, bepul va uzil-kesil tugatdi. Feodallarning aktlari va boshqa hujjatlari yoqib tashlanadigan bo'ldi, ularni saqlagan odamlarga katarga jazosi beriladi deb e'lon qilindi.*

Biroq yakobinchilar keng dehqonlar ommasining qo'ygan barcha talablarini oxirigacha amalga oshirishga qobiliyatsiz bo'lib chiqdilar. Dehqonlar faqat feodal majburiyatlarga qarshi kurashib qo'ya qolmadilar. Ular yer uchun ham, jumladan, yirik fermalarni taqsimlash uchun ham, nisfikorlikni, ya'ni Fransiyada yerdan foydalanishning g'oyat keng tarqalgan bu yarim feodal shaklini bekor qilish uchun ham kurashdilar. Yersiz va yeri oz dehqonlarning keng ommasini asoratga tushirgan ijara masalalarida Konvent hech narsa qilmadi. Dvoryanlarning mulklaridan faqat qochib kyetgan kishilarning yerlari musodara qilindi xolos. Yakobinchilar dehqonlar orasida yerni pulsiz taqsimlashni ham, uni milliy mulkka aylantirishni ham amalga oshirmadilar.

Shunga qaramay, Yakobinchilarning agrар masaladagi qonunlari umuman juda katta tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Yakobinchilarning agrар qonunlari feodalizmning tomirlarini qo'pordi va feodallarga qaram bo'lgan sobiq dehqonlarni mayda erkin mulkdorlar ommasiga aylantirdi. Mayda erkin mulkdorlar interventlar armiyalariga qarshi va dvoryan-katta yer egalarning feodal imtiyozlarni qayta tiklash yo'lidagi urinishlariga qarshi kurashda inqilobiy Fransiyaning mustahkam tayanchi bo'ldilar. Konvent qarorlari zudlik bilan hayotga joriy qilina boshladi. Natijada dehqonlarning ko'pchiligi erkin mayda mulkdorlarga aylandi. Biroq bu yirik yer egaligi tugatilganligini anglatmasdi. Barcha pomeshchiklarning emas, faqat muhojirlar, cherkovlar, aksilinqilobchilarning yerlari musodara qilindi, ko'pgina yerlar shahar va qishloq burjuaziyasi tomonidan sotib olindi. Yersiz dehqonlar ham saqlanib qoldi.



Milliy Konvent yangi jamiyat prinsiplarini mustahkamlash uchun **1793-yil 7-sentabrdagi dekreti** bilan *“hech bir fransuz, qanday sohada bo‘lmasin, hamma fuqarolik huquqlaridan mahrum qilish bilan qo‘rqitish ostida feodal huquqlardan foydalanishi mumkin emas”* deb e‘lon qildi.

Yakobinchilar bilan shahar kambag‘allari o‘rtasidagi mustahkam aloqa uchun shu narsa xarakterli ediki, favqulodda holatlar (oziq-ovqat qiyinchiliklari, qimmatchilikning o‘sishi va boshqalar) talab qilganda ular savdoning erkinligi va xususiy mulkning daxlsizligi prinsiplaridan bir necha marta chekinishga majbur bo‘lgan edilar.

Konvent **1793-yil iyulda birinchi zaruriy buyumlar bilan chayqovchilik, olib sotarlik qilish va ularni yashirganlik uchun o‘lim jazosi joriy qildi, 1793-yil sentabrdagi dekreti** bilan asosiy iste‘mol mahsulotlarining hammasiga qat‘iy narx belgiladi.

Konventning **1794-yil 26-fevral – 3-martda qabul qilgan va Vantoz dekretlari** deb atalgan qonunlarida *inqilob dushmanlari deb e‘lon qilingan kishilarning mol-mulki musodara qilinishi va bu mulklar kambag‘al vatanparvarlar orasida bepul taqsimlanishi* nazarda tutilgan edi. Biroq shahar va qishloq kambag‘allari tomonidan zo‘r xayrixohlik bilan kutib olingan Vantoz dekretlari hayotga tatbiq qilinmadi.

Konvent **1794-yil 11-maydadavlatning nafaqalar tizimini joriy qilishga qaratilgan muhim dekret** qabul qildi. *Unda davlatdan yordam olish huquqiga ega bo‘lgan nogironlar, yetim-yesirlar, ishga yaroqsizlar, ta‘minotsiz qariyalar ro‘yxatini tuzib chiqish nazarda tutilgandi.* Shuningdek, mustamlakalardagi qullik bekor qilindi va hokazo.

Yakobinchilarning eng muhim hujjatlari – 1793-yilgi “Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi” hamda shu yili qabul qilingan Konstitutsiya bo‘lib qoldi.

1793-yilgi “Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi” 1789-yilgi deklaratsiyadan farq qilib, J.J.Russoning “xalq suvereniteti” haqidagi g‘oyalarini o‘ziga nazariy asos qilib olgan edi.

U ilgari deklaratsiyaga nisbatan ancha katta hajmda bo‘lib, 35 ta moddadan iborat tuzildi.

### **1793-yilgi “Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi”**

**1-modda.** Jamiyatning maqsadi – yalpi baxt-saodatga erishishdir.

**2-modda.** Hukumat insonning tabiiy va ajratib bo‘lmaydigan huquqlarini ta‘minlash uchun o‘rnatilgan. Bunday huquqlar sifatida tenglik, erkinlik, xavfsizlik, mulkka egalik qilish kabilar belgilanadi

**3-modda.** Hamma kishilar tabiatan va qonun oldida tengdirlar.

**4-modda.** Qonun umumiy irodaning erkin va tantanali ifodasidir. U xomiylik

ko'rsatishda ham, jazo berishda ham hamma uchun bir xil. U faqat jamiyat uchun adolatli va foydali bo'lgan narsalarni buyurishi mumkin. U faqat jamiyat uchun zararli bo'lgan narsalarni taqiqlashi mumkin.

**5-modda.** Ijtimoiy mansablarni egallashda barcha fuqarolar teng huquqlidirlar.

**6-modda.** Erkinlik boshqa kishilarning huquqlariga zarar keltirmaydigan insonga xos narsani qilish imkoniyatidir; erkinliklarni ta'minlash uchun qonun mavjuddir.

**7-modda.** So'z, fikr, matbuot, yig'ilishlar o'tkazish, diniy e'tiqod erkinliklarining cheklanishiga yo'l qo'yilmaydi.

**8-modd.** "Jamiyatning har bir a'zosi huquqlari va mol-mulki himoya qilinadi".

**9-modda.** Qonun hukmronlar tomonidan qilinadigan jabr-zulmga qarshi ijtimoiy va alohida erkinlikni himoya qilishi zarur.

**10-modda.** Qonunda ko'rsatilgan va belgilangan tartibdan tashqari hech kim aybdor deb hisoblanishi, ushlab turilishi va hibsga olinishi mumkin emas. Qonun nomi bilan chiqarilgan yoki hibsga olingan har bir fuqaro so'zsiz bo'ysunishi lozim; qarshilik ko'rsatgan taqdirda u javobgarlikka tortiladi.

**11-modda.** Qonunda nazarda tutilmagan yoki o'rnatilgan qonuniy shaklni buzgan holda sodir etilgan va shaxsga qarshi qaratilgan har qanday xatti-harakat o'zboShimchalikka va jabr-zulmga asoslangan harakatdir. Bunday harakatga mazkur shaxs kuch bilan qarshilik ko'rsatish huquqiga ega edi.

**12-modda:** Bunday xatti-harakatlarni sodir etishni so'ragan, tayyorlagan, imzolagan, bajargan yoki ularning bajarilishiga buyruq bergan shaxslar javobgarlikka tortilishi va jazolanishi lozim.

**13-14-moddalar** aybsizlik prezumpsiyasiga bag'ishlangan.

**15-modda.** Sud tomonidan beriladigan jazolar sodir etilgan jinoyatlarning og'irlik darajasiga mos kelishi lozim.

**16-modda.** Mulk huquqi deganda har bir fuqaroning o'ziga tegishli bo'lgan mulkdan, o'z daromadlaridan, o'z mehnat natijalaridan va o'zi ishlab chiqargan narsalardan o'z xohishicha foydalanishi va egalik qilishi tushuniladi.

**17-modda.** Fuqarolar mehnatning xohlagan turini tanlash, dehqonchilik, sanoat, savdo bilan shug'ullanish huquqiga egadirlar.

**18-modda.** Har kim shartnoma bo'yicha o'z xizmatlari va vaqtini taqdim qilishi mumkin; lekin sotilishi, sotilgan bo'lishi mumkin emas; uning shaxsi begonalashadigan mulk emas. Qonun hech qachon xizmatkor mavjud bo'lishiga yo'l qo'ymaydi; faqat mehnatkashlar bilan yollovchilar o'rtasida xizmatlar va haq to'lash haqida o'zaro majburiyat bo'lishi mumkin.

**19-modda.** Hech kim o'z mulkining ozginagina qismidan ham uning roziligisiz mahrum qilinishi mumkin emas. Faqat qonun bilan o'rnatilgan tartibda zaruriyat tug'ilganda va faqat adolatli tarzda hamda oldindan haq to'lash sharti bilan mulkning olinishi bundan mustasno.

**20-modda.** Soliqlar adolatli bo'lishi va faqat umum foydasiga olinishi lozim.

Hech bir soliq umumning foydasi manfaatlaridan boshqacha tarzda o'rnatilishi mumkin emas. Barcha fuqarolar soliqlar o'rnatishda ishtirok etish, soliqlardan kelgan tushumlarning xarajat qilinishini kuzatish va ular bo'yicha hisobot talab qilish huquqiga ega.

**21-modda.** Jamiyat kambag'al fuqarolarga ish topib berish va ishga yaroqsizlarni tirikchilik uchun zarur mablag' bilan ta'minlash yo'li ila boqish to'g'risida g'amxo'rlik qilishga majburdir.

**22-modda.** Ilm olish umumiy ehtiyojni tashkil qiladi. Jamiyat o'zining barcha vositalari bilan xalq maorifi yutuqlariga ko'maklashishi va ilm olishni barcha fuqarolarning boyligi qilishi lozim.

**23-modda.** Umumiy kafolat har kimga uning huquqlaridan foydalanishida va bu huquqlarni himoya qilishida ko'maklashishga qaratilgan hamma narsalardan iboratdir: Bu kafolat xalq suverenitetiga asoslanadi.

**24-modda.** Agar ommaviy funksiyalarning chegaralari qonun bilan aniq belgilangan bo'lmasa va agar ushbu funksiyalarni amalga oshiruvchilarning har birining javobgarligi ta'minlangan bo'lmasa umumiy kafolat mavjud bo'lishi mumkin emas.

**25-modda.** Suverenitet xalqqa tayanadi; u yagona, bo'linmas, muddat o'tishi bilan tugatilmaydi va ajralmasdir.

**26-modda.** Xalqning biron-bir qismi butun xalqqa tegishli hokimiyatni amalga oshirishi mumkin emas, lekin oliy majlisning har bir qismi o'z irodasini mutlaqo erkin ifodalash huquqidan foydalanishi lozim.

**27-modda.** Xalqqa tegishli bo'lgan suverenitetni o'zlashtirgan har bir kishi zudlik bilan o'limga mahkum etiladi.

**28-modda.** Xalqning o'z konstitutsiyasini qayta ko'rib chiqish, unga tuzatishlar va o'zgartishlar kiritish huquqi mavjud. Biroq bir avlod o'z qonunlari bilan kelajak avlodni bo'ysundirishi mumkin emas.

**29-modda.** Har bir fuqaro qonunlar yaratishda ishtirok etish va o'z vakillarini tayinlashda teng huquqlidir.

**30-modda.** Davlat mansablari mohiyatan vaqtinchadir: ularga orden, mukofot sifatida emas, faqat majburiyat sifatida qarash kerak.

**31-modda.** Xalq vakillari va uning agentlari jinoyat sodir qilsalar, hech qachon jazosiz qolmasliklari lozim. Hech kim boshqa barcha fuqarolarga nisbatan katta daxlsizlikka da'vo qilish huquqiga ega emas.

**32-modda.** Davlat hokimiyati vakillariga petitsiya berish huquqi hech qachon bekor qilinishi, to'xtatilishi yoki cheklanishi mumkin emas.

**33-modda.** Insonlarning jabr-zulmga qarshilik ko'rsatish huquqi tabiiy huquq emas, inson huquqlaridan kelib chiqadigan oqibatdir.

**34-modda.** Jamiyatning bitta a'zosiga bo'lsa ham jabr-zulm qilish butun ijtimoiy ittifoqqa jabr-zulm qilish hisoblanadi. Butun ijtimoiy ittifoqqa jabr-zulm qilish esa jamiyatning har bir a'zosiga jabr-zulm qilishdir.

**35-modda.** Agar "hukumat xalqning huquqini buzsa xalq qo'zg'olon ko'tarishga haqli va bu xalqning muqaddas huquqi hamda kechiktirib bo'lmaydigan majburiyatidir.

**1793 yilgi Konstitutsiya.** Yakobinchilar deklaratsiyasi ularning 1793-yilgi Konstitutsiyasiga asos qilib olindi. Konstitutsiya ikki hafta mobaynida ishlab chiqildi va 1793-yil 24-iyunda o'tkazilgan referendumda tasdiqlandi. Referendumda 7 mln. ovoz berish huquqiga ega bo'lgan fransuzlardan bor-yo'g'i 2 mln. kishi ishtirok yetgan edi.

Konstitutsiyada deklaratsiyaning demokratik prinsiplari aniqlashtirildi va Fransiyaning davlat tuzumi belgilandi. Unda davlatni tashkil etishning ba'zi muhim demokratik prinsiplari mustahkamlandi, boshqaruvning respublika shakli o'rnatilganligi tantanali ravishda tasdiqlandi.

Konstitutsiyaning **1-moddasi "Respublika haqida"** bo'lib, unda "*Fransiya respublikasi yagona va bo'linmas*" deb e'lon qilindi.

Konstitutsiya xalq suvereniteti prinsipini mustahkamlab, "*barcha fransuzlar birgalikda suveren xalq hisoblanadi*" (7-modda) deb belgiladi. "*Xalq bevosita vakillar saylaydi*" (8-modda). *U o'zi saylagan saylovchi vakillariga "boshqaruv organini, ijtimoiy hakamlik vositachilarni, jinoiy va fuqarolik sudlarini saylashni topshiradi"* (9-modda). "*Xalq qonunlarni muhokama qiladi va qabul qilish haqida qaror qiladi*" (10-modda).

Shu tariqa Konstitutsiyada oliy hokimiyat suveren xalqqa tegishli deb e'lon qilindi, umumiy saylov huquqi (faqat erkaklar uchun) o'rnatildi, olti oydan kam bo'lmagan vaqt mobaynida doimiy turar joyiga ega bo'lgan barcha fuqarolarga saylash imkoniyati taqdim qilindi. Bu haqida Konstitutsiyaning **11-moddasida** shunday deyiladi: "*Boshlang'ich majlislar muayyan kantonda olti oy davomida yashash joyiga ega bo'lgan fuqarolar tarkibida tashkil qilinadi*". Konstitutsiyaning "**Xalq vakilligi haqida**"gi bobida quyidagicha vakillik normalari belgilandi: "*Har bir boshlang'ich majlis 39.000 dan 41.000 tagacha kishidan iborat tarkibda yig'ilib, bittadan vakil saylaydi*" (23-modda). *Fuqarolik huquqiga ega bo'lgan har bir fransuz respublikaning hamma joyida saylanishi mumkin*" (28-modda). "*Har bir vakil to'laligicha butun millatga tegishli*" (29-modda). "*Fransuz xalqi har yili birinchi mayda saylovlar o'tkazish uchun yig'iladi*" (32-modda).

Konstitutsiyaga binoan Fransiyada tug'ilgan va yashash joyiga ega bo'lgan har bir kishi Fransiya fuqaroligini olish huquqiga ega edi. U 21 yoshdan boshlab Fransiya fuqaroligi huquqlarini amalga oshirishga kirisha olardi. Bu huquqlarni 21 yoshga to'lgan, Fransiyada bir yil davomida o'z mehnati bilan yashab kelayotgan, o'z mehnati bilan mulkka ega bo'lgan yoki fransuz ayoliga uylangan, yoki fransuzni farzandlikka olgan yoki keksa fransuzni o'z boquviga olgan har bir ajnabiy olishi mumkin edi. Shuningdek, *Qonunchilik korpusining fikri bo'yicha insoniyat oldida etarli darajada xizmat ko'rsatgan har bir ajnabiy ham fransuz fuqaroligi huquqlariga ega bo'la olardi* (4-modda).

Konstitutsiyaga muvofiq oliy qonun chiqarish hokimiyati **Qonunchilik korpusi** (Milliy majlis)ga tegishli bo'ldi. Unda "*Qonunchilik korpusi yagona, bo'linmas va doimiy harakat qiladi*"

(39-modda), deb e'lon qilindi. Qonunchilik korpusi bir palatali bo'lib, bir yilga saylanardi. *“Milliy Majlis yig'ilishlari oshkora”* (46-modda) edi. *Uning bayonnomalari chop etilardi* (47-modda). Qonunchilik korpusining bunday qisqa muddatga saylanishi Robesper fikricha, deputatlarning saylovchilardan haddan tashqari ajralib qolishi imkoniyatini istisno qilardi.

Konstitutsiyada Russoning xalq suvereniteti g'oyalari ruhida oddiy fuqarolarning qonun ijodkorlik jarayonida ishtiroki nazarda tutildi. Juda muhim masalalarni umumxalq ovozigacha qo'yish orqali hal etish tizimi joriy qilindi.

*Qonunchilik korpusi qonunlar taklif qilish va dekretlar chiqarish* (53-modda) funksiyasiga ega edi. *U fuqarolik va jinoyat huquqi, respublikaning kundalik daromadlari va harajatlariga umumiy rahbarlik, milliy ko'chmas mulk, tanga-chaqa pullar zarb qilish, ularning qiymatini belgilash, soliqlar turi, miqdorini belgilash va undirish tartibi, urush e'lon qilish, hududiy bo'linish, xalq maorifi va boshqa muhim masalalar bo'yicha qonunlar taklif qilish vakolatiga ega edi* (54-modda).

*Milliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonun loyihasi departamentlarga jo'natilgandan keyin 40 kun ichida ularning yarmidan ko'pida har birining boshlang'ich majlislarining o'ndan bir qismi tomonidan qaytarilmasa, loyiha qabul qilingan hisoblanardi va qonuniy kuchga kirardi* (59-modda). Bunday tartib Konstitutsiyaning *“faqat xalq qonunlarni muhokama qiladi va qabul qiladi”* (10-modda) deb o'rnatgan xalq suvereniteti g'oyalarini hayotga singdirishga urinish edi.

Agar xalqning boshlang'ich majlislari qonun loyihasini qaytarsa, u holda barcha boshlang'ich majlislarining fikri to'plangan va ularning qarori qat'iy hisoblangan.

Qonunchilik korpusi, shuningdek umumxalq muhokamasi talab qilmaydigan dekretlar chiqarish huquqiga ham ega edi. Dekretlar qonunlar doirasiga kirmagan barcha masalalar bo'yicha chiqarilishi mumkin edi.

*Qonun chiqaruvchi majlis Konstitutsiyaga binoan boshlang'ich va departamentlar majlislari taqdim qilgan nomzodlar jumlasidan 24 a'zodan iborat Ijroiya kengashni tayinlab qo'yar edi* (62-modda). Ijroiya kengash a'zolari uch bosqichli saylovlarda saylanardilar. Bunda dastlab boshlang'ich majlislar saylovchi vakillarni saylaydilar, so'ngra har bir departamentning saylovchilar majlisi bittadan nomzod saylaydilar va shundan keyin Qonunchilik korpusi barcha departamentlardan saylangan nomzodlarning umumiy ro'yhati bo'yicha ijroiya kengash a'zolarining yarmini tanlab olardi. *Ijroiya kengash a'zolarining yarmi har yili yangilab turilar edi* (64-modda).

*Ijroiya kengash zimmasiga umumiy boshqaruvga rahbarlik qilish va uni kuzatib turish vazifasi yuklangan edi; u faqat Qonunchilik korpusining qonunlari va dekretlarini ijro etish bo'yicha harakat qilishi mumkin edi (65-modda). Ijroiya kengash qat'iy ravishda faqat qonun va dekretlar doirasida barcha idoralar (ministrliklar) faoliyatini boshqarar, muvofiqlashtirar va nazorat qilardi, shuningdek barcha oliy mansabdor shaxslarni tayinlardi va almashtirib turardi. "Qonunlar va dekretlar ijro etilmagan, shuningdek suiiste'molliklar haqida xabar berilmagan hollarda" Ijroiya kengash Milliy Majlis oldida javobgar edi (72-modda). "Ijroiya kengash a'zolari mansablari bo'yicha jinoyat sodir yetganda Qonunchilik korpusi ularga qarshi jinoiy ish qo'zg'atishi mumkin edi" (71-modda).*

Biroq Yakobinchilar Konstitutsiyasida nazarda tutilgan davlat organlari tizimi amaliyotda tashkil qilinmadi. Chunki Konstitutsiyaning o'zi ham amalga oshirilmay qoldi. 1793 yilning yoz va kuz fasllaridagi, ya'ni mamlakatning katta bir qismida aksilinqilobiy isyonlar ko'tarilgan va interventlar esa mamlakatning ichkarisiga bostirib kirgan bir sharoitda yuzaga kelgan ichki va xalqaro qiyinchiliklar ushbu Konstitutsiyani turmushga tatbiq qilinishiga halaqit berdi. Oqibatda konstitutsiyaviy rejim o'rnini Yakobinchilarning asta-sekin vujudga kelgan inqilobiy diktaturasi tizimi oldi.

**Inqilobiy hukumatning tashkil qilinishi.** Ichki va tashqi aksilinqilobchilarga qarshi kurash zaruriyati Yakobinchilarni inqilobiy diktatura tizimini tashkil qilish va mustahkamlashga majbur yetdi.


Konvent ilgariidek davlat hokimiyatining oliy organi edi. Unga qonunlar chiqarish va ularni sharhlash huquqi tegishli edi. Konvent turli qo'mitalar va komissiyalar yordamida mamlakatni boshqarish hokimiyatiga ega edi, uning tarkibida tuzilgan qo'mitalar va tegishli vakolatga ega bo'lgan deputatlar armiya ichida va departamentlarda komissarlar sifatida ijroiya hokimiyatini amalga oshirar edilar.

Yakobinchilarning inqilobiy diktaturasi tizimida hukumat hokimiyatini **Jamiyatni qutqarish qo'mitai** amalga oshirardi. U aslida Fransiyaning inqilobiy hukumati bo'lib, inqilobiy terrorni rag'batlantirish siyosatini yuritdi. Bu qo'mitaning roli ayniqsa 1793-yil iyulda uning tepasiga ilgari boshlig'i Danton o'rniga Yakobinchilar lideri M.Robesper kelgandan keyin ancha o'sdi. Qo'mita tarkibiga Robespyerning yaqin maslakdoshlari – Sen-Jyust, Kuton va boshqalar kirdi.

**1793-yil 10-oktyabrda qabul qilingan “Boshqarishning inqilobiy tartiblari haqidagi” dekretga** binoan Jamiyatni qutqarish qo‘mitasiga Muvaqqat Ijroiya Kengash, ministrlar, generallar va o‘rnatilgan muassasalar bo‘ysunishi lozim edi. Jamiyatni qutqarish qo‘mitasi zimmasiga dastlab har kuni, 1793-yil dekabrdan boshlab esa har oyda o‘z ishi yuzasidan Milliy konventga hisob berib turish majburiyati yuklatilgan edi.

Konvent va hukumat muassasalarining joylar bilan aloqasini ta‘minlash uchun departamentlarga va armiyaga Konvent deputatlari orasidan **komissarlar** jo‘natilardi. Komissarlar juda katta vakolatlarga ega edilar. Ular inqilobiy hukumat dekretlarining qo‘llanishi ustidan nazoratni amalga oshirardilar va zarur bo‘lgan hollarda departamentlardagi mansabdor shaxslarni va armiyadagi generallarni mansablaridan chetlashtirishlari mumkin edi.

Mahalliy boshqaruv inqilobiy diktatura vazifalariga moslashtirildi.



1793- yil-21 mart dekreti bo‘yichayoq respublikaga dushman bo‘lgan ajnabiylarni nazorat qilib turish uchun har bir kommunada va uning seksiyasida kuzatuvchi va boshqa maxsus qo‘mitalar saylangan edi. Yakobinchilar davrida bu qo‘mitalarning funksiyalari ancha kengaydi, ular **inqilobiy qo‘mitalar** degan nom oldilar. Bunday qo‘mitalar butun mamlakat bo‘yicha tashkil etilgan. Ularning tarkibi juda faol va inqilobga o‘ta fidoyi fuqarolardan iborat edi. Ular joylarda inqilobiy terror quroliga va Jamiyatni qutqarish qo‘mitasining asosiy tayanchiga aylandilar. Inqilobiy qo‘mitalar o‘z okruglarida markazning siyosatini izchillik bilan

o'tkazibgina qolmasdan, balki ayni paytda Konventga ham o'z ta'sirlarini o'tkazganlar, qator hollarda inqilobiy omma talablarini ham bajarishga majbur etganlar.

Inqilobiy diktatura tizimida turli xalq jamiyatlari va klublari ham muhim o'rin tutgan. Ularning orasida hammadan avval Parijdagi Yakobinchilar klubi alohida ajralib turardi. U inqilobning o'ziga xos siyosiy shtabi rolini bajargan. Uning juda ko'p sonli bo'limlari (40 mingdan ortiq) butun mamlakat bo'yicha yoyilgan edi.


Yakobinchilar diktaturasining muhim xususiyatlaridan biri tashqi dushmanlar va ichki aksilinqilobchilar bilan kurash uchun mo'ljallangan maxsus organlarning tuzilishi bo'ldi. Ular o'zlarining respublika va inqilob g'alabalarini himoya qilishga qaratilgan faoliyatlarida inqilobiy terror usullaridan foydalandilar.

Fransiya respublikasiga bostirib kirgan feodal-monarxistik koalitsiya qo'shinlarini tor-mor etishni tashkil qilishda Yakobinchilar tomonidan qayta tuzilgan **armiya** hal qiluvchi rol o'ynadi. Xalq ommasi kuchli, ko'p sonli armiya tuzish haqidagi tashabbus bilan chiqdi. Boshlang'ich majlislarning konstitutsiyani tasdiqlagan delegatlari avgustda Parijga kelib, umumxalq lashkari tuzish va millatni qurollanishiga chaqirish g'oyasini ilgari surdilar.

Xalqning bu tashabbusini amalga oshirib, **1793-yil 23-avgustda** armiyaga majburiy suratda ko'plab odam olishga qaratilgan qonun – **“Umumiy safarbarlik to'g'risida” dekret** qabul qilindi. Shunday qilib, yangi harbiy tizim tuzishga kirishildi. Yuqoridagi dekretning 1-moddasida shunday deyiladi: *“Hozirgi paytdan boshlab to dushmanlar respublika hududidan haydab chiqarilguncha fransuzlarning hammasi armiyada xizmat o'tashga doimo tayyor turishlari lozim. Yosh kishilar jang qilishga borishlari kerak, uylanganlar qurol-yarog' tayyorlaydilar va oziq-ovqat yetkazib beradilar, ayollar palatkalar hamda kiyim-kechak tikadilar va gospitallarda xizmat qiladilar, bolalar eski choyshabdan ip titib oladilar, qariyalar jamoat joylarida jangchilarni mardlik-qahramonlikka, qirolga nisbatan nafratga undaydilar va respublikaning birligiga chaqiradilar”*. Dekretga asosan butun Fransiya urushga safarbar etilgan edi.

Aksilinqilobchilarga qarshi kurashni tashkil qilishda **Jamiyat xavfsizligi qo'mitasi** muhim rol o'ynadi.






Yakobinchilar diktaturasining davlat mexanizmida, shuningdek **Inqilobiy tribunal** favqulodda faol rol o‘ynadi. U Yakobinchilarning talabi bilan jirondistlar Konventi tomonidanoq tashkil etilgan edi. Biroq 1793-yil 5-sentabrda u qayta tashkil etilgandan keyin inqilobiy terrorning doimiy harakatdagi quroliga aylandi.

**Sudyalar, qasamxo‘r maslahatchilar, jamoat ayblovchilari va ularning yordamchilari** Konvent tomonidan tayinlanardilar.

**1794-yil 10-iyunda Robesper tazyiqi bilan qabul qilingan “Xalq dushmanlari haqida” dekret:**




“Xalq dushmanlari haqida”gi dekretga muvofiq aybdorlarni oldindan so‘roq qilish tugatilishi kerak edi. Aybdor faqat sud majlisida qasamxo‘r maslahatchilar va omma oldida so‘roq qilinishi lozim edi. Shuningdek, u himoya huquqidan foydalana olmasdi. Hukm chiqarishga faqat qasamxo‘r maslahatchilarining “vijdoni” dasturilamal bo‘lib xizmat qilishi lozim edi.

Inqilobiy tribunal tomonidan ko‘rib hal qilinadigan barcha jinoyatlar uchun o‘lim jazosi tayinlanardi. Dekret bo‘yicha “xalq dushmanlari” degan tushunchaning o‘zi juda keng va noaniq edi. Qonun Konventning Yakobinchilar rahbarlariga rejimning siyosiy muxoliflariga qarshi va “Yangi boylar”ga qarshi terrorni kuchaytirish imkonini berdi. Bu, o‘z

navbatida, ko'pdan ko'p aybsiz kishilar va nohaq ayblanganlarning qatl etilishiga olib keldi. Ma'lumotlarga qaraganda, o'sha vaqtda 48 kun ichida 1350 kishi qatl etildi.

1794-yil yoziga kelib, ya'ni inqilobiy armiyaning g'alabalari natijasida urush xavfi bartaraf qilingan va yangi respublika tuzumi real voqelikka aylangan vaqtdan boshlab, burjuaziya inqilobiy diktaturaning cheklash rejimiga chidamay qoldi. Mamlakatdagi ichki ziddiyatlar tobora keskinlashib bordi va hal qilib bo'lmas darajaga o'sib chiqdi.


Yakobinchilarning tadbirkorlikni cheklashga qaratilgan tadbirlari yangi puldor aristokratiyani g'azablantirdi. Yangi boylar terrorga, elementar demokratik huquqlarning cheklanishiga, inqilob natijasida tashkil etilgan konstitutsiyaviy mexanizmlarning haqiqatda barbod qilinishiga endilikda chidab tura olmadilar.



Xalqning eng kambag'al tabaqalarining moddiy ahvoli og'irligicha qolaverdi. Ish haqi maksimumi va Le Shapele qonuni ishchilarni hayot va mehnat haqi sharoitlarini yaxshilashga erishish imkoniyatidan mahrum etgan edi.

Yuqoridagi shart-sharoitlar mamlakatdagi fitnani kengaytirdi. Konventda Yakobinchilar terrorining cheksizligi va o'taketgan tartibsizligiga qarshi, shu jumladan o'zini saqlab qolish maqsadida montanyarlar fitnasi avj oldi.

**1794-yil 27-iyunda** (Yakobinchilar kalendari bo'yicha 9-termidorda) yirik burjuaziya tomonidan tashkil etilgan aksilinqilobiy **davlat to'ntarishi** natijasida Yakobinchilar diktaturasi ag'darib tashlandi. Uning rahbarlari – Robesper, Sen-Jyust, Kuton va yana 18ta robesperchi davlat to'ntarishining ikkinchi kuni – 10-termidorda sud qilinmasdan Greva maydonida qatl etildi. Mamlakatda yana terror va reaksiya boshlandi. Parij kommunasi tarqatib yuborildi. Yakobinchilar klubi yopib tashlandi.



Yakobinchilar dikturasining qulashi bilan buyuk fransuz inqilobining eng yuqori – uchinchi bosqichi ham nihoyasiga yetdi.

### 5-§. Termidorchilar davlat to'ntarishi va direktoriya hukmronligi

Konventning davlat to'ntarishi natijasida hokimiyat tepasiga kelgan va fransuz burjuaziyasining respublikachi kayfiyatidagi doiralari manfaatlarini ifodalovchi mo'tadil deputatlari guruhi **termidorchilar** degan nom oldi.

Dastlabki vaqtda termidorchilar Yakobinchilar tomonidan tashkil qilingan davlat organlari tizimini saqlab qolishga majbur bo'ldilar. Bunda inqilobiy diktatura mexanizmining o'zi doimo buzilib bordi, Yakobinchilarning favqulodda ijtimoiy-iqtisodiy qonunlari bekor qilindi.

Jamiyat xavfsizligi qo'mitasi endilikda Yakobinchilarga qarshi fitnada qatnashganlar tarkibida majlislar o'tkazib, hukumat organi sifatidagi ahamiyatini yo'qotdi. Yakobinchilar tayanchi – Parij kommunasi, shuningdek inqilobiy qo'mitalar tugatildi, Inqilobiy tribunal qayta tashkil etildi.

Biroq termidorchilar tomonidan islohot qilingan siyosiy tizim inqilobiy an'analar bilan qo'shib ketdi. Shu sababli konstitutsiyaviy tuzumni qayta tiklash masalasi yana alohida keskin bo'lib qoldi.

Dastlab Yakobinchilar Konvent tomonidan qabul qilingan va saylovchilarning boshlang'ich majlislarida tasdiqlangan 1793-yilgi Konstitutsiya rasman kuchda qoladi deb hisobladi. Garchand Yakobinchilar Konstitutsiyasi hech qachon qo'llanilmagan bo'lsa ham, dastlab termidorchilar uni hukumatga kiritish uchun zarur bo'lgan tuzatishlar va qo'shimchalar kiritish haqidagi masalani qo'yadilar. Ammo tez orada, jumladan, yangi inqilobiy ko'tarilishlar ta'sirida, o'ng qanot termidorchilar Yakobinchilar konstitutsiyasiga "tashkiliy anarxiya" deb qaradilar va yangi konstitutsiyaviy hujjat tayyorlash haqida qaror qabul qildilar. Ular yangi hokimiyat tarkibini belgilash bilan biroz shoshilgan edilar, chunki respublika dushmanlari – royalistlar, felyanlar va boshqalar yana siyosiy xavf tug'dirmoqda edi.

**1795-yil avgustda** Konvent Fransiyaning "**III yil Konstitutsiyasi**" nomi bilan tanilgan Yangi konstitutsiyani qabul qildi.

Termidorchilar inqilob davrida o'rnatilgan an'analarga amal qilib, Konstitutsiya matnini umumxalq muhokamasiga olib chiqdilar. Saylovchilarning boshlang'ich majlislarida u ko'pchilik ovoz bilan qo'llab-quvvatlandi, chunki xalq yangi Konstitutsiya yordamida respublikani qutqarish va mustahkamlashga, monarxiyaning qayta tiklanishini oldini olishga, inqilobning demokratik g'alabalarini saqlab qolishga umid qilgan edi.


Yangi konstitutsiya mualliflari inqilobning chegaralaridan va Yakobinchilar daholarining siyosiy bemulohazaliklaridan uzoqlashgan holda nafaqat inqilobning "erkinlik, tenglik, do'stlik" degan shiorini, balki uning eng muhim yutuqlari – respublikachilik, xalq suvereniteti, vakillik organlari va boshqalarni ham saqlab qoldilar.

1795-yilgi Konstitutsiya matni dabdabaligi bilan va cho'zilib ketganligi bilan ajralib turardi. U 372ta moddadan iborat edi. Biroq u siyosiy mazmuni bo'yicha juda mo'tadil bo'lgan.


Fransiya konstitutsiyalariga xos an'ana ushbu Konstitutsiyada ham davom ettirilib, u Deklaratsiya bilan boshlanadi. Biroq Deklaratsiyaning mazmuni tubdan o'zgartirilib, u "Inson va fuqaro huquqlari va majburiyatlari deklaratsiyasi" deb nomlangan edi.

Masalan, unda mulkchilik "jahon madaniyati, butun ishlab chiqarish, barcha mehnat vositalari va butun ijtimoiy tuzum asosida yotadi" deb ta'kidlandi.

Deklaratsiya davlat va huquqning ilgari e'lon qilingan umumiy prinsiplarini takrorlab, davlat va mulkchilikni himoya qilish, har bir kishining majburiyati ekanligini ta'kidladi.



Konstitutsiya bo'yicha **davlat tuzumining asosiy prinsipi vakillik boshqaruvi va hokimiyatlarning taqsimlanishi** bo'ldi.



1795-yilgi Konstitutsiya 1791-1792-yillarda siyosiy davlat qurilishi tajribasida sinovdan o'tgan davlat-huquq institutlarini qabul qilib oldi. Uning 22-moddasiga binoan respublika tuzumining asosiga


hokimiyatlarning taqsimlanishi prinsipi qo'yildi. Biroq davlat hokimiyatining yangidan tashkil qilinishi katta va beso'naqayligi, aqidaparastligi bilan, sof tashqi ko'rinishi jihatidan antik demokratiya namunalariga taqlidchanligi bilan ajralib turardi.

Hokimiyatlarning taqsimlanishi tizimida **Qonun chiqaruvchi korpusga** asosiy o'rin ajratildi. Konstitutsiya mualliflari siyosiy ehtiyotkorlik namoyon qildilar va Milliy konventga o'xshash "qudratli" qonun chiqaruvchi organ tuzishdan voz kehdilar.

**1795-yilgi Konstitutsiya bo'yicha fransuz konstitutsiyashunoslik tarixida birinchi marta ikki palatali parlament – Qonun chiqaruvchi korpus** tashkil qilindi.

### Qonun chiqaruvchi korpus tarkibi

**Oqsoqollar kengashi– yuqori palata** bo'lib, 40 yoshdan kam bo'lmagan fuqarolardan saylangan 250ta a'zoga ega edi.



**Besh yuzlar kengashi – quyi palata** bo'lib, unga 30 yoshdan kam bo'lmagan fuqarolar saylanardi.

Konstitutsiya bo'yicha **qonun tashabbuskorlik huquqi** faqat **Besh yuzlar kengashiga** berildi, lekin uning qarorlari faqat **Oqsoqollar kengashi** tomonidan ma'qullansagina, kuchga kirardi. Agar Oqsoqollar kengashi qonun loyihasini rad etsa, bu loyiha faqat bir yil o'tgandan keyin qayta kiritilishi mumkin edi. Shunday qilib, quyi palata qonun loyihalarini tuzgan va yuqori palataga taqdim qilgan, Oqsoqollar kengashi uni tasdiqlagan yoki rad qilgan.

Fransiyada **ijroiya hokimiyat** ham siyosiy jihatdan mustahkam va barqaror bo'lmay juda samarasiz edi. Konstitutsiyaga binoan u besh kishi tarkibidagi **Direktoriyaga** topshirildi. Uning a'zolari direktorlar degan unvonga ega edi. Direktoriya a'zolari Besh yuzlar kengashi ilgari surgan nomzodlardan Oqsoqollar kengashi tomonidan yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanardi. Direktoriya tarkibi har yili uning a'zolaridan bittasini almashtirilishi hisobiga yangilanib turardi. Unga barcha a'zolar navbatma-navbat uch oy mobaynida raislik qilardilar. Direktoriya sof boshqaruvchilik funksiyalarini amalga oshirish uchun ministrlar tayinladi, lekin bular hukumatni tashkil qilmadilar.

1795 yilgi Konstitutsiyaga binoan joriy qilingan, qadimgi Afina demokratiyasiga o'xshash davlat shakllari siyosiy kuchlarning o'zaro real

nisbatini hisobga olmasdi va shu sababli mamlakatda iqtisodiy hamda huquqiy barqarorlikni ta'minlashga qodir bo'lmadi. Garchand 1795-yilgi Konstitutsiya bo'yicha ijrochilik va boshqaruvchilik dastaklari yagona qo'llarda to'planishi lozim bo'lmasa ham, Direktoriyada asosiy rolni termidorchilar liderlaridan biri – sobiq ofiser va dvoryan, prinsipsiz va sotqin siyosatchi, ashaddiy shuhratparast Barras o'ynadi. U boshqa hukmron doiralar vakillari singari davlat xazinasidan o'z boyligini oshirish uchun ochiqdan ochiq foydalanishga harakat qildi.

Shu yillarda Fransiyadagi ichki siyosiy vaziyat juda ham o'zgaruvchan edi. Direktoriya hukumati siyosatining izchil emasligi, tutruqsizligi va juda tez o'zgaruvchanligi natijasida goh Yakobinchilarga qarshi zarba berilishi, goh dvoryan-muhojirlarga va qasamyod etmagan poplarga qarshi jazo choralarining ko'rilishi, goh boy moliyachilarga va olibsotarlarga nisbatan yuqori daromad solig'ining joriy qilinishi Fransiyadagi siyosiy ahvolni juda murakkablashtirib yuborgan edi. Direktoriyaning goh chapga, goh o'ngga tebranib turadigan siyosatiga o'sha zamon kishilari **“arg'imchoq siyosati”** deb nom qo'ygan edilar.

Fransiyaning yirik burjuaziyasi Direktoriya hukumatini bo'shanglik va harakatsizlikda, mamlakatda tartib o'rnatish va mamlakatning boy sinflari manfaatlarini qo'riqlashga layoqatsizlikda aybladi.

Demokratik guruhlar faoliyatining kuchayib borishi yirik mulkdorlarni katta tashvishga solib qo'ydi. 1799 yilning yozida koalitsiya qo'shinlarining Fransiyaga bostirib kirish xavfi ta'siri ostida Parijda inqilobiy-vatanparvarlik kayfiyati avj oldi. Yakobinchilar klubi vujudga keldi, uning a'zolari reaksiyaga qarshi kurashishga chaqirib, faqat Marat, Robesper hamda Sen-Jyust uchungina emas, balki Babyof uchun ham o'ch olishlarini bildirdilar. Hukumatning farmoyishi bilan klub tez vaqt ichida yopib tashlandi, ammo yangi inqilobiy xurujlar bo'lishi mumkinligi xavfi burjua doiralarida kuchli edi. Ikkinchi tomondan, royalistlarning faolligi kuchaymoqda edi. Burbonlar monarxiyasining tarafdorlari chegaradan o'zboshimchalik bilan o'tgan dvoryan-muhojirlar yordamida mamlakatning turli qismlarida respublikaga qarshi isyonlar ko'tardilar. Royalistlarning shaykalari hatto Parij atroflarida banditlik hujumlari olib bordilar, pochta aravalarini taladilar, hukumat a'zolariga hujum qildilar, dehqonlarni terror qildilar.

Fransiyaning yirik burjuaziyasi Burbonlar monarxiyasi muxlislari tomonidan bo'ladigan da'volardan o'z manfaatlarini qo'riqlay oladigan va mamlakatdagi demokratik harakatni bostira oladigan barqaror hukumat

tuzishga intilar edi. Davlat to'ntarishi qilish rejasi ana shu tariqa vujudga keldi va harbiy diktatura o'rnatish maqsadida Direktoriyaga qarshi fitna tarkib topdi.

Respublika tuzumiga sodiq atoqli sarkarda deb dong chiqargan shuhratparast va prinsipsiz Napoleon Bonapart aksilinqilobchi diktatorlik roli uchun eng yaroqli odam bo'lib chiqdi.

1799-yilning kuzida Direktoriya hukumatining o'z ichidan buzilishi shu darajaga borib yetdiki, uning ikki a'zosi (Sieyes va Jore-Dyuko) uni ag'darish, maqsadida fitnaga qo'shildilar. Direktoriyaning siyosatidan (ayniqsa, progressiv-daromad solig'i haqidagi qonundan) norozi bo'lgan yirik moliyachilar davlat to'ntarishini tayyorlash va uni amalga oshirish maqsadida ba'zi bir generallarni va siyosiy arboblarni pora berib sotib olish uchun Napoleonga juda katta pul qarz berdilar. Napoleon Misrda o'z qo'li ostidagi armiyani tashlab, Fransiyaga qaytib keldi va to'ntarish tayyorlashga kirishdi.


## **6-§. Konsullik va imperiya davrida (1799-yil noyabr – 1814-yil aprel) Fransiyaning ijtimoiy-siyosiy tuzumi**

Ma'lumki, Fransiya Yevropa davlatlari bilan uzluksiz urushni davom ettirar edi. Prussiya bilan sulh tuzilgan bo'lsa ham, Avstriya va Angliya bilan urush davom etardi. Ana shunday urushlar davomida atoqli sarkarda sifatida dong taratgan yosh general Napoleon Bonapart siyosiy maydonga chiqadi va moliya burjuaziyasining qo'llab-quvvatlashi bilan Parijga kelib, **1799-yil 9-noyabrdan 10-noyabrga** o'tar kechasi, ya'ni respublika kalendari bo'yicha **18-bryumerdagi davlat to'ntarishini** o'tkazadi. Bu tarixga 18-bryumyerdagi davlat to'ntarishi nomi bilan kirdi. Napoleon Bonapart qurolli kuchlar yordamida Qonun chiqaruvchi korpus deputatlarini haydab yubordi va Direktoriyani tugatdi. **Mamlakatni boshqarish** general Bonapart va Direktoriyaning fitnada qatnashgan ikki sobiq a'zolari – Sieyes hamda Roje-Dyukodan iborat **uchta konsul qo'liga berildi**. Haqiqatda esa eng boshidanoq butun hokimiyat o'zini g'ayratli, ziyrak va so'zini o'tkazishni yaxshi ko'ruvchi davlat arbobi sifatida ko'rsatgan Napoleon qo'lida bo'ldi.

1799 yil kuzga kelib Direktoriya demokratik kayfiyatdagi respublikachilar orasida ham, fransuz jamiyatidagi inqilobiy kayfiyatlarga barham berishga qodir bo'lgan mustahkam hokimiyat tuzishni orzu qilgan yangi burjuaziya aristokratiyasi orasida ham o'z obro'sini batamom yo'qotdi. Repressiyalar natijasida kuchsizlanib qolgan demokratik kuchlar



konstitutsiyaviy hukumatni himoya qilib chiqmadi, chunki bu hukumat faoliyati xalq ommasiga nisbatan ochiqdan ochiq dushmanligi bilan ajralib turardi.



Napoleon diktaturasi hokimiyatni amalga oshirish usullari bo'yicha va o'z ijtimoiy asosiga ko'ra Direktoriya boshqaruvidan keskin farq qildi. Bu diktatura fransuz jamiyatining avtoritar, ochiqdan ochiq demokratiyaga qarshi rejim o'rnatish yo'li bilan amalga oshirilgan siyosiy birlashuvining yangi shakli edi.

**Respublikaning yangi konstitutsiyasi 1799-yil 13-dekabrda** davlatning qattiq nazorati ostida o'tkazilgan plebissit – umumxalq ovoz berishi yo'li bilan tasdiqlandi. “Fransuz xalqining xohish bildirishi saylovchilarning boshlang'ich majlislarida ovoz berish yo'li bilan emas, balki hakam sudyalari, notariuslar va boshqalar tomonidan yuritilgan reyestrlarga imzolar yig'ish vositasida amalga oshirilgan edi. Konstitutsiya respublika tuzumini tashqi ko'rinishdan saqlab qolgan holda general Bonapartning diktaturasini mustahkamladi.

1799-yilgi Konstitutsiya ilgari asosiy qonunlardan farq qilib, Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasini o'z ichiga olmadi, chunki “fuqaro Bonapart” bu hujjatda erkinlik va do'stlik haqida eslashning o'zini o'rinli emas deb hisobladi. Konstitutsiya burjuaziya va dehqonlarning inqilob yillarida dvoryanlar mulkini musodara qilinishi va taqsimlanishi natijasida olgan mol-mulklarini kafolatlab, *“milliy mulk qonuniy tarzda sotilgandan keyin, uning qanday kelib chiqqanligidan qat'iy nazar, bunday mulkni olgan kishi undan mahrum etilishi mumkin emas”*(94-modda) deb ta'kidladi. Konstitutsiyada sezarizm ham, ichki va tashqi siyosatni amalga

oshirishda muhim rol ajratilgan armiyaga tayanish ham o‘z ifodasini topdi. Bonapart Konstitutsiyada *jarohatlangan jangchilar uchun, shuningdek jang maydonlarida va jarohatlar oqibatida halok bo‘lgan harbiylarning beva xotinlari va bolalari uchun nafaqalar o‘rnatilishini alohida nazarda tutdi (86-modda).*

Mamlakat butun konstitutsiyaviy tuzumining asosiy o‘zagi **hukumat** hisoblanardi. U **uchta konsul**dan iborat kollegiya ko‘rinishida bo‘ldi. Amalda hukumat kollegial organ emas edi, chunki birinchi konsul alohida statusga ega edi.

### **Eslab qoling!**

*Konstitutsiya konsullarning 10 yilga saylanishi haqidagi umumiy qoidalarni belgiladi (39-moddada), lekin ayni vaqtda “fuqaro Bonapart” birinchi konsul etib tayinlanadi deb to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rsatib qo‘ydi.*

### **Konstitutsiyaga binoan Birinchi konsulning vakolatlari:**

➤ Davlat kengashi a‘zolarini, ministrarni, elchilarni va boshqa chet el vakillarini tayinlash.

➤ Armiya va flot ofitserlarini, mahalliy ma‘muriyat a‘zolarini tayinlash.


➤ Sudlardagi hukumat komissarlarini, jinoiy va fuqarolik sudyalarini, hakamlar va kassatsion sudlar sudyalarini tayinlash.

➤ O‘z vakolatlarni “zarurat tug‘ilganda” o‘z hamkasblari – ikkinchi va uchinchi konsullar yordamida amalga oshirish.

1799-yilgi Konstitutsiya mulk senzini bekor qildi va bu bilan Fransiyada o‘ziga xos “umumiy” **saylov huquqi** joriy qildi. Konstitutsiya bo‘yicha 21 yoshga to‘lgan va muayyan okrugda bir yildan ortiq yashayotgan barcha fuqarolar (erkaklar) “kommunal ro‘yxat”ga kiruvchi deputatlikka nomzodlarni saylashda ishtirok etishlari mumkin edi.

Napoleon **qonun chiqarish hokimiyati** tomonidan bo‘lishi mumkin bo‘lgan muxolifatni zaiflashtirish uchun qonun chiqarish jarayonini o‘ziga xos tarzda bo‘lib yuborishni nazarda tutdi.

Shu maqsadda **qonun chiqarish jarayoni** bir qancha organlar tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. **Davlat kengashi** hukumat ko'rsatmasi bo'yicha va rahbarligi ostida qonun loyihalarini tuzar va taklif qilar edi. Qonun loyihalari dastlab **Tribunat**ga kelib tushgan. Tribunat bu loyihalarni muhokama qilardi va o'z fikrlari bilan **Qonun chiqaruvchi korpusga** taqdim etardi. Qonun chiqaruvchi korpus a'zolari endi qonun loyahasini muhokama qila olmasdilar (shuning uchun ular "uch yuz soqovlar" degan nom olgandilar), ular buni faqat qabul qilar yoki rad etardilar. Qonun chiqaruvchi korpus tasdiqlagan qonun birinchi konsul tomonidan **Qo'riqlovchi senatga** yuborilishi mumkin edi. Senat uni ma'qullash yoki "konstitutsiyaga xilof" deb bekor qilish huquqiga ega edi. Nihoyat, qonun yana birinchi konsulga qaytarilardi. **Birinchi konsul** uni imzolar va e'lon qilar edi. Qonun chiqaruvchilik funksiyalari taqsimotida bu qadar murakkab tizimning bo'lishi qonun chiqarish organlarining birinchi konsulga to'la qaramligini belgilardi hamda hukumat boshlig'iga barcha qonunlarni o'ziga mos izga solib yuborish maqsadida ta'sir ko'rsatish uchun katta imkoniyat berar edi.



Shu tariqa 1799-yilgi Konstitutsiya qonun chiqarish hokimiyatini avtoritar tizimning quyrug'iga aylantirib, birinchi konsul uchun qonun ijodkorlik jarayoniga faol ta'sir o'tkazish imkoniyatini yaratdi.

Bonapart o'ziga xos qat'iyat va g'ayrat-shijoat bilan tez orada faol qonun chiqarish va kodifikatsiya ishlarini boshlab yubordi, bunda ko'pincha uning o'zi ham bevosita ishtirok yetdi. Ko'p jihatdan qonun chiqaruvchi sifatida maydonga chiqqan Bonapart faoliyati sharofati bilan

Fransiya qisqa vaqt ichida 1789 – 1794-yillardagi inqilob davridayoq boshlangan iqtisodiy va ijtimoiy qayta qurishlar uchun asos bo‘lib qolgan yangi huquqiy tizimga ega bo‘ldi. Yangi davrning asosiy qoidalari ishlab chiqildi. 1804-yilda Fransiya Fuqarolik kodeksi, 1807-yilda Savdo kodeksi, 1810-yilda Jinoyat kodeksi ishlab chiqilib, kuchga kiritildi. (Bular haqida alohida bobda so‘z yuritiladi!).

1799-yilgi Konstitutsiya, ilgari konstitutsiyalardan farq qilib, departament va kommuna ma‘muriyatiga saylovlardan voz kechdi. Mahalliy chinovniklar markaziy ma‘muriyatga butunlay bo‘ysundirilgan edi: birinchi konsul departamentlarga prefektlarni, okruglar va jamoalarga suprefektlar va merlarni tayinlab qo‘yardi. Saylanadigan mahalliy kengashlar (munitsipal, jamoa va bosh kengashlar) faqat maslahatchi funksiyalarga ega edilar, ularning qarorlari tegishli ma‘muriyatlar tomonidan tasdiqlanardi.

### **Eslab qoling!**

1799-yilgi Konstitutsiya saylovlar sohasida inqilob davrida e‘lon qilingan demokratik prinsiplarni haqiqatda “dafn qilib”, respublikani tugatish hamda avtoritar va byurokratik boshqaruv usullarini qayta tiklash yo‘lida muhim qadam qo‘ydi.

Napoleon hukmronligi davrida Fransiyaning **davlat apparati** politsiyachi-byurokratik markazlashtirish negizida qurilgan edi. Fransiya 88ta departamentga bo‘lindi (keyinroq bosib olingan hududlar qo‘shib olingandan keyin departamentlar soni 130ga yetdi). Bu 88ta departamentning har biriga birinchi konsul tayinlagan **prefekt** boshchilik qilardi. Hukumat shahar va qishloqlarning kommunalariga **merlar** (boshliqlar), shuningdek, **merlarning yordamchilarini** ham tayinlardi. Shunday qilib, inqilob davomida vujudga kelgan va o‘sha vaqtda mamlakatning siyosiy hayotida katta rol o‘ynagan mahalliy va viloyat o‘z-o‘zini idora qilish mahkamalari tamomila yo‘qotib yuborildi.

Ayni zamonda **politsiya boshqarmasi** kuchaytirilib, u juda keng vakolatga ega bo‘ldi.

Bundan keyin armiyani reaksiya va agressiya quroliga aylantirishga qaratilgan tadbirlar (alohida imtiyozli gvardiya tuzish va h.k.) qabul qilindi.

Ziyrak Bonapart zo‘ravonlik va despotizm hammadan avval qudratli byurokratizm tizimiga malol kelishini va asosiy xavf ham undan kelib chiqishini oldindan ko‘ra bildi. Konstitutsiya kuchli ma‘muriyatning

o‘zboshimchaliklaridan himoya qilishning “kafolatlari” sifatida Davlat kengashining ommaviy ma‘muriyat faoliyatiga taalluqli farmoyishlar chiqarish, “ma‘muriy faoliyatdan kelib chiqadigan qiyinchiliklarni hal qilish” huquqini nazarda tutdi.

Bonapart “hech kim o‘z ishida sudya bo‘lishi mumkin emas” degan prinsip asosida prefektlar (mahalliy ma‘muriyatning qudratli boshliqlari) huzurida ma‘muriy va boshqaruv nizolarini ko‘rish huquqiga ega bo‘lgan prefekturalarning maxsus kengashlarini ta‘sis yetdi. Shu tariqa Fransiya davlat tuzumi rivojlanishining keyingi bosqichlari uchun ham xos bo‘lgan **ma‘muriy adliya** institutiga asos solindi.

1799-yilgi Konstitutsiya “*milliy mulklarni qonuniy sotib olgan egalariga*”, ya‘ni asosan yirik burjuaziya va boy dehqonlarga ularning yer mulklari daxlsiz bo‘lishini ta‘minlab berdi (94-modda).

### **Birinchi imperiya va davlat apparatining byurokratlashtirilishi.**

1799-yilgi Konstitutsiya birinchi konsulga butun hokimiyatni taqdim etib, Napoleon Bonapartga qisqa vaqt ichida Yakobinchilar harakatining qoldiqlarini tor-mor qilish va Fransiyada monarxiyani qayta tiklashga intilayotgan royalistlar faoliyatini zararsizlantirish imkonini berdi.

Bonapart, jamiyatning hurmatli doiralarini, hammadan avval yirik burjuaziya va mulkdor dehqonlarni qo‘llab-quvvatlab, kuchli hukumat imtiyozlarini namoyish qilib, o‘zining muvaffaqiyatli harbiy yurishlari bilan Fransiya sanoatining rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratib, shu tarzda respublika tuzumini batamom tugatish uchun zarur siyosiy muhit tayyorladi.

Fransiyaning koalitsiyaga qarshi kurashida erishgan g‘alabalari Napoleon hokimiyatining yanada kuchayishiga yordam berdi. **1802-yilda** qabul qilingan **yangi konstitutsiyaga** (“**X yil konstitutsiyasi**”ga) muvofiq Napoleonga davlatning umrbod boshlig‘i degan unvon berildi. Birinchi konsul o‘z vorisini tayinlash, sulh shartnomalarini yakka o‘zi tasdiqlash, Qonun chiqaruvchi korpusni tarqatib yuborish, sudlarning qarorlarini bekor qilish huquqini oldi.

O‘sha yili muhojirlarni avf etish to‘g‘risida qonun chiqarildi. Bu qonun yordami bilan Napoleon hukumati eski dvoryanlarni Burbonlarga madad berishdan qayirib olish va ularni o‘z tomoniga tortishni mo‘ljallagan edi. Muhojirlarning ko‘pchiligi avf etishdan foydalanib, Fransiya qaytib keldi; ularning bir qismi hatto yangi hukumatning xizmatiga ham kirdi.

**1804-yil 18-mayda** qabul qilingan senatus-konsult bilan **Napoleon Bonapart** “**fransuzlarning merosiy imperatori**” deb e‘lon qilindi. Bunda

yana tajribada sinovdan o'tgan plebissit usulidan foydalanildi va "fransuz xalqi" tomonidan Napoleonning uchinchi Konstitutsiyasi amalda bir ovozdan ma'qullandi. Konstitutsiyada "*respublikani boshqarish imperatorga ishonib topshirilishi*", "*odil sudlov imperator tayinlagan mansabdor shaxslar tomonidan uning nomidan amalga oshirilishi*" (1-modda) ko'rsatildi.

Konstitutsiya Napoleonning shuhratparastligiga asoslangan siyosiy mexanizmning tadrijiy rivojlanishini aks ettirdi. Unda endi davlat hokimiyatining tashkil etilishiga emas (bu imperatorni uncha qiziqtirmas edi), balki taxt vorisligi, imperator oilasining statusi, imperatorga qasamyod, regentlik va boshqa shunga o'xshash masalalarni juda qunt bilan ishlab chiqilishiga katta e'tibor qaratildi. Napoleonning siyosiy niyati va shuhratparastligi inqilobga qadar mavjud bo'lgan va oqibatda rim papasi ishtirokida amalga oshirilgan toj kiydirish marosimining qayta tiklanishiga olib keldi.

Shunday qilib, Bonapart shaxsiy hokimiyatining asta-sekin rivojlanib borishi muqarrar ravishda Fransiya davlat tuzumi shaklining sifat jihatdan o'zgarishiga olib keldi. Bu davlat tuzumi endilikda nafaqat amalda, balki huquqiy jihatdan ham o'ziga xos monarxiya (imperiya)ga aylandi. To'g'ri, imperatorlik unvoni o'rnatilsa ham, dastlabki vaqtlarda qonunchilikda "respublika" iborasidan foydalanish davom etdi ("respublikani boshqarish imperatorga ishonib topshiriladi"), lekin u Rim imperatorligidan ortiqcha ma'no kasb etmadi va asta-sekin iste'moldan chiqib ketdi.

Davlat hokimiyatini kuchaytirish harakati o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Napoleon shaxsi fransuzlarning ko'zi oldida hukumat bilan, armiya bilan, butun davlat bilan qo'shib ketdi. Mamlakatning siyosiy yo'li va fransuz davlatining taqdiri uning irodasiga, ko'pincha esa uning sof o'zboshimchaligiga bog'liq qilib qo'yildi.

Monarxiya tuzumining o'rnatilishi imperatorlik saroyining tashkil qilinishi bilan birga bordi. Imperiya e'lon qilingandan keyin dabdabali saroy vujudga keltirildi. Saroy unvonlari qayta tiklandi, imperiya marshali degan unvon joriy qilindi. Napoleonning qarindoshlari va yaqin maslakdoshlari Senat yoki imperatorning maxsus qonunlari bilan shahzodalar, knyazlar, graflar degan va hokazo unvonlar oldilar. Napoleondan katta-katta yer-mulklar olgan yangi dvoryanlar paydo bo'ldi.

Imperiya o'rnatilishi bilan Konstitutsiya ham o'z ahamiyatini yo'qotdi, chunki Napoleon o'zini qonundan ustun qo'ydi va o'z rejalarini amalga oshirish yo'lidagi rasmiy huquqiy to'siqlarni tan olmadi. Uning tomonidan tashkil etilgan davlat organlari tizimi ham asta-sekin shaklan o'zgarib bordi, imperator xohishi bo'yicha bir necha marta qaytadan tuzildi. Masalan, Davlat kengashi, Senat va boshqalarning tarkibi hamda

vakolatlari o'zgartirildi. 1807-yilda Tribunat tugatildi, uning a'zolari orasida Napoleon hukumatining siyosatiga qarshi kishilar bor edi. Qonun chiqaruvchi korpus tobora kam chaqiriladigan bo'lib qoldi. Butun hokimiyat imperator va unga sodiq bo'lgan Senat qo'lida edi.

Fransiyaning imperiyaga o'tishi bilan inqilobning barcha asosiy demokratik yutuqlari yo'qoldi. Hukumat erkin fikr yuritishning har qanday ko'rinishlarini ta'qib qildi: ommaviy yig'ilishlar va namoyishlar taqiqlandi, matbuot ustidan kuchli senzura o'rnatildi va hokazo.

Birinchi imperiya davrida Fransiya davlatining hozirgi zamon, ratsionalistik asoslarda shakllanish jarayoni o'z nihoyasiga yetdi. Fransiya davlati diniy va tabaqaviy merosdan xalos etildi. Napoleon tomonidan barpo etilgan bu davlat byurokratik markazlashtirish, fuqarolik xizmatlari va chinovniklarning imperatorga sodiqligi asosida tuzildi. Avtoritar rejim hukmronligi sharoitlarida u jamiyatdan tobora ajralib bordi, o'z-o'zidan rivojlanishga qodir bo'lgan kuchli mexanizmga aylandi, fransuzlarning nafaqat ommaviy, balki xususiy hayotini ham nazorat qila boshladi.

Napoleon davlatining ochiqdan ochiq proteksionistik iqtisodiy siyosati kapitalizmning juda tez o'sishiga yordam berdi va dastlabki paytlarda tadbirkorlikning keng doiralari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Napoleon o'ta markazlashgan byurokratik chinovniklik **davlat apparati** tashkil qildi. Bu apparatning ba'zi bo'g'inlari eski rejimdan va inqilob davridan meros qilib olindi, lekin ular asosan imperatorning ma'muriy ijodkorligi mahsuli bo'ldi.

Napoleon davrida **ministrliklar** asosiy boshqaruv organlari bo'lib qoldi. Ular yakka boshchilik va pastdan yuqoriga qarab qattiq bo'ysunish prinsiplari asosida tuzildi. Napoleon I hukmronligining oxiriga kelib Fransiyada 12ta ministrlik mavjud edi. Ularning ko'pchiligi savdo-sanoat, moliya, harbiy va jazo siyosatini o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan.


Napoleon haqiqatda **katolik cherkovni** ham davlat apparati tizimiga kiritdi. U cherkovning xalq ommasiga, ayniqsa, dehqonlarga kuchli ta'sirini to'g'ri tushunib, 1801- yildayoq rim papasi Piy VII bilan konkordat (bitim) tuzdi. Konkordatni Fransiyaning boy tabaqalari xayrixohlik bilan kutib oldi.

### **Eslab qoling!**

Konkordatda katolik dini "fransuzlar ko'pchiligining dini" deb tan olindi. Poplar, yepiskoplar, arxiyepiskoplar hukumat tomonidan tayinlanib, papa tasdig'idan o'tishi lozim edi. Vatikan inqilob vaqtida cherkovlarning mulklari sotib yuborilganligiga rozilik bildirdi.

qaragan bo'lsa, endilikda burjua tartiblarini mustahkamlash uchun cherkov bilan ittifoq tuzishga intildi. Mamlakatda (ayniqsa qishloqda) hali ham ta'siri katta bo'lgan katolik ruhoniylari Bonapart rejimining qurollaridan biri bo'lib qoldi. Fransuz maktablari uchun tuzilgan yangi katexizis (kitob)da o'quvchilarga, xudoyi taolo amri bilan qo'yilgan hokim Napoleoni sevish va hurmat qilish lozim, deb ta'lim berilar edi.

O'z xizmat muddatini o'tab bo'lgan askarlar pul uchun harbiy xizmat o'tashni davom ettirdilar. Shu tarzda armiyada tabaqaviylik va professionalizm rivojlandi. Imperiya davrida armiyaning ofitserlar tarkibi tobora ko'proq Napoleonning yangi aristokratiyasi vakillari bilan to'ldirildi. Napoleon armiyada yuqori jangovarlik kayfiyatini qo'llab-quvvatlashga intilib, ko'pincha imtiyozli harbiy qismlar (grenadyorlar<sup>1</sup>, dragunlar<sup>2</sup> va hokazo) va alohida imperatorlik gvardiyasini tuzardi.



Napoleonning ko'p sonli bosqinchilik yurishlari yangi askarlar olishni va yangi qurbonliklarni talab qilardi. 1800-yildan 1815-yilga qadar yordamchi qismlar xizmatchilarini hisoblaganda 3153 ming frantsuzlar xizmatga chaqirildi. Ulardan 1750 ming kishi halok bo'ldi. Ittifoqchilar va Napoleon dushmanlarining armiyasi esa 2 mln.ga yaqin kishi yo'qotdi.


Napoleon **politsiya tizimini** rivojlantirish va mustahkamlashga alohida e'tibor berdi. Politsiyani ushlab turishga juda katta mablag'lar

1 Grenadyor – bo'ydor kishilardan saralab tuzilgan harbiy xizmatchi.

2 Dragun – ham otda, ham piyoda harakat qila oladigan otliq askar.



ajratildi. Tajribali mutaxassis va makkor fitnachi J.Fushe boshchilik qilgan politsiya ministrliги huzurida siyosiy jinoyatchilarni qidirish va josuslikning keng tarmoqli tizimi tashkil qilindi. Okrug va shaharlardagi bosh komissarlar va politsiya komissarlari rasman prefektlarga bo‘ysunardilar, amalda esa politsiya ministri tomonidan tayinlanib, uning rahbarligi ostida harakat qilardilar. Parijda politsiyaning maxsus prefekturasi tuzilgandi.



Shunday qilib, Napoleonning nisbatan qisqa vaqt hukmronligi davrida (1799–1814-yillarda) Fransiya davlat hayotining hamma sohalarida muhim o‘zgarishlar yuz berdi. Imperiyaning avtoritar rejimi faqat tashqi ko‘rinishdangina barqaror va kuchli edi. Amalda bunday bo‘lmadi. Chunki bu imperiya fransuz jamiyatining an’anaviy siyosiy tizimida mustahkam konstitutsiyaviy asoslarga va tayanchlarga ega emasdi. U hokimiyat irodasi asosida va bitta, har qalay iste’dodli shaxs muvaffaqiyati bilan ushlab turildi. Tabiiyki, bunday rejim uzoq yashashi mumkin emasdi. Jamiyat, qudratli davlat va imperator o‘rtasidagi kelishmovchilik tarixan muqarrar bo‘lib qoldi.

## 7-§. Fransiyada qonuniy monarxiya va iyul imperiyasi. 1814 – 1830 yillardagi Xartiyalar

Napoleon 1814-yil mart oyining oxirida Rossiyadan va umuman oltinchi koalitsiyadan yengilganidan so‘ng ittifoqchilar qo‘shinlari Parijga kirdi. Eski fransuz aristokratiyasining vakillari ittifoqchilarni quvonch bilan kutib oldilar. Napoleon urushni davom ettirmoqchi edi, lekin uning marshallari bu rejaga qarshi chiqdilar. Ularning tazyiqi bilan Napoleon o‘z o‘g‘li, go‘dak “Rim qiroli” foydasiga taxtdan voz kechdi. Ittifoqchi davlatlarning buyrug‘i bilan senat Napoleoni taxtdan ag‘darish va Lyudovik XVI ning ukasi – 1791-yilda inqilobiy Fransiyadan qochib kyetgan graf Provanskiyni Fransiya taxtiga qiroq qilib ko‘tarish to‘g‘risida qaror qabul qildi.

Ingliz hukumati Fransiyada **Burbonlar monarxiyasini tiklash**da hal qiluvchi rol o‘ynadi. Ingliz hukumati sulolaning muhojirlikdagi vakillari bilan yaqin aloqada bo‘lgan edi va bu sulola idora qilgan Fransiya kuchli davlat bo‘la olmaydi deb o‘ylagan edi. Lyudovik XVIII deb nom olgan yangi fransuz qiroli tez orada Parijga keldi. Chet ellarda hamon qolib kelgan dvoryan-muhojirlar ham uning ketidan Fransiyaga qaytib keldilar (muhojirlarning ko‘pchiligi konsullik davrida vataniga qaytgan edilar). Shu tariqa 1814-yil aprelda Burbonlar sulolasi tiklandi. Napoleon I Italiyaga yaqin bo‘lgan Elba oroliga surgun qilindi. Bu orol unga umrbod mulk qilib berildi.

Napoleon imperiyasining halokati faqat uning urushda mag‘lubiyatga uchrashidagina emas, balki fransuz xalqining juda ko‘p sonli urushlar natijasida butunlay holdan toyganligida ham edi. Sanoatning o‘shidan keyin boshlangan iqtisodiy tartibsizliklar, eng zarur mahsulotlarning yo‘qolishi, ocharchilik natijasidagi g‘alayonlar va davlatning g‘alla narxini ushlab turishga muvaffaqiyatsiz urinishi – bularning hammasi imperator hokimiyatining obro‘sig‘a putur yetkazgan edi. Shu tarzda Bonapartning xalqqa qarshi rejimi oxir-oqibat uning halokatiga olib keldi. Bu diktatura Fransiya hududida koalitsiyaga qarshi olib borilgan urushni milliy urushga aylantirib yubora olmadi.

Fransiyada monarxiyaning tiklanishi tasodifiy hodisa emas edi. Fransuz davlatchiligining inqilobdan keyingi butun rivojlanishi (Direktoriya hukmronligi, Napoleonning avtoritar rejimi) Fransiya jamoatchiligi orasida respublika institutlarining obro‘sizlanishiga sabab bo‘ldi, xalqning “tarixiy haqiqat” izlashiga va Burbonlar boshchiligidagi monarxiyaning tiklanishiga olib keldi.

Birinchi monarxiyaning qulashi va oq terror (monarxiyaning siyosiy dushmanlarini jazolash)ning o'rnatilishi Napoleon tomonidan tashkil etilgan byurokratik boshqarish tizimining tugatilishiga olib kelmadi. Fransiya qaytib kelgan Burbonlar dastlabki vaqtlarda hatto imperator hukumatining ministrleri (Taleyran, Fushe)dan ham foydalandilar.

Lyudovik XVIIIning o'zi ham liberal g'oyalar ta'siridan to'la qutulmay, absolut monarxiyani endilikda tiklash mumkin emasligini, konstitutsionalizm fransuz jamiyatining chuqur ildizlariga singib kyetganligini yaxshi tushunardi. Davlat apparati va armiyada qo'mondonlik lavozimlarini egallab olgan royalistlar ham dastlab inqilobdan avvalgi absolutizmni tiklashni talab qiladilar. Lekin ular ham tez orada o'tmishni tiklab bo'lmasligini tushunib yetadilar, chunki inqilob eski tartiblarni tag-tomiri bilan sindirib tashlagan edi.

Qirol Lyudovik XVIII konstitutsiyaviy boshqarishni joriy qilishga rozi bo'lishga majbur bo'ldi. Fransiyaning konstitutsiyaviy tuzumi **1814-yilgi konstitutsiyaviy hujjat – Xartiya** bilan rasmiylashtirildi. Bu Fransiya tarixiga **qonuniy monarxiya** degan nom bilan kirdi.

Qirol tomonidan fransuz xalqiga in'om qilingan ushbu Xartiyada "ilohiy taqdirga" to'g'ridan to'g'ri havolalar mavjud edi va "*Fransiyada butun hokimiyat to'liq qirol shaxsida to'planadi*" deb e'lon qilingandi.


1814-yilgi konstitutsiyaviy Xartiyada *eski dvoryanlarning ilgari unvonlari qaytarib berilishi va yangi dvoryanlarning ham unvonlari saqlanib qolishi nazarda tutildi. Qirol "o'z xohishi bo'yicha" dvoryanlik unvonini in'om qilish huquqiga ega bo'ldi.* Biroq inqilobdan avvalgi tabaqaviy tuzum endi o'zining to'liq ko'rinishida qayta tiklana olmasligi aniq bo'lib qolgan edi.

Xartiya davlatda dvoryanlar aristokratiyasi va yangi burjuaziya vakillarining siyosiy hukmronligini ta'minlashga qaratildi. U inqilob natijasida shakllangan mulkchilik tizimiga, shu jumladan dehqonlarning yer egaligiga daxl qilmadi. **Xartiyaning 9-moddasi** mulkning daxlsizligini kafolatlaydi: "*Mulkning hamma turlari daxlsizdir. Qonun ular o'rtasida hech qanday farqlar qilmaydi*".


Xartiyada, shuningdek liberal g'oyalar ham o'z ifodasini topdi, ya'ni juda qisqa ko'rinishlarda bo'lsa ham, ba'zi siyosiy erkinliklar e'lon qilindi. Unda *fransuzlarning qonun oldida tengligi haqida, shaxsiy erkinliklarning kafolatlari haqida, so'z va matbuot erkinligi haqida, "sulola tiklangunga qadar vaqtgacha"* bo'lgan davrdagi (ya'ni 1792–1814- yillardagi) siyosiy

*faoliyat uchun ta'qib qilishga yo'l qo'yilmasligi va hokazolar haqida aytili.* Shu tariqa 1814-yilgi Xartiya qator munosabatlarda Napoleonning oxirgi konstitutsiyaviy hujjatlariga nisbatan ancha liberal (yon bosish) edi. U shaxs zo'ra vonligiga emas, ko'proq qonuniylikka asoslangandi.

**1814-yilgi Xartiya kuchli qirol hokimiyati o'rnatilganligini mustahkamladi.** Bu boshqa hokimiyatlarning unga qarshi turishiga va siyosiy muxolifatlarning har qanday ko'rinishlariga yo'l qo'ymay, umuman olganda hokimiyatlarning taqsimlanishi g'oyasini inkor etardi, ammo bular Fransiyada absolyutizmning tiklanganligini anglatmas edi.



1814 yilgi Xartiyaga binoan **qonun chiqaruvchi organ – parlament** aristokratik tarkibda ikki palatali qilib tashkil qilindi.



Bunday yuqori mulk senzining o’rnatilganligi natijasida deputatlar palatasiga asosan jamiyatning yuqori qismi vakillari: yirik yer egalari, sanoatchilar, moliyachilar, ya’ni aristokratik doiralar saylanishi mumkin edi.

Parlament ikkala palatasining huquqlari g’oyat cheklab qo’yilgan edi. Xartiya hukumatning vakillik organi oldidagi javobgarligini nazarda tutmagandi. Qirolga odil sudlov sohasidagi, shuningdek davlat boshqaruvidagi barcha mansabdorlarni tayinlash, jumladan, Ministrlar kengashini shakllantirish huquqi taqdim etildi. Ministrlar boshqaruvning qandaydir aniq sohasini yuritardilar yoki siyosiy topshiriqlarni bajarardilar (lavozimsiz ministrlar). Ministrlarning iste’foga chiqishi yo ularning shaxsiy iltimosi bo’yicha, yoki qirol o’z ministrlari fikri bilan kelishmagan yoki ularning harakatlarini ma’qullamagan hollarda uning irodasi bo’yicha amalga oshirilardi.

Qonuniy monarxiya faqat ikkinchi darajali islohotlar bilan cheklandi. Imperiya davrida tashkil qilingan harbiy-byurokratik va sud apparati, Napoleon kodekslari saqlanib qoldi.

Inqilobdan oldingi hayot tarziga intilayotgan qonuniy monarxiya rejimi Fransiyada olg’a qarab rivojlanayotgan kapitalizmni to’xtatib qola olmasdi, ayniqsa, orqaga qaytara olmasdi. Ko’pgina dvoryanlar o’zlarining aristokratik unvonlariga qaramasdan tadbirkorlik bilan shug’ullandilar, kapitalistik kompaniyalarga kirdilar.

Biroq qirol hokimiyati homiyligi ostida kuch to’plagan siyosiy reaksiya Fransiyada demokratik davlatchilik rivojlanishini to’xtatib turdi, monarxiya tuzumining vaqtinchalik barqarorligiga erishdi. Madomiki, bu tuzum uning barcha konservativligi bilan juda oz darajadagi

konstitutsionalizm, vakillik, iqtisodiy va siyosiy liberalizmga yo‘l qo‘yar ekan, dvoryanlarning eng reaksion qismi, ayniqsa, yangi sharoitlarga moslasha olmagan bir guruh muhojirlar ochiqdan ochiq inqilobdan oldingi tartibni tiklashga harakat qildi. Reaksiyaning kuchayishi katolik cherkov mavqeyining yanada mustahkamlanishiga ko‘maklashdi. Xartiya inqilobdan avvalgi kanonlarga taqlid qilib, katolik dinini davlat dini deb e‘lon qildi.

Yuqoridagilarning hammasi mehnatkashlar ommasi o‘rtasida qattiq norozilik tug‘dirdi. Pomeshchik-dvoryanlarning hayosizligi dehqonlarni juda tashvishlantirdi, chunki ular dehqonlarning olgan yer uchastkalarini tortib olish va feodal majburiyatlarni tiklashga harakat qilmoqda edilar.

Fransiyada Restavratsiya hukumatining siyosatiga qarshi tug‘ilgan umumiy norozilik shu qadar kuchayib kyetdiki, bu hol Napoleonga davlat hokimiyatini qayta egallashga imkon berdi. Sobiq imperator bu vaziyatdan foydalanib, 1815-yilning martida 1000 kishilik qo‘shin bilan hech qanday jangsiz Parijga kirib keldi, chunki Burbonlar hukumati tomonidan Napoleonga qarshi yuborilgan askarlar qarshilik ko‘rsatmay Napoleon tomoniga o‘tgandilar, dehqonlar ham Napoleonning qaytib kelishini: “Muhojirlarga o‘lim!”, “Aristokratlar yo‘qolsin!” degan gulduros sadolar bilan kutib olgandilar. Natijada Lyudovik XVIII va uning saroy ahllari sarosimaga tushib, chet ellarga qochib ketdilar. Napoleon hokimiyatni qo‘lga olib, uni 100 kun ushlab turdi. Oqibatda Angliya, Rossiya, Avstriya, Prussiya, Shvetsiya, Ispaniya va Yevropadagi boshqa davlatlarning ko‘pchiligi Fransiyaga qarshi yangi (yettinchi) koalitsiya tashkil etish to‘g‘risida shartnoma tuzdilar. Koalitsiya 900 ming kishilik armiya yubordi.

1815-yil 18-iyunda Vaterloo yonidagi (Bryusseldan 18 km keladigan joydagi) jangda Napoleon armiyasi son jihatdan juda ko‘p bo‘lgan ingliz va pruss askarlari tomonidan tor-mor qilindi. Deyarli uzluksiz davom yetgan urushlarda darmoni qurigan Fransiya koalitsiyaning juda katta armiyalari hujumiga dosh bera olmadi. Mehnatkashlarning vatanparvarlik harakatiga Napoleonning dushmanlik ko‘rsatishi uning halokatiga sabab bo‘ldi. Napoleon ko‘ngillilar (“federatlar”) batalonlarini qurollantirishdan bosh tortdi: u xalq ommasi qurol olgach, imperiyani yo‘qotib, respublika e‘lon qiladi deb qo‘rqdi.

Napoleon 22-iyunda taxtdan voz kechdi. Ingliz va pruss askarlari iyul oyining boshlarida Parijga kirdilar. Ular ketidan Lyudovik XVIII, 1814-yildagidek, dushman armiyalari aravasida Parijga qaytdi va shu tariqa **Burbonlar sulolasining ikkinchi restavratsiyasi (qayta tiklanishi)** sodir bo‘ldi. Napoleon asir olinib, Muqaddas (Avliyo) Yelena oroliga jo‘natildi va olti yildan keyin (1821-yilda) shu yerda vafot etdi.

Burbonlarning ikkinchi restavratsiyasi Fransiya xalqiga birinchi restavratsiyadan ham qimmatroqqa tushdi. Koalitsiya qatnashchilari Fransiya juda katta tovon soldilar. Ular Fransiyaning ikkinchi darajadagi davlat holiga tushirishga intildilar. Mamlakat ichida dvoryan-monarxiya reaksiyasi va oq terror hukm surdi. Harbiy sudlar siyosiy ishlarda ayblab 10 ming hukm chiqardi. Ofitserlar korpusi, ma'muriy apparat siyosiy muholiflardan "tozalandi". Royalist pogromchi<sup>1</sup> va terrorchi shaykalar progressiv kishilardan istaganlaricha o'ch olib, ularni bemalol azoblab o'ldirdilar.

Reaksiya tobora kuchayib borishi natijada 1821-yil boshlarida Fransiya Burbonlar monarxiyasini qurolli isyon ko'tarish yo'li bilan yiqitishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan yashirin karbonarilar jamiyati vujudga keldi. Karbonarilar tor fitnachilik harakati yuritganliklari va xalq ommasidan ajralib qolishlari sababli tez orada tor-mor etildilar. Shundan keyin Fransiya reaksiya yanada kuchaydi.

1824-yil sentabrda Lyudovik XVIII vafot yetgandan keyin Fransiya taxtiga uning ukasi – graf d'Artua Karl X nomi bilan o'tirdi. Uning davrida ham reaksiya kuchayib boraverdi. Karl idora qila boshlagan birinchi yildayoq shunday qonunlar qabul qilindiki, bu qonunlar xalq ommasi o'rtasida juda katta norozilik tug'dirdi. 1825-yil 27-aprelda sobiq muhojirlarga ularning inqilob vaqtida musodara qilingan yerlari uchun 1 milliard frankka yaqin haq to'lash to'g'risida qonun chiqarildi; bu g'oyat katta mablag'ning ko'p qismi bir hovuch pameshchiklarga, yuqori darajadagi aristokratlarga tegdi. Bu soliqlarning juda oshib ketishiga olib keldi. Noroziliklar kuchayib kyetdi. O'rta va mayda burjuaziyaning ham norziligi kuchaydi. Shuningdek, "kufrik", ya'ni dinga va cherkovga qarshi qaratilgan shakkoklik uchun beriladigan jazolar to'g'risidagi 1825-yil 20-aprel qonuni ham jamiyatning progressiv tabaqalari o'rtasida norozilik tug'dirdi: shakkoklikda ayblangan kishilarga eng og'ir jazolar, hatto o'lim jazosi beriladigan bo'ldi. Hukumat siyosatiga nisbatan norozilik shunga olib keldiki, deputatlar palatasiga o'tkazilgan yangi saylovlarda liberallar engib chiqdi.

Karl X konstitutsiyaviy rejimni tugatish va mutlaq yakka hokimlikni to'la tiklashga harakat qildi. **1830-yil 26-iyulda** uning ordonanslari (ya'ni bevosita qirol tomonidan chiqariladigan va parlament tasdig'i talab qilinmaydigan qirollik farmonlari) e'lon qilindi. Bu farmonlar xartiyani ochiqdan ochiq buzish edi, to'g'rirog'i, haqiqiy davlat to'ntarishi edi.

---

<sup>1</sup> Pogrom – qirg'in qilish; biror millatga yoki milliy guruhga qarshi qaratilgan yoppasiga o'ldirish va mol-mulkini talon-toroj qilishdan iborat bo'lgan reaksion shovinistik harakat.

*Ordonanslarga muvofiq, yangi saylangan palata tarqatib yuborilishi, gazeta va jurnallar chiqarish uchun oldin ruxsat olish tizimi joriy qilinishi, deputatlar palatasi a'zolarining kamaytirilishi, savdo-sanoat burjuaziyasi ovoz berish huquqidan mahrum etilib, faqat katta yer egalariga, ya'ni asosan dvoryanlar aristokratiyasiga saylov huquqi berilishi kerak edi.*

26- iyul ordonanslari Parijda qattiq va umumiy ko'tarilishga sabab bo'ldi. 27-iyul kuni Parijda inqilobiy qo'zg'olon ko'tarildi. **Iyul inqilobi** boshlanib, uch kun davom yetdi. 29-iyulda qo'zg'olon ko'targan xalq qirol saroyini jang bilan qo'lga kiritdi. Hukumat askarlari Parijni tashlab kyetdilar. Hokimiyat liberal deputatlar tomonidan uyushtirilgan muvaqqat hukumat qo'lga o'tdi; bu hukumatga bankir Lafit va general Lafayet boshchilik qildi. Karl X 2-avgustda o'zining nevarasi, graf shambor foydasiga taxtdan voz kechdi va bir necha kundan keyin Angliyaga qochib kyetdi.

Hokimiyat tepasiga kelgan yirik moliyachilar liberal islohotlar tarafdori bo'lgan Lui Filipp Orleanskiyni Fransiya qiroli deb e'lon qildilar. 1814-yilgi konstitutsiyaviy monarxiyadan mazmunan farq qiluvchi konstitutsiyaviy monarxiya tashkil topdi. Agar Burbonlar monarxiyasida dvoryanlar bilan yirik burjuaziyaning ittifoqida dvoryanlar rahbarlik mavqeyiga ega bo'lgan bo'lsalar, iyul monarxiyasida bu rahbarlikni yirik burjuaziya – bankirlar, birja va temir yo'l magnatlari va boshqalar qo'lga kiritib olgan edilar. Shu tariqa yarim burjua monarxiyasi to'liq burjua monarxiyasiga aylandi. 1830-yildan 1848-yilgacha bo'lgan davr Fransiya tarixida **iyul monarxiyasi** deb atalgan davr bo'ldi.

### **Eslab qoling!**

**1830-yil 14-avgustda yangi konstitutsiya – Xartiya qabul qilindi.**

Bu hujjat bilan iyul monarxiyasining siyosiy rejimi qonunan rasmiylashtirildi. Bu Xartiyaning 1814-yilgi Xartiyadan farqi shunda ediki, u qirol tomonidan in'om qilinmasdan, palata tomonidan tuzilgan edi. *Yangi Xartiyaga binoan deputatlar palatasining huquqlari bir muncha kengaytirildi, perlar unvonining nasldan naslga o'tishi bekor qilindi, saylovchilar uchun belgilangan mulk senzi bir oz kamaytirildi (tegishlicha – 200 va 500 frank to'g'ri soliqlar joriy qilindi), yosh senzi ham qisqartirildi (saylovchilar uchun – 25 yosh; deputatlar uchun – 30 yosh qilib belgilandi).* Natijada saylovchilar soni ko'payib, 100 mingdan 240 minggacha yetdi, biroq aholining ko'pchilik qismi saylovlarda hali qatnashmay qolaverdi.



1830-yilgi *Xartiya katolik ruhoniylarning huquqlarini ancha chekladi. Senzura bekor qilindi.* Lekin davlat mexanizmining muhim bo'g'inlari – politsiyachi-byurokratik apparat bu safar ham muhim o'zgarishlarga uchramadi. Ishchilar harakatiga qarshi qaratilgan qattiq qonunlar o'z kuchini saqlab qoldi.

Xalq ommasi demokratik erkinlikka, respublika tuzumi o'rnatishga erisha olmadi. Shunga qaramay, 1830-yilgi inqilobning progressiv ahamiyatga ega bo'lganligi shak-shubhasizdir. Dvoryanlar aristokratiyasi va katolik ruhoniylarga mansub bo'lgan eng reaksiyon tabaqalarning Fransiyada feodal-absolutistik tartib tiklash yo'lidagi urinishlari tamomila va uzil-kesil barbod bo'ldi.

Iyul monarxiyasi ilgarigi hukumatning markazlashgan byurokratik boshqaruv tizimi va jazolash organlaridan to'liq darajada foydalandi va ularni yanada rivojlantirdi.

Qirol hukumati respublikachi muxolifatchilarni va o'sib borayotgan ishchilar harakatini bostirish uchun, bunday hollarda o'zini konstitutsiyaviy prinsiplar bilan bog'liq emas deb hisoblab, politsiya nazorati va repressiyalarning juda turli-tuman usullarini qo'lladi. Parijning politsiya prefekturasi o'z ahamiyati bo'yicha qator ministirliklardan ustun bo'lgan qudratli ma'muriy organga aylandi. Iyul monarxiyasining davlat tuzumini himoya qilish uchun 1830-ilda tugatilgan jandarmeriya o'rniga mulkdor tabaqalar – sudxo'rlar, savdogarlar va hokazolardan iborat tarkibda Milliy gvardiya tashkil etildi.

Yuqori haq to'lanadigan davlat mansablari, savdo va sanoat korxonalariga ko'plab subsidiyalar<sup>1</sup>berilishi Fransiya budjetetini moliyachi va byurokratik yuqori tabaqalarning to'g'ridan to'g'ri boyish manbayiga aylantirdi. Hukmron kamarilya<sup>2</sup> vaqti-vaqti bilan repressiv qonunchilikni kuchaytirib turdi (masalan, 1835-yilda matbuot ustidan nazorat kuchaytirildi va hokazo), demokratik islohotlar haqidagi har qanday fikrlarni qat'iyon rad yetdi.

Ministrlar kengashining raisi Gizo o'sha vaqtda yuqori mulk senzini oqlab: “Janoblar, boyingiz, va siz saylovchilar bo'lasiz”, degan edi.

XIX asrning 40-yillarida Iyul monarxiyasi rejimining muxoliflari sezilarli darajada o'sdi. Unga qarshi juda tez o'sib borayotgan Fransiya ishchilar ommasi tobora faol kurasha boshladilar. Mayda burjuaziyaning, shuningdek saylovlardan va siyosiy hokimiyatdan chetlashtirilgan sanoat burjuaziyasining noroziliklari kuchaydi. 1847–1848-yillardagi inqiroz

---

<sup>1</sup>Subsidiya – yordamga beriladigan pul, mablag'.

<sup>2</sup>Kamarilya – podsho saroyida o'z manfaatlarini uchun davlat ishlariga turli fitna-ig'volar bilan ta'sir ko'rsatuvchi a'yonlar.

yangi inqilobiy vaziyatning vujudga kelishiga va xalq orasida respublika g'oyalarining jadal o'sishiga ko'maklashdi. 1848-yil fevral inqilobi Lui Filipp hukumatining qulashiga olib keldi.

## **8-§. Ikkinchi respublika va 1848-yilgi Konstitutsiya**

**1848-yilgi inqilob.** 1848-yil qishda Parij aholisi, hammadan avval ishchilar qurolli qo'zg'olon ko'tardilar.

Shu yil 22-fevralda parijliklar siyosiy tuzumni demokratlashtirilishini va xalqning og'ir iqtisodiy ahvolini yaxshilash bo'yicha aniq chora-tadbirlar qabul qilinishini talab qilib tinch, qurolsiz namoyishga yig'ildilar. Lekin hukumat namoyishchilarni o'qqa tutdi. Bu esa ishchilarni g'azablantirdi va qurolli qo'zg'olon ko'tarilishiga turtki bo'ldi. Qo'zg'olon boshlangan kunning ertasigayoq qo'zg'olonchilar poytaxtning asosiy strategik punktlarini egallab oldilar.

Lui-Filipp inqilobni bostirish mumkin emasligiga ko'zi etgach, taxtdan voz kechib, Angliyaga qochib kyetdi.

Liberal burjuaziya vakillari Lui Filippning go'dak nevarasi – graf Parijskiyni qirol deb e'lon qilib monarxiyani saqlab qolmoqchi bo'ldilar. Biroq qurollangan omma deputatlar palatasining majlislar zaliga bostirib kirib, Muvaqqat hukumat tuzilishini qattiq turib talab qildi.

Natijada liberal demokratik muxolifat vakillaridan iborat tarkibdagi **Muvaqqat hukumat tuzildi. 25-fevralda** Muvaqqat hukumat ishchilarning bevosita tazyiqi ostida **Fransiyani respublika** deb e'lon qildi.

Bu Fransiya tarixiga **Ikkinchi respublika** degan nom bilan kirdi. Hukumatga umumiy, to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi joriy qilish majburiyati yuklandi. **Mehnat haqidagi dekret bilan mehnat huquqi e'lon qilindi, davlatning barcha fuqarolarni ish bilan ta'minlash, ish kunini Parijda 10 soatgacha, boshqa provinsiyalarda 11 soatgacha qisqartirish majburiyati belgilandi.** Shuningdek, boshqa demokratik tadbirlar o'tkazish va'da qilindi.

1848-yil 23-aprelda Ta'sis majlisiga saylovlar bo'ldi. Ta'sis majlisi respublika konstitutsiyasini qabul qilishi kerak edi. Majlisning ko'pchilik qismini yirik yer egalari, sanoatchilar, generallar, yuqori tabaqa ruhoniylarning vakillari tashkil etdi. Saylovlardan keyin yangi hukmron doiralar mehnatkashlar ahvolini biroz bo'lsa-da, yaxshilashga qaratilgan barcha normativ hujjatlarni bekor qildilar.

Ta'sis majlisi **Ijroiya komissiya deb atalgan yangi hukumat** tuzdi. Hukumat ko'cha yig'ilishlari to'g'risida qattiq qonun chiqardi. Parijga qo'shinlar keltirila boshlandi.

## Hukumatning 22-iyundagi farmoyishiga asosan

Milliy ustaxonalarda ishlayotgan 18 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan va Parijda doimiy turar joyi bo'lmagan hamma bo'ydoq ishchilarning armiyaga kirishi buyurilgan edi.

25 yoshdan oshgan ishchilarga provinsiyalarda yer qazish ishlariga jo'nash uchun tayyorgarlik ko'rish taklif qilingan edi.

Bu farmoyish ishchilarni qattiq g'azablantirdi. Shu kuni qurolli qo'zg'olon boshlanib ketdi. Lekin to'rt kunlik shiddatli kurashdan keyin qo'zg'olon armiya tomonidan shafqatsizlik bilan bostirildi. Ikkinchi respublikaning asosiy hujjati Ta'sis majlisi tomonidan **1848-yil 4-noyabrda qabul qilingan Konstitutsiya** bo'lib qoldi.

Konstitutsiyaning kirish qismida ko'rsatilganidek, u "xudo oldida va fransuz xalqi nomidan" qabul qilindi. *Unda "erkinlik, tenglik va do'stlik – fransuz respublikasining prinsiplari, oila, mehnat, mulkchilik, ijtimoiy tartib – uning asoslaridir" (Kirish qismi 4-modda) deb e'lon qilindi.* Konstitutsiyaga binoan *"respublika fuqaroning shaxsi, oilasi, dini, mulki, mehnatini himoya qilishi va har kimga har bir inson uchun zarur bo'lgan ta'lim olishga imkoniyat yaratishi lozim"*(Kirish qismi 8-modda) edi. **Konstitutsiyada davlat tuzumining asosiy prinsiplari:** *respublika shaklidagi boshqaruv, hokimiyatlarning taqsimlanishi, vakillik boshqaruvi o'rnatildi.* Unda *"ommaviy hokimiyat meros bo'yicha o'tkazilishi mumkin emas" (18-modda),* deb alohida ta'kidlandi. Konstitutsiya umumiy saylov huquqini mustahkamladi. Bunga Ikkinchi respublikaning demokratik xarakteri ko'rsatkichlaridan biri sifatida qaralgandi.

Konstitutsiyaning IV bobi "Qonun chiqarish hokimiyati haqida" bo'lib, unga ko'ra oliy **qonun chiqarish hokimiyati** bir palatali **Milliy majlisga** tegishli bo'ldi. *Milliy Majlis qonunlar qabul qilish, budjetetni tasdiqlash, urush va tinchlik masalalarini hal qilish, savdo shartnomalarini tasdiqlash va boshqa masalalarni ko'rib chiqish vakolatlariga ega edi. Milliy Majlis deputatlari uch yil muddatga saylanardilar va buyruq tarzidagi mandatlar bilan bog'liq emas edilar (IV bob, 31– 34-moddalar).*

Konstitutsiyaga binoan (IV bob) **ijroiya hokimiyat** to'rt yilga saylanadigan **prezidentga** tegishli bo'ldi. **Prezident** armiya, politsiya va ma'muriy apparatga boshchilik qilardi. U ministrnlarni, armiya va flot

qo‘mondonlarini va boshqa oliy mansabdor shaxslarni tayinlardi va almashtirib turardi. *“Prezident vazirlar orqali Milliy majlisga qonun loyihalarini kiritishga haqli. U qonunlarning bajarilishini kuzatib turadi va ta‘minlaydi” (V bob 49-modda). “Prezident har yili respublika ishlarining umumiy ahvoli haqida Milliy majlisga yozma ma‘lumot taqdim qiladi” (V bob 52-modda). U xalqaro shartnomalar tuzardi va tasdiqlardi. Lekin bunday shartnomalar Milliy Majlis tomonidan tasdiqlangandan so‘ng kuchga kirardi (V bob 53-modda). Prezident davlatning tashqi xavfsizligini kuzatib turardi. Lekin Milliy majlisning ruxsatisiz urush e‘lon qila olmasdi (V bob 52-modda). U avf etish huquqiga ega edi. Amnistiya faqat tegishli qonun asosida chiqarilishi mumkin edi. Oliy sud tomonidan hukm qilingan respublika prezidenti, ministrlar va boshqa shaxslar faqat Milliy Majlis tomonidan avf etilishi mumkin edi (V bob 55-modda). Prezident qonunlarni fransuz xalqi nomidan e‘lon qilardi (V bob 56-modda).*

*Prezident mamlakat hududining qandaydir qismini boshqa davlatga berishga, Milliy majlisni tarqatib yuborishga yoki vaqtincha to‘xtatib qo‘yishga, konstitutsiya va qonunlarning ta‘sirini cheklashga haqli emas edi (V bob 51-modda).*

Prezident ko‘p hollarda parlamentdan mustaqil edi. U Milliy Majlis tomonidan emas, departamentdan saylangan vakillar tomonidan saylanardi.

Hukumatning qonun loyihalarini ko‘rib chiquvchi maslahatchi organ sifatida **Davlat kengashi** ta‘sis etildi. Uning kompetensiyasiga, shuningdek qonunlarning bajarilishini nazorat qilish ham kirardi. Davlat kengashining a‘zolari Milliy Majlis tomonidan olti yil muddatga saylanardilar.

### Davlat kengashi kompetensiyalari

hukumatning qonun loyihalarini ko‘rib chiqish	qonunlarning bajarilishini nazorat qilish
---	---

Markaziy va mahalliy boshqaruv organlari jiddiy o‘zgarishlarga uchramadi. Mamlakatning eskicha departamentlarga, distriktlarga va kommunalarga bo‘linishiga asoslangan ma‘muriy-hududiy tizimi saqlanib qoldi. Departamentda prefekt hokimiyati o‘zgarishsiz qoldi.

**Saylov huquqining** umumiy, to‘g‘ridan to‘g‘ri va yashirin ovoz berish tartibi joriy qilindi. 21 yoshga to‘lgan, fuqarolik va siyosiy huquqlardan foydalanuvchi barcha fransuzlarga saylash huquqi, 25 yoshga to‘lganlarga esa saylanish huquqi berildi.

**Konstitutsiyaning III bobi** maxsus tarzda fuqarolarning demokratik huquq va erkinliklariga bag‘ishlandi. Bunda ko‘rsatilishicha, *“hech kim qonunda ko‘rsatilgan hollardan tashqari hibsga olinishi yoki ushlab turilishi mumkin emas”* (2-modda). *Fuqarolarning turar-joyi daxlsizligi belgilanib, unga faqat qonunda nazarda tutilgan shaklda va hollardagina bironing kirishi mumkin edi* (3-modda). *“Hech kim u tegishli bo‘lgan suddan boshqa sudda sud qilinishi mumkin emas. Maxsus komissiyalar, favqulodda sudlar tuzilishiga yo‘l qo‘yilmaydi”* (4-modda). *“Siyosiy chiqishlar uchun o‘lim jazosi berilishi bekor qilinadi”* (5-modda).

Konstitutsiyada vijdon erkinligi mustahkamlanib, davlatning dinlarga teng homiylik qilishi belgilandi. Cherkov xizmatchilari endilikda davlatdan maosh oladigan bo‘ldilar.

Konstitutsiya fuqarolarning jamiyatlar tuzish va quolsiz tinch yig‘ilishlar o‘tkazish, petitsiyalar berish, so‘z, matbuot erkinliklarini e‘tirof yetdi. Unda ta‘lim olish erkinligi mustahkamlandi, har bir kishiga ijtimoiy mansablarni egallashda teng imkoniyatlar belgilandi.

Konstitutsiya mulkni daxlsiz deb e‘lon qildi. Lekin davlat jamiyat ehtiyojlari talab qilganda qonuniy asoslarda adolatli shartlar bilan va oldindan haq to‘lash yo‘li bilan mulkni olishi mumkin edi. Konstitutsiyaga binoan mulkni musodara qilinishiga hech qachon yo‘l qo‘yilmasligi kerak edi.

Konstitutsiya, shuningdek fuqarolarning mehnat qilish va sanoat bilan shug‘ullanish erkinligini kafolatladi. *Unda jamiyat mehnatning rivojlanishiga homiylik qiladi va rag‘batlantiradi, deb belgilandi* (II bob, 13-modda).


Konstitutsiyaga binoan barcha soliqlar umumning foydasi uchun o‘rnatilishi lozim edi. *Hech qanday soliq qonundan tashqari o‘rnatilishi va olinishi mumkin emasdi. To‘g‘ri soliqlar olishga faqat bir yilga ruxsat etilardi. Bilvosita soliqlarni esa bir necha yillar olishga ruxsat etilgan edi* (II bob, 15-17-moddalar).

Biroq konstitutsiyaning liberal-demokratik qoidalari uzoq yashay olmadi. Tez orada dastlab saylovchilar uchun 6 oylik o‘troqlik senzi o‘rnatildi, so‘ngra esa 1850 yil 31 mayda qabul qilingan Qonun bilan u uch yilga ko‘paytirildi. Ishchilarning o‘troq yashash muddatini belgilash ish beruvchilarning ko‘rsatmasiga bog‘liq qilib qo‘yildi. Yangi saylov qonuni natijasida 3 mln. kishi ovoz berish huquqidan mahrum bo‘ldi. Maxsus qonunning qabul qilinishi demokratik matbuotning moliyaviy ahvolini og‘irlashtirdi. **1850-yil 15-martda xalq maorifi to‘g‘risida qonun** chiqarilib, bu qonunga ko‘ra *hamma o‘quv yurtlari katolik ruhoniylari nazorati ostiga olingan edi.*

## **9-§. Lui Bonapartning 1851 yilgi davlat to‘ntarishi va ikkinchi imperiyaning davlat tuzumi**

Ma'lumki, Ikkinchi respublikaning birinchi prezidenti Napoleon Bonapartning jiyani Lui Napoleon bo'lib qolgan edi. Lui Bonapart **1851-yil 2-dekabrga** o'tar kechasi **davlat to‘ntarishini** amalga oshirdi. U 1848-yilgi Konstitutsiyani qo‘pol tarzda buzib, armiyaga tayangan holda Milliy majlisni tarqatib yubordi va prezidentlik boshqaruvini joriy qildi, ya'ni ochiqchasiga shaxsiy diktatura o‘rnatdi. Prezident Parijni qamal holatida deb e'lon qildi. Bonapartizmga dushman partiyalarning liderlari qamoqqa olindi. Shu bilan birga shavqatsiz harbiy va politsiya terrori olib borildi. Minglab kishilar, hammadan avval respublikachilar va demokratik kuchlar turmalarga qamaldi, surgun qilindi. 1852-yil 14-yanvarda 1799-yilgi Konstitutsiyaga o‘xshash yangi Konstitutsiya e'lon qilindi.

Qonun chiqarish jarayoni butunlay prezident nazorati ostiga olindi. **Qonun chiqarish hokimiyatini Davlat kengashi, Qonun chiqaruvchi korpus va Senat prezident** bilan birgalikda amalga oshiradigan bo'ldi. Prezident Davlat kengashi va Senat a'zolarini tayinlardi. Qonun chiqaruvchi korpus "umumiy ovoz berish" yo'li bilan saylanardi, lekin unga deputatlikka nomzodlarni prezident tasdiqlardi. Faqat prezident qonunchilik tashabbusi huquqiga ega edi. Prezident takliflari asosida Davlat kengashi qonun loyihalarini tuzardi. Qonun loyihalari umuman Qonun chiqaruvchi korpus tomonidan qabul qilinishi yoki rad etilishi mumkin edi. Senat qonunchilik sohasida Konstitutsiyaviy nazorat huquqiga ega bo'ldi.



**Mahalliy boshqaruv** bu safar ham muhim o'zgarishlarga uchramadi. 1851-yilgi davlat to'ntarishi davlat apparatiga hech qanday daxl qilmadi.

1852-yilgi Konstitutsiya, xuddi 1799-yilgi Konstitutsiya singari, mamlakatda monarxiya e'lon qilinishi uchun shart-sharoitlar yaratdi. Prezidentning monarxdan farqi faqat shunda ediki, uning hokimiyati merosiy emasdi. U ma'lum bir muddatga – 10 yilga saylanardi.

**Lui-Napoleon 1852-yil 2-dekabrdagi maxsus Qonun asosida Napoleon III nomi bilan fransuzlarning imperatori** deb e'lon qilindi. Ikkinchi respublika yo'q qilinib, uning o'rnini **Ikkinchi imperiya** oldi.

Mamlakatda Lui Napoleonning harbiy-politsiya diktaturasi o'rnatildi. Yangi rejimning qator o'ziga xos belgilari mavjud edi. Imperiya burjuaziya va proletariat o'rtasida vositachilik rolini o'ynashga harakat qildi. Ular o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni hokimiyat ta'sirida tinch yo'l bilan bartaraf etmoqchi bo'ldi. Shu bilan birga, monarxiya demokratik tashkilotlarni ta'qib qildi. **1854-yil 1-martdagi** imperatorlik dekreti bilan **jandarmlar korpusi** qayta tiklandi. U armiyaning tarkibiy qismi hisoblandi va harbiy ministrga bo'ysundi. Jandarmlar korpusidan jazo operatsiyalarida foydalanildi.

XIX asrning 60-yillari oxirida uncha katta ahamiyatga ega bo'lmagan ba'zi yon berishlar qilishga, jumladan, Senat va Qonun chiqaruvchi korpusning huquqlarini kegaytirishga, nashriyotga nisbatan senzuraning yumshatishga harakat qilindi. Napoleon III kuchayib borayotgan

norozilikni pasaytirish uchun ba'zi bir liberal islohotlarni o'tkazishga majbur bo'ldi. 1860-yil noyabrda Qonun chiqaruvchi korpus va Senatning huquqi birmuncha kengaytirildi: ularga har yili imperatorning taxt nutqiga javob maktubi qabul qilish va o'z majlislarining stenogramma hisobotlarini gazetalarda e'lon qilish huquqi berildi. Lekin arzimagan islohotlar Ikkinchi imperiyaning politsiya byurokratik rejimi asoslariga ta'sir qilmadi.

1870-yilda hukumat yangi, rasmiy matbuotda aytilishicha "liberal" konstitutsiya qabul qilinishi haqida e'lon qildi. Bunda eng muhim yangilik Qonunchilik korpusining vakolatlarini birmuncha kengaytirilishi hisoblangan.

### **Eslab qoling!**

1864-yil 25-mayda stachkalarni taqiqlash haqidagi 1791-yildan beri amal qilinayotgan qonun (Le Chapel'e qonuni) bekor qilindi. Ammo 1804-yilgi "Fuqarolik kodeksi" tegishli moddalarining yangi nashri ham har qanday faol, hujumkor, tashkiliy stachkalarni qonundan tashqari, deb e'lon qildi.

**1870-yilgi inqilob va respublikaning qayta tiklanishi.** Fransiyaning Sedan ostonasidagi hal qiluvchi jangda mag'lubiyatga uchrashi Napoleon monarxiyasining taqdirini belgilab berdi. Mag'lubiyat haqidagi xabar Parijga etib borganda (1870-yil sentabrda), u yerda xalq qo'zg'olon ko'tardi. Hukumat bunga jiddiy ta'sir ko'rsatmadi va hokimiyat qonun chiqaruvchi korpusdagi ilgarigi muxolifat vakillari qo'liga o'tdi.

**1870-yil 4-sentabrda** deputatlar palatasi qo'zg'olon ko'targan xalqning tazyiqi ostida Napoleon III ni hokimiyatdan chetlashtirdi. Shu kuni Fransiya tarixidagi **Uchinchi respublika e'lon qilindi** va Muvaqqat hukumat tuzildi. Muvaqqat hukumatga poytaxtning harbiy gubernatori general Tronshu boshchilik qildi. 1870-yil noyabrda Parij aholisi referendumda bu hukumatning vakolatlarini tasdiqladi. Muvaqqat hukumat o'zini milliy mudofaa hukumati deb e'lon qildi, lekin amalda harbiy masalalar bilan kam shug'ullandi. U Parij aholisini tinchitishni va Milliy ta'sis majlisiga saylovlar o'tkazishni o'zining asosiy vazifasi deb bildi. Va nihoyat, u 1871-yil fevralda saylangan Milliy ta'sis majlisiga o'z o'rnini bo'shatib berdi.

Bu vaqtda kelib Fransiya uchun urushning xarakteri ham o'zgardi. Endi bu urush Fransiya uchun adolatsiz urushdan adolatli, ozodlik uchun urushga aylandi. Chunki Prussiyaning asosiy maqsadi Fransiyadan Elzas va Lotaringiyani tortib olish edi.



## 10-§. 1871-yilgi Parij kommunasi

1871-yil 8-fevralda yashirincha saylangan Milliy Majlis ochiqdan ochiq monarxiya tarafdori bo‘ldi. Milliy Majlis hukumat boshlig‘i qilib monarxist Terni tayinlagan edi.

1871-yil fevralda Milliy gvardiya **Markaziy qo‘mitasi** tashkil etildi. U yangi xalq hokimiyatining kurtagi bo‘lib qolgan edi.

**1871-yil 18-martda** hukumat qo‘shinlari milliy gvardiyaning zambaraklarini egallab olishga harakat qildi. Lekin buni uddasidan chiqqa olmadi. Parij xalqi yoppasiga qo‘zg‘olon ko‘targan ishchilar tomoniga o‘tdi. Tushkunlik kayfiyatiga tushgan hukumat qo‘shinlari, politsiya, jandarmeriya hukumat bilan birga, Versalga qochib ketdi. **Parijda hokimiyat Milliy gvardiya Markaziy qo‘mitasi qo‘liga o‘tdi.**

**Parij Kommunasi Kengashiga** saylovlar 26-martda bo‘lib o‘tdi, keyinchalik 16 aprelda qo‘shimcha saylovlar o‘tkazildi. Saylov umumiy saylov huquqi asosida o‘tkazildi.

### **Eslab qoling!**


**28-martda** Markaziy qo‘mitaning a‘zolari hukumatni tantanali suratda Kommuna qo‘liga topshirdilar va **Parij Kommunasi tashkil qilinganligini e‘lon** qildilar.

**Kommunaning dastlabki aktlaridan biri 29-martda** *doimiy armiyani yo‘q qilish va uning o‘rniga Milliy gvardiyadan iborat qurolli xalq qo‘shinini vujudga keltirish to‘g‘risidagi dekreti* bo‘ldi.

18-mart qo‘zg‘olonidan keyin birinchi kundan boshlaboq Milliy gvardiya Markaziy qo‘mitasi, so‘ngra esa Kommuna eski amaldorlarning sabotajiga va to‘g‘ridan to‘g‘ri dezertiriligiga duch keldi. Tashqi ishlar ministriligida ko‘p sonli apparatdan faqat ikki kishi – qorovul bilan bir xizmatkor qolgan edi. Boshqa ministrlilik, idora va muassasalarning ko‘pchiligida ham huddi shunday bo‘ldi. Inqilobiy hukumat – Markaziy qo‘mita, so‘ngra esa Kommuna yangi hokimiyatga eski amaldorlarning shu tariqa ommaviy bayqot qilishi faktlariga duch kelganlaridan keyin, eski davlat apparatini sindirib tashlab uning o‘rniga bevosita xalq orasidan chiqqan kishilardan iborat yangi demokratik hokimiyat organlarini vujudga keltirdi.

**Kommuna Kengashi a‘zolarining umumiy majlisi oliy hokimiyat organi bo‘lib qoldi.** Kommuna “hokimiyatni taqsimlash” prinsipini uloqtirib tashlab, ham qonun chiqaruvchi, ham ijrochi hokimiyatni o‘zida birlashtirdi.

**Kommuna Kengashi o‘z a‘zolaridan iborat quyidagi  
10 ta komissiyani tuzdi:**



**Ijroiya komissiya oliy organ** hisoblangan. 1871-yil 1-mayda bu komissiya negizida **Jamiyatni qutqarish qo‘mitasi** tuzildi.

Kommuna, *“idora organlari va sudlardagi hamma vazifalarga odamlar saylab qo‘yiladi, shu bilan birga ishonchini oqlamagan davlat xizmatchilarini saylovchilar muddatidan ilgari vazifasidan bekor qilishlari mumkin”* deb qaror chiqardi. Kommuna, shuningdek *“davlat xizmatchilarining maoshi malakali ishchining o‘rtacha ish haqiga baravar bo‘lishi kerak va davlat xizmatchisi qanday vazifada ishlamasin, baribir, uning maoshi bir yilga 6 ming frankdan oshmasligi kerak”* degan qaror chiqardi.

Parij 20ta okrugga bo‘lingan edi. Ularning har biri tepasida munitsipal merlar turardi. Ular Kommunaga bo‘ysunardilar. Barcha muhim muassasalarga komissarlar jo‘natilgan edi.

Komissarlar siyosiy klublar va kasaba uyushmalari bilan mustahkam aloqada harakat qilardilar.

Klublar Kommuna tadbirlarini muhokama qilganlar, uning xatolarini ko‘rsatganlar, bularni tugatishga yordam berib turganlar. Deyarli hamma kvartallarda hushyorlik qo‘mitalari mavjud edi.

Kommuna, eng avvalo, armiyani, politsiyani, amaldorlarni va sudni tugatdi. 29-martda rekrut yig‘inini bekor qilish va doimiy armiyani qurollangan xalq bilan almashtirish haqida dekret chiqarildi. Qurol ko‘tarishga qobil bo‘lgan barcha kishlar Milliy gvardiya safiga chaqirildi. Shu tariqa eski armiya tugatildi.


Parij prefekturasi ham haydab yuborildi. Amaldorlar Versalga qochib ketdi. Xalqning o'zi ijtimoiy tartibni va gvardiyaning xavfsizligini qo'riqlashni o'z qo'lga oldi. Unga milliy gvardiyaning rezervdagi batalyonlari yordam berib turardi.

Amaldorlarni saylab qo'yilishi tartibi o'rnatildi. 2-aprelda amaldorlar uchun maoshning eng yuqori miqdori 1 yilda 6 ming frank qilib o'rnatildi.

Kommuna proletar sud tashkil yetdi. Qasamxo'r maslahatchilar uchun yosh senzi kamaytirildi. Milliy gvardiyada xizmat qilgan har bir kishi qasamxo'r sudya bo'lishi mumkin bo'ldi. Mayda ishchilar hakamlik sudlari tomonidan hal qilinardi. Mulkiy va oilaviy nizolar bo'yicha ancha muhim ishlar fuqarolik palatasi tomonidan ko'rilar edi.


Sud pristavlari, notariuslar Kommunaning xizmatchilari deb e'lon qilindi.

14-aprelda chiqarilgan dekret bilan *g'ayriqonuniy qamoqqa olish, tintuv o'tkazish, rekvizitsiya (mol-mulkni qiymatini to'lash sharti bilan majburiy ravishda davlat ixtiyoriga o'tkazish) taqiqlandi*. Buning uchun jinoiy javobgarlik belgilandi.



Biroq Kommuna o'z dushmanlariga – versalliklarga ancha yumshoq munosabatda bo'ldi.

Kommunaning muhim chora-tadbirlaridan biri bu ilgari qonunlarni bekor qilish bo'lgan edi. Parij Kommunasi tashkil topgan kunning ertasigayoq Versal hukumatining barcha buyruqlarini bekor qildi. Demokratik huquq va erkinliklar e'lon qilindi.



Cherkov davlatdan ajratildi. Bepul majburiy ta'lim joriy qilish nazarda tutildi. Kutubxonalar, teatrlar, muzeylar xalq uchun ochib qo'yildi. Kommuna mehnatkashlar turmushini yengillashtirishga harakat qildi. Kommunarlar lombardlarga garovga qo'yilgan ashyolarni egalariga qaytarib berdilar, kvartira to'lovlari bo'yicha qarzlari bekor qilindi. Vafot etgan Milliy gvardiyachilarning bolalariga nafaqa to'landi. 16-apreldagi dekret bilan ishlab chiqarish ustidan ishchi nazorati o'rnatildi. Egallari tomonidan tashlab ketilgan ustaxonalar ishchi kooperativ birlashmalarining ixtiyoriga berilishi ko'zda tutildi.

Ishsizlikka qarshi kurashish choralari ko'rildi, tungi smenalardagi ba'zi ishlar bekor qilindi va hokazo.

Biroq Fransiya banki milliylashtirilmadi. Kommunaning bank ustidan kuchsiz nazorati uning katta xatosi bo'ldi.

Kommuna Versal hukumatining 6ta a'zosi ustidan sud javobgarligi haqida dekret chiqardi. Bunga ko'ra ular fuqarolar urushining boshlanishiga aybdorlar deb topildi. Ularning mol-mulki musodara qilindi. Dezertirlik uchun jinoiy javobgarlik o'rnatildi.

Fransuz xalqiga Deklaratsiyada (19-aprelda qabul qilingan) Fransiya boshqarish shakli bo'yicha respublika deb e'lon qilindi. Har bir Kommunaga keng avtonomiya huquqi berildi. Fransiya davlat tuzilishi bo'yicha federatsiya deb e'lon qilindi.

Parij Kommunasi 72 kun yashadi.

## 11-§. Fransiya Uchinchi respublikaning o‘rnatilishi va 1875-yilgi konstitutsiyaviy qonunlar

**1871-yil 28-mayda** versalliklar Parijni egallab oldilar. Kommunarlar sud qilindi. **Kommuna halokatga uchradi.** Fransiya reaksionerlar va monarxistlar qo‘liga o‘tdi.

Vaqtli prezident Terning buyrug‘i bilan Parij, Lion va boshqa shaharlarning ishchilari repressiya qilindi. Yirik burjuaziya kuchli markazlashgan hokimiyat tuzishga harakat qildi.

Shunday sharoitda Fransiyaning boshqarish shakli haqidagi masala muhokama qilindi. Milliy majlis asosan monarxiya tarafdorlari, “reaksion qishloqliklar”dan iborat edi.


Milliy majlisda monarxistlarning bir qismi Burbonlar sulolasidan qirollarni qayta tiklashni yoqlab chiqdilar. Bularga **legitimistlar** deyilgan. Ular zamindor aristokratiyaga va yuqori darajali katolik ruhoniylariga tayandilar. Bir qism deputatlar Lui Filipp vorislarini taxtga tiklash tarafdor bo‘lib chiqdilar. Bular **orleanistlar** edi. Yana bir guruh deputatlar – **bonapartchilar** bo‘lib, ular Napoleon imperiyasini tiklamoqchi bo‘ldilar va Napoleon qarindoshlari tarafdorlari bo‘lib chiqdilar. Boshqarish shakli haqidagi tortishuvlar 1875-yilning boshigacha davom etdi.

Milliy majlisda respublika tarafdorlari dastlab juda kamchilikni tashkil etgan. Biroq tez orada ko‘pchilik ishchilar, mayda burjuaziya va fermerlar monarxiyadan yuz o‘girdi, hatto Ter ham monarxiyani qayta tiklash mumkin emasligini tushunib yetdi. Terning “Respublika respublikachilarsiz” degan shiori bor edi.

Monarxistlar taxtga nomzod haqida tortishuvlar olib borishar ekan, respublikachilar o‘z mavqelarini mustahkamlab oldilar. Monarxistlar hamma saylovlarda mag‘lubiyatga uchradilar. Lekin ular hali Milliy majlisda ko‘pchilik o‘ringa ega edilar. Ter iste’foga chiqqandan so‘ng, ular vaqtli prezident qilib marshal Mak Magonni sayladilar. Mak Magon esa ashaddiy monarxiya tarafdori edi. Uning davrida hatto yangi qirolni tantanali e’lon qilishga tayyorgarlik boshlandi. Lekin ular xato qilgan edilar. Chunki butun millat, xalq respublika tarafdori edi. Bu safar armiya ham monarxistlarni qo‘llab-quvvatlamadi. 1873-yilning kuzida Mak Magonning prezidentlik muddati 7 yil qilib belgilandi. Bu vaqt ichida monarxistlar respublikachilar ustidan g‘alaba qilishga, qirollik taxtiga nomzod topishga umid qilgan edilar.

**1875-yil 3-yanvarda** Milliy majlisda ko‘pchilik ovoz bilan **Fransiya respublika deb e’lon qilindi.** Bu Fransiya tarixidagi uchinchi respublika edi.

**Uchinchi respublikaning Konstitutsiyasi quyidagi  
3 ta qonunlardan iborat edi:**




**‘Davlat hokimiyatlarini tashkil etish haqida’gi qonun** 1875-yil 25-fevralda kuchga kirdi. Bunga ko‘ra **qonun chiqarish hokimiyati deputatlar palatasi** va **senat** tomonidan amalga oshirilardi. Quyi palata umumiy saylov huquqi asosida 4 yil muddatga saylanishi lozim edi. Saylov huquqi ancha cheklangan edi. Ayollar ovoz bera olmasdi; bir yerdan yarim yildan kam yashaganlar ham ovoz berish huquqiga ega emas edi.

Deputatlar palatasi qonunlarni qabul qilish va budjetni hal qilish vakolatiga ega edi.

Hukumat Milliy majlis oldida javobgar edi. Agar unga ishonchsizlik bildirilsa, u darhol iste’foga chiqishi lozim edi. Kabinetning tarkibi tez-tez o‘zgarib turardi.

Senatga 300ta a’zo kirgan. Uning 75ta a’zosi deputatlar palatasi tomonidan umrbod muddatga tayinlanardi<sup>1</sup>, qolganlari departamentlar tomonidan saylanardi. **‘Senatni tashkil qilish haqida’gi 1875-yil 24-fevraldagi qonunga** ko‘ra, senat prezident, ministrlar ustidan oliy sud hokimiyatiga ega bo‘lib, davlat xavfsizligi haqidagi ishlarni hal qilishi mumkin edi.

Senat ham deputatlar palatasi singari qonun tashabbuskorlik huquqiga ega edi. U deputatlar palatasiga nisbatan qator imtiyozlarga ega edi. Bironta qonun loyihasi uning roziligisiz kuchga kirmas edi.




<sup>1</sup>Umrbod senator tayinlash tartibi 1884 yilda bekor qilinib, senatorlar 9 yil muddatga saylanadigan va ularning 1/3 qismi har uch yilda yangilanib turadigan bo‘ldi.

**1875-yil 16-iyulda “Davlat hokimiyati munosabatlari haqida”gi qonun** qabul qilindi. Bunda prezidentning vakolatlari batafsil ko‘rsatib berildi. Prezident ikkala palataning qo‘shma majlisida yashirin ovoz berish yo‘li bilan 7 yil muddatga saylanardi

Shunday qilib, Konstitutsiya aslida prezidentga konstitutsiyaviy monarxga xos bo‘lgan deyarli barcha huquqlarni bergan edi. Faqat uning hokimiyati meros bo‘lib o‘tmasdi, xolos.

Konstitutsiya Ministrlar kengashi tashkil qilinishini nazarda tutdi, lekin uning huquqiy holati batafsil ishlab chiqilmadi. Unda davlat boshqaruv organlariga bag‘ishlangan maxsus bo‘lim yo‘q edi. Qonunlarda ministrlar faoliyatiga taalluqli alohida normalar belgilandi. Masalan, unda hukumatning umumiy siyosati uchun ministrarning palatalar oldidagi birgalikdagi javobgarligi haqida, ministrarning ikkala palataga kirish huquqi haqida va boshqa me‘yorlar mavjud edi.



Konstitutsiyada fuqarolarning demokratik huquq va erkinliklari haqida hech narsa deyilmadi.

Konstitutsiyaviy qonunlar saylovlar tashkil qilish va o‘tkazish tartibini belgilovchi normalar belgilamadi. Maxsus qonunlar bilan erkaklar uchun 21 yoshdan umumiy saylov huquqi o‘rnatildi. Biroq ayollar, harbiy xizmatchilar, mustamlaka aholisining asosiy qismi, saylov okrugida 6 oydan kam yashagan shaxslar saylovlarda qatnashish huquqiga ega emas edilar. Natijada 40 million fransuzlardan faqat 12 millioni saylov huquqidan foydalanardi.

**Fransuz parlamentarizmining tadrijiy rivojlanishi.** Uchinchi respublika davlat tuzumining rivojlanishi hammadan avval prezident hokimiyatining birmuncha qisqarishida namoyon bo‘ldi.

80-yillardan (J.Grevidan) boshlab **prezident** o‘zining ancha muhim konstitutsiyaviy vakolatlaridan (palatalarni tarqatib yuborish, sessiyalarni

kechiktirish vaboshqa huquqlardan) amaliyotda foydalanmay qo'ydi. Prezident rasman ministrnlarni tayinlardi va vazifasidan bo'shatardi, lekin hukumatning parlament oldidagi javobgarligi haqiqatda Ministrlar kengashini prezident nazoratidan chiqargan edi.

1887-yilda deputatlar palatasi va prezident Grevi o'rtasidagi siyosiy janjal shunday sharoit yaratdiki, prezident qachon hukumat shakllantirishga qodir bo'lmasa, uning o'zi iste'foga chiqishi lozim bo'ldi. Kelajakda bunday nizolarning kelib chiqishining oldini olish maqsadida asosiy siyosiy partiyalarning unsiz roziligi bo'yicha prezidentlik postiga tashabbussiz va nufuzi past siyosiy arboblari (Deshanel, Demurg va boshqalar) qo'yila boshlandi. Prezidentning rasmiy konstitutsiyaviy vakolatlari inqiroz yoki favqulodda vaziyat holatlari uchun o'ziga xos siyosiy rezerv sifatida saqlanib qoldi.

Uchinchi respublikaning tadrijiy rivojlanishi fransuz **parlamenti** palatalarining faoliyatida ham o'z ifodasini topdi. Parlamentarizm va deputatlar erkinliklari tashqi ko'rinishdan o'sha vaqtda o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Biroq asta-sekin parlament ichidagi partiyaviy kurashning kuchayishi darajasiga qarab, Deputatlar palatasining ichki reglamenti muzokaralar erkinliklarini tobora cheklashni nazarda tutib bordi. Rais o'z xohishi bo'yicha majlislar o'tkazish kunini belgilardi, uni to'xtatib qo'ya olardi va hokazo.

Shunday qilib, hukumat hokimiyati parlamentga nisbatan amalda tobora mustaqil bo'la bordi. Ma'muriy apparatda tayinlanadigan yoki konkurs bo'yicha saylanadigan doimiy shtat mavjud edi. Uchinchi respublika davrida Yangi ministrliklar (masalan, mustamlakalar ministrliigi) tashkil qilindi, chinovniklar soni ko'paytirilib, 800 ming kishiga yetkazildi.

Uchinchi respublikaning davlat organlari tizimida **Davlat kengashi** o'ziga xos o'rin tutardi. Uning a'zolari Ministrlar kengashi roziligi bilan prezident tomonidan tayinlanardi. Davlat kengashi, garchi qonun chiqarish va ma'muriy ishlar bo'yicha maslahatchi muassasa bo'lsa ham, sezilarli darajada siyosiy nufuzga ega edi. U *muhim ma'muriy sud funksiyalarini amalga oshirardi, oliy davlat mansabdor shaxslari ustidan tushgan shikoyatlarni, quyi ma'muriy sudlar (departamentlardagi prefekturalar kengashlari) qarorlari ustidan apellatsion shikoyatlarni ko'rib hal qilardi.*

Uchinchi respublikada boshqaruvning byurokratik markazlashtirilishi **mahalliy organlarning** hukumat hokimiyatiga bo'ysunishining kuchayishida ham o'z ifodasini topdi. Departament ma'muriyati tepasida prezident tayinlaydigan, lekin amalda ichki ishlar ministri tomonidan



tanlab olinadigan va unga bo'ysunadigan *prefekt* turardi. Departamentlardagi saylanuvchi va sof mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan masalalar (maktablar, yo'llar qurish va hokazo masalalar) bilan shug'ullanuvchi *bosh kengashlaramalda* prefektga va u orqali markaziy hokimiyatga bog'liq edilar. Bosh kengashlar o'zlarining xususiy ijroiya organlariga ega bo'lmaganlar va qarorlar chiqarishda prefektning yordamiga murojaat qilishlari lozim edi. Okruglardagi *okrug kengashlari* va prefektlarga bo'ysunuvchi markaziy hokimiyat vakillari – *suprefektlar* o'rtasidagi munosabatlar ham yuqoridagiga o'xshash bo'lgan. Kantonlarda umuman mahalliy o'zini o'zi boshqaruv bo'lmagan, markaziy boshqaruvni esa maxsus chinovniklik xizmatlari (soliqlar yig'uvchilar, hakam sudya, notarius va boshqalar) amalga oshirardilar.

Mahalliy o'zini o'zi boshqaruvning eng quyi birligi kommunalar yoki jamoalar edi. Kommunaning munitsipal kengashi saylanardi. 1883-yildan munitsipal kengashlar o'zlariga boshliq – *mer* saylash huquqini oldilar. Biroq mer ham bir vaqtda hukumat vakili va mahalliy ijroiya hokimiyat boshlig'i sifatidagi ikki tomonlamalik mavqeyini saqlab qolgan edi. Markaziy ma'muriyat myerlarni vazifasidan bo'shatish va munitsipal kengashlarni tarqatib yuborish huquqidan tez-tez foydalanib turardi.

Uchinchi respublikaning hukmron doiralari, Parij Kommunasi dan cho'chib, Parij uchun, shuningdek yirik ishchilar markazlari – Lion va Marsel uchun munitsipal boshqaruvning maxsus tizimini o'rnatgan edilar. Poytaxt o'z myeriga ega bo'lish huquqidan mahrum etilgan edi. Parijda ijroiya hokimiyat politsiya prefekti va Sena departamenti prefekti qo'llarida to'plangan edi. Politsiya prefekti hukumat oldida nafaqat Parijda tartibni saqlab turish va politsiyachilik xizmatini o'tash uchun javob berardi, balki munitsipal budjetetni ishlab chiqishgacha bo'lgan munitsipalitet ishlariga aralashardi.

### ***Nazorat uchun savol va topshiriqlar***

1. XVIII asr oxiridagi buyuk fransuz inqilobi ingliz inqilobidan qaysi jihatlari bilan farq qildi va natijalari qanday bo'ldi?

2. Fransiyada yangi davrda shakllangan davlat tuzimining o'rta asrlardagi davlat tuzumidan ajratib turadigan asosiy belgilarini ko'rsatib bera olasizmi?

3. Ma'lumki, yangi davr Fransiya tarixida ko'plab konstitutsiya va konstitutsiyaviy hujjatlar ishlab chiqilganligi bilan tavsiflanadi.

*Ushbu hujjatlarning mazmun-mohiyati haqida qisqacha ma'lumot to'plang.*

4. Davlatchilik tarixining guvohlik berishicha, hozirgi zamon davlat tuzumining muhim demokratik prinsiplari aynan yangi davrda paydo bo'lgan.

*Fransiyaning yangi davr davlatchiligi misolida davlat tuzumining demokratik prinsiplariga izoh bering.*


## IV BOB. YANGI DAVRDA GERMANIYA


*Napoleon bosqini va “German millati Muqaddas Rim imperiyasi”ning qulashi. German davlatlarining “Reyn ittifoqi”. Vena kongressi va German ittifoqining tashkil topishi. German davlatlarining birinchi konstitutsiyalari. 1848-yilgi inqilob va uning german konstitutsiyashunosligi rivojlanishiga ta’siri. German imperiyasining 1849-yilgi Frankfurt Konstitutsiyasi. Prussiyaning 1850-yilgi konstitutsiyaviy xartiyasi. 1867-yilgi Avstriya-Vengriya ittifoqi. Prussiyaning gegemonlik uchun kurashi va Shimoliy-German ittifoqi. Germaniya imperiyasining 1871-yilgi Konstitutsiyasi. Kayzer Germaniyasining siyosiy rejimi.*

### 1-§. Napoleon bosqini va “German millati muqaddas Rim imperiyasi”ning qulashi

“German millatining Muqaddas Rim imperiyasi” faqat rasman yagona davlat hisoblanib, XVIII asrda uning tarkibiga suveren davlatlar hisoblangan imperatorning 7ta kurfyuristligidan tashqari 300ga yaqin katta-kichik davlatlar kirardi. Bu davlatlar rasman imperatorga qaram edilar, lekin amalda knyazlar, yepiskoplar, shaharlar kengashlari va boshqa ko‘pdan ko‘p feodal egaliklar tomonidan idora etilardi. Ularning ko‘pchiligi yeri va aholisi juda kam bo‘lgan davlatlar edi.

Davlat dehqonlari esa 1777-yilgi farmon bilan o‘z yer uchastkalariga merosiy egalik qilish huquqini oldilar. Prussiya boshqa barcha german davlatlari ichida birinchi bo‘lib 1781-yilda umumiy boshlang‘ich ta’limni joriy qildi va o‘z huquqini birxillashtirdi.





Ushbu bosqinchilik oqibatida 112ta mayda davlatlar tugatilib, bir-biriga qo‘shib yuborildi, bir qanchasi yirik monarxiyalar tarkibiga kiritildi. Bunda ko‘proq hududlarni bevosita Napoleonga qaram davlatlar: Baden, Bavariya, Vurtemberg, Saksoniya egallab olgan edi. 1805-yilda Fransiyaga qaram Berg gersogligi, 1807-yilda esa Vestfaliya qirolligi tashkil qilindi. Yangi davlatlarning chegaralari fransuz burjuaziyasining siyosiy, iqtisodiy va harbiy-strategik manfaatlariga muvofiq qilib belgilangan.

## **2-§. German davlatlarining “Reyn ittifoqi”**


1806-yilda Reyn ittifoqiga asos solinib, unga dastlab 16ta, keyin yana 5ta german davlati kirdi. Reyn ittifoqi rasman davlat suverenitetidan mahrum etilmagan monarxiyalarning ittifoqi sifatida vujudga keldi. Lekin ularning Napoleon bilan munosabatlari suverenitet-vassalitet munosabatlariga asoslanardi. Reyn ittifoqi Napoleonning protektorati ostida edi. Bu ittifoqqa kirgan davlatlar “Muqaddas Rim imperiyasi” tarkibidan chiqqanliklarini e’lon qildilar.

Bu davlatlarda dvoryanlar va ruhoniylar imtiyozlari bekor qilindi, cherkov yerlari tugatildi, moliya, ma’muriy sud ishlari fransuzlarnikiga o‘xshab isloh qilindi, ba’zi joylarda Napoleonning 1804-yilgi “Fuqarolik kodeksi” joriy qilindi. Nemis qishlog‘idagi munosabatlarning o‘zgartirishi eng muhim islohot edi: krepostnoy qaramlik bekor qilinib, senorlarga to‘lanadigan to‘lovlardan va o‘taladigan majburiyatlardan haq to‘lab qutilish uchun, shuningdek dehqonlarni mulkdorlarga aylantirish uchun birinchi qadam tashlandi.

1807-yilda Prussiya Fransiya bilan bo‘lgan urushda qaqshatqich mag‘lubiyatga uchraganidan keyin pruss dvoryanlari burjua xarakterida islohotlar o‘tkazishga qaror qildi. Bu islohotlar ichida eng muhimi 1807-yilgi farmon bilan dehqonlarning shaxsiy qaramligi tugatilishi va

yerlarning erkin tarzda olish-sotishning joriy qilinishi bo'ldi. Farmonda dvoryanlarga sanoat va savdo bilan shug'ullanish, shahar aholisiga va dehqonlarga esa yunkerlarning imeniellarini sotib olishga ruxsat etildi. Biroq farmonda dehqonlar zimmasidagi hamma majburiyatlar, shuningdek pomeshchikning sud qilish va ma'muriy hokimiyati daxlsiz saqlab qolindi. Vaziyat dehqonlar masalasida yangi islohotlar o'tkazishni talab qilardi. Shu sababli 1811-yilning 14-sentabrda **“Tartibga solish to'g'risida”** Farmon chiqarilib, bu farmonda dehqonlarning o'z zimmalaridagi majburiyatlardan va barshchinadan haq to'lab qutilishlari uchun pomeshchiklarga ular bilan bitim tuzish taklif qilindi. Lekin buning shartlari dehqonlar uchun haddan tashqari og'ir edi: dehqonlar pomeshchikka har yili to'laydigan to'lovlaridan yo 25 hissa ortiq haq to'lashlari, yoki o'z yer uchastkalarining uchdan biridan to yarmigacha pomeshchikka berishlari kerak edi. Shunday qilib, islohotlarning asl ma'nosi qishloqda kapitalizm taraqqiyotiga yo'l ochib berishdan iborat bo'ldi. Ularning natijasida yangi soliqlar joriy qilinib, bu qisman dvoryanlarga ham tatbiq qilinadigan bo'ldi. Shuningdek, cherkov yerlarini sekularizatsiya qilish (davlat mulkiga aylantirish) amalga oshirildi, tor doiradagi cheklovlar bekor qilindi.


Iqtisodiy islohotlar davlat apparatida ham o'zgarishlarga olib keldi. 1808-yilgi qonun bilan shaharlarda mahalliy o'zini o'zi boshqaradigan mahkamalar joriy qilindi. Shaharning barcha eng muhim ishlari – moliya, politsiya, maktab ta'limi, ijtimoiy xayr-ehson ishlari saylab qo'yiladigan mahalliy organlar qo'lga topshirildi. Saylov huquqi yo 150 taldan 200 talergacha daromad oladigan yoki mol-mulkka ega bo'lgan boy kishilargagina berildi.



Prussiyada byurokratik markazlashtirishni kuchaytirgan yangi tuzilish joriy qilindi: har bir viloyatga hukumat tomonidan tayinlanadigan ober-prezident boshliq qilib qo'yildi. Armiyada ham islohotlar o'tkazilib, armiya ichida tan jazolari bekor qilindi, 1814-yilda umumiy harbiy majburiyat joriy qilindi. Prussiyada harbiy akademiyaga asos solindi, kelib chiqishi dvoryanlardan bo'lmaganlarga ham ofitser bo'lib yetishishlariga yo'l ochib berildi.

### 3-§. Vena kongressi va German ittifoqining tashkil topishi

Fransiyaning mag'lubiyati eski German imperiyasining qaytadan tiklanishiga olib kelmadi. Uning o'rniga 1814-yilda ochilgan Vena Kongressi nemis davlatlaridan va Avstriya imperiyasiga qarashli yerlarning bir qismidan German ittifoqini tuzdi.



Kongress barcha nemis dinastiyalarini qaytadan tiklashga, inqilob va Napoleon urushlari natijalarini batamom yo'q qilishga jur'at etolmadi. Vena Kongressi g'arbiy german o'lkalarida fransuz burjua tartiblarining ta'sirini va Napoleon kodeksini ham yo'qota olmadi.

#### **Eslab qoling!**

German ittifoqiga kirgan davlatlar o'rtasida mustahkam iqtisodiy aloqalar, yagona qonunchilik, umumiy moliyaviy yoki diplomatik xizmatlar o'rnatilmagan edi.

Yangi davlat birlashmasida birgina Ittifoq seymi (Bundestag)dan boshqa marakaziy hokimiyat organlari yo'q edi. Frankfurt-Maynda joylashgan ushbu Ittifoq seymi nemis podsholari vakillarining kengashi hisoblanib, ittifoqdagi 38ta a'zoning hammasini birlashtirgan oliy organ

deb e'tirof etildi. Ittifoqda na umumiy diplomatiya vakilligi, na umumiy armiya bor edi (armiya tuzish to'g'risida keyinroq qaror qabul qilingan bo'lsada, ammo amalga oshmay qoldi). Seymning qarorlarini ittifoq a'zolari bo'lgan suveren podsholar tan olgan taqdirdagina bu qarorlar majburiy hisoblanar edi. German ittifoqi kuchsiz va ahamiyatsiz konfederatsiya edi.

Ittifoq ichida Avstriya ustunlik mavqeyini saqlab qolgandi. Uning vakili ittifoqning doimiy raisi edi, ittifoq majlislari ham keyinchalik, Frankfurt-Mayndagi Avstriya elchixonasi binosida o'tadigan bo'ldi. Avstriya hukumati va boshqa reaksiyon hukumatlar German ittifoqida jandarmlik vazifasini jon-jahdlari bilan bajarib, manarxiya, din va dvoryanlarning imtiyozlarini muhofaza qildilar.

German ittifoqida o'z ahamiyati jihatidan ikkinchi o'rinda turgan davlat Prussiya qirolligi edi. Avstriyadagi singari Prussiya qirolligida ham Napoleon haydalganidan keyin feodal-absolutistik reaksiya g'alaba qildi. Prussiya yerlari bir-biridan ajralgan bo'lib, ikki asosiy qismdan: eski pruss provinsiyalarini va Poznanni o'z ichiga olgan sharqiy qismdan va yangi provinsiyalar – Reyn va Vestfaliya provinsiyalarini o'z ichiga olgan g'arbiy qismdan iborat edi. Qirollikning ikkala qismi bir-biridan boshqa nemis podsholarining yerlari bilan ajralgan bo'lib, o'zining ichki tuzilishi jihatidan ham bir-biridan farq qilardi. Prussiya qirolligining sharqiy provinsiyalarida yunkerlar, siyosiy reaksiyaning asosiy tayanchi bo'lib qolavergan yirik pomeschik yer egaligi hukmronlik qilardi.

1807-yilgi islohotdan keyin shaxsan ozod qilingan, ammo siyosiy jihatdan huquqsiz va yersiz qolgan dehqonlarning barshchina o'tashi va obroklar to'lashi davom etaverdi.

Qishloqlarda yuqori politsiya hokimiyati va votchina yurisdiksiyasi yunkerlar qo'lida edi. Prussiyaga qo'shib yuborilgan polyak yerlari – Poznan va Sileziyada xalq ommasining ahvoli ayniqsa og'ir edi. Prussiya hukumati Poznan va Sileziyani majburiy suratda nemislashtirib bordi. Bu yerda Prussiya zemstvo huquqi joriy qilingan, ma'muriyatdagi yuqori lavozimlarga nemislar qo'yilgan, polyak tili maktablardan chiqarib yuborilmoqda edi.

Prussiya qirolligining g'arbiy yerlari – uzoq vaqt davomida fransuzlar idora qilib kelgan Reyn va Vestfaliya provinsiyalarida pomeschik yer egaligi sharqdagidek katta o'rin tutmas, dehqonlar esa krepostnoy qaramlikdan allaqachon ozod bo'lgan edi. Prussiya qirolligining bu g'arbiy yerlarida XVIII asrdagi fransuz inqilobi natijasida barpo etilgan burjua tartiblari – hammaning qonun oldida tengligi, sud

ishlarining ochiq olib borilishi va boshqalar turmushda mustahkam qaror topib qolgan edi; Prussiyaning sharqiy provinsiyalarida saqlanib qolgan pomeschiklar yurisdiksiyasi g'arbda tugab ketgan edi.

Prussiyaning ayrim yerlari o'rtasida xo'jalik jihatdan birlik yo'q edi. Monarxiyaning ikkala qismi o'rtasidagi diniy ayirma ham kattagina rol o'ynardi: sharqda protestant, g'arbda katolik mazhabi hukmron edi.

Napoleon ustidan g'alaba qozonilganidan keyin Prussiya qiroli Fridrix-Vilgelm III va'da qilingan vakillik tuzumi o'rniga, sakkizta provinsiyada bir-birlari bilan bog'lanmagan va faqat maslahatchi xarakterda bo'lgan toifa landtaglarini ta'sis etdi.

Shimoliy Germaniyadagi mayda davlatlarning ko'pchiligida, jumladan, Meklenburg, Oldenburg, Braunshveyg va Gessen-Kasselda 1815-yildan keyin eng ashaddiy feodal reaksiya g'alaba qildi.

Shimoldagi barcha mayda davlatlardagi dehqonlar qaytadan joriy qilingan feodal majburiyatlar va soliqlarning og'irligidan tinkasi quridi. Gessenning kurfyuristi Vilgelm taxtga qaytganidan keyin fransuzning hamma qonunlarini bekor qildi hamda o'z qo'shini ichida parik kiyish va kokil qo'yishni yana joriy qildi.


Angliya bilan shaxsiy uniyasi tiklangan Gannoverda va Saksoniyada 1815-yildan keyin eski toifa landtaglari yana tashkil qilindi. Faqat Turingiya gersogliklarida (Saksen-Veymar va Saksen-Meyningenda) yangi konstitutsiyaviy tartiblar joriy qilindi.

Janubiy Germaniyadagi to'rt davlatda: Bavariya, Vyurtenberg, Baden va Gessen-Darmshtadtda, fransuz inqilobining ta'siri va Napoleonning qonunlari mustahkam iz qoldirganligidan, dvoryan-toifa tartiblari to'la ravishda tiklanishi mumkin emas edi. Mahalliy burjuaziyaning talablariga muvofiq bu davlatlarda 1814-yilgi fransuz xartiyasiga o'xshash, lekin undan yanada ko'proq konservativligi bilan farq qilgan konstitutsiyalar joriy qilindi.


#### **4-§. German davlatlarining birinchi konstitutsiyalari**

1815-yilgi Muqaddas ittifoq akti qarorlariga amal qilib 1816-yildan 1847-yilgacha bo'lgan davr mobaynida ko'p german davlatlari o'zlarining birinchi konstitutsiyalarini qabul qildilar. Bu konstitutsiyalar asosan monarxlar tomonidan in'om qilingan xartiyalar shaklida edi.





Deyarli barcha konstitutsiyalarda davlat boshlig'i **monarx**, tabaqa-vakillik muassasalari **monarx tomonidan nazorat qilingan landtag** va **monarx oldida javobgar hukumatdan** iborat boshqaruv shakli belgilangan edi.



Landtagning yuqori palatasi sof feodal muassasa bo'lib, "buyuk gersoglik xonadoni" a'zolaridan, sobiq taxt vorislaridan, umumdavlat dvoryanlaridan, universitetlarning vakillaridan va gersog tomonidan tayinlangan shaxslardan iborat tarkibda edi. Quyi palata shahar va qishloq okruglari deputatlari orasidan, 25 yoshga to'lgan kishilardan, o'troqlik senzi hisobga olingan holda ikki bosqichli saylovlar asosida saylanardi. Quyi palata mustaqil vakolatlardan mahrum etilgandi.

Konstitutsiyaga binoan butun ijroya hokimiyat va qonunchilik hokimiyati ustidan nazorat qilish **Buyuk gersogga** tegishli edi. *Buyuk gersog landtagni chaqirishi, tarqatib yuborishi, uning majlislarini kechiktirishi unda ko'riladigan masalalar doirasini kengaytirishi yoki qisqartirishi mumkin edi* (50-modda).

*Buyuk gersog landtag palatalari bilan birga qonunchilik tashabbusi huquqiga, qonunlarni tasdiqlash (mutlaq veto huquqi) va e'lon qilish, shuningdek ularning bajarilishi uchun "farmoyishlar, reglamentlar va umumiy farmonlar"* (66-modda) chiqarish huquqiga ega bo'lgan.

Albatta, Konstitutsiyada gersogning qonunchilik sohasidagi ba'zi vakolatlari cheklangan edi. Bu cheklovlar asosan budjet va konstitutsiyani o'zgartirish tartibiga taalluqli bo'lgan. Konstitutsiyaga ko'ra soliqlar palatalarning roziligisiz o'rnatilishi va undirilishi mumkin emas edi. Shuningdek, konstitutsiyani to'ldiruvchi, tushuntiruvchi yoki o'zgartiruvchi barcha qonunlarni qabul qilish uchun har bir palatada ishtirok etuvchi a'zolarning 2/3 qismi ovozi talab qilingan.

**Hukumat** o'z faoliyati yuzasidan Konstitutsiya bo'yicha *faqat qirol (gersog) oldida javobgar edi*. U landtag oldida xarajatlar haqida hisobot berardi. Lekin landtag hukumatning qirol tomonidan tayinlanadigan va almashtiradigan a'zolarini iste'foga chiqara olmasdi.

Barcha german konstitutsiyalarida demokratik huquq va erkinliklarning ancha cheklangan ro'yhati berilgandi. Biroq bu huquq va erkinliklarning amalga oshirilishi uchun huquqiy kafolatlar yo'q edi. Shuningdek, Konstitutsiyalarda turli tushuntirishlar, izohlar berilib, ko'pgina huquq va erkinliklar amalda yo'qqa chiqarilardi.

Masalan, Baden Konstitutsiyasida e'lon qilingan badenliklarning teng huquqliligi haqidagi qoida ko'p sonli dvoryan imtiyozlarining saqlanib qolganligi bilan amalda qog'ozda qolib kyetgan edi. Jumladan, yuqori palatani tashkil qilishdagi maxsus tabaqaviy tartib yoki harbiy majburiyatlarning "sobiq taniqli xonadon a'zolariga" tarqatilmasligi haqidagi qoida badenliklarning teng huquqliligi haqidagi konstitutsiyaviy normaga zid edi.

Konstitutsiyada vijdon, matbuot, ko'chib yurish, kasb tanlash huquq va erkinlari, xususiy mulk va turar joy daxlsizligi, sudyalarning daxlsizligi va badenliklarning jinoiy ishlarni oddiy sudlarda ko'rishni talab qilish huquqi, o'zboshimchalik bilan qamoqqa olishlarning taqiqlanganligi e'lon qilingan edi.

## **5-§. 1848-yilgi inqilob va uning german konstitutsiyashunosligi rivojlanishiga ta'siri**

Ma'lumki, Germaniyada 1848-yil boshlarida inqilobiy vaziyat vujudga kelgan edi. To'qimachilar va fabrika ishchilarning qo'zg'olonlari, 1848-yilgi inqilob natijasida Fransiyada monarxiyaning ag'darib tashlanganligi, Italiyadagi inqilobiy voqealar, Germaniyaning o'zida yuz bergan iqtisodiy inqiroz, hosil kamligi va boshqalar inqilobni tezlashtirdi. Tez orada butun Germaniya bo'ylab inqilobiy miting va namoyishlar boshlanib ketdi.

Germaniyaning g'arbiy va janubiy-g'arbiy yerlarida liberal burjuaziyaning tez g'alaba qilganligi – feodalizm tizimini tugatishni talab qilgan dehqonlar ommasining hamjihatlik bilan harakat qilishi natijasi bo'ldi.

Dehqonlar pomeschchiklarning qasrlarini bosib oldilar, feodal daftarlari va boshqa hujjatlarni yondirib tashladilar, feodallarni esa o'z huquq va imtiyozlaridan voz kechishga majbur yetdilar.

Kyolnda ham 3-mart kuni juda katta miting bo'lib, u bundan ilgari hamma siyosiy chiqishlarning eng kattasi edi. Miting shahar kengashiga petitsiya topshirdi. Bu petitsiyada umumiy saylov huquqi, so'z va matbuot erkinligi, doimiy qo'shinni tugatish va xalqni yalpi qurollantirish, ittifoqlarga birlashish huquqi, "mehnatni himoya qilish va hamma uchun barcha insoniy ehtiyojlarni ta'minlash", bolalarni jamiyat hisobidan tarbiyalash talablari ilgari surilgan edi. Qo'shinlar ushbu namoyishni tarqatib yuborgan bo'lsa ham, ammo uning ahamiyati katta bo'ldi. Kyolndagi voqealar Prussiyada va Germaniyaning boshqa shaharlarida ham inqilobiy kurashning boshlanishiga sabab bo'ldi. Prussiya poytaxti Berlinda ham hal qiluvchi voqealar yuz berdi. Prussiya qiroli va uning hukumati liberal burjuaziyaning bir qancha talablarini qondirishga majbur bo'ldi. Maxsus farmonlar bilan dehqonlarga nisbatan pomeschchiklar sudi va pomeschchiklarning qaram dehqonlar ustidan politsiyachilik hokimiyati tugatildi, qasamxo'rlik sudlari siyosiy jinoyatlarga ham tatbiq qilinadigan bo'ldi, Prussiya Ta'sis majlisi – landtagga ikki pog'onali saylov o'tkazildi va boshqa shu singari demokratik tadbirlar amalga oshirildi.

Burjua-demokratik harakat Prussiya bilan bir qatorda boshqa ko'p german davlatlarini ham qamrab oldi. Qirol va knyazlar bu harakatni bostirish uchun vaqtdan yutish maqsadida Frankfurt-Maynda umumgerman Ta'sis majlisini chiqarishga rozilik bildirdilar. 1848-yil bahorida umumgerman parlamentiga saylov o'tkazildi. Unda liberal burjuaziya ko'p o'rin oldi. Hamma german davlatlaridan iborat bo'lgan bu Ta'sis majlisi yagona Germaniyaning yangi, hech bo'lmaganda federal konstitutsiyasini qabul qilishi lozim edi.

Inqilobning asosiy masalasi – Germaniyani birlashtirish masalasida parlamentda Germaniyani Avstriyasiz, "demokratik" imperator boshchilik qilgan Prussiya atrofida birlashtirishga intilgan kichik Germaniya partiyasi deb atalgan partiya bilan Germaniyani Avstriya saltanati panohida birlashtirmoqchi bo'lgan ulug' Germaniya partiyasi o'rtasida kurash qizib ketgan edi.

Janubiy Germaniya davlatlarining oz sonli mayda burjua guruhi Germaniyani Shveysariya singari federal respublikaga aylantirish talabini qo‘ydi. Parlamentning birinchi qadami Avstriya ersgersogi Ioganni Germaniyaning muvaqqat imperiya noibi lavozimiga saylashdan iborat bo‘ldi. Unga yordam berish uchun Muvaqqat markaziy hukumat tashkil etildi. Biroq german davlatlarida hokimiyat monarxlar qo‘lida qolaverdi.

Frankfurt parlamenti o‘z faoliyatining boshidanoq reaksiyon siyosat yurgiza boshladi. Bu siyosat milliy harakatlarga nisbatan munosabatda namoyon bo‘ldi. Parlamentning ko‘pchilik a‘zolari milliy masalada shovinizm yo‘liga kirib kyetdilar va bo‘lajak Germaniya tarkibida slavyanlar yashaydigan yerlarning hammasini qanday bo‘lmasin qo‘lda ushlab turishga intildilar. Frankfurt majlisida Poznan, Praga va Italiyadagi milliy ozodlik harakatlariga qarshi qon to‘kish harakatlari ma’qullandi va hokazo.

Majlisning dehqonlar masalasidagi siyosati ham antidemokratik siyosat edi. Majlis feodal qaramlikning barcha turlarini yo‘q qilish haqida deklarativ qaror chiqarish bilan cheklandi. Amalda feodal huquqlari saqlanib qoldi, agrar masalani hal etish, dehqonlarni feodal zulmidan ozod etish uchun hech bir ish qilinmadi.

Majlisning xalq ko‘zi oldida kundan kunga obro‘si tushib bordi. Bu hol aksilinqilobning hujumga o‘tishini yengillashtirdi. Natijada Germaniya inqilobining asosiy markazlari – Vena va Berlinda aksilinqilob g‘alaba qozondi. Ana shunday sharoitda 1848-yil kuzida Frankfurt parlamenti o‘zining asosiy vazifasini bajarishga, ya’ni nemis xalqi uzoq vaqtdan beri kutgan birlikni berishi lozim bo‘lgan imperiya konstitutsiyasini ishlab chiqishga kirishdi. Lekin uning tomonidan ishlab chiqilgan imperiya konstitutsiya loyihasi qog‘ozda qolib ketdi. Parijda iyun voqealaridan keyin Germaniya burjuaziyasi reaksiya tomoniga o‘tib kyetdi va ishchilarga qarata o‘q uza boshladi. Dehqonlar ham feodal tuzumning tugatilishi haqidagi va’dalardan so‘ng tinchib qoldilar.

Inqilob bostirildi. Frankfurt majlisi multiqlar tig‘lari bilan tarqatib yuborildi.

## **6 -§. Germaniya imperiyasining 1849-yilgi Frankfurt Konstitutsiyasi**

1849-yil 28-martda parlament imperiya konstitutsiyasini qabul qildi. Bu konstitutsiya burjuaziyaning siyosiy ustunlik rolini ta’minladi, bunda yunkerlarning katta ta’siri saqlanib qoldi. Konstitutsiya Germaniyaning barcha yerlarida hammasi bo‘lib 36ta german monarxini va eski davlat apparatini saqlab qolgandi. Imperiya konstitutsiyasi german xalqi hal

qilishi lozim bo'lgan inqilobiy vazifalarga javob bermas edi, chunki bu konstitutsiya Germaniyada markazlashgan demokratik respublika o'rniga german monarxialari federatsiyasini barpo qilgan monarxiyachilik tartibini o'rnatdi. Ammo konstitutsiya umumgerman markaziy hukumatini tuzish yo'li bilan mamlakatning siyosiy tarqoqligini ancha bo'shashtirdi.

Konstitutsiya bo'yicha Germaniya imperator boshchiligidagi german davlatlarining federatsiyasi hisoblandi. Imperator "imperiyaning va nemis huquqlarini qo'riqlash, imperiya konstitutsiyasiga og'ishmay va vijdonan amal qilish" haqida qasamyod qilishi lozim edi. Bunday qasamyodni faqat imperator emas, har bir imperiya amaldori ham qabul qilishi kerak edi.

Konstitutsiya federatsiya va uning subyektlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar haqidagi bo'limlar (1-2-bo'limlar) bilan boshlanadi. Bunda ularning vakolatlari g'oyat darajada aniqlik bilan ajratib ko'rsatiladi.

Konstitutsiya bo'yicha Germaniya federatsiyasi tarkibiga German ittifoqi davlatlari va hududlari kirishi lozim edi. Bunda federatsiya subyektlari o'z mustaqilliklarini saqlab qolishlari kerak edi, chunki bu imperiya konstitutsiyasi bilan cheklanmagandi. Har bir federatsiya subyekti o'z konstitutsiyasiga, boshqaruv tizimiga ega bo'lishi mumkin edi.

Konstitutsiyaning eng katta – II bo'limida umumfederal organlarning juda ko'p sonli vakolatlari ro'yxati berildi.

Imperiya hokimiyatlari oldiga, avvalo, yagona diplomatik xizmat tashkil qilish va yagona tashqi siyosat o'tkazish vazifasi qo'yildi. Konstitutsiya bo'yicha, bundan buyon faqat imperiya hokimiyati elchilar va konsullar tayinlashi, xalqaro shartnomalar tuzishi lozim edi.

Alohida nemis davlatlari boshqa nemis davlatlari bilan shartnomalar tuzish huquqiga ega edilar. Ular boshqa davlatlar bilan faqat cheklangan doiradagi masalalar yuzasidan, asosan xususiy huquq bo'yicha shartnomalar tuzishlari mumkin edi. Bunda "*imperiya manfaatlariga taalluqli bo'lgan*" har qanday shartnoma imperiyaning tasdig'idan o'tishi lozim edi (II bo'lim, 1-modda).

II bo'limning 2-3-moddalari faqat imperiyaning harbiy hokimiyatiga bag'ishlangan bo'lib unga ko'ra: *urush e'lon qilish va sulh tuzish huquqi, birlashgan Germaniyaning hamma qurolli kuchlarini boshqarish, harbiy sohaga doir qonunlar chiqarish, urush vaqtida imperiyaning oliy qo'mondonlarini tayinlash vakolatlari, shuningdek harbiy-dengiz floti saqlash huquqi imperiyaga tegishli bo'ldi.*

Konstitutsiyaning 4–6-moddalari yuqoridagi moddalar bilan mantiqan bog'liq bo'lib, umumimperiya strategik ahamiyatga ega bo'lgan dengiz, daryo, quruqlik va temiryo'llar aloqa vositalari ustidan oliy nazorat o'rnatilganligini nazarda tutdi.

Konstitutsiyaning 7–9-moddalari **yagona iqtisodiy makon** tashkil qilishning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamladi. Bu moddalarga binoan *bojxona, pochta-telegraf ishlariga taalluqli qonunlar chiqarish, tanga pullar zarb qilish ustidan nazoratni amalga oshirish, bank ishlarini tartibga solish va qog‘oz pullar chiqarish imperiya hokimiyatiga tegishli bo‘ldi*. Shunday qilib, imperiya hokimiyati butun Germaniya uchun yagona bojxona va moneta tizimi joriy qilishi, uzunlik va og‘irlik o‘lchov birliklarini o‘rnatishi lozim edi.

### **Eslab qoling!**

Konstitutsiya yagona fuqarolik joriy qilish bilan birga yagona huquqiy makon yaratish lozimligini ham nazarda tutdi va imperiyaning “fuqarolik, savdo, veksel va jinoyat huquqi” sohalari bo‘yicha umumiy qonunnomalarini chiqarishga oid huquq va majburiyatlarini mustahkamladi.

Imperiya qonunlari alohida davlatlarning qonunlaridan yuqori turadi (agar ularning bo‘ysunish ahamiyati aniq ko‘rsatilmagan bo‘lsa) degan prinsip o‘rnatildi.

Imperator o‘z hokimiyatini o‘zi tayinlagan ministrleri orqali amalga oshirishi lozim edi. Ministrlar reyxstag oldida javobgar edilar.

Konstitutsiyaga binoan, *imperiya boshlig‘i qonun tashabbuskorlik, xalq palatasini chaqirish va tarqatib yuborish, imperiya qonunlarini e‘lon qilish va ularning ijrosi yuzasidan farmoyishlar chiqarish huquqlariga ega edi*. Biroq imperiya qonunlarini chiqarish uchun ham, bekor qilish uchun ham, o‘zgartirish uchun ham, sharhlash uchun ham, albatta, reyxstagning qarori talab qilinardi (IV bo‘lim 5-modda 102-§). Konstitutsiyada reyxstagning kredit-moliya, budjetni qabul qilish, xarajatlarni belgilash sohasidagi faoliyatini imperiya boshlig‘i nazorat qilib turishi nazarda tutilgandi.



Konstitutsiya bo'yicha har qanday qonun reyxstagning ikkala palatasida qabul qilinishi va hukumat tomonidan tasdiqlanishi lozim edi. Agar hukumat qonun loyihasini tasdiqlamasa, ushbu qonun loyihasini reyxstag o'zining bevosita ketma-ket uchta sessiyasida hech qanday o'zgarishsiz qabul qilish yo'li bilan amalga kiritishi mumkin edi.


**Konstitutsiyaning VI bo'limi "German xalqining asosiy huquqlari"** va ularni amalga oshirish kafolatlariga bag'ishlandi. Konstitutsiyada barcha fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi, jumladan, ularning fuqarolik, jinoiy va protsessual huquqlarining tengligi, shaxs daxlsizligi, turar joy daxlsizligi, so'z, matbuot, yig'ilishlar o'tkazish, ittifoqlarga birlashish erkinligi, mulk daxlsizligi, qasamxo'rlik sudlarining joriy qilinishi, sudyalarning almashtirilmasligi, sud ishlari yuritishning yashirin va oshkoraligi kabi demokratik tamoyillar e'lon qilindi. Bunda barcha tabaqaviy imtiyozlarning tugatilganligi, isyon ko'tarishda ayblanib harbiy sud hukmi bo'yicha yoki dengiz huquqi asosida o'lim jazosi berishdan boshqa hollarda o'lim jazosi berishning bekor qilinganligi, senzuraning tugatilganligi, feodal xarakterdagi barcha to'lovlar va yerga oid majburiyatlar hamda mol-mulkni musodara qilishlar bekor qilinganligi va hokazolar hisobga olingan edi.

Konstitutsiya, garchi qog'ozda qolib ketgan bo'lsa ham ma'lum darajada progressiv ahamiyatga ega edi.

Tez orada Frankfurt milliy majlisi haydab yuborildi.

1849-yil may oyida Prussiya hukumatining tashabbusi bilan Berlinda bir nechta german davlati vakillarining konferensiyasi chaqirilib, unda Prussiya, Saksoniya va GannovYerdan iborat "Uch qirol ittifoqi" barpo qilindi. Keyin bu ittifoqqa boshqa maydaroq davlatlardan 27tasi qo'shildi va Prussiya boshchiligida Germaniya uniyasi vujudga keldi.

Biroq bu Prussiyaning Germaniyada gegemon bo'lishini istamagan Avstriya imperiyasining qarshiligiga uchradi va birlashish sodir bo'lmadi. Tez orada Germaniya uniyasi tarqatib yuborildi.




## 7-§. Prussiyaning 1850-yilgi konstitutsiyaviy xartiyasi

Parijda iyun qo'zg'olonining mag'lubiyatga uchrashi butun Yevropada aksilinqilob va reaksiya kuchlarini faollashtirib yubordi. Jumladan, Prussiyada faqat amaldorlardan va ofitserlardan iborat Yangi ministrlik tuzildi. Unga general Pful boshliq etib tayinlandi. Qirol va hukumat 1848-yil 9-noyabrda davlat to'ntarishi o'tkazdilar. Qirolning Ta'sis majlisini Berlindan kichik provinsiya shahri – Brandenburgga ko'chirish haqidagi farmoni e'lon qilindi.

1848-yil 5-dekabrda qirolning Ta'sis majlisini tarqatib yuborish haqidagi farmoni e'lon qilindi va konstitutsiya “taqdim” etildi. Bu konstitutsiya burjuaziyani to'la qoniqtirardi: u burjuaziyaga bir qancha siyosiy erkinliklar, xususan, so'z, majlislar, ittifoqlar erkinligi, palatalarga vakillar yuborish erkinligi bergan edi. Konstitutsiyaning 8-moddasida xususiy mulk daxlsiz deb e'lon qilindi. Shu bilan birga, konstitutsiya ochiqdan ochiq aksilinqilobiy konstitutsiya edi. Konstitutsiyada qirol hokimiyati “xudoning marhamati bilan” vujudga kelgan deb e'lon qilindi, qirolga mutlaq veto huquqi berildi, unga, shuningdek armiyaga bevosita xo'jayinlik qilishda va urush e'lon qilishda cheklanmagan huquq berilgan edi. Eski jinoiy qonunchilik, soliqlarning eski tizimi saqlab qolindi. Saylov huquqi cheklab qo'yildi.

1849-yil aprelda landtag tarqatib yuborildi. 30-mayda “uch sinfli saylov qonuni” deb atalgan qonun chiqarildi. Bu qonunga binoan Prussiyaning 30 yoshga yetgan barcha erkak fuqarolari to'laydigan soliqlari summasiga qarab uch sinfga bo'lindi.



Har bir sinf bir xil sonda vakillar saylashi lozim edi, saylangan ana shu vakillar keyin ochiq ovoz berish yo'li bilan landtag deputatlarini saylar edi. Yangi qonun mart kunlarida xalq qo'lga kiritgan umumiy saylov huquqini bekor qildi.

**1850-yil 31-yanvarda** – qirol Prussiyaga yangi konstitutsiya “taqdim etdi”. U **konstitutsiyaviy xartiya** deb nomlanib, unda ilgari



konstitutsiyalarga qaraganda ancha keng huquq va erkinliklar tantanali ravishda e'lon qilindi. Konstitutsiyaviy xartiyaning **“Prussiyaliklarning huquqlari haqida”gi II tituli** maxsus tarzda quyidagi me'yorlarni belgilaydi: *“Hamma prussiyaliklar qonun oldida tengdirlar. Tabaqaviy imtiyozlar yo‘q qilinadi. Jamoat mansablari qonunda ko‘rsatilgan shartlar asosida ularni egallashga layoqatli barchaga baravar”*(4-modda). *“Shaxsiy erkinlik kafolatlanadi. Qonun uni cheklashga yo‘l qo‘yadigan shart va shakllarni belgilaydi”* (5-modda). *“Turar-joy daxlsizdir. Unga kirish, tintuv o‘tkazish, yozuv va qog‘ozlarni xatlash faqat qonunda ko‘rsatilgan hollardagina amalga oshirilishi mumkin”*(6-modda). *“Hech kim qonuniy suddan tashqari boshqacha tarzda sud qilinmaydi. Favqullodda sudlar va komissiyalar tashkil qilish mumkin emas”* (7-modda). *“Jazo faqat qonun asosida tayinlanishi va berilishi mumkin”* (8-modda). *“Mulk daxlsizdir. Mulkni egasidan majburiy tarzda to‘la yoki qisman tortib olish faqat jamiyat manfaatlari yo‘lida oldindan haqini to‘lash sharti bilan, kechiktirib bo‘lmas hollarda esa hech bo‘lmaganda dastlabki haq to‘lab amalga oshirilishi mumkin”*(9-modda). *“O‘lim jazosini va mol-mulkni musodara qilishni qo‘llash mumkin emas”* (10-modda). *“Dinga sig‘inish, diniy jamiyatlar tashkil qilish... va uyda hamda jamoat joylarida diniy marosimlar o‘tkazish erkinligi daxlsizdir. Fuqarolik va fuqaroviy-siyosiy huquqlardan foydalanish diniy e’tiqodga bog‘liq emas. Biroq din erkinligidan foydalanish fuqarolik va fuqaroviy-siyosiy majburiyatlarga qarama-qarshi turishi mumkin emas”* (12-modda). *“Har bir prussiyalik o‘z fikrlarini so‘z, xat, nashriyot va rasm orqali erkin ifodalash huquqiga ega. Senzura joriy qilish mumkin emas, matbuot erkinligini har qanday ko‘rinishda boshqacha cheklash faqat qonun bilan o‘rnatilgan tartibda bo‘lishi mumkin”* (27-modda). *“So‘z, xat, matbuot va rasmlar orqali sodir etilgan jinoyatlar umumiy jinoyat qonunlari asosida jazolanadi”* (28-modda). *“Barcha prussiyaliklar hokimiyatlarning oldindan bergan ruxsatsiz yopiq binolarda tinch va qurolsiz yig‘ilishlar o‘tkazish huquqiga ega. Bu qaror qonun bo‘yicha oldindan hokimiyatlarning ruxsatini talab qiladigan ochiq joylarda o‘tkaziladigan yig‘ilishlarga taalluqli emas”* (29-modda). *“Barcha prussiyaliklar jinoiy qonunlar bilan ta‘qib qilinmaydigan maqsadlar uchun jamiyatlar tashkil qilish huquqiga egadirlar... Siyosiy ittifoqlar qonunda o‘rnatilgan tartibda cheklanishi va vaqtincha ta‘qiqlanishi mumkin”*(30-modda). *“Barcha prussiyaliklar harbiy majburiyatga egadirlar”* (24-modda). *“Qurolli kuchlardan faqat fuqarolik hokimiyatlarining talabi bo‘yicha qonunda o‘rnatilgan tartib va*

*shakllarda ichki tartibsizliklarni bostirish uchun yoki qonunni ijro etish uchun foydalanish mumkin*” (36-modda).

Yuqoridagi huquq va erkinliklar joriy qonunlarda batafsil ifoda etib berilishi kerak edi. Biroq bunday qonunlar ishlanmay qolib ketdi.

Bu kamchiliklar oxir-oqibat hukumat farmoyishlari bilan to'ldirildi. Masalan, 1863-yilgi farmoyishga binoan ma'muriy organlar gazeta va jurnallarni, “agar ularning yo'nalishi jamiyat tinchligi uchun xavfli bo'lsa”, ikki marta ogohlantirgandan so'ng ta'qiqlab qo'yish huquqini olgan.

Jumladan, hukumatning harbiy siyosatini qoralash ham gazeta va jurnallar uchun mumkin emas edi.

Xartiyada an'anaviy tarzda maktab ta'limini rivojlantirishga katta o'rin ajratildi. Unda “fan va o'qitish” erkinligi, umumiy boshlang'ich maktablarda bepul ta'lim berish e'lon qilindi. Bunda davlat ularni saqlab turish uchun zarur mablag'lar ajratilishini kafolatladi. Shuningdek, fuqarolarga xususiy maktablar ta'sis etish va ularga rahbarlik qilish huquqi ham taqdim qilindi. Bunda xususiy maktab tashkil qilmoqchi bo'lgan shaxs o'zining bunga “axloqiy, ilmiy va texnik qobiliyatini” isbotlab berishi talab qilinardi. Shular bilan bir qatorda Xartiya har qanday ko'rinishdagi erkin fikr yuritishlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida maktablar ustidan qattiq davlat nazoratini o'rnatgan edi. *Umumiy maktablarning o'qituvchilariga davlat mansabdor shaxslari ega bo'lgan huquq va majburiyatlar berildi.* (23-modda).

Prussiya hukumatining ta'lim sohasidagi siyosati samarali harakat qiluvchi byurokratik apparat tashkil qilish va savodli zamonaviy armiya tuzish maqsadini ko'zlagan edi. Oqibatda Prussiya armiyasining ustunligi 1866 yilda Avstriya bilan bo'lgan urush vaqtidayoq namoyon bo'ldi. Ko'pgina tarixchilarning e'tirof etishi bo'yicha ushbu urushda “savodxon prussiyalik askar” g'alaba qozongan edi.

1850 yilgi Konstitutsiyaviy xartiyada armiyaga alohida e'tibor qaratildi. **Armiyada oliy qo'mondonlik qirolga tegishli edi.** (46-modda). Konstitutsiyaning 34–39-moddalarida umumiy harbiy majburiyat, qirolning urush hollarida xalq lashkarlarini chaqirish, ichki tartibsizliklarni bostirish uchun armiyadan foydalanish, harbiy intizom haqida qarorlar chiqarish huquqi mustahkamlandi. Yuqoridagilar bilan bir qatorda 39-moddada ko'rsatilishicha, *xartiyaning asosiy huquq va erkinliklarga bag'ishlangan moddalari armiya ichida faqat “harbiy qonunlarga va harbiy intizom talablariga zid kelmagan hollardagina” qo'llanilishi mumkin edi.*


**Xartiyaning III–VI titullari davlat hokimiyatining oliy organlariga** bag‘ishlanib, ularning vakolatlarini, o‘zaro munosabatlarini belgilab berdi. Xartiyaga asosan *oliy hokimiyat organlari qirol, ministrlar, ikki palatali Parlament va Oliy suddan* iborat edi. Provinsiyalar, okruglar, uyezdlar va jamoalardagi mahalliy hokimiyatning vakillik muassasalari va ma‘muriyatlari faoliyati maxsus qonunlar bilan tartibga solingan.

**III titul “qirol haqida”** bo‘lib, uning 43-moddasida “*qirol shaxsi daxlsiz*” deb e‘lon qilindi. Bunda shu narsa e‘tiborga loyiqki, qirol shaxsi muqaddas deb ko‘rsatilmadi. Xartiyaga binoan *qirol armiyaga oliy qo‘mondonlik qilish* (46-modda), *armiya va davlat xizmatining boshqa sohalaridagi mansabdor shaxslarni tayinlash* (47-modda), *urush e‘lon qilish, sulh tuzish va chet mamlakatlar bilan shartnomalar tuzish* (48-modda), *parlament palatalarini chaqirish va ularning sessiyalarini yopib qo‘yish, ikkala palatani bir vaqtda yoki alohida-alohida holda tarqatib yuborish* (51-modda) va boshqa vakolatlarga ega edi. Qirol ijroiya hokimiyat boshlig‘i hisoblangan. *Ministrlar, hammadan avval ministr-prezident qirol tomonidan tayinlanib, uning oldida javob bergan. Qirol tomonidan chiqariladigan har qanday hukumat qarorlari tegishlicha shu qaror uchun mas‘ul bo‘lgan ministr imzosi bilan amalga kiritilishi lozim edi.* Demak, xartiya kontrassignatura qoidasini nazarda tutardi. *Qirol qonun chiqarish huquqiga ega bo‘lib, u bu hokimiyatni ikkala palata bilan birgalikda amalga oshirardi* (62-modda). *Qirol “palatalar yig‘ilmagan vaqtlarda, agar jamoat xavfsizligini saqlash yoki favqulodda falokatlarni bartaraf etish talab qilganda, davlat ministrleri javobgarligi ostida maxsus farmoyish chiqarish” huquqiga ega edi* (63-modda). *Qirol landtagning ikkala palatasi ustidan nazorat qilib turgan.* Agar qirol landtag palatalarini muddatidan ilgari tarqatib yuborsa, u holda qirol 60 kun ichida yangi landtagga saylovlar o‘tkazishni tayinlashi, 90 kun ichida palatalarning majlislarini chiqarishi lozim edi. Qirol parlament tomonidan chiqarilgan har qanday hujjatlarni bekor qilish yoki to‘xtatib qo‘yish, ya‘ni ularga mutlaq veto qo‘yish huquqiga ega edi. Har qanday qonunning qabul qilinishi uchun qirol va parlamentning ikkala palatasi roziligi talab qilinardi. Qirol, shuningdek parlament palatalari singari qonun tashabbuskorlik huquqiga ham ega edi.

**Xartiyaning “Ministrlar haqida”gi IV titulida** belgilanganidek davlat ministrleri landtagga hisobot bermas va unga bog‘liq emasdi. Ular o‘z faoliyatlari uchun birgalikda javob bermasdi. Ular faqat qirolga bo‘ysunardilar. Biroq ministrlar va ularning o‘rniga tayinlangan davlat xizmatchilari ikkala palataning majlislarida ishtirok etish huquqiga ega

edilar. Ministrlarning talabi bo'yicha palatalarning majlislari har qanday vaqtda chaqirilgan. Palatalar ministrarning shaxsan ishtirok etishini talab qilishi mumkin edi. Ministrlar, faqat ular palatalardan biriga a'zo bo'lsalargina, ovoz berish huquqidan foydalanganlar. Ministrlar konstitutsiyani buzganlikda, sotqinlikda yoki xiyonatda ayblanib javobgarlikka tortilishi mumkin edi. Ikkala palata a'zolari va barcha davlat amaldorlari konstitutsiyaga sodiqlik va qirolga bo'ysunish haqida qasamyod qilardilar (Qirol hech qanday qasamyod qilmasdi).

Konstitutsiyaviy xartiyaning **“Palatalar haqida”gi V tituli ikki palatali landtagning** tashkil qilinishi va uning huquqiy maqomiga bag'ishlandi.



Demak, deputatlar palatasining a'zolari maxsus saylangan uch kuriyali (razryadli) saylovchilar tomonidan saylanib, bunda birinchi kuriyada saylovchilar soni kam edi, lekin saylanadiganlarning soni bir xil edi. Natijada majlisga saylanadiganlarning aksariyat qismini amaldorlar tashkil etardi.

Umuman olganda, landtagning ahamiyati ancha past edi. Amalda u qirol huzuridagi qonun chiqarish bo'yicha maslahatchi organ bo'lib qolgan edi. Prussiyada hukumatning parlament oldidagi javobgarlik prinsipi o'rnatilmagan edi.

**Sud hokimiyati** qirol nomidan amalga oshirilardi. Sudyalar mustaqil hisoblanib, “qonundan tashqari boshqa hokimiyatga bo'ysunmagan”

(86-modda). Ular qirol tomonidan umrbod muddatga tayinlanardi. Sudyalari qirol nomidan qonunda oʻrnatilgan asoslarda mansablaridan vaqtincha chetlashtirilishi va almashtirilishi mumkin edi.

Prussiya Konstitutsiyaviy xartiyasi pruss bankirlari va yirik burjuaziyaning manfaatlariga xizmat qildi. U baʼzi tuzatishlar bilan 1919-yilgacha harakatda boʻldi.

## **8 -§. 1867-yilgi Avstriya-Vengriya ittifoqi**

XIX asning oʻrtalarida Avstriyaning obroʻsi german davlatlari ichida tushib keta boshladi. 1848-yilda Vengriya inqilobi boʻlib, oʻsha yili magʻlubiyatga uchradi. Biroq Avstriya hukumati baʼzi feodal tartiblarni bekor qilishga majbur boʻldi. Pomeschiklar har qanday burjua islohotlar oʻtkazilishiga qarshi oʻz imtiyozlarini saqlab qolish uchun qattiq kurashdi. 1848-yilgi inqilobdan keyin ham mutlaq monarxiya saqlanib qoldi. 1852-yilgi jinoyat qonuni ish tashlashlar uyushtirish va hokazolar uchun qattiq jazo choralarini oʻrnatgan edi.

1866-yilda Prussiya Avstriyaga qaqshatqich zarba berdi. Harbiy magʻlubiyat Avstriya imperiyasi boshidan kechirayotgan siyosiy inqirozni keskinlashtirib yubordi. Bundan tashqari, cheklar, vengerlar, slovenlar, polyaklar, xorvatlar, italiyaliklarning milliy ozodlik harakatlari ham Avstriya monarxiyasini zaiflashtirib yubordi.

Bunday sharoitda Avstriyaning dvoryanlari va burjuaziyasi pomeschiklar Vengriyasi bilan ittifoq tuzishga majbur boʻldi. Bu bilan ular venger pomeschiklariga baʼzi yon berishlar qilib, Vengriyadagi milliy ozodlik harakatini kuchsizlantirishga va Avstriya monarxiyasini saqlab qolishga harakat qildilar.

1867-yilda Avstriya parlamenti (reyxsrati) Avstriya-Vengriya monarxiyasini tashkil etish haqidagi bitimni tasdiqladi. 1867-yil iyunda bitim matnini Vengriya parlamenti ham maʼqulladi. Unga asosan Avstriya imperiyasi dualistik monarxiyaga – Avstriya-Vengriya monarxiyasiga aylantirildi.

“Ikki qismdan iborat” Avstriya-Vengriya monarxiyasi tepasida Avstriya imperatori turar edi, u ayni vaqtda Vengriya qiroli unvonini ham olgan edi. Vengriya oʻz parlamenti (seym) va alohida hukumatiga ega boʻlish huquqini oldi. Avstriya va Vengriya monarxiyasi uchta umumiy ministrlikka – *tashqi ishlar ministrligi, harbiy va dengiz ministrligi* hamda *moliya ministrligiga* ega edi. Avstriya va Vengriya oʻrtasida oʻrnatilgan savdo va bojxona munosabatlari har oʻn yilda qaytadan yangilanishi kerak edi.

Avstriya-Vengriya ittifoqining vujudga kelishi munosabati bilan Avstriyada liberal islohotlar o'tkazildi. 1867-yil dekabrda chiqarilgan Avstriya Konstitutsiyasi reyxsrat vakolatlarini kengaytirdi, umumiy harbiy majburiyatni, fuqarolik nikohini yuridik jihatdan tasdiqlashni va boshqalarni joriy yetdi. Biroq bunday liberal o'zgarishlarga qaramay, Avstriyaning siyosiy tuzumida feodalizm sarqitlari saqlanib qolgan edi. Masalan, Avstriya konstitutsiyasi imperatorga reyxsratning ayrim sessiyalari orasida favqulodda farmonlar chiqarish huquqini berardi. Avstriya reyxsratining yuqori palatasi – janoblar palatasi nasldan naslga meros bo'lib o'tadigan va butun umrga saylanadigan a'zoldan iborat bo'lib, ularning anchagina qismini yer aristokratiyasining vakillari tashkil qilar edi. Quyi palata – vakillar palatasi tarkibiga ayrim yerlarning vakillari kirar edi.

Vengriya seymi 1 palatali bo'lib, unda asosan dvoryanlar va yirik burjuaziya vakillari yig'ilgan.

### **Eslab qoling!**


Avstriya-Vengriya ittifoqida parlamentning o'рни juda past bo'lgan. Butun boshqaruv davlat amaldorlari tomonidan amalga oshirilgan. Bundan tashqari, imperator favqulodda farmonlar chiqarish huquqiga ega bo'lgan. U ijroiya hokimiyat tepasida turgan va davlat boshlig'i hisoblangan.

Avstriya-Vengriya monarxiyasi ba'zi o'zgartirishlar bilan Birinchi jahon urushining oxirigacha saqlanib qolgan edi.

## **9 -§. Prussiyaning gegemonlik uchun kurashi va Shimoliy-Germaniya ittifoqi**

Prussiyaning Germaniyada ustunlik qilish uchun kurashi sulolaviy urushlardan ancha ilgariyoq boshlangan edi. Prussiya uni nemis davlatlarining yagona iqtisodiy makonini tashkil qilishda o'z liderligini o'rnatish bilan boshladi. Buning natijasida Prussiya ma'lum darajada mahalliy separtizmni bartaraf etishga muvaffaq bo'ldi.

German ittifoqining tashkil qilinishi Germaniyaning iqtisodiy va bojxona bo'yicha birlashishi muammosini hal qilmadi. 1815-yilgi Ittifoq hujjatida "Ittifoq a'zolari Ittifoq seymining Frankfurt-Mayndagi birinchi majlisida savdo va transport aloqalari masalalarini muhokama qilish huquqini o'zlarida qoldiradilar" deyilgan bo'lishiga qaramay, Ittifoq seymining birinchi va keyingi majlislarida ham bu masala hal qilinmadi.



Shunday sharoitlarda Prussiya 1818-yil yangi bojxona haqidagi qonunni qabul qildi. Bunga ko‘ra Prussiyada birinchi marta umumiy bojxona tarifi joriy qilinib, Prussiya qirolligi doirasida hamma bojxona chegaralari bekor qilindi va uning hamma provinsiyalari bo‘yicha ko‘chib yurish erkinligi e‘lon qilindi. Bu qonun aslida pruss tovarlariga homiylik qiladigan umumiy bojxona tarifini o‘rnatgan edi.

1819-yilda bo‘lib o‘tgan german davlatlarining Vena konferensiyasidayoq Prussiya delegatlari Prussiya bojxona qonunini butun ittifoqqa tatbiq qilish tashabbusi bilan chiqqan edilar. Lekin Avstriya hukumati vakillari va uning izdoshlari bu taklifni “o‘zining suveren huquqlariga” xavf tug‘dirishini aytib inkor qildilar va yo‘qqa chiqardilar.

Shunga qaramay, Prussiya 1819-yildan 1833-yillargacha bo‘lgan davr mobaynida alohida nemis davlatlari bilan qator bojxona bitimlari tuzishga erishdi. Prussiya hukumati yagona bojxona chegarasi belgilash to‘g‘risida ayrim kichik davlatlar bilan shartnomalar tuzib, Prussiyaga qarashli yerlar va qo‘shni nemis davlatlari o‘rtasidagi bojxona g‘ovlarini

tugatish tadbirlarini ko‘ra boshladi. 1834-yilda tashkil qilingan German davlatlarining bojxona ittifoqi Prussiyaning nemis davlatlarini birlashtirish siyosatida o‘ziga xos natija bo‘ldi. Bu ittifoqqa German ittifoqining 20ta a‘zosi kirdi. Ittifoq a‘zolari tashqaridan keltiriladigan tovarlardan olinadigan poshlinalar va tarif stavkalarini bekor qilinishini shartlashib oldilar. Ushbu davlatlardagi aholi 23 million kishidan ortiq edi. Bojxona ittifoqida Prussiya rahbarlik rolini o‘ynadi, bu hol Germaniyada siyosiy gegemonlik uchun Prussiya bilan Avstriya o‘rtasidagi kurashning oqibatiga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Shimoliy dengizga tutashgan ayrim german davlatlarigina: Gannover, Ganzey shaharlari, Golshteyn, Oldenburg va Maklenburg Bojxona ittifoqiga kirmagan edilar.

Bojxona ittifoqining iqtisodiy muvaffaqiyatlari, shuningdek XIX asrning 30-yillarida Germaniyada boshlangan sanoat to‘ntarishi savdo va veksel huquqi normalarini birxillashtirishga shart-sharoitlar yaratdi. Bojxona ittifoqining Leypsigda bo‘lib o‘tgan 1847-yilgi navbatdagi konferensiyasida **Umumgerman veksel ustavi** qabul qilindi. Qonunga binoan ittifoqqa a‘zo davlatlarda birinchi marta butun pul-kredit muomalasining eng muhim qismi – veksel oborotini yagona tarzda tartibga solinishi belgilandi. Bu qonunning qabul qilinishi Prussiyaning huquqiy sohadagi mavqeyining ma‘lum darajada mustahkamlanishiga olib keldi. Veksel ustavi asosidapruss yuristlari keyinroq Veksel qonunining loyihasini ham tayyorlagan edilar.

Prussiyaning qonunchilik sohasidagi faolligi o‘shib boraverdi.

### 1860-yilda Umumgerman savdo qonunomasining qabul qilinishi natijasida

Mahalliy separatistik kayfiyatlarga zarba berildi.

Germaniyaning yagona iqtisodiy va huquqiy makonini yaratishda Prussiyaning yetakchi roli batamom mustahkamlandi.

Prussiya o‘sha yildayoq German ittifoqini isloh qilish, “Ittifoqning markaziy organida milliy vakillik tashkil qilish” haqidagi bayonot bilan chiqdi.

Pruss kansleri Bismark umumiy saylov huquqi joriy qilish va‘dasini ro‘kach qilishdan keng foydalana boshladi.

Biroq Prussiya yagona German davlati tuzish yo‘lidagi asosiy to‘siqni jang maydonida o‘z harbiy qudratidan foydalanib bartaraf etdi.



XIX asrning 60-yillarida Prussiyaning Germaniyani birlashtirish german davlatlarini bosib olishning, ularni pruss saltanatiga bo'ysundirishning universal usuli deb qarashi ochiqdan ochiq namoyon bo'ldi.

Shu tariqa qattiq kurash davomida eski German ittifoqi buzilib yo'q qilindi. Avstriya umumgerman ishlariga ta'sir ko'rsatish va ishtirok etishdan abadiy chetlashtirib qo'yildi. Bismark Prussiya boshchiligida yangi German ittifoqini tuzishga kirishdi.


1866-yil 4-avgustda Bismark Prussiya nomidan shimoliy nemis davlatlariga murojaat qilib, nemis davlatlari ittifoqi tuzishni taklif yetdi. O'n sakkiz nemis davlati va uch erkin shahar: Gamburg, Bremen va Lyubek-ittifoq shartnomasini imzoladilar va 1866-yil dekabrda bu davlatlar hamda shaharlarning vakillari Berlinda to'planib, german davlatlarining bo'lajak Ittifoqi konstitutsiyasining Prussiya loyihasini muhokama qilishga kirishdilar.

### **Eslab qoling!**

**1867-yilning boshida Konstitutsiya** qabul qilinib, Shimoliy-German ittifoqi tuzildi, bu ittifoqda Prussiya hukmronlik mavqeni egalladi.

Bavariya, Vurtemberg, Baden va Gessen-Darmshtadtning bir qismigina ittifoqqa kirmay qolgan edi, lekin ular ham Prussiya bilan harbiy ittifoqda bo'lib, iqtisodiy jihatdan u bilan yaqindan bog'langan edilar<sup>1</sup>.

Ittifoq Konstitutsiyasi Ittifoq prezidenti lavozimini Prussiya qiroliga topshirdi, qirol Ittifoq kanslerini tayinlash huquqiga ega bo'ldi. Ittifoqda harbiy qo'mondonlik Ittifoq Prezidenti, ya'ni Prussiya qiroli qo'lida edi.



<sup>1</sup> Tashkil topgan Shimoliy-German ittifoqida 30 mln.ga yaqin aholi bor edi, ittifoqqa kirmagan janubiy german davlatlarida esa 8 mln.ga yaqin kishi yashardi.

Shimoliy-German ittifoqiga iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotning turli bosqichlarida turgan nemis davlatlari kirgan edi. Konstitutsiyaga muvofiq Prussiya ular orasida alohida o‘rin tutar edi.

Bismark Shimoliy-German ittifoqi tashkil etilishi bilan Germaniyani birlashtirish ishi tugallandi deb hisoblamadi.

### **Bismarkning rejasi:**

1. *Bavariyaliklar va boshqa janubiy german davlatlari quroli yordami bilan Frantsiyaga qarshi g‘olibona urushda bu davlatlarni yagona Germaniya deb dabdabali nom bilan atalgan Prussiya bo‘yinturg‘iga tiqish.*

2. *Germaniyaning tarqoqligini ma‘lum darajada qo‘llab-quvvatlashga tayyor turgan va qo‘llab-quvvatlayotgan Fransiyadan o‘ch olish.*

Napoleon III har qanday yo‘llar bilan janubiy german davlatlarida Prussiyaga qarshi kayfiyatni avj oldirishga harakat qilar edi, chunki u yagona Germaniyaning tashkil topishiga sharqda xavfli qo‘shni vujudga kelishi deb qarar edi.

Germaniyani yuqoridan turib birlashtirish 1871-yilda Fransiya-Prussiya urushida Fransiya harbiy jihatdan tor-mor qilinganidan keyin tugallandi. 26 fevralda tuzilgan bitimga ko‘ra, Germaniya Fransiyaning sanoati taraqqiy qilgan va strategiya jihatdan muhim bo‘lgan ikki viloyatini: Elzas bilan Lotaringiyani bosib oldi. Fransiya 5 milliard frank kontributsiya to‘lashi va ana shu kontributsiya to‘lanib bo‘lguncha o‘z hududining kattagina qismida Germaniyaning okkupatsiyachi qo‘shinlarini ta‘minlab turishi lozim edi. Sulh shartnomasi Millat majlisi tomonidan ratifikatsiya qilinguncha nemislar o‘z qo‘shinlarini Parijda tutib turish huquqini oldilar.

Urush davrida Germaniyani birlashtirish nihoyasiga yetdi. Janubiy German davlatlari Baden, Bavariya, Vurtemberg, Gessen-Darmshadtning Shimoliy-German ittifoqi bilan urush yillari tuzgan “mudofaa shartnomalari” oqibatida ularning yangi ittifoqqa – 1871-yil qayta tuzilgan **Germaniya imperiyasiga** kirishlarida huquqiy asos bo‘lib qoldi.

### **Eslab qoling!**

**1871-yil 18-yanvarda Prussiya qiroli Versal saroyida Vilgelm I nomi bilan German imperatori deb e‘lon qilindi.**

Xullas, 1870 – 1871-yillarda Fransiyaning Prussiya bilan urushda mag‘lubiyatga uchraganligi va Germaniya imperiyasi e‘lon qilinganligi natijasida Germaniyani Prussiya gegemonligi ostida birlashtirish tugallandi.

## 10 -§. Germaniya imperiyasining 1871- yilgi Konstitutsiyasi

1871-yil 16-aprelda Ta‘sis reyxstagi umumgerman konstitutsiyasini qabul qildi.

Imperiya tarkibiga o‘zining qirol yoki knyaz sulolasi bilan 22ta monarxiya davlat kirdi.

1871-yilgi Konstitutsiyaga binoan **federal kengashga (Ittifoq kengashi – bundesrat va reyxstagga)** *armiya, flot, tashqi siyosat, bojxona va savdo, pochta, telegraf, temiryo‘llar, kemalar qatnovi va boshqa masalalar bo‘yicha qonunchilik vakolatlari berilgan edi.* Bunda Konstitutsiyada qayd etilganidek, *“armiya qonunlari o‘lkalarning qonunlari oldida ustunlikka ega”* edi (II bo‘lim 2-modda).

Konstitutsiyaga muvofiq *ittifoq miqiyosida qonun chiqarish huquqiga ega bo‘lgan umumimperiya hokimiyati imperator va imperiya kansleri qo‘lida to‘plangan edi. Imperiyaning oliy vakolatli muassasalari: ittifoq kengashi (bundesrat) bilan reyxstag edi.*

Imperiya konstitutsiyasi shunday tuzilgan ediki, unda yangidan birlashgan Germaniyada Prussiya gegemonligi mustahkamlangan edi. Germaniyaga faqat Prussiya qiroligina **imperator** bo‘lishi mumkin edi. U Konstitutsiya bo‘yicha juda katta vakolatlarga ega edi. Imperator *ijroiya hokimiyat boshlig‘i* hisoblanib, imperiyadagi *barcha asosiy mansabdor shaxslarni, avvalo, kanslerni tayinlardi.* Imperator imperiyadagi *hamma qurolli kuchlarga tanho o‘zi mutasaddilik qilar, o‘zi urush e‘lon qilar, sulh tuzar, xalqaro munosabatlarda imperiya nomidan ish ko‘rardi.* Imperator *o‘z ixtiyori bilan reyxstag va ittifoq kengashi sessiyalarini chaqirish, ochish, tarqatib yuborish yoki muxlatini cho‘zish huquqiga ega edi.* Shuningdek, *imperiya qonunlarini “ishlab chiqishva e‘lon qilish” va ularning ijro etilishini nazorat qilish huquqi* ham uning vakolatiga kirgan. Imperator o‘zining qator vakolatlarini: urush va tinchlik e‘lon qilish, shartnomalar tuzish, ittifoqda o‘zining majburiyatlarini bajarmagan davlatlarga nisbatan jazo berish va boshqa huquqlarini Ittifoq kengashining roziligi bilan amalga oshirardi.

Germaniya imperiyasida reyxstag oldida javobgar bo‘lgan ittifoq ministriligi yo‘q edi. Birdan-bir ittifoq ministri **imperiya kansleri** edi. *Uni imperator tayinlar va ishdan bo‘shatardi, u faqat imperator oldidagina*

*javobgar edi; kansler reyxstag oldida javobgar emas edi. Agar reyxstag imperiya kansleri siyosatidan norozi bo'lib qaror chiqarsa, kansler reyxstaging bu qarori bilan hisoblashishga majbur emas, iste'fo berish ham lozim emas edi. Kansler birdan bir ministr sifatida imperiyaning hamma ishlarini boshqarar edi. Imperiyaning ayrim idoralariga stats-sekretarlar rahbarlik qilardilar, ular imperiya kanslerining yordamchilari hisoblanardi.*

### **Eslab qoling!**

Imperiya kansleri o'z shaxsida imperiya hukumatini mujassam etgan. Bu mansab an'anaviy tarzda Prussiya vazir-prezidenti – Otto fon Bismarkka tegishli edi. U bu mansabni 1862-yildan 1890-yilgacha egallab turgan.

*Kansler nafaqat yagona imperiya ministri hisoblangan, balki bundesrat raisi ham edi. Agar kansler yuqori palatada bojxona tariflari haqidagi, to'g'ri soliqlar haqidagi, qonunlarning bajarilishini tartibga soluvchi ma'muriy qoidalarga taalluqli “mavjud qonunlarni va tartiblarni saqlab qolish uchun” so'zga chiqsa va bunday masalalar bo'yicha ovozlar teng bo'lib qolsa, uning ovozi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan (VI bo'lim 37-modda). Shuningdek, bundesratda harbiy masalalar bo'yicha kelishuvga erishilmay qolgan hollarda ham kanslarning ovozi asosiy hisoblangan. Bundan tashqari, agar imperiyaning umumiy xarajatlari tegishli soliqlar va to'lovlar bilan qoplanmay qolsa, u imperiya budjetini to'ldirish uchun imperiya davlatlariga badallar tayinlash huquqiga ega bo'lgan (XII bo'lim 70-modda).*

1871-yilgi Konstitutsiya **“javobgar hukumat”** prinsipini mustahkamlamadi. Ijroiya hokimiyatga Konstitutsiya bo'yicha amalda hech qanday mas'uliyat yuklatilmadi.

German imperatorining deyarli mutlaq hokimiyati faqat kanslarning kontrassignatura huquqi bilan tiyib turildi, xolos. Lekin harbiy buyruqlarni imzolashda, urush e'lon qilishda, sulh tuzishda, armiya va flotga qo'mondonlik qilish masalalarida imperator kanslarning kontrassignaturasi bilan bog'liq emas edi. *Kansler, shuningdek har yili ittifoq kengashi va reyxstagga xarajatlar haqida hisobotni taqdim qilishi lozim edi (XII bo'lim 72-modda). Lekin kansler faqat imperator tomonidan mansabidan olinishi va almashtirilishi mumkin edi.*

Imperator va kanslarning nazorat qilinmasligi Prussiya boshchiligidagi bundesratning muhim konstitutsiyaviy vakolatlariga tayangan. Konstitutsiyada imperator vakolatlarining juda kengligi tufayli hatto

qonunchilik jarayonida kayzerning vetosi haqidagi masala qo'yilmagan edi. Hukumat uchun bunga zarurat bo'lmagandi. Veto doimo itoatgo'y bundesratning alohida huquqi hisoblangan.

1871-yil Konstitutsiya hatto rasman bo'lsa ham, "xalq suvereniteti" prinsipini e'lon qilmadi. Konstitutsiya hukmron doiralarning monarxning davlat hokimiyati haqidagi konservativ tasavvurlari bilan to'la qarama-qarshiliklarni mujassam etdi. Unga binoan **imperator nomidan ham ijroiya hokimiyat, ham qonun chiqarish hokimiyati amalga oshirilgan, davlat mussasalari va mansabdor shaxslarning vakolatlari ham imperator nomidan belgilangan.**

**Reyxstag** – quyi palata konstitutsiyada ko'rsatilganidek, *umumiy saylov huquqi asosida va yashirin ovoz berish yo'li bilan 5 yil muhlatga saylanardi.* Lekin amalda saylov huquqi faqat nomigagina umumiy edi. Harbiy xizmatchilardan tashqari 25 yoshga to'lgan erkaklarga saylov huquqidan foydalanardi. Xotin-qizlar saylov huquqidan mahrum edilar. *Qonun chiqarish tashabbusi reyxstag qo'lida edi, lekin ittifoq kengashi va imperator reyxstag qarorlarini tasdiqlamaslikka huquqli bo'lgani uchun, reyxstag tashabbusiga putur etardi. Reyxstag imperator nazorati ostida edi. U bundesratga qaraganda ancha kam vakolatlardan foydalangan. Reyxstag tomonidan qabul qilingan birorta ham qonun bundesratning tasdig'isiz amalga kiritilmasdi (III bo'lim, 7-modda).*

Konstitutsiyani tuzishda deputatlarni taqdirlash haqidagi masala yuzasidan qizg'in tortishuvlar bo'ldi. Bunda O.Bismarkning nuqtayi nazari g'olib chiqdi. Unga ko'ra *reyxstag a'zolari o'z mehnatlari uchun "hech qanday maosh yoki haq" olmasliklari lozim edi (V bo'lim 32-modda).*

Rasman e'lon qilingan "umumiy saylov huquqi" ham amalda umumiy bo'lmagan, chunki ayni paytda yuqori yosh senzi (25 yosh) belgilanishi bilan birgalikda yordamdan foydalanuvchi mulksiz kambag'allar va ayollar saylov huquqidan mahrum etilgandilar, ularning sudda fuqarolik va siyosiy huquqlari ham cheklangandi, armiya va flotdaxizmatda turgan quyi darajadagi xizmatchilar ham saylov huquqiga ega emasdi va hokazo.

**Ittifoq kengashi** – *bundesrat yuqori palata hisoblangan. Bu palata saylanmasdan, balki hamma german monarxialari va erkin shaharlar vakillaridan iborat tuzilardi va ularning imperiyadagi salmog'ini o'zida aks ettirardi. Ittifoq kengashida 58ta o'rindan 17tasi Prussiyaga tegishli edi. Bu hol Prussiyaning kengashda qo'li baland kelishini ta'minlardi, chunki konstitutsiyaga kiritiladigan o'zgarishga faqat 14 ovoz qarshi chiqsa ham, kengashning konstitutsiyaga kiritgan o'zgarishi qabul*

qilinmas edi. *Bundesratga imperiya qonunlarini hayotga tatbiq etish uchun zarur bo'lgan ma'muriy buyruqlar va instruksiyalar chiqarish, imperator roziligi bilan reyxstagni tarqatib yuborish* (V bo'lim 23-modda), *o'lkalar o'rtasidagi nizolarni majburlash choralarini, jazolarni qo'llash yo'li bilan hal etish* (IV bo'lim 19-modda) vakolatlari taqdim etilgandi.

Ittifoq kengashining raisi imperiya kansleri edi. Odatda, Prussiya ministrlar kabinetining boshlig'i ham imperiya kanslerining o'zi bo'lardi.

German imperiyasining konstitutsiyaviy mexanizmi Prussiya rahbarligida murakkab ichki vatashqi siyosiy vazifalarni ancha samarali hal qilish uchun, asosan harbiy kuchlar yordami bilan tashkil qilindi. Konstitutsiyada nemislarning huquq va erkinliklariga bag'ishlangan hech qanday deklaratsiya ham, hech qanday bob ham yo'q edi. Shu bilan birga, Konstitutsiyaning eng katta **XI bo'limi "imperiyaning harbiy ishlari"**ga bag'ishlangandi. Ushbu bo'limda *har bir nemisning yetti yil davomida (umumiy qoida bo'yicha – 20 yoshdan 28 yoshgacha) umumiy harbiy majburiyati*(5, 7-moddalar), *butun imperiya bo'yicha zudlik bilan pruss harbiy qonunlarini joriy qilishva "imperatorga bo'ysunadigan, uning buyrug'iga so'zsiz amal qiladigan"* yagona german armiyasi tashkil qilish maqsadida *umumimperiya harbiy qonunini tayyorlash talabi* (64-modda), *imperatorning armiyadagi barcha oliy mansabdorlarni tayinlash, bo'shatish, almashtirish, armiyadan politsiya maqsadlarida foydalanish* (66-modda) va *ittifoqning har qanday hududida, agar nimadir "ijtimoiy xavfsizlikka tahdid qilsa", harbiy holat e'lon qilish huquqi* va boshqalar belgilandi.

Germaniyaning hukmron doiralari tuzilgan davlat tizimiga, birinchi navbatda, Prussiyaning harbiy kuchlariga suyanib, imperiyaning hamma qismlarini muntazam sur'atda prusslashtirib bordilar. Germaniyada militarizm ruhi hukmronlik qila boshladi. Byurokratik-amaldorlik hokimiyati zulmi va markazlashgan politsiya nazorati butun mamlakatda hukm surardi.

Germaniya imperiyasi politsiyachi-byurokratik yarim mustabid davlat edi.

## 11 -§. Kayzer Germaniyasining siyosiy rejimi

Bu vaqtda Germaniyaning siyosiy tuzumida **siyosiy partiyalar** muhim o'rin tutdi. Sharqiy Prussiya yirik yunkerlarining, Saksoniya, Brandenburg zamindorlarining manfaatini ifoda qiluvchi partiya – **konservatorlar partiyasi** edi.

Bismarkning yana bir tayanchi **milliy-liberal partiya** bo'lib, bu partiya 1867-yildayoq progressiv partiyadan ajralib chiqqan edi. Milliy-liberal partiya yirik sanoat burjuaziyasi manfaatlarini ko'zda tutib, mamlakatni qudratli industriyaga ega qilish va faol imperialistik mustamlaka siyosatini olib borish tarafdori edi. Bu partiya hukumatning militarizm va qurollarni tobora ko'paytirish siyosatini qo'llab-quvvatlab keldi.

“Progresschilar”ning qolgan-qutganlari 1884-yilda “erkin fikr qiluvchilar” degan nom olib, o'zlarini reyxstagda burjua-liberal oppozitsiyasi vakillari qilib ko'rsatishga harakat qildilar. Ular o'rta va mayda shahar burjuaziyasi, shuningdek ziyolilarning ba'zi qatlamlari manfaatlarini ifoda qilar edilar.

1870–1871-yillarda Germaniyada **katoliklar partiyasi** tuzilib, oradan bir oz vaqt o'tgach **katoliklar “markaziy” partiyasi** degan nom oldi, chunki bu partiyaning reyxstagdagi fraksiyasi markaziy o'rinda o'tirardi. Bu partiyaning ta'siri hammadan janubiy va janubiy-g'arbiy Germaniyada kuchli edi, chunki bu yerlarda prusslarga qarshi tendensiya kuchli edi, u yerlardagi aholining ko'pchiligi rim-katolik diniga e'tiqod qilardi, hukmron sinflar, ayniqsa, pomeschiklar mamlakatning birlashuvi natijasida o'zlarini kamsitilgan deb bilardilar. “Markaz” partiyasi Germaniyani pruslashtirish siyosatidan norozi bo'lgan turli ijtimoiy qatlamlarni birlashtirdi va ularni o'z orqasidan ergashtirib bordi. Bu turli ijtimoiy guruhlarini uyushtiruvchi asosiy kuch katoliklar cherkovi edi. Bu partiya janubiy va janubiy-g'arbiy Germaniyadagi mayda va o'rtacha davlatlarning dvoryanlariga suyanardi, sudxo'rlik kapitaliga demagoglik bilan qarshi chiqib, keng dehqon va kosib qatlamlarini ham, shuningdek qoloq ishchi katoliklarni ham o'z orqasidan ergashtirib bordi. Katoliklar partiyasi imperiya ichida ayrim nemis davlatlarining ilgarigi mustaqilligini tiklashni, katoliklar cherkovining davlat nazoratidan erkin va mustaqil bo'lishini, katoliklar maktabini rivojlantirish va mustahkamlashni talab qilib chiqdi.

**1872-yilda Prussiyada ma'muriy islohot** o'tkazildi, bu islohotga muvofiq qishloqda yunkerlarning merosxo'rlikka asoslangan votchina hokimiyati bekor qilingan edi.

Jamoalarda hokimiyat saylanuvchi oqsoqollar qo'liga o'tdi, undan yuqori ma'muriy organlarda: volostda amtman qo'liga, okrugda landrat qo'liga o'tdi, ular prus qiroli tomonidan mahalliy saylov majlislarining taqdim qilgan nomzodlaridan tayinlanardi, lekin ular hamisha deyarli mahalliy pomeschiklardan tayinlanardi. Amtmanlar saylanuvchi

oqsoqollar ishtirokida idora qilardilar, landratlar qoshida esa toifalarga qarab uch pog'onali saylov tizimi bilan saylangan okrug kengashlari tuzilgan edi. Shunday qilib davlat apparati yunkerlar sinfi manfaatlarini ko'zlab mustahkamlandi.

Imperiya hukumati mamlakatning iqtisodiy va siyosiy ahvolini mustahkamlash yuzasidan 1871–1873-yillarda yagona pul joriy qildi – oltin marka asosiy pul birligi qilib qabul qilingan edi.

Bismark imperiya tuzilgandan keyin siyosat bobidagi eng muhim masala – yangidan birlashtirilgan Germaniya imperiyasining tayanchi bo'lgan imperiya armiyasi tuzishdan iboratdir deb hisobladi.

1874-yilda xazinani boyitish va davlat apparatini mustahkamlash maqsadida pochta-telegraf ishlari markazlashtirilgan edi.

1876-yilda butun imperiyada yagona sud ishlari tizimini belgilab bergan qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlarga janubiy Germaniya davlatlari qattiq qarshilik ko'rsatdilar, binobarin, bu yerlarda yangi sud ishlari qonunining tatbiq etilishi faqat 1879-yilda boshlandi. Sud ishlaridagi islohotga muvofiq oliy sud instansiyasi imperiya sudi edi.

Bismark 1872-yilda shunday qonun chiqartirib olgan ediki, unga muvofiq ruhoniylar maktablar ustidan nazorat qilish huquqidan mahrum etildi, ruhoniylarning siyosiy targ'ibot-tashviqot yurgizishi taqiqlandi. O'sha, 1872-yilda pruss landtagi "may qonunlari" degan qonunlarni qabul qilgan edi: ruhoniylar tayyorlash va ularni vazifalarga tayinlash ishlarini davlat o'z qo'liga oldi, oliy ruhoniylar hokimiyati cheklab qo'yildi va hokazo. Nihoyat, nikoh, tug'ilish va o'lish ro'yxatlari to'g'risida qonun chiqarildi, bu qonun cherkov huquqlarini bekor qildi.

Lekin 1876-yilda antiklerikal qonunlar chiqarish to'xtatildi. Bismark o'sib borayotgan ishchilar harakatini prus yunkerlari hukmronligi uchun asosiy xavf deb bilib, politsiya davlat apparatining butun kuchini ishga soldi, ishchilar ustiga yopirilib hujum qildi.

Germaniyada 70-yillarga kelib g'oyaviy-siyosiy yo'li turlicha bo'lgan **ikki ishchi partiyasi – lassalchilar partiyasi va eyzenaxchilar partiyasi** bor edi. **1875-yili** Gota shahrida bo'lgan syezdda lassalchilar bilan eyzenaxchilar tashkiloti yagona bir partiya bo'lib birlashib, **Germaniya sotsialistik ishchi partiyasi** degan nomni qabul qildi.

**Kasaba ittifoqlarini** ham yagona ittifoq bo'lib birlashgan deb bo'lmas edi. 1868-yildayoq Maks Girsh va Frans Dunker tashabbusi bilan paydo bo'lgan va girshdunkercha ittifoqlar deb nom olgan kasaba ittifoqlari ko'proq yuqori malakaviy ishchilarni, asosan metallistlarni birlashtirgan edi.



Kasaba ittifoq rahbarlari korxonaga egalari bilan til biriktirib ishchilar sinfining ehtimol tutilgan ish tashlashlarini oldini olib turardilar.

1878-yil 19-oktabrda reyxstag sotsialistlarga qarshi ikki yarim yil muhlatga “favqulodda qonun” qabul qildi, soʻngra bu qonunning muhlati choʻzilib, u to 1890-yilgacha, yaʼni 12 yil davomida amal qilib turdi. Bu qonunga muvofiq hamma ishchi tashkilotlari, hatto sport toʻgaraklari ham tarqatib yuborildi, hamma ishchi gazetlari va jurnallari yopib qoʻyildi, kitoblar musodara qilindi. Berlin, Gamburg, Leypsig, Shtettin va boshqa yirik markazlarda “kichik qamal holati” joriy qilindi, sotsial-demokratlar partiyasi aʼzolarini ommaviy qamoqqa olishlar va surgun qilishlar boshlandi.

Bismark ishchilar harakatining oʻsib borishini toʻxtatishga urinib, taʼqib siyosati bilan bir qatorda yon berish siyosatini ham ishlatib koʻrdi. Reyxstag Bismarkning tashabbusi bilan 1883-yilda kasallik boʻyicha majburiy sugʻurta qonunini, 1884-yilda baxtsizlik hodisalaridan sugʻurta qonunini, 1889-yilda keksalik va nogironlik sugʻurtasi qonunini qabul qildi. Lekin bu qonunlarning hammasi ishchilar sinfini qanoatlantira olmasdi, chunki ijtimoiy sugʻurta fondlarining uchdan ikki hissasi ishchilarning oʻzlaridan chegirib qolingan mablagʻlar edi, faqat uchdan bir hissasigina korxonaga egalari mablagʻlari edi.

Tashqi va ichki siyosatdagi muvaffaqiyatsizliklarning oqibati shu boʻldiki, qatʼiyroq mustamlaka siyosati yurgizishni talab qilgan yirik burjuaziya ham Bismarkka qarshi chiqib boshladi. Siyosiy yoʻlni oʻzgartirish zarurligi toʻgʻrisida saroy ahllari ham tez-tez gapira boshladilar.

1890-yil martida Bismark isteʼfoga chiqishga majbur boʻldi. Bismark yiqitilgandan keyin sotsialistlarga qarshi qaratilgan “favqulodda qonun” ham barbod boʻldi.

Prus generali Kaprivi kansler qilib (1890–1894) tayinlandi. Yangi kansler Vilgelm IIning Bismarkka qarshi kurash vaqtida ishchilarga bergan koʻpdan koʻp demagogik vaʼdalaridan juda oz qisminigina bajardi. Fabrika-zavod sanoatida 13 yoshdan kichik bolalarni ishlatish taqiqlandi.

Germaniya dunyoni oʻz foydasiga tubdan qayta boʻlish haqidagi masalani birinchi marta XIX asrning 90-yillaridayoq oʻrtaga qoʻygan edi. Germaniyaning reaksiyon doiralari keng miqyosda vahshiylaracha bosqinchilik rejalarini targʻibot qiladigan Pangerman ittifoqi deb atalgan maxsus tashkilot tuzdilar. Bu ittifoq oʻzining ogʻzaki va matbuot orqali olib borgan targʻibotida nemislar ongini agressiv shovinizm bilan zaharladi.

I jahon urushi arafasida Vilgelm IIning agressiv militaristik siyosatining birdaniga faollashuvi mamlakat siyosiy rejimining yangidan o'zgarishiga, repressive qonunlarning joriy qilinishiga olib keldi. 1908-yilda xalq orasida "yoshlarga qarshi favqulodda qonun" deb atalgan ittifoqlar va yig'ilishlar haqidagi qonun qabul qilindi. Ushbu Qonun 18 yoshgacha bo'lgan shaxslarni siyosiy ittifoqlarda, urushlarga qarshi faoliyatda va boshqalarda ishtirok etishini taqiqladi. Dastlab Rossiyaga, so'ngra Fransiyaga qarshi urush e'lon qilingandan keyin Prussiya va boshqa o'lkalarda harbiyga majbur shaxslar va harbiy xizmatchilarga qarshi jinoyat huquqi normalari kuchaytirildi, qamal holati va harbiy-dala sudlari joriy qilindi. Harbiy dala sudlarining harakat doirasi ularga ko'p ishlarning: hokimiyatga qarshilik ko'rsatish, davlatga xiyonat va boshqa o'ta og'ir jinoyatlarning o'tkazilishi hisobiga kengaytirildi. Matbuot ustidan qattiq senzura o'rnatildi.

Armiyani qayta qurollantirish bilan birga yangi harbiy-dengiz floti qurish boshlandi. 1914-yilda "Hukumatning favqulodda vakolatlari haqida"gi qonun qabul qilindi. Bu qonun davlat organlariga xomashyo va yoqilg'i, ularni harbiy maqsadlar uchun foydalanilishi ustidan hukumatning harbiy zakazlarining taqsimlanishi va bajarilishi ustidan nazorat qilish huquqini berdi. Sanoatning turli tarmoqlarida nazorat funksiyalarini bajaruvchi harbiy qo'mitalar tuzildi va hokazo.

1916-yilda, feldmarshal Gindenburg (Germaniyaning bo'lg'usi prezidenti) Bosh shtab boshlig'i va general Lyudendorf uning o'rinbosari etib tayinlangandan keyin, fuqarolik va harbiy hokimiyatlarning raqobati kuchaygan sharoitlarda, monarx haqiqatan har qanday real vakolatlaridan mahrum bo'lgan bir paytda, Germaniyada amalda harbiy diktatura o'rnatilgan edi.

1916-yil qabul qilingan "Vatanga yordamchi xizmat haqida"gi qonunga asosan 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar uchun majburiy mehnat majburiyati joriy qilindi, hokimiyatga esa aholini har qanday ishga majburiy tartibda jalb qilish huquqi taqdim qilindi. Qonun shu tariqa Germaniyada mehnatni to'la militarizatsiya qilish jarayoniga yakun yasadi.

Urushda mag'lubiyatga uchragandan so'ng inqilobni oldini olish maqsadida Germaniyada "hokimiyatni parlamentlashtirish", reyxstag huquqlarini kengaytirish, bosh shtab ustidan reyxstag nazoratini o'rnatish va boshqa shu kabi tadbirlar o'tkazila boshlandi. Shu maqsadda 1918-yil oktabr oyining oxirida ikkita konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi. Biroq siyosiy rejimni yangidan liberallashtirish endilikda hukmron rejimni

saqlab qololmasdi. Mamlakatda inqilob boshlandi, Vilgelm II taxtdan voz kechishga majbur bo'ldi. Germaniya ham insoniyat tarixidagi eng yangi davrga qadam qo'ydi.

***Nazorat uchun savol va topshiriqlar:***

1. Ma'lumki, yangi davrda "German millatining Muqaddas Rim imperiyasi" qulaganidan so'ng german davlatlari o'rtasida turli ittifoqlar tuzilgan.

*Ushbu ittifoqlarning tuzilish sabablari va faoliyatiga izoh bering.*

2. 1850-yilda Prussiyaning Konstitutsiyaviy xartiyasi qabul qilingan.

*Ushbu konstitutsiyaviy hujjatga binoan mamlakat ijtimoiy va tuzumiga tavsif bering.*

3. Germaniya davlatchiligi tarixida yangi davr o'rta asrlarga oid davlat-huquq institutlarining tugatilishi va yangi, progressiv davlat-huquq institutlarining paydo bo'lishi hamda o'rnatilishi bilan tavsiflanadi.

*Yuqorida keltirilgan fikrni tarixiy-huquqiy faktlar va hujjatlarga tayanib asoslab bering.*

4. 1871-yilda Germaniya imperiyasining e'lon qilinganligi natijasida Germaniyani Prussiya gegemonligi ostida birlashtirish tugallandi.

*Germaniyaning birlashtirilishi mamlakat ijtimoiy-siyosiy tuzumida qanday o'zgarishlarga olib keldi?*

## V BOB.

### YANGI DAVRDA YAPONIYA DAVLATCHILIGINING RIVOJI

*Yaponiyaning XIX asr 60-yillarigacha davlat tuzumi. Meydzi inqilobi va imperator hokimiyatining qayta tiklanishi. XIX asrning 70 – 80-yillaridagi burjua islohotlari. Siyosiy tuzumni demokratlashtirish uchun kurash va siyosiy partiyalarning shakllanishi. Yaponiyaning 1889-yilgi Konstitutsiyasi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar: sud tizimi, prokuratura va advokatura. XIX asr oxirida Yaponiya davlat tuzumidagi o'zgarishlar.*


#### **1-§. Yaponiyaning XIX asr 60-yillarigacha davlat tuzumi**

Yaponiyada XIX asrning ikkinchi yarimidan asta-sekin burjua davlati shakllana boshladi. Mutlaq monarxiya burjua tipidagi dualistik monarxiyaga aylanib bordi. Bu jarayonlar Yaponiyada Angliya va Fransiyadagi singari g'olibona burjua inqilobi natijasida yuz bermadi.

Yaponiya XIX asrgacha feodal munosabatlar hukmron bo'lgan mamlakat edi. Bu yerda Yangi munosabatlarning rivojlanishiga hukmron sulolalarning "g'arb varvarlaridan o'zini o'zi ajratib qo'yish" siyosati ma'lum darajada to'sqinlik qildi. XV asrdan boshlab hunarmandchilik va savdoning o'sishi, shaharlarning rivoji mahalliy bozorlarning tashkil topishiga, vorislik huquqiga ega bo'lgan knyazlar – yirik feodal xonadon vakillari – daymyoning iqtisodiy va siyosiy mustaqilligining batamom o'rnatilishiga olib keldi. Daymyo egaliklari bir qancha provinsiyalarni yoki bir necha guruh provinsiyalarni qamrab olgandi. Ular yirik va qudratli xonadonlar vakillaridan biri syogun ("buyuk lashkarboshi") boshliq markaziy harbiy-oligarxiya<sup>1</sup> hukumatini faqat nomigagina tan olardilar. O'rta asrlar tarixidan bilamizki, yapon imperatorini haqiqatda hokimiyatdan chetlashtirgan va unda faqat diniy marosimlarga oid funksiyalarnigina qoldirgan birinchi syogunat Yaponiyada XII asrdayoq o'rnatilgan edi.

Yaponiyada harbiy kuchlar yordamida davlat hokimiyatining bir qadar markazlashtirishga uchinchi syogunat davrida (XVII-XIX asrlar), faqat Tokugava sulolasidan bo'lgan syogunlar muvaffaq bo'ldi. Aynan o'sha vaqtda yapon jamiyatining tabaqaviy bo'linishi rasmiylashdi. Jamiyatning "**si-no-ko-syo**": *samuraylar, dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlarga bo'linishi qonun va syogun hokimiyati tomonidan mustahkamlandi.* Samuraylar, ya'ni dvoryanlar tabaqasi bir xil emas edi. Feodal knyazlarning yuqori tabaqasi quyidagicha ikki turkumga bo'lingan:

<sup>1</sup> Harbiy-oligarxiya – hokimiyat bir to'lda qudratli kishilar, aristokratlar, asosan harbiylar qo'lida bo'lgan tuzum.



Imperator huzuridagi **saroy amaldorlari (kuge)** ham samuraylar tabaqasining yuqori qatlamiga mansub edi. Ular syogun ma'muriyatidan "guruch ulushlari"ni olib, unga to'liq bog'liq edilar. Syogun yoki biron bir daymyo armiyasi tarkibiga kiruvchi harbiy xizmatchi samuraylarning asosiy qismi ham "guruch ulushlari" hisobiga yashardi.

Samuraylar quyi darajadagi uchta tabaqalarga qarama-qarshi turardilar. Faqat ularga ma'muriy lavozimlarni, davlat va harbiy xizmatlarni egallash huquqi berilgan edi. Harbiy xizmat faqat samuraylarning mashg'uloti bo'lgan.

XVIII asrda hunarmandchilik ishlab chiqarishining, xonaki manufaktura sanoatining rivojlanish darajasiga qarab feodallar tabaqasining eng quyida turuvchi **savdogarlar** tabora muhim rol o'ynay boshladi. Tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi o'sib borayotgan savdo-sudxo'rlik kapitaliga tobora ko'proq qaram bo'lib qolgan samuraylar tabaqasining yemirilishiga olib keldi. Juda katta Mitsui savdo uyi XVII asrdan syogunning moliyaviy agenti, keyin esa imperatorning bankiri bo'lib qoldi.

Daymyoning kambag'allashuvi natijasida samuraylar o'zlarining homiylarini, shu bilan birga "guruch ulushlari"ni yo'qotdilar va asta-sekin hukmron rejimdan norozilar armiyasini to'ldirib bordilar. Feodallarning erkinliklarini buzgan syogundan norozilik daymyoning ko'pchiligida ham vujudga keldi. Tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi bilan yapon dehqonlarining tabaqalashuv jarayoni chuqurlashdi. Eng kambag'al dehqonlarga nisbatan juda og'ir ijara to'lovlari, soliqlar, ochlik, ma'muriyatning o'zboshimchaliklari, sudxo'rlarning talonchiligi avjiga

chiqqandi. Bular kambag'al dehqonlarni "guruch isyonlari" deb nomlangan va tobora xavfli tus olayotgan xalq isyonlarining asosiy kuchiga aylantirdi.

## **2-§. Meydzi inqilobi va imperator hokimiyatining qayta tiklanishi**

1868-yilda Yaponiya tarixida juda muhim tub burilish bosqichi boshlandi. Shu yilda bo'lib o'tgan voqea "Meydzining<sup>1</sup> qayta tiklanishi", yoki "Meydzi-isin" deb nomlandi. Ularning dastlabki siyosiy natijasi syogunning ag'darilishi va mutlaq monarxiya shaklidagi yapon imperatori hokimiyatining qayta tiklanishi bo'ldi. Bu voqealar to'g'ridan to'g'ri ma'nodagi burjua inqilobiga o'sib o'tmadi. Yaponiyada bu vaqtda burjua inqilobi maqsadlarini himoya qilishga, jumladan, feodalizmni, mutlaq hokimiyatchilik rejimini va boshqalarni tugatishga qodir bo'lgan burjuaziya ham, boshqa siyosiy kuchlar ham yo'q edi.

### **Eslab qoling!**

"Meydzining qayta tiklanishi" o'z mohiyatiga ko'ra burjua inqilobining dastlabki bosqichi talablariga mos keladi. Bu talablar Yaponiyaga g'arb kapitalining kirib kelishi ta'siri ostida kuchaygan feodal millatchilikning ko'rinishlaridan biri bo'lib qolgandi.

1865-yilda Angliya va keyin AQSH "Yaponiyani ochishga" va uni o'zlarining uzoq sharqdagi mustamlakachilik siyosatlarida oldingi punktga aylantirishga intilib, "kanonerka<sup>2</sup> siyosati" yordamida syogunni tengsizlik shartlaridagi savdo shartnomalarini ratifikatsiya qildirishga yerishdilar. Bu shartnomalarga k'ora "quyosh botuvchi mamlakat" savdo munosabatlarida yarim mustamlaka Xitoyga tenglashtirilgan edi.

Yaponiyaning o'z mustaqilligini yo'qotish xavfi milliy harakatni tezlashtiruvchi turtki bo'ldi. Bu harakat hukmron doiralar, samuraylar – "dvoryan inqilobchilar"ning "mamlakatni tiklash va birlashtirish", uning mustaqil va erkin yashashini ta'minlay oladigan kuchli markazlashgan davlat tashkil qilish zarurligini tushunib yetishi darajasiga qarab rivojlanib bordi. Mamlakat birligiga va kuchli markazlashgan davlat barpo qilishga erishishning yagona yo'li – burjua xarakteridagi islohotlar o'tkazish edi.

Yaponiyada XIX asrning 60-yillari oxirida syogun va imperator tarafdorlari o'rtasida boshlangan kurash islohotlar o'tkazish kerakmi yoki

<sup>1</sup> Harbiy-oligarxiya – hokimiyat bir to'lda qudratli kishilar, aristokratlar, asosan harbiylar qo'lida bo'lgan tuzum.

<sup>2</sup> Kanonerka – bir necha o'nta kalibrli to'p bilan qurollangan kichik harbiy kema.

yo‘qmi degan masala bilan emas, bu islohotlarni kim o‘tkazadi degan masala bilan bog‘liq edi. Syogun hokimiyatini yo‘q qilish va imperator hokimiyatini tiklash shiorlari islohotchi kuchlarni birlashtiruvchi umumiy g‘oyaviy platforma bo‘lib qoladi. Bu shiorlar an‘anaviy diniy asoslarga tayandi. Bunda bakufuga qarshi diniy mafkura muhim o‘rin tutdi: buddizm – syogunning dini imperatorni ilohiylashtiruvchi yaponlarning qadimiy dini – sintoga qarama-qarshi qo‘yildi.

Samuraylarning uzoqni ko‘ra bilgan doiralari yaponlarni tashqi xavfga qarshi birlashtira oladigan yagona tayanch – bu imperator taxti, imperator shaxsi ekanligini tushunib yetgandilar. Yaponiyada aynan shu vaqtda “tennoizm”<sup>1</sup> vujudga kelganligi ham bejiz emas edi.

Tennoizmning joriy qilinishi yaponlarning din erkinligi an‘analarini to‘g‘ridan to‘g‘ri buzishni anglatardi, chunki yaponlar, ma‘lumki, turli dinlarning xudolariga sig‘inardilar.

Hukmron doiralar tennoizmdan xalq ommasini mafkuraviy bo‘ysundirish quroli sifatida foydalandilar. Tennoizm nafaqat Yaponiyaning milliy vazifalarini hal qilishga, balki Yaponiyaning keyingi agressiv tashqi siyosatiga ham xizmat qildi.

Yaponiyada 1868-yilgi davlat to‘ntarishi tinch yo‘l bilan, qon to‘kilmasdan amalga oshirildi. “Guruch isyonlari” deb nom olgan dehqonlarning chiqishlari 1866-yildayoq tinchib qolgan edi. Xalqning 1867-1868-yillardagi norozilik chiqishlari Yaponiya uchun an‘anaviy xarakterdagi diniy marosimlarga oid namoyishlar va turli raqs o‘yinlari edi. Bunday chiqishlar ko‘pincha hukmron doiralar tomonidan go‘yoki “ikkita xalq noroziligini chiqarish” uchun sahnalashtirildi.

Oxirgi syogun Keyki yakka hokimlik “hozirgi yuzaga kelgan vaziyatda zaruriy shart” deb ixtiyoriy ravishda taxtdan voz kechdi. Tarixchilar ta‘riflaganidek, “bir lahzali fuqarolar urushi” alanga olmay juda tez bostirildi. Bu urush faqat syogunning imperatorga bo‘ysunishdan bosh tortganligi munosabati bilan samuraylarning qisqa vaqt to‘qnashuvidan iborat bo‘lgan edi. Imperatorni mamlakat ichkarisida ham, tashqarisida ham siyosiy va harbiy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydiganlarning soni kundan kunga ko‘payib bordi. Masalan, janubiy-g‘arbiy knyazliklarning deyarli barcha mustaqil daymyolari o‘zlarining o‘sha vaqtdagi zamonaviy qurol-yarog‘lari va qo‘shinlari bilan imperator tomonida turib kurashdilar. Angliya va AQSH bilan ham ochiqdan ochiq harbiy to‘qnashuv bo‘lmadi. Yapon hukmron doiralari tez orada g‘arbning to‘p-zambaraklari ostida “varvarlarni haydash” uchun kurashdan voz

---


<sup>1</sup> Tennoizm – “tenno” – osmon o‘g‘li so‘zidan olingan bo‘lib, yapon imperatorining qadimiy nomi.

kechdilar. Yaponiyada siyosiy barqarorlikning kelib chiqishidan g'arb mamlakatlari ham manfaatdor emas edilar. Chunki ular Xitoydagi singari xalq qo'zg'olonlari keltirib chiqargan ofatlar va vayronagarchiliklarning takrorlanishini hech istamasdilar. Shu sababli ular tez orada ilgari syogun tomonidan olgan tayanchni imperator tomonidan ham hosil qilishga muvaffaq bo'ldilar. Yaponiyadagi islohotlar britan missiyasining bevosita ishtirokida o'tkazilganligi ham tasodifiy emas edi.

Shunday qilib, Yaponiyaning hukmron doiralari ushbu o'ziga xos "yuqoridan turib amalga oshirilgan inqilob"da, ya'ni islohotlar o'tkazish davomida ikkita vazifani, birinchidan, mamlakat suverenitetini himoya qilishdan iborat umummilliy vazifani va, ikkinchidan, xalq harakatlarini inqilobiy kurashlardan islohotlar yo'liga burishga qaratilgan ijtimoiy vazifani hal qildilar.

### 3-§. XIX asrning 70-80 yillaridagi burjua islohotlari

Meydzi liderlari "boy mamlakat va kuchli armiya barpo qilish" shiori bilan chiqqan edilar. Shu maqsadda mamlakatda turli sohalarda islohotlar o'tkazildi.



#### Eslab qoling!

##### **Islohotlarning asosiy maqsadi:**

Yaponiyani zamonaviy davlatga aylantirish bo'lib, hukumat oldidagi asosiy vazifa iqtisodiy va harbiy mavqeyini mustahkamlash.

Yaponiya yangi hukumati oldida zudlik bilan mamlakat iqtisodiy va harbiy mavqeyini mustahkamlash vazifasi turardi. Bu siyosatni amalga oshirish yo'lidagi muhim qadam 1872–1873-yillaridagi **agrar islohot**



bo'ldi. Islohot muhim ijtimoiy oqibatlar keltirib chiqardi. Islohot o'sha vaqtda vujudga kelgan yangicha yer munosabatlarini tartibga soldi, yerga nisbatan feodal huquqlarni tugatdi. Yer begonalashtiriladigan kapitalistik mulkka aylandi. Undan foydalanganlik uchun davlat xazinasiga yagona yer solig'i olinadigan bo'ldi.

Agar yerlarni merosiy tartibda ushlab turuvchi dehqonlar ularni mulk sifatida olgan bo'lsalar, ammo ijarachi dehqonlar yerga nisbatan hech qanday mulk huquqini olmadilar. Garovga qo'yilgan yerga nisbatan mulk huquqi yer kimga garovga berilgan bo'lsa, o'shanga o'tdi. Dehqonlardan jamoa yerlari – yaylovlar, o'tloqlar, o'rmonlar, bo'sh yotgan yerlar ham olib qo'yildi. Islohot, shu tariqa, yer ijarasining tutqunlik shartlarini saqlanib qolishiga, dehqonlarning yanada yersizlanishiga, “yangi pomeschik” yer egaliklarining kengayishiga ko'maklashdi. “Yangi pomeschiklar” islohot bo'yicha davlat, imperator mulki deb e'lon qilingan jamoa yerlarining katta qismini sotib olgan yangi yer egalari edilar.

Knyazlarga dastlab yerdan olinadigan yillik yalpi daromadning 10 foiziga teng yuqori nafaqa o'rnatildi. So'ngra bu nafaqa kapitalga aylantirildi va knyazlar yer uchun pul kompensatsiyasini (badal) oldilar. Bu kompensatsiya to'lovlari hukumatning foizli obligatsiyalari shaklida berildi. Natijada yapon aslzodalari XIX asrning 80-yillarida bunday obligatsiyalar yordami bilan bank kapitalining katta ulushi egalari bo'lib oldilar. Bu oqibatda ularning savdo-moliya va sanoat burjuaziyasining yuqori darajasiga o'sib o'tishiga ko'maklashdi.

Ilgarigi uyezd knyazliklari bevosita markaziy hokimiyatga bo'ysunadigan prefekturalar qilib qayta tashkil etildi. Knyazlar mahalliy joylarda yerga nisbatan feodal huquqlari bilan birga siyosiy hokimiyatdan ham mahrum etildi. Bunga 1871-yilgi **ma'muriy islohot** ham ko'maklashdi. Ushbu islohotga binoan Yaponiyada 50ta yirik prefekturalar tashkil qilindi. Prefekturalar tepasida markazdan tayinlanadigan va o'z faoliyatlari bo'yicha hukumat oldida qat'iy javob beradigan prefektlar turardi. Shunday qilib, feodallar separatizmi tugatildi, mamlakatning birlashtirilishi nihoyasiga etdi. Bu esa ichki kapitalistik bozorning rivojlanishidagi asosiy shartlardan biri edi.

Agrar islohot “yangi pomeschiklar”ning, yangi puldor aslzodalarning, ya'ni sudxo'rlar, guruch olibsotarlar, qishloq tadbirkorlari, yerlarni amalda o'z qo'llarida to'plab olgan qishloqning boyigan yuqori qismi va boshqa shu kabilarning mavqeyi mustahkamlanishiga olib keldi. Ayni vaqtlar islohot mayda yer egalari – dehqonlarning manfaatlariga

jiddiy zarba berdi. Yuqori yer solig'i (endilikda davlatning barcha daromadlarining 80 foizi ko'pincha qiymati hosilning yarmigacha yetadigan yer solig'idan tushardi) dehqonlarning ommaviy xonavayron bo'lishiga, iqtisodiy majburlov vositalari yordami bilan ekspluatatsiya qilinadigan ijarachi dehqonlar sonining birdaniga o'sib ketishiga olib keldi<sup>1</sup>.

Islohot muhim siyosiy oqibatlarni ham keltirib chiqardi. Bu vaqtda hali saqlanib qolgan pomeschik yer egaligi va yapon mutlaq yakkahokimiyatchiligi o'zaro bir-biri bilan bog'liq edi. Pomeschik yer egaligi faqat mutlaq yakkahokimiyatchilik davlatining to'g'ridan to'g'ri qo'llab quvvatlashi hisobiga, hatto qishloq xo'jaligining surunkali inqirozlari sharoitlarida ham deyarli XX asrning o'rtalariga qadar daxlsiz qolishi mumkin edi. Ayni vaqtda "yangi pomeschiklar" mutlaq yakkahokimlik hukumatining o'zgarmas tayanchi bo'lib qoldi.

Yaponiyani g'arb mamlakatlari tomonidan ekspansiya qilish xavfi bu yerda "boy mamlakat, kuchli armiya" shiori ostidagi boshqa islohotlarning, jumladan, **harbiy islohot**larning o'tkazilishini ham taqozo qilardi. Bunda, avvalo, aholining quyi tabaqalarini harbiy xizmatdan chetlashtirishga qaratilgan eski prinsiplarni tugatish lozim edi.

1878-yilda umumiy harbiy majburiyat haqidagi qonun qabul qilinib, amalga kiritildi. Bu qonunning qabul qilinishiga, birinchidan, samuray qo'shinlarining tarqatib yuborilganligi, ikkinchidan, 1871-yilda "hamma tabaqalar tengligi"ning e'lon qilinganligi sabab bo'ldi.

Yaponiyada armiya, garchand Yevropadagi armiyalar namunasida tashkil qilingan bo'lsa ham, biroq uning mafkuraviy asosini imperator – "tirik xudo"ga sig'inish, "ofitser – askar otasi" deb qarash va hokazolardan iborat samuraylarning o'rta asrlarga xos axloq qoidalari tashkil qilgan.

1872-yilda eski unvonlarining tugatilganligi haqida qonun qabul qilindi. Unda mamlakatning tabaqaviy bo'linishi soddalashtirilib, aholi **oliy aslzodalar (kidzoku)** va **quyi dvoryanlar (sidzoku)**ga bo'lindi; aholining boshqa hammasi "**oddiy xalq**" tarkibiga kiritildi. "Tabaqalarning tengligi" harbiy maqsadlardan, aralash nikohlarga ruxsat berishdan, shuningdek aholining qolgan tahqirlangan kastalari ("eta") huquqlarining rasman tenglashtirilishidan nariga o'tmadi. Yangi armiyada ham ofitserlik lavozimlarini samuraylar egallab olgandi. Harbiy majburiyat umumiy bo'lib qolmadi, undan pul to'lab qutulish mumkin edi. Shuningdek, amaldorlar, talabalar (asosan badavlat oilalarning bolalari), yirik soliq to'lovchilar ham harbiy majburiyatdan ozod qilingandi.

---

<sup>1</sup> Bir necha o'n yillardan keyin Yaponiyada ijarachi dehqonlar mamlakatdagi butun qishloq aholisining 70 foiziga yetgan edi.

Mamlakatning kapitalistik rivojlanishi savdoning rivojlanishi yo‘lidagi barcha cheklovlarning, feodal sexlar va gildiyalarning va provinsiyalar o‘rtasidagi tarif to‘siqlarining tugatilishiga, pul tizimining tartibga keltirilishiga ko‘maklashdi. 1871-yilda mamlakat bo‘ylab erkin ko‘chib yurish, shuningdek kasb faoliyatini erkin tanlash joriy qilindi. Jumladan, samuraylarga savdo va hunarmandchilik bilan shug‘ullanishga ruxsat etildi. Bundan tashqari, davlat tadbirkorlarga qarzlar, subsidiyalar, soliq sohasida imtiyozlar berib, temiryollar, telegraf liniyalari, harbiy sanoat korxonalarini va boshqa qurilishlar uchun xazinadan mablag‘lar ajratib, kapitalistik sanoatning rivojlanishini rag‘batlantirdi.

### **Eslab qoling!**

**Inqilobiy qayta qurishlar davomida an’anaviy ta’lim tizimiga asoslangan yapon maktabi ham isloh qilindi. Natijada yapon maktabida g‘arb fani yutuqlaridan saboqlar berila boshladi.**

Meydzi hukumati bu sohada murakkab vazifani hal qilishiga to‘g‘ri keldi. Uning uchun shu narsa ma’lum ediki, bir tomondan yapon maktabini modernizatsiya qilmasdan, ta’limni g‘arb namunasida tashkil etmasdan turib boy, kuchli davlat tashkil qilish mumkin emas edi, boshqa tomondan esa g‘arb fanlari va g‘oyalarini haddan ziyod ko‘paytirish mustaqil madaniyatning yo‘qotilishiga, yapon millatining tennoistik mafkuraga asoslangan bir butunligining barbod bo‘lishiga olib kelishi mumkin edi.

Shu munosabat bilan begona madaniyat yutuqlarini o‘zlashtirish qat’iy manfaatparastlik – amaliy xarakterga ega bo‘ldi va yapon jamiyatining diniy asoslariga daxl qilmadi. O‘sha vaqtlarda Yaponiyada aytganlaridek, mamlakatning rivojlanishi uchun “yapon tafakkuri va Yevropa bilimlari” birga qo‘shib olib borilishi lozim edi. Yapon tafakkuri, avvalo, sintoizm ruhida tarbiyalashni, “tirik xudo” – imperatorni hurmat qilishni talab qilgan. Sintoizmning hukmronlik mavqeyini ta’minlash uchun 1873-yilda xristianlik taqiqlangan, buddizm esa to‘g‘ridan to‘g‘ri davlatning diniy mafkurasi nazorati ostiga qo‘yilgan. 1868-yilda “diniy marosimlarning birligi va davlat tomonidan boshqarilishi” haqida farmon qabul qilinib, eskicha namunada “Yerdagi va osmondagi xudoliklar ishlari bo‘yicha boshqarma” (Dzingikan) tashkil etildi. Shu tariqa Yaponiyada shunday o‘ziga xos yapon tartibiga asos solingan ediki, bunga binoan davlatning juda katta siyosiy muammolari diniy urf-odatlar, marosimlar mazmuni bo‘lib qoldi.

Bunga imperatorning 1868-yildagi muhim ahamiyatga ega bo'lgan ibodat qilishi misol bo'lishi mumkin. Imperator ushbu ibodati davomida sintoizm xudolari "Osmon va Yer" oldida kelajakda "keng majlis" tashkil qilishga va hamma ishlarni "jamoatchilik fikri asosida" hal qilishga, "o'tmishning yomon urf-odatlarini" tag-tomiri bilan yo'q qilishga, "butun dunyodagi" bilimlarni o'zlashtirishga va boshqalarga qasamyod qilgan edi.

1869-yilda Dzingikan din targ'ibotchilari institutini ta'sis qiladi. Din targ'ibotchilari xalq orasida "diniy marosimlarning birligi va davlat tomonidan boshqarilishi" haqidagi sulolalar diniy ibodati asosiga qo'yilgan tennoistik prinsiplarni tarqatishlari lozim edi.

1870-yilda "umummilliy ibodatlar joriy qilish haqida" va "taykyo"<sup>1</sup>ning buyuk ta'limotini targ'ib qilish haqida imperatorning ikkita yangi farmonlari qabul qilindi.

Yaponlarni diniy tarbiyalash va "butun dunyo bilimlarini o'zlashtirish" siyosatidagi ochiqdan ochiq qarama-qarshilik, shuningdek "madaniyat va xalq maorifi" shiori ostidagi harakatning boshlanib ketishi hukumatni 1872-yilda "Umumiy ta'lim haqidagi qonun"ni qabul qilishga, buddizmga nisbatan tazyiqni susaytirishga, "Osmon va yerdagi xudolar ishlari bo'yicha boshqarma"ni "Diniy ta'lim ministrligi" boshqarma" qilib qaytadan tashkil qilishga majbur etdi. Ushbu ministrlilik amaldorlari targ'ibotchilar deb emas, ham diniy, ham dunyoviy bilimlarni tarqatishga chaqirilgan "axloq instruktorlari" deb atala boshlandi.

1872-yilgi "Umumiy ta'lim haqida"gi Qonun "birorta ham savodsiz bo'lmaydi" deb e'lon qilingan demogogik shiorni amalga oshishiga olib kelmadi, chunki ta'lim pullik va ilgarigidek juda qiymmat bo'lib qolaverdi. Biroq bu qonun rivojlanayotgan kapitalistik sanoatni va yangi ma'muriy apparatni o'qimishli kishilar bilan ta'minlash maqsadlariga xizmat qildi.

#### **4-§. Siyosiy tuzumni demokratlashtirish uchun kurash va siyosiy partiyalarning shakllanishi**

Yaponiyada syogunni ag'darishda muhim rol o'ynagan janubiy-g'arbiy knyazliklarning daymyosi va samuraylari 1868-yilda imperator hukumati tarkibiga kiritildi. Hukmron blok burjua emas edi, lekin u moliya-sudxo'rlik burjuaziyasi bilan mustahkam bog'liq bo'lib, ma'lum darajada tadbirkorlik faoliyatiga tortilgan edi.


---

<sup>1</sup> Tayke ta'limoti – yapon davlatining ilohiy kelib chiqqanligi haqidagi ta'limot; u yapon jangovar millatchiligining mafkuraviy quroli bo'lib qolgan.

XIX asrning 70–80-yillari turli ijtimoiy qatlamlar siyosiy faolligining yanada o‘shish davri bo‘ldi. Keng xalq harakati davomida savdo-sanoat burjuaziyasi, samuraylar doirasi orasida davlat apparatidagi imperatorga yaqin turgan aslzodalarning zo‘ravonliklariga qarshi chiquvchi muxolifatchilik kayfiyatlari kuchayib bordi. Pomeshchiklar va qishloqning boy yuqori tabaqalarining muayyan doiralari ham soliqlarning pasaytirilishi, tadbirkorlik faoliyatining kafolatlanishi, mahalliy boshqaruvda ishtirok etish kabi talablar bilan chiqib, siyosiy jihatdan faollashib bordi.

### Eslab qoling!

**Davlat boshqaruvini o‘zgartirish va konstitutsiya qabul qilish talablarida namayon bo‘lgan norozilik kayfiyatlari muxolifiyatchi demokratik oqimlarning “Erkinlik va xalq huquqlari uchun harakat”ga birlashishiga olib keldi.**



“Erkinlik va xalq huquqlari uchun harakat” liderlari fransuz ma’rifatparvarlarining insonning tabiiy huquqlari haqidagi mafkurasini qabul qilib olib, uning mohiyatini an’anaviy tushunchalar orqali tushunishga kalit izlaganlar. Shu tariqa insonning tabiiy huquqlarini yapon


tiliga tarjima qilinganda “Osmon in’om qilgan inson huquqlari” degan shaklni olgan, “erkinlik va xalq huquqlari” esa konfutsiylikning “oqillik” (“ri”) va “odillik” (“ga”) talablariga mos tushgan.

1881-yilda imperator 1890-yildan boshlab parlament boshqaruvi joriy qilish haqida farmon chiqardi.

Konstitutsiyaviy islohotlar arafasida mamlakat butun siyosiy tizimining muhim qayta qurilishi sodir bo’ldi. Burjua liberal muxolifat tashkiliy jihatdan siyosiy partiyalarda rasmiylashdi.

1881-yilda **Liberal partiya** (Dziyuto) tashkil qilindi. Bu partiya pomeshchiklar, o’rtahol shahar tabaqalari va qishloq burjuaziyasi manfaatlarini ifoda etdi. Unga o’rtamiyona kayfiyatdagi dehqonlarning bir qismi, mayda mulkdorlar ham qo’shilgan.

1882-yilda **Konstitutsiyaviy islohotlar partiyasi** (Kaysinto) tuzilib, unga o’rtahol tabaqalar vakillari, burjuaziya, ziyolilar kirdi. Bu partiya ham Liberal partiya singari muxolifat kuchlarning mo’tadil partiyasi bo’lib qoldi.



Tez orada Liberal partiya tarkibida uning chap qanoti shakllandi. U o’z oldiga respublika o’rnatish vazifasini qo’ygan edi. Uning liderlari 1883-1884-yillarda hukumatga qarshi ochiqdan ochiq chiqishlarga boshchilik qildilar. Parlament o’z ishlarini boshlaganidan keyin 1890-yilda Dziyuto va Kaysinto partiyalari mamlakat siyosiy hayotida tabora passiv rol o’ynay

boshladilar. 80-yillarda Yaponiyaning o‘sib borayotgan ishchilar sinfi o‘zini mustaqil ijtimoiy va siyosiy kuch sifatida namoyon qila boshladi. Dastlabki ishchi tashkilotlari tashkil qilindi, ishchilar harakatiga sotsialistik g‘oyalar kirib keldi.

Muxolifatning talablariga hukumat o‘zining Meyseyto deb atalgan **Konstitutsiyaviy-imperatorlik partiyasini** tuzish bilan javob berdi. Bu partiyaning faoliyati kelajakdagi konstitutsiyaviy islohotlarni o‘ziga mos doiralarda cheklashga qaratilgan edi. Bu partiyaning talablari “jamoat tinchligi bilan birgalikdagi so‘z va matbuot erkinliklarini” xohlashdan nariga o‘tmadi. Hukumat partiyasini tashkil qilish bilan bir qatorda, konstitutsiyadan oldingi qonunlar ham qo‘riqlash maqsadlariga xizmat qildi. Masalan, **1884-yilgi qonun** bilan Yaponiyada *aslzodalarning yevropacha tarzidagi yangi unvonlari: knyaz, markiz, graf, vikont, baron degan unvonlari joriy qilindi* va oqibatda ularga yapon parlamentining yuqori palatasini tashkil qilish huquqi berildi.

**1885-yilda** Yevropa namunasida alohida *ministrliklar* va o‘z faoliyati yuzasidan imperator oldida javobgar bo‘lgan *Ministrlar kabineti tashkil qilindi*. **1886-yilda** imperator huzurida maslahatchi organ sifatida ilgari tugatilgan *Maxfiy kengash qayta tiklandi*. Shu yili *mansabdor shaxslarni tayinlashning imtihon tizimi joriy qilindi*. **1888-yilda yangi ma‘muriy islohot** o‘tkazildi. *Har bir prefekturada boshqaruvning saylab qo‘yiladigan organlari tashkil etildi*.


Bu organlar maslahatchilik funksiyalariga ega bo‘ldilar va o‘z navbatida ichki ishlar ministrligining qattiq nazorati ostida turdilar. Bu qonunchilikning o‘ziga xos gultoji **1887-yilda qabul qilingan “Tartibni saqlash haqidagi politsiyachilik qonuni”** bo‘lib qoldi. *Unga binoan maxfiy jamiyatlar tuzish, yashirin yig‘ilishlar chaqirish, yashirin adabiyotlar chiqarish taqiqlandi va bunday xatti-harakatlar uchun qattiq jazolar o‘rnatildi*. “Erkinlik va xalq huquqlari uchun harakat” qattiq jazo choralari yordami bilan tor-mor etildi.

## 5-§. Yaponiyaning 1889-yilgi Konstitutsiyasi

Imperator bergan va‘dasini bajarib, 1889-yilda o‘z fuqarolariga Konstitutsiya in‘om qildi. Ushbu Konstitutsiya sintoistik traditsionalistlar nazariyalari va g‘arb konstitutsiyashunoslari tarafdorlari o‘rtasidagi o‘ziga xos siyosiy murosaning natijasi edi.

Konstitutsiyaning 1-moddasida Yaponiya imperiyasida “asrlar davomida yagona va uzluksiz” sulolaga tegishli **imperator** podsholik qiladi va davlatni boshqaradi, deb ko‘rsatildi. Imperator *shaxsi* “ilohiy”

qonunga binoan “muqaddas va daxlsiz” deb e’lon qilindi. Imperator davlat boshlig‘i sifatida urush va tinchlik e’lon qilish, shartnomalar tuzish, parlamentni chaqirish va tarqatib yuborish, qurolli kuchlarga rahbarlik qilish, dvoryanlik in’om qilish va boshqa huquqlarga ega edi.



Konstitutsiyaga binoan, *qonun chiqarish hokimiyati ham “imperator va parlamentga” ishonib topshirilgandi* (5-modda). Imperator qonunlarni tasdiqlagan va ularni ijro etishga farmoyishlar bergan. Konstitutsiyaning 8-moddasiga asosan, “jamoat tartibini saqlash juda zarur” bo‘lgan holda, parlament ishida tanaffus bo‘lgan vaqtda chiqarilgan imperator farmonlari qonun kuchiga ega edi. Bunday farmonlar odatda parlament ta’tillari vaqtida paydo bo‘lardi. Parlament ta’tillari esa bir yilda 9 oyga cho‘zilardi. Imperator, shuningdek mamlakatda qamal holati joriy qilish huquqiga ham ega edi.

Ministrlar, barcha mansabdor shaxslar singari, imperator tomonidan tayinlanardi hamda uning oldida javobgar edi. Ularning faoliyatiga imperatorga xizmat qilish sifatida qaralardi. Imperatorning o‘zi esa faqat Xudo oldida mas’ul bo‘lgan. Bu bir qarashda Konstitutsiyaning to‘rtinchi bobida o‘rnatilgan ularning o‘z hokimiyatlarini “Konstitutsiya asosida” amalga oshirishlari lozimligi haqidagi talabga zid bo‘lib



ko‘rinardi. Qarama-qarshilikning bunday ko‘rinishini quyidagi asosiy konstitutsiyaviy qoida bartaraf etardi. Bu qoida shundan iborat ediki, konstitutsiyaning o‘zi imperatorning o‘zini o‘zi cheklovchi, imperatorga parlamentning, hukumatning, fuqarolarning huquqlarini taqdim qiluvchi “ilohiy tuhfa” hisoblanardi. Konstitutsiya parlament, hukumat huquqlari, shuningdek fuqarolarning huquq va erkinliklari ro‘yxatini berish bilan o‘zini o‘zi cheklashning ana shunday konseptual sxemasi asosida tuzilgan edi.

**Parlament** konstitutsiya bo‘yicha *qonun chiqarish huquqiga ega bo‘lib, ikki palata: perlar palatasi va vakillar palatasidan iborat edi*. Har bir palata hukumatga “qonunlar va boshqa turdagi narsalarga” taalluqli taqdimnomalar bilan chiqish huquqiga ega edi. Biroq Konstitutsiyaning 71-moddasi parlamentning imperator xonadoni statusini o‘zgartirishga qaratilgan har qanday muhokamasini taqiqlagan. Palatalarda masalalarni hal qilish uchun mutlaq ko‘pchilik ovoz talab qilingan.

1890-yilgi saylov qonuni bo‘yicha, quyi palata yuqori yosh senzi (25 yosh), shuningdek mulk senzi asosida saylanardi. Ayollar va harbiy xizmatchilar saylov huquqiga ega emas edilar. Shu tariqa, saylov huquqidan Yaponiya aholisining faqat juda oz qismi, bor-yo‘g‘i bir foizga yaqini foydalangan, xolos. Yuqori palataga qondosh shahzodalar, unvonli amaldorlarning vakillari, yirik soliq to‘lovchilar va imperator oldida “alohida xizmatlar” ko‘rsatgan kishilar a‘zo bo‘lgan.

Quyi palataning vakolat muddati 4 yil, yuqori palataniki 7 yil qilib belgilangan edi. Ministrlar “imperatorga faqat maslahat berish”ga haqli edilar. Parlament nazorati faqat 30tadan kam bo‘lmagan deputatlar tomonidan ministrarga rasmiy so‘rov berish huquqida namoyon bo‘lgan. Bunda ministrlar “maxfiy” hisoblangan masalalar yuzasidan so‘ralgan talabnomaga javob berishdan bosh tortishi mumkin edi. Yapon parlamenti haqiqatda hukumatga kuchli ta‘sir o‘tkaza olmagan, moliya ustidan nazorat o‘rnata olmagan, chunki Konstitutsiya budjetni har yili parlamentda ovozga qo‘yib tasdiqlash tartibini nazarda tutmadi. Budjetni ko‘rib chiqish parlament tomonidan chetga surib qo‘yilgan hollarda hukumat o‘tgan yilgi budjetni qo‘llashi mumkin edi. Bundan tashqari, Konstitutsiyaning 68-moddasi bir necha yilga tasdiqlangan doimiy xarajat fondini, shuningdek “imperatorning vakolatlarini amalga oshirishi uchun” va “hukumat majburiyatlari bilan bog‘liq” xarajatlar uchun ajratiladigan pul summalarini nazarda tutgan edi. Hukumatning parlament roziligisiz qiladigan xarajatlari imperatorning o‘zi tomonidan ham qonunlashtirilishi mumkin edi.

Ma'lumki, harbiylar burjua islohotlari davrida hukmron sinflar: yarim feodal pomeschiklar va mustahkamlangan monopolistik burjuaziyaning manfaatlarini faol himoya qiluvchilar bo'lib qolgan edilar. Bu, jumladan, davlat apparatining Yashirin kengash, Genro (oqsoqollar kengashi), Saroy ministrligi singari zvenolarining imtiyozli mavqeyida o'z ifodasini topdi. Imperatorning juda katta yeregaliklari, shuningdek armiyaning oliy rahbarlari aynan Saroy ministrligi qaramog'ida edi.

**Yashirin kengash** tarkibi *prezident, vitse-prezident va 25 maslahatchidan iborat bo'lib, uning a'zolari imperator tomonidan oliy harbiy-byurokratik doiralar orasidan tayinlanardi. Yashirin kengash parlamentdan ham, Ministrlar Kabinetidan ham mustaqil edi.* Konstitutsiyaning 56-moddasiga binoan, *unga imperator so'rovi bo'yicha davlat ishlarini muhokama qilish topshirilgandi. Amalda davlatdagi har bir muhim qaror, u qanday ahamiyatga ega bo'lishidan qat'i nazar, Yashirin kengash a'zolari bilan kelishilgan holda chiqarilardi. Imperator farmonlari va farmoyishlari ham Yashirin kengash tomonidan ma'qullanardi.*

**Genro (Oqsoqollar kengashi)** konstitutsiyaviy organ bo'lmasa ham, yarim asr davomida mamlakat siyosatiga hal qiluvchi ta'sir o'tkazib keldi. U asosan janubiy-g'arbiy knyazliklarning aslzodalari vakillaridan iborat tarkibda edi. Uning a'zolari o'z o'rinlarini umrbod muddatga egallagandilar.

1889-yilda imperator maxsus buyruq chiqarib, armiya va flotdagi shtab boshliqlarining armiya va flotga taalluqli barcha muhim masalalar yuzasidan hukumatni, hatto harbiy va dengiz ministrlarini chetlab o'tib, to'g'ridan to'g'ri imperatorga doklad qilishlari lozimligi tartibini o'rnatdi. Bu bilan harbiylar imperatorning hukumatdagi ikkita muhim lavozimlarni – harbiy va dengiz ministrlarini tayinlashdagi qaroriga ta'sir o'tkaza oladigan bo'ldilar.

Shu tariqa, harbiylar nafaqat hukumat tarkibini belgilashda, balki uning siyosatini belgilashda ham hal qiluvchi rol o'ynay boshladilar. Yuqoridagi qoida 1895-yilgi qonun bilan mustahkamlandi. Bunga binoan, harbiy va dengiz ministrleri lavozimini faqat haqiqiy harbiy xizmatda turgan harbiylargina egallashi mumkin edi.

**Yapon fuqarolarining konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari.** Konstitutsiyaning 19-moddasida har bir yapon fuqarosining fuqarolik va harbiy mansablarni egallashda teng huquqli ekanligi nazarda tutilgan bo'lsa, 20-moddasida barcha yapon fuqarolarining armiya va flotda xizmat qilish majburiyatlari belgilandi. Konstitutsiya fuqarolarning qonunda

oʻrnatilgan tartiblarda turar-joy tanlash va almashtirish erkinligini (22-modda), turar-joy daxlsizligini (25-modda) mustahkamladi. Konstitutsiyaning 27-moddasida “Har bir yapon fuqarosining mulki dahlsiz” deb eʼlon qilindi. Bunda jamoat xizmati manfaatlari uchun zarur boʻlganda mulkni olishga ruxsat etilgandi. Konstitutsiyada, shuningdek yapon fuqarolariga diniy eʼtiqod (28-modda), soʻz, matbuot, yigʻilishlar oʻtkazish va ittifoqlarga birlashish (29-modda), petitsiyalar berish (30-modda) erkinliklari ham nazarda tutilgandi.

Yapon fuqarolarining yuqoridagi huquq va erkinliklari ularning “ilohiy” imperator oldidagi burchi bilan tenglashtirilgan edi. Bundan tashqari, barcha erkinliklarga “qonun bilan oʻrnatilgan doiralarda” yoʻl qoʻyilardi.

Bu huquq va erkinliklarning oʻta rasmiy xaraktyeri ayniqsa yapon dunyoqarashining eng nozik tomoniga tegishli boʻlgan diniy eʼtiqod erkinligi sohasida yorqin namoyon boʻldi. Dinni davlatdan ajratish, diniy eʼtiqod erkinligini tan olish talablari erkinlik va tenglik gʻoyalari singari konstitutsiya qabul qilinishidan oldingi davrda ham jamiyatning ancha ongli qatlamlari tomonidan ilgari surilgan edi. Bu talablar taʼsirida 1877-yilda Diniy taʼlimot ministrligi tugatilgandi.


Hukumat rasman “din erkinligi”ni eʼlon qilib, u sintoizmni din deb emas, davlat marosimi deb belgiladi.

1889-yilgi Konstitutsiyada burjua-demokratik huquq va erkinliklarning rasman mustahkamlanishi ushbu Konstitutsiyaning oʻta konservativ xarakterini oʻzgartira olmadi. Biroq bu Konstitutsiya juda cheklangan darajada boʻlsa ham, yapon jamiyatini demokratlashtirish yoʻlida muhim olgʻa tashlangan qadam boʻldi. U vakillik organi oʻrnatish, burjua demokratik huquq va erkinliklar eʼlon qilish bilan birga yapon davlatining mutlaq monarxiyadan dualistik monarxiyaga amalda yangicha oʻtish shaklining qaror topishiga koʻmaklashdi. Bu davlat doirasida keyingi oʻn yilliklar davomida nafaqat feodal qoldiqlar tugatildi, balki yapon kapitalizmining juda tez rivojlanishi sodir boʻldi.

## **6-§. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar: sud, prokuratura va advokatura**

**Konstitutsiyaning 60-moddasi** maxsus, maʼmuriy sudlar tashkil etishni nazarda tutdi. Amaldorlar faoliyati sud nazorat ostidan chiqarildi. **Amnistiya huquqi**, Konstitutsiyaning 16-moddasiga muvofiq, imperatorga tegishli edi. Sud tomonidan beriladigan jazoni ham faqat imperator oʻzgartira olardi.

Yaponiyaning eski sud tizimi va sud ishlarini yuritish tartibi juda sekinlik bilan qayta tuzildi. Konstitutsiya qabul qilinishidan avvarroq yapon siyosiy arboblari, yuristlar tomonidan g'arb mamlakatlarining sud va huquqiy tizimlarini keng o'rganish ishlari o'tkazilgan edi. Bunda qaytadan tashkil etilgan Frank-huquqiy maktabi (1879-yil tashkil etilgan), Meydzi professional huquqiy maktabi (1881-yil tashkil etilgan), Angliya huquq maktabi (1885-yil tashkil etilgan) va boshqa huquqiy maktablar muhim ahamiyatga ega bo'ldi.




1872-yildan boshlab sudlarda matbuot vakillarining ishtirok etishiga ruxsat etildi, fuqarolik ishlarini hal qilishda qiynoqlar qo'llash taqiqlandi, rasman tabaqaviy farqlar yo'q qilindi, qonli qasos, o'ch olish man etildi.

### **Eslab qoling!**

**1890-yilda "Sudlar tashkil qilish haqida"gi Qonun** asosida Yaponiyaning sud tizimi tartibga keltirildi, mahalliy okrug, apellyatsion sud instantsiyalari tashkil qilindi, apellyatsion sudlar va katta sud sudyalaridan ma'muriy sudlar hay'atlari tuzildi.

1890-yilgi qonun rasman sudyalarning almashtirilmasligi va mustaqilligi prinsipini mustahkamladi. Sudyalar faqat jinoiy javobgarlikka yoki intizomiy tartibda jazoga tortiladigan bo‘lsalar, almashtirilishi, mansabidan pasaytirilishi mumkin edi. Adliya ministri yapon odil sudlovi ustidan umumiy ma’muriy nazoratni amalga oshirardi, sudyalarni oliy sud va ma’muriy lavozimlarga ilgari surish huquqiga ega edi.

1890-yilgi qonunda shuningdek “prokuraturaning oliy umumiy departamenti”ni tashkil qilish ham nazarda tutilgan edi. Sudyalarga qanday malakaviy talablar qo‘yilgan bo‘lsa, prokurorlarga ham shunday talablar qo‘yildi. Prokurorlarni adliya ministri nazorat qilib turgan. Adliya ministri prokurorlarga sud ishlari bo‘yicha ko‘rsatmalar berish huquqiga ega edi.



1893-yilda “Advokatura haqida”gi qonun qabul qilindi. Advokatlar sud ishlarida ishtirok eta boshladilar. Advokatlar korpusi ham adliya ministrining, ham prokuraturaning qattiq nazorati ostida bo‘lgan. Advokatlar, shuningdek intizomiy sudlarning yurisdiksiyasi ostida edilar. Ularni intizomiy javobgarlikka tortish huquqi prokurorlarga tegishli edi.

Ushbu barcha Yangi kiritilgan tartib-qoidalarga qaramay, Yaponiyaning “huquqni muhofaza qilish” tizimi hali uzoq vaqtgacha imperiya hokimiyatining jazo beruvchi qismi bo‘lib qoldi.

## **7-§. XIX asr oxirida Yaponiya davlat tuzumidagi o‘rgarishlar**

Yaponiyada sanoat rivojlanishi davri yirik korporativ kapitalizmga o‘tish davriga deyarli to‘liq mos tushdi. Bunga mutlaq yakka hokimlik davlatining aniq bir maqsadga yo‘naltirilgan siyosati, uning tomonidan keng iqtisodiy va harbiy funksiyalarning amalga oshirilishi ko‘maklashdi. Yapon davlati ilg‘or kapitalistik mamlakatlardan texnika va harbiy sohalarda orqada qolganligini bartaraf etish maqsadida xususiy kapitalistik tadbirkorlikni har tomonlama rag‘batlantirish bilan cheklanib qolmadi. Davlatning o‘zi ham sanoat qurilishida faol ishtirok etdi, bu sohalarga soliqlardan kelgan tushumlardan subsidiyalar ajratdi. Juda ko‘p sonli harbiy korxonalar, temir yo‘llar va boshqalar davlat xazinasi tomonidan moliyalashtirildi. Sanoat qurilishiga 1870-yilda tashkil etilgan Sanoat ministrligi rahbarlik qildi.

Bank va sanoat kapitallarining qo‘shilib ketishi, yapon monopoliyalarining nisbatan barvaqt vujudga kelishi davlatga qarashli sanoat korxonalarining Mutsui Sumitomo va boshqa shu kabi bank uylari tomonidan juda arzon narxlarda sotib olinishi bilan tezlashdi. Bir qator o‘zaro bog‘liq firmalardan iborat monopolistik konsernlar (“dzaybatsu”) vujudga keldi. Ular bitta bosh firma yoki moliyachilar guruhi tomonidan nazorat qilinar edi.

Biroq Yaponiya davlati jamiyat xayotining barcha sohalarida feodal qoldiqlarini saqlab qolib, rivojlanish darajasi bo‘yicha ham Yevropa va AQSHdan orqada edi. Ijtimoiy sohada nafaqat yarim feodal yer egaligi, ijarachi-dehqonlarni tutqunlik shartlarida eksplutatsiya qilish, sudxo‘rlarning zo‘ravonligi, tabaqaviy farqlar, balki eksplutatsiyaning og‘ir va qattiq shakllari, ishchilarning ijtimoiy tengsizligi, qishloqda ishchi kuchlarning sanoatchilar bilan oldindan tuzilgan yarim feodal shartnomalari va boshqalar ham mavjud edi. Siyosiy sohada feodal qoldiqlar Birinchi jahon urushigacha saqlanib qolgan hukmron pomeschik-burjuaziya blokida pomeschiklarning ustunlik rolini ta‘minlagan yapon monarxiyasining mutlaqiy xarakterida, yapon qishlog‘ida pomeschiklarning siyosiy zo‘ravonliklarida namoyon bo‘ldi. Yaponiya harbiy sohada boshqa qudratli davlatlar bilan raqobat qilishga qodir deb tan olinishiga ulgurmasdanoq bosqinchilik siyosati yo‘lidan

ketdi. 1876-yilda o'z foydasiga tinchlik o'rnatish maqsadida Koreyada harbiy faollikni boshlab yubordi. 1894-yilda Yaponiya oldindan e'lon qilmasdan turib Xitoyga hujum qildi. Yaponlar Xitoy imperiyasining yaxshi tashkil etilmagan feodal tipdagi armiyasini tormor keltirdi.

1895-yilda yapon hukumati Xitoyga sulh shartlarini qabul qildirdi. Simoneski sulh bitimiga muvofiq, Xitoy Yaponiyaga Tayvan orolini va Port-Artur bilan birgalikda Lyaodun yarim orolini berdi. Xitoyga vassal qaramlikda bo'lgan Koreya "mustaqil" deb e'lon qilindi. Yaponiya bu "mustaqillik"dan Koreya ustidan o'z protektoratini o'rnatish uchun foydalandi. Sulh bitimi shartlariga ko'ra, Xitoy Yaponiyaga kontributsiyalar ham to'lash majburiyatini olgan edi. Xitoy bilan bitim tuzganda Yaponiyani hukmron doiralari Uzoq Sharqda agressiyani bundan keyin ham avj oldirish uchun o'zlariga platsdarm egallashni ko'zda tutgan edilar.

Ulkan zamonaviy armiya va harbiy-dengiz floti barpo qilish yangi yapon imperatorlik hukumatining birinchi kunlaridan boshlab alohida tashvishi bo'lib qolgan edi. Mamlakatni militarizatsiya qilishga, harbiy avanturalarga amalda parlament ham yordam berdi. 1894-1895-yillardagi yapon-xitoy urushidan keyin parlamentdagi hamma muxolifatchi partiyalar hukumatning harbiy siyosatini bir ovozdan qo'llay boshladilar. Parlament harbiy xarajatlarni yildan-yilga ko'paytirib bordi.

Armiyaga bu vaqtda keng tarmoqli politsiya apparati bilan bir qatorda hukmron rejimni qo'riqlashda muhim o'rin ajratilgan edi. Shu maqsadda u demokratik g'oyalarning kirib kelishidan "himoyalangan", mamlakat siyosiy hayotidan ajratib qo'yilgan. Harbiy xizmatchilar faqat saylov huquqidan emas, balki boshqa barcha siyosiy huquq va erkinliklardan ham mahrum etilgandi. Konstitutsiyaning 32-moddasiga banoan siyosiy huquq va erkinliklar harbiy xizmatchilarga faqat "ustavlarga va harbiy intizomga zid kelmagan" hollardagina qo'llanishi mumkin edi.

Yangi armiya va harbiy dengiz floti qurish chet el, asosan Angliya va Fransiya mutaxassislari yordami bilan amalga oshirildi. yosh yaponlar harbiy ishlarni o'rganish uchun chet ellarga yuborildi. Yapon armiyasiga sof feodal belgilar – bir necha o'n yillar davomida samuraylar zo'ravonliklarining saqlanib qolganligi, armiya va flotga rahbarlik qilishda sobiq janubiy-g'arbiy knyazliklar feodal urug'laridan chiqqanlarning ustunlik qilishi va boshqalar xos bo'lgan.

Hukmron blok o'zining militaristik-bosqinchilik davlat siyosatini yapon jamiyatining faol qismi tomonidan qo'llab-quvvatlanishi ostida

1898-yilda parlamentda salohiyatli ko'pchilik o'rin olishga muvaffaq bo'ldi. Shu yili muxolifatni ham o'zida birlashtirgan "Konstitutsion partiya"ning tashkil qilinishi sharofati bilan Yaponiya tarixida birinchi marta partiyaviy kabinet shakllandi. Parlament kabinetiga faqat bitta – hukumat partiyasi vakillari kirgan edi. Garchand ushbu kabinetning umri qisqa va sun'iy bo'lishiga qaramay, uni tuzilishining o'ziyiq harbiy-byurokratik doiralarni siyosiy partiyalar va, ayniqsa, parlament roliga yangicha qarashga majbur etuvchi muhim siyosiy voqea bo'lib qoldi.

1890-yilda Yaponiyada saylovchilarning sonini ko'paytirgan saylov islohoti o'tkazildi.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar:**

1. Yaponiyada XIX asr 60-yillaridan eski tuzum inqirozga uchrab, yangi davlatchilik tartibotlari qaror topa boshlagan.

*Yaponiyaning XIX asr 60-yillarigacha va undan keyingi davrdagi davlat tuzumidagi farqli va o'xshash tomonlarga izoh bering.*

2. XIX asrning 70-80-yillarida Yaponiyada amalga oshirilgan burjua islohotlari yangi davr davlatchiligining shakllanishida muhim va hal qiluvchi omil bo'lgan.

*Yaponiyadagi ushbu islohotlarni Germaniya yoki Rossiyada amalga oshirilgan shunga o'xshash islohotlar bilan qiyosiy tahlil qiling.*

3. Ma'lumki, Yaponiyada XIX asrning ikkinchi yarmidan siyosiy tuzumni demokratlashtirish uchun kurash boshlanib, natijada siyosiy partiyalar shakllanadi hamda mavjud tuzumda tub o'zgarishlar yuz beradi.

*Ushbu jarayonlarga baho bering va qaror topgan demokratik tartibotlar mohiyatini ochib bering.*

4. Yaponiyada 1889-yil Konstitutsiya qabul qilinib, mamlakatning ijtimoiy va davlat tuzumini mustahkamladi va uning achsosida davlatning huquqni muxofaza qiluvchi organlari tashkil qilindi.

*XIX asr oxirida Yaponiya davlat tuzumida yuz bergan o'zgarishlarga tavsif bering.*



## VI BOB YANGI DAVRDA XITOIY


*Sin imperiyasining inqirozi va g'arb davlatlarining agressiyasi. Taypinlarning "Samoviy mo'l-ko'lchilik davlati" ("Taypin tyango"). "Islahotlarning yuz kuni". 1911-yilgi Sinxay inqilobi va monarxiyaning qulashi.*

### **1-§. Sin imperiyasining inqirozi va g'arb davlatlarining agressiyasi**

**Sin imperiyasining inqirozi.** XIX asrning boshiga kelib Xitoy ilgarigidek an'anaviy jamiyat bo'lib qolaverdi. Unda ma'lum darajada mayda dehqon hunarmandchiligi va xonaki sanoat rivojlandi. Shu bilan birga, mamlakatning ba'zi tumanlarida tovar-pul munosabatlari ancha keng tarqala boshladi. Tovar xo'jaligi o'sib bordi. Tovar ayirboshlash ko'paydi, savdo-sotiq ishlari, shu jumladan qishloq xo'jalik mahsulotlari savdosi kuchaydi, shahar bilan qishloq o'rtasida mehnat taqsimoti o'sdi, shaharning savdo va hunarmandchilik sifatidagi ahamiyati juda oshdi: bozor uchun ishlovchi qishloq xonaki sanoati ancha keng rivojlandi va manufakturalar paydo bo'ldi. Yer egaliklarining ayrim feodallar qo'lida to'planishi va dehqonlarning yersizlanishi, xonavayron bo'lishi, qashshoqlashuv jarayoni kuchaydi. Dehqonlar va shahar kambag'allarining feodallar, sudxo'rlar va savdogarlar tomonidan qattiq ekspluatatsiya qilinishi mulkiy zulm bilan birga amalga oshirildi.

Xitoyda XVII asrdan Manjurlar sulolasi hukmronlik qilishi munosabati bilan manjurlar qurolli kuchlarda va fuqarolik ma'muriyatida asosiy postlarni egalladilar. Kam sonli manjur qabilalari yuqori doiralarning ko'p millionli Xitoy xalqi ustidan hokimiyati bosqinchilarning Xitoy feodallari bilan ittifoqida ushlab turildi. Manjurlar Xitoy imperatorlarining toj-taxtini egallab olib, ilgarigi sulolalar davlat organlari tizimida uncha katta o'zgarishlar qilishmadi. Xitoy imperatori cheklanmagan monarx hisoblangan. Uning taxti merosiy bo'lib, katta o'g'ilga o'tardi. Lekin bu tartibga qat'iy amal qilinmasdi. Imperator o'limidan oldin o'z o'g'illaridan xohlagan bittasini, agar o'g'illari bo'lmasa, qarindoshlardan bir kishini o'ziga merosxo'r etib tayinlashi mumkin edi. Imperator oliy qonun chiqarish hokimiyatiga ega bo'lgan va oliy kohin hisoblangan. U o'z fuqarolarini o'limga mahkum etish va afv etish huquqiga ham ega edi.

Sin sulolasi davrida Xitoy joylarda kuchli hokimiyatning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Mahalliy hokimiyat asosan noiblar va gubernatorlar qoʻlida toʻplangan edi. Mamlakat provinsiyalarga, provinsiyalar esa oʻz navbatida viloyatlarga, okruglarga, uyezdlariga boʻlingan edi. Har bir provinsiya tepasida harbiy va fuqarolik gubernatorlar (ular koʻpincha manjurlardan boʻlgan) turgan.



Gubernatorlar noibga boʻysunardi. Noib harbiy va fuqarolik hokimiyatiga ega edi. Viloyatlar, okruglar va uyezdlarga tegishli boshliqlar, boshqaruvchilar boshchilik qilgan. Bunda amaldorlar va yuzliklarning hamda oʻnliklarning oqsoqollari yordam berib turganlar. Sud hokimiyati hamma yerda maʼmuriy hokimiyatdan ajratilmagan edi. Biroq sud ishlarini hal qilish uchun odatda maxsus amaldorlar ajratilardi. Davlat xizmati rasman hamma shaxslar uchun ochiq edi. Bunda ulardan maxsus imtihon orqali ilmiy daraja olish talab qilinardi. Sin sulolasining oxirlariga qadar uchta daraja boʻlgan. Uchinchi daraja oliy daraja hisoblanib, u uyezdda, soʻngra provinsiya va poytaxtda imtihon topshirilganidan keyin berilardi. Amaldorlar, ilgari sulolada boʻlgani singari, toʻqqizta sinfga boʻlingan. Har bir sinfga maʼlum ajratib turuvchi belgi berilgan.

**G'arb davlatlarining agressiyasi.** Xitoy XVIII asrning oxirlariga qadar o'z mustaqilligini saqlab turdi. U Yaponiya va Koreya singari o'zini himoya qilish uchun mustamlakachilarga o'z hududiga kirishini taqiqlab qo'ygan edi, mustamlakachilar bilan savdo-sotiq qilishni ham cheklab, "berk mamlakat" bo'lib qolgan edi. Xitoy "o'rtamiyona podsholigi" ning buyuk feodal imperiyasi mag'rurlik bilan o'z qobig'iga biqinib olgan va faoliyatsizlik ko'rsatayotgan bo'lsa ham, lekin bu faoliyatsizlik juda nisbiy xarakterga ega edi. Yevropa kapitalistik xo'jaligi, madaniyati va harbiy texnikasining rivojlanishi yo'lidagi har bir yangi qadam Xitoyning ajnabiy kelgindilarga qarshi kurashida muqarrar mag'lubiyatga uchrashini oldindan belgilab qo'yar edi. Ular bilan bo'lgan birinchi to'qnashuvlardayoq Xitoy o'zining eng zaif mamlakat ekanligini ko'rsatdi: u janubiy dengiz mamlakatlaridagi obod, savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchi mustamlakalarini himoya qilolmadi va bu mamlakatlar bilan savdo qilishni Yevropaliklar qo'lga topshirishga majbur bo'ldi.

XVIII asrning oxirlaridan boshlab Xitoy hududiga g'arb davlatlarining mol sotiladigan bozorlar va xomashyo manbalarini qo'lga kiritish maqsadlaridagi ekspansiyasi boshlandi. 1840-yilda Angliya Xitoyga urush boshladi. Bu urush tarixga "birinchi afyun urushi" nomi bilan kirdi, chunki u Xitoy hukumatining imperator farmoni bilan mamlakatda inglizlar tomonidan keltiriladigan afyun bilan savdo qilishning taqiqlanishi oqibatida kelib chiqqan edi. Mahalliy Xitoy ma'murlari afyun orilgan ingliz karvonlarini musodara qilganiga javoban ingliz hukumati afyunni va ingliz tovarlarini olib kelishni qonunlashtirish uchun urush boshlagandi. Xitoy inglizlarning afyun keltirishiga barham bermoqchi bo'ldi, chunki afyun xitoy xalqini zaharlamoqda edi. Xitoyning urushda yengilishi oqibatida 1842-yil avgustda Nankin shahrida Xitoy tarixida birinchi marta teng huquqli bo'lmagan shartnoma imzolandi. Bu shartnoma ajnabiylar bilan savdo qilish uchun beshta Xitoy portlarini ochib berdi. Gongong (Syangan) oroli Angliyaga o'tdi. Sin hukumati, shuningdek inglizlarga juda katta miqdorda kontributsiya to'laydigan, ajnabiylar bilan vositachilik savdosida monopol huquqni qo'lga kiritib olgan Xitoy savdo korporatsiyasini tugatadigan va Angliya uchun qulay bo'lgan yangi bojxona tarifi o'rnatadigan bo'ldi. 1843-yilda Nankin shartnomasi qo'shimcha protokol bilan to'ldirildi. Unga binoan ajnabiylarga ular o'rnatadigan kvartallarda eksterritorial huquqlar berildi, Xitoy hokimiyatiga bo'ysunmaydigan boshqaruv tizimi joriy qilindi, ajnabiy qo'shinlar va politsiya joylashtirildi. Mahalliy Xitoy hokimiyatlari ochiq portlarda bu ajnabiy kvartallar tizimiga nafaqat ruxsat berishlari,

balki ular uchun yerlar ajratishlari hamda uylar uchun “adolatli” ijara haqi o‘rnatishlari lozim edi. Ajnabiylar Xitoy sudlarining yurisdiksiyasidan to‘liq chiqarilgan, ular uchun konsullik yurisdiksiyasi o‘rnatilgan. Xullas, yuqoridagi shartnomalar Xitoyning ajnabiylar tomonidan ekspluatatsiya qilinishiga asos solib berdi, Gongong oroli inglizlarga berilib, ularni harbiy dengiz bazasiga va ular tomonidan Xitoyda olib borilayotgan afyun savdosining tayanch nuqtasiga aylantirildi.


### **Eslab qoling!**

**Angliyadan keyin tez orada AQSH va Fransiya (1844-yilda) Xitoy bilan teng huquqli bo‘lmagan shartnomalar imzolashdi.**

1856-yilda ro‘y bergan “ikkinchi afyun urushi” natijasida Xitoy ingliz va fransuzlarning birlashgan qo‘shinlaridan qAQSHatqich zarbaga uchradi. Mustamlakachilar Xitoyni yangi noteng shartnomalar imzolashga majbur etdilar. Chet elliklarga yana boshqa portlarda ham savdo olib borishga ruxsat etildi va yangi imtiyozlar berildi. Pekinda diplomatik missiyalar o‘rnatildi. Ingliz va fransuz fuqarolari Xitoy hududida Xitoy qonunlari va sudiga bo‘ysunishdan ozod qilindilar. Agar ular jinoyat sodir qilsa, ularni tegishli mamlakatlarning elchisi o‘sha mamlakatning qonunlariga binoan sud qilardi. Dengiz sohilidagi katta shaharlarda maxsus vujudga keltirilgan kvartallarda faqat ajnabiylar yashardi, Xitoy ma’murlari esa bu yerlarga kira olmas edi.

## **2-§. Taypinlarning “Samoviy mo‘l-ko‘lchilik davlati” (“Taypin tyango”)**

Birinchi afyun urushining muhim oqibati shu bo‘ldiki, mamlakatga inqilobiy vaziyat kirib keldi. Bu vaziyatning rivojlanishi Sinlar imperiyasini larzaga solgan qudratli dehqonlar urushiga olib keldi. Bu urush 1850-yilda mamlakat janubida – Guansi yaqinida boshlandi. Manjuriya sulolasiga va feodallarga qarshi kurash mustamlakachilarga qarshi kurash bilan qo‘shilib ketdi. Qo‘zg‘olonga manjurlarga qarshi yashirin tashkilot – “Oliy hukmdorga sig‘inish jamiyati” (“Baymandi xuey”) rahbarlari boshchilik qildi. Jamiyat tenglik va birodarlikni targ‘ib qildi. Uning boshlig‘i va g‘oyaviy rahbari maktab o‘qituvchisi Xun Syusyuan edi. U kurashning maqsadini “Umumiy rohat-farog‘atga asoslangan samoviy mo‘l-ko‘lchilik davlati” (“Taypin tyango”) barpo etishdan iborat deb bildi. Shu sababli uning izdoshlari taypinlar deb yuritildi.



Taypinlar amaliyotda teng taqsimotchilik g‘oyalarini targ‘ib qildilar va amalga oshirdilar. Shu sababli ularga, avvalo, hamma narsasidan mahrum bo‘lgan aholi qatlamlari ergashdi. Lekin ularning qatoriga manjurlarga qarshi harakatga jalb qilingan savdo burjuaziyasi va pomeschiklarning vakillari ham kirdi. Qo‘zg‘olon muvaffaqiyatli rivojlandi.

1851 yilda qo‘zg‘olonchilar Yunan okrug markazini egalladilar va bu yerda o‘zlarining davlatchiliklariga asos soldilar. Ular Yanszi viloyatida “Samoviy mo‘l-ko‘lichilik davlati” (“Taypin tyango”)ni e‘lon qildilar. Harakat rahbari Xun Syusyuan samoviy podsho (tyan van) unvonini oldi. Harakatning boshqa beshta rahbarlari ham podsho (van)lar deb yuritila boshlandi. Shunday qilib, boshqa dehqonlar harakatlari singari Xitoy dehqonlari ham “adolatli” monarxiya o‘rnatish uchun harakatni davom ettirmadi.

Taypinlar harbiy ishlarga katta e‘tibor berdilar va tez orada qattiq intizomga asoslangan jangovar armiya tuzdilar. 1853-yil martda taypinlar qo‘shini Min sulolasi davrida Xitoy poytaxti hisoblangan Nankinni qo‘lga kiritdi. Nankin shahri “Samoviy mo‘l-ko‘lichilik davlati”ning poytaxtiga aylantirildi.

Bu voqeadan keyin tez orada “Samoviy sulolaning yer tizimi” deb atalgan hujjat e‘lon qilindi. Bu hujjat rasmiy nomi doirasidan chetga chiqib, amalda feodallarga qarshi dehqonlar inqilobining dasturi bo‘lib qoldi. Unda yerlarning tenglik asoslarida taqsimlanishi, dehqonlarning

pomeshchiklarga ijara to'lovlaridan ozod qilinishi, ayollarga davlat xizmatiga kirishda erkaklar bilan teng huquqlar berilishi, mehnatga layoqatsizlarni davlat qaramog'iga olinishi, korrupsiyaga qarshi kurash choralari va boshqalar nazarda tutildi. Xun Syusyuan fikricha, bunday davlatda dehqonlar jamoa bo'lib yashashlari, jamoada "hech bir narsada tengsizlik bo'lmasligi uchun, hamma to'q va kiyim but bo'lishi uchun dalaga ega bo'lgan holda uni birgalikda ishlash, ovqat bo'lganida birgalikda tanovul qilish, kiyim-kechak bo'lganida ularni baravar taqsimlash, pul bo'lganida uni birgalikda sarflash lozim" edi. Aholi turmushi harbiy tartib asosida qurilardi. Har bir oilaning qo'shinga bitta askar yetkazib berishi belgilab qo'yilgandi. Qism boshlig'i esa butun tumanning hokimi hisoblanardi. Barcha erkaklar bitta mehnat lageriga, xotin-qizlar va bolalar boshqa lagerlarga joylashtirildi.

Taypinlar hokimiyati Xitoyning bir qismida 1864-yilgacha hukm surdi. Qo'zg'olonga rahbarlik qilishga qodir bo'lgan yagona siyosiy kuchning yo'qligi, qo'zg'olonga qo'shilgan ko'pgina pomeshchik va savdogarlarning feodal tartiblarni tugatishga harakat qilmaganligi, taypin rahbarlari orasida yuzaga kelgan nizolar, dehqonlar orasida kuchayib ketgan umidsizlik kayfiyatlari oxir-oqibat taypinlarning manjur ma'murlari tomonidan tor-mor keltirilishiga yordam berdi.

Manjurlar hukumati kuch to'plab taypinlarga qarshi hujumga o'tdi. Unga Angliya, Fransiya va AQSH yordam ko'rsatdilar. Bu davlatlar Xitoyda inqirozga yuz tutgan Sin sulolasi hukmronligining saqlanib qolishidan manfaatdor edi.

Taypinlar armiyasi o'zining ilgarigi jangovarlik qobiliyatini yo'qotgan edi. Taypinlar esa keng xalq ommasining qo'llab-quvvatlashidan mahrum bo'lgandilar. 1864-yilda manjur sulolasi va Xitoy pomeshchiklarining birlashgan qo'shinlari chet el interventlari yordamida qo'zg'olon rahbarlari joylashgan Nankin shahrini ishg'ol qildilar va shaharning 100 mingdan ortiq himoyachisini qirib tashladilar. Xun Syusyuan o'zini o'zi o'ldirdi. Taypin qo'zg'oloni bostirilganidan keyin chet el mustamlakachilari Sin sulolasini qo'llab-quvvatlashni davom ettirdilar va uning yangi-yangi yon berishlariga erishdilar.

Taypinlar qo'zg'oloni mag'lubiyatga uchragan bo'lsa ham, lekin katta tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. U Xitoyda burjua-demokratik inqilobning hamda milliy-ozodlik kurashining nishonasi bo'ldi.

### 3-§. “Islohotlarning yuz kuni”

Taypinlar qo‘zg‘oloni va “afyun” urushlari Sin Xitoyini larzaga soldi, zaiflashtirdi. Lekin davlat tuzumida muhim o‘zgarishlar yuz bermadi. Faqat davlat organlari tuzilishida ba’zi o‘zgarishlar bo‘ldi.

#### **Eslab qoling!**

**1861-yilda** uchinchi “afyun urush”idan so‘ng *tashqi munosabatlarni yurituvchi* tashqi ishlar bo‘yicha **Bosh devonxona** tashkil qilindi.

Biroq u to‘la ma‘nodagi tashqi siyosiy idora bo‘lmadi. Devonxonaning asosiy mansabdor shaxslari unda qo‘shimcha xizmat sifatida faoliyat ko‘rsatardilar va biror masalani hal qilishga haqli emas edilar. Bu holat chet davlatlar vakillarining ular bilan muzokaralarini qiyinlashtirardi. Shunga qaramay, davlat tizimida tashqi ishlar bo‘yicha maxsus organning paydo bo‘lishi mamlakatning ko‘p asrlik yakkalanib qolishi nihoyasiga yetganligini anglatardi.

**1885-yilda yana bir markaziy idora – Admirallik (harbiy-dengiz ishlari bo‘yicha devonxona) tashkil topdi.** U 1884-1885-yillardagi fransuz-xitoy urushi vaqtida xitoy flotining yo‘q qilinishidan oldin tashkil qilingan edi (Bu urushda Xitoy yana bir noteng shartnoma imzolashga majbur bo‘lgan va Annama fransuzlar tomonidan egallab olingan edi). Biroq flot qurilishi uchun ajratilgan mablag‘lar asosan imperator yozgi saroyining qurilishiga ketgan. Flotda xizmat qilish uchun mo‘ljallangan kishilar ham o‘sha yoqqa jo‘natilgan. Xitoy ilgariydek chet el intervensiyasi qarshisida qurol-yarog‘siz bo‘lib qolavergan.

Taypinlar qo‘zg‘oloni bostirilganidan keyin provinsiyalardagi ikki gubernatorlik (harbiy va fuqarolik) tizimi tugatildi va mahalliy hokimiyat yagona qo‘llarda to‘plandi.

#### **Eslab qoling!**

**Chjili, Gansu, Siguan provinsiyalaridan boshqa barcha provinsiyalar gubernatorlar tomonidan boshqarilgan.**

Yuqorida sanab o‘tilgan provinsiyalar tepasida **noib (szun du)**lar turardi. Noiblar bir vaqtda gubernatorlar orqali bitta, ikkita yoki hatto, uchtagacha provinsiyalarga ham boshchilik qilardilar. Biroq noiblar hokimiyati mamlakatning hamma provinsiyalariga tarqatilmagan edi. Provinsial boshqaruv tizimiga taypinlar harakati bilan kurashning oxirgi davrida vujudga kelgan “tartibni tiklash bo‘yicha” qo‘mitalar ham kirgan.

Bu qo‘mitalar provinsiyalarning asosiy mansabdor shaxslaridan iborat edi. Bunday mansabdor shaxslarga xazinabon, sud amaldori, tuz nazoratchisi va g‘alla intendanti kirar edi. Noiblar mavjud tuzumni ag‘darishni maqsad qilib olgan yashirin tashkilot a‘zolarini, “ochiqdan ochiq isyonchilar va bosqinchilar”ni yuqoridan ruxsat olmay o‘limga mahkum etish huquqlarini olganlar.

Shu bilan birga, manjurlar o‘zlarining hukmronligini saqlab qolgan holda chet elliklar bilan birga Sin sulolasini qutqarib qolgan Xitoy feodallariga ko‘p sonli davlat mansablarini berishga majbur bo‘lishdi. O‘sha vaqtlarda mansablarni ochiqdan ochiq sotish keng tarqalganligi davlat apparatini shakllantirishning xarakterli belgisi bo‘lgan Xitoyda chet el kapitali yoyilishining birdaniga kuchayishi uning iqtisodda muhim mavqelarni egallab olishiga, nisbatan kuchli va tez rivojlanuvchi chet el sektorining vujudga kelishiga olib keldi. Mamlakat g‘arb davlatlarining yarim mustamlakasiga aylantirildi. XIX asrning 60-80-yillarida Xitoyda birinchi kapitalistik korxonalar paydo bo‘ldi. Dastlab ular davlatga qarashli zavodlar, qurolxonalar va ustaxonalar bo‘lgan, so‘ngra davlat nazorati ostida harakat qiluvchi xususiy korxonalar vujudga keldi. Keyinroq Xitoyning o‘z korxonalari: metallurgiya kombinati, to‘qimachilik, shoyi to‘qish va boshqa fabrikalari paydo bo‘ldi. Xitoy fabrikantlari va Xitoy mollari bilan savdo qiluvchilar ichki bozorning kengayishidan, feodal tartiblarning yo‘qotilishidan va chet el raqobatining bartaraf etilishidan manfaatdor edilar. Ular milliy burjuaziyani tashkil etar edilar. Yirik amaldorlar va pomeschiklar shakllanayotgan milliy burjuaziyaning ilg‘or kuchlari bo‘lib qoldilar. Mamlakatga chet el kapitalining kirib kelishi Xitoy qishlog‘ining nisbatan yopiqligini tugatdi, Xitoy qishloq xo‘jaligini jahon bozoriga qo‘shdi. Milliy kapitalizmning o‘sishi, mamlakatda iqtisodiy aloqalarning kengayishi, yirik iqtisodiy va madaniy markazlarning vujudga kelishi xitoy millatining shakllanishi uchun, milliy o‘zlikni anglashning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratdi.

Xitoyning Yaponiya bilan urushda (1895-yilda) mag‘lubiyatga uchrashi va ayniqsa mamlakatning imperialistik bo‘linishi vatanparvar kuchlarning harakatini faollashtirdi. XIX asr oxirida uning ijtimoiy hayotiga milliy burjuaziya va burjualashgan pomeschiklar manfaatini ifoda etuvchi publitsist va faylasuf Kan Yuve boshchiligidagi ziyolilar guruhi katta ta‘sir ko‘rsatdi. Bu guruh mamlakatni modernizatsiya qilish, imperator hokimiyati yordamida islohotlar o‘tkazish uchun maydonga chiqdi.



Islohotchilarga xayrixoh bo'lgan imperator Guansyuy guruh a'zolarini davlat mansablariga tayinladi va Xan Yuve tomonidan tayyorlangan dasturiy doklad asosida iqtisod va maorifga, shuningdek davlat apparati faoliyatining ba'zi masalalariga bag'ishlangan 50ta radikal farmonlar chiqardi.

1898-yilning bu uch oylik davri Xitoy tarixiga **“islohotlarning yuz kuni”** nomi bilan kirdi. Islohotlar tul qolgan imperator Sisi tomonidan amalga oshirilgan saroy to'ntarishi natijasida hayotga tatbiq etilmay qoldi. Imperator Guansyuy qamoqqa olingan, uning farmonlari bekor qilingan, ko'p islohotchilar esa qatl etilgan, Kan Yuve chet mamlakatga qochib ketishga muvaffaq bo'lgan.


1899-yilda Xitoyda yana xalq qo'zg'oloni ko'tarilgan. Birinchi bo'lib qishloq va shahar kambag'allari kurashga ko'tarildilar. Ular “adolat va hamjihatlik otryadlari” (ixetuanlar) safida turib kurashdilar. Bu otryadlar “Adolat va hamjihatlik nomi bilan musht” deb nomlangan maxfiy jamiyat bazasida vujudga kelgan edi. Qo'zg'olon asosan chet elliklarga qarshi qaratilgan edi. Qo'zg'olonchilarning yaxshi uyushgan otryadlari (ixetuanlar) chet mamlakatlarning konsulxonalariga, savdogarlarga, missionerlarga hujum qilib, hukumat qo'shinlarini tor-mor keltirib, poytaxtni egallab olganlar va echilar yashaydigan kvartalni qamal qilganlar. Bu holat qator Yevropa davlatlari (Fransiya va boshqalar)ning, shuningdek Rossiya va AQSHning aralashuviga bahona bo'ldi. Ularning eng yangi harbiy texnika bilan qurollangan birlashgan qo'shinlari qo'zg'olonchilarga qarshi tashlandi. Interventlar 1900-yilda Pekinni oldilar, uning ko'chalarini qonga beladilar va saroylarni talon-toroj qildilar. Shu tariqa qo'zg'olon shafqatsiz bostirildi.

1901-yilda sinlarning vakillari tomonidan Yakunlovchi protokolga imzo chekildi. Bunga ko'ra, Xitoy hukumati bosqinchi davlatlarga juda katta miqdorda kontributsiya to'laydigan bo'ldi va qator kamsitilgan shartlarni qabul qildi. Bu shartnoma Xitoyni batamom yarim mustamlaka davlatga aylantirdi. Yakunlovchi protokolning sharmandali shartlari xalq ommasining manjurlar sulolasiga nisbatan umumiy nafratini kuchaytirdi. Sinlar buni pasaytirish uchun qator islohotlar o'tkazishga majbur bo'ldi. Islohotlar avvalo davlat boshqaruvi sohasida amalga oshirildi.

Islohotlar yo'lidagi birinchi amaliy qadam tashqi ishlar bo'yicha Bosh devonxonani qayta qurish bo'ldi. Ixetuanlar qo'zg'oloni bostirilgandan keyin ushbu Bosh devonxona negizida Yevropa namunasida **Tashqi ishlar ministrligi** tashkil qilindi. Saroydagi va

provinsiyalardagi bir qator serdaromad va yengil ishlar tugatildi. 1903-yilda sobiq Ijtimoiy ishlar ministrligi o'rniga **Dehqonchilik, sanoat va savdo ministrligi** tashkil qilindi. Uning oldiga savdo-sanoat korxonalarini faoliyatini tartibga soluvchi ustavlar ishlab chiqish, sanoat va savdoga kapital oqib kelishiga har tomonlama ko'maklashish vazifasi qo'yildi. **1905-yilda Politsiya ministrligi tashkil qilindi.** U keyingi yili **Ichki ishlar ministrligi** (fuqarolik ma'muriyati) qilib qayta tashkil etildi. **Ayni vaqtda maorif, pochta va aloqa yo'llari, moliya, armiya ministrligi tuzildi. Jinoiy jazolar ministrligi o'rniga Huquq ministrligi tashkil qilindi. 1906-yilda Bosh bojxona boshqarmasi ta'sis etildi.** Sud organlari ma'muriyatdan ajratildi. Xitoy sud tizimini Oliy sud palatasi, oliy pog'onali sudlar, okrug sudlari va birinchi instansiya sudlari tashkil etdi. Yuqoridagilar bilan bir vaqtda prokuratura ham ta'sis etildi.

1906-yilda konstitutsiyaviy boshqaruvga o'tish uchun tayyorgarlik chora-tadbirlarini o'tkazish haqidagi Farmon e'lon qilindi. Shu munosabat bilan 1907-yilda sinlar Konstitutsiyani tuzish va tekshirish bo'yicha byuro, shuningdek o'z kuchlarini kodekslar tayyorlashga yo'naltirgan Qonunchilik islohotlari byurosini ta'sis qildi. 1908-yil 1-avgustda **"Konstitutsiyaning asosiy dasturi"** deb nomlangan hujjat e'lon qilindi.




Yuqorida amalga oshirilgan islohotlar va boshqa tadbirlar Sinlar sulolasining qulashini birmuncha orqaga surdi, xolos.

#### **4-§. 1911-yilgi Sinxay inqilobi va monarxiyaning qulashi**

Ixetuanlar qo'zg'oloni bostirilganidan keyin yashirin inqilobiy tashkilotlar soni o'sishda davom etdi, dehqonlarning uyushmagan chiqishlari ham to'xtamadi. 1905-yilda mamlakatda bir qancha inqilobiy tashkilotlarning qo'shilishi natijasida "Birlashgan ittifoq" vujudga keldi. Xitoyni tiklash jamiyati ushbu ittifoqning asosini tashkil etdi. Bu ittifoqqa revolyutsion demokrat Sun Yatsen boshchilik qildi.

“Birlashgan ittifoq” dasturini Sun Yatsen keyinchalik “uch xalq prinsipi” shaklida millatchilik, demokratizm, xalq farog‘ati prinsipi shaklida ta’rifladi. Millatchilik deganda Sin sulolasini ag‘darish va Xitoy mustaqilligini tiklash, demokratizm deganda yerlardan teng foydalanishni amalga oshirish tushunildi. 1906–1908-yillar inqilobiy yuksalish davri bo‘ldi. Bu davrda “Birlashgan ittifoq” xalq ommasi orasida o‘z ta’sirini kuchaytirdi. 1906-yildan boshlab Xitoyda dehqonlar, ishchilar, ilg‘or ziyolilar va milliy burjuaziya g‘alayonlarining to‘lqini kuchayib bordi. Bu g‘alayonlar xalq ommasining ahvolini yaxshilashga, chet el kapitalining zo‘ravonligiga va unga xizmat qilayotgan hukumatga qarshi qaratilgan edi. Inqilobiy harakatlarga yangi, ya’ni Yevropacha ta’lim olgan askar va ofitserlar ham jalb qilindi.



Inqilob 1911-yil 10-oktabrda Uchkanda inqilobiy askar va ofitserlarning qo‘zg‘oloni bilan boshlandi. U tez orada janubiy va markaziy Xitoyning hamma provinsiyalarini qamrab oldi va bu yerlarda hokimiyat qo‘zg‘olonchilarga o‘tdi. Mamlakatning sanoati keng taraqqiy qilgan shimolida hokimiyat Sin hukumati qo‘lida qoldi.

Bu vaqtda janubda muvaqqat inqilobiy hukumat tuzildi, 1911-yil dekabrda esa 17ta inqilobiy provinsiyalar vakillarining konferensiyasida ko‘p yillik muxojirlikdan qaytib kelgan Sun Yatsen respublikaning muvaqqat prezidenti etib saylandi. U 1912-yil 1-yanvardan bu vazifani bajarishga kirishdi.

1912-yil 10-martda o‘zini Milliy Majlis deb e‘lon qilgan provinsiyalar vakillarining yig‘ilishi Sun Yatsen tomonidan taklif qilingan respublikaning Muvaqqat Konstitutsiyasini qabul qildi. Xitoy an‘anaviy davlatchiligi uchun bu Konstitutsiya progressiv ahamiyatga ega edi. Konstitutsiyada oliy qonun chiqarish hokimiyati sifatida ikki palatali parlament nazarda tutildi. Sun Yatsen fikricha, Konstitutsiya Sin hukumatiga boshchilik qilgan general Yuan Shikay diktaturasini cheklashi kerak edi. Lekin bu o‘zini oqlamadi.

1912-yil dekabr – 1913-yil fevralda bo‘lib o‘tgan parlamentga saylovlarda “Birlashgan ittifoq”ning qayta tashkil qilinishi natijasida 1912-yilda tuzilgan **Gomindan** (Milliy partiya) ko‘p o‘rin oldi. Gomindan Xitoyning burjua-pomeshchiklarcha Konstitutsiyasini ishlab chiqish va parlament chaqirish yo‘li bilan reaksiyaning hujumiga xalaqit berishga urindi.

Yuan Shikay ichki va tashqi siyosatning muhim masalalari bo‘yicha parlament fikrini rad etdi. U o‘zini imperialistik davlatlar qo‘llab-quvvatlashini ta‘minlashga harakat qilib, parlamentning irodasiga qarama-qarshi o‘laroq, 1913-yilning aprelida ular bilan yangi asoratli qarz to‘g‘risida shartnoma tuzdi. Shunda Sun Yatsen xalqni va janubiy provinsiyalar qo‘shinini Yuan Shikay diktaturasini ag‘darib tashlashga chaqirdi. Yuan Shikayga qarshi qo‘zg‘olon o‘sha yilning o‘zida boshlandi, lekin mag‘lubiyatga uchradi. Sun Yatsen yana mamlakatni tark etishga majbur bo‘ldi.

Qo‘zg‘olon bostirilganidan keyin Yuan Shikay o‘z shaxsiy hokimiyatini mustahkamlash uchun qator choralar qabul qildi. U mamlakatning doimiy prezidenti sifatida o‘z nomzodini tahdid va sotib olishlar yo‘li bilan parlament orqali o‘tkazishga muvaffaq bo‘ldi. Keyin esa parlament tarqatib yuborildi. Muvaqqat Konstitutsiya e‘lon qilinib, unda prezidentga diktatorlik vakolatlari berildi. Ministrlar kabineti endi parlament oldida emas, prezident oldida javobgar bo‘lib qoldi. 1915-yil oxirida yaqin orada monarxiya tiklanishi haqida rasman e‘lon qilindi. Bu hujjatning qabul qilinishi arafasida diktator Yaponiyaning “21 talabi”ni qabul qilgan edi. Bu Xitoyni Yaponiya mustamlakasiga aylantirishga

qaratilgan edi. Shu sababli Yuan Shikayga qarshi yangi qo'zg'olon boshlandi. Va natijada Yuan Shikay hali amalda egallab ulgurmagan taxtidan voz kechdi.

Yuan Shikay o'limidan keyin 1916-yilda hokimiyat o'zlariga qarashli hududlarda harbiy diktatura o'rnatgan Shimoliy-Xitoy militarist-generallari qo'lga o'tdi. Lekin inqilobiy Janub Shimoliy generallar hokimiyatini tan olmadilar. 1917-yil sentabrda Guanchjou (Kanton)da Sun Yatsen boshchiligida respublikani himoya qiluvchi harbiy hukumat shakllandi. Uning faoliyati Xitoy davlati tarixining eng yangi davriga tegishli bo'lib, bu haqida alohida darslik yoki o'quv qo'llanmada so'z yuritiladi.

### ***Nazorat uchun savol va topshiriqlar***

1. Ma'lumki, Xitoyda XIX asrning oxirlariga kelib Sin imperiyasining inqirozi va g'arb davlatlarining agressiyasi sodir bo'ladi.

*Ushbu voqealarning tarixiy-huquqiy oqibatlarini nimalardan iborat bo'ldi?*

2. Taypinlarning "Samoviy mo'l-ko'chilik davlati" ("Taypin tyango") Xitoy davlatchilik tarixida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan.

*Mazkur davlat to'g'risida qanday ma'lumotlarga egasiz?*

3. Xitoyda yangi davlatchilik shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan "Islohotlarning yuz kuni" nomi bilan tarixga kirgan voqealar bo'lib o'tgan.

*Ushbu voqealar sabablari, shart-sharoitlari va natijalari haqida ma'lumotlar bering.*

4. Xitoyda 1911-yilgi Sinxay inqilobi natijasida monarxiya ag'dariladi.

*Mazkur mamlakatda yangi davrda paydo bo'lgan va rasmiylashtirilgan davlat organlarining demokratik jihatlariga baho bering.*

## VII BOB. YANGI DAVR HUQUQINING ASOSIY BELGILARI

*Yangi davr huquqining shakllanishi va rivojlanishi. Angliya huquqi. Amerika Qo‘shma Shtatlari huquqi. Fransiya huquqi. Germaniya huquqi.*

### 1-§. Yangi davr huquqining shakllanishi va rivojlanishi

Yangi davr huquqining shakllanishi birdaniga yuz bermadi. Uning kelib chiqishi uzoq davom etgan tarixiy jarayonni o‘z ichiga olib, ilk o‘rta asrlardan boshlanadi va bir necha yuz yillarga cho‘zildi.

Yangi davr huquqining tarixiy-madaniy ildizlari ancha chuqur va mustahkam bo‘lib, ular andoza qilib olingan rim huquqi, shahar huquqi, xalqaro savdo huquqiga asoslanadi.

Eski feodal huquqni yangicha asosda isloh qilishda XVII asrdagi ingliz inqilobi va XVIII asr oxiridagi buyuk fransuz inqilobi muhim rol o‘ynadi.

Shunday qilib, g‘arb mamlakatlaridagi (birinchi navbatda Angliya va Fransiyadagi) yangi davr huquqi o‘rta asrlarda vujudga kelgan ilk huquqiy tizimlar (masalan, “umumiy huquq”ning va hattoki antik (qadimgi) huquq (rim huquqi)ning mantiqiy davomi sifatida shakllandi va rivojlandi. Yangi huquq o‘zidan oldin o‘tgan huquqdan mutlaqo boshqacha huquq bo‘lishi mumkin emas edi. U o‘z rivojlanishida eski huquqning ko‘pgina amaliy, ijtimoiy-foydali elementlarini qabul qilib oldi, saqlab qoldi va ulardan foydalandi.


Huquqni meros qilib olish darajasi shu darajada yuqori bo‘ldiki, amalda hech qayerda inqilobga qadar bo‘lgan huquqiy tizimlar izsiz yo‘qolmadi. Ularning ko‘p qismi yangi davr huquqiga yangilangan, shakli o‘zgartirilgan ko‘rinishlarda kirib keldi.

Burjua inqiloblarining g‘alaba qozonishi bilan yangi ijtimoiy munosabatlar o‘rnatildi. Bu yangi, burjua huquqining qaror topishiga olib keldi. Yangi davr huquqi inqilobdan oldingi tarqoqligi va huquqiy partikularizmi bilan tavsiflanadigan o‘rta asrlar huquqidan farq qilib, hamma yerda yaxlit, bir butun milliy huquqiy tizimlar ko‘rinishida tug‘ildi. Aynan kapitalizm tabaqaviy, mintaqaviy, bojxona va boshqa to‘siqlarni sindirib nafaqat milliy davlatlarning, balki milliy huquqiy tizimlarning ham vujudga kelishiga olib keldi.

Yangi davr huquqiy tizimlarida eng boshidanoq **konstitutsiyaviy huquq** (davlat huquqi, ommaviy huquq) ustunlik qila boshladi. Har qanday jamiyatning huquqiy binosi konstitutsiyaviy huquq asosida barpo qilindi.

Yangi davrda huquq o‘z rivojlanishida ilgorigidek jamiyatning ichki ehtiyojlarini va o‘zgarib turuvchi hayotiy sharoitlarini aks ettirdi. Biroq unda, ayniqsa, konstitutsiyaviy asoslarning rivojlanishi bilan qonunlar asosiy huquq manbayi bo‘lib qoldi. Aynan qonunlar (o‘zini o‘zi tartibga soluvchi vositalar emas) huquqiy tizimning negizi, huquq yaratuvchi omil bo‘lib qoldi. Qonunlar tuzish va chiqarish huquq rivojlanishining eng muhim vositasi sifatida maydonga chiqdi. Bu yo‘l bilan huquq tizimlashtirildi va yaxlit holga keltirildi.

Yangi davrda va ayniqsa XX asrda huquq umuminsoniy qadriyatlarni saqlab, “huquqning oliyligi” ta’limotida ifodalanib, ma’lum (ko‘p) darajada davlat organlarining farmoyishlari sifatida oldinga chiqdi.



Inqiloblardan keyin shakllangan va rivojlangan huquqiy tizimlar “**huquqning oliyligi**”, “qonunning oliyligi” prinsipi bilan bir qatorda boshqa prinsiplarni ham o‘z ichiga oldi. Yangi huquq o‘rta asrlar huquqidan farq qilib, **shaxs ozodligi**, uni korporativ, tabaqaviy va boshqa feodal kishanlardan ozod qilishda ifoda etilgan **individualizm prinsiplariga** asoslandi. Bu fransuz inqilobining dastlabki konstitutsiyaviy va boshqa qonunlaridayoq (Inson va fuqarolar huquqlari deklaratsiyasi va boshqalar) o‘z aksini topdi. Yangi davr huquqiy tizimlari markaziga tabaqaviy-korporativ tashkilotlar emas, balki aynan inson, shaxs qo‘yildi. Inson huquqlariga ham huquqiy hujjatlarning o‘zida tabiiy, muqaddas va ajralmas huquqlar sifatida qarala boshladi.

Yangi huquqiy tizimlarning eng muhim prinsipi **erkinlik** bo‘lib qoldi. U nafaqat umuminsoniy gumanistik oliy maqsadning ifodasi bo‘ldi, balki fuqarolik jamiyatining tadbirkorlik, savdo, raqobat va boshqa iqtisodiy-ijtimoiy erkinliklari, va, albatta, siyosiy erkinliklarida namoyon bo‘ladigan tarkibiy elementi sifatida maydonga chiqdi.

Yangi davr huquqining yana bir muhim prinsipi **tenglik** bo‘lib qoldi. U jamiyatdagi egalitarizm<sup>1</sup> kayfiyatlarini aks ettirdi. Tenglik yuridik ma’nodagi tadbirkorlik tizimining zarur elementi bo‘lgan, chunki u barcha shartnoma munosabatlari, shu jumladan mehnat munosabatlari asosiga qo‘yilgan edi.

Huquqning inqilobdan keyingi shakllanish jarayonining o‘zi shuni ko‘rsatdiki, yuqorida qayd etilgan huquq prinsiplari va asoslari, shu jumladan siyosiy erkinliklar ham, mustahkam huquqiy tartibot ta’minlanmasdan turib bo‘lishi mumkin emas. Tartibga solinganlik va barqarorlikka ayniqsa tadbirkorlik faoliyati muhtoj edi. Shu sababli yangi huquqning boshqa bir asosiy prinsipi **qonuniylik** bo‘lib qoldi. U siyosiy va fuqarolik huquqlarini amalga oshirish sharti, hokimiyatning demokratik institutlari, shuningdek butun iqtisodiyoti barqarorligining kafolati bo‘ldi.

**Anglo-sakson va qit’a huquqiy tizimlarining shakllanishi.** XVIII–XIX asrlarda Amerika (AQSH) hamda Yevropada (Belgiya, Italiya va boshqalar) qator yangi davlatlarning tashkil topishi, dunyoni qayta taqsimlashning tugashi va mustamlakachi imperiyalarning tashkil topishi, bozor tuzilishining butun yer shari bo‘yicha tarqalishi munosabati bilan kapitalizm insoniyat sivilizatsiyasi rivojlanishining keyingi borishini belgilovchi jahon tizimiga aylandi. Iqtisodiy va siyosiy hayotning internatsionallashtirilishi natijasida turli mamlakatlar huquqiy tizimlarining o‘zaro ta’sirini yanada o‘shirishga, ularning ilgarigi o‘z-o‘zini yakkalab qo‘yishiga barham berilishiga yerishildi.

Dunyoning ilg‘or davlatlari (hammadan avval Angliya va Fransiya) huquqining kapitalistik jamiyat qurish yo‘liga kechroq kirgan mamlakatlar huquqiy hayotiga ta’siri ayniqsa sezilarli bo‘ldi. Huquqiy tizimlarning o‘zaro ta’siri bunday sharoitlarda juda xilma-xil shakillar oldi, ularning o‘xshashligi esa ancha kuchaydi. Bunga qator milliy huquqiy tizimlarning keng andoza qilinishi (o‘zlashtirilishi), begona huquqning zo‘rluk yo‘li bilan tatbiq qilinishi, shuningdek alohida mamlakatlar huquqi prinsiplarining boshqa mamlakatlar huquqiy tizimlariga ohista transplantatsiya qilinishi yordam berdi. Turli mamlakatlar alohida milliy huquqiy tizimlarining o‘sib borayotgan o‘zaro ta’siri jarayonlarida XIX asr oxiri–XX asr boshida kapitalizmning yangi texnik imkoniyatlari: hozirgi zamon transport, aloqa, informatsiya vositalari va boshqalar ham muhim rol o‘ynadi.

---

<sup>1</sup> Egalitarizm – fransuzcha “egalite” – tenglik so‘zidan olingan.



## Eslab qoling!

Ingliz va fransuz milliy huquqiy tizimlari asosida huquqning andoza qilinib olinishi va transplantatsiya qilinishi jarayonlarining keng tarqalishi munosabati bilan huquqning **jahon tizimlari – anglo-sakson va qita (roman-german) huquqiy tizimlari** shakllandi. Bular milliy huquqiy tizimlarning ikki katta guruhlarini hisoblanib, o‘z ichki tuzilishi va tashqi yuridik tafsilotlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Ushbu ikki huquqiy tizimlarning har biri o‘zining “genetik kodi”ga, o‘zining tarixiy ildizlariga ega. Fransuz va ingliz huquqiy tizimlarining ildizlari o‘rta asrlarga borib taqalishiga qaramay, huquqning jahon tizimlarining vujudga kelishi aynan kapitalizm hukmronligining o‘rnatilishi jarayoni bilan bog‘liq. Bu mamlakatlarning huquq sohasida ustunlik holati ham ularning XIX asrda ancha boy bo‘lganliklari va rivojlanganliklari bilan belgilanadi.

Ayniqsa huquqning **anglo-sakson tizimining** tashkil topishi mustamlakachilik siyosati bilan chambarchas bog‘liq bo‘ldi. Bu tizim tarixida mustamlakachilik omilining katta ahamiyatga egaligi shu bilan belgilanadiki, ingliz huquqi o‘z-o‘zidan rivojlanishning katta imkoniyatlariga ega bo‘lishiga hamda o‘zining shakllanish usullari, mazmuni va shakli bo‘yicha noyob bo‘lishiga qaramay, o‘ta an’anaviy, milliy, shu sababli murakkab va andoza qilib olinishi uchun, dunyoning boshqa mamlakatlari tomonidan qabul qilib olinishi uchun tushunib bo‘lmaydigan edi. Oqibatda anglo-sakson huquqiy tizimi (oilasi) tushunish qiyin bo‘lgan ingliz huquqiy normalarining andoza qilib olinishi natijasida emas, balki ularni transplantatsiya qilish yoki mustamlakachilik ekspansiyasi<sup>1</sup> jarayonida zo‘rluk asosida majburiy tatbiq qilish yo‘li bilan jahon tizimiga aylandi.

Ingliz mustamlakachilik ekspansiyasining boshlang‘ich bosqichlarida ingliz huquqini andoza qilib olishiga emas, aynan transplantatsiya qilishga yordam beruvchi ikkita sud ta’limoti ishlab chiqildi. Birinchi ta’limotga ko‘ra, chet elga chiqayotgan ingliz o‘zi bilan birga ingliz huquqini ham “olib ketgan”. Bu bilan ingliz sudi go‘yoki ingliz mustamlakalarida (“dengiz ortida”) turgan inglizlarga metropoliyaning<sup>2</sup> o‘zida mavjud bo‘lgan hamma erkinliklar va demokratik institutlarning saqlanishini kafolatlagan. Bu ta’limot birinchi qirollik mustamlaka xartiyalarida

<sup>1</sup> Ekspansiya – bosqinchi davlatlarning yangi hududlarni bosib olishga intilishi.

<sup>2</sup> Metropoliya – mustamlakalarga ega bo‘lgan davlat.

to'plangan huquqiy tajribani umumlashtirish natijasi bo'lgan edi. Masalan, 1606-yilgi Virginiyaning qirollik xartiyasida quyidagilar ta'kidlangan edi: "Bizning fuqarolar agar bizning Angliya qirolligimiz hududlarida tug'ilgan bo'lsa va yashasa, bizga qaram har qanday o'lkada ularning hammasi birgalikda va har biri alohida ravishda ozodliklar, Erkinliklar va Imunitetlarga to'liq va to'la ma'nolarda ega bo'ladilar va ulardan to'la foydalanadilar".

1963-yilda sudya Xolt tomonidan ta'riflangan ikkinchi ta'limotga binoan, inglizlar tomonidan "obod bo'lmagan" yerlar o'zlashtirilgan hollarda mahalliy hind va boshqa tub aholi "sivilizatsiyaga erishmagan" xalq sifatida e'tiborga olinmasligi lozim edi. Bu mamlakatlarda Angliyaning hamma qonunlari harakatda hisoblangan. "Angliya qonunlari" atamasi mustamlakachilik amaliyotida faqat statutlarni emas, balki "umumiy huquq" va "adolat huquqi", ya'ni ingliz mustamlakachilari tomonidan tashkil etilgan sudlarda joriy qilingan pretsedent huquqini ham nazarda tutgan.

Ko'chib kelganlar tomonidan mustamlakalarda ingliz huquqining amalga kiritilishi nafaqat ko'rsatilgan sud ta'limotlari asosida, balki maxsus qirollik xartiyalari, shuningdek parlament qonunlari chiqarish yo'li bilan ham amalga oshirildi. Masalan, 1683-yilda Karl II tomonidan Ost-Indiya kompaniyasiga berilgan xartiyada ko'rsatilganidek, sudyalar ishlarni "odil sudlov, adolat va yaxshi vijdon" asosida, ya'ni amalda ingliz pretsedent huquqi asosida hal qilishlari lozim edi. Ingliz huquqi maxsus hujjatlar bilan Shimoliy Amerika mustamlakalarida, keyinroq Kanada (fransuz huquqi o'z ta'sirini saqlab qolgan Kvebekdan tashqari), Avstraliya, Yangi Zelandiya, Janubiy Afrikadagi ingliz dominionlarida joriy qilindi. Qirollarning normativ hujjatlari bilan ingliz huquqi "yuqoridan" Osiyo va Okeaniyadagi yangi mustamlakalarda ham joriy qilindi.

XIX asr oxirida Afrikaning batamom bo'linishi munosabati bilan ingliz huquqi, shuningdek, presedent huquqi maxsus hukumat hujjatlari asosida Afrikadagi mustamlakalarda ham (1874-yil Ganada, 1880-yil Ser-Leonda, 1897-yil Keniyada va hokazo) amalga kiritildi.

XIX asrda ingliz huquqi mustamlakalarga kiritgan qonunlar uning manbalarini qo'llash chegaralarini ham juda aniq ko'rsatib berdi. Masalan, 1874-yilda Oltin Sohil (Gana) uchun chiqarilgan Ordonansda qaror qilinganidek, mustamlakada Angliyadagi 1874-yil 27-iyulgacha, ya'ni Ordonans chiqarilguniga qadar harakatda bo'lgan "umumiy huquq, adolat huquqi va umumiy xarakterdagi statutlar" harakatda bo'ldi. Shu yerning

o'zida "adolat normalari va umumiy huquq normalari o'rtasida aynan bir xil masalalarda nizo yoki kelishmovchilik bo'lganda adolat normalariga ustunlik berilishi lozim" deb ko'rsatiladi. Xuddi shunday qoidalar boshqa mustamlakalar uchun chiqarilgan qonunlarda ham nazarda tutildi. AQSHdan ko'chib kelgan negr-ko'chmanchilariga asoslangan Liberiyada ingliz "umumiy huquqi" dastlab uning amerikacha varianti bilan o'zlashtirib olingan. 1820-yilgi qonunda ko'rsatilganidek, mamlakatda "umumiy huquq Qo'shma Shtatlarda qanday ko'rinishda qayta qurilgan va harakatda bo'lsa, o'shanday ko'rinishda" joriy qilindi. To'g'ri, 1824-yilgi yangi qonun endilikda "umumiy huquq va Buyuk Britaniya hamda Qo'shma shtatlar sudlarining odatlari" harakatda bo'lishini o'rnatdi, 1839-yilda esa "Liberiyada umumiy huquqning Blekston sharhlarida o'rnatilgan qismlari mazkur xalqning sharoitlariga qo'llanishi mumkin bo'lganligi uchun" harakatda bo'ladi deb belgilandi.

Inglizlar mustamlakalarda odatda an'anaviy mahalliy huquqni (masalan, hind huquqi, islom huquqi, odat huquqi va boshqalarni) to'liq tugatmadilar. Buning iloji va imkoniyati bo'lmadi. Lekin ushbu an'anaviy mahalliy huquq ingliz qonunlari yoki mustamlakachi hokimiyatlar tomonidan o'rnatilgan doiralarda harakatda bo'ldi. Bunday sharoitlarda ingliz huquqi va mahalliy huquq elementlaridan tashkil topgan o'ziga xos aralash huquqiy tizimlar ham vujudga keldi (masalan, ingliz-hind huquqi). An'anaviy huquq asosan oilaviy munosabatlarni tartibga solgan va ingliz huquqiga tobelik mavqeyini saqlab qolgan. Ingliz huquqi umuman olganda ushbu mamlakatlar huquqiy tizimlarining rivojlanishini belgiladi. Angliya mustamlakalari va protektoratlarida hamda janubi-sharqiy Osiyoda (Malayziya, Singapur, Gonkong, Bruneyda) ingliz huquqi ko'pincha hind va xitoy manzilgohlarida va savdogarlar o'rtasida harakatda bo'lgan hind va xitoy huquqi elementlari bilan, bu yerda islomning tarqalishi darajasiga qarab islom huquqi normalari bilan ham chatishib ketdi. Angliyaning Afrikadagi egaliklarida ma'lum doiralarda (ayniqsa, oila, meros sohasida va boshqa munosabatlarda) odat huquqi normalari harakatda bo'ldi, lekin ingliz huquqining ta'siri tobora o'sib bordi. Natijada keyinchalik XX asrning ikkinchi yarmida Britan mustamlakachilik imperiyasi yemirilgandan keyin ingliz mustamlakalari bazasida vujudga kelgan yangi davlatlar amalda anglo-sakson huquq tizimining ta'sir doirasida qoldilar.

Janubiy Amerikadagi ingliz mustamlakalarida huquqiy tizim o'ziga xos tarzda shakllandi. Bu mustamlakalarda egallab olish darajasiga qarab bursalar<sup>1</sup> respublikalari kengayib bordi. Bursalar respublikalarida golland

---

<sup>1</sup> Bursa – XVIII-XIX asrlarda ruhoniylar o'quv yurti.

(rim-golland) huquqi harakatda bo'ldi. Bu huquqning asosiy belgilari XV-XVII asrlardayoq belgilangan edi. XIX asr boshida Gollandiyaning o'zida huquq fransuz huquqi namunasida (Napoleon kodekslari asosida) qayta qurildi, uning mustamlakalari (Indoneziya, Janubiy Afrika va boshqalar)da esa huquq asosan dastlabki ko'rinishida harakatda bo'ldi. Golland hokimiyatlari mustamlaka qonunlarida kamchiliklar bo'lgan hollarda hatto rim huquqiga ham havolalar qildilar.

Inglizlar Janubiy Afrika mustamlakalarida o'z hukmronliklarini o'rnatib, ba'zi mahalliy odatlarning ham, rim-golland huquqining ham harakatini saqlab qoldilar. Lekin butun XIX asr va XX asr boshida Janubiy Afrika huquqi ingliz yurisprudensiyasi ruhida qaytadan ishlab chiqildi. Natijada ingliz va golland huquqlari chambarchas chatishib ketdi. Bu huquqiy tizimni Janubiy Afrika yuristlari "gibrid huquqiy tizim" deb atagan edilar.

Bu o'ziga xos huquq inglizlar tomonidan ularning Afrika qit'asining janubidagi boshqa egaliklariga (Janubiy Rodeziyaga – 1898-yilda, Svazilendga – 1907-yilda va hokazo) tarqatildi. Birinchi jahon urushi tugaganidan keyin, 1919-yilda Janubiy-Afrika Ittifoqi huquqi mandat ostidagi hudud – Janubiy-G'arbiy Afrikada ham joriy qilindi. Huquqning o'ziga xos gibrid tizimi, garchand ingliz ta'limotining juda aniq ta'siri ostida bo'lsa-da, Angliyaning boshqa qator mustamlaka egaliklarida: Seylonda (ingliz-rim-golland huquqi), Mavrikiy orolida (ingliz-fransuz huquqi), Vest-Indiyada (ingliz-ispans huquqi) ham tarixan vujudga keldi.

XIX asr oxiridan boshlab ingliz huquqi rasman o'z mustaqilligini saqlab qolgan, lekin amalda britan ta'siri ostiga tushib qolgan mamlakatlar: Misr, Afg'oniston va boshqalarning huquqiy tizimlariga ham katta ta'sir o'tkaza boshladi. O'ziga xos aralash huquqiy tizim britan orollarining o'zida ham – Shotlandiyada tarixan shakllandi.

Bu yerda o'rta asrlardayoq shotland sudlari amaliyoti bilan to'ldirilgan, "umumiy huquq" tizimiga to'liq qabul qilinmagan rim huquqining ko'pgina institutlari qo'llanilgan edi. Lekin 1707-yilgi Angliya va Shotlandiya Uniyasi haqidagi hujjatdan keyin, garchi shotland huquqi o'zining alohida statusini saqlab qolgan bo'lsa ham, u borgan sari ko'proq ingliz huquqi namunasiga intila boshladi. Ingliz huquqining jahondagi mavqeyining mustahkamlanishiga shu holat yordam berdiki, mustamlaka oliy sudlarining ishlari ustidan Londondagi Yashirin kengashning sud qo'mitasiga shikoyat qilish mumkin edi.

Ingliz huquqiga qarab ergashish va moslashish o'zini o'zi boshqaruvchi mustamlakalarda 1865-yilda ingliz parlamenti tomonidan

“Mustamlakalar qonunlarining haqiqiyliigi haqidagi akt” qabul qilingandan keyin ham saqlanib qoldi. Dominionlarda shakllangan milliy qonunchilik anglo-sakson huquqiy tizimining asosiy prinsiplariga, ya’ni sud pretsedenti va umumiy huquqqa asoslandi.

Ingliz huquqi qator mustamlakalarda o‘tkazilgan huquqning alohida sohalari va institutlarini kodifikatsiya qilish asosiga qo‘yildi. Masalan, XIX asrning 30-yillaridayoq taniqli ingliz yuristi Makoley rahbarligidagi maxsus komissiya jinoyat kodeksi loyihasini tuzgan edi. U faqat 1860-yilga borib Hindiston vitse-qirol huzuridagi Qonunchilik kengashi tomonidan tasdiqlangan edi. Ushbu jinoyat kodeksi loyihasi inglizlarning milliy huquqiy tartibni mustahkamlashga intilishi munosabati bilan 1857-yilgi milliy ozodlik qo‘zg‘oloni bostirilganidan keyin tasdiqlandi. Bu kodeksga fransuz qonunlari katta ta’sir ko‘rsatgan edi, shuningdek unda hind va islom huquqlarining qator qoidalari o‘zlashtirib olingan edi. Biroq u umuman o‘zining ruhi bo‘yicha to‘liq ingliz huquqiy tizimiga mos keldi. Hindistonning 1859-yilda fuqarolik sud ishlarini yuritish kodeksi qabul qilindi. Hindistonda shuningdek fuqarolik huquqi sohasida yana boshqa qator kodekslashtirilgan hujjatlar ham qabul qilindi. Masalan, 1863-yilgi Meros haqidagi, 1866-yilgi shartnomalar haqidagi hujjutlar va boshqalar fikrimizga dalil bo‘lishi mumkin. Ingliz huquqi (Stifen loyihasi) asosida 1892-yilda Kanada jinoyat kodeksi qabul qilindi. XIX asr oxiri– XX asr boshida hind mustamlakachilik kodekslari Angliya tomonidan qator boshqa mustamlakalarga (Aden, Sharqiy Afrikadagi mustamlakalar – Somali, Keniya va boshqalarga) ham tarqatildi. Britaniyaning sobiq mustamlaka egaliklari bazasida o‘sib chiqqan huquqiy tizimlarning juda xilma-xil bo‘lishiga qaramay, ular ichki tuzilishi va o‘z yuridik tafakkuri bo‘yicha asosan o‘xshash bo‘lgan. Anglo-sakson huquqiy tizimida Angliya umumiy huquqining roli va o‘rni alohida katta ahamiyatga ega bo‘lganligi uchun bu tizimni ko‘pincha “umumiy huquq oilasi” deb yuritiladi. Bu oilada huquqning pragmatik konsepsiyasi ustunlik qiladi. Bunga binoan yuridik norma shunchaki xatti-harakatning umumiy va mavhumiy ko‘rinishida emas, ko‘proq sud ishlarini hal qilish usulida olg‘a chiqadi. Tabiiyki, bunda pretsedent, sud huquqi muhim muhim o‘rin tutadi. Ushbu huquq uchun esa haqiqatni aniqlashga qaraganda ko‘pincha sud ishlarining o‘zini yuritishdagi protsessual momentlar (dalilarni taqdim qilish va baholash, guvohlarning ko‘rsatmalarini eshitish va boshqalar) katta ahamiyatga ega. Shunday qilib, anglo-sakson huquqiy oilasida huquq qonunchilik va tizimli-mantiqiy emas, balki turli protseduralarga oid va tasodifiy, favqulodda yuz beradigan xarakter kasb etadi. Rim huquqini

o'zlashtirib olishdan voz kechilganligi bu huquq oilasida ko'plab yuridik tushunchalar, yuridik konstruksiyalar va atamalar yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Ingliz sud amaliyoti ta'siri ostida anglo-sakson huquqiy oilasida shaxs huquqlarini davlat va jamiyat o'zboshimchaliklaridan himoya qilishga katta e'tibor beriladi.

### **Eslab qoling!**

**Huquqning qit'a tizimi (oilasi) anglo-sakson tizimidan farq qilib, Fransiya huquqiy tizimining, ayniqsa, XIX asrning boshidayoq amalga oshirilgan Napoleon kodekslarining bevosita ta'sirida vujudga keldi.**

“Huquqning qit'a tizimi” atamasining o'zi ham qiyosiy huquqshunoslik faniga XIX asrning oxirida kirib keldi. Bu atama xuddi anglo-sakson huquq tizimi singari shartli bo'lib, real voqelikni to'liq aks ettirmaydi. Dastlab bu tizim rim huquqining asosiy tushunchalarini, tuzilishlarini va umumiy ruhini meros qilib olgan Yevropa qit'asidagi qator mamlakatlarning huquqiy tizimlarini o'z ichiga olgan. Bu tizimga Fransiya, Gollandiya, Belgiya, Ispaniya, Italiya singari qarindosh “roman davlatlar”<sup>1</sup> kirgan. Bu guruhga, shuningdek XIX asr oxiri va XX asrning birinchi yarmida huquqning qit'a tizimiga juda katta ta'sir ko'rsatgan Germaniya ham taalluqli. Varvar (german) va rim huquqini sintez qilishni o'zida ifoda etgan german omili shu darajada muhim ahamiyatga ega bo'lib qoldiki, qit'a tizimining o'zi roman-german huquqiy oilasi deb atala boshladi.

Huquqning qit'a tizimi o'z rivojlanishida Yevropa qit'asi doirasidan ancha erta tashqariga chiqdi. Rim-ispan huquqiy an'alarining ta'sirida uni XIX asrdayoq amalda deyarli barcha Lotin Amerikasi davlatlari qabul qildi. Ushbu davlatlarda fransuz va rim huquqlarini andoza qilib olish chuqur bo'lgan. Qit'a tizimining tuzilishi va alohida qoidalarining asosiy elementlari XIX asr va XX asr boshida Fransiya, Belgiya, Gollandiya, Germaniyaning Afrika va Osiyodagi ko'pdan ko'p mustamlakalariga transplantatsiya qilindi. XX asrning ikkinchi yarmida bu plantatsiyalar mustaqillikni olsalar ham, lekin ularning huquqiy tizimlari roman-german huquqiy oilasiga “bog'liq” bo'lib qolaverdi.

Huquqning qit'a tizimi ta'sirini, shuningdek XIX asr oxiri–XX asr boshlaridagi yapon kodifikatsiyalarida, Usmoniylar imperiyasi, Misr va

<sup>1</sup>“Roman davlatlar” – qadimgi Rim bilan bog'liq davlatlar.

boshqa davlatlarning huquqida ham ko‘rish mumkin. Shunday qilib, huquqning qit’a tizimi XIX asr oxiri–XX asr boshida jahonning ikkita huquqiy tizimlaridan biriga aylandi.

Roman-german huquqiy oilasi rim huquqi va o‘rta asrlardagi huquqiy an‘analardan kelib chiqadigan o‘zining qator strukturaviy va texnik-yuridik xususiyatlariga ega. Qit’a mamlakatlarida Angliyadan farq qilib, huquq Yevropa va Amerika qit‘alari bo‘ylab “sayr qilib yurgan” inqiloblar qonunning nufuzining yanada o‘shishiga yordam berdi. U huquqning asosiy manbayiga aylandi va qit’a huquq oilasida asosiy tizim yaratuvchi omil bo‘lib qoldi. Sud amaliyoti emas, balki aynan qonun yagona milliy huquqiy tartibot va yagona qonunchilik rejimini yaratuvchi qurol sifatida maydonga chiqdi.

Qit’a tizimi mamlakatlarida qonunning oliyligini tan olishni ta‘minlaydigan maxsus yuridik qurilmalar shakllandi. Qonunga bu yerda oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan normalar o‘rnatish huquqi berilgan oliy hokimiyatning akti sifatida qaralgan. Bu huquqiy tizimda o‘z huquqiy kuchi bo‘yicha barcha bo‘ysunadigan va quyi turadigan normativ hujjatlar ham qonunga (konstitutsiyalarga) asoslangan. XIX asrda Fransiyada, umuman, qit’a tizimida bo‘lganidek, Fransiya yuristlarining tili bilan aytganda, “yozma qonunni fetishlashtirish” yuz berdi.

Rasmiy yuridik nuqtai nazardan qit’a tizimida sudning har qanday qarori yozma huquqqa, qonunga asoslanishi lozim bo‘lgan (ilgarigi sud qarorlariga emas). Sudyalar qit’a tizimlari doirasida huquqni faqat qo‘llashlari mumkin edi. Ular ingliz sudyalari singari huquq yarata olmasdilar. Masalan, 1804-yilgi Fransiya Fuqarolik kodeksida shunday ko‘rsatiladi: “Sudyalarga o‘z ko‘ruviga tegishli ishlar bo‘yicha umumiy buyruq ko‘rinishida qaror chiqarish taqiqlanadi”. Sud faoliyatining qonunosti xarakteri haqida ushbu Napoleon kodeksining 4-moddasi ham guvohlik beradi. Unga ko‘ra, qonunning mavhumligini yoki kamchiligini ro‘kach qilib sud qilishni rad etgan sudyaning odil sudlovni rad etganlikda ayblanib javobgarlikka tortilishi mumkinligi belgilangan edi. Sudyalarning sud qarorlarini chiqarishda qonunga bog‘liqligi prinsipi Italiyaning 1865-yilgi Fuqarolik kodeksining 3-moddasida ham yanada aniq ifoda etildi. Unda qonunning o‘z mazmunidan, qonun chiqaruvchining ko‘zlagan maqsadidan boshqacha tarzda qo‘llanilishi mumkin emasligi ko‘rsatildi. Lotin Amerikasi mamlakatlari qonunchiligida ham qonun va sud amaliyoti (“sudyalar huquqi”)ning o‘zaro munosabatini taxminan yuqoridagicha tushunish mavjud. Masalan, Argentinada shu narsa aniq o‘rnatildiki, sud pretsedenti va ta‘limot ishlari qonunni sharhlashda yordamchi hisoblanadi, lekin majburlovchi kuchlarining yo‘qligi sababli ular huquq manbalari emas.

## Eslab qoling!

**Qit'a tizimining yana bir muhim belgisi – bu kodekslashtirish** bo'lib, u huquqiy normalarni tarmoqlar bo'yicha tashkil etishning zarur sharti hisoblanadi.

Huquqning qit'a tizimi doiralarida XIX asrda amalga oshirilgan kodekslashtirishlarda Volter tomonidan XVIII asrda bildirilgan “Keling, hamma qonunlarni tushunarli, bir xilda va aniq qilamiz” degan istaklar amalga oshirildi. Kodekslashtirish ishlarida XIX asrga xos iqtisodiy va siyosiy liberalizm yorqin ifoda etildi. Unga ko‘ra dastlab huquqiy binoning umumiy ramkasi (doirasi), so‘ngra esa – xususiy huquqiy sohaga davlatning minimal darajada aralashuvi o‘rnatilishi nazarda tutildi. Kodekslar, XIX asr yuristlarining mo‘ljali bo‘yicha taqiqlangan va ruxsat etilgan chegaralarning aniq ta‘rifini berishi lozim edi.

Huquqning qit'a tizimi anglo-sakson huquq tizimidan nafaqat o‘z manbalari bo‘yicha, balki ichki tuzilishi bo‘yicha, asosiy huquqiy institutlari, konstruksiyalari bo‘yicha, yuridik texnikasi bo‘yicha ham farq qiladi. Qit'a tizimi mamlakatlari uchun, rim huquqiga xos bo‘lganidek, huquqni **ommaviy** va **xususiy**ga bo‘lish xarakterlidir.

Anglosakson tizimi	Roman-German tizimi
Asosiy manbasi – sud pretsedenti	Asosiy manbasi – qonun
Ommaviy va xususiy huquqqa bo‘linmaydi	Ommaviy va xususiy huquqning mavjudligi
Huquq sohalarining tarkibiy bo‘linmaganligi	Huquqning moddiy va posessul huquqlar bilan cheklanishi
Huquqning sud tomonidan yaratilishi	Sud qonun o‘rnatish faoliyati bilan shug‘ullanmaydi
Huquq ustuvorligi	Qonun ustuvorligi
Kodifikatsiya qilinmaganligi	Kodifikatsiya qilinganligi



## 2-§. Angliya huquqi

**XVII asrdagi ingliz inqilobi va huquqdagi o'zgarishlar.** Bu inqilobning asosiy va tarixiy shartlangan belgilaridan biri shundan iborat bo'ldiki, unga boshchilik qilgan Angliya tadbirkor doiralari burjuvialashgan yer egalari (jentri) bilan mustahkam aloqada bo'lib, eski siyosiy va huquqiy tizimlarni tubdan qayta qurishni o'z maqsadlari qilib qo'yamadilar. Angliya "umumiy huquqi", "adolat huquqi" va qisman statut huquqi XV–XVI asrlarga kelib kapitalistik rivojlanish istiqboliga sezilarli darajada moslashgan edi.

Inqilob davrida Angliya huquqi faqat unda hokimiyat tepasiga kelgan lendlordlar va tadbirkorlarning tub manfaatlarini qanchalik buzilsa, shu darajada o'zgarishlarga uchradi. Bu sohada inqilobning agrar qonunchiligining rivojlanishi xarakterli bo'ldi. Aynan shu sohada burjuvaziya va jentrining qirol, feodal aristokratlar va ingliz cherkovi bilan ancha keskin ziddiyatlari vujudga keldi.

Fuqarolar urushining boshlanishi bilan parlament urush harakatlari olib borish va armiyani ushlab turish bilan bog'liq katta xarajatlarni qoplashga harakat qilib, o'z siyosiy muxoliflarining, qirol tarafdorlari – royalistlarning yerlarini va boshqa mol-mulklarini kelajakda sotib yuborish bilan musodara qilish haqida qator hujjatlar chiqardi. Parlamentning bu hujjatlarida qirol tarafdorlari "suiqasdchilar", "yovuz niyatli kishilar" (delinkventlar) deb atalgan edi. Rasman bu tadbirlar harbiy-moliyaviy choralar tarzida talqin qilindi. Masalan, 1642-yilda qabul qilingan jamoalar palatasining qarori "Qirol tarafdorlariga urush olib borish bo'yicha xarajatlar yuklash haqida" deb nomlandi. Lekin mazmunan ushbu hujjatlarning ijtimoiy ahamiyati ancha chuqur edi. Ular eski dvoryanlar mavqeyini sindirdi, ko'pdan ko'p feodal pomestelarning tugatilishiga, katta miqdordagi yerlarning burjuv tipidagi mulkchilikka aylanishiga olib keldi.

1646-yil oktabrda fuqarolar urushi avjiga chiqqan paytda parlament arxiyepiskoplar va yepiskoplar yerlarini musodara qilish haqida ordonans chiqardi. U cherkov yerlarini sekularizatsiya<sup>1</sup> qilishni boshlab berdi.

Ushbu ordonans asosida musodara qilingan yerlar keyin (1646-yil 17-noyabrdagi ordonans bilan) sotuvga qo'yildi. Bunda ularning narxlari juda yuqori belgilangan edi. Yer uchastkalarini sotib oluvchilar 1641-yilgi (ya'ni urush boshlanguniga qadar) hisob bo'yicha ushbu yerlardan olingan

---

<sup>1</sup> Sekularizatsiya – cherkov yoki monastir mulkini davlat mulkiga aylantirish; cherkov qaramog'idan olish, chiqarish, din ta'siridan chiqarish, xoli qilish.

daromadning o'n baravardan kam bo'lmagan summasini to'lashlari lozim edi. Bu shunga olib keldiki, sotib yuborilgan yerlar jentri va tadbirkorlar, qisman parlamentga qarzga pul bergan sudxo'rlar qo'liga o'tib qoldi.

So'ngra 1649 va 1650-yillarda yangi hujjatlar qabul qilinib, ularga binoan yuqoridagi tartiblar cherkov yerlarining ancha keng doralariga (cherkov manorlari va boshqalarga) tarqatildi. Angliya respublika deb e'lon qilinishi munosabati bilan parlament 1649-yil iyulda "Sobiq qirol, qirolicha va merosxo'r shaxzodaga ilgari tegishli bo'lgan egaliklar, manorlar va yerlarni sotish haqida akt" chiqardi. Bu hujjatda ko'rsatilganidek, sotiladigan yer-mulklarning bahosi 13 yillik daromadni hisobga olib o'rnatilishi lozim edi. Yerni sotib olishda imtiyoz huquqi (30 kun ichida) ko'chmas mulkni ushlab turuvchilarga, so'ngra (10 kun ichida) – kreditorlarga berildi. Ushbu muddatlar o'tgach qirollik mol-mulki erkin sotuvga qo'yildi. Shu tariqa qo'lga kiritilgan ko'chmas mulk sotib oluvchilarga parlament hujjatlari bilan yoki ularga tegishli patentlar berish yo'li bilan mustahkamlandi.

Yuqorida ko'rsatilgan musodara qilingan yerlarni sotish haqidagi inqilobning qonun hujjatlari ingliz davlatining nufuzli doiralari manfaatlariga javob berdi. Bu qonunlar natijasida yerlar jamiyatning yuqori qismi boyligi bo'lib qoldi va amalda dehqonlarning asosiy qismi va ayniqsa shahar hamda qishloq kambag'allari qo'liga o'tishi mumkin emas edi. Bundan, masalan, yepiskoplar yerlarini sotish natijalari ham guvohlik beradi. Buning natijasida ushbu yerlarning 50 % jentri qo'liga, 29 % londonlik xaridorlar va savdogarlarga o'tdi va faqat 9 % yerlarga erkin dehqonlar (yomenlar) tomonidan egallab olindi.

Yer mulklarini qayta taqsimlash natijalarining ahamiyati katta edi. Burjuaziya va yangi dvoryanlar anchagina er fondlariga ega bo'lib oldilar. Yer egalarining tez-tez o'zgarib turishi ko'pincha dehqonlarning, bu yerlardan foydalanuvchilarning ahvolini yomonlashtirardi.

Burjuazyadan va dvoryan sohibkorlardan iborat bo'lgan yangi yer egalarining manfaatini ko'zlab, 1646-yilning fevralida ritsarlarning yer mulki va shu asosda qirol foydasiga bajariladigan majburiyatlar bekor qilindi. Bu islohotning chuqur sinfiy mazmuni bor edi. Ilgari Angliyada barcha katta yer mulklari qirolga ritsar bo'lib xizmat qilish yoki (XVII asrda) bunday xizmat o'rniga pul to'lash sharti bilan qirol tomonidan beriladigan feodal yer mulklari hisoblanardi. Endi bu to'lovlarning hammasi bekor qilindi va bu bilan ritsarlarning yer mulki hech qanday shartlar bilan bog'lanmagan batamom "burjua mulki" bo'lgan yerga o'xshab qoldi. Ammo parlament katta yer egalarining feodal asosda yer

mulk tutishini bekor qildi-yu, lekin kopigolder-dehqonlarning katta yer egalariga bo'lgan feodal qaramligini bekor qilmadi. Kopigold bekor qilinmadi, binobarin "yerga kopiya asosida egalik qiluvchilar" umumiy huquq deb atalgan huquq asosida emas, balki feodal huquq asosida ish olib boruvchi yer egasi bo'lish bilan birga manor lordlariga ilgarigidek soliq to'lashlari va majburiyatlarni bajarishlari kerak edi. Shunday qilib, pomeschiklar o'zlariga qarashli yerlarni xususiy mulkka aylantirib olishdan iborat burjuacha huquqqa ega bo'lib olib, dehqonlarning yerlarini ilgarigidek o'z qaramoqlarida saqlab qoldilar, ya'ni feodal mulkka aylantirdilar. Bu hol yangi yer egalariga dehqonlarni eski feodal usullar bilan ekspluatatsiya qilish uchun imkon berdi, keyinchalik esa yer egalarining dehqonlarga qarashli yerlarini talab olib, fermerlarga ijaraga berishini osonlashtirdi.

Shunday qilib, kopigolderlar uchun faqat xo'jayin almashdi, majburiyatlar esa o'zgarishsiz qoldi.

### **Eslab qoling!**

Ingliz dehqonlarining eski feodal tartiblarni sindirib tashlash haqidagi talablari nafaqat rad etildi, balki qattiq repressiyalarga olib keldi. Bundan yerga umumiy huquqlarni targ'ib qilgan diggerlar (kovlovchilar) harakatining Kromvel tomonidan bostirilishi ham guvohlik beradi.

Ingliz inqilobi o'rta asrlarda qaror topgan ko'pgina boshqa yer institutlariga (mayorat tizimiga, urug' mulklarini tasarruf etishning maxsus tartibiga va boshqalarga) ham tegmadi. Biroq u yerlarni tovarga aylanishiga yordam berdi, dehqonlardan jamoa yerlarini yanada ekspropriatsiya<sup>1</sup> qilishga, yer mulkiga yondashuvda yangi burjua prinsiplarini mustahkamlashga yo'l ochdi.

Inqilob davridagi qonunlar, shuningdek sanoat faoliyati va savdoni tartibga solish bilan bog'liq munosabatlarga ham kirib bordi. Tadbirkor doiralar parlamentdagi o'z mavqelaridan bu sohada qandaydir feodal tipdagi muhim siquvlarni bartaraf etish uchun, kapitalistik tadbirkorlikning asosiy negizlarini o'rnatish uchun foydalandilar.

XVII asrning boshidayoq parlament bilan qirol hokimiyati o'rtasida alohida qirollik patentlari va litsenziyalari asosida vujudga kelgan monopoliyalar va monopoliyalarga oid imtiyozlar haqidagi masala

---

<sup>1</sup> Ekspropriatsiya – majburiy tarzda tortib olish, ya'ni ilgarigi mavqeyidan, mol-mulkidan, ishlab chiqarish vositalaridan mahrum qilish.

bo'yicha keskin ixtilof kelib chiqqan edi. Yuqoridagi monopoliyalar sof feodal tipda bo'lib, erkin raqobatning rivojlanishi uchun jiddiy to'sqinlik qildi va parlament a'zolarining chuqur g'azabini qo'zg'atdi. Keskin majorolar natijasida 1624-yilda parlament tomonidan monopoliyalar haqida qonun qabul qilindi. Unga binoan, savdo va sanoatdagi "boshqa shaxslar uchun noqulaylik va cheklovlarga" olib keladigan qirollik imtiyozlarini taqdim qilish amaliyoti noqonuniy deb e'lon qilindi. Qirolning o'zi ham ordonans chiqarib, unda "qirollikda nimayiki bo'lmasin sotish, sotib olish, ishlab chiqarish yoki iste'mol qilishga monopol huquq beruvchi" hamma patent bekor qilinadi deb e'lon qilindi.

Monopoliya huquqlari faqat ixtiroga tegishli patent olgan ixtirochilarga berildi. Bu esa kapitalistik tadbirkorlik ruhiga to'liq javob berardi. Qirol monopoliyalari bilan kurashga parlamentchilar shu qadar muhim ahamiyat berdilarki, 1640-yil noyabrda umumpalata Karl I ning parlamentsiz boshqaruvi davrida monopoliyalarni taqiqlovchi qonunni buzgan shaxslarni o'z tarkibidan chiqarish haqida maxsus qaror qabul qildi.

1950-yil avgustda parlament tomonidan "Ingliz davlatining savdosini rag'batlantirish va ta'sis etish haqida akt" qabul qilindi. Bu hujjatda iqtisodiy sohada davlat siyosati asoslari mustahkamlanib, parlament "mamlakatning kambag'al kishilarni ish bilan ta'minlanishi va ularning oilalari qashshoqlik va xonavayron bo'lishidan saqlanishini, bu bilan davlatning boyishini hamda yalqovlik va qashshoqlik uchun sabablar qolmasligini istaydi" deb ta'kidlandi. Unda, shuningdek "parlamentni ingliz millati savdosining va sanoati turli tarmoqlarining qo'llab-quvvatlanishi va rivojlanishi haqidagi masala tashvishlantiradi" deb ko'rsatilgan edi.

Respublikaning savdo va bu bilan bog'liq bo'lgan tashqi siyosati davlat proteksionizmi va katta kompaniyalarga berilgan monopol imtiyozlarga asoslangan edi. Bu siyosat ittifoqdosh sinflar, ya'ni yirik burjuaziya bilan burjualashgan dvoryanlar manfaatiga mos kelardi.

1650-1651-yillarda Angliya savdosini qo'llab-quvvatlashga, Gollandiya savdosiga esa putur yetkazishga qaratilgan ikkita muhim akt chiqarildi. Bu ikki akt (shuningdek, bu aktlarda bayon qilingan asosiy qoidalarni rivojlantirishga qaratilgan bir qancha qonunlar) keng ma'noda "navigatsion" hujjatlar deb atala boshlandi, holbuki, faqat 1651-yilda chiqarilgan akt tom ma'noda navigatsiyon akt edi. 1650-yilda chiqarilgan qonun chet elliklarga Angliya mustamlakalarida Angliya hukumatining ruxsatisiz savdo qilishni taqiqladi. 1651-yilda chiqarilgan mashhur

navigatsiyon akt Angliyaning dengiz nariyog‘idagi savdosi uchun yanada katta ahamiyatga ega bo‘ldi, bu akt XVII asr merkantilizmining aynan paydo bo‘lishi edi. Navigatsiyon aktga binoan Yevropadan tashqarida tayyorlangan mollarni Angliya mustamlakalariga faqat ingliz ekipajlari xizmat qiladigan ingliz kemalarida yoki shu molni tayyorlagan mamlakat kemasida olib borilishi mumkin edi. Ingliz baliqchiligini himoya qiluvchi maxsus qarorlar chiqarildi: Angliyaga baliq tutuvchi ingliz kemalari bilan tutilgan baliqlarnigina olib kelish mumkin edi. Baliqlarni chetga faqat ingliz kemalarida olib chiqishga ruxsat etilardi.

Navigatsiyaga doir qonunlar Angliyaning mustamlakalar va Yevropa mamlakatlari bilan qiladigan savdosida vositachilik qilib kelgan XVII asr “dengiz kirakashi” Gollandiyani shu vositachiligidan mahrum qildi. Gollandiya savdosiga, dengiz kemachiligi va baliqchiligiga g‘oyat katta zarba berildi. Gollandiyaliklar asosan boshqa mamlakatlarning mollari bilan savdo qilardilar; fraxt, ya’ni mol tashish ularning savdo qudratida asosiy o‘rin tutardi. Tabiiyki, Gollandiya Angliya respublikasining navigatsiyaga xos qonunlarini tan olmadi. Bu 1652-yilda Angliya-Gollandiya urushiga sabab bo‘lgandi.

Parlament kapitalistik tadbirkorlikning rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi, lekin Angliya ishchilarining og‘ir ahvolini yengillashtirish uchun maxsus qonunlar ishlab chiqishni zarur deb hisoblamadi. 1649-yil aprelda umumpalata qaror qabul qilib, unda “turli hunarmandlarni hozirgi qimmatchilik vaqtida qo‘llab-quvvatlash va yashashlarini ta’minlash uchun ularga ish haqi belgilash va o‘rnatish” zarurligi ta’kidlanadi.

Bu qaror o‘rta asr “ishchilar” qonunlariga nisbatan yangi prinsiplar o‘rnatmadi. Unda faqat 1562 va 1604-yilgi qonunlarni, ya’ni absolutizm davridagi qonunlarni ijro etilishi haqida gapirildi, xolos.

### **Eslab qoling!**

**1657-yil iyunda parlament “Daydi va bekorchi, dangasa va sayoq kishilarga qarshi akt” qabul qildi.** Unda inqilobdan avvalgi qashshoq va daydilar to‘g‘risidagi qonunlarning qattiq qoidalarini qat’iy suratda qo‘llash zarurligi haqida eslab o‘tildi.

Ayni paytda puritan ahloqining ta’sirini o‘zida sinab ko‘rgan parlament oila asoslarini mustahkamlash uchun yaqin qarindoshlarning jinsiy aloqada bo‘lishi va er-xotinning bevafoqligi uchun sof o‘rta asrlar ruhida o‘lim jazosi o‘rnatishdan boshqa iloj topa olmadi. Parlament

shuningdek yakshanba kunlari cherkovga borishni talab qiluvchi eski anglikan<sup>1</sup> qonunlarini bekor qildi, lekin huquqdagi o'rta asrlar prinsiplari ruhida "yakshanba kunlari" raqsga tushishni, dinga qarshi qo'shiqlar aytishni va ichkilikbozlikni taqiqladi.

Inqilob davrida qabul qilingan parlament qonunlari qonunlar qiyofasini va umuman huquqiy tizimni jiddiy o'zgartirish uchun hali mutlaqo yetarli emas edi. Parlament boshqaruvi yillarida Angliyada turli siyosiy kuchlar o'zini namoyon qildi. Ular ingliz parlamentining qonunchilik sohasidagi noizchilligidan va qat'iyatsizligidan norozilik bildirdilar. Inqilob davrida parlamentga sudyalarning o'zboshimchaligidan va yuristlarning, yopiq advokatlik korporatsiyalari a'zolari – innlarning ta'magirigidan ko'plab shikoyatlar tushdi. Petitsiyalarda huquqni tubdan isloh qilish talablari ilgari surildi. Uzoq parlamentda eski huquqiy tizimni sindirish haqidagi masala bir necha marta qo'yildi.

1650-yilda Kromvel mamlakatdagi va hammadan avval armiyadagi kayfiyatlarni hisobga olib, "garchi yuristlar bizni mulkchilikni tugatishga harakat qilishda ayblab ayyuhannos solsalar ham, huquq sohasida islohotlar zarurligi haqida jim o'tirish" mumkin emas deb ta'kidladi.

Parlament tomonidan tuzilgan huquqni isloh qilish bo'yicha qo'mita "harakatdagi huquqda qanday kamchiliklar borligini, sud ishlarini yuritishdagi sansalorliklar, qimmatchiliklar va tartibsizliklar natijasida kelib chiqadigan noqulayliklarni qanday bartaraf etish mumkinligini muhokama qilish" haqida topshiriq oldi. Biroq bu qo'mita faoliyati samarasiz bo'lib chiqdi, chunki unda ham, parlamentning o'zida ham amalda huquqiy tizimni tubdan qayta ko'rib chiqishdan manfaatdor bo'lgan kuchlar yo'q edi. Qo'mita ishlarini amaliyotdagi yuristlar faoliyati to'xtatib turdi. Masalan, ular ko'chmas mulkni rasmiylashtirish haqidagi masalalarni muhokama qilishda yuridik atamalardan biri – incumbrance (og'ir ish yuklamoq) degan iboraning mohiyatini aniqlashni shunchalik chalkashtirib yubordilarki, qo'mitaga uning mazmunini aniqlash uchun uch oydan ortiq vaqt kerak bo'ldi.

Huquqni isloh qilish haqidagi talab Kromvel protektorati davrida ham bir necha marta ilgari surildi. Masalan, 1654-yilgi zobitlar majlisida Kromvelga murojaatnoma qabul qilinib, unda "ijtimoiy insofni qoniqtiruvchi qonunlarni tegishlicha tartibga keltirishni amalga oshirish choralarini qabul qilish" haqida ta'kidlandi. Kromvel esa ilgarigidek odam o'ldiruvchi qotillarni oqlaydigan va bir shilling o'g'irlaganlarni dorga yuboruvchi "juda jirkanch huquq"ni qoralashda davom etdi. U armiyaga

---


<sup>1</sup> Anglikan – protestan dinining Angliyada ustun bo'lgan turiga oid.

tayanib, parlamentni eng muhim siyosiy qarorlar chiqarishdan siqib qo‘ydi. Biroq ilgorigidek u yuristlarga huquqni isloh qilish bilan shug‘ullanishlariga imkoniyat taqdim qildi. Huquqiy sohaga jiddiy aralashish uchun unda tegishli tazyorgarlik ham, qat’iyat ham yetishmadi. Eng muhimi Kromvel tayangan va manfaatlarini ifoda etgan ijtimoiy qatlamlar huquqiy tizimni tubdan o‘zgartirishga qarshi chiqdilar.

Shunday qilib, inqilob davrida o‘rta asrlar davridan kelib chiqqan ingliz huquqini tubdan yangilash sodir bo‘lmadi. Biroq inqilob ingliz huquqining yoshi ulug‘ligi va an’anaviy manbalarga ega bo‘lishiga qaramay, yangilanishi va rivojlanishi uchun yangi sharoitlar tug‘dirdi.

**Ingliz pretsedent huquqining rivojlanishi.** Angliyada inqilobdan keyin ham o‘tgan davrdagi qirollik sudlarining umumiy tizimida va lord-kansler sudida ishlab chiqilgan pretsedent huquqi amal qilishda davom etdi.

Bu tizimlar ilgorigidek ingliz huquqining negizini (o‘zagini) tashkil etdilar va o‘z salmog‘i va ahamiyati bo‘yicha statut huquqidan, hatto u inqilobiy qonunlar bilan yangilangandan keyin ham uzoq vaqtgacha ustun turdilar.



### **Eslab qoling!**

Huquq va adolatning an’anaviy qarama-qarshi turishida inqilobdan keyingi yillarda asosan “umumiy huquq” g‘alabaga erishdi.

“Umumiy huquq” nufuzining o‘shishiga inqilobdan oldingi davridayoq qirollik sudlarining ikki raqobatlashuvchi tizimlari o‘rtasida vujudga kelgan to‘qnashuv yordam berdi.

XVIII asrga kelib o‘zlashtirilgan pretsedent prinsipi (stare decises) absoltizmning yanada mustahkamlanishi yo‘lida tasodifiy to‘siq bo‘lib qoldi.

Qirollarning, jumladan, Yakov Ining g‘ashiga shu narsa tekkan ediki, ular o‘z siyosatlarini qandaydir eskirgan va xususiy tortishuv bo‘yicha chiqarilgan sud qarorlari bilan muvofiqlashtirishlari lozim edi. Qirollik sudlari esa o‘zlarini “qirol xizmatchilari” deb emas, “huquq xizmatchilari” deb hisoblardilar. O‘sha vaqtning sudyasi va taniqli yuristi E.Kokning so‘zlariga qaraganda, huquq parlamentni ham o‘zgartira olmaydigan “buyruqlar, iltimosnomalar va pretsedentlar”dan iborat bo‘lgan.

### **Eslab qoling!**

“Adolat huquqi” “umumiy huquq”dan farqli o‘laroq pretsedent tomonidan siqib qo‘yilmadi. U o‘zida rim huquqining ijodiy ta‘sirini ko‘tarib bordi va tadbirkorlik ruhi bilan singib bordi.

“Adolat huquqi”, shuningdek qirollar sud siyosatining asosiy tayanchiga hamda inqilobiy lager tomonidan tanqid obyektiga aylandi. Bu bir qarashda paradoksal bo‘lgan fakt shu bilan izohlanadiki, adolat sudi raisi – lord-kansler ayni vaqtda oliy sud chinovnigi hisoblangan. U bor-yo‘g‘i qirol irodasining ijrochisi bo‘lgan. Lord-kanslyerlar qirol ma‘muriyatining bosh – attorneyi F.Bekonning “sudyalar sher bo‘lishlari, lekin taxt huzuridagi sher bo‘lishlari lozim” degan tilaklariga amal qilganlar.

Kansler sudiga nisbatan parlamentning muxolifiyatchiligi 1615-yilda Glenvill degan odamning ishi bo‘yicha shov-shuvli jarayondan keyin kuchaydi. Bu ishda lord-kansler Enesmer “adolat” prinsipi asosida umumiy tortishuvli sudning bosh sudyasi E.Kok tomonidan chiqarilgan sud qarorini qayta ko‘rib chiqdi. Bunda ushbu qarorning yolg‘onligi, sudga ma‘lum bo‘lmagan guvohlikka asoslanib chiqarilganligi asos qilib olingan edi.

Ikki sudlarning yurisdiksiyasidagi g‘ayrioddiy to‘qnashuv munosabati bilan qirol F.Bekon raisligida maxsus qo‘mita tuzdi. Qo‘mita kansler sudining o‘z qarorlarini, agar ular hatto “umumiy huquq” bo‘yicha tortishish natijalariga to‘g‘ridan to‘g‘ri zid bo‘lganda ham, amalga oshirish huquqini qo‘llab-quvvatladi. Bu qaror “umumiy huquq” nufuziga qattiq zarba bo‘ldi va kansler sudi siyosiy muxolifatning keskin tanqidiga uchradi. Parlamentchilar “adolat – muttahamnamo narsaligidan, uning lord-kansler oyoqlarining uzunligiga bog‘liq”ligidan shikoyat qildilar.



Garchi inqilob davomida parlamentning lord-kansler sudini tugatishga urinishi muvaffaqiyatsiz chiqqan va Angliyada sud tizimining dualizmi saqlanib qolgan bo'lsa ham, inqilob ushbu sud organi faoliyatida sezilarli iz qoldirdi.

### **Eslab qoling!**

Lord-kanslerlar jamiyatdagi ta'sirli doiralarning kayfiyatlarini va ularning barqaror huquqiy tartib o'rnatishga intilishlarini hisobga olib, XVII asr oxiridan o'z sudida ancha egiluvchan (moslashuvchan) siyosat yurita boshladilar.

Ular "adolat" tizimining "umumiy huquq" bilan keskin nizolarini takrorlamaslikka harakat qildilar.

Masalan, Angliyada "hozirgi zamon adolatining otasi" deb ataladigan lord-kansler Nottingem shunday ta'kidlagan edi: "Adolat ilm-fan qoidalari bilan belgilanishi lozim, kishilarning ahvolini sud injiqliklariga bog'liq bo'lishiga" yo'l qo'ymaslik kerak. Kansler sudida huquqiy asoslarni mustahkamlashning bu liniyasi shunga olib keldiki, XVIII asrda "adolat" tizimi pretsedent tizimiga bo'ysunib va "umumiy huquq"ga o'xshab rasmiy qoida tusiga kirib, bir yerda to'xtab qotib qola boshladi.

Biroq XVIII asrda ham, XIX asrda ham "adolat" tizimida huquq rivojlanishdan to'xtamadi. Masalan, XVIII asrdagi inqilobning mulkchilik haqidagi masalada mulkchilikning eski feodal tuzilishlarining, "real" ashyolarni tasarruf etishdagi cheklovlarning saqlanib qolishi masalasida noizchilligi "ishonib topshirilgan mulk" (trust) institutining yanada rivojlanishga olib keldi.

Bu institut ancha murakkabligi va shartliligi bilan ajralib turgan, lekin mulkdorni "umumiy huquq"ning qator siqib qo'yuvchi rasmiyatchiliklarini chetlab o'tishiga va o'z mulkini tasarruf etishdagi imkoniyatlarini, real huquqlarini kengaytirishiga imkon berdi. Bunda kanslerlar "ishonib topshirilgan mulk" tuzilishini "umumiy huquq" bo'yicha mulk tuzilishi bilan yaqinlashtirishga muvaffaq bo'lganlar.

Biroq XIX asrda ham "adolat" protsedurasi ingliz tadbirkorlari tomonidan qayta ta'na-malomatlar keltirib chiqardi. Kansler sudida ish ko'rish uning zimmasidagi ishlarning nihoyatda ko'pligidan juda uzoqqa cho'zilib ketardi va juda sekin davom etardi. Pretsedent huquqining qo'shaloq tizimi yuqori haq to'lanadigan advokatlar xizmatlaridan foydalanuvchi ishbilarmonlardan ortiqcha qo'shimcha xarajatlar ham talab qilgan. Taniqli ingliz huquq tarixchisi Meytland ta'kidlaganidek, "adolat adolatli bo'lmay qoldi".

Bu vaqtda “umumiy huquq” bir muncha boshqacha yo‘ldan bordi. Bu yerda inqilobdan keyin aslini olganda qarama-qarshi jarayon: pretsedentning qattiq prinsipi (stare decisis)dan sud huquq ijodkorligi (judge-made law)ning o‘sishi tomonga o‘tish kuzatildi. “Umumiy huquq” sudyalari shuni tushunib yetdilarki, ularning huquqiy tizimda rahbarlik roliga da’vo qilishlari, agar ular qator eski, ochiqdan ochiq eskirgan qoidalardan voz kechsalar va ko‘proq darajada kapitalistik rivojlanish talablariga javob bersalar, to‘g‘ri deb topilishi mumkin edi.

Bu tendensiya bosh sudya Mensfild davrida (1756–1788) ayniqsa yorqin namoyon bo‘ldi. U sud amaliyoti uchun butunlay zamonaviy va qulay qator ta’limotlar ishlab chiqdi. Ingliz adabiyotida uni “jonli huquq tilida gapiruvchi birinchi sudya” deb bejiz atashmaydi.

Mensfild pretsedent prinsipi bilan rasman aloqani uzmasdan turib, shu bilan birga “umumiy huquq”ga muhim o‘zgarishlar kiritdi. U bunda bu tizimga xos bo‘lmagan “adolat” va “sog‘lom fikr” g‘oyalariga tayandi.

Mensfildning o‘zi “umumiy huquq”da aynan mamlakatning kapitalistik rivojlanish ehtiyojlariga javob berishi mumkin bo‘lgan prinsiplarni “ochish”ga harakat qildi. Masalan, u vasiyat haqidagi ishlarni ko‘rishda “umumiy huquq”ga xos bo‘lgan ishlarning natijasini oldindan belgilaydigan tashqi shakllarni mutlaqlashtirish bilan aloqani uzdi. U “qonuniy niyat, agar u ochiq ifoda etilgan bo‘lsa, vasiyat qiluvchi shaxs tomonidan ehtiyotsizlik bilan foydalanilgan atamalarning mohiyati to‘g‘rilanishi lozim” deb tasdiqlab, meros qoldiruvchining haqiqiy irodasi aniqlanishini zarur deb bila boshladi. Shuningdek, shartnoma huquqi sohasida ham Mensfild, kontrakt haqidagi yangi tasavvurlar asosida “haqiqiy maqsadga” va tomonlar irodasiga asosiy ahamiyat berdi.

Mensfild o‘rta asrlar davrida shakllangan alohida savdo huquqining mavjudligini tugatdi va uni yagona “umumiy huquq” tizimiga birlashtirdi. Bu “umumiy huquq”ni ancha qulay va tadbirkorlarning tub manfaatlariga yaqin qildi, ingliz jamiyatida uning nufuzini oshirdi. Nihoyat, u zamonaviy sud jarayoniga asos solib, “umumiy huquq” sudlarida ishlarni ko‘rish tizimining o‘zini soddalashtirdi. Sud jarayonida tomonlarning dalillar keltirish huquqini kengaytirdi, apellyatsiya joriy qildi va hokazo.

Shunday qilib, “umumiy huquq” o‘zining tadrijiy rivojlanishi jarayonida barqarorlik va moslashuvchanlik kabi muhim sifatlarga ega bo‘ldi, endilikda nafaqat chalkashligi (ustamonlik bilan qilinganligi) bilan, balki aql-idrokka asoslanganligi bilan ham ajralib turdi. Biroq “umumiy huquq”ni to‘la “reanimatsiya” qilish (qayta jonlantirish) mumkin emas edi.

XVIII-XIX asrlarda pretsedent prinsipining batamom oʻrnatilishi munosabati bilan u huquq manbayi sifatida qotib qola bordi va oʻz oʻrnini qonunlarga boʻshatib bera boshladi.

Ingliz pretsedent huquqini batamom rasmiylashtirilishida muhim bosqich XIX asrning ikkinchi yarmi boʻldi. Bu davrda Angliyada parlamentar tizim batamom oʻrnatildi. Bu esa huquqiy tizimni mustahkamlashni va soddalashtirishni talab qildi. 1854-yil “umumiy huquq” boʻyicha tartibot haqidagi akt qabul qilindi. Bu hujjatga koʻra, qirollik sudlari “buyruqlari”ning juda chalkash, oʻrta asrlar tizimi bekor qilindi. 1858-yilda qabul qilingan akt “umumiy huquq” sudlariga tomonlar manfaatlarini himoya qilishning “adolat” tizimida ishlab chiqilgan vositalaridan foydalanishga ruxsat berdi. Va, aksincha, ushbu hujjatga binoan kansler sudi ilgari faqat “umumiy huquq” sudlari vakolatlari doirasiga kirgan masalalarni koʻrish va hal qilish huquqini oldi.

1854-yilgi hujjat bilan pretsedentning bogʻlovchilik kuchlari prinsipi qonuniy tartibda tan olindi. Bunda 1873–1875-yillardagi sud islohoti muhim rol oʻynadi. Islohot qirollik sudlarining umumiy tizimini lord-kansler sudi bilan yagona yuqori sudga birlashtirdi. Yuqori sud “umumiy huquq” normalarini ham, “adolat huquqi” normalarini ham teng darajada qoʻllashi mumkin boʻldi. Parlamentning bu qonuni “umumiy huquq” va “adolat huquqi”ning yagona pretsedent (sud) huquqi tizimiga qoʻshilishi jarayonini nihoyasiga yetkazdi.

1873–1875-yillardagi islohotdan keyin va hozirgi vaqtgacha ham “umumiy huquq” va “adolat huquqi” yagona sud pretsedent huquqi sifatida yaqqol koʻrinsada, bu ikki tizimning toʻliq qoʻshilishi sodir boʻlmadi. Qoʻshilish koʻproq darajada sud-tashkiliy va protsessual normalarga tegishli boʻldi. Moddiy huquq normalarga kelganda masalan, ishonib topshirilgan mulk va boshqalar), ular ilgarigidek amaliyotdagi yuristlar va sudyalarning oʻzlari tomonidan ochiq-oydin farqlangan.

Shunday qilib, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib oliy sud organlarini isloh qilish, shuningdek ingliz huquqiy tizimining eng asosiy taʼlimotlari: sud pretsedenti doktrinasi va “huquqning ustunligi” doktrinasining shakllanishi oxiriga etdi.

Sud pretsedenti doktrinasiga koʻra, lordlar palatasi sudining, apellatsion sudning, yuqori sudning qarorlari majburiy boʻlib, pretsedentni tashkil qiladi. Pretsedentga ushbu sudlarning oʻzlari va quyida turuvchi sud organlari amal qilishlari lozim. Angliya sud amaliyotida “stare docisis” (pretsedentning majburiyiligi) prinsipi faqat ish boʻyicha qarorni bevosita asoslaydigan qismiga (ratio desidendi) oid sud fikriga

qo'llaniladi, deb hisoblanadi, sudyalarning boshqa fikrlari (obiten dictu) esa majburiy kuchga ega deb tan olinmaydi. Taniqli o'zbek huquqshunos olimi, akademik A.X.Saidov ham aytganidek, "Ostin zamonidan boshlab, "Ratio decidendi" (aynan qarorning asosi) – qaror asos qilib olingan huquqiy qoidaga tegishli sud qarori qismigina pretsedent hisoblanadi. Faqat "Ratio decidendi" majburiy tusga egadir; sud qarorining qolgan qismi "obiten dictum" (yo'l-yo'lakay aytilgan) deb ataladi va majburiy deb qaralishi mumkin emas"<sup>1</sup>. Umumiy huquq pretsedenti va adolat huquqi o'rtasida tafovut bo'lgan taqdirda ustunlik keyingisiga berilishi lozim edi.

"Huquq ustunligi" ta'limoti ingliz yurisprudensiyasiga E.Kok davridayoq olib chiqilgan edi. Kokning fikricha, hammadan avval sud amaliyotida ochiladigan "huquq g'oyasi"ning o'zi har qanday qonundan ustun turishi lozim edi. Huquqning "ustunligi" yoki "hukmronligi" (rule of law) ta'limoti huquqiy davlat konsepsiyasida ingliz ekvivalenti<sup>2</sup> bo'lib qoldi.

Sud huquqining rivojlanishi sudyalarning yuqori turuvchi sudlarning pretsedentlariga qattiq bog'liqligi sababli ko'p jihatdan endi Angliya sud tizimiga boshchilik qiluvchi lordlar palatasining mavqeyiga bog'liq bo'ldi. Pretsedent huquqi tarixining hozirgi zamon bosqichida lordlar palatasining o'zi o'z qarorlariga qay darajada amal qilishi lozim degan masala juda keskin bo'lib turibdi.

Bir necha o'n yillar mobaynida (1898-yilgi mashhur "tramvay ishi"dan buyon) lordlar palatasi ilgari ishlab chiqilgan pretsedentlarni o'zgartirishni qat'iy rad etib kelmoqda. U o'zining xususiy qarorlariga amal qilish lozim va faqat qonun chiqarish hokimiyatida pretsedentlarni bekor qilish huquqi saqlanib qolgan, degan ta'limotga asoslanadi. Lordlarning bunday mavqeyi oxir-oqibat sud qonun ijodkorligining jiddiy cheklanishiga olib keldi.

Bu amalda shunga olib keldiki, XIX asrning oxiridan Angliyada huquqning yanada rivojlanishi endi sud qonun ijodkorligi yo'li bilan emas, balki yangi yozma qonunlar qabul qilish vositasida amalga oshirildi.

**Yangi davrda ingliz qonunlarining rivojlanishi.** XVII-XVIII asrlarda nufuzli va yaxshi ishlab chiqilgan sud huquqining mavjudligi ingliz huquqiy tizimida qonunning huquq manbasi sifatidagi ahamiyatini pasaytirdi. XVIII asrda parlament mavqeyining mustahkamlanishiga qaramay, unda ko'pchilikni tashkil etgan lendlordlar va moliya aristokratlari qonun chiqarish faoliyatiga kam ahamiyat berdilar. Bu vaqtda

<sup>1</sup> Saidov A.X. Hozirgi zamon asosiy huquqiy tizimlari: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – Toshkent, 2004. – B.253.

<sup>2</sup> Ekvivalent – bir narsaga har jihatdan teng bo'lgan, u bilan almashina oladigan narsa, teng ma'nonilik; teng qimmatlilik.

parlamentni qonun chiqarish sohasidagi o'z huquqlarini amalga oshirishdan ko'ra ko'proq ijroiya hokimiyat ustidan nazorat o'rnatish qiziqirdi. Parlament faqat me'yoriy emas, yurisdiksiya xarakteriga ega bo'lgan (alohida lendlordlarning yer huquqlarini tasdiqlash, jamoa yerlarining atrofini o'rab to'sish va hokazo) ko'p miqdordagi xususiy billarni tasdiqladi, xolos. Statut huquqining XIX asr boshidagi xarakterli belgisi shunda ediki, bu vaqtda yangi ijtimoiy ehtiyojlar ta'sirida qabul qilingan aktlar bilan bir qatorda parlament tomonidan o'rta asrlar davrida qabul qilingan ko'p sonli qonunlar ham ilgarigidek harakatda bo'ldi. Bu ingliz qonunchiligiga juda chigal, tushunib bo'lmaydigan ko'rinish berdi, uni sudlarda qo'llashda qiyinchiliklar tug'dirdi.

XIX asrda, ayniqsa, 1832-yilgi islohotdan keyin parlamentning qonun chiqarish faoliyati birdaniga faollashdi. Qonunlar asta-sekin kapitalistik rivojlanish davomida tug'iladigan yangi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning muhim va rivojlanuvchi vositasi bo'lib qoladi. Aynan qonunlar huquqiy tizimni o'rta asrlarning yaqqol eskirgan, qadimiy va tez-tez bir-biriga zid keladigan statutlaridan tozalashda asosiy qurol bo'lib qoldi. Yangi huquq, eng muhimi huquqni modernizatsiya qilishda "umumiy huquq" va "adolat huquqi"ga qaraganda ancha samarali va tez harakat qiluvchi vosita sifatida o'zini ko'rsatdi.

XIX asrning 20-yillaridan boshlab parlament eski qonunlarni tartibga keltirish va qayta ko'rib chiqish uchun to'plangan hujjatlar chiqarish vositasidan foydalana boshladi. Bunda parlament tomonidan qandaydir bir masala yuzasidan qabul qilingan eski statutlarning qonuniy matni o'zgartirilmay birlashtirildi. Masalan, 1823–1827-yillarda R.Pilya hukumati 300ga yaqin eski chalkash statutlarni to'rtta to'plangan hujjatga birlashtirib eski jinoyat qonunchiligini parlament orqali qisman isloh qildi.

1861-yilda jinoyat huquqi sohasida 7ta yangi to'plangan hujjatlar qabul qilindi. XIX asrning oxirida va, ayniqsa, XX asrda qonunlarni to'plash keng qo'llana boshladi. 1870-yildan 1934-yilgacha 109tadan ortiq to'plangan hujjatlar qabul qilindi. Bu hujjatlardan ba'zilari o'zida ilgarigidek u yoki bu darajada eskirgan yuridik atamalarni va qotib qolgan huquqiy tafakkurni saqlab qoldi. Ulardan ko'plari haddan tashqari murakkab va katta bo'lgan. Masalan, 1894-yilgi dengiz savdosi haqidagi hujjat 784-ta moddadan ortiq bo'lgan, buning ustiga o'ta ikir-chikir tafsilotlari bilan bayon qilingan edi.

Yangi davrda ingliz huquqining muhim xususiyatlaridan biri uning kodekslashtirilmaganligi bo'lib qolaverdi. XIX asrning birinchi yarmida, jumladan, taniqli yurist I.Bentamning ingliz huquqini "idrok qilib

bo‘lmaslik”da tanqid qilib yozgan asarlari munosabati bilan ba’zi yuristlar “umumiy huquq”ni kodekslashtirishga urinib ko‘rdilar. Lekin ularning bu urinishi muvaffaqiyatsiz chiqdi. 1866-yilda taniqli yurist Stifening tashabbusi bilan Angliyada huquqni kodekslashtirish bo‘yicha parlament komissiyasi tashkil qilindi. Stifening o‘zi Jinoyat kodeksining loyihasini tayyorladi. Lekin komissiya faoliyati advokatlar va sudyalarning qarshiligiga duch keldi, chunki ular uchun huquqning dastlabki ko‘rinishining saqlanib qolishi qulay va foydaliroq edi. Natijada Angliyadagi ijtimoiy fikr kodekslashtirish g‘oyasiga tayyorlanmagan bo‘lib chiqdi.

XIX asr oxirida ingliz huquqida o‘ziga xos “yasama (sun’iy) kodekslar” – kodekslashtirish elementlari bilan to‘plangan statutlar paydo bo‘la boshladi. Masalan, 1882-yilgi “Veksel haqida”gi akt, 1890-yilgi Shirkatlar haqidagi akt, 1893-yilgi “Tovarlarni sotish haqida”gi akt va boshqalar ana shunday hujjatlar edi. Bu statutlarni birlashtirish bilan cheklanib qolmay, shuningdek ilgari harakatda bo‘lgan huquqni, jumladan, «umumiy huquq” prinsiplarini ham jiddiy qayta ko‘rib chiqdilar. Biroq ular kodekslardan farq qilib, huquqning qandaydir sohasini mutlaqo yangicha tartibga solmay, nisbatan tor va maxsus sohalarga taalluqli normalarni birlashtirdilar. Masalan, 1911-yilgi “Yolg‘on guvohlik haqida”gi akt, 1913-yilgi “Hujjatlarni qalbakilashtirish haqida”gi akt va boshqalar fikrimizga dalil bo‘lishi mumkin.

XIX asrda qonun chiqarish faolligining o‘sishi munosabati bilan Angliya statutlari to‘plamlarini rasman nashr qilish amalga oshirildi. 1810–1822-yillarda parlamentning XIII asrdan 1711-yilgacha bo‘lgan davrda qabul qilgan statutlari (Statutes of the Realm) 9ta tomda e‘lon qilindi. Biroq bu nashr juda chalkash, tushunish qiyin bo‘lgan statut huquqiga oydinlik kiritmadi, chunki unga qonunchilik akti bo‘lmagan hujjatlar ham kiritilgan va ko‘p statutlar esa kamchiliklar bilan juda noaniq tahrir qilinib bosib chiqarilgan edi. Bundan tashqari, bu to‘plamdagi ko‘p hujjatlar ochiq-oydin eskirgan va amaliyotda qo‘llanmas edi. 1870–1878-yillarda yangi rasmiy nashr – “Qayta ko‘rib chiqilgan statutlar” (Revised statutes) amalga oshirildi. Keyinchalik parlamentning yangi ommaviy va xususiy hujjatlari to‘plamlarini har yili nashr etib turish amaliyoti mustahkamlandi.

Qonunchilikning o‘sishi, ayniqsa, XIX asr oxiri XX asr boshida pretsedent huquqi mavqeyini ancha siqib qo‘ydi. Shunga qaramay sud huquqi o‘z o‘rnini qonunchilikka to‘liq bo‘shatib bermadi. U statut qonunchiligini sharhlash asosida pretsedentlar bilan boyib bordi.

**Ingliz fuqarolik huquqining rivojlanish xususiyatlari.** “Fuqarolik huquqi” atamasining o‘zi ingliz huquqiy tizimiga nisbatan shartli hisoblanadi. U klassik Rim huquqiga xos huquqni ommaviy va xususiy huquqqa bo‘linishini, umuman uni tarmoqlar bo‘yicha tuzilishini tan olmaydigan sudyalari va qonunlar tomonidan qabul qilinmaydi. Ta’limot nuqtayi nazardan u qator an’anaviy institutlar: mulk, ishonib topshirilgan mulk, shartnomalar, deliktlar va boshqalardan tashkil topgan.

Fuqarolik huquqi huquqiy tizimning boshqa qismlariga nisbatan ko‘pdan ko‘p mulkiy va shaxsiy munosabatlarni tartibga solib, keskin burilishlarsiz va shu sababli ancha samarali, tadrijiy rivojlanib bordi.

Angliya fuqarolik huquqida kapitalistik rivojlanish yo‘liga kirgan boshqa mamlakatlardan ilgari, hali inqilobgacha bo‘lgan davridayoq sirdan o‘rta asrlar ko‘rinishiga ega bo‘lishiga qaramay, mulkchilik, shartnomalar va mulk aylanishining boshqa tomonlarini tartibga solishga ancha qayishqoqlik bilan bilan yondashuv hukmronlik qilgan. Angliyaning tadbirkor doiralari XVII-XVIII asrlarda hali o‘zlarining huquqiy dasturlariga ega bo‘lmay, kelishuvchiliklar bilan to‘la cheklanib qoldilar va umuman “umumiy huquq” va “adolat huquqi”ning an’anaviy tuzilishlari bilan qanoatlandilar.

Ingliz huquqi ham fuqarolarni, ham yuridik shaxslarni fuqarolik huquqining subyektlari sifatida tan oladi. Yuridik tenglik prinsipiga qaramay ba’zi kategoriyadagi shaxslarning, xususan, turmushga chiqqan ayollarning, chet elliklarning huquqiy layoqati cheklangan.

Yuridik shaxslarga kelganda Angliyada boshqa davlatlardan farq qilib, ishonib topshirilgan mulk institutidan foydalanishga asoslangan yuridik shaxslarni keng qo‘llash mavjud edi. Lekin shunday bo‘lsa ham shirkatlar uzoq vaqtgacha yuridik shaxslar deb hisoblanmadi.

**Ashyoviy huquq.** Angliya fuqarolik huquqining eng asosiy institutlaridan biri ashyo huquqi hisoblanadi. Bu yerda ashyo huquqi birmuncha kengroq talqin qilinadi, chunki ashjolarga ba’zi mutlaq huquqlar: mualliflar, ixtirochilar huquqlari va boshqalar ham daxldor hisoblanadi. Shu sababli ba’zan ashjo va majburiyat huquqlarini ajratish qiyin bo‘ladi.

Angliyada ashjolarni tasniflashtirish juda o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ingliz huquqi ashjolarni ko‘chadigan va ko‘chmas ashjolarga bo‘lishni bilmaydi.

Angliyada hali XIX asrda ham, ya’ni fuqarolik huquqi mazmun jihatdan umuman yangilangan bir paytda ham uning eng muhim instituti – mulk huquqida ashjolarni o‘rta asrlarga xos “real” (real property) va

“shaxsiy” (personal property) ashyolarga bo‘lish mavjud edi. Mulkning bunday tarzda bo‘linishi Angliyada mulkiy munosabatlarni himoya qilishning tarixan vujudga kelgan shakllari – “real” va “shaxsiy” da‘volar bilan bog‘liq bo‘lgan.

Real ashyolarga real da‘volar bilan himoya qilinadigan obyektlar kirgan. Real da‘volar bilan yerlar, urug‘ning ko‘chmas mulklari va unvonlar himoya qilingan. Uning maxsus himoyasidan, ayniqsa, yer egalari – lend-lordlar manfaatdor edilar. XIX asrda real mulkni tasarruf qilish ilgarigiga nisbatan kamroq bo‘lsa ham ma‘lum rasmiyatchiliklar va cheklovlar bilan bog‘langan edi. Bunday mulkni meros qilib qoldirishda o‘rta asrlar davridan saqlanib qolgan mayorat qoidasi harakatda bo‘ldi. Bu qoida urug‘ mulklarining bo‘linib ketishining oldini olishga qaratilgandi, ayollarni merosxo‘rlar safidan chiqargan edi va hokazo.

Shaxsiy ashyolar boshqa predmetlar va huquqlarni o‘z ichiga olgan va, o‘z navbatida, ikki ko‘rinishdagi obyektlarga bo‘lingan: egalikda turgan ashyolar – jismoniy ashyolar va da‘volar – ashyoviy asosga ega bo‘lmagan huquqlar (masalan, mualliflik huquqi, patent huquqi va boshqalar). Shaxsiy ashyolarga nisbatan huquq sudlar tomonidan tadbirkorlar uchun ancha egiluvchan (kerak tomonga o‘zgaruvchan) bo‘lgan va qulay vositalar bilan himoya qilingan.

Angliyada ashyo huquqlari tizimi juda noaniq bo‘lib, bu sohadagi ko‘pgina yuridik tushunchalar hanuzgacha o‘rta asrlardan buyon o‘zgarmay saqlanib turibdi. Masalan, hozirgi vaqtda ham ashyo huquqlarini “umumiy huquq” institutlariga va “adolat huquqi” institutlariga ajratish amaliy ahamiyatga ega. Angliyada barcha ashyoviy huquqlarga mulk huquqining turli-tuman ko‘rinishlari sifatida qaraladi. Bundan tashqari, ashyo huquqlari turlari orasidan turli shakllardagi ko‘chmas mulk ijarasiga nisbatan, servitutlar, jumladan, shaxsiy servitutlarga nisbatan ishonib topshirilgan mulkka nisbatan ashyo huquqlarini, turli xil ta‘minlangan ashyo huquqlarini (masalan, ipotekani) ajratib ko‘rsatish mumkin.

Angliyada yerga nisbatan mulk huquqining o‘ziga xos xususiyati shu bilan belgilanadiki, bu yerda hamma yerlar hanuzgacha qirol mulki hisoblanadi, alohida shaxslar esa uni ushlab turuvchilar sifatida ko‘riladi. Biroq amalda yerlarning xususiy shaxslar tomonidan ushlab turilishi o‘z mazmuni bo‘yicha mulk huquqidan hech qanday farq qilmaydi. Yerni ushlab turish muddatsiz bo‘lib, uni ushlab turuvchilarga hech qanday roziliksiz foydalanish va tasarruf etish imkoniyati berilgan. 1882-yilgi qonunga binoan yerni umrbod muddatga ijaraga olib ushlab turgan



shaxslarga ushbu yerni erkin tasarruf qilish huquqi berildi. Biroq yer uchastkasiga nisbatan huquqni o'tkazish tartibi murakkab rasmiyatchiliklar bajarilishini talab qiladi. Yer uchastkalarini va shaxsiy mulklarni meros qoldirish tartibida ham jiddiy farqlar mavjud.

**Ishonib topshirilgan mulk (trust)** instituti ingliz fuqarolik huquqining o'ziga xos instituti hisoblanadi. Bu mulkchilikning shunday shakli, unda bir shaxs (ishonch bildirilgan mulkdor) o'ziga boshqa shaxs (ta'sischi) tomonidan berilgan mulkni uchinchi shaxs (benifitsariy – foyda oluvchi) foydasiga boshqaradi. Bunda mulkiy huquqdagi vakolatlar go'yoki "bo'linadi". Ishonch bildirilgan mulkdor sotib olingan mulkdan butunlay erkin ravishda emas, balki ta'sischi ko'rsatgan maqsadlardagina foydalanadi. Bundan tashqari, u o'z huquqini o'zi uchun emas, balki boshqa shaxslar – foyda oluvchilar, benifitsariylar uchun ishlatadi. Foyda oluvchi ta'sischining o'zi ham, u ko'rsatgan boshqa shaxs ham bo'lishi mumkin. Ishonch bildirilgan mulkdor yuridik idoralar, vasiy va boshqalar (kvazi ishonch bildirilgan mulkdorlar) bo'lishi mumkin<sup>1</sup>. Ta'sischi, shuningdek ushbu mulkdan keladigan daromadlardan kim foydalanishini ham o'zi o'rnatadi.

Ishonib topshirilgan mulk instituti huquqiy muomalaga layoqatsiz shaxslarning mulkiy manfaatlarini himoya qilish uchun, xayr-ehson fondlari tashkil etilishi munosabati bilan vujudga keladigan munosabatlarni rasmiylashtirish uchun va boshqa shu kabi ko'pgina hollarda qo'llanadi.

**Majburiyat huquqi.** Ingliz huquqida majburiyatlarning umumiy tushunchasi yo'q. Majburiyatlar asosan shartnomalardan va huquqbuzarliklar, ya'ni deliktlardan kelib chiqadi.

Kapital oboroti<sup>2</sup>ning rivojlanishi **shartnoma huquqini** sud amaliyoti yo'li bilan batafsil tartibga solishni taqozo qildi. Shartnomalar va, umuman, majburiyatlar haqidagi umumiy qoidalar yaratildi. Garchi, hali huquqning eski (feodal) tashqi shakllari saqlanib qolgan bo'lsa ham, jumladan, shartnomalar eski tilda bayon qilinsa ham, ingliz shartnoma huquqi o'z mazmuni bo'yicha ma'lum darajada rivojlangan burjua huquqi bo'lib qoldi.

Ingliz shartnoma huquqining xarakterli belgisi shundan iboratki, bunda tomonlarning huquq va majburiyatlari aniq belgilanishi talab qilinadi, qarzdordan o'z majburiyatlarini to'liq va vijdonan bajarilishi talab qilinadi.

<sup>1</sup> Yuridik ensiklopediya / Y.f.d., prof. U.Tadjixanovning umumiy tahriri ostida, – T.: "Sharq", 2001. – B. 209.

<sup>2</sup> **Kapital oboroti** – pulning tovarga va qayta pulga aylanish davri.

Agrar va sanoat inqiloblari sharofati bilan qator yangi turdagi shartnomalar paydo bo'ldi va ularni huquqiy jihatdan tartibga solish taqozo qilindi. Masalan, ishchi kuchlari ijarasi, tovar ayirboshlash, xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnomalar yangi davrga xos munosabatlarni ifoda etuvchi asosiy shakllardan bo'lib qoldi. Yuqoridagi munosabatlarning rivojlanishi natijasida ingliz huquqining an'anaviy ta'limotlarida sud amaliyoti yo'li bilan shartnomaning umumtan olgan prinsiplari (tomonlarning tengligi, shartnomada "iroda va tanlash erkinligi"ning tan olinishi, majburiyatlar bajarilishining o'zgarmasligi va hokazolar) joriy qilindi. XIX asrda qarzdorning majburiyatni bajarmaganligi uchun qarz turmasiga qamalishiga olib keluvchi shaxsiy javobgarligi bekor qilindi. Shartnoma aloqalarining yangi turlari: yuk va yo'lovchilarni ommaviy tashish shartnomasi, sug'urta shartnomasi va boshqalar rivojlandi hamda qonunlar bilan tartibga solindi.

Angliyada turli shartnomalar orasida yerni ijaraga berish shartnomasi alohida ahamiyatga ega. Bunda huquq yer egalariining manfaatlarini himoya qiladi va ijaratorlar manfaatlarini himoya qilishga kafolat bermaydi. Ijara to'lovi tomonlarning roziligi bo'yicha, ya'ni haqiqatda er egasining xohishi bo'yicha o'rnatiladi. Agar ijarator shartnoma muddati o'tgandan keyin yer uchastkasini bo'shatmasa, u holda ijara to'lovi ikki baravarga ko'payadi.

Ingliz huquqining ayniqsa **deliktlar** (law of torts)ga tegishli normalari uzoq vaqtgacha murakkab va eskirganligicha qoldi. XVIII-XIX asrlarda hanuzgacha o'rta asrlar davrida ishlab chiqilgan da'volardan keng foydalanildi. Bunday da'volardan, masalan, birovning yer egaligiga bostirib kirish (trespass), yer egaligidan mahrum qilish (dispossession), juda zararli harakatlar qilish (nuisance) va hokazo hollarda foydalanilgan. Shuningdek, maxsus da'volardan "shaxsiy" mulk huquqi buzilganda – ashyo noqonuniy o'zlashtirib olinganda, noqonuniy ushlab turilganda va boshqa hollarda keng foydalanilgan.

Deliktlar juda o'ziga xos bo'lgan. Ularga ingliz huquqida shaxs huquqlarining buzilishi: tuhmat, birovning mulkiga zarar yetkazish maqsadida til biriktirish va hokazolar sifatida qaralgan. Kapitalistik jamiyatning rivojlanishi bilan delikt munosabatlarning ba'zi tomonlari (masalan, beparvolik tushunchasi) juda batafsil ishlab chiqildi.

Biroq, umuman olganda, delikt huquqida ko'p tushunchalar va prinsiplar ishlanmay qoldi. Qator deliktlar ilgorigidek "qat'iy javobgarlik" prinsipiga asoslandi. Bunga ko'ra, zarar yetkazish faktining o'zi kifoya qilib, huquqbuzarning subyektiv aybini o'rnatish talab qilinmagan. Ingliz

huquqida nomulkiy zarar etkazish hollarida keltirilgan zararni undirish, shuningdek aybsiz noqonuniy harakat sodir etgan shaxslarning javobgarligini o'rnatish kabilar keng doirada tan olinadi.

Shuni nazarda tutish kerakki, hozirgi vaqtga qadar pretsedent huquqi o'z harakatini Angliya fuqarolik huquqining boshqa institutlariga qaraganda ko'proq delikt huquqi sohasida saqlab qolgan. Biroq delikt huquqining eskirganligi uning hozirgi zamon huquqbuzarliklari, masalan, kompyuter ma'lumotlari bazalarini oshkor qilish yoki ulardan ruxsatsiz foydalanish va hokazolar bilan to'ldirilishiga xalaqit qilmadi.

**Oila huquqidagi o'zgarishlar.** Ingliz oila huquqida uzoq vaqtgacha feodal qoldiqlar saqlanib qoldi. Masalan, nikohning cherkov shakli hozirga qadar ham saqlanib qolgan. Fuqarolik nikohi faqat 1836-yildan boshlab tan olinadigan bo'ldi. Nikoh shaklini, ya'ni nikohni cherkovda yoki davlat muassasasida qayd qilishni nikohdan o'tuvchilarning o'zlari tanlaydilar.

Er-xotinning shaxsiy munosabatlari boshidan yerning hukmronligiga asoslangan. Erga xotini ustidan "nazorat" qilish huquqi va hatto xotini "evi bilan jazolash" huquqi tegishli edi.

Xotinning mulkiy huquqi juda cheklangan edi. U faqat kundalik hayotdagi bitimlarni mustaqil tuzgan. Er-xotin mulkini boshqarish va tasarruf qilish erga tegishli edi. Xotin huquq subyekti hisoblanmagan. Xotin shaxsini er shaxsiga yuridik singdirish yuz bergan. Vaqt o'tishi bilan erning xotin ustidan hokimiyati kuchsizlanib bordi. 1882-yilgi qonun bilan erga tekkan ayollarning mulkiy munosabatlarda ba'zi mustaqilligi o'rnatildi. Bunga binoan, eri bor ayollar o'z mulkini tasarruf qilish huquqini oldilar. Angliyada bu vaqtda erga tekkan xotinning mulkiy huquqlari kengaytirildi, uning eri xiyonat qilganda ajralishni talab qilish huquqi tan olindi, nikohsiz tug'ilgan bolalarni (kelajakda nikohdan o'tish sharti bilan) qonunlashtirish imkoniyati nazarda tutildi.

### **Eslab qoling!**

1857-yilga qadar nikohni bekor qilish mumkin emas edi. Er-xotin birga yashashi mumkin bo'lmagan hollarda ularning "stoli va yotoqxonasini ajratish" qo'llanilardi. 1857-yilgi qonun bilan er-xotinning ajralishiga ruxsat etildi. Bunda 1923-yilgacha "erning oddiy xiyonati" nikohni bekor qilishga asos deb tan olinmagan. Ayni vaqtda esa er bunday holda nikohni bekor qilish uchun "xotining nikoh tuzilgandan keyin sodir etgan xiyonati"ni asos qilib ko'rsatishi mumkin edi.

Ingliz qonunlari “oddiy xiyonat”ni “murakkab xiyonat”dan farqlaydi. “Murakkab xiyonat”ga yaqin qondoshlar bilan qo‘shilish, ikki xotinlilik, xotiniga shafqatsiz munosabatda bo‘lish yoki uni kamida ikki yil qaramay uzrli sabablarsiz tashlab ketish kabilar kirgan. Bunday xiyonatda xotin ham nikohni bekor qilish huquqiga ega bo‘lgan.

Angliyada nikohni bekor qilish jarayoni ikki bosqichni talab qilgan. Birinchi bosqichda sud da’voni qabul qilib olgan va uni asosli deb topgach, qaror chiqarishni olti oy keyinga qoldirgan, chunki bu vaqt davomida ajralishga to‘sqinlik qiluvchi holatlar aniqlanib qolishi mumkinligi hisobga olingan. Masalan, er-xotinning qandaydir g‘arazli maqsadlarda nikohni bekor qilish haqida til biriktirganliklari aniqlanib qolsa, sud da’voni qanoatlantirmasligi mumkin edi.

Bolalar 21 yoshgacha ota hokimiyati ostida bo‘lgan. Ona faqat bolalarning otasi ishtirokida ota-onalik hokimiyatini amalga oshirgan. 1908-yilgi qonunga binoan ota-onalarning bolalar bilan juda yomon munosabatda bo‘lganliklari hollarida javobgarlik nazarda tutilgan. Lekin qonun otaning bolalariga nisbatan “axloq tuzatish choralari”ni qo‘llashini taqiqlamadi.

Nikohsiz tug‘ilgan bolalarni qonunlashtirishga faqat ba’zi hollarda, parlament hujjati asosida yo‘l qo‘yilgan.

**Meros huquqi.** Ingliz meros huquqining xarakterli belgisi vasiyat qilishning to‘la erkinligi hisoblanadi. 21 yoshga to‘lgan har qanday shaxs o‘z mulkini xohlagan kishiga vasiyat qilib qoldirishi mumkin. Vasiyat bo‘lgan hollarda eng yaqin qarindoshlar ham mulkdan qandaydir ulush olishga haqli emaslar. Bu qoida ingliz inqilobi davrida o‘rnatilgan edi va hozir ham o‘z kuchini saqlab qolgan.

**Qonun bo‘yicha merosda yer-mulkini va boshqa mulklarni meros qilib qoldirishda turlicha qoidalar o‘rnatilgan.** 1925-yilgi “Mulknii boshqarish haqidagi akt” chiqarilguniga qadar ingliz meros huquqida qonun bo‘yicha merosning ikki turi: real meros va shaxsiy meros o‘rnatilgan edi.

Ko‘chmas mulk (ko‘chmas mulkka ijara huquqlaridan tashqari) real meros hisoblangan. Vasiyat bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar bo‘lmasa real mulk (asosan zodagonlarning eski yer egaliklari) eng yaqin tug‘ishgan qarindoshga o‘tgan. Bunda ko‘chmas mulk, avvalo, erkak va katta yoshli tug‘ishgan yaqin qarindoshga o‘tgan. Shaxsiy meros (asosan ko‘chadigan mulklar)ni taqsimlash tartibi qit’a huquq tizimidagi tartibdan kam farq qilgan.

Ingliz huquqiy tizimida meros huquqini qabul qilib olish mexanizmi juda o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Meros qoldiruvchiga tegishli huquq va majburiyatlar dastavval vositachilik qiluvchi shaxsga o'tadi. Bunday shaxs dastlab tegishli sud raisi hisoblangan. Undan keyin huquqlar sud tomonidan tayinlangan "shaxsiy vakil"ga o'tadi. "Shaxsiy vakil" ma'lum rasmiyatchiliklarni, ya'ni "merosni boshqarishni ramiylashtirish"ni amalga oshiradi. Shundan so'ng u o'zi egallab turgan huquqlarni merosxo'rlarga o'tkazadi.

**Kompaniyalar, monopoliyalar va cheklangan savdo amaliyoti haqidagi qonunlar.** XVIII-XIX asrlarda savdo shirkatlari (kompaniyalar) haqidagi qonun uzoq, lekin juda tadrijiy rivojlanib bordi. Savdo shirkatlarining huquqiy statusi uncha murakkab bo'lmagan shaxsiy aloqalarga va barcha ishtirokchilarning to'la javobgarligiga asoslangan holatidan kompaniyagacha rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Kompaniyalar kapital jamg'arish maqsadlarida chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni ushlab turuvchilarning cheklangan mas'uliyati bilan aksionerlik jamiyati prinsipi bo'yicha tashkil etilgandi.

London birjasidagi janjalli chayqovchiliklar ingliz parlamentini XVIII asr boshidayoq kompaniyalar haqida maxsus qonun – "Sovun ko'piklari haqidagi akt" chiqarishga majbur etdi. Unga binoan, davlatning maxsus ruxsatisiz aksionerlik kompaniyalar tashkil qilish taqiqlandi.

Angliya tadbirkorlari dunyosida XIX asrning boshiga qadar ushbu hujjat munosabati bilan "umumiy huquq" tomonidan tan olingan savdo shirkatlari ko'pchilikni tashkil qilgan. Bu savdo shirkatlari hissa asosida, lekin ishtirokchilarning cheklangan mas'uliyati bilan tashkil etilgandi. 1825-yilda "Sovun ko'piklari haqidagi akt" bekor qilingan, biroq kompaniyalarning ruxsat olib hissa asosida tashkil qilish tartibi ilgari gidek saqlanib qoldi. Lekin rivojlanayotgan kapitalizm kompaniyalar tashkil etish va faoliyati haqidagi masalani ancha tez va kerak tomonga o'zgaruvchan qonunlar asosida hal qilishni, kompaniyalar uchun ancha qulay sharoitlar yaratishni talab qildi. Aynan ushbu ehtiyoj natijasida 1844–1867-yillarda kompaniyalar haqidagi qator yangi qonunlar qabul qilingan edi.

Umuman olganda, ingliz huquqi bu vaqtgacha "yuridik shaxs"ning maxsus tushunchasini bilmasdi. Yuqoridagi qonunlar qimmatli qog'ozlar chiqaruvchi va mulk aylanishida ishtirok etuvchi savdo shirkatlariga mustaqil (yuridik) shaxslar sifatida qaradi. Savdo aylanmasida kompaniya direktori kompaniyaning individual ishtirokchilari yig'indisi nomidan emas, kompaniya nomidan chiqqan. Yangi kompaniya ta'sis etish uchun

qonun bo'yicha yettitadan kam bo'lmagan ta'sischi bo'lishi, nomi yozilgan aksiyalar chiqarilgan bo'lishi, ustav ishlab chiqilishi talab qilingan, lekin buning uchun endi hukumatning oldindan ruxsati shart bo'lmagan. Faqat kompaniyani ta'sis etuvchi asosiy hujjatlarni oddiy rasmiylashtirishi nazarda tutilgan.

1844–1867-yillardagi qonunlar kapitalni kam sonli tadbirkorlar qo'lida jamg'arilishiga yordam berdi, shirkatlar (kompaniyalar) tashkil qiluvchilarga qimmatli qog'ozlarning kursini ko'tarish va tushirishni qo'lga olishlariga imkon yaratdi. Bu yo'l bilan ta'sischi xonavayron bo'lgan aksiyadorlar (hissadorlar)ning mablag'larini o'zlashtirib ola boshladilar. Ingliz parlamentining bu jarayonlarni tiyishga, qimmatli qog'ozlar bilan hiyla-nayranglar qilishni cheklashga qaratilgan urinishlari (1879-yilgi qonun) qandaydir muhim natijalar bermadi.

Kapitallar birlashuvining aksionerlararo korporativ shakllari ahamiyatining kuchayishi, XX asr boshida ingliz iqtisodida kompaniyalar sonining birdaniga ko'payishi kompaniyalar haqidagi yangi qonun qabul qilinishini taqozo qildi. 1908-yilda ana shunday hujjat paydo bo'ldi. Bu qonun kompaniyalar faoliyatiga taalluqli masalalar bo'yicha ilgari hamma qonunlarni birlashtirdi. Ushbu hujjatda kompaniyalarni ommaviy va xususiy kompaniyalarga bo'lish mustahkamlandi.

### **Eslab qoling!**

1908-yilgi qonun bo'yicha ommaviy kompaniyalar "omma"ga ulushlar sotib olishni va bu bilan uning faoliyatida ishtirok etishni hamda foydalar (dividendlar) olishni taklif qilib murojaat etish hisobiga ustavda ko'rsatilgan kapitallarini va o'z ishtirokchilari doirasini kengaytirish huquqini oldilar.

Xususiy kompaniyalar ko'pi bilan 50ta ishtirokchilar bilan cheklangan edi. Uning ishtirokchilarining o'zlari butun kompaniyani qoplashlari lozim edi va ular begona shaxslarga aksiyalari (ulushlari)ni va boshqa qimmatli qog'ozlarni sota olmagan. Biroq ular ommaviy kompaniyalardan farq qilib, o'z balanslarini oshkor qilishga majbur emas edi. Bu holat xususiy kompaniyalarni Angliya tadbirkorlari uchun juda qulay shakl bo'lishini ta'minladi.

"Kompaniyalar huquqi"ning ishlab chiqilishi va rivojlanishida sud huquqi ham muhim o'rin tutdi. Masalan, 1897-yilda Salomon v.Salomon Co. Ltd. ishi bo'yicha muhim precedents o'rnatildi. Unga binoan bir kishidan iborat kompaniya tan olindi va yuridik shaxs maqomini oldi.

Ingliz huquqida shu tariqa “bir shaxs kompaniyasi” tushunchasi paydo bo‘ldi. Uning huquqiy maqomiga oid me‘yorlar eng yangi davr qonunlari bilan ishlab chiqildi.

**Angliyada mehnat va ijtimoiy qonunlarning rivojlanishi.** Angliyada yangi davrda mehnat haqidagi dastlabki qonunlar Tudorlar ishchilar qonunlarining bevosita davomi sifatida chiqdi. Bu qonunlar kapitalizm qaror topishining og‘ir sharoitlarini aks ettirib, keskin choralar bilan (jumladan, jinoiy jazolar yordami bilan) mol-mulkidan, ishlab chiqarish vositalaridan mahrum qilingan dehqonlar ommasini mehnat intizomiga o‘rgatdi.

### **Eslab qoling!**

Mehnat sharoitlarining davlat tomonidan majburiy tarzda tartibga solinishi butun XVIII asr mobaynida Angliya uchun xarakterli bo‘lib qoldi. Parlament tomonidan chiqarilgan daydilik haqidagi ko‘p sonli qonunlar, maksimal ish haqi o‘rnatish haqidagi aktlar va hokazolarning mohiyati aynan shunday bo‘ldi.

Sanoat inqilobi va tadbirkorlar iqtisodiy mavqeining mustahkamlanishi bilan mehnat munosabatlarining davlat tomonidan tartibga solinishi sanoatchilar uchun nafaqat ahamiyatini yo‘qotdi, balki ularga malollik keltiradigan bo‘lib qoldi. Shu sababli Angliyada XIX asr boshida ish haqini tartibga solish haqidagi eski qonunlar bekor qilindi. Xo‘jayinlar “shartnoma erkinligi”dan fodalanib, ishchilarga o‘zlarining chidab bo‘lmas og‘ir mehnat sharoitlarini majburiy tarzda o‘tkaza boshladilar.

1834-yilda ingliz parlamenti Yelizaveta I zamonidan boshlab harakat qilib kelayotgan kambag‘allar haqidagi eski qonunlarni bekor qildi. 1834-yilgi kambag‘allar haqidagi yangi qonun kambag‘allarga beriladigan pul va oziq-ovqat nafaqalarini bekor qildi; shu vaqtdan e‘tiboran muhtoj kishilar maxsus yumushxonalarga kirishi kerak edi. Yumushxonalarning odamlarga to‘lib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun ular o‘ziga xos qiynovxonalarga aylantirilgan edi. Ovqat yomon bo‘lishi, og‘ir va behuda mehnat qilish birga juda qattiq intizom o‘rnatilgan edi. Oila a‘zolari tamomila ajratib qo‘yilar, ota-ona bir-biridan va bolalaridan batamom xoli tutilar edi. Qonun chiqaruvchilar o‘z muddaosiga etgan edi: mehnatkashlar yumushxonalarga kirishdan qochardilar, ko‘pincha Shunday hollar yuz berardiki, mehnatkashlar yumushxonalarga borib kun kechirishdan ko‘ra

ochlikdan o'lishni afzal ko'rar edi. Kambag'allarga sarf bo'ladigan xarajatlar kamaydi va shu bilan bir vaqtda ishchilarning sanoatga ko'plab kelishi kuchaydi.


Angliyada iqtisodiy liberalizm (xo'jalik hayotiga davlatning aralashmasligi)ning rasman e'lon qilinishi zinhor ishchi va tadbirkorning yuridik jihatdan teng mavqeda ekanligini anglatmadi. Hatto XIX asrning ikkinchi yarmigacha "umumiy huquq"ning shunday me'yorlari harakatda ediki, ularga binoan ishchilar bilan shartnomani buzgan korxonaga egasi faqat fuqarolik da'vosi yo'li bilan javobgarlikka tortilishi mumkin edi. Mehnat munosabatlari sohasida iqtisodiy liberalizm siyosatining noizchilligi ishchi tashkilotlarining paydo bo'lishi va o'sishi munosabati bilan o'rnatilgan ko'p sonli taqiqlar va cheklovlarda ham namoyon bo'ldi.

Biroq Angliyaning hukmron doiralari bu qonunni samarali qo'llashga erisha olmadilar.

**1799-yilda ingliz parlamentining ishchilar ish haqini oshirish yoki ish kunini qisqartirish maqsadida bitim tuzish, ittifoqlar tashkil qilishni taqiqlovchi qonunlariga binoan:**



ishchilarning har qanday ittifoqiga a'zo bo'lgan va ish tashlashlarda qatnashgan kishi jinoyatchi hisoblanib, qattiq jazolanar edi.



jazolar sudyalarning yakka o'zlari tomonidan qasamxo'rlar ishtirokisiz berilardi.

Angliyada tobora o'sib borayotgan ishchilar harakati XIX asrning boshidayoq kasaba uyushmalariga nisbatan cheklovlarni amalda uloqtirib tashladi. Sanoatning bir qancha tarmog'ida ishchilarning kasaba uyushmalari vujudga kela boshladi. Ishchilar ittifoqlar tuzish huquqini o'zboshimchalik bilan qo'lga kiritdilar. Bu voqealar ta'siri ostida **1824-yilda parlament ishchilarning kasaba uyushmalarini (tred-yunionlarni) taqiqlab qo'ygan qonunlarni bekor qilishga majbur bo'ldi.** Hukmron doiralar oshkora ishlovchi tashkilotlarning faoliyatini nazorat qilish va yashirin inqilobiy tashkilotlarning rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik umidida, ularning oshkora bo'lishiga ijozat berishni o'z



manfaatlari uchun ancha xatarsiz deb topdilar. 1824-yilgi qonunning qabul qilinishiga asosiy sabab ham ana shunda edi. Shu tariqa bu qonunga binoan ish haqini oshirish, ish kunini qisqartirish yoki boykotlar tashkil qilishni o'ziga maqsad qilib qo'ygan ishchilar ittifoqlarining oshkor ishlashiga ruxsat berilgan edi. Biroq hamma joyda kasaba uyushmalarining tez o'sishi hukmron doiralarni tashvishga solib qo'ydi, shuning uchun ham parlament 1825-yilda ittifoqlar faoliyatini cheklovchi qonun qabul qildi: unga binoan ish tashlashlarni yoqlab targ'ibot qilish man etildi va ishchilar shtreykbrexerlarni<sup>1</sup> yoqlashga to'sqinlik qilish huquqidan mahrum qilindi. Qonunda ishchilarning shaxs yoki mulk ustidan zo'ravonlikka, tahdidlarga, qo'rqitishlarga asoslangan harakatlari jinoiy tartibda jazolanadi deb belgilandi.

### **Eslab qoling!**

1824-yilgi qonun uzoq yashamagan va qator izohlar bilan chiqarilgan bo'lishiga qaramay Angliyada ishchilarning professional tashkilotlari tuzilishiga imkon yaratdi hamda tred-yunionlik harakatining rivojlanishiga turtki bo'lib xizmat qildi.

Angliyada uyushgan ishchilar harakati o'zining o'sib borishi darajasiga qarab unga liberal davlat tomonidan ajratilgan doiradan tobora chetga chiqib bordi.

XIX asrning oxirgi choragida kasaba uyushmalarining oshkoraligi va kasaba uyushmalari kurashining turli vositalari haqidagi masala qaytadan keskinlashdi. 1871-yilda ishchilar ittifoqlari haqida qonun qabul qilindi. Bu qonun tred-yunionlarning yuridik shaxs sifatidagi huquqini e'tirof qildi. Unda, shuningdek ishchilarning kasaba uyushmalari faoliyatida ishtirok etganligi uchun sud javobgarligiga tortilishi taqiqlandi. Lekin shu bilan bir vaqtda jinoiy qonunlarga parlament tomonidan kiritilgan va qabul qilingan qo'shimcha bilan shtreykbrexerlarga qarshi piket (korxonani shtreykbrexerlardan qo'riqlovchi zabastovkachilar guruhi) qo'yishlar va hatto ularni so'z bilan "haqorat qilgan" piketchi ishchilar jinoiy javobgarlikka tortiladigan bo'ldi.

Stachkalar vaqtida piketlar qo'yilganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortish to'g'risidagi 1871-yil qo'shimchasi bekor qilindi. Tred-yunionlar yuridik shaxs sifatida uzil-kesil e'tirof qilindilar va endilikda stachkalar boshlangan taqdirda o'z rahbarlari va kasaba uyushma kassalarining

<sup>1</sup> Shtreykbrexer – zabastovka vaqtida ish tashlamay zabastovkachilarga xiyonat qilgan shaxs.

daxlsizligiga ko‘z tutishlari mumkin bo‘ldi. Birvarakayiga parlamentda ikki qonun qabul qilinib, Angliyada matlubot va ishlab chiqarish kooperatsiyalari qonunlashtirildi.

Ishchilarning nafratiga sazovor bo‘lib kelgan “Xo‘jayinlar va xizmatkorlar to‘g‘risida”gi qonun 1875-yilda “Korxonalar egalari va ishchilar to‘g‘risida”gi qonun bilan almashtirildi. Bu qonunga ko‘ra ishchilarning mehnat bitimini buzgani uchun turmaga qamalishi bekor qilindi, shu vaqtdan boshlab ishchi yollash to‘g‘risidagi shartnomaning buzilganligi haqidagi ish sudda ko‘rilganda korxonalar egalari ham, ishchilar ham teng huquqli taraflar deb qaraladigan bo‘ldi.

### **Eslab qoling!**

**1875-yil** bolalarning mehnatini muhofaza qilish qonuni ham qabul qilindi, bu qonunga muvofiq **10 yoshga to‘lmagan bolalarni ishga yollash taqiqlandi.**

Bundan tashqari, “jamoat sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida” (1875-yil), ya’ni shaharlardagi sanitariya choralari (vodoprovod, kanalizatsiya qurish, axlatxonalarini tozalab turish) to‘g‘risida qonun qabul qilindi. Bunda konservatorlar hukumati mutlaqo xalq manfaatini ko‘zlab ish ko‘rgani yo‘q. Gap shunda ediki, shaharlarning proletarlar yashaydigan chekka joylari yuqumli kasalliklar makoniga aylanib borayotgan, burjuaziya yashaydigan kvartallarga ham kasal tarqalishi xavfi tug‘ilayotgan edi. Ushbu choralarning hammasi, xullas, Angliya ijtimoiy hayotida ishchilar sinfining salmog‘i o‘sib borayotganligini majburan e’tirof qilish degan gap edi.

Biroq yuqoridagilarga qaramay, XIX asrning oxirlarida ingliz sudlari ish tashlash harakatining faol ishtirokchilarini shtreykbrexerlarga tahdid qilganlik, boykot qilganlik va boshqa xatti-harakatlar uchun ta’qib qildi. Chunki bunday xatti-harakatlar 1871-yilgi qonun bo‘yicha ilgarigidek jinoyat hisoblanardi. Bunda sudlar ushbu tushunchalarni juda keng talqin qilgan.

Taf daryosi vodiysida (Janubiy Uels) 1900-yilda temiryo‘l ishchilarining stachkasi boshlanishi bilan kasaba uyushmalariga hujum qilish uchun bahona topildi. Temiryo‘l kompaniyasi Taf vodiysi temiryo‘lchilarining kasaba uyushmasidan stachka natijasida kompaniya ko‘rgan zararlarni to‘lashni da’vo qildi. Bunday katta jarima to‘langan taqdirda, kasaba uyushmasining kassasi bo‘shab qolar edi va u ancha vaqtgacha safdan chiqib qolgan bo‘lar edi. 1902-yil iyulida oliy instansiya

– lordlar palatasi – Taf vodiysidagi temiryo‘l xo‘jayinlarining foydasini ko‘zlaydigan qaror qabul qildi. Lordlar palatasining qarori kelgusida ham shunday qarorlar qabul qilinishi uchun yuridik asos bo‘lib qolishi turgan gap edi. Shu sababli bu qaror barcha kasaba uyushmalarining hayotiy manfaatlariga taalluqli bo‘lib, ularni stachka kurashiga rahbarlik qilish huquqidan haqiqatda mahrum qilib qo‘yar edi. Oqibat natijada bu qaror ishchilar harakatining uyushgan kuchi bo‘lgan kasaba uyushmalarini tugatishga qaratilgan qaror edi.

Kasaba uyushmalariga ochiqdan ochiq qarshi qaratilgan bu qaror mamlakatda jiddiy norozilikka sabab bo‘ldi. Natijada 1906-yilda yangi qonun qabul qilinib, unga binoan korxonalarining kasaba uyushmalari a‘zolari tomonidan qilingan uyushgan harakatlar natijasida yetkazilgan zararni undirish haqida sudga da’vo qilishlari taqiqlandi.

1906-yil hukumat ishchilar harakatining tazyiqi bilan Taf vodiysining ishi yuzasidan chiqarilgan qarorni parlament orqali bekor qildi va o‘sha yilning o‘zidayoq ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalar bo‘lgan taqdirda ishchilarga haq to‘lash to‘g‘risidagi ilgari qonunning amal qilish doirasini kengaytirdi. 1908-yilda yer ostida ishlayotgan konchilar uchun 8 soatlik ish kuni joriy qilish to‘g‘risida va keksa ishchilar pensiyalari to‘g‘risida qonunlar qabul qilindi; 70 yoshga etgan ishchilarga pensiya beriladigan bo‘ldi va ishchilar bunga “o‘liklar pensiyasi” deb nom berishdi, chunki ishchilarning juda oz qismigina shu yoshga yeta olar edi. 1911-yilda ishchilarni ishsizlik va kasallikdan sug‘rta qilish to‘g‘risidagi qonun uzoq davom qilgan tashviqot kompaniyasidan keyin qabul qilindi. Bunday nafaqalarni to‘lash uchun ishchilar va xo‘jayinlarning bab-baravar miqdorda berib turadigan badallaridan iborat fond tuziladigan bo‘ldi; bu fondga hukumat bir oz mablag‘ qo‘shardi.

XIX asrda ishchilar sinfining uyushqoqligi va faolligining asta-sekin o‘sib borishi uning mehnatni tartibga solish masalalari bo‘yicha ingliz davlati mavqeyiga doimo ta’sir ko‘rsatib turishiga imkoniyat yaratdi. Garchi, Angliyada mehnat munosabatlariga davlatning aralashmasligi tantanali e’lon qilingan bo‘lsa ham, parlament vaqti-vaqti bilan chekinishga, mehnatni ekspluatatsiya qilishning ba’zi juda qo‘pol va, shak-shubhasiz, insonparvarlikka qarshi shakllariga qonuniy cheklovlar joriy qilishga majbur bo‘ldi.

Fabrikaga oid qonunlar, birinchi navbatda ayollar va bolalar mehnatiga taalluqli bo‘ldi. Bolalar mehnatidan foydalanishni tartibga solishga urinish 1802-yildayoq qilingan edi. 1803-yilda bu haqida maxsus qonun qabul qilinib, unga binoan to‘qimachilik sanoatida bolalar

mehnatidan tungi smenada foydalanish taqiqlandi, 9 yoshdan 13 yoshgacha bo'lgan bolalarning ish kuni 8 soatdan, 13 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan o'smirlarning ish kuni esa 12 soatdan oshmasligi belgilandi. Qonun fabrika inspektorlari ko'rinisdagi nazorat tizimining tashkil qilinishini nazarda tutdi. Biroq bu ham darhol muhim samara bermadi, chunki korxonalar egalari "guruh mehnati" tizimidan foydalana boshladilar. Bunda ishlarning almashtirilishi butun kun davomida yuz bergan va oqibatda alohida o'smirlarning mehnati qancha davom etishini nazorat qilish juda murakkab bo'lgan.

1842-yilda ayollarning va 10 yoshgacha bo'lgan bolalarning er ostida ishlashi taqiqlandi. 1872-yilda chiqarilgan qonunga binoan to'qimachilik sanoatida ayollar va 14 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun ish kuni 10 soatdan oshmasligi lozim edi. Bu qoida bolasi va xotini bilan bir smenada ishlayotgan erkaklarga nisbatan ham qo'llangan. Faqat XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib 1867–1878-yillardagi qonunlar bilan bu qoidalar 50 kishidan ortiq ishchisi bo'lgan barcha korxonalariga tatbiq qilindi.

Angliyada ish kunini qisqartirish uchun kurash 1866-yil Baltimorda bo'lib o'tgan ishchilarning umumiy kongressida 8 soatlik ish kuni haqidagi talab ilgari surilganidan keyin kuchaydi. Lekin bu talab qonunlarda faqat XX asrning boshida o'z aksini topdi. Biroq 8 soatlik ish kuni faqat sanoatning alohida tarmoqlarida va ba'zi toifadagi ishchi-xizmatchilarigagina (temiryo'lchilar, konchilar, pochta xizmatchilari uchun) joriy qilindi.

XIX asrning ikkinchi yarmida ishchilarga ishlab chiqarish jarohati natijasida etkazilgan zararni qoplashni nazarda tutuvchi birinchi qonunlar paydo bo'ldi. 1880-yilgi qonun ishlab chiqarishda kelib chiqadigan jarohatlar uchun moddiy javobgarlikni nazarda tutdi. Lekin javobgarlik faqat materialning yomon sifatligi natijasida, ishlab chiqarishni nazorat qilish topshirilgan shaxsning beparvoligi yoki ehtiyotsizligi tufayli jarohatlanish yuz bergan hollardagina kelib chiqqan.

To'lanadigan haq oylik ish haqining juda ozgina qismini tashkil etardi. 1906-yilda qonun qabul qilinib, unga asosan korxonalar egasi jabrlanuvchining o'zini aybdor ekanligini "isbotlab" javobgarlikdan ozod bo'lishi mumkin bo'ldi.

Angliyada mehnat qonunchiligining rivojlanishida muhim bosqich 1911-yilgi qonunning qabul qilinishidan boshlandi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu qonun kasallik, nogironlik, tuqqanlik hollaridagi ijtimoiy sug'urta bilan bir qatorda ishsizlik haqidagi sug'urtani ham nazarda tutdi. To'g'ri, ishsizlik bo'yicha sug'urtaning dastlabki miqdorlari

hali juda kam edi. Umuman olganda, Angliyadagi ijtimoiy sug'urta o'zining hozirgi zamon ko'rinishiga Ikkinchi jahon urushidan keyin ega bo'ldi.

**Jinoyat huquqi va jarayoni.** Burjuaziya va yangi dvoryanlarning kelishuvchiligi bilan yakun topgan ingliz inqilobi jinoyat huquqi sohasida bevosita korxonalar egalarining manfaatlariga daxl qiladigan qandaydir muhim o'zgarishlarga uchramadi. 1932-yilgi islohotga qadar hukmron yer aristokratiyasi va burjuaziyaning yuqori qismi inqilobdan avvalgi jinoiy-huquqiy normalar bilan to'la qanoatlandilar. Angliya jinoyat huquqida ingliz burjuva inqilobining konservativ xarakteri yaqqol namoyon bo'ldi. Huquqning bu sohasida o'rta asrlarga oid institutlar o'z o'rnini yangi jinoiy-huquqiy institutlarga juda sekin bo'shatib berdi.

Angliyada juda ko'p jinoyatlarga bu vaqtda yo umumiy huquq bo'yicha yoki statut huquqi bo'yicha javobgarliklar nazarda tutilgan. Jumladan, ulardan ba'zilari hatto uzoq o'rta asrlarda qabul qilingan 1351-yilgi "Xiyonat haqida"gi statut bilan javobgarlikka tortilgan. Jinoyatlarning o'rta asrlar davridayoq shakllangan uch turkumli tuzilishi: xiyonat, feloniya (og'ir jinoyat) va misdminor (boshqa, asosan mayda jinoyatlar) hali saqlanib qolgan edi.

Ushbu an'anaviy sxema XVIII asrga kelib jinoyatlarning yangi turlari bilan to'ldirildi. Bunda, ayniqsa, feloniya va kvalifikatsiya qilinadigan hamda ana'anaviy tarzda o'lim jazosi hamda mol-mulkni musodara qilish bilan jazolanadigan jinoyatlar soni ko'paydi. Inqilobning oxiriga kelib – 1660-yilda Angliyada 50ga yaqin turli xil jinoyatlar uchun o'lim jazosi nazarda tutilgan bo'lsa, XIX asrning boshiga kelganda esa ularga yana 150ga yaqin jinoyatlar qo'shildi.

Ingliz jinoyat huquqining rivojlanishida XVIII asrda hukmron doiralarning har qanday yo'l bilan, shu jumladan, juda shafqatsiz, og'ir vositalar bilan hamma narsadan mahrum bo'lgan kishilar va mehnatkashlar ommasida xususiy mulkka nisbatan "hurmat" hissini uyg'otishga intilishi yaqqol namoyon bo'ldi. Bu vaqtda hatto qoramolga qasddan jarohat yetkazganlik uchun, bog'dagi daraxtlarni kesganlik uchun, cherkovda kissavurlik qilganlik uchun o'lim jazosi o'rnatilgan edi. Shuningdek, pul undirish maqsadida qalbaki imzo bilan xat jo'natish, mayda o'g'irlik (bir shillingdan ortiq) va shu kabilar uchun o'lim jazosi nazarda tutilgan edi.

### **Eslab qoling!**

**Ingliz jinoyat huquqining konservatorligi shu bilan belgilangan ediki, u asosan qonunlar chiqarish yo'li bilan emas, pretsedent huquqidan foydalanish asosida rivojlandi.**

Ingliz jinoyat huquqi ayniqsa jazolar haqidagi masalada juda konservativ bo'ldi. 1810-yilda ham jazolarning o'rta asrlarga oid shafqatsiz turlari: charxpalakka tortib o'ldirish, tirik tanadan ichki a'zolari sug'urib olish, to'rt bo'lakka bo'lib o'ldirish va hokazolar keng qo'llangan. 1870-yilga qadar Angliyada agar biror kishi bir oy davomida siganlar jamiyatida bo'lsa, u o'limga mahkum etilardi.

XVIII asrda Angliyada jazo choralarining nafaqat shafqatsiz va sof o'rta asrlarga xos turlari saqlanib qoldi, balki jazolanuvchini va umuman butun jamiyatni qo'rqitishning yangi usullari ham joriy qilindi. Masalan, 1752-yilda qabul qilingan qonunda "o'lim jazosi yanada qo'rquvga solish va badnom qilish belgilari bilan to'ldirilgan bo'lishi lozim" deyilgan edi. O'limga mahkum qilingan shaxs dastlab non va suvga o'tqizilgan, u qatl etilgach, jasad omma ko'z o'ngida zanjirga bog'lab osilgan, so'ngra bo'laklarga bo'lib chopib tashlangan. XVIII asrda sazoyi (sharmanda-yu sharmisor) qilish, qamchi bilan savalash, mol-mulknini musodara qilish, jarima va boshqa jazolar ham keng qo'llangan.

Jazo siyosatini liberallashtirish Angliyada bu vaqtda qirol va hukumat hokimiyati tomonidan qilinadigan ta'qiblardan o'zlarini himoya qilishni kafolatlashga harakat qilgan hukmron doiralarga zarur bo'lgan darajalarda amalga oshirildi.

Shu narsa xarakterliki, bu o'zgarishlar, avvalo, jinoyat jarayoniga taalluqli bo'ldi. Bundan 1679-yilgi "Habeas corpus Act", shuningdek 1689-yilgi "Huquqlar haqidagi Bill" hamda 1701-yilgi "Taxt vorisligi haqidagi akt"ning alohida jinoiy-huquqiy va protsessual normalari guvohlik beradi. 1686-yilgi "Xiyonat to'g'risidagi ishlarni ko'rish haqidagi statut"da ham jinoyat jarayonida shaxs daxlsizligi rejimini yaratishga harakat qilinadi. Bu hujjatga binoan ayblanuvchiga ayblov xulosasining nusxasi sud ishlarini ko'rish boshlanishidan kamida 5 kun oldin berilishi lozim edi. Ayblanuvchi advokat bilan uchrashish huquqini oldi, yangi guvohlar chaqirtirishi mumkin bo'ldi. Biroq u o'ziga qarshi ko'rsatmalar beradigan guvohlar haqida xabardor qilinmasligi mumkin edi.

Jamiyatning ma'rifatli yuqori qismining XVIII asrda jinoyat huquqi va jarayonini barqarorlashtirish uchun kurashi isyonchi degan tuhmat bilan qo'g'atilgan ishlarda namoyon bo'lgan. Hukumat organlari bunday ayblarni davlat hokimiyatini tanqid qilib yozgan asarlar mualliflariga va nashriyotchilariga qarshi bir necha marta ilgari surgan. 1792-yilda parlament bu masalada maxsus qonun qabul qildi. Unga binoan qasamxo'r maslahatchilar nafaqat "tuhmat qilib yozilgan" asarlarning e'lon qilinishi fakti haqidagi masalani hal qilishda to'la erkinlik olishdi, shu bilan birga

ular ayblanuvchi o‘zining siyosat va tuhmat haqidagi tasavvurlari asosida aybdormi yoki aybdor emasmi degan masalani ham hal qilish huquqini oldilar.

XIX asr boshida ingliz parlamenti **jazolarni yumshatish yo‘li** bilan mavjud huquqiy tartibotni mustahkamlashga mo‘ljallangan qator qonunlar chiqardi.

### **Eslab qoling!**

1817-yilda ayollarni omma oldida chopib tashlash jazosi, 1916-yilda – sazoyi (sharmanda-yu sharmisor) qilish jazosi bekor qilindi. 1823–1827 yillarda R.Pilya hukumati o‘lim jazosini qo‘llashni juda kamaytirishga qaratilgan bir qancha hujjatlar o‘tkazdi. 1826-yildan 1861-yilga qadar Angliyada o‘lim jazosi bilan jazolanadigan jinoyatlarning soni 200tadan 4tagacha kamaytirildi. 1848-yilgi qonun bo‘yicha hatto “qirolga qarshi uning qirolligida urush olib borish” holatida ham o‘lim jazosi tayinlanmay, umrbod qamoq jazosi belgilandi.

XIX asrning o‘rtasida ham parlamentning jinoyat huquqini jiddiy isloh qilishga qaratilgan boshqa bir qancha hujjatlari qabul qilindi. Ayni vaqtda XIX asrda bir necha yuzlab yaqqol eskirgan qonunlar bekor qilindi.

1870-yilgi qonun bilan *feloniya uchun mahkum qilingan jinoyatchining mol-mulkini musodara qilish bekor qilindi*. Bu bilan jinoyatlarni feloniya va misdiminorga ajratilishi amalda yo‘qqa chiqdi, chunki feloniya bu jiddiy jinoyat bo‘lib, buning uchun o‘linga mahkum etish va, albatta, mol-mulkni musodara qilish jazosi tayinlanardi.

### **XIX asrda jinoiy ishlarni ko‘rib chiqish tartibidagi demokratlashtirish:**

1836 yilda turmaga qamalgan ayblanuvchining advokat xizmatlaridan foydalanish va ish materiallari bilan tanishishni talab qilish huquqini nazarda tutuvchi qonun qabul qilindi.

Tabiiyki, bunday qonun sud jarayonida ayblanuvchini himoya qilish imkoniyatlarini kengaytirdi.

1898-yilgi qonun bilan ayblanuvchiga uning xohishi bo‘lgan taqdirda sudda ko‘rsatma berish huquqi taqdim qilindi. Bu “umumiy huquq”ning an’anaviy ta’limotidan chetga chiqish edi, chunki unga binoan

ayblanuvchiga yolgʻonchi sifatida qaralardi. Biroq ayni paytda Angliyada sud protsedurasining doirasi rivojlanib bordi; sudya umumiy tartibda, yaʼni qasamxoʻrlar ishtirokisiz hukm chiqarishi mumkin boʻldi.

### **Eslab qoling!**

**Jinoyat jarayonining oʻziga xos xususiyati shunda ediki, ayblov jarayoni ayni vaqtda tortishuv jarayoni boʻlgan.**

1907-yilda ingliz jinoyat huquqiga *shartli hukm qilish* tushunchasi kiritildi. Shu bilan birga, *ogohlantiruvchi qamoq* ham joriy qilindi. Bunda sud jiddiy jinoyatlari uchun uch va undan ortiq mahkum qilingan va jinoiy turmush tarzini yuritadigan shaxslarni oʻrganib qolgan jinoyatchilar deb tan olishi hamda ularga qonunda koʻrsatilgan jazolar bilan bir qatorda ogohlantiruvchi (oldini oluvchi) qamoq jazosini ham qoʻshib berishi mumkin boʻldi. Ogohlantiruvchi qamoq asosiy jazo oʻtab boʻlingandan keyin qoʻllanilardi.

Angliya Birinchi jahon urushiga kirishi bilan hukumat jamoat xavfsizligi va davlat mudofaasini taʼminlash maqsadida farmonlar chiqarish huquqini oldi. Shu munosabat bilan qonunlarga, masalan, davlatga qarshi jinoyatlar haqidagi qonunlarga baʼzi oʻzgarishlar kiritildi.

### **Eslab qoling!**

XX asr boshida maʼlum jinoyatlar sodir etgan erkaklar uchun tan jazolari joriy qilindi. 1914-yilda qabul qilingan qonun jarima toʻlamaganlik uchun turmaga joʻnatishlarni qisqartirdi.

## **3-§. AQSH huquqi**

**Mustamlaka davrida AQSHda huquqiy tizimining kelib chiqishi.** “Huquqiy tizim” tushunchasining oʻzidan AQSHga nisbatan shartli foydalaniladi. Aslini olganda AQSHda yagona milliy huquqiy tizim, hozirgi vaqtda dunyoning koʻp davlatlaridagiga oʻxshash mazmunda va koʻrinishda hech qachon boʻlmagan va hozir ham yoʻq. XVII-XVIII asrlarda boʻlgʻusi AQSH hududida deyarli bir vaqtda 13ta huquqiy tizimlar (ingliz mustamlakalari soni boʻyicha) shakllandi. Hozirgi vaqtda AQSH hududida 50ta shtatlarning alohida huquqiy tizimlari (shtatlar soni boʻyicha) va bitta federatsiya huquqiy tizimi amal qiladi. Bu huquqiy tizimlarning shakllanishi mustaqillik qoʻlga kiritilgach, 1787-yilgi Konstitutsiya qabul qilingandan keyin yuz berdi.



Shunday qilib, AQSH huquqiy tizimi bu yuqorida ko'rsatilgan takrorlanmas va mustaqil huquqiy tizimlarning yig'indisi bo'lib, o'ziga xos ichki birlikka ega. Federatsiya va shtatlar huquqiy institutlarining ko'p darajada o'xshashligi avvalo tarixiy omillar bilan izohlanadi.

AQSHda huquqiy tizimning shakllanishi mustamlaka davridayoq boshlangan edi. Hamma 13ta ingliz mustamlakalari, ularning ijtimoiy va siyosiy tizimlari turlicha bo'lishiga qaramay, Angliyaning inqilobdan avvalgi tarixiga borib taqaladigan umumiy huquqiy ildizlariga ega bo'lgan.

XVII asrda, Shimoliy Amerikada ingliz mustamlakachiligi davrida ko'chib kelgan mustamlakachilar eski dunyodan o'zlari bilan birga o'zlari uchun odat bo'lgan sud va huquqiy tartiblarni ham olib keldilar. Bu haqida akademik A.X.Saidov ham quyidagicha tasdiqlaydi: "AQSH hududida makon topgan Angliyadan ko'chib kelgan muhojirlar o'zlari bilan ingliz huquqini ham olib kelganlar. 1607-yildan boshlab ("birinchi mustamlaka tuzilgan sana") u yagona amal qiluvchi huquq hisoblangan; siqib chiqarilgan mahalliy aholining urf-odatlarini va an'analari sivilizatsiyaga yot va dushman an'ana sifatida inkor etiladi"<sup>1</sup>. Albatta, Angliya uchun xos bo'lgan ushbu sud va huquqiy tartiblar yangi zaminda birdaniga osonlik bilan qaror topmadi.

Yangi dunyoga siyosiy va diniy ta'qiblar natijasida qochib kelgan ko'pgina muhojirlar ingliz huquqiga nisbatan uzoq vaqtgacha dushmanlik ko'zi bilan qarab keldilar.

Inglizlar tomonidan emas, gollandlar tomonidan asos solingan ba'zi mustamlakalarda (masalan, Nyu-Yorkda) ma'lum bir davr golland huquqi amalda bo'ldi. Lekin u tez orada ingliz mustamlakachilari tomonidan umumiy huquq va qonunlar yordamida siqib chiqarildi.

Mustamlakalarda eskirgan va juda murakkab ingliz umumiy huquqidan (ba'zan uni "yuristlar huquqi" deb ataydilar) foydalanish uchun, ayniqsa, XVIII asrda yurist-professionallar yetishmagan. Shunga qaramay, AQSHda mustaqillik e'lon qilingunga qadar qadaroq amalda ingliz umumiy huquqini, adolat huquqini va statut huquqini transplantatsiya qilish jarayoni ancha faol kechdi. Ingliz huquqining ushbu manbalari endi mustamlakalarda to'g'ridan to'g'ri amal qila boshlagan edi.

Ingliz huquqining kirib kelishi jarayoni mustamlakalarda Angliya tipidagi sudlar va qasamxo'r maslahatchilar tizimining joriy qilinishi bilan birga yuz berib, XVIII asrda bir necha o'n yillarga cho'zildi. Bunga sabab mustamlakalarning eski dunyodan ajralib qolganligida, manzilgohlarning katta hududga yoyilib ketganligi va bir-biridan uzoqligida hamda ingliz huquqiy institutlarining texnik, yuridik jihatdan murakkabligida edi.

---

<sup>1</sup> Saidov A.X. Hozirgi zamon asosiy huquqiy tizimlari: Toshkent, 2004. – B. 265-266.

Shu sababli mustamlakalarda dastlab soddalashtirilgan ingliz huquqi yoki muhojirlar urf-odatlarining tub aholi ma'naviy-diniy yo'l-yo'riqlari bilan, hatto Bibliya matnlari bilan aralashib ketgan qoidalari harakatda bo'ldi.

Ba'zi mustamlakalarda ham ingliz qonunlarini, ham mahalliy legistaturalar (mustamlakalarning qonun chiqarish majlislari) tomonidan qabul qilingan qonunlarni o'ziga xos va juda oddiy kodekslashtirishga harakat qilindi. Masalan, 1648-yilda "Massachusetts huquq va erkinliklari" deb nomlangan qonunlar to'plami tuzilgan edi. Ushbu hujjat boshqa ba'zi mustamlakalarda amalga oshirilgan kodekslashtirish ishlariga ta'sir ko'rsatdi.

Mazkur to'plam ingliz huquqi muhojirlarning o'zlari uchun ham ancha tushunarli bo'lishi uchun soddalashtirishga qaratilgan mustamlakalarga xos umumiy tendensiyani aks ettirdi. Shu sababli keyinchalik boshqa mustamlakalarda ham tuzilgan bunday to'plamlarga nafaqat huquqiy ko'rsatmalar, balki mustamlaka sudlarida tan olingan puritan urf-odatlar va axloqiy-diniy prinsiplari ham kiritildi. Biroq bu to'plamlar ingliz qonunlari bilan birga ingliz pretsedent huquqining umumiy ruhini ham qabul qildi.

### **Eslab qoling!**

**Sud pretsedentlari o'rta asrda kelib chiqqanligi, shakllarining eskirganligi va mazmunining chalkashligiga qaramay, o'zlarining kapitalistik tadbirkorlik ehtiyojlariga, yangi fuqarolik jamiyati shakllanishi sharoitlariga ancha yuqori darajada moslashuvchanliklarini va tez o'zgaruvchanliklarini namoyon qildi.**

Inqilobdan oldingi davrdayoq XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab yuridik bilimlar va adabiyotlarning yetishmaganligi sababligi mustamlakalarda, so'ngra shtatlarda ingliz yuristi U.Blekstonning "Angliya qonunlariga sharhlar" traktati katta nufuzdan foydalangan. Huquqning ushbu ta'limotga xos manbayi ingliz huquqini tushuntirish va asoslash maqsadlarini ko'zlagan edi. Mazkur asar Yangi Dunyoda hatto Angliyaga qaraganda ham ko'proq ommaviy bo'lgan. U Amerika sudyalariga ham yaxshi tanish bo'lib, ular sud amaliyotida mazkur traktatning ko'pgina qoidalarini asos sifatida qabul qildilar.

**Mustaqillika erishilgandan keyin umumiy huquqning tadrijiy rivojlanishi.** Mustaqillik e'lon qilinganidan keyin inglizlarga qarshi kayfiyatlarining kuchli bo'lishiga qaramay, pretsedent huquqi shtatlarning

huquqiy tizimlarida o'z harakatini saqlab qoldi. Bunda shu vaqtga kelib shakllangan yuqori darajadagi professionallardan iborat huquqshunoslar tabaqasi ham muhim rol o'ynadi. Amerika davlatchiligining qaror topishi davridayoq ingliz huquqi shtatlarning har birida rasman tan olindi.

**Ingliz huquqini o'zlashtirib olish quyidagilar yordamida amalga oshirildi:**



Shtatlar konstitutsiyalari



Boshqa qonunchilik hujjatlarining tegishli qoidalari

Bunda ingliz huquqining shtatlarda harakatda bo'lgan huquqqa zid bo'lmagan normalari qabul qilib olindi. Shtatlar tomonidan inqilobdan oldingi huquqni tan olishning texnik-yuridik formulalari turlicha bo'lgan. Biroq bunda shunday qoidaga amal qilinganki, har bir mustamlaka (shtat)ning huquqi o'z ichiga ingliz huquqining faqat 1607-yilgi sanadan yoki hech bo'lmasa 1776-yildan oldingi qismini olgan.

Ba'zi shtatlarning konstitutsiyalarida ingliz huquqi shu tarzda to'g'ridan to'g'ri eslab o'tilmaydi. Ularda mustaqilikka qadar bo'lgan huquqning yuridik kuchi saqlanib qolganligi umumiy shaklda aytib o'tildi. Alohida shtatlarda (masalan, Merilend, Nyu-York va boshqalarda) ingliz statutlari va umumiy huquqi to'g'ridan to'g'ri huquq manbalari sifatida qabul qilindi (yuqorida ko'rsatilgan cheklangan sanalar bilan).

XIX asrning birinchi yarmida AQSH huquqining umumiy huquq bilan aloqasi ma'lum vaqtga zaiflasha boshladi. Ayni vaqtda o'z davri uchun ilg'or va yoqimli bo'lgan fransuz qonunlarning ta'siri kuchaydi. Biroq fransuzlar huquqi AQSHda, Fransiyaning sobiq mustamlakasi Luizianadan tashqari biron-bir zaminga ega bo'lmadi.

Alohida shtatlarda (Kentukki, Nyu-Jersi)da hatto ingliz sudlarining Yangi qarorlaridan sitata keltirish taqiqlangan edi. Biroq XIX asrning 20–30-yillarida AQSHda ingliz huquqidan norozi bo'lgan Amerika sudyalari va yuristlarining xususiy maktabi tashkil topdi. Ularning Amerika huquqi bo'yicha traktatlari turli shtatlarda huquqni bir xilda tushunishga erishishda muhim rol o'ynadi.

AQSHda umumiy huquq obro'si yana o'sdi va fuqarolar urushiga qadar yuqori darajada qoldi. Pretsedent huquqi tarixidagi bu davrni

Amerika yuristlari “oltin asr” deb ataydilar. 1820-yildan boshlab ingliz amaliyoti ta’sirida AQSHda Amerika sudlarining qarorlari e’lon qilina boshladi.

Umumiy huquqning shtatlar huquqiy tizimlariga ta’siri XIX asrning oxirigacha yetarlicha chuqur bo’lgan. XX asrda esa qonunlar umumiy huquq mavqeyini jiddiy cheklab qo’ydi.

### **Eslab qoling!**

Pretsedent huquqi XIX asrda tashkil qilingan yangi shtatlarga ham joriy qilindi. Masalan, 1868-yilgi Kanzas qonunida umumiy huquqning harakatda bo’lishi haqida gapiriladi. Chunki umumiy huquq “Konstitutsiya va qonunlar bilan, sud qarorlari va turmush sharoitlari hamda xalq ehtiyojlari bilan o’zgartirilmagan” edi.

Umumiy huquqni o’zlashtirib olinishi XIX asrda hatto tarixiy sharoitlar taqozosi bilan u yoki bu darajada ispan (Floridada) yoki Meksika (Texasda) qonunlari qo’llanilgan shtatlarida ham sodir bo’ldi. Hatto Napoleon kodifikatsiyasini qabul qilgan va uning namunasida 1825-yilda Fuqarolik kodeksi tuzgan Luiziananing huquqiy tizimi ham XIX-XX asrlarda umumiy huquq an’analariining sezilarli ta’sirini boshidan kechirdi.

Garchand ko’p Amerika huquqiy institutlari ingliz huquqidan ishlab chiqilgan bo’lsa ham, AQSH umumiy huquqi Angliya huquqining oddiy bir turi yoki nusxasi bo’lmadi.

Amerika huquqi kelib chiqishi va tuzilishi bo’yicha ingliz huquqiga juda yaqin va o’xshash bo’lishiga qaramay, o’zining tarixiy rivojlanishi jarayonida o’ziga xos va hatto noyob belgilarga ega bo’ldi. U ingliz sud qarorlaridan ba’zi sof o’rta asrlarga oidlarini (masalan, yer mulkchiligi, meros va boshqa sohalardagi sud qarorlarini) qabul qilmadi. Bundan tashqari, Amerika huquqida bir qancha yangi pretsedentlar tug’ildi (masalan, korporatsiyalar huquqida, shartnoma huquqida). Ular iqtisodda o’zini o’zi tartibga soluvchi kuchlarga mo’ljallangan edi.

AQSH pretsedent huquqi ingliz huquqi bilan tarixiy bog’liqligi bilan ham, umumiy huquq tizimida ancha mustaqil o’rni bilan ham ajralib turadi. Ko’p g’arb yuristlari umumiy (pretsedent) huquqning ikki tizimini – ingliz va Amerika tizimlarini bir-biridan ajratish lozim deb hisoblaydilar.

Amerika pretsedenti Angliya pretsedentiga qaraganda harakatchandir. Masalan, AQSH oliy sudi va shtatlarning oliy sudlari o’z pretsedentlari bilan bog’lanmagan. Ilgari qabul qilingan qarorlarga o’zgartirish kiritishga yoki pretsedentdan voz kechishga rasmiy taqiqlar yo’q. Sud aniq bir ishni

ko‘rib chiqishda asosiy holatlar tegishli qo‘llaniladigan pretsedent faktlarini qayta baholaydi. AQSHda mustamlaka davridayoq, ya‘ni Angliyaga qaraganda ancha ilgari, umumiy huquqni “adolat huquqi” bilan qo‘shilishi yuz berdi. “Adolat huquqi” ko‘p shtatlarda va federatsiya huquqiy tizimida umumiy yurisdiksiyalik sudlar tomonidan singdirib yuborildi. Masalan, Amerika sudlari o‘z amaliyotida “adolat” tizimida boshqa protsessual shakllar bilan bir qatorda ishlab chiqilgan huquqiy shakllardan biri bo‘lgan taqiqlovchi buyruqlardan keng foydalanganlar.

Shunday qilib, adolat huquqi va umumiy huquq AQSHda favqulodda yuz beradigan pretsedent huquqining (case law) yagona tizimini tashkil etdi.

Ayni vaqtda AQSHda umumiy huquq, Angliyadan farq qilib butun mamlakat uchun yagona bo‘lib qolmadi va shtatlar bo‘yicha ancha farq qildi. Rasmiy mantiqiy nuqtayi nazardan AQSH umumiy huquqi hech qachon umumiy bo‘lmagan, chunki u turli shtatlarda farq qilingan holda qo‘llanilgan, sud amaliyotida turlicha aniqlashtirilgan. Federal qonunlar umumiy huquqni federa huquqqa o‘xshab o‘z tarkibiga qo‘shib olmagan. Shuningdek faqat ba‘zi shtatlarning amaldagi konstitutsiyalarida umumiy huquq qandaydir aniq masala bo‘yicha qonunlar bo‘lmaganda sudlarda majburiy qo‘llanishi haqida ko‘rsatilgan.

Rasman AQSHda federatsiya umumiy huquqi hali ham yo‘q. 1787-yilgi Konstitutsiyaning matnida ham bu nazarda tutilmaydi. Biroq AQSH huquqiy tizimi rivojlanishi federal huquqni alohida shtatlar huquqi ustidan ustunligiga olib keldi. Bunga ko‘p jihatdan AQSH Oliy sudining qarorlari yordam berdi. Ularda ko‘rsatilganidek, sudlar shtatlarda ishlarni oddiygina konstitutsiya yoki shtatlar qonunlari bilan emas, balki “mamlakatning oliy huquqi”, ya‘ni federal huquq asosida ham hal qilishlari lozim edi. Bu masala bo‘yicha sud amaliyoti uzoq vaqtgacha ziddiyatli bo‘lib qoldi.

**Yangi davrda AQSH qonunchiligi tarixi.** AQSH o‘z tarixida huquqning faqat sud qarorlari yordami bilan tashkil qilingan davrini bilmaydi. Bu yerda hatto mustamlaka davrida va inqilobdan keyingi dastlabki o‘n yilliklarda huquqiy tizimning asosini qonunlar tashkil etgan. Qonun chiqaruvchi organlar tomonidan qabul qilinadigan huquqiy normalarni o‘z ichiga olgan statut huquqi AQSH huquqining muhim manbai va tarkibiy qismi hisoblanadi. AQSHda oliy qonun chiqaruvchi organ – Kongress va shtatlarning qonunchilik organlari jamiyat hayotining turli tomonlarini tartibga soluvchi huquqiy normalar yaratishda faol ishtirok etadilar.

AQSHda qonunchilikning rivojlanishida shtatlarning konstitutsiyalari va 1787-yilgi federal Konstitutsiyaning qabul qilinishi muhim bosqich bo‘lib qoldi. Yozma konstitutsiyalarning amalga kiritilishi AQSH huquqi va yozilmagan konstitutsiyaga asoslangan ingliz huquqiy tizimi o‘rtasidagi farqlarning chuqurlashuviga olib kelgan asosiy omillardan biri bo‘ldi.

AQSHning 1787-yilgi Konstitutsiyasi negizida XIX-XX asrlarda o‘ziga xos huquqiy institut – sud konstitutsiyaviy nazorati instituti shakllandi. Ushbu institut sharofati bilan AQSH Oliy sudi nafaqat konstitutsiyaviy qoidalarni sharhlash bilan shug‘ullandi, balki shu bilan birga shtatlar va Kongressning ko‘p sonli qonunlarini konstitutsiyaviy emas, shuning uchun haqiqiy emas, ya’ni yuridik kuchga ega emas deb topdi.

Oliy sud doktrinalari (sharhlash pretsedentlari) AQSH Konstitutsiyasi va joriy qonunlari mazmuniga jiddiy ta’sir qildi. Konstitutsiyaviy qonunlarning ko‘pgina tushunchalari (masalan, “shtatlararo savdo”, “politsiya hokimiyati”, “mos keluvchi yurisdiksiya” va boshqalar) konstitutsiyaviy va qonunchilik oborotiga Kongress va shtatlarning legislaturalari tomonidan emas, balki AQSH Oliy sudi tomonidan kiritildi.

### **Eslab qoling!**

AQSHda qonunlarni kodekslashtirishga qaratilgan urinishlar ham bo‘ldi. Masalan, **1796-yildayoq Virjiniya shtatida Tomas Jefferson tomonidan tayyorlangan Jinoyat kodeksi qabul qilingan edi.**

Angliyadan farq qilib AQSHda XIX asrning 20-yillaridan boshlab alohida shtatlar bo‘yicha huquqni tizimga solish va kodekslashtirish maqsadlarida ma’lum ishlar amalga oshirildi. 1828-yildan Nyu-York shtatida, keyinchalik boshqa shtatlarda vaqti-vaqti bilan qonunlarning rasmiy to‘plamlari chiqarila boshladi.

1848-yilda taniqli yurist D.Fildning sa’y-harakatlari bilan Nyu-York shtatida fuqarolik va jinoyat sud ish yuritish kodekslari qabul qilindi. Bu kodekslar keyin boshqa shtatlar uchun namuna bo‘lib qoldi. Fild loyihasi bo‘yicha Kaliforniyada 1872-yili Fuqarolik kodeksi qabul qilindi. XIX asrning ikkinchi yarmida ko‘pgina shtatlarda jinoyat kodekslari ham ishlab chiqildi va qabul qilindi (1872-yil Kaliforniyada, 1881-yil Nyu-Yorkda va hokazo).

Biroq huquq tizimlari qisman kodekslashtirilgan shtatlarda kodekslar huquq manbalari tizimida huquqning qit’a tizimi mamlakatlaridagiga o‘xshab nufuzli o‘ringa ega bo‘lmadi.

Kodekslashtirish Amerika yuristlari va sudyalari ko‘z o‘ngida “ma’lum ma’noda doimo ham hom hayol bo‘lgan”, chunki kodekslar va qonunlar emas, balki aynan sud huquqi AQSH huquqiy tizimining xususiyatini, “yuzi”ni ko‘rsatuvchi asosiy belgisi hisoblanadi.

XIX asrning oxiridan Amerika jamiyatining va hammadan avval huquqiy normalarni butun mamlakat bo‘yicha bir xilda bo‘lishidan juda manfaatdor bo‘lgan tadbirkor doiralarning ehtiyojlari munosabati bilan AQSHda huquqni shtatlarda birxillashtirish uchun harakat boshlandi. Shu maqsadda 1889-yilda maxsus qo‘mita tuzildi. U asosan savdoni tartibga solish bilan bog‘liq bo‘lgan ba’zi birxillashtirilgan qonunlar loyihalarini (tovarlarni sotish, savdo qog‘ozlari va boshqalar bo‘yicha) ishlab chiqdi va ularning shtatlarning leglslaturalari tomonidan qabul qilinishini tavsiya qildi.

1892-yilda shtatlar huquqlarini birxillashtirish bo‘yicha vakil qilinganlarning milliy konferensiyasi tashkil qilindi. Konferensiya ko‘proq savdo huquqi bo‘yicha ishlab chiqilgan 200ga yaqin qonun loyihalarini shtatlarga ma’qullash uchun tavsiya qildi.

XX asr boshida federal huquq sohasida ham kodifikatsiya ishlarini amalga oshirish zarurati tug‘ildi. 1909-yilda Federal jinoyat kodeksi qabul qilindi. Kodeks o‘z ichiga asosan AQSH Konstitutsiyasiga muvofiq federatsiya ixtiyoriga berilgan nisbatan tor doiradagi masalalarni (davlatga xiyonat, pulni qalbakilashtirish, qaroqchilik va boshqa ba’zi jinoyatlarni) qamrab oldi.

**Fuqarolik huquqi masalalari va tadbirkorlikning huquqiy tartibga solinishi.** AQSHda fuqarolik huquqi uning butun tarixi davomida mazmunan alohida muhim huquqiy institutlar – korporatsiyalar huquqi, shartnoma huquqi, mulkchilik va boshqalardan shakllandi.

### **Eslab qoling!**

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarini tartibga solish asosan alohida shtatlarning vakolatlari doirasiga kiradi. Shtatlarning ba’zilarida (Kaliforniya, Montana va boshqalarda) yuqorida ta’kidlanganidek, fuqarolik kodekslari qabul qilingan.

AQSH fuqarolik huquqi tarixida jismoniy shaxslarning va ayniqsa, yuridik shaxslarning huquqiy holatida katta o‘zgarishlar yuz berdi.

**Jismoniy shaxslarning huquqiy maqomiga** qora tanli aholining huquqiy holatiga taalluqli qonunlar uzoq vaqtgacha katta ta’sir o‘tkazib keldi. 1787-yilgi Konstitutsiyada qora tanlilar “boshqa shaxslar” deb nomlangan edi. Fuqarolar urushiga qadar negr-qullar umuman huquq subyekti hisoblanmasdilar.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning birinchi yarmida negrlarning rasman ozod qilinishi va ularga fuqarolik huquqlarining taqdim qilinishi ularning jamiyatdagi (shu jumladan, mulkiy munosabatlardagi) kamsitilgan holatining tugatilganligini anglatmadi. XIX asr oxiridagi AQSH Oliy sudining “alohida, lekin teng huquqlar” ta’limoti asosida oq tanlilar va qora tanlilar segregatsiya tizimini qo‘llab-quvvatlab chiqargan mashhur qarori negrlarning fuqarolik huquqi subyekti sifatidagi maqomining ochiqdan-ochiq cheklanishiga olib keldi.

Biroq ancha muhim iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlar **yuridik shaxs huquqiy holatining** rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘ldi. AQSHda xuddi Angliyaga o‘xshab, “yuridik shaxs”ning umumnazariy konstruksiyasi yo‘q va bu yerda korporatsiya yuridik shaxs sifatida chiqadi. AQSHda tadbirkorlik korporatsiyalari aslini olganda aksiyadorlik jamiyatining o‘xshashi hisoblanadi.

Korporatsiyalar tashkil qilishning yuridik texnikasi AQSH huquqiy tizimiga ba’zi o‘zgartirilgan ko‘rinishlari bilan ingliz umumiy huquqidan o‘zlashtirib olingan.

AQSHda eng boshidanoq korporatsiyalar faoliyatini qonunlar bilan tartibga solish juda liberal bo‘ldi va shtatlarning hamda juda kam hollarda federatsiyaning korporativ birlashmalar tashkil qilish va faoliyatining umumiy shartlarini nazarda tutuvchi aktlar chiqarishi bilan cheklanib qoldi.

Ushbu shartlarga rozi bo‘lgan har qanday ta’rischi shaxslar guruhi tegishli ariza berilgandan keyin maxsus ro‘yxatdan o‘tkazilgan. U o‘z ixtiyori bilan qo‘shilib bir bo‘lib ketgan korporatsiya huquqini olgan.

AQSH Oliy sudi XIX asrning birinchi choragidayoq, aniqrog‘i, 1819-yilda korporatsiyalar huquqiy holatini belgilovchi ba’zi muhim prinsiplarni ifodalab berdi. “Korporatsiya sun’iy vujudga keltirilgan, ko‘rinmaydigan, sezilmaydigan, faqat huquq mo‘ljalida yashaydigan narsa hisoblanadi, u faqat yo uni yaratuvchilar tomonidan uning ustavida aniq taqdim qilingan yoki uning mavjudligining o‘ziga xos bo‘lgan belgilariga ega bo‘ladi”.

Fuqarolar urushi va uning orqasidan kelgan sanoat shov-shuvlari tugaganidan keyin sudlarning qarorlarida “korporativ xartiya (ustav) shtatlar va tegishli yuridik shaxs o‘rtasidagi shartnoma hisoblanadi, shu sababli u shtatlarning hokimiyatlari tomonidan politsiya hokimiyatini amalga oshirish taklifi bilan ham, soliqlar o‘rnatish huquqiga havola qilish bilan ham o‘zgartirilishi mumkin emas” deb bir necha marta ta’kidlangan edi.



XIX asrning oxiridan va, ayniqsa XX asrda AQSHda korporativ (aksiyadorlik) huquq ancha rivojlandi. Tadbirkorlik korporatsiyalarining huquqiy holati asosan alohida shtatlar qonunlari bilan o'rnatildi.

Federal hokimiyatlar korporatsiyalarning tadbirkorlik faoliyatiga asosan bevosita ta'sir o'tkazadilar. Bunday ta'sir, masalan, trestlarga qarshi qaratilgan qonunlarda, soliqlarga oid qonunlarda, qimmatli qog'ozlar chiqarish haqidagi va ularning muomalada bo'lishini nazorat qilish haqidagi qonunlarda va boshqalarda ko'rinadi.

Korporativ huquqning vujudga kelishi va rivojlanishida sud pretsedenti huquqi ham muhim rol o'ynadi. Lekin keyinchalik, ayniqsa, XX asrda korporativ huquqning rivojlanishida alohida shtatlarning qonunchiligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi.

Alohida shtatlar katta kapitallarni jalb qilishga harakat qilib, korporatsiyalar (yuridik shaxslar)ni ro'yxatdan o'tkazishning qulay sharoitlarini yaratishga va ular faoliyatining to'la erkinligini ta'minlashga qaratilgan qonunlar ishlab chiqish bo'yicha tez-tez musobaqalashib turadilar. XIX asr oxirida shunday shtatlar orasida Nyu-Jersi birinchi o'ringa chiqqan edi. Bu yerda o'sha vaqtdagi AQSHning eng yirik aksiyadorlik jamiyatlari qo'shib bir bo'lib ketgan edi.

AQSHda korporatsiyalar haqidagi qonunlar tashabbuskor va zarur kapitallarga ega bo'lgan tadbirkorlar uchun qulay sharoitlar yaratdi. Ular bo'lishi mumkin bo'lgan moliyaviy xavf-xatarning taxminiy miqdorlarini oldindan bilganlari holda biznesning ancha qulay sohalarini izlashga rag'batlantiruvchi omil olganlar. Bunday qonunlar korporatsiyalar tashkil qiluvchilarga (ba'zi shtatlarda bir kishidan iborat korporatsiya tashkil qilishga yo'l qo'yiladi) ishlab chiqarish va moliyaviy sohalarda katta yutuqlarga erishishlarida, iqtisodning butun tarmoqlari ustidan nazorat o'rnatishda qulay sharoitlar yaratadi.

AQSHda tadbirkorlikning korporativ shakllarining rivojlanishi bilan mulk huquqida ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. AQSH iqtisodida fuqarolar urushining tugashiga qadar hal qiluvchi rol o'ynagan mayda va o'rta firmalar o'zlarida kapitalizm rivojlanishining hammadan avval individual xususiy mulkchilik bosqichini mujassamlashtirdilar.

AQSHning XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrda jadal industrial rivojlanishi mamlakat iqtisodida muhim rol o'ynovchi kichik biznesning yo'qolib ketishini anglatmadi. Biroq hozirgi zamon kapitalizmining rivojlanishi mulkchilikning birlashgan korporativ shaklining o'rnatilishi va hukmronlik qilishiga olib keldi. Mulchilikning bu shakli nafaqat shaxsiy, balki jamiyat manfaatlarini bilan ham chambarchas bog'liq.

Amerika jamiyati tarixining dastlabki vaqtlarida xususiy mulkdorlar huquqlarini va tadbirkorlik korporatsiyalarining mulkiy manfaatlarini himoya qilish uchun shtatlarning qonunlaridan va umumiy huquq bo'yicha da'volarning an'anaviy shakllaridan foydalanildi. Lekin sanoat shov-shuvlari boshlanishi va iqtisodiy liberalizm siyosati o'rnatilishi bilan mulkiy huquqlarni konstitutsiyaviy vositalar bilan ham himoya qilish zarurati vujudga keldi.

Modomiki, 1787-yilgi Konstitutsiya xususiy mulkni himoya qilishning maxsus mexanizmlarini nazarda tutmagan ekan, AQSH Oliy sudi asta-sekin Konstitutsiyaning V va XIV tuzatishlarini yakka tartibdagi va korporativ mulkka tatbiq qildi. Bu tuzatishlarda umumiy tarzda "hech bir shaxs hayotidan, erkinligidan yoki mol-mulkidan zarur huquqiy tartibotlarsiz mahrum qilinishi mumkin emas" deb o'rnatilgan edi.

Masalan, 1879-yilda sud Konstitutsiyaga V tuzatishni qo'llash bilan bog'liq ishni ko'rish vaqtida "federatsiyaga shtatlar bilan teng darajada shaxsni yoki korporatsiyani zarur huquqiy tartibotlarsiz mulkidan mahrum etish taqiqlanadi" deb ta'kidladi. 1889-yilda sud "korporatsiya, XIV tuzatishda mazkur atama qanday ma'noda ishlatilgan bo'lsa, shunday "shaxs" hisoblanadi, shu sababli u zarur huquqiy tartibotlarsiz mulkidan mahrum qilinishi mumkin emas" deb to'g'ridan to'g'ri ko'rsatdi.

Shunday qilib, Konstitutsiyaga V va XIV tuzatishlar bilan kiritilgan qoida dastlab sof protsessual ma'no kasb etgan bo'lsa, so'ngra konstitutsiyaviy va fuqarolik huquqida moddiy-huquqiy xarakterga ega bo'ldi. U mulk huquqini himoya qilishning muhim vositasiga aylandi ("moddiy zarur protsedura" doktrinasi). Bu doktrinaning mohiyati xususiy mulk egalari huquqlarining davlat hokimiyatlari (federatsiya va shtatlar)ning juda og'irliklar keltirishidan himoya qilishdan iborat bo'lgan. XIX asrning oxirlaridagi sud qarorlaridan birida shtatlarning temiryo'l tariflarini<sup>1</sup> tartibga solish huquqi haqida gapiriladi, Oliy sud temiryo'l kompaniyalarining mulkiy manfaatlarini buzilgan deb hisobladi. Sud, jumladan, shtatlarning "tartibga solish huquqi mulkchilikni buzish huquqini anglatmaydi, shu sababli ularning to'g'ridan to'g'ri qonuniy cheklashi xususiy mulkni jamiyat maqsadlarida adolatli to'lovlarsiz yoki zarur huquqiy protsedurasiz tartib olish bilan barobardir" deb ta'kidladi.

XIX asrning oxirgi choragida sanoatning tez suratlar bilan o'sishi sharoitlarida murakkab munosabatlarning o'rnatilishi bilan tadbirkorlik dunyosida trest (ishonib topshirilgan mulk) instituti yangicha hayot kasb etdi.

---

<sup>1</sup> Tarif – biror narsaga to'lanadigan qat'iy baholar majmuyi.

1879-yilda “Standart oyl” tuzilganidan keyin va uning hayratda qoldiradigan yutuqlaridan so‘ng trestlar tashkil qilish harakati AQSHning barcha asosiy ishlab chiqarish (tamaki, shakar va hokazo) sohasini qamrab oldi. Aynan trest shaklida XIX asr oxiri XX asr boshiga kelib AQSHning ko‘pgina eng yirik monopoliyalari o‘rnatildi.

Trestlar tomonidan ulkan bozor hokimiyatining egallab olinishi munosabati bilan “trest” iborasining o‘zi monopoliyalar sinonimi bo‘lib qoldi. Lekin u ingliz ishonib topshirilgan mulk konstruksiyasidan olingan maxsus, ancha tor huquqiy mazmunga ham ega edi.

Bu vaqtda ishonib topshirilgan mulk huquqiy shaklidan bir qancha korporatsiyalar birlashmalari (super korporatsiyalar)ni tuzish uchun foydalanildi. Bunda unga kiruvchi firmalar o‘zlarining barcha qimmatli qog‘ozlarini ovoz berish huquqi bilan maxsus ishonchli shaxslarga o‘tkazgan. Ishonchli shaxslar o‘rinlari hamma firmalar uchun oliy boshqaruv organi bo‘lib qoldi. Korporatsiyalar trestiga kirgan aksiyonerlar eski aksiyalar o‘rniga trestlar sertifikatidan ma’lum nisbatlar (proporsiyalar) olgan.

Aksiyalarni sertifikatlarga almashtirish trest tashkilotchilariga trestga kiruvchi hamma firmalarni nazorat qilishga, yagona ishlab chiqarish va bozor siyosati ishlab chiqishga, monopol narxlar o‘rnatish va trest birlashmasidan tashqarida qolgan raqobatchilarga qarshi juda qattiq kurash olib borishga imkon berdi.

Garchi ishonib topshirilgan mulkni shunday huquqiy talqin qilish 1911-yilda “Standart oyl” ishi bo‘yicha noqonuniy va Shermanning trestlarga qarshi qonunini buzadi deb tan olingan bo‘lsa ham, trest institutining o‘zi Amerika iqtisodida, jumladan, murakkab bank birlashmalari tashkil qilishda keng tarqaldi.

AQSHda XIX-XX asrlarda boshqa fuqarolik-huquqiy institutlar orasida **shartnoma huquqi** ko‘proq rivojlandi. Aynan ushbu institut (mulk huquqi emas) haqiqatda bozor munosabatlari va raqobatlar erkinligiga asoslangan Amerika jamiyati butun huquqiy tizimining o‘zagi bo‘lib qoldi.

Shartnomalar rolining o‘sishi, ayniqsa, fuqarolar urushidan keyin va AQSHda sanoatning tez sur‘atlar bilan rivojlanishi hamda o‘sib boruvchi bozor tizimining shakllanishi davrida yaqqol ko‘zga tashlandi. Shartnoma huquqining takomillashishi iqtisodiy liberalizm siyosatiga ko‘maklashdi. Bunday siyosat tufayli yuridik kuchga ega bo‘lgan juda xilma-xil bitimlar tuzishda deyarli cheklanmagan erkinlik qaror topdi. O‘z navbatida shartnoma erkinligi xususiy mulkchilik manfaatlari bilan bog‘liq bo‘lmadi hamda yakka tartibda korporativ tadbirkorlik faoliyati uchun yo‘l ochdi.

XIX asr oxiriga kelib AQSH shartnoma huquqiga xos kutiladigan harakatlar sodir qilishga va'da berishga asoslanadigan qarshi ta'minlash (qanoatlantirish) konstruksiyasi to'liq darajada shakllandi. Shartnomani bunday keng tushunishda bozor munosabatlari aynan shartnoma huquqida va asosan shartnoma huquqiy tartibotida o'zining yuridik ifodasini oldi.

Bu vaqtda shartnoma huquqining qaror topishi va rivojlanishida sudlar, ayniqsa AQSH Oliy sudining doktrinalari muhim rol o'ynadi. XIX asrning ikkinchi yarmida, shartnoma munosabatlari keng tarqalgan bir paytda, shartnoma erkinligi Oliy sud doktrinasida konstitutsiyaviy darajagacha ko'tarildi. Masalan, sud o'z ishlaridan birida Konstitutsiyaga kiritilgan XIV tuzatish fuqarolarning shartnomalar tuzish huquqini o'z ichiga oladi deb to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatdi.

XIX asrning oxiriga qadar shartnoma munosabatlari avvalo pretsedent huquqida mustahkamlandi. XX asrda birinchi planga shtatlar qonunlari chiqdi.

### **XIX asrda shartnoma huquqi ikki yo'nalishda ishlab chiqildi:**

Ba'zi juda muhim shartnoma turlari uchun yozma shakllarni joriy qilish orqali.

“Shartnoma huquqlarini o'tkazishni mulk huquqining turli ko'rinishi sifatida tushunish” orqali.

Bitimga yuridik kuch beruvchi yozma hujjatdan foydalanishda tomonlar va sudlar ko'proq ingliz o'rta asrlar qonunlaridan kelib chiqqan aldash uchun qilingan harakatlar haqidagi statutlarga tayandilar

“O'ziga qabul qilish haqida”gi umumiy da'voning ishlab chiqilishi XVII asrning boshida shunday natija berdiki, norasmiy shartnomalar asosan da'volar himoyasi bilan ta'minlana boshladi. Norasmiy shartnomalar rasmiy shartnomalar (masalan, nashr uchun shartnomalar)dan farq qilib ko'pincha og'zaki tuzilgan.

Biroq bunday ishlarda Amerika sudlari ba'zi murakkab muammolarga duch kelganligi sababli, bu yerda shartnoma huquqining rivojlanishi yozma shakldagi shartnomaning majburiyiligini tan olish yo'nalishidan bordi. Amalda deyarli hamma shtatlar Angliyaning aldash uchun qilingan harakatlar haqidagi statutiga o'xshaydigan o'z xususiy qonunlarini qabul qildilar. Bu qonunlarning ko'pchiligi shartnomalarning

yozma shaklaridan foydalanishni talab qiluvchi me'yorlar o'rnatgan. Bunda, ayniqsa, summasi 500 dollardan yuqori bo'lgan shartnomalar albatta yozma shaklda tuzilishi talab qilingan. Shartnoma munosabatlarida AQSHdagi trestlarga qarshi qonunlarning normalari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bunday qonunlar orasida 1890-yilgi Sherman qonuni, 1914-yilgi Kleyton qonuni va shu yili qabul qilingan Federal savdo komissiyasi haqidagi qonun alohida o'rin tutadi.

Sherman qonunida shunday bir modda bor ediki, unda boshqa kishi yoki tashkilotning mol-mulkiga zarar keltirgan har bir shaxs yoki tashkilot sud javobgarligiga tortiladi yoki unga jarima solinadi deyilgan edi.

Trestlarga qarshi qonunlar shartnomalarning ba'zi turlarini, agar ular bozor raqobatini yo'qotilishiga yoki jiddiy buzilishiga olib kelsa, chekladi va taqiqladi. Masalan, Kleyton qonuniga binoan narxlardagi diskriminatsiya (haq-huquqni cheklab qo'yish) noqonuniy deb e'lon qilindi, "bog'lab qo'yadigan" va "maxsus" shartnomalar agar ularni bajarish natijasida raqobatning jiddiy zaiflashuvi sodir bo'lsa yoki monopoliyalar tashkil qilish tendensiyasi aniqlansa, taqiqlandi.

Sherman qonuni, shuningdek jismoniy yoki yuridik shaxslarning, ularning birlashmalari, ayniqsa, trestlar shaklidagi birlashmalarining har qanday bitimlari yoki kelishuvlarini, agar ularning bunday shartnomaga oid yoki shartnomaga oid bo'lmagan (yakka tartibda) harakatlari shtatlararo savdoning yoki chet davlatlar bilan savdoning jiddiy cheklanishiga olib kelsa, taqiqladi. Kleyton qonuni Sherman qonunining asosiy moddalarini o'z kuchida qoldirib, shu bilan birga, "kasaba uyushmalari va fermerlarning tashkilotlari erkin savdoni cheklashga qaratilgan bitim deb hisoblan-masligi lozim" deb pisanda qilib qo'ydi.

Trestlarga qarshi qaratilgan qonunlarga bevosita **iste'molchilar huquqlarini himoya qilish haqidagi qonunlar** ham qo'shildi. 1914 yilgi Federal savdo komissiyasi haqidagi qonunda iste'molchilar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan normalar mavjud. Bu Komissiyaga ko'pgina majburiyatlar, jumladan, trestlarga qarshi ishlar olib borish majburiyati bilan bir qatorda, raqobatning ma'lum "sifati"ni qo'llab-quvvatlash va raqobatning "insofsiz" usullariga qarshi kurashish funksiyasi ham yuklangan edi. Masalan, komissiya soxta reklama tarqatish, tovarlarni qalbakilashtirish, tovarlarga zarur belgilar qo'ymay sotish va hokazolar bo'yicha tekshiruvlar o'tkazdi, chunki mazkur amaliyot raqobat kurashi prinsiplarining o'ziga, shuningdek bevosita tovarlarni oxirgi iste'molchilariga xavf tug'dirgan.

Komissiya faoliyati shuni ko'rsatadiki, insofsizlik bilan qilinayotgan raqobat keng tarqalib, jamiyat uchun xavfli ko'rinish hosil qilgan. Bu esa ushbu sohada keskin va keng qamrovli qonunchilik choralari ko'rilishini talab qildi. Bunday ishlar AQSHda asosan eng yangi davrda amalga oshirildi.

### **Eslab qoling!**

Tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar bilan **atrof-muhit huquqi** – **ekologik huquq** ham chambarchas bog'liq. Ekologik huquq aslida AQSH huquqiy tizimida yangi hodisa hisoblanadi va uning paydo bo'lishiga avvalo sanoat ishlab chiqarishining tabiiy muhitga kirib kelishining tez o'sishi sabab bo'ldi.

Tabiiy resurslarni qo'riqlashga qaratilgan dastlabki urinishlar XIXasrning oxiriga kelib qilingan edi. Masalan, 1891-yilda qabul qilingan O'rmon zaxiralari haqidagi qonun "jamoat yerlari"ni federal mulkchilik sifatida mustahkamlash siyosatida boshlang'ich hisoblandi. Bu yerlar xususiy shaxslarga mulk sifatida sotilishi va o'tkazilish mumkin emas. Jamoat yerlarida asta-sekin milliy o'rmonlar va istirohat bog'lari, yovvoyi hayvonlar qo'riqxonalari tashkil qilindi. AQSH tarixida birinchi marta 1872-yilda Kongress hujjati asosida Yelloustoundagi federal milliy istirohat bog'i tashkil etildi.

XX asrga kelib endi hayvonlar yashaydigan muhitni qo'riqlash siyosati ham boshlandi. 1903-yilda Floridaning Pelikan orolida yovvoyi hayvonlar uchun birinchi qo'riqxonalar tashkil qilindi. Keyinchalik – eng yangi davrda (1918, 1958, 1966-yillarda) Kongress qo'riqxonalar bo'yicha qator qonunlar qabul qildi.

Fuqarolik-huquqiy institutlar orasida **nikoh-oila huquqi** alohida o'rin egallaydi. Tarixan bu huquq shtatlar vakolatlari doirasiga kiradi; federal huquq nikoh-oila munosabatlari masalalariga amalda aralashmaydi.

Shunday qilib, oila huquqining manbaini shtatlarning qonunlari tashkil qiladi. Shtatlarning bu sohadagi qonunlari oila va meros munosabatlarini tartibga solishda bir-biridan anchagina farq qiladi.

Ba'zi shtatlarda oila huquqi sohasida umumiy huquq pretsedentlari o'z ahamiyatini saqlab qolgan. AQSH tarixida oilaviy da'vo ishlarini ko'rayotgan sudyalarning nafaqat Amerika sudlarining pretsedentlariga, balki ingliz sudlari pretsedentlariga ham to'g'ridan to'g'ri havola qilganliklari uchraydi. Masalan, 1820-yilda Amerika sudi xotin eri o'lganidan keyin garov bo'yicha qarz olish huquqini oladimi yoki yo'qmi

degan masalaga to'qnash keldi. Bahs ancha eski ingliz pretsedenti (1712-yilgi *Christis Hospital v. Budgin*) asosida hal qilindi. Sud ushbu pretsedentga havola qilib xotinning bunday huquqini tasdiqladi.

Nikohni qayd qilish tartibida ham turli shtatlar qonunlari turlicha me'yorlarni mustahkamlaydi. Umuman, *nikohni qayd qilishdagi ikki asosiy yondashishni ajratib ko'rsatish mumkin: bu fuqarolik tartibida va cherkovda nikohni qayd qilish.*

To'g'ri, ko'p hollarda cherkov nikohi uchun tegishli munitsipal organlarning oldindan berilgan litsenziyasi (ruxsatnomasi) talab qilinadi.

Ba'zi shtatlarda sud amalda shakllangan nikoh munosabatlarini ham, bundan kelib chiqadigan barcha oqibatlarni ham (masalan, bolalarni tan olishni) yuridik fakt sifatida tan olishi mumkin. Lekin, umuman olganda, alohida shtatlarning qonunchiligi nikohsiz tug'ilgan bolalar uchun ham otalik o'rnatilishiga yo'l qo'yadi.

**Nikohni bekor qilish asoslari** borasida ham shtatlarning qonunlari nikohni qayd qilishga qaraganda yanada ko'proq xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ba'zi shtatlarda ajralish yo'lga ancha og'ir to'siqlar qo'yilgan. Masalan, ajralish haqidagi ish sudda ko'rilayotganda da'vogar er-xotinlardan birining aybdorligini, jumladan, urganligini yoki qo'pol munosabatda bo'lganligini, yoki xiyonat qilganligini va hokazolarni isbotlashi lozim bo'lgan. Ajralishni qayd qilish uchun ba'zi shtatlarda avval er-xotinning o'rnatilgan muddat davomida (odatda yarim yil mobaynida) alohida yashashi belgilangan. Ayni paytda ba'zi shtatlar ajralish uchun jiddiy to'siqlar o'rnatmaydi. Bunda er-xotinlarning o'zaro roziligi yoki oilaning buzilishini tuzatib bo'lmasligini faqat bir marta ta'kidlashning o'zi kifoya qilgan. Ajralishni qayd qilishni juda oson tartibi joriy qilingan shtatlar orasida, ayniqsa, Nevada ajralib turadi. U yerda odatda ajralishni zudlik bilan rasmiylashtirishga harakat qiluvchi er-xotinlar sudlarga tez-tez murojaat qilib turadilar.

**Er-xotinning mulkiy munosabatlari** masalalarida ham shtatlar qonunlari bir-biriga mos kelmaydi. Umuman olganda xotinlarning mulkiy huquqlari XIX asrdan ancha kengaydi. AQSHda er-xotin mulkining alohidaligi rejimi keng tarqalgan, biroq ba'zi shtatlarda mol-mulkning umumiylikiga yo'l qo'yiladi. Meros qoldirish tartibi ham turli shtatlarda tarixan bir xil emas. Barcha shtatlarda meros huquqi qonun bo'yicha va vasiyat bo'yicha amalga oshiriladi.

**Mehnat qonunlarining rivojlanishi.** AQSHda ishchi kuchlari shakllanishining ma'lum tarixiy sharoitlari sharofati bilan XIX asrda kasaba uyushmalari tashkil qilish va mehnat huquqining qaror topishi uzoq va qiyin yo'lni bosib o'tdi.

Ingliz umumiy huquqining ko'p qoidalaridan AQSHda uyushgan ishchilar harakatiga to'siq yaratish uchun foydalanildi. 1806-yildayoq Filadelfiyadagi etikdo'zlarning ish tashlashi munosabati bilan sud umumiy huquqning "jinoiy til birlashtirish" haqidagi doktrinasidan foydalandi. Bu doktrina o'z oldiga ish haqini oshirishni maqsad qilib qo'ygan ishchilar birlashmalariga nisbatan qo'llandi. Aslini olganda XIX asrda ushbu doktrina asosida AQSH sud amaliyotida ishchilar kasaba uyushmalarining va uyushgan ish tashlashlarning noqonuniyligi haqidagi tushuncha ishlab chiqildi. Bunga iqtisodiy liberalizm doktrinasi ham yordam berdi. Ushbu doktrinaga binoan ishchilar va korxonalar egalarining yakka tartibdagi mehnat bitimlari kapitalizm rivojlanishining normal sharti hisoblanadi. AQSHda ishchilar o'zlarining birlashish huquqlari uchun kurashishlariga to'g'ri keldi. 1842-yilda Massachusettsda sud "ittifoqning qonuniyligi u qo'llagan vositalar bilan belgilanadi" deb tan olishga majbur bo'ldi. Bu qaror asta-sekin AQSH sudlarida aybsizlik prezumpsiyasidan va kasaba uyushmasining noqonuniyligidan voz kechishga olib keldi.

Biroq kasaba uyushmalarining sud tomonidan ta'qib qilinishi davom etdi, lekin endi ularning korxonalar egalari bilan kurashidagi "noqonuniy" usullari vaj qilib ko'rsatildi, ishchilarning ish tashlash va boshqa birgalikdagi harakatlari haqidagi kelishuv esa ilgorigidek jinoiy "til birlashtirish" sifatida ko'rildi.

Fuqarolar urushidan keyin AQSHning ba'zi shtatlari (Minnesota, Pensilvaniya)da ish tashlashga undash, temiryo'llardagi ishga qasddan halaqit qilish, ya'ni temiryo'lchilarning ish tashlashini uyushtirish va boshqa xatti-harakatlar uchun turmaga qamash va jarimalar solishni o'rnatuvchi maxsus qonunlar paydo bo'ldi.

Amerika tadbirkorlari uyushgan ishchilar harakati bilan kurash olib borishda "shartnoma erkinligi"dan, ya'ni ishchilarga tazyiq o'tkazishning shartnoma usullaridan keng foydalandilar. Masalan, XIX asrning oxiri–XX asr boshida "sariq it" shartnomalari keng tarqalgan edi. Bunga ko'ra ishga kirayotgan ishchi oldindan kasaba uyushmasiga birlashish huquqidan va ish tashlashlarda qatnashishdan voz kechishi lozim edi.

Ushbu shartlarni buzgan ishchilar ishdan bo'shatildilar. Bunday "shartnoma" amaliyoti shu darajada ochiqdan ochiq ishchilarga qarshi qaratilgan ediki, oqibatda Kongress uni maxsus qonun bilan taqiqlashga majbur bo'ldi. Biroq AQSH Oliy sudi Kongressning bu qonunini mulkiy munosabatlariga yo'l qo'yib bo'lmaydigan aralashuv sifatida baholab konstitutsiyaviy emas deb topdi.



AQSHning rivojlangan industrial jamiyat bosqichiga kirishi bilan tadbirkorlar uyushgan ishchilar harakatining ta'sirini yo'qotish uchun sud buyruqlari (injunctions) va trestlarga qarshi qonunlardan ham foydalana boshladilar.

Ish tashlash yuz berganda korxonaga egalari sudga ish tashlagan ishchilar o'zlarining harakatlari bilan mulkka "tuzatib bo'lmaydigan ziyon" keltirishlari mumkinligini ko'rsatib va ish tashlashni taqiqlovchi sud buyrug'i berishni iltimos qilib murojaat qilganlar.

Sudlar, qoida bo'yicha, bunday buyruqlarni berganlar, va ish tashlash tashkilotlari, agar ular taqiqlarga amal qilmasalar, sudga nisbatan "hurmatsezlik qilganligi" uchun jinoiy javobgarlikka tortilganlar. Masalan, shu yo'l bilan 1895-yilda AQSH tarixidagi eng yirik ish tashlashlardan biri temiryo'lchilarning ish tashlashi bostirildi, uning rahbari – AQSH ishchilar harakatining taniqli arbobi E. Debs esa sud buyrug'iga bo'ysunishni rad qilganlik uchun turmaga qamaldi.

Amerika sudlarining ish tashlashlarga va uyushgan kasaba uyushmalari kurashining boshqa usullariga nisbatan trestlarga qarshi Sherman qonunini buzish deb chiqargan qarorlari yuridik kaziustikaning yorqin namunasi bo'ldi.

Sudlar o'zboshimchalik bilan kasaba uyushmalarini "monopoliyalar"ga, ularning faoliyatini esa "savdoni cheklash maqsadidagi til biriktirish"ga tenglashtirdilar.

Sherman qonuni kuchga kirgandan keyin dastlabki 7 yil ichida federal sudlar ishchi tashkilotlarini 12 marta aybdor deb topdilar, korxonaga egalari harakatida esa faqat bir marta qonun buzilganligi aniqlandi. Trestlarga qarshi jarayonlar bo'yicha sudlar "aybdor" kasaba uyushmalariga etkazilgan zararni uch baravar miqdorida jarima tayinladilar.

AQSHda XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshida ijtimoiy fikr tazyiqi ostida bolalar va ayollar mehnati haqida g'arbiy Yevropa mamlakatlaridagiga qaraganda nisbatan cheklangan qonunlar qabul qilindi. Bunday qonunlar alohida shtatlarning leglslaturalari tomonidan qabul qilindi, lekin ularni amalga oshirishga qaratilgan harakatlar federal sudlar qarshiligiga uchradi. Oliy sud bunday qonunlarni Konstitutsiyaga kiritilgan XIV tuzatishga zid keladigan qonunlar sifatida konstitutsiyaviy emas deb topdi.

Sud ish kunining davomiyligini qonun bilan cheklanishi ish kuni ancha uzoq davom etadigan xodimning konstitutsiyaviy huquqini buzadi, deb ta'kidlagan. Shu tariqa Oliy sud yuridik ustomonlik yordamida va ishchilar sinfining bir xil emasligi hamda ishchilar harakatidagi

bo‘linishdan foydalanib uzoq vaqt mobaynida mehnat haqidagi va boshqa ijtimoiy qonunlarni qabul qilinishiga to‘sqinlik qilib keldi. Natijada AQSH bu sohada ba’zi Lotin Amerikasi mamlakatlarning qonunchiligidan ham orqada qoldi.

Rasmiy ma’lumotlarning xabar berishicha, AQSHda birinchi jahon urushi arafasida zavodlar va konlarda ishlab turgan katta yoshdagi jami ishchilarning uchdan ikki qismidan to beshdan uch qismigachasi kuniga 10 soat va undan ortiq ishlab, xaftada 15 dollarga yetar-yetmas haq olgan. 10 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan ikki millionga yaqin bola sanoatning turli tarmoqlarida ishlashga majbur bo‘lgan.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, AQSHning ko‘pgina shtatlaridagi mehnat haqidagi qonunlarda negrlarning irqiy kamsitilgan holati, og‘ir mehnat sharoitlari o‘z aksini topdi. Bunday qonunlar Oliy sudning “ajratilgan, lekin teng huquqlar” deb nom olgan mashhur doktrinasi bilan qo‘llab-quvvatlanar edi.

**Jinoyat huquqi va jarayonining rivojlanishi.** AQSH Konstitutsiyasiga binoan jinoyat huquqi, uning umumfederal ahamiyatga ega bo‘lgan normalarini istisno qilganda, alohida shtatlar yurisdiksiyasiga taalluqli.


AQSH tarixining dastlabki o‘n yilliklarida jinoyat huquqi ma’lum darajada ingliz umumiy huquqi ta’sirida rivojlandi. Ingliz huquqi AQSH huquqiga ko‘p huquqiy tushunchalar va konstruksiyalar kiritdi. Masalan, jinoyatlarning feloniya va misdminorlarga bo‘linishi, jinoyatlarning o‘ziga xos, sof inglizcha tarkiblari va boshqalar ingliz huquqidan o‘zlashtirib olindi.

Vaqt o‘tishi bilan ingliz sudlarining ko‘pgina pretsedentlari shakllanayotgan Amerika umumiy huquqi tarkibiga kiritildi.

Biroq XIX asrda shtatlarning jinoyat huquqini tartibga keltirish bo‘yicha qonunchilik ishlari boshlangan bir paytda, alohida shtatlar legislaturalarining statutlari borgan sari katta rol o‘ynay boshladi. Ko‘p shtatlarda XIX asrning 40-yillaridan boshlab jinoyat kodekslari ishlab chiqildi. Bunday kodekslar odatda shtatlar qonunlari to‘plamlarining jinoyat huquqiga taalluqli bo‘limlari bo‘lgan. Ular ko‘p jihatdan an’anaviy doktrinalar va umumiy huquq konstruksiyalariga asoslanardi.

XIX asrning 70-yillarida federatsiya jinoyat qonunlarini kodifikatsiya qilishga urinishlar bo‘ldi. Bu AQSH qonunlari to‘plamida federal jinoyatlar haqidagi maxsus bo‘limning tuzilishida o‘z ifodasini topdi. Biroq federal qonunlarning bir muncha to‘liq tizimlashtirilishi 1909-yilgi Jinoyat kodeksida amalga oshirildi.

Lekin bu federal Jinoyat kodeksida ichki uyg'unlikka erishilmadi, chunki u yaxlit va yagona bo'lmay, balki alohida federal jinoiy qonunlarni bayon qildi, xolos.



Qonunchilikdagi dualizm (federatsiya va shtatlar) jinoyat jarayoni huquqi tarixida ham yaqqol namoyon bo'ldi. AQSHdagi sud ishlari yuritishga va barcha jinoiy-huquqiy protseduralarga ingliz umumiy huquqining sud an'analari muhim ta'sir o'tkazdi.

XIX asrdayoq bu an'analar shtatlarning yangi qonunlari bilan to'ldirildi, lekin Amerika jinoiy-protsessual huquqining ingliz-sakson asosi o'zgarishsiz qoldi. Ba'zi shtatlarda Jinoyat jarayoni kodekslari tuzildi. Masalan, Kaliforniyada bunday kodeks Jinoyat kodeksi bilan birlashtirildi.

XIX asrning oxiri va XX asrdan jinoyat jarayoni va sud ishlari yuritishga taalluqli barcha masalalar shtatlar qonunlari to'plamlariga mustaqil bo'limlar ko'rinishida kiritildi.

Tarixan shtatlar va federatsiya jinoyat jarayoni bir necha bosqichlardan tashkil topgan. Ulardan birinchisi dastlabki tergov hisoblanadi. U juda ko'p sonli mansabdor shaxslar va shtatlar hamda federatsiya organlari tomonidan amalga oshiriladi. Ular o'rtasida qandaydir subordinatsiya yo'q.

Jinoyat jarayonidagi ikkinchi bosqich ayblanuvchini sudga berish haqidagi masalani hal qilish hisoblanadi, uchinchi bosqich esa ishlarni sudda ko'rib hal qilishdan iborat. Amerikada sud ishlari yuritishning an'anaviy belgisi shundan iboratki, sudlanuvchi, agar unga olti oydan ortiq qamoq tayinlanishi xavfi bo'lsa, ishning qasamxo'rlar sudida ko'rilishini talab qilish huquqiga ega. Qasamxo'r hakamlar hay'ati ko'p Amerika shtatlarida 12 kishidan iborat tarkibda bo'lib, ular jamiyatning turli tabaqalari vakillaridan tanlab olinadi.

Sudda jinoyat ishlarni ko'rib chiqish tartib-qoidalarini shtatlar va federatsiya qonunlari bilan batafsil ishlab chiqilgan, ba'zi hollarda esa umumiy huquq pretsedentlariga asoslangan.

Jinoyat jarayonining oxirgi bosqichi ayblanuvchining aybdorligi yoki aybdor emasligi haqidagi asosiy masalani hal qilishdan iborat. Bu masalani hal qilish huquqi sudyaga emas, qasamxo'r hakamlar hay'atiga tegishli hisoblanadi. Ba'zi shtatlarda qasamxo'rlar nafaqat aybdorning aybdorligini belgilaydilar, balki jazo choralarini ham tayinlaydi.

Hay'at chiqaradigan verdikt (hukm) bir ovozdan qabul qilingan bo'lishi talab etiladi. Agar bunday bir ovozdan verdikt qabul qilishga yerishib bo'lmasa va sudya qasamxo'rlar mavqeyiga ta'sir o'tkaza olmasa, u qasamxo'rlarning hamfikrligi yo'qligi sababi bo'yicha sudni haqiqiy emas deb e'lon qiladi.

Ko'p shtatlarda hukm chiqarish sudyalari tomonidan amalga oshiriladi.

#### 4-§. Fransiya huquqi

**Yangi davrda Fransiya huquqining shakllanishi va asosiy manbalari.** Angliyadan farq qilib, Fransiyada inqilob arafasida huquqiy tizim juda eskirgan va konservativ edi, zamon talablariga to'liq javob bermasdi, pishib yetilgan ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlarning boshlanishiga to'sqinlik qilardi.

#### **Eslab qoling!**

XVIII asr oxiridagi buyuk fransuz inqilobi eski tuzumni ag'darib tashladi. Hokimiyat tepasiga kelgan yangi hukmron doiralar yagona milliy huquqiy tizim yaratishni inqilobning eng muhim vazifalaridan biri deb hisobladilar.

Inqilobning huquq sohasiga chuqur kirib borishi jamiyatning umumiy inqirozga yuz tutganligi, shuningdek o'rta asrlar huquqining jamiyat rivojlanishidagi eng zarur ehtiyojlarga ochiqdan ochiq to'g'ri kelmay qolganligi natijasi bo'ldi.

### **Eslab qoling!**

Uchinchi tabaqaning inqilobdan oldingi huquqdan noroziligi mamlakatda aslida yagona milliy huquqiy tizimning yo'qligi, huquqiy tarqoqlik hukmronlik qilishi munosabati bilan yanada chuqurlashdi.

Volter iborali qilib ta'kidlaganidek, "mamlakatda pochta otlarini almashtirib, huquqni ham almashtirardilar". Huquqiy partikularizm savdogarlarga va tadbirkorlarga qimmatga tushardi.

XVIII asrda fransuz ma'rifatparvarlari asarlarida feodal huquq asoslarining keskin va qat'iy tanqid qilinishi sharofati bilan inqilob boshlanishidan ilgariyoq eski huquqiy tartiblarning qulashi muqarrarligi g'oyaviy jihatdan tayyorlangan edi. "Yaxshi qonunlarga ega bo'lishni xohlaysizmi, deb yozgandi Volter, – u holda o'z qonunlaringizni yoqib yuboring va yangilarini ishlab chiqing".

Huquqni tubdan isloh qilish, jumladan, yagona milliy huquqiy tizim yaratish talablari uchinchi tabaqaning 1789-yil mayda General shtatlardagi o'z deputatlariga bergan ko'p sonli nakazlarida ilgari surilgan edi.

XVIII asrdagi aql-idrokka asoslangan falsafa, o'zining jamiyatdan va vaqtdan tashqari mavhum insonga ishonishi bilan o'z ideologlariga nafaqat feodal huquqning juda nozik tomonlarini aniqlash, balki universal huquqiy tizim yaratishning asosiy yo'nalishlarini oldindan belgilash imkonini ham berdi.

Shu sababli inqilob davomida uning yo'l boshchilari juda katta huquqiy umumlashmalar qilishgacha, yangi huquqning prinsiplarini e'lon qilishgacha ko'tarila oldilar.

Huquqqa ana shunday global yondashuv 1789-yilgi Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasidayoq namoyon bo'ldi.

Fransuz inqilobchilari eski rejimga xos bo'lgan o'zboshimchalik va qonunsizlikni inkor qilish bilan birga zimmalariga "mustahkam qonun asosida" yangi huquqiy tartib qurish majburiyatini oldilar.

Fransuz inqilobining aniq va ma'lum prinsiplarga asoslangan konstitutsiyaviy va joriy qonunlari jamiyat hayotining juda turli-tuman tomonlariga kirib bordi. Yuridik nuqtayi nazardan bu qonunlar uncha takomillashmagan edi. Biroq ular o'sha vaqtga xos bo'lgan inqilobiy jo'shqinlik va g'ayratni aks ettirgan.

## **Eslab qoling!**

**Inqilobiy qonunlar oqimi eski huquqni supurib tashladi, Frantsiyada erkin tadbirkorlik o‘rnatilishi uchun yo‘lni tozaladi.**

*Ta’sis majlisi 1789-yil 29-avgust va 18-sentabrda g‘alla sotishdagi eski tartiblar va cheklovlarni bekor qiluvchi qonunlar qabul qildi va bu bilan erkin savdo prinsipi o‘rnatilishiga asos soldi.*

Oktabrda qarz bo‘yicha foizlar olishni taqiqlovchi inqilobdan avvalgi qonunlar bekor qilindi. Bu kredit operatsiyalari uchun keng yo‘l ochdi. 1790-yil 29-sentabrda feodal huquqning tipik instituti hisoblangan umrbod ijara taqiqlandi va mol-mulk ijarasining maksimal muddati 99 yil qilib o‘rnatildi.

*1791-yil fevralda Ta’sis majlisi o‘rta asrlar sexlarini tugatdi. 1791-yil 2–17-mayda chiqarilgan qonun muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Unga binoan savdo, hunarmandchilikdagi feodal cheklovlar bekor qilindi va tadbirkorlik erkinligi e‘lon qilindi. Ushbu qonunning 7-moddasida “har qanday shaxsning o‘zi xohlagan ish bilan shug‘ullanish va o‘zi xohlagan kasbni tanlash, savdo yoki hunarmandchilik bilan shug‘ullanish huquqi”ga ega ekanligi mustahkamlandi.*

Ta’sis majlisining bu yo‘nalishdagi siyosatini Qonun chiqaruvchi majlis va Milliy konvent davom ettirdi. *Konvent 1792-yil martda chiqargan dekreti bilan qarz uchun shaxsni ushlab turishni bekor qildi. Feodal tartiblarni bekor qilishning shunday maqsadlarini oxir-oqibat meros huquqi islohoti ham nazarda tutdi. 1792-yil martda feodal huquqning eng muhim institutlaridan biri – mayorat tugatildi. 1791-yil aprel qonunlari meros taqsimlanishida bolalarning to‘la teng huquqliligini o‘rnatdi.*

1792-yil sentabrda jirondistlar hukumati davrida fuqarolik holati aktlarini sekulyarizatsiya qilish haqida qonun qabul qilindi: majburiy fuqarolik nikohi o‘rnatildi, ajralishning keng erkinligi tan olindi, qonuniy va nikohsiz tug‘ilgan bolalarning huquqlari tenglashtirildi.

Fransuz inqilobining radikal qonunchiligi ma’lum darajada uchinchi tabaqa vakillarining, avvalo dehqonlar ommasining o‘rta asrlar tartiblariga qarshi uzoq va qattiq kurashlari natijasi bo‘ldi.

## **Eslab qoling!**

**Bir-birini almashtirib turgan inqilobiy hukumatlar huquq sohasida nafaqat qayta qurishlarni amalga oshirdilar, balki uni tizimlashtirish bo‘yicha ma’lum qadamlarni ham tashladilar.**

Ta'sis majlisi 1790-yil 21-avgustda chiqargan dekretidayoq "oddiy, aniq va konstitutsiyaga asoslangan" fuqarolik, jinoyat va protsessual huquqlar kodekslari tuzish zarurligi haqida ta'kidlagan edi. 1791-yilgi Konstitutsiyada "butun qirollik uchun umumiy" fuqarolik qonunlari kodeksi haqidagi qoida mavjud edi. Biroq inqilobning juda tez va to'satdan rivojlanib borishi yangi hokimiyatning barcha o'ylangan kodifikatsiya ishlarini amalga oshirishiga xalaqit qildi.

Hukumat hokimiyati inqilob davomida huquqda barqarorlik ta'minlash uchun yetarli darajada mustahkam bo'lmadi. Nihoyat, umumiy huquqiy prinsiplarni mustahkamlashda ancha aniq va amaliy huquqiy shakllar izlash uchun vaqt talab qilindi.

Ta'sis majlisi faqat Jinoyat kodeksi ishlab chiqishga ulgurdi. Bu kodeks 1791-yilda qabul qilindi. Jinoyat kodeksini tuzuvchilar (Lepelete va boshqalar) Bekkariya, Monteske, Volter kabi mutafakkirlarning inqilobga qadar jinoyat huquqi sohasidagi ma'rifatparvarlik g'oyalariga tayandilar. Jinoyat kodeksi mualliflari unga 1789-yilgi Deklaratsiyaning demokratik qoidalarini kiritishga harakat qildilar.

**1791-yilgi Jinoyat kodeksi** oddiy va aniq tuzilishga ega edi. Uning "Jazolar haqida"gi birinchi qismida endilikda Fransiyada "nulla poena sine lege" prinsipi asosida berilishiga yo'l qo'yilgan jazolar batafsil tartibga solindi. Jazolar ro'yhatida o'rta asrlar davriga xos bo'lgan tana a'zolaridan mahrum qilish jazolari yo'q edi. Jinoyat kodeksining "Jinoyatlar va jazolar haqida"gi ikkinchi qismida "nullum crimen sine lege" prinsipidan kelib chiqib, jinoyat deb hisoblanadigan xatti-harakatlar to'la-to'kis sanab ko'rsatildi.

Bu ham feodal jinoyat huquqiga nisbatan katta progress bo'ldi. Jazosi boshqa o'xshash jinoyatlar bilan teng bo'lgan diniy va boshqa jinoyatlar kodeksdan chiqarib tashlandi.

1791-yilgi Jinoyat kodeksining muhim o'ziga xos xususiyati unda mutlaq aniq sanksiyalar belgilanganligida, ya'ni har bir jinoyat uchun qattiq o'rnatilgan jazolarning mavjudligida edi. Bunday tizim, tabiiyki, sudlarning jazo choralarini tanlashdagi har qanday o'zboshimchaligini istisno qildi va inqilobiy qonun chiqaruvchining inqilobdan avvalgi davrdagi qirollik sudlarining ko'p sonli suiste'molliklariga nisbatan reaksiyasini aks ettirdi. Biroq u juda chalkash bo'lganligi sababli amaliyotga uncha to'g'ri kelmadi.

Kodeks bo'yicha hamma jinoyatlar ikki guruhga: xalq manfaatlariga qarshi qaratilgan va xususiy shaxslarga qarshi qaratilgan jinoyatlarga bo'lindi. Keyingisi, o'z navbatida, shaxsga qarshi va mulkka qarshi

jinoyatlarga ajratildi. Jinoyat kodeksi xususiy mulkni himoya qilishga juda katta e'tibor berdi. Uning 128ta moddasidan 48tasi aynan shunga bag'ishlangan edi.

Jinoyat kodeksida jazolar o'rta asrlar jinoyat qonunlariga qaraganda juda yumshatilgan bo'lsa ham, har qalay anchagina og'ir bo'lib qolaverdi. Qonunga binoan, o'lim jazosi 35ta holatda tayinlanardi va omma oldida oshkora ijro etilardi.

Sharmanda qiluvchi jazolar: obro'-e'tiboridan mahrum qilishning ommaviy tartibi, sharmandayu-sharmisor qilish saqlanib qolgan edi. Shuningdek, juda og'ir mehnatga tortish qonunlashtirildi, uzoq muddatga yakka-yakka qamash nazarda tutildi.

1791-yilgi Jinoyat kodeksi har qancha izchil bo'lmaganligiga qaramay, aynan inqilob davrining kodeksi bo'ldi. Inqilobning rivojlanib borishi bilan qonunchilikda, ayniqsa agrar sohadagi qonunchilikda uning feodal tartiblarga qarshi yo'naltirilganligi tobora ochiq namoyon bo'ldi, yangi huquqning maqsad va prinsiplari aniqroq ifodalandi. Biroq inqilobga jamiyatning keng qatlamlari, shu jumladan, uning quyi qismining qo'shilishi qonunlarga tobora ko'proq darajada favqulodda maksimalizm kiritdi. Bu esa endi nafaqat eski huquqni buzib tashladi, balki huquqiy madaniyat asoslariga ham putur yetkazdi, huquqiy nigilizmni tug'dirdi.

Inqilob davri yaxlit va tugallangan huquqiy tizim tashkil qilishga imkoniyat bermadi. U uncha to'la bo'lmagan, tarqoq va ko'pincha o'zaro muvofiqlashtirilmagan huquq tashkil topishiga olib keldi.

### **Eslab qoling!**

XVIII asrdagi inqilob jamiyat, avvalo, yangi tadbirkor doiralar va mulkdor dehqonlar manfaatlari yo'lida "kuchli" hukumat hokimiyati o'rnatishi bilan butun fransuz huquqini keng miqyosda kodifikatsiya qilish uchun zarur zamin tayyorladi.

Odatlar yoki sud amaliyoti emas, aynan qonun fransuzlar ko'z o'ngida eski feodal institutlarni tugatish hamda yangi, oddiy va adolatli huquq ishlab chiqishning ancha samarali vositasi bo'lib ko'rindi.

Darhaqiqat aynan qonunda hammadan avval tabiiy huquq qoidalari va "tabiat talablari" o'z ifodasini topdi. Qonunga oliy yuridik kuchga ega normalar o'rnatish vakolatiga ega bo'lgan oliy hokimiyatning akti sifatida qaraladigan bo'ldi. Bunday huquqiy tartibot sharoitida qonun haqiqatdan ham umumiy irodani, ham jamiyatning alohida guruhlar va qatlamlari, hammadan avval uning hukmron tabaqalari manfaatlarini ifoda etishning



ancha qulay huquqiy shakli sifatida maydonga chiqdi. Xuddi shundan kelib chiqib, fransuz huquqiy tizimida yuridik nuqtayi nazardan sudning har qanday qarori (Angliyadan farq qilib) rasman o'tgan amaliyotga – pretsedentga emas, yozma huquqqa – qonunga asoslanishi lozim bo'lgan.

Fransiyada yangi huquqiy tizim inqilob davridayoq ilgari surilgan prinsiplar va maqsadlar asosida tashkil qilindi. Aynan XVIII asrdagi inqilob jamiyat, avvalo, yangi tadbirkor doiralar va mulkdor dehqonlar manfaatlarini yo'lida “kuchli” hukumat hokimiyati (Napoleon Bonapart) o'rnatishi bilan butun fransuz huquqini keng miqyosda kodifikatsiya qilish uchun zarur zamin tayyorladi.

Qisqa vaqt ichida (1804-yildan 1810-yilgacha) shaxsan Napoleonning g'ayrat-shijoati sharofati bilan 5ta kodeks chiqarildi. Tarixga Napoleon kodekslari nomi bilan kirgan fuqarolik, savdo, jinoyat, fuqarolik jarayoni, jinoyat jarayoni kodekslari o'sha vaqtdagi barcha asosiy huquq sohalarini tartibga solishga qaratilgan edi.

Bu kodekslashtirish, o'sha vaqtdagi yuristlar majoziy ta'kidlaganlaridek, “geometrik tizim aniqligi”ga ega bo'lgan erkin tadbirkorlik o'rnatilishi uchun keng imkoniyatlar ochgan. Garchi qonun chiqaruvchi ba'zi hollarda inqilobning ancha radikal qonunlariga nisbatan orqaga qadam tashlagan bo'lsa ham, bu kodekslar, shubhasiz, inqilobiy to'fonlar va larzalar natijalarini aks ettirib, inqilobiy mazmunga ega bo'ldilar.


Napoleon kodifikatsiyalarining muvaffaqiyati ma'lum darajada yana shu bilan belgilanadiki, uni tuzuvchilar inqilobiy g'oyalari va yondashuvlardan foydalanib, inqilob yillarida uzilib qolgan huquqiy meros qilib olishlikni qayta tikladilar va nafaqat inqilobiy amaliyotga, balki shu bilan birga inqilobdan oldingi huquqqa, kutyumlarga, kanonik huquqqa, rim huquqiga ham murojaat qildilar.

Fransiyada XVIII asr oxiri – XIX asrning boshida qonun chiqaruvchi, Angliyadan farq qilib, ayniqsa kodifikatsiya ishlarini amalga oshirishda rim yuristlari merosidan keng foydalandi, rim huquqining ruhini qabul qilib oldi. Fransuz huquqining tuzilishi, mantig'i (uning ommaviy va xususiy huquqqa bo'linishi), uning asosiy konstruksiya va tushunchalari, ko'p yuridik ta'riflari inqilobdan ilgariyoq Doma, Pote, Burjon va shu kabi boshqa taniqli yuristlar tomonidan Fransiya sharoitlariga moslab qayta ishlangan rim huquqidan kelib chiqqan.

XVIII asr oxiri – XIX asrning boshida fransuz inqilobining bevosita ta'siri ostida o'zining asosiy belgilari bilan shakllangan Fransiya huquqiy tizimi, uning tuzilishining murakkablashishiga, asosiy huquqiy institutlarining yangilanishiga, huquq manbalarining rivojlanishiga qaramay, XX asr boshida ham mazmunan saqlanib qoldi.

XIX asrda Fransiya huquqiy tizimi uchun huquqni ommaviy va xususiy huquqqa juda aniq qilib bo‘linishi xarakterli edi. Ommaviy huquqqa birinchi navbatda konstitutsiyaviy va ma’muriy qonunlar kirgan. Bunda ayniqsa ma’muriy qonunlar juda qunt bilan va batafsil ishlab chiqilgan edi.

Xususiy huquqqa, avvalo, fuqarolik va savdo qonunlari taalluqli bo‘lgan.



**1804-yilgi Fransiya fuqarolik kodeksi.** Yuqorida aytib o‘tganimizdek, 1789–1794-yillardagi inqi-lob davridayoq ko‘pgina sof o‘rta asrlarga oid fuqarolik huquqiy institutlari tugatildi va hozirgi zamon huquqiga asos solindi. Fransuz burjuaziyasi inqilob davomida nafaqat fuqarolik huquqini yaratish, balki uni tizimlashtirish yo‘lida ham muhim qadamlar qo‘ydi.

1791-yilgi Konstitutsiyada fuqarolik qonunlarining kodekslashtirilishi haqida ko‘rsatilgan edi. Biroq bir-birini o‘zgartirib turgan hukumatlarning yetarli darajada mustahkam emasligi huquqdagi barqarorlikni ta’minlab bera olmasdi.

Faqatgina XIX asr boshida, Napoleon Bonapart hukmronligi davrida yagona va barqaror fuqarolik kodeksi qabul qilish uchun zarur shart-

sharoitlar etildi va 1804-yilda Fuqarolik kodeksi qabul qilindi. Fuqarolik kodeksini ishlab chiqishda o'sha vaqtning taniqli yuristlari – Portalis, Tronshe, Malvil va boshqalar ishtirok etdi. Ular rim huquqi, inqilobdan avvalgi sud amaliyoti va kutyumlarni yangi jamiyat ehtiyojlariga moslashtirib qayta ishlab chiqdilar. Birinchi konsul qator moddalarni muhokama qilishda shaxsan qatnashdi. U kodeks loyihasidan inqilob bilan bog'liq bo'lgan, endilikda esa inqilobdan keyingi davrda haddan tashqari radikallik kasb etgan ba'zi qoidalarni chiqarib tashladi.

1804-yilda Fuqarolik kodeksi izchil bayon qilinganligi, yuridik ibora va ta'riflarning lo'ndaligi, fuqarolik huquqi asosiy institutlarini tushuntirib berishning qat'iyiligi va aniqligi bilan ajralib turgan.

Napoleon FK kirish qismi (tituli) va 3ta kitobdan iborat bo'lib, kitoblar titullarga, titullar boblarga (ba'zi boblar bir necha moddalarni o'z ichiga olgan bo'linmalarga) bo'lindi, unda jami 2281ta modda mavjud edi. Uning tuzilishi rim huquqining institutsiyalari: shaxslar, ashyolar, meros va majburiyatlar tarzidagi tuzilish sxemasini aks ettirdi. Kodeksning ushbu tuzilishi fuqarolik huquqida "institutsiyaviy" degan nom oldi.

**FKning kirish tituli** (1–6-moddalar)da uning qabul qilinishi, kuchga kirishi, harakat doirasi, orqaga qaytish kuchiga ega emasligi va faqat e'lon qilinganidan keyingi fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilganligi haqidagi va boshqa me'yorlar belgilandi. Chunonchi, uning 3-moddasida quyidagi me'yorlar o'rnatildi: "Obodonchilik va xavfsizlikka taalluqli qonunlar Fransiya hududida yashovchi hamma shaxslar uchun majburiydir. Chet elliklar egallab turgan ko'chmas mulklar ham fransuz qonunlariga bo'ysunadi. Fuqarolik holatiga shaxslarning muomila va huquq layoqatiga taalluqli qonunlar hatto chet davlatlarda turgan fransuzlarga ham tatbiq qilinadi". Kodeksning ushbu kirish qismida, agar sudya qonunning mavhumligi yoki yetarli emasligini vaj qilib sud yuritishni rad etsa, javobgarlikka tortilishi ham ko'rsatilgan.

FKning **birinchi kitobi "Shaxslar haqida"** deb nomlanib, o'zida o'sha davrning tenglik va erkinlik kabi g'oyalarini mujassamlashtirdi. Kodeksning 8-moddasiga binoan har qanday fransuz fuqarolik huquqidan foydalanadi. Shunday qilib, qonun chiqaruvchi xususiy huquq sohasida shaxslarning tengligi prinsipini juda izchillik bilan o'tkazdi. 7-moddada fuqarolik huquqlarini amalga oshirish konstitutsiyaviy qonunlarda o'zgarishi mumkin bo'lgan "fuqaro sifatlari"ga bog'liq emas, deb maxsus ta'kidlandi. Kodeksda nazarda tutilgan fuqarolik huquqi faqat chet elliklarga tatbiq etilmagan.

**Napoleon FKning xarakterli belgisi shunda ediki, unda yuridik shaxs tushunchasi yo‘q.** Bunga sabab XIX asr boshida hali kapitalizm shaxsiyatparastlik qarashlar doirasidan chetga chiqmagan edi, shuning uchun har qanday fuqaro mulk aylanishida, odatda, mustaqil (jismoniy shaxs sifatida) ishtirok etgan. Buning ustiga qonun chiqaruvchining o‘zi turli xil birlashmalarga nisbatan ma‘lum darajada ishonchsizlik ko‘zi bilan qarardi, bunday ko‘rinishdagi birlashmalar ostida sexchilik va boshqa feodal korporatsiyalarning qayta tug‘ilishi mumkinligidan cho‘chirdi. Bunday mavqe 1791-yilgi Le Shapele qonunidayoq o‘z ifodasini topgan edi.

FK inqilobiy qonunchilikka nisbatan orqaga chekinib, jinoiy jazo chorasi sifatida “fuqarolik o‘limi”ni qayta tikladi. Bunday jazoga mahkum etilgan shaxs “xuddi tabiiy o‘lgan shaxsga” o‘xshab hamma mulkka nisbatan egalik huquqini yo‘qotgan. FK, shuningdek ayollarning fuqarolik huquqlarida qator cheklashlar o‘rnatdi. Masalan, ayollar fuqarolik holatini ro‘yhatdan o‘tkazishda guvoh bo‘lishlari mumkin emas edi.

### **Eslab qoling!**

**Birinchi kitobda oila huquqining asosiy prinsiplari ham mustahkamlandi. Bu sohada kodeks ayollar va erkaklarning shaxsiy va mulkiy huquqlarini tenglashtirib, bolalar ustidan ota hokimiyatini kuchsizlantirib va boshqa shu kabi normalar o‘rnatib, inqilob davrining qator qoidalaridan bir muncha farq qildi.**

Kodeksning “**Nikoh to‘g‘risida**”gi V titulida nikoh tuzish shartlari, nikohdan kelib chiqadigan majburiyatlar, er-xotinning huquq va burchlari haqidagi me‘yorlar mustahkamlandi. Nikoh yoshi erkaklar uchun – 18 yosh, ayollar uchun – 15 yosh qilib o‘rnatilgan edi. Nikoh tomonlarining o‘zaro roziligi bilan tuzilishi lozim bo‘lgan. Yaqin qarindoshlar o‘rtasida nikoh tuzish taqiqlangan. Birinchi nikohni bekor qilmay turib, ikkinchi nikohga kirish mumkin emas edi. Nikoh tuzilishi faktining o‘zi er-xotinning birgalikda o‘z bolalarini boqish, ta‘minlash va tarbiyalash majburiyatini keltirib chiqargan (203-modda).

Napoleon FK, garchi, er va xotinning tengligini qayd qilgan bo‘lsa ham, jumladan, “er-xotinlar o‘zaro sadoqatli bo‘lish, yordam berish, qo‘llab-quvvatlashga majbur” (212-modda) deb o‘rnatsa-da, umuman olganda er oilada hukmron mavqeni egallagan. 213-moddaga binoan er o‘z xotiniga homiylik qilishga, xotin eriga quloq solishga majbur edi. Er oila uchun turar joyi belgilash huquqiga, xotin esa erining orqasidan borish majburiyatiga ega edi.

Kodeksning er-xotinlardan birining xiyonati sababli nikohni bekor qilishga taalluqli moddalari o'ziga xos bo'lgan. 229-moddada ko'rsatilishicha, xotinning xiyonat qilishining o'ziyoq erning nikohni bekor qilishni talab qilishi uchun kifoya qilgan. 230-modda yerning xiyonati uchun xotinning nikohni bekor qilish huquqini boshqacha, qo'shimcha shartlar bilan belgiladi. Masalan, xotin eri xiyonat qilganda, agar u umumiy uyda o'z ma'shuqasini ushlab tursagina, nikohni bekor qilishni talab qilishi mumkin edi. Ayollarni kamsituvchi bu shart 1884-yilda bekor qilinadi.

Ayollarning teng huquqli emasligi ularning oiladagi mulkiy ahvolidan ham namoyon bo'lgan. Umumiy qoida bo'yicha er va xotinning mulki uchun umumiy rejim nazarda tutilgan. Bunday rejim sharoitida oila mulkini boshqarish to'liq erga taqdim qilingan edi. U xotinning ishtirokisiz va roziligisiz oila mulkini boshqarishi mumkin bo'lgan. Kodeks er-xotinning boshqacha mulkiy munosabatlari ham bo'lishi mumkinligini nazarda tutdi. Masalan, er-xotinning mulklari ajratilishi va ularning o'zlari tomonidan alohida-alohida tartibda boshqarilishi ham mumkin edi. Biroq, hatto shu holatda ham xotin o'z mulki va undan keladigan daromadlardan foydalanib, o'z ko'chmas mulkini erining ruxsatisiz begonalashtirishi mumkin emas edi.

FKga asosan bolalarga nisbatan ham er va xotinning huquqlari teng emas edi. Birinchi kitobda gapirilgan "ota-ona hokimiyati" aslini olganda ota hokimiyati bo'lib qolgandi. Ota 16 yoshga to'lmagan bolasining xatti-harakatlaridan noroziligiga jiddiy asoslari bo'lsa, uni bir oygacha muhlatga ozodlikdan mahrum qilishi mumkin edi (376-modda).

25 yoshga to'lmagan o'g'illar va 21 yoshga to'lmagan qizlar ota-ona roziligisiz nikohga kirishga haqli emasdilar. Lekin bunda ota-onalar o'rtasida kelishmovchilik bo'lsa, ota fikri inobatga olinardi.

Bolalar har qanday yoshda ota-onalariga bo'ysunishlari va ularni hurmat qilishlari lozim (371-modda) edi. Bolalar voyaga yetgunlariga qadar ota-ona hokimiyati ostida qolganlar. 21 yoshga to'lmagan erkak va ayollar voyaga etmagan deb hisoblangan. Bola ota roziligisiz uyni tashlab ketishi mumkin emas edi (18 yoshga to'lgach ixtiyoriy harbiy xizmatga kirish bundan mustasno).

Kodeks umuman olganda otaning nikohsiz tug'ilgan bolalarini tan olishiga yo'l qo'ygan, lekin 340-moddada nikohsiz tug'ilgan bolalarning o'z otasini izlashi taqiqlangan. Bu hatto inqilobdan avvalgi qonunlardan ham ortiqroq darajada nikohsiz tug'ilgan bolalarning ahvolini ancha og'irlashtirardi.

Biroq Napoleon FKning oila huquqiga oid normalari to'raligicha o'z davri uchun progressiv ahamiyatga ega bo'ldi. Kodeks 1791-yilgi Konstitutsiyaning "nikoh – fuqarolik shartnomasi" degan qoidasini rivojlantirib, nikohni cherkov ixtiyoridan oldi; inqilob davrida joriy qilingan nikohni bekor qilish mumkinligini tasdiqladi. To'g'ri, 1816-yilda burbonlarning qayta tiklanishidan keyin katolik cherkov ta'siri o'sishi natijasida fuqarolik tartibida ajralish bekor qilindi va u 1884-yildagina qayta tiklandi.

### **Eslab qoling!**

**Fransiya FKning ikkinchi kitobi "Mulklar va mulkdagi turli shakliy o'zgarishlar"** deb nomlanadi. U ashyo huquqlarini tartibga solishga bag'ishlanadi va klassik rimcha tasniflashtirish: mulk huquqi, uzufrukt, uzus va boshqalardan kelib chiqadi.

Kodeksda mulkni inqilobdan ilgarigi urug'nikiga va o'z mehnati bilan topilgan mulkka bo'linishi tugatildi. Mulkni endi ko'chadigan va ko'chmas mulkka bo'lish birinchi darajali ahamiyat kasb etdi.

**FKning ikkinchi kitobida mulk instituti markaziy o'rin egalladi.** Kodeksda mulk huquqiga berilgan ta'rifdan shu narsa ko'rinadiki, bunda ashyo huquqlarining shartliligi, bo'linib ketganligi va urug'chilik xarakteri haqidagi feodal tasavvurlardan voz kechilgan edi. FK mulkka egalik qilish tushunchasiga ta'rif berishda mavhum va mutlaq huquq sifatidagi rim huquqiga xos ta'rifdan foydalandi. Uning 544-moddasida "mulkka egalik qilish – bu narsalardan mutlaq foydalanish va ularni tasarruf etish huquqi bo'lib, bu huquqdan foydalanish belgilangan reglament va qonunlar bilan taqiqlanmagan bo'lishi kerak" deyilgan.

Bu tarifda qonun chiqaruvchi mulk huquqini umumiy shaxsiyatparastlik xarakterini ta'kidlaydi. Kodeks xususiy mulk huquqining ajralmas va daxlsizligi haqidagi inqilobiy tasavvurlarni rivojlantirib, mulkni uning egasidan jamiyat foydasi uchun hamda adolatli va yetkazilgan zararni qoplash maqsadida olishdan tashqari, majburiy tartibda tortib olish mumkin emasligini o'rnatdi.

Mulk huquqiga shaxsiyatparastlik yondashuvi Napoleon FKda shuningdek yer egasining yerga nisbatan egalik huquqiga keng ta'rif berilishida ham o'z ifodasini topdi. 522-moddada yerga nisbatan huquq yer usti va yer ostidagi mulklarga ham taalluqli ekanligi mustahkamlandi.

Amalda bu shuni anglatadiki, yer egasi o'ziga qarashli yer uchastkasida topilgan barcha tabiiy boyliklarning ham to'la va mutlaq

xo'jayini bo'lib qoldi. Moddaning bunday tarzda tahrir qilinishi real bo'lmadi va sanoatchilar uchun juda foydasiz edi. U umuman davlat manfaatlarini mutlaqo hisobga olmadi. Shu sababli 1810-yildayoq bu modda maxsus qonun bilan qayta ko'rib chiqildi. Bunga ko'ra, qonunlarni faqat davlat tomonidan taqdim qilingan konsessiya<sup>1</sup>lar asosida ishga solish mumkin bo'ldi.

### **Eslab qoling!**

FKning uchinchi, o'z hajmi bo'yicha juda katta bo'lgan kitobi **“Mulikka egalik qilishning turli usullari haqida”** deb nomlanib, unda mulkka egalik huquqi meros yo'li bilan, hadya qilish orqali, vasiyat bo'yicha yoki majburiyatlar asosida olinishi va o'tkazilishi ko'rsatiladi (711-modda).

FK inqilob davrida amalga kiritilgan merosning feodal prinsiplari tugatilganligini tasdiqladi. O'lgan kishining merosxo'rlari qonunda ko'rsatilgan aniq tartibda bolalar va boshqa pasayib boruvchi avlod: nevaralar, evaralar, chevaralar va hokazolar hamda yon tomondan kelib chiqadigan 12-darajagacha tug'ishgan qarindoshlar bo'lgan.

Kodeks bo'yicha nikohsiz tug'ilgan bolalarning meros huquqi inqilob davridagi huquqqa nisbatan ancha qisqartirildi. Bunday bolalar faqat qonuniy tartibda tan olingandan keyin meros olishlari mumkin edi. Shunday bo'lsa ham, ular faqat ota va ona mulkidan meros olishlari mumkin edi, boshqa qarindoshlar mulkiga merosxo'r bo'lolmaganlar.

Kodeks **vasiyat va hadya** erkinligini kengaytirdi. Bundan ko'pincha qonuniy tartibdagi merosni chetlab o'tishda foydalanilgan. Biroq fransuz qonunshunosi bu masalada to'la vasiyat erkinligini tan olgan ingliz huquqi namunasiga ergashmay, kelishuvchilik mavqeyini egalladi. Vasiyat yoki hadya, agar o'lgan shaxsda bitta qonuniy merosxo'r qolgan bo'lsa, umumiy mulkning yarmidan oshmasligi lozim edi. Agar ikkita qonuniy merosxo'r qolgan bo'lsa – mulkning  $\frac{1}{3}$  qismidan, uch va undan ko'p qonuniy merosxo'rlar bo'lsa –  $\frac{1}{4}$  qismidan ortig'i vasiyat yoki hadya qilinmasligi lozim edi. Merosning bunday tartibda taqsimlanishida qonuniy bolalarga mulkning katta qismi o'tgan. Bu merosiy mulk qonuniy merosxo'rlar o'rtasida yoshidan va jinsidan qat'i nazar, teng taqsimlangan.

Shunday qilib, FKning meros haqidagi moddalari oila mulkning bo'linib ketishiga yordam berdi.

---

<sup>1</sup> Kontsessiya - yer, kon, korxon va shu kabilardan foydalanish haqida davlat bilan ayrim kapitalist yoki firma o'rtasida tuziladigan shartnoma.

**Uchinchi kitobda majburiyat,** hammadan avval shartnoma munosabatlariga alohida o‘rin ajratilgan. FKning shartnoma huquqidagi aniq va ravshan qoidalarida Rim yuristlarining mashhur fikrlaridan kelib chiqqan ko‘pgina ta‘riflarni ko‘rish mumkin. Masalan, shartnomaga shunday bitim deb qaralganki, uning vositasida bir necha shaxslardan biriga “nimadir berish, nimanidir qilish yoki nimanidir qilmaslik” majburiyati yuklanadi.

Fransuz qonun chiqaruvchisi Rim huquqidan shartnomada tomonlarning tengligi haqidagi, uning ixtiyoriyligi va o‘zgarmasligi haqidagi g‘oyani o‘zlashtirib oldi va Kodeksda rivojlantirdi. FKga binoan tomonlarning roziligi shartnoma haqiqiylikining zarur shartlaridan hisoblanadi. 1109-moddada ko‘rsatilishicha, “agar rozilik chalg‘itish natijasida berilgan bo‘lsa yoki u kuch ishlatib yoki aldov bilan olingan bo‘lsa” haqiqiy emas deb topiladi.

Qonun chiqaruvchi shartnomalarning mazmuniga, ularning foyda keltirishi yoki foyda keltirmasligiga taalluqli qandaydir shartlar o‘rnatmadi. Bu masalada 1118-modda o‘ziga xos me‘yor belgiladi. Unga asosan umumiy qoida bo‘yicha bitimning zarar keltirishi shartnomani yomonga chiqarishi kerak emas. “Qonuniy tuzilgan bitimlar, – deyiladi 1134-moddada, – ularni tuzganlar uchun qonun o‘rnini egallaydi”.

Qarzdorning mulkini kreditorga berish majburiyati nazarda tutilgan shartnoma bajarilmagan holda, kreditor sud orqali bu ashyoning unga o‘tkazilishini talab qilishi mumkin bo‘lgan. 1142-modda bo‘yicha “ado etilgan yoki ado etilmagan har qanday majburiyat qarzdor tomonidan bajarilmagan holatda etkazilgan zararlarni qoplanishiga olib keladi”.

Kodeksda **alohida shartnomalar:** oldi-sotdi, ayirboshlash, saqlash, ijara, sheriklik va boshqalarni tuzish shartlari va mazmuniga taalluqli umumiy ko‘rsatmalar belgilandi. Biroq shu narsa diqqatga sazovorki, garchi Fransiya kapitalistik jamiyati uchun mehnat shartnomasi juda katta ahamiyatga ega bo‘lsa ham, Kodeksda xo‘jayinlar va ishchilar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi bironta ham modda yo‘q edi.

Korxonaga egalari o‘sha vaqtda yollanma mehnatni jadal ekspluatatsiya qilish normalari tarafdori bo‘lsalar ham, mehnat shartnomasiga davlatning aralashuvini nomaqbul ko‘rinish deb hisobladilar. Kodeksdagi mehnat munosabatlariga oid alohida qoidalar xo‘jayinlarning manfaatlari ochiqdan ochiq qo‘llanganligidan guvohlik beradi. Masalan, 1781-moddada (u 1868-yilda Napoleon III davrida bekor qilingan) “Xo‘jayinning maosh miqdori haqidagi, o‘tgan yil uchun mukofotlar hisobiga amalga oshiriladigan to‘lovlar haqidagi ko‘rsatmalariga ishoniladi” deyilgan edi.



FKda ko'rsatilgan shartnomalar umumiy shartlariga amal qilinishida har qanday shaxsga to'la faoliyat erkinligi, kontragent<sup>1</sup>lar tanlash va shartnomalar mazmunlarini belgilash erkinligi taqdim qilingan.

Erkin raqobat hukmronligi davrida har bir fransuz korchaloni shartnoma sohasida maksimal erkinlikni, o'z xohishi bo'yicha harakat qilish imkoniyatini saqlab qolishga intildi. Shu sababli shartnoma erkinligi nafaqat tomonlarning istak bildirishi erkinligida, balki shartnoma munosabatlarida liberalizm prinsipi bo'yicha shaxsning o'zini o'zi mustaqil idora qilishida, davlatning aralashmasligida ham o'z ifodasini topdi.

Napoleon FKning ko'p normalari mulk aylanishining eng umumiy masalalariga bag'ishlandi. Ular tijoratchilar savdo faoliyatining bir qator o'ziga xos tomonlarini tartibga solmadi. Ketma-ket janjalli bankrotlardan keyin **1807-yilda maxsus Savdo kodeksi** qabul qilindi.

**Savdo kodeksi** FKni tijoratchilar tomonidan sodir etilgan yuridik harakatlari haqidagi qoidalar bilan to'ldirdi. Bu kodeks fransuz huquqiy tizimida, so'ngra qit'a tizimining boshqa mamlakatlari huquqida xususiy huquqdagi dualizmni, ya'ni uni fuqarolik va savdo huquqiga bo'linishini mustahkamladi.

Savdo kodeksi hajmi bo'yicha (648ta modda), asosiysi, yuridik texnikasi bo'yicha Fuqarolik kodeksidan ancha orqada qolgan edi. U 4ta kitobdan iborat bo'lib, birinchi kitobda tijoratchilar, savdo kitoblari, shirkatlar, mulk taqsimlanishi, savdo birjalari, birja agentlari va maklerlar (uy-joy masalalarida vositachilik qiladiganlar), komission bitimlar, veksellar va boshqalarga taalluqli umumiy qoidalar belgilandi. Kodeksning 1-moddasiga muvofiq "tadbirkor deb o'zining oddiy vazifasi darajasida savdo bilan shug'ullanuvchi shaxs"ga aytilgan. Bunda yana ko'rsatilganidek, xotin o'z yerining roziligisiz tijoratchi bo'lishi mumkin emas edi. Savdo kodeksi tijoratchilarga ham savdo shirkatlariga teng darajada "kunma-kun" savdo hisoboti yuritish majburiyatini yukladi (8-modda).

Savdo kodeksining ikkinchi kitobi xalqaro va dengiz savdosi masalalariga bag'ishlanadi. U dengiz kemasining huquqiy maqomini o'rnatdi, dengizda yuk tashish va sug'urta qilishga, dengizdagi deliktlarga va baxtsizliklarga taalluqli qator qoidalar belgiladi. Uchinchi kitob bankrotlik qoidalarini tartibga soldi. To'rtinchi kitob savdo yurisdiksiyasi, maxsus savdo sudlari va jarayoni bilan bog'liq edi.

---

<sup>1</sup> Kontragent – o'zaro shartnoma tuzgan tomonlardan har biri.

Savdo kodeksi Fuqarolik kodeksiga qaraganda ko'p sohalarda muvaffaqiyatsiz chiqdi. U ko'proq darajada inqilobdan oldingi huquq normalariga, jumladan, Kolberning 1673-yilgi "Savdo haqida"gi va 1681-yilgi "Dengizda kemalar qatnovi haqida"gi mashhur ordonanslariga tayangan edi. Unda ichki qarama-qarshiliklar ham, yaqqol ko'rinib turgan kentiklar ham bo'lgan. Masalan, Savdo kodeksida oldi-sotdidek juda muhim shartnomaga faqat bitta modda bag'ishlandi. Oqibatda sudyalari tijoratchilar o'rtasidagi nizoli ishlarni ko'rishda Fuqarolik kodeksining oldi-sotdi haqidagi umumiy qoidalariga murojaat qilishlariga to'g'ri kelgan.

Savdo kodeksida bank va sug'urta operatsiyalariga taalluqli umumiy qoidalar mutlaqo yo'q edi. Savdo kodeksining matni uning qabul qilingan vaqtdan boshlab qayta ishlana boshladi, ba'zan esa oddiygina mustaqil savdo-sanoat qonunlari bilan to'ldirildi.

XIX-XX asrlarda Savdo kodeksi jiddiy o'zgarishlarga uchradi va qayta ko'rib chiqildi. Masalan, 1838-yilda bankrotlik protsedurasini tartibga soluvchi maxsus qonun qabul qilindi. 1844-yilda ixtirolar va ixtiroga patentlar haqidagi qonun, 1852–1862-yillarda bank muassasalarini qayta ko'rish haqidagi qonunlar qabul qilindi va hokazo. 1867-yilgi qonun maxfiy yo'l bilan tuzilgan aksionerlik jamiyatlarini ("nomi yashiringan shirkatlar"ni) oshkor qildi.

Hozirgi kunga kelib Savdo kodeksining dastlabki ko'rinishidan taxminan 20tacha modda saqlanib qolgan.

**Mehnat va ijtimoiy qonunlarning rivojlanishi.** Fransiyada ishchilar haqidagi qonunlar fuqarolik va savdo huquqidan farq qilib, chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lmadi, aksincha, fransuzlar inqilobining dastlabki hujjatlari ko'proq ochiq ko'rinishdagi ishchilarga qarshi xarakterga ega bo'ldi.

**1791-yil 14-iyunda qabul qilingan Le Shapele** qonuni o'rta asrlar tipidagi korporatsiyalarga qarshi kurashdan ko'ra ko'proq ishchi birlashmalariga qarshi kurashga qaratilgan edi. Qonun xuddi bir xil kasbdagi ishchilarning ikkinchi bir shunday ittifoqlarini taqiqladi, ish tashlashlarni va hatto mehnat sharoitlarini muhokama qilish maqsadlarida yig'iladigan ishchilar majlislarini noqonuniy deb e'lon qildi. Bu qonunning mohiyati shundan iborat ediki, burjuaziya ishchilarni ittifoqlar, uyushmalar tuzish va ish tashlashlar o'tkazish sohasida endigina qo'lga kiritilgan huquqdan mahrum qildi.

Qonunga binoan, ishchilarning hamma koalitsiyalari "ozodlikka qarshi jinoyat" deb e'lon qilindi va bu "jinoyat" uchun 500 livrgacha jarima solish hamda bir yilgacha faol fuqarolik huquqidan mahrum qilish jazosi belgilandi.

Le Shapele qonuni va unga asoslangan jinoiy taqiqlar kasaba uyushmalari tashkil etilishi yo'lida jiddiy huquqiy to'siq bo'lib qoldi. Fransiyada kapitalizmning rivojlanishi bilan ishchilar birlashmalarini taqiqlovchi qonunlar tobora hayotdan ajralib qoldi va samarasiz bo'lib bordi.

Ishchilarga nisbatan tilyog'lamalik taktikasidan foydalangan Napoleon III Le Shapele qonunini 1864-yil 25-mayda bekor qildi. Bu bilan hukumat ishchilar harakatining o'sishini to'xtatishga yana bir marta urinib ko'rgan edi.

Ishchilarning "g'ayriqonuniy" harakatlar qilmaydigan sindikatlari (kasaba uyushmalari) va ish tashlashlari ana shu tarzda qonunlashtirildi. Biroq 1804-yilgi Fuqarolik kodeksining tegishli moddalari yangicha tahrir qilinib, ularda har qanday faol, hujumkor, tashkiliy ish tashlashlar qonundan tashqari deb e'lon qilingan edi.

Shuningdek, Ikkinchi imperiya rejimi sharoitlarida ishchi tashkilotlarining erkin tuzilishi va faoliyat ko'rsatishi mumkin emas edi. Faqat Uchinchi respublika davrida ishchilar harakatining yangidan o'sishi munosabati bilan parlament kasaba uyushmalari erkinligi to'g'risidagi 1884-yilgi qonuni qabul qildi. Unga binoan faqat iqtisodiy maqsadlarni ko'zlaydigan ishchilar ittifoqlarini tuzish erkinligi qonunlashtirilgan edi.

Uchinchi respublikaning hukmron doiralari vaqti-vaqti bilan mehnat sharoitlarini tartibga solish masalarida ba'zi kam ahamiyatli yon berishlar qilib turdilar. 1874–1892-yillardagi qonunlarga binoan 13 yoshgacha bolalarning mehnati taqiqlandi, 16 yoshgacha o'smirlar uchun – 10 soatlik, 18 yoshgacha bo'lgan ayollar va o'smirlar uchun – 11 soatlik ish kuni o'rnatildi. 1898-yilda ishchilarning ishlab chiqarish travmasi olganligi uchun korxonaga egasining javobgarligini nazarda tutuvchi qonun qabul qilindi. Umuman olganda, mehnat va ijtimoiy qonunlar faqat XX asrda fransuz huquqiy tizimining tarkibiy qismi bo'la boshladi. Mehnat va ijtimoiy huquqning rivojlanishi ishchilar harakatining uyushganligi va ongliligi darajasi bilan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish davlat mexanizmlarining rivojlanish darajasi bilan, korxonaga egalari va ishchilarning, shuningdek butun jamiyatning ijtimoiy murosallarni izlashga va ulardan foydalanishga tayyorligi bilan bevosita bog'liq edi.

Mehnat nizolari va mehnat sharoitlarini tartibga solishning huquqiy asoslarini yaratishda 1910-yilda qabul qilingan maxsus Mehnat kodeksi muhim bosqich bo'ldi. Biroq mehnat va ijtimoiy qonunlarning hozirgi zamon tizimining yaratilishi ikkinchi jahon urushidan keyingi davrga va XX asrning oxirgi o'n yilliklariga, ya'ni umuman olganda, eng yangi davrga to'g'ri keladi.

## **XX asrdan eng yangi davrgacha jinoyat huquqining rivojlanishi.**

Fransiya Angliyadan farq qilib, jinoyat huquqi sohasida ham inqilob davridagi qonunlar bilan tub va keskin o'zgarishlar amalga oshirildi. Jinoyat huquqi jinoyatlar va jazolar haqidagi yangi tasavvurlar asosida qayta qurildi.

Fransiyada o'sha vaqtda Fuqarolik kodeksidan keyin o'z ahamiyati jihatidan ikkinchi o'rinda Jinoyat kodeksi turardi. Jinoyat kodeksi 1789-yilgi "Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi"da ifoda etilgan progressiv g'oyalar asosida ishlab chiqilgan edi.

Deklaratsiyaning quyidagi qoidalari bevosita jinoyat huquqiga taalluqli bo'ldi: "Qonun faqat jamiyat uchun zararli bo'lgan xatti-harakatlarni taqiqlashga haqli, qonun bilan taqiqlanmagan hamma narsaga yo'l qo'yiladi" (5-modda); "Qonun umumiy irodaning ifodasidir. U homiylik ko'rsatayotgan vaqtda ham, jazo berayotgan vaqtda ham barchaga barobar bo'lishi lozim" (6-modda); "Hech kim qonunda ko'rsatilgan holatlardan tashqari ayblanishi, qamalishi va ushlanishi mumkin emas, kimki qonuniy holda ayblansa va ushlansa, so'zsiz bo'ysinishi kerak" (7-modda); "Qonun faqat qat'iy va aniq jazolar o'rnatishi lozim; hech kim jinoyat sodir qilishidan oldin e'lon qilingan va qo'llanilgan qonun bilan o'rnatilgan hollardan tashqari jazolanishi mumkin emas" (8-modda); "Agar biror kishining aybdorligi isbotlanmagan bo'lsa, unga qattiq choralar qo'llansa, qonun bilan qattiq jazolanadi" (9-modda).

Deklaratsiyaning bu moddalarida qonuniylik, jinoyat qonunlari oldida hammaning tengligi, jazolar va jinoyatlarning mutanosibligi, qonunning orqaga qaytish kuchiga ega emasligi prinsiplari o'z ifodasini topdi.

1791-yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksi loyihasi yangi jinoiy-huquqiy dasturni amalga oshirdi va u burjuaziyaning birinchi jinoyat kodeksi deb e'tirof etilishi mumkin. Bu vaqtda burjuaziya inqilob yutuqlarini saqlanib qolishidan hali manfaatdor edi. Shuning uchun u Deklaratsiya prinsiplarini amalga oshirishga harakat qilgandi.

**1810-yilgi Jinoyat kodeksi** mutlaqo boshqacha siyosiy sharoitda chiqarildi. 1791-yilgi Jinoyat kodeksining burjua-demokratik xaraktyeri Napoleon davrida shakllangan siyosiy rejimga zid kelardi. Buning oqibati 1810-yilgi Jinoyat kodeksining ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi bo'ldi. Burjuaziya jinoyat huquqi yordamida inqilobning faqat o'z sinfi manfaatlariga javob beradigan yutuqlarini mustahkamlashga harakat qildi. Bunda Lepelete rivojlantirgan insonparvarlik g'oyalari, jinoyatchilarni mehnat bilan qayta tarbiyalash g'oyasi bilan birga "samarasiz" g'oyalar sifatida uloqtirib tashlandi. "Jinoyat huquqi, – deb yozadi Fransiyaning

1810-yilgi Jinoyat kodeksi loyihasini tuzish bo'yicha komissiya rahbari Tarje, – faqat o'limdan qo'rqishi mumkin bo'lgan kishilar bilan yaqin aloqada bo'ladi, chunki ular uchun hayotni sevish juda kuchli hissiyot hisoblanadi". Shu sababli 1810-yilgi Kodeks 1791-yilgi Kodeksga qaraganda bir qadam orqaga qaytish bo'ldi. Shunga qaramay **1810-yilgi Jinoyat kodeksi** burjuaziyaning klassik kodeksi degan nomga munosib bo'ldi. U umuman olganda o'z davrining progressiv hujjati bo'ldi. *Unda shaxslarning jinoyat qonunlari oldida tengligi g'oyasi o'tkazildi, jinoyatlarning aniq mezon-o'lchovlari joriy qilindi, jazolarning aniq doiralari ajratib ko'rsatildi* va hokazo. Kodeks qo'shimcha va to'ldirishlar bilan Fransiyada hozirgi vaqtgacha o'z kuchini saqlab qolgan va ko'p davlatlarning jinoyat kodekslari uchun namuna bo'lib xizmat qilgan. Xususan, Belgiya, Gollandiya, Italiya, Prussiya, Avstriya, Bavariya, Portugaliya, Meksika va boshqa davlatlar o'zlarining jinoyat kodekslarini ishlab chiqishda Fransiyaning 1810-yilgi Jinoyat kodeksidan klassik namuna sifatida foydalandilar.

Tarje rahbarligidagi komissiya Kodeks loyihasini tayyorlash ustida qariyb o'n yil ishladi. Loyiha nihoyat 1810-yil yanvarda Davlat kengashi tomonidan muhokama qilinmay tasdiqlandi va 1811-yildan Jinoyat jarayoni kodeksi bilan birga kuchga kiritildi.


1810-yilgi Jinoyat kodeksining tuzilishi ancha murakkab bo'lsa ham, 1791-yilgi Kodeks tuzilishiga taqlid qildi. U ikki qismni o'z ichiga olgan to'rtta kitobdan iborat tuzildi. Birinchi qismida qonun bo'yicha jazolanishi lozim bo'lgan xatti-harakatlar va shaxslarni farqlash prinsiplari bayon qilindi. Ikkinchi qismda qonun bilan jazolanadigan xatti-harakatlarga baho berishga qaratilgan normalar belgilandi. Birinchi qism birinchi va ikkinchi kitoblarda bayon qilingan qisqacha dastlabki qoidalardan iborat (ular hozirgi zamon kodekslarining umumiy qismini eslatadi).

Uchinchi va to'rtinchi kitoblar Kodeksning o'ziga xos maxsus qismini tashkil etdi. Jinoyatga juda sodda ta'rif berildi. Jinoyat huquqining klassik maktabi g'oyalari ta'sirida qonun bilan taqiqlangan xatti-harakat jinoyat deb hisoblandi (1-modda), jinoyat qonuni orqaga qaytish kuchiga ega bo'lmadi (4-modda). Kodeksda jinoyat ishtirokchilarining javobgarligi haqida gapirildi, aqldan ozgan holatda yoki kuch bilan majburlash ostida jinoyat qilgan shaxslarni javobgarlikdan ozod qiish nazarda tutildi.

Fransuz qonun chiqaruvchisi bu vaqtda hali jinoyat huquqining ko'pgina umumiy masalalarini ishlab chiqmagan edi. Masalan, Kodeksda ayb shakllari belgilanmagan edi, muddat haqida, jinoyatlarning yig'indisi haqida hech narsa deyilmagandi. Jinoyat kodeksida suiqasd esga olindi,

lekin, agar jinoiy harakat suiqasd qiluvchining irodasiga bog‘liq bo‘lmagan holda to‘xtatib qo‘yilgan bo‘lsa, suiqasd tugallangan jinoyatga tenglashtirildi.

**1810-yilgi Jinoyat kodeksi jinoiy harakatlarning uch turkumli tasniflashtirilishini joriy qilingan bo‘lib, jinoiy harakatlar jazo xarakteriga qarab uch guruhga ajratildi:**



Og‘ir va sharmanda qiluvchi jazolar ko‘pdan ko‘p jazo turlarini o‘z ichiga olgan. Bularga o‘lim jazosi, muddatsiz katorga ishlari, deportatsiya qilish, muddatli katorga ishlari, “esini joyiga keltiradigan uy”ga qamash (qattiq rejimli turma) kirgan. Oxirgi turdagi jazoga ba‘zan tamg‘a bosish va mol-mulkni musodara qilish jazosi qo‘shib berilgan.

**Sharmanda qiluvchi jazolar quyidagilarni o‘z ichiga olgan:**

- 1) bo‘yinbog‘ bilan sazoyi (sharmanda-yu sharmisor) qilish (1832-yilgacha);
- 2) haydash;
- 3) fuqarolik huquqlaridan mahrum qilish.

So‘nggi jazo, jumladan, *saylov huquqlaridan mahrum qilish, qasamxo‘r maslahatchi, ekspert mansablarini egallashni taqiqlash, shuningdek guvoh sifatida chiqishni, homiy, vasiy bo‘lishni man qilish, qurol ko‘tarib yurish va imperiya qurolli kuchlarida xizmat qilish huquqlaridan mahrum qilish, barcha mansablardan olib tashlash* kabilarni o‘z ichiga olgan.

**Ahloq tuzatish jazolariga** ma‘lum muddatga turmaga (axloq-tuzatish uyiga) qamash, ba‘zi huquqlar (homiylilik, fuqarolik va oilaviy huquqlar)dan vaqtinchalik mahrum qilish va jarima kirgan.

**Politsiyachilikka oid jazolar** – bu bir kundan besh kungacha turmaga qamash, pul jarimasi, ma‘lum narsalarni musodara qilish kabilardan iborat bo‘lgan.

Kodeksda berilishi mumkin bo'lgan jinoiy jazolar doirasi aniq belgilanib, o'rta asrlarga xos qator qattiq va shafqatsiz jazolardan voz kechildi. Lekin 1810-yilgi Jinoyat kodeksi jazolar sohasida ham 1791-yilgi Jinoyat kodeksiga qaraganda orqaga chekingan edi. Kodeks respublika davrida qilingan qator jinoyat tarkiblari va jazolarni o'z ichiga olgan edi. Unda umrbod katorga, avvalo qo'llarini kesish bilan o'lim jazosi, mustamlakalarga surgun (deportatsiya) qilish, fuqarolik huquqlarining hammasidan mahrum qilish jazolari qayta tiklangan edi. Qo'shimcha jazo sifatida shuningdek tamg'a bosish ham nazarda tutilgandi. Ushbu o'zgarishlar bilan bir qatorda Kodeksda o'limga mahkum etish jazolari soni hamda xususiy mulkni himoya qilish bilan bog'liq jinoyat tarkiblarining soni ko'paytirildi. Chunonchi, xususiy shaxslarga qarshi qaratilgan jinoyatlar va xatti-harakatlar haqidagi bo'lim moddalarining yarmidan ko'pi mulkni himoya qilishga bag'ishlangan edi. O'g'irliklar juda shafqatsiz jazolangan. Buning uchun qator hollarda umrbod katorga ishlariga mahkum qilish jazosi berilgan. Kodeks ishchilar uyushmalari va ish tashlashlarini taqiqladi, ma'lum turar-joyiga va yashash uchun mablag'lariga ega bo'lmagan kambag'al va daydilarga qarshi jinoiy ta'qiblar joriy qildi.

1810-yilgi Jinoyat kodeksining maxsus qismida **ommaviy manfaatlarga qarshi qaratilgan jinoyatlarga** birinchi o'rin ajratildi. Davlatga xiyonat qilish, josuslik, davlatning tashqi xavfsizligiga tahdid qilish haqidagi moddalar bilan bir qatorda imperator shaxsiga va uning oila a'zolari hayotiga suiqasd qilish uchun, boshqaruv tarzini bekor qilishga yoki o'zgartirishga harakat qilganlik uchun jazolarni nazarda tutuvchi o'ziga xos moddalar ham mavjud edi.

**Davlatning ichki va tashqi xavfsizligiga qarshi jinoyatlar** sodir etishga fuqarolarni chaqirish maqsadlarida nutqlar so'zlagan, e'lonlar yopishtirgan shaxslar fitnachilar sifatida jinoiy javobgarlikka tortilgan.

Davlatga qarshi jinoyatlar haqida joriy qilingan yangi va keng bo'limda nazarda tutilgan ko'pgina jinoyatlar tarkibi aniq belgilanmagan edi. Masalan, "ommaviy nutqlarda jinoyatlarga chaqirish" (102-modda), "boshqarish shaklini o'zgartirishga tajovuz qilish" (87-modda) va boshqalarda jinoyatlar tarkibining xarakteri juda noaniq edi.

Umuman olganda, Jinoyat kodeksining nazariy qismi mutlaqo yaxshi ishlab chiqilmadi. Qonunning harakat qilish doirasi, muddati va boshqalarga taalluqli normalar jinoyat jarayoni qonunlariga tegishli bo'ldi. Zaruriy mudofaa haqida umumiy qismda emas, maxsus qismda

(329-modda) gapirildi. Kodeksda qasd va ehtiyotsizlikka ta'rif berilmadi, aybni yengillashtiradigan holatlarni hisobga olish nazarda tutilmadi, dinga qarshi jinoyatlar haqida hech narsa deyilmadi va hokazo.

Oqibatda fransuz jinoyat huquqining yanada rivojlanishi jarayonida, ayniqsa 1830-yilgi inqilobdan keyin o'rta asrlardagi odatlar va an'analardan meros qilib olingan jinoyat tarkiblari katta o'zgarishlarga uchradi yoki to'liq tugatildi. Jinoiy-huquqiy institutlar ma'lum darajada liberallashtirila boshlandi.

Jumladan, 1832-yilda o'z otasini o'ldirganlik uchun tamg'a bosish va qo'lini kesish jazosi, 1854-yilda fuqarolik huquqlarining barchasidan mahrum qilish jazosi bekor qilindi. Aybni yengillashtiruvchi holatlar tan olindi va sharmanda qiluvchi jazolar bekor qilindi. 1810-yilgi Kodeks 35ta holatda o'lim jazosini nazarda tutgan bo'lsa, 1848-yildan keyin o'lim jazosi faqat 15 turdagi jinoyatlar (odam o'ldirish, o't qo'yish va boshqalar) uchun qo'llaniladigan bo'ldi. Jumladan, 1848-yilda siyosiy jinoyatlar uchun o'lim jazosi bekor qilindi. 1891-yildan shartli hukm qilish joriy qilindi. 1885-yildan jazodan shartli ozod qilish tartibi joriy qilindi. Bu dastlab faqat o'rnatilgan turma qamog'i jazosining yarmidan kam bo'lmagan muddatini o'taganlarga nisbatan qo'llanilgan. Retsidivistlarni jazodan shartli ozod qilish uchun esa ular jazo muddatining  $\frac{2}{3}$  qismini o'tashlari lozim edi. Umuman jazodan shartli ozod qilishda qamoqxona ma'muriyati tomonidan mahkumlarning yaxshi ahloqi haqida taqdimnoma berilishi, shuningdek ular ozod qilinganlaridan keyin "halol, to'g'ri yurishlari" haqida guvohlantirish berishlari talab qilingan. Biroq jazodan shartli ozod qilish deportatsiya, katorga ishlari, umrbod qamoq jazosiga mahkum qilinganlarga tatbiq etilmagan.

**1881-yilda matbuot haqidagi maxsus qonun** bilan "matbuot orqali sodir etilgan" keng doiradagi jinoyatlar va xatti-harakatlar uchun jinoiy javobgarlik o'rnatildi. Qonunda mansabdor shaxslarni "omma oldida haqorat qilish", "ahloqni haqorat qilish", harbiy majburiyatlarni bajarmaslikka undash va boshqa maqsadlar uchun matbuotdan foydalangan shaxslarga nisbatan jazolar nazarda tutildi.

1894-yil iyulda prezident Karno o'ldirilishi munosabati bilan jinoyatlar sodir etishga yo'naltirilgan "anarxizmga oid targ'ibot"ni jazolovchi qonun qabul qilindi.

Fransiya Jinoyat kodeksi dunyoning ko'pgina mamlakatlari – Ispaniya, Braziliya, Shveysariya, Belgiya, alohida german davlatlarining jazo qonunlariga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

**Fuqarolik va jinoyat jarayonlariga oid qonunchilikning rivojlanishi.** Fuqarolik kodeksining paydo bo'lishi yangi moddiy huquq



normalari bilan fuqarolik jarayoni qonunlarini muvofiqlashtirish zaruriyatini keltirib chiqardi. 1806-yilda Fuqarolik jarayoni kodeksi chiqarildi. Uning asosini 1667-yilgi fuqarolik odil sudlovi haqidagi ordonans tashkil qildi. Bu yangi kodeksning mohiyatini belgilab berdi.

Kodeks qator rasmiyatchiliklar bajarilishini, ko'pdan ko'p protsessual hujjatlar tuzilishini talab qiluvchi jarayon o'rnatdi. Bu sud jarayonlarining sustlashishiga (sekin harakat qilishiga) va uzoqqa cho'zilishiga olib keldi. Umumiy sudlarda advokatlarning albatta ishtiroki talab qilindi.

Kodeks keyingi yillarda uncha ko'p o'zgarishlarga uchramadi.

**1808-yilgi Jinoyat jarayoni kodeksi** jinoyatlarni tergov va sud qilishga oid sof protsessual kodeks bo'ldi. Unga fransuz inqilobi hujjatlaridagi ko'pgina demokratik normalar asos qilib olindi.

Ma'lumki, fransuz inqilobi sud hokimiyatini ijroiya hokimiyatdan ajratdi. Ma'mur, amaldor "o'z xususiy ishi"da sudya bo'lmay qoldi. Povinsiya sud palatalari ("qirollik parlamentlari") tugatildi. Sud mansablarini sotib olish taqiqlandi.

1791-yilgi Konstitutsiya sudyalarning mulkiy senz asosida saylanishi prinsipini o'rnatdi, sud qasamxo'rlari institutini joriy qildi. Bular 1808-yilgi Jinoyat jarayoni kodeksida o'z ifodasini topdi.

1808-yilgi Jinoyat jarayoni kodeksi jinoyat jarayoni sohasidagi inqilobdan keyingi o'zgarishlarga o'ziga xos yakun yasadi. U Fransiyada **aralash jarayon** deb ataladigan sud ishlarini yuritish jarayonini joriy qildi. Sudgacha ishni tergov qilish davrida inqilobdan oldingi jarayondan kelib chiqqan yashirin va yozma ish yuritish saqlanib qoldi. Tergovni yuritish maxsus tergovchi sudyalar tomonidan amalga oshirilgan. Jinoyat jarayoni kodeksiga binoan tergovchi sudyalarning vakolatlari juda katta edi. Keyinchalik (masalan, 1856-yilgi qonun bilan) ularning vakolatlari yanada kengaytirildi. Tergovchi sudya ayblanuvchini tergovga kelishi haqida, majburiy tartibda olib kelish yoki hibsga olish haqida buyruq chiqarishi mumkin edi. U ayblanuvchi, guvohlarni so'roq qilishni o'tkazgan, jinoyat sodir etilgan joyni ko'zdan kechirish va boshqa tergov harakatlarini o'tkazishni amalga oshirgan.

Jarayonning yakunlovchi qismi – jinoiy ishlarni sudda muhokama qilish oshkoralik, og'zakilik va tortishuv prinsiplari asosida o'tkazilgan. Kodeks tergov va ayblovni ajratilishini nazarda tutdi. Ayblovni sudda tergovchi sudya emas, balki prokuror qo'llardi. Prokuror sudda nutq so'zlagandan keyin advokatga so'z berilardi. Agar prokuror replika tarzida savollar bersa, advokat ularga javob berishga haqli edi. Jinoyat jarayoni kodeksi ingliz sud tizimi ta'sirida inqilobdan oldingi yillarda joriy qilingan

qasamxo‘rlar sudi institutini tasdiqladi. Qasamxo‘rlar sudi ayblanuvchining aybdorligi yoki aybdor emasligi haqida verdikt<sup>1</sup> chiqarganlar.

Biroq Fransiyaning Jinoyat jarayoni kodeksi qasamxo‘rlarning bir ovozdan yakdillik bilan verdikt chiqarishini talab qilmadi. Verdikt kodeks bo‘yicha oddiy ko‘pchilik ovoz bilan chiqarilishi mumkin edi. 1845-yilgi qonunga asosan qonunda o‘rnatilgan ko‘pchilik ovoz bilan verdikt chiqarish tartibi o‘rnatildi. Bunga binoan 12ta qasamxo‘rdan 8tasining bir xil ovozi bilan verdikt chiqarilishi mumkin bo‘ldi.

Jinoyat jarayoni kodeksiga muvofiq sud majlisiga raislik qiluvchi sudya qasamxo‘rlarga tazyiq (bosim) o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Verdikt chiqarilishidan oldin u qasamxo‘rlarga nutq so‘zlab murojaat qilgan va unda ishga qisqacha xulosalar bergan, asosiy dalillarni qayd qilgan, qasamxo‘rlar javob berishi lozim bo‘lgan masalalarni ta’riflab bergan. Oq yo‘l tilab berilgan xulosa ko‘pincha ayblov nutqi bilan qo‘shilib ketgan. Shu sababli bu 1881-yil bekor qilinadi.

Jinoyat jarayoni kodeksi Jinoyat kodeksida o‘rnatilgan uch turdagi jinoiy huquqbuzarliklarning tegishlicha bo‘linishi asosida sudlarning uch bosqichli tizimini tasdiqladi. Jinoiy ishlar bo‘yicha oddiy politsiya funksiyalarini bajaruvchi murosaga keltiruvchi sudya birinchi instansiya hisoblangan. U asosan mayda jinoiy va fuqarolik ishlarini ko‘rib hal qilgan. Kodeks bo‘yicha murosaga keltiruvchi sudya va mer politsiya sudyasi funksiyalarini bajargan. Ular sud politsiyasi vakolatlarini politsiya komissarlari, jandarmeriya ofitserlari, qishloq va o‘rmonlar qo‘riqchilari bilan birgalikda amalga oshirganlar (9-modda). Ikkinchi instansiya axloq tuzatish politsiyasi sudiga taqdim qilingan edi. U kollegial sud bo‘lgan, lekin qasamxo‘r maslahatchilarisiz harakat qilgan. U ba’zi adabiyotlarda<sup>2</sup> birinchi instansiya tribunali deb ham yuritiladi. Bunda ancha muhim fuqarolik ishlari ko‘rib hal qilingan. U ayni vaqtda jinoiy xatti-harakatlar, yoki deliktlar haqidagi ishlar bo‘yicha axloq tuzatish politsiyasi tribunali funksiyasini ham bajargan. Uchinchi instansiya apellatsion sud bo‘lib qoldi. U qasamxo‘r maslahatchilar bilan kollegial organ bo‘lgan va jinoiy ishlar bo‘yicha hamda fuqarolik ishlari bo‘yicha bo‘linmalardan iborat tarkibda tuzilgan. Apellatsion sud tribunallarning qarorlarini mazmunan qayta ko‘rib hal qilardi.

**Jiddiy jinoyatlar bo‘yicha ishlar qasamxo‘rlar kollegiyasi bilan birga ko‘rib hal qilingan.** 1808-yilgi Kodeks bo‘yicha qasamxo‘rlar

---

<sup>2</sup>Графский. Всеобщая истории права и государства. – М.: Издательство “НОРМА” (Издательская группа НОРМА-ИНФРА. М), 2000. – С.502.

siyosiy va fuqarolik huquqlaridan foydalanuvchi 30 yoshga to'lgan fuqarolar orasidan saylanardi. Kodeksning 382-moddasida qasamxo'r etib saylanishi mumkin bo'lgan ijtimoiy guruhlar sanab ko'rsatildi. Bular: saylov kollegiyalari a'zolari, departmentning 300ta eng yirik soliq to'lovchilari, imperatorning o'zi tomonidan tayinlanadigan mansabdor shaxslar, huquq, tibbiyot, tabiiy fanlar, adabiyot fakultetlari doktorlari va litsenziya egalari, akademiyalar va hukumat tomonidan tan olingan boshqa ilmiy jamiyatlarning a'zolari va muxbirlari, notariuslar, dastlabki ikki sinflardan birining patentiga ega bo'lgan bankirlar, sarroflar (pul maydalovchilar), savdogarlar va do'kondorlar, 4000 frankdan kam bo'lmagan maosh oluvchi davlat xizmatchilari edilar.

Kodeksning 383-moddasiga binoan hech kim biror ishda agar sud politsiyasining mansabdor shaxsi, guvoh, ekspert yoki tomonlardan biri sifatida ishtirok etgan bo'lsa, ushbu ish bo'yicha qasamxo'r bo'lishi mumkin emas edi. Qasamxo'rlar ro'yxatini prefekt tuzgan.

Sud tizimiga kassatsiya sudi boshchilik qilgan. Kassatsiya sudi butun mamlakat uchun bitta bo'lib, qonunning buzilishi, rasmiy kamchiliklari, apellatsion sudda ularni noto'g'ri talqin qilinishi haqidagi shikoyatlarni ko'rib hal qilish bilan shug'ullangan.

Sud huzurida **prokuratura** bo'lgan. U ayblovni qo'llagan va sud apparati mansabdor shaxslari harakatlarining qonuniyligi ustidan nazoratni amalga oshirgan. Shunday qilib, 1808-yilgi kodeks jarayonning aralash, tortishuv-qidiruv shaklini o'rnatdi. Birinchi bosqich dastlabki tergov ayblanuvchini sud amaldoriga to'liq bog'liq qilib, qidiruv jarayonining hamma belgilarini o'zida namoyon qildi. Bu bosqichga oshkoralik va og'zaki ish yuritish xos bo'lgan. Shular bilan birga sud raisining sud tergovining borishiga faol aralashish, uni kerakli tomonga yo'naltirish huquqi bu bosqichda ham qidiruv jarayonining ba'zi izlari saqlanib qolganligidan dalolat beradi.

Fransiyada bir-birini almashtirib turgan hukumatlar Jinoyat kodeksi va Jinoyat jarayoni kodeksidan butun XIX asrlar mobaynida ommaviy tartibni ushlab turishda faol foydalandi. Fransiya hukmron doiralari nafaqat jazolarning sud usullaridan, balki keskin siyosiy vaziyatlar vujudga kelgan hollarda suddan tashqari jazo usullaridan ham bir necha marta foydalandi.

## **5-§. Germaniya huquqi**

**Germaniyaning yangi davrdagi asosiy huquq manbalariga umumiy tavsif.** Ushbu huquq tarkibiga kam sonli imperiya qonunlari va

pandekt huquqi<sup>1</sup> kirgan. Rim pandekt huquqi mahalliy german huquqi kemptiklarini to'ldirib, Germaniyaning qator viloyatlarida yordamchi (to'ldiruvchi) ahamiyatga ega bo'ldi. Pandekt huquqi hududiy jihatdan g'arbiy pruss o'lkalarining 16,5 mln. aholisi, Bavariyaning katta qismi, o'rta german gersogliklari, buyuk Gessen gersogligi, Saksen-Veymer, sobiq imperiyaning sobiq erkin shaharlari uchun harakatdagi huquq bo'lib qoldi.

Germaniyaning boshqa ulkan hududiy-huquqiy makonida XIX asrning birinchi yarmida tizimlashtirilgan mahalliy huquq hukmronlik qildi. Bu yerda rasman pandekt huquqining yuridik kuchi tan olinmadi. Biroq uning ko'p prinsiplari va institutlari qator german davlatlarining kodifikatsiyalari bilan yaxlit holga keltirildi.

**1756-yilda** tuzilgan **Bavariya qirolligining fuqarolik kodeksi** birinchi Fuqarolik kodeksi bo'lib qoldi. **1794-yilgi Prussiya umumdavlat qonunmasi** (Prussiya landrexti) va **1863-yilgi Sakson fuqarolik kodeksi** Germaniyadagi mashhur partikulyar huquqiy to'plamlar edi.

Prussiya umumdavlat qonunomasining harakat doirasi 21 mln. nemislarga tarqatilgan edi. 1863-yilgi ancha zamonaviy hisoblangan fuqarolik kodeksi normalari ta'siri ostiga Sakson qirolligining 3,5 mln. aholisi tushgan edi. Nihoyat, Germaniyaning qator viloyatlari (Reynning chap qirg'og'idagi knyazliklar va Baden)da 1804-yilgi Napoleon kodeksi amalda bo'ldi. Ushbu Kodeksga o'sha vaqtda 8,6 mln. kishi amal qilardi.

Prussiya umumdavlat qonunomasida german xalq huquqi va Rim pandekt huquqi elementlari juda mohirona birlashtirildi. Uning asosiy mazmunini len, savdo va tog' huquqlari elementlari bilan xususiy huquq tashkil etdi. Bundan tashqari, unda ommaviy va jinoyat huquqlari normalari ifodalandi. O'z hajmi bo'yicha juda katta bo'lgan ushbu to'plam imkon qadar hamma masalalarni qamrab olishga mo'ljallangan edi. Oqibatda kodeksda chalkash normalar ko'pchilikni tashkil etdi va huquqni qo'llash faoliyatini yengillashtiruvchi umumiy prinsiplar va normalar yo'q edi.

1863-yilda qabul qilinib, 1865-yilda kuchga kiritilgan Sakson fuqarolik kodeksi o'sha vaqtning eng mukammal kodeksi bo'ldi. U tuzilishi bo'yicha umumiy qism, ashyo huquqi, majburiyat huquqi ("talab qilish huquqi"), oila huquqi va meros masalalarini o'z ichiga olgan besh

---

<sup>1</sup> **Pandekt huquqi** – nemischa "pandertenrecht" so'zidan olingan bo'lib, Germaniyada XVI-XIX asrlarda amalda bo'lgan xususiy huquq yo'nalishi. Bu huquq yo'nalishi Germaniyada 1900 yilgi fuqarolik qonunmasi ishlab chiqarilguniga qadar amalda bo'lgan. Qadimgi Rimda huquqshunoslarning qonunlar va huquqshunos olimlar asarlaridan olingan ayrim tushunchalar yig'malari pandektlar deb yuritilgan. Pandektlar o'z vaqtida nemis fuqarolik huquqi fanining nomlanishi ham bo'lgan.

qismdan iborat edi. Aynan Sakson fuqarolik kodeksini tuzuvchilar Napoleon kodeksini “Rim huquqi asoslari bilan fransuz odatlarining tushunarsiz qo‘shilishi” deb e‘lon qilib, uning qadr-qimmatini shubha ostiga olgandilar va fuqarolik huquqini bayon qilishning pandekt tizimi foydasiga institutsiya tizimidan voz kechgandilar.

Germaniyadagi birinchi imperiya kodeksi **1871-yilgi Jinoyat kodeksi** bo‘ldi. U 1810-yilgi Fransiya Jinoyat kodeksi ta’siri ostida tuzildi. 1871-yilgi Jinoyat kodeksi uchta asosiy qismlardan iborat edi. Uning birinchi qismida jinoyatlar, xatti-harakatlar va politsiyachilik huquqbuzarliklarining bir-biridan farqlari berildi. Ikkinchi qismda jinoyat bosqichlari, ishtirokchilik, yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlar haqidagi qoidalar bayon qilindi. Uchinchi qism alohida turdagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qiluvchi moddalarni bayon qilib, kodeksning maxsus qismini tashkil etdi.

Kodeksda eng ko‘p moddalar davlatga qarshi jinoyatlar (imperator va mahalliy davlat boshliqlarini haqorat qilish, hokimiyatga bo‘ysunmaslikka da’vat qilish va boshqalar)ga tavsif berishga bag‘ishlangan edi. Unda jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar (maxfiy jamiyatlarga asos solish, qonunlarning qo‘llanishiga noqonuniy qarshilik ko‘rsatish va boshqalar)ning juda xilma-xil ko‘rinishlari nazarda tutildi.

Jazolarning turli xillari nazarda tutildi va ular asosan qo‘rqitish maqsadini ko‘zda tutdi, jazolarning o‘limga mahkum etish, mehnat uylariga qamash, turma qamog‘i, qal’aga tashlash, hibsga olish, huquqlarni cheklash, jarima turlari qo‘llangan.

**1877-yilda Jinoyat jarayoni kodeksi** qabul qilindi. Unda tomonlarning tortishuvi prinsipi, dalillarga erkin baho berish, tergovchi sudyaning prokurordan mustaqilligi va dastlabki tergov bosqichida advokatning ishtirokiga yo‘l qo‘yilishi joriy qilindi.

Xuddi shu yili **Fuqarolik jarayoni kodeksi** ham amalga kiritildi. Hajmi jihatidan nihoyatda katta bo‘lgan ushbu kodeks fuqarolik jarayoni bilan bog‘liq keng masalalarni batafsil tartibga soldi.

1878-yil 19-oktabrda qabul qilingan **“Sotsial-demokratlarning umumxavfli intilishlari haqida”gi** Qonun tarixda sotsialistlarga qarshi “favqulodda qonun” degan nom oldi. U aslida ikki yarim yil muhlatga chiqarilgan edi, lekin 1890-yilgacha, ya’ni 12 yil davomida amal qilib turdi. Qonun hukumat ta’qiblari uchun huquqiy asos berdi. Uning asosida tez orada taqiqlar, surgun qilishlar, turmaga qamashlar boshlanib ketdi, minglab kishilar qatag‘on qilindi. Taqiqlangan jamiyatda ishtirok etganlik

uchun 500 marka jarima yoki uch oygacha turmaga qamash belgilandi. Qonunning 3 paragrafida kasaba “uyushmalar taqiqlanmaydi, lekin ular ustidan davlatning favqulodda nazorati ta’ sis qilinadi” deyilgan edi.

XIX asrning oxirida nemis huquqining tadrijiy rivojlanishi yo‘lidagi eng muhim voqea **1896-yilgi Germaniya fuqarolik qonunnomasi<sup>1</sup>ning qabul qilinishi** bo‘ldi. Rim huquqining Germaniyada retsepsiya qilinishi (andoza qilib olinishi) aynan ushbu Fuqarolik kodeksida o‘z aksini topdi. Uning asosini Rim huquqi yutuqlarini o‘zlashtirib olgan nemis huquqi tashkil etdi. Demak, Rim huquqi Germaniya fuqarolik huquqiga ham bevosita katta ta’sir ko‘rsatgan. Roman-german huquqi, roman-german huquqiy tizimi yoki oilasi degan iboralar ham ana shundandir. Quyida ushbu kodeks haqida batafsilroq so‘z yuritamiz.

**Germaniya fuqarolik kodeksining ishlab chiqilishi va qabul qilinishi.** Yuqorida qisman kuzatganimizdek, XIX asrning ikkinchi yarmida ham Germaniyada fuqarolik huquqi normalari juda tarqoq va bir-biridan ajralib qolgandi. Biroq mamlakatning iqtisodiy va huquqiy rivojlanishini faqatgina huquqiy tizimlarning ko‘pligi va alohida parchalardan iboratligi to‘xtatib turmadi. Pandekt (rim) huquqi partikular (german) qonunlarining ko‘pdan ko‘p institutlari va normalari ochiqdan ochiq eskirgan edi, yangi kapitalistik munosabatlarga to‘g‘ri kelmasdi.

Ularning orasida qirollik va knyazlar oilasining imtiyozlarini, dvoryanlarning mulk huquqini va boshqalarni qo‘riqlovchi normalar alohida ajralib turardi.

XIX asrning boshidayoq german burjuaziyasining ba’zi bir vakillari va ancha progressiv yuristlar Germaniya fuqarolik huquqining birligini va kodifikatsiya qilinishini yoqlab chiqqandilar. Lekin umumgerman Fuqarolik kodeksini tayyorlashga urinish XIX asrning birinchi yarmida barbod bo‘ldi. Germaniyaning hamma davlatlarida o‘z siyosiy hukmronligini saqlab qolgan nemis yunkyerlari o‘z imtiyozlarini yo‘qotishdan cho‘chib, fuqarolik huquqining kodifikatsiya qilinishiga har tomonlama qarshilik ko‘rsatdilar.

Prussiya boshchiligida german davlatlarining siyosiy birlashtirilishi va 1871-yilda yagona Germaniya imperiyasining tashkil topishi umumgerman fuqarolik kodeksini yaratish uchun kurashning yangi bosqichini boshlab berdi. Davlat birligi huquqning ham bixillashtirilishini taqozo qilardi. Shu tariqa yagona imperiyaning qaror topishi huquqni kodifikatsiya qilish uchun qulay sharoitlar yaratdi.

---

<sup>1</sup> Germaniya fuqarolik qonunnomasi ba’zi manbalarda nemischa Burgerliches Gesetzbuch (fuqarolik kodeksi) deb yuritiladi. Shu sababli matnda biz ham ko‘proq kodeks deb yuritamiz.

Germaniya fuqarolik huquqini kodifikatsiya qilish yo'llari haqidagi masala eng boshidanoq nafaqat huquqiy, balki ham siyosiy, ham ijtimoiy xarakter kasb etdi. Fuqarolik kodeksi ishlab chiqish uchun kurash chorak asr davom etdi. Bu jarayon 1874-yilda bundesrat tomonidan dastlabki komissiyaning tayinlanishi bilan boshlangan edi. Komissiya Germaniya fuqarolik huquqini birxillashtirish bo'yicha islohotlarning umumiy rejasini belgilashi lozim edi. Biroq islohotlarning ilk maqsadlari radikal (tub va keskin) bo'lmadi. Fuqarolik huquqining birligi Germaniyada harakatda bo'lgan huquq asosida shakllantirilishi lozim edi. Imperiyaga a'zo davlatlarning konservativ hukumatlari amaldagi partikular huquq normalarini saqlab qolishga harakat qilib, umumgerman fuqarolik kodeksining maqsadlari va hajmini har tomonlama cheklashga intildi.

1874-yil 2-iyulda bundesrat Fuqarolik kodeksi ishlab chiqish bo'yicha birinchi rasmiy komissiya tayinladi. Komissiyaning 11ta a'zolaridan 9tasi yirik sud amaldorlari bo'lgan, ikkitasi pandekt huquqining professorlari edi. Tayyorlanayotgan kodeks materiallari umumiy qism, ashyo, majburiyat, oila va meros huquqi bo'yicha beshta kitobga ajratildi. Bu Germaniya pandekt huquqidagi oddiy tizim bo'lgan. Napoleon kodeksining tizimi (institutsiya tizimi) bir ovozdan rad etildi.

Birinchi komissiya o'ta maxfiy suratda ishladi. Faqat o'n uch yil o'tgach, 1887-yilda komissiya loyiha tayyorlash ishlari tugaganligini e'lon qildi. Loyiha e'lon qilindi va keyingi ikki yil mobaynida ommaviy muhokamadan o'tkazildi. Kodeks loyihasi juda keskin tanqidga uchragan edi. Reyxskansler O.Bismarkning shaxsan o'zi va Germaniyaning yirik yuridik assotsiatsiyasi – Nemis advokatlar ittifoqi ham bu loyihaga salbiy baho berdi. O.Girke boshchiligidagi huquqshunos olimlar loyihaga qarshi chiqdi. Germaniya sotsial-demokratiyasining taniqli arboblari va yuristlari loyihani keskin tanqid qildi. Kodeks loyihasi o'ta ideallashtirilganligi (ko'klarga ko'tarilganligi), unda ko'p sonli ta'riflarning mavjudligi, tilining qiyinligi va uning mazmunini XIX asr oxiridagi Germaniyaning ijtimoiy-iqtisodiy voqeligiga ochiqdan-ochiq to'g'ri kelmasligi tanqid ostiga olinib, qabul qilinmadi. Loyiha yuzasidan qilingan munozaralar natijasida 600dan ortiq turli kitob va maqolalar chiqarilgan edi.

Kodeks loyihasini qaytadan ishlab chiqishga qaror qilindi. 1890-yil bundesrat yangi a'zolar bilan to'ldirilgan ikkinchi komissiyani tuzdi. Uning tarkibiga sanoatchilar, bankirlar, ilg'or siyosiy partiyalar vakillari va olimlar, advokatlar kiritilgan edi. Bu komissiya o'z ishini 1895-yilda nihoyasiga yetkazdi. Komissiya tayyorlagan yangi loyihadan rim huquqining ko'p qoidalari chiqarib tashlandi va unga german

manbalaridan to'plangan qator prinsiplar va qoidalar kiritildi. Loyihaning ba'zi qismlari qayta ishlandi, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan bo'limlari kengaytirildi. Nihoyat, Kodeksning tili bir muncha soddalashtirildi: rim huquqiga oid atamalar birdaniga qisqartirildi va yuridik institutlarning ko'p sonli ta'riflari tugatildi.

Bundesrat tomonidan qabul qilingan Kodeks loyihasi 1896 yil boshida uchinchi loyiha sifatida reyxstagga taqdim qilindi. Reyxstagga ushbu loyihani muhokama qilish va qabul qilish uchun yarim yil vaqt kerak bo'ldi. Nihoyat, Germaniya fuqarolik kodeksining loyihasi reyxstagda 222 kishi yoqlab, 48 kishi qarshi ovoz berishi natijasida qabul qilindi. Keyinroq bundesrat "Fuqarolik kodeksi loyihasini Amalga kiritish qonuni" bilan birga tasdiqlaganidan keyin Fuqarolik kodeksi qonun bo'lib qoldi.

Alohida german ittifoqchi davlatlarining qonunlarini yangi fuqarolik kodeksiga muvofiq holga keltirish uchun uning kuchga kirishi Amalga kiritish qonunining 1-moddasida ko'rsatilganidek, 1900-yil 1-yanvardan qilib belgilandi. Germaniya fuqarolik kodeksi bilan bir vaqtda Yer kitoblari haqidagi muhim qonun va Germaniyaning yangi Savdo kodeksi ham kuchga kiritildi.

Shunday qilib, XIX-XX asrlar bo'sag'asida Germaniya o'zining Fuqarolik kodeksiga ega bo'ldi. Pandekt huquqining ko'p asrlardan buyon qo'llanib kelishi nihoyat tugatildi.

**Germaniya fuqarolik kodeksiga umumiy tavsif.** Germaniya fuqarolik kodeksi o'z davrining eng yirik fuqarolik-huquqiy kodifikatsiyasi hisoblanadi. U Amalga kiritish qonunining 218ta moddasini hisobga olmaganda 2385ta paragraf (modda)dan iborat. **Germaniya fuqarolik kodeksi<sup>1</sup> pandekt tizimi asosida tuzildi.** Bunga ko'ra fuqarolik huquqiy institutlari quyidagicha: *umumiy qism (1-kitob), majburiyat huquqi (2-kitob), ashyo huquqi (3-kitob), oila huquqi (4-kitobda) va meros huquqi (5-kitobda) tartibida bayon qilindi.* Birinchi kitobda keyingi kitoblarga joylashtirilgan barcha fuqarolik huquqi institutlari uchun umumiy bo'lgan normalar belgilandi.

Amalga kiritish qonunida GFKning kuchga kirish vaqti haqidagi, Germaniyada xorijiy mamlakatlar qonunlarini va german qonunlarini Germaniya chegarasidan tashqarida qo'llanishi haqidagi qoidalar berildi. Amalga kiritish qonunining ko'pgina normalari GFKning eski imperiya qonunlari va ayniqsa o'lkalarning qonunlari bilan munosabatlarini tartibga soldi. Umumiy qoida sifatida GFKga zid bo'lmagan eski imperiya qonunlari o'z kuchida qolgan edi.

---

<sup>1</sup> Bundan buyon ba'zi joylarda qisqartirib GFK deb yuritamiz.



Amalga kiritish qonunining GFK va o'lkalar huquqi o'rtasidagi munosabatlarga taalluqli moddalari alohida german davlatlarining o'lka qonunchiligi vakolatlari doirasida qoldirilgan huquqlarni sanab ko'rsatdi.

GFKning umumiy qismiga bag'ishlangan **birinchi kitobda jismoniy va yuridik shaxslarning huquqiy maqomi** bayon qilindi. Bu kitobda yuridik bitimlar haqida, muddatlar haqida, ashyolar haqida, va nihoyat, o'zaro himoya va o'zaro yordam haqida ko'rsatmalar berildi.

Kodeksning **ikkinchi kitobida majburiyat huquqi** normalari belgilandi. Ushbu kitobda shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlar haqidagi va ham an'anaviy shartnomalar (oldi-sotdi, qarz, ssuda, shirkat va hokazo), ham yangi turdagi shartnomalar (ish kuchi ijarasi va boshqalar) to'g'risidagi umumiy qoidalar bayon qilindi.

**Uchinchi kitobda egalik va mulk institutlari** bilan bir qatorda servitutlar va turli shakldagi mulkiy garovlar ham batafsil tartibga solinadi.

**To'rtinchi kitob nikoh-oila huquqiga** bag'ishlandi. Bu yerda nikohga kirish shartlari, er-xotin o'rtasidagi shaxsiy va mulkiy munosabatlar, nikohni bekor qilish shartlariga oid qoidalar belgilandi. Bunda, ayniqsa, ota-ona hokimiyati, bolalarning huquqiy holati, homiylik va vasiylik institutlari haqida keng me'yorlar mavjud edi.

Nihoyat, Kodeksning meros huquqiga bag'ishlangan **beshinchii kitobi meros** qoldirishning ikki tartibini (qonun bo'yicha va vasiyat bo'yicha), merosxo'ring huquqiy maqomini, meros haqidagi maxsus shartnoma va merosxo'ring "majburiy ulushi" haqidagi qoidalarni tartibga soldi.

GFKning shakli va tili ko'pincha tanqid ostiga olinadi. Darhaqiqat u juda tushunish qiyin bo'lgan tilda yozilib, uni faqat mutaxassis-huquqshunoslarga to'liq o'zlashtirishi mumkin edi. Kodeksda uzundan uzun paragraflar va ko'pdan-ko'p maxsus yuridik atamalar tez-tez uchraydi. Unda maxsus yuridik iboralar bilan bir qatorda ijtimoiy va axloqiy mazmundagi atamalar ham uchrab turadi.

Masalan, "yaxshi axloq", "pok vijdon", "huquq bilan suiiste'mol qilish" kabi iboralarni shular qatoriga kiritish mumkin. Lekin yuqoridagilarga qaramay, GFKning yuridik atamalari va bayon qilish shakli juda aniq o'ylab tuzilgan edi.

GFKning o'ziga xos belgisi unda umumiy yuridik ta'riflarning yo'qligida edi. Uning tegishli paragraflari ko'proq tavsiflar berishdan iborat bo'lgan.

**Jismoniy va yuridik shaxslar.** GFKning birinchi kitobi dastlabki ikki bobi jismoniy va yuridik shaxslarga bag'ishlangan. Unda jismoniy va yuridik shaxslarning huquqiy layoqati bir-biridan farqlanadi. Insonning

huquqiy layoqati uning “tug‘ilishining tugashi bilan vujudga keladi” (1-modda)<sup>1</sup>, voyaga yetganligi va u bilan bog‘liq yuridik salohiyatligi, ya’ni yuridik aktlarni bajarish huquqiga ega bo‘lishi hamda o‘z qilmishiga javob bera olishi to‘liq 21 yoshga kirgandan keyin (1974-yildan – 18 yoshga to‘lgach) boshlanadi. Kodeksning 6-moddasiga binoan quyidagi shaxslar: 1) ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi oqibatida o‘z ishlari bilan shug‘ullana olmaydiganlar; 2) isrofgarchiliklari bilan o‘zining yoki o‘z oilasining g‘oyat muhtojlik holatiga tushib qolishi xavfiga duchor qiluvchilar; 3) ichkilikbozlikka berilishi oqibatida o‘z ishlari haqida g‘amxo‘rlik qila olmaydiganlar hamda o‘zini va oilasini g‘oyat muhtojlik holatiga tushib qolish xavfiga duchor qiluvchilar yoki boshqalarning xavfsizligiga tahdid qiluvchilar muomalaga layoqatsiz deb e‘lon qilinish mumkin edi. Muomala layoqatidan huquqiy mahrum etilgan yoki cheklangan kishi o‘z qonuniy vakilining ruxsatisiz turar joyini tanlashi, o‘zgartirishi mumkin emas edi. Xotin erining turar joyida bo‘lishi kerak edi. Agar er chet eldan turar joy tanlasa, xotin uning ketidan borishi shart emas edi (10-modda). Qonuniy bola otasining, noqonuniy tug‘ilgan bola onasining, o‘g‘il qilib olinganlar – o‘g‘il qilib olgan kishining turar joyida bo‘lishi lozim edi (11-modda). Yetti yoshga to‘lmagan bolalar, ruhiy kasallar muomala layoqatidan mahrum etilgandi. Muomalaga layoqatsiz shaxslarning xohish bildirishi ahamiyatsiz edi. Voyaga yetmagan shaxslar tomonidan vakillarining zarur roziligi olinmay tuzilgan bitimlar keyinchalik qonuniy vakillari tomonidan ma’qullansa, haqiqiy deb topilishi mumkin edi. Kodeks jismoniy shaxslarning 7 yoshdan 21 yoshgacha muomala layoqati cheklanishining turli darajalarini o‘rnatdi.

GFKda **yuridik shaxslarning** fuqarolik huquqi subyekti sifatida tan olinishi ushbu Kodeksning o‘ziga xos belgilaridan bo‘ldi. Yuridik shaxs instituti kapital jamg‘arishni rasmiylashtirish uchun qulay bo‘ldi va XIX asr oxirida keng tarqaldi.

Germaniyada juda xilma-xil turdagi yuridik shaxslar vujudga kelgan edi. Bu huquqiy shakldan siyosiy partiyalar ham, turli jamoat tashkilotlari ham o‘z mavjudliklari uchun foydalandilar. GFK xususiy birlashmalarning yuridik shaxs maqomini olish huquqini mustahkamladi.

Kodeksning maxsus bobi (II bob), 66ta paragrafi (moddasi) yuridik shaxslarga bag‘ishlandi. Unda yuridik shaxslarning ikki asosiy turi: fereyn (vereine)lar, ya’ni jamiyatlar va ittifoqlar hamda muassasa (stiftungen)lar tan olindi. Juda muhim fereynlarga shaxslarning xo‘jalik maqsadlaridagi birlashmalari (22-modda) yoki xo‘jalik maqsadlari bo‘lmagan

---

<sup>1</sup> FKning har bir paragrafini bundan buyon matnda modda deb yuritimiz, chunki ular mazmunan shunga to‘g‘ri keladi.

birlashmalari (21-modda) kirgan. Xo‘jalik bo‘lmagan maqsadlardagi birlashmalarga siyosiy ittifoqlar, tadbirkorlarning boshqa ba’zi uyushmalari va hokozolar kirgan. Fereynlar deganda tarkibidagi ishtirokchi shaxslarning huquqlari va burchlari bog‘liq bo‘lgan birlashmalar tushunilgan. Muassasalar ma’lum maqsadlarga yerishish uchun o‘z mulkining bir qismini ajratuvchi shaxslarning xohishi bilan vujudga kelgan. Ta’kidlash joizki, xo‘jalik maqsadlarida tuzilgan ittifoqlarni savdo qonunchiligi bilan tartibga solinadigan savdo shirkatlari shaklidagi birlashmalar (aksiyadorlik jamiyatlari, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar) bilan aralashtirib yubormaslik kerak.

GFKning yuridik shaxslarga bag‘ishlangan ko‘pgina moddalarida asosan fereynlar va muassasalar faoliyatini tashkil qilish va tugatish bilan bog‘liq masalalar ko‘rib chiqiladi. Yuridik shaxslarning GFK bo‘yicha huquqiy maqomi ularning vujudga kelishi tartibini yaqqol namoyish qiladi. Germaniyada yuridik shaxslarni tashkil etishning ruxsat olish (konsessiya<sup>1</sup>) tizimidan ruxsat olmaslik (erkin) tizimiga asta-sekin o‘tilishi XIX asrning 70-yillaridan boshlandi. Germaniyada hammadan avval savdo shirkatlari (aksiyadorlik jamiyatlari) ruxsat olmay tashkil etila boshlangan edi. Barcha turdagi yuridik shaxslar uchun tashkil etishning erkin tizimini joriy qilish haqidagi masala GFKni tayyorlash davomida katta bahs-munozaralarga sabab bo‘ldi. Uzoq davom etgan tortishuvlardan so‘ng kelishuvchilik yo‘li tutildi: xo‘jalik bo‘lmagan maqsadlaridagi jamiyatlar ruxsat olinmay tashkil etilishi mumkin bo‘ldi. Xo‘jalik maqsadlaridagi ittifoqlar tashkil etish uchun, ilgarigidek ruxsat olish (konsessiya) tartibi o‘rnatildi. Xo‘jalik yuritish maqsadlarida tuziladigan jamiyat qayerda joylashgan bo‘lsa o‘sha davlatning hukumati ruxsati bilan tashkil etilgan va huquqiy layoqatga ega bo‘lgan. Xo‘jalik yuritishni maqsad qilib olmagan jamiyat tegishlicha sudda jamiyatlar ro‘yxatiga kiritilishi orqali huquqiy layoqatga ega bo‘lgan. Bular haqida Kodeksning 21-22-moddalarida me’yorlar belgilandi.

GFK yuridik shaxslarning keng huquqiy layoqatini tan oldi. Umuman olganda ularning huquqiy layoqati, jismoniy shaxslar uchun xos bo‘lgan huquqiy munosabatlardan tashqari fuqarolik huquqining hamma sohalarini qamrab oldi. Biroq davlat yuridik shaxslar ustidan nazorat qilishning kuchli vositasini o‘z qo‘lida saqlab qolgan edi. Kodeksning 43-moddasiga binoan, “jamiyat, agar umumiy yig‘ilishning qonunga zid qarori natijasida yoki boshqarmaning qonunga xilof harakati tufayli jamiyat manfaatlariga

---

<sup>1</sup> **Konsessiya** – lotincha “concessio” sozidan olingan bo‘lib, ruxsat, yon berish degan ma’noni anglatadi; xo‘jalik faoliyatining muayyan turi bilan shug‘ullanish uchun davlat nomidan beriladigan ruxsatnoma.

tahdid solsa, huquqiy layoqatdan mahrum qilinishi mumkin” edi. Bir marta “jamiyat manfaatlariga tahdid” bo‘lsa, davlat hokimiyati organlari jamiyatlar (ittifoqlar)ni yopishi mumkin edi.

GFKda jamiyatning huquqiy layoqatidan mahrum qilinishi mumkin bo‘lgan sabablar bayon qilindi. Bunday sabablar asosan jinoiy va siyosiy xarakterga ega bo‘lgan. Fuqarolik huquqiy layoqatiga ega bo‘lmagan jamiyatlarga shirkatlar haqidagi qarorlar qo‘llanilgan. Kodeksning barcha yuridik talablariga to‘la javob bermaydigan ko‘p sonli birlashmalar **huquqiy layoqatsiz jamiyatlar** hisoblangan.


Bular asosan ishchilar ittifoqlari edi. Ularga nisbatan ham shirkat shartnomasi uchun o‘rnatilgan qoidalar tatbiq qilingan. Ayni paytda bunday huquqiy layoqatsiz jamiyatlarning alohida belgilari yuridik shaxslarga xos bo‘lgan. Masalan, huquqiy layoqatsiz ittifoqlar sudda tomonlar sifatida ishtirok etishi mumkin bo‘lgan, bunday jamiyatlar nomidan tuzilgan shartnomalar haqiqiy deb tan olingan (54-modda). Qonun chiqaruvchining german ishchilar harakatiga yon berishi, albatta, yarim-yorti edi. Lekin ishchilar ittifoqlari uchun fuqarolik huquqiy layoqatining qisman tan olinishining o‘ziyiq, shubhasiz, katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Yuridik shaxslarning huquqiy munosabatlarda jismoniy shaxslar bilan teng huquqli subyekt sifatida tan olinishi Kodeksning o‘ziga xos belgisi hisoblanadi. Shu bilan birga u aksiyadorlik jamiyatlarining va mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning huquqiy maqomini tartibga solmadi. Ularni tashkil etish, qayd qilish va faoliyati tartibi GFK bilan birga alohida qonunlarda belgilandi. Bu ham Germaniyada amalga oshirilgan kodifikatsiya ishlarining o‘ziga xos muhim xususiyati bo‘lgan edi.

**Majburiyat huquqi.** GFK, boshqa kodekslardan farq qilib, majburiyatlarga taalluqli umumiy tushunchalarning tuzilishini beradi. Masalan, 241-moddada majburiyatlarning ancha to‘liq ta’rifi berildi. “Majburiyat kuchi bilan kreditor qarzdordan taqdim qilishni talab qilish vakolatiga ega bo‘lgan. Taqdim qilish, shuningdek o‘zini tiyishdan iborat bo‘lishi ham mumkin edi”. Bunday ta’riflash majburiyatlarning umumiy ta’rifi asosiy elementlarini o‘z ichiga oldi. Kodeksning umumiy qismida bir tomonlama bitimlarga ham, shartnomalarga ham tarqatiladigan bitimlar haqidagi umumiy qoidalar ajratib ko‘rsatildi.

Shartnomalar majburiyat huquqiy munosabatlari kelib chiqishining ancha keng tarqalgan an’anaviy usuli hisoblanadi. GFK Napoleon Kodeksidan farqli o‘laroq, shartnomalar ta’rifini bermaydi. Lekin 145, 241-moddalardan kelib chiqib shartnomalarning muhim belgilarini ajratib

ko'rsatish mumkin. Bular shartnomaning bir necha shaxslar o'rtasida o'rnatilgan yuridik aloqa sifatida tushunilishi; shartnomaning mazmuni ijobiy harakatdan yoki bunday harakatdan o'zini tiyishdan iborat bo'lishi mumkinligi kabilar edi.



GFK bo'yicha shartnoma munosabatlari **shartnoma erkinligi prinsipiga** asoslangan. Kodeks shartnoma majburiyatlari o'rnatish bo'yicha xususiy shaxslarga katta erkinlik berib, shartnomalarning haqiqiyliги uchun ba'zi qonuniy shartlarni o'rnatadi. Jumladan, 309-moddaga binoan, "qonunning qandaydir talablarini to'g'ridan to'g'ri buzadigan" shartnomalar haqiqiy emas deb hisoblanadi. Shuningdek, 104–115-moddalarda bitim tuzuvchi shaxslarning muomalaga layoqatli hisoblanishi uchun qator talablar qo'yiladi. Bunda shartnoma tuzishga qodir bo'lgan shaxslar doirasi Napoleon kodeksiga qaraganda kengroq edi. Bu kapitalistik ishlab chiqarish sohasiga aholining ko'p qatlamlari (bolalar, ayollar)ning jalb qilinishi bilan izohlanadi. Kodeksda faqat yetti yoshga to'lmagan bolalar to'liq muomala layoqatiga ega emas deb tan olingan.

Shartnomalar haqiqiylikining majburiy shartlari haqidagi masalada **tomonlar xohishi** (ya'ni irodaning tashqi ifodasi) juda muhimligining tan olinishi GFKning o'ziga xos belgisi hisoblanadi. Bu shartnoma aloqalariga barqarorlik berish istagidan kelib chiqqan edi. Shuning uchun aldash, zo'rlik ta'siri ostida tuzilgan bitimlar yuzasidan bahslashishga faqat bir yil davomida yo'l qo'yilgan. Adashtirish yo'li bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha esa o'sha zahoti da'volashish zarur edi. 30 yil o'tgandan keyin bitimlar yuzasidan har qanday holatdagi bahslashuvlar asossiz hisoblangan.

Kodeks shartnoma erkinligi prinsipini yuqorida eslab o'tilgan "yaxshi axloq", "pok vijdon" kabi ijtimoiy-axloqiy mezonlar yordamida tahrir qilishga yo'l qo'yadi. 138-moddada "yaxshi axloqqa" zid keladigan

bitimlarning haqiqiy emasligi haqida to'g'ridan to'g'ri ko'rsatib o'tilgan. Kodeksda sud organlariga shartnoma huquqiy munosabatlarini sharhlash bo'yicha, ularni haqiqiy emas deb topishgacha keng vakolatlar beriladi.

GFKning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri Napoleon kodeksi yo'l qo'ymagan **mavhumiy majburiyatlarning** mavjudligi hisoblanadi. 780-moddada shartnomaning bu turi quyidagicha ta'riflanadi: "Bunday shartnoma bo'yicha qarzdor shunday narsa bilan qanoatlantirishni va'da beradiki, bu va'da majburiyatning mustaqil asosi bo'lib xizmat qiladi". Shunday qilib, shartnoma predmeti – bu yozma shaklda (masalan, veksel, chek) ifoda etilgan va'daning o'zidir. Mazkur shartnomalarning mavhumiyligi shundan iboratki, bunday shartnomani tuzish asosi va majburiyatlarning berilishi ahamiyatsiz bo'lgan; qarzni to'lash haqidagi va'da mavhumiy xarakter kasb etgan. Bu shunday majburiyatlardan qaytish imkoniyatiga yo'l qo'ygan. Mavhum majburiyatlarning paydo bo'lishi qonun chiqaruvchining yirik burjuaziyaga yon berishi hisoblangan.

GFKda deliktlar (fuqarolik huquqbuzarliklar)dan kelib chiqadigan majburiyatlarga katta o'rin ajratilgan. Umumiy qoida bo'yicha zarar yetkazishda aybdor bo'lgan shaxs javobgar bo'lgan. Kodeks nomulkiy zarar yetkazganlik uchun mulkiy undirishni tan olmaydi. 253-moddaga muvofiq nomulkiy zarar yetkazganlik uchun undirish faqat qonunda to'g'ridan to'g'ri ko'rsatilgan hollardagina talab qilinishi mumkin.

Kodeksda asossiz boyishdan kelib chiqadigan majburiyatni majburiyatlarning maxsus turi deb hisoblanadi va bunday majburiyatning umumiy tushunchasi o'rnatiladi hamda u batafsil tartibga solinadi.

**Mulk huquqi, uning himoya qilinishi va cheklanishi.** Ashyo huquqi instituti fuqarolik kodeksi mohiyatini juda yorqin ifoda etadi. Kodeks barcha ashyolarni yer uchastkalariga va harakatdagi ashyolarga bo'ladi, harakatdagi va harakatsiz ashyolarning huquqiy rejimini qat'iy farqlaydi. Unga binoan yer uchastkasi va uning ostidagilardan boshqa hamma narsalar harakatdagi ashyolar hisoblanadi (94-modda). GFK harakatdagi ashyolarga nisbatan mulk huquqi haqidagi ko'pdan ko'p qoidalarni belgilagan birinchi Fuqarolik kodeksi hisoblanadi. Jumladan, unda qimmatli qog'ozlarning fuqarolik oborotidagi rolining o'sishi munosabati bilan ularga nisbatan ham mulk huquqi nazarda tutildi.

GFK ashyo huquqining quyidagi xilma-xil ko'rinishlarini bir-biridan ajratadi: mulk, egalik, shuningdek begona ashyolardan foydalanish (yer servitutlari, uzufrukt, qurilish huquqi) huquqi, begona ashyodan ma'lum

qimmatliklar olish huquqi (garov, ipoteka va boshqalar), qandaydir ashyoga erishish huquqi (imtiyozli sotib olish huquqi, ov qilish huquqi, baliq ushlash huquqi va hokazo). Asosiy ashyo huquqi mulk huquqi hisoblanadi.

GFKni tuzuvchilar mulk huquqining aniq va qat'iy tushunchasini bermadi. Mulk huquqining mazmuni "hokimiyat", "qonun" va "uchinchi shaxslar huquqi" degan iboralar yordamida belgilanadi. Biroq kodeksda mulk huquqiga ta'rif berishga harakat qilib belgilangan umumiy norma ham mavjud. "Ashyo egasi, unga qonun yoki uchinchi shaxslar huquqi qanchalik to'sqinlik qilmasa, ashyolarni o'z xohishi bo'yicha tasarruf qilishga va boshqalarni unga ta'sir o'tkazishini bartaraf etishga shunchalik haqlidir" (903-modda).

Mulk huquqi haqidagi modda mulk egasining asosiy qonuniy huquqlarini amalga oshirishning ikki usulini – ashyolarni o'z xohishi bo'yicha tasarruf etishini (pozitiv huquqqa egaligini) va boshqalarning unga har qanday ta'sir ko'rsatishi bartaraf etilishini (negativ huquqqa egalikni) mo'ljallaydi va qayd qiladi.

Mulk huquqiga berilgan yuqoridagi ta'rif o'z mazmuni bo'yicha fransuz huquqidagi mulk huquqi tushunchasiga yaqindir. Bunda ham mulk egasining ashyoni o'z xohishi bo'yicha tasarruf etishida ifodalangan shaxsning ashyo ustidan keng hukmronligi, shuningdek mulk egasiga boshqa har qanday kishilar tomonidan uning ashyosiga ta'sir o'tkazilishini bartaraf etish huquqini beruvchi ashyo ustidan mutlaq hokimiyat o'rnatilgan edi. Shunday qilib, GFK, o'sha davrdagi boshqa fuqarolik kodekslari singari xususiy mulk erkinligi boshlanishini qayd qiladi.

Shu bilan birga, GFK mulk egasining huquqlari bo'yicha Napoleon kodeksiga qaraganda ko'proq cheklashlar belgilaydi. Harakatdagi ashyolarga nisbatan mulk huquqida GFK muhim cheklashlar belgilamadi. Lekin harakatsiz mulklarga nisbatan mulk huquqida ancha cheklashlar nazarda tutildi.

Napoleon kodeksi singari GFK ham yer uchastkasi egasining yer osti va ustiga nisbatan ham mulk huquqini tan oladi. Lekin GFK bunda ikkita cheklovlar belgilaydi. Birinchidan, u yer uchastkasi egasini uning uchastkasiga boshqa uchastkadan gaz, bug', hid, tutun, qorakuya (is), issiqlik va boshqa shu kabilar kirib kelishiga chidashi lozimligini o'rnatadi (906-modda). Ikkinchidan, GFK yer egasining yer usti va ostiga nisbatan huquqlarini "mulk egasi manfaatlari" doirasida cheklaydi. Masalan, mulk egasi o'z uchastkasiga ma'lum bir balandlik yoki shunday chuqurlikdan qilinadigan ta'sirlarning bartaraf etilishidan manfaatdor bo'lmasa, ularga qarshilik ko'rsata olmagan (905-modda).

Biroq bu qoida amaliy ahamiyatga ega bo'lmagan, chunki bu yerda inson hokimiyati tugaydigan va mulkchilik haqiqiy qimmatini yo'qotadigan doiralar haqida gap ketmoqda. Bunda yer uchastkasining egasi yer osti va ustidagilarga nisbatan o'z huquqini saqlab qoladi. Yuqoridagi cheklovlar faqat XX asr boshida havoda uchish va telegraf aloqalarining rivojlanishi bilan ahamiyatli bo'lib qoldi.

Kodeksning 906-moddasida o'rnatilgan qoida yer egalari huquqlarini boshqa yer uchastkalaridan "xo'jalik maqsadlarida foydalanishlari" manfaatlari yo'lida real cheklaydi. Modomiki, faqat kapitalistik korxonalar tutun, gaz, qorakuya kabi sanoat chiqindilarining manbai ekan, Kodeks yer egalari manfaatlarini kapitalistik rivojlanish foydasiga cheklaydi. Biroq 907-moddada aytilganidek, "yer uchastkasi egasi qo'shni uchastkada quriladigan inshootlarning mavjudligi yoki ulardan foydalanilishi uning uchastkasi uchun yo'l qo'yib bo'lmaydigan oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligini oldindan aniq ko'rishi mumkin bo'lsa, bunday inshootlarning qurilmasligini va saqlanmasligini talab qilishi mumkin" edi. Bu esa yer uchastkasi egasining mulkiy manfaati ochiqdan ochiq himoya qilinganligidan guvohlik beradi. Shunday qilib, GFKning 906 va 907-moddalari mazmuni pomeschchiklar va burjuaziya manfaatlarini o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish maqsadlari yo'lidagi kelishuvchilikni ifoda etadi.

Yunkyerlarning manfaatlarini Kodeksning boshqa moddalarida ham, jumladan, mulk huquqini o'tkazish tartibini belgilaydigan moddalarida himoya qilinadi. Harakatdagi mulkka nisbatan mulk huquqi ashyoning o'tkazilishi paytidan boshlab vujudga keladi. Harakatsiz mulklarga nisbatan mulk huquqining begonalashtirilishi oshkora tartibda, yer kitoblariga yozish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu GFKning o'ziga xos belgisi bo'ldi.

Kodeksda boshqa ashyo huquqlari orasida egalik huquqi alohida ajralib turadi. Napoleon kodeksiga qaraganda GFK ushbu ashyo huquqiga juda katta e'tibor beradi va juda ko'p moddalar bag'ishlaydi. Bundan tashqari, egalik tushunchasining o'zi ham rim va fransuz huquqlariga nisbatan juda yaxshi ishlab chiqilgan edi.

Kodeksning 854-moddasida "ashyoga egalik uning ustidan haqiqiy hukmronlikka erishish bilan qo'lga kiritiladi", deb e'lon qilindi. Shu tariqa german kodeksi egalik instituti doirasini keskin kengaytirdi. Ba'zi toifadagi muomalaga layoqatsiz shaxslar (bolalar) va shartnoma bo'yicha ashyolarni egallab turuvchi shaxslar (ijaratorlar, saqlovchilar) mulkka egalik qiluvchilar deb tan olindi. Qonun chiqaruvchi ashyoning xo'jayini



bilan bir qatorida ijaratorlarni, saqlovchilarni va majburiyat munosabatlari asosida ashyolarga egalik qilib turuvchi boshqa shaxslarni ham mulk egalari sifatida tan olib, egalikning ikki turkumini – “bevosita” egalik va “bilvosita” egalikni yaratdi. Ikkala turkumdagi mulk egalari GFK bo‘yicha mustaqil huquqiy himoyadan foydalandilar. Shunday qilib, himoya qilinadigan egalik hokimiyati va uning qo‘riqlanishi samaradorligi GFK bilan keskin kengaytirildi.

**Oila huquqi.** Nikoh GFK bo‘yicha dunyoviy huquqiy institut hisoblangan. Fuqarolik nikohi nikohning yagona qonuniy shakli deb tan olingan. Nikohning an‘anaviy monogomiya (bir nikohli) xarakteri saqlanib qoldi. Kodeks “ilgarigi nikoh to‘xtatilmaguncha yoki yo‘q qilindi deb topilmaguncha nikohga kirishni” to‘g‘ridan to‘g‘ri taqiqlaydi. GFKda nikohga ta‘rif berilmagan. Biroq uning loyihasiga berilgan asoslarda nikoh “er-xotinlar orasidagi ma‘lum darajada mustaqil axloqiy va huquqiy tartib” deb aytilgan edi. Ana shunday keng yondashuv asosida nikohning asosiy huquqiy masalalari GFK da maxsus tarzda hal qilindi. Kodeksda nikoh yoshi ayollar uchun 16 yosh, erkaklar uchun 21 yosh qilib o‘rnatildi. Ota-onaning nikohga rozilik berish huquqi ancha cheklandi. Ota faqat voyaga yetmagan bolalariga, ona faqat noqonuniy tug‘ilgan bolalariga nikohga kirishga rozilik berish huquqiga ega bo‘lgan. Quyidagilar nikohning haqiqiyliги uchun to‘sqinlik qilishi mumkin edi: yaqin qarindoshlik va tug‘ishganlik, birinchi nikohning bekor qilinmaganligi. Ayollarning yangi nikohga kirishi uchun ilgarigi nikoh bekor qilinganidan boshlab 300 kun o‘tishi lozim edi. Nikohi bekor qilingan shaxslarning qayta nikohga kirishi, agar ajralish ular tomonidan xiyonat sodir etilganligi tufayli yuz bergan bo‘lsa, taqiqlangan (1305-modda).

GFK bo‘yicha nikohni er-xotinning o‘zaro roziligi asosida bekor qilish mumkin emas edi. Ajrashishga faqat maxsus qonuniy asoslar mavjud bo‘lgandagina yo‘l qo‘yilgan. Bular er-xotinning o‘zaro xiyonati va ba‘zi boshqa “axloqqa zid” xatti-harakatlari (1565-modda), yerning xotini yoki xotinning yeri hayotiga tajovuz qilishi (1566-modda), yomon niyat bilan tashlab qo‘yish (1567-modda), nikoh majburiyatlarini qo‘pol buzish yoki er-xotinlik munosabatlarini davom ettirishni talab qilish mumkin bo‘lmagan darajada chuqur bo‘shashib ketishiga olib keluvchi “noinsoflik” qilish (1568-modda), er-xotindan birining tuzalmas og‘ir ruhiy kasallikka yo‘liqishi (1569 – modda) kabilar bo‘lgan.

Er-xotinning o‘zaro munosabatlarida GFK erning xotin ustidan oshkora hokimiyatini o‘rnatmaydi, lekin nikohda er va xotinning tengligini ham tan olmaydi. Kodeksning 1354-moddasi umumiy oilaviy ishlarda

yerning boshchiligi prinsipini mustahkamlaydi. Unda belgilanishicha, “erga er-xotinning birgalikdagi hayotiga taalluqli barcha masalalarni hal qilish taqdim qilinadi, jumladan, u yashash joyini tanlaydi”. Agar er o‘zining shunday huquqini suiiste’mol qilsa, xotin unga bo‘ysunmasligi mumkin edi. Shunday qilib, kodeks erga faqat umumoilaviy ishlarni hal qilishda qisman imtiyoz berib, uning xotin ustidan shaxsiy hokimiyatini e‘lon qilmaydi. Erga tekkan ayol, garchi cheklangan bo‘lsa ham, muomala layoqatiga ega bo‘lgan. U kasb bilan shug‘ullanish yoki ishlab pul topish huquqiga ega bo‘lgan, xo‘jalik korxonasini yuritishi mumkin edi, lekin bunda erning roziligi talab qilinardi. 1356-moddaga binoan “xotin umumiy xo‘jalikni boshqarishga haqli va majbur” edi. Uy xo‘jaligi doiralarida xotonga erining o‘rniga ish yuritish va buni eriga ko‘rsatish topshirilgan edi (1357-modda). To‘g‘ri, er xotinning bunday huquqini cheklash yoki bekor qilish huquqiga ega bo‘lgan. Er-xotinning mulkiy munosabatlari nikoh shartnomasi bilan belgilangan. Kodeksning 200ta moddasi er-xotinning mulkiy munosabatlariga bag‘ishlangan.

GFK er-xotin mulkining umumiyligi rejimini o‘rnatdi. Biroq bu mulkka nisbatan foydalanish va boshqarish huquqi erga tegishli bo‘ldi. Bunda xotinning nikohgacha bo‘lgan yoki nikohdan keyin orttirgan mulki o‘zining mulki bo‘lib qolavergan, lekin erining foydalanishi va boshqaruvi ostida bo‘lgan (1363-modda). GFK xotinning oilaning umumiy mulkiga “kiritilgan” mulkidan tashqari “alohida mulki”ni ham nazarda tutadi. 1365-moddaga binoan, xotinning shaxsiy ashyolaridan tashqari uning meros bo‘yicha, hadya tariqasida olgan, shuningdek o‘z mehnati yoki qandaydir korxonani mustaqil yuritishi orqali orttirgan har qanday mulki uning “alohida mulki” deb e‘lon qilinadi. Xotinning “alohida mulki” uning mutlaq egaligida bo‘lib, bunga nisbatan er hokimiyati yoyilmaydi. Germaniyada er-xotinlarning mulkiy munosabatlar tizimi erga tekkan ayollar uchun qulay bo‘lgan. Lekin shunday bo‘lsa ham german ayoli bu sohada eri bilan teng huquqiy maqom olmagan edi.

Ota-onalar va bolalarning o‘zaro munosabatlari ota-ona hokimiyati prinsipi asosida qurilgan. Bu hokimiyat asosan ota tomonidan amalga oshirilgan (agar u bundan mahrum etilmagan bo‘lsa). Ota-ona hokimiyati, agar ota vafot etgan bo‘lsa yoki shunday hokimiyatdan mahrum etilgan bo‘lsa, onaga o‘tgan. Lekin bunday holatda onaga uning harakatlarini nazorat qiluvchi maslahatchi tayinlangan. Bolalar ota-onalar tomonidan ekspluatatsiya qilinishi mumkin edi. Agar ota-onalar bolalarini boqsa, bolalar ota-onalarining xo‘jaligida o‘z kuchlari bilan va hayotdagi o‘rnilariga muvofiq tarzda mehnat qilishlari lozim bo‘lgan. Bunday majburiyatdan burjuaziya oilalarining bolalari ozod qilingan edi.

Kodeks otaga “bolalarning shaxsi va mulki haqida g‘amxo‘rlik qilish” huquqini bergan (1627-modda). Nikoh davom etib turgan paytda ona ota bilan bir qatorda “bolalar shaxsi haqida g‘amxo‘rlik qilishga haqli va majbur” edi (1634-modda). Ota hokimiyati o‘z hajmi bo‘yicha kattaroq bo‘lgan. U homiylik sudlari orqali (iltimos qilish yo‘li bilan) bolalariga tegishli axloq tuzatish choralari qo‘llanilishiga erishishi mumkin edi (1631-modda). Nihoyat, kodeks otaning bolalar mulki haqida g‘amxo‘rligini ta‘minlash maqsadida otaga “bolalar mulkidan foydalanish huquqi” ni taqdim qilgan (1649-modda).

Shunday qilib, GFK bo‘yicha ota hokimiyati, birinchidan, ona hokimiyati bilan, ikkinchidan esa maxsus instansiya – homiylik sudining joriy qilinishi bilan ma‘lum darajada cheklangan edi.

**Meros huquqi.** GFKning so‘nggi, beshinchi kitobi 450dan ortiq moddalari bilan meros huquqiga bag‘ishlanadi. Meros huquqi o‘zining muhim belgilari bilan eski german huquqiga asoslandi. Merosning xarakterli belgisi qonun bo‘yicha merosning chegaralari yo‘qligida edi. Agar o‘lgan kishining yaqin qarindoshlari bo‘lmasa, har qanday uzoq darajadagi qarindoshlar merosxo‘r bo‘lishi mumkin edi.

Qarindoshlar qonun bo‘yicha merosga parantella (nasl-nasablar) bo‘yicha chaqirilgan. Bunda birinchi parantellani meros qoldiruvchining o‘zi va avlodi tashkil etgan (1924-modda). Ikkinchi parantellani ota-ona va uning avlodi, uchinchisini buva va buvi hamda ularning avlodlari tashkil qilgan va hokazo. Shu tariqa o‘zining meros qoldiruvchi bilan qarindoshligini isbotlay olgan har qanday darajadagi uzoq qarindosh ham merosxo‘r bo‘lishi mumkin edi. Napoleon kodeksidan farq qilib, GFK bo‘yicha er yoki xotin meros olishda imtiyozli mavqega ega bo‘lgan. GFKga binoan qonuniy meros avvalo dastlabki ikki parantella merosxo‘rlari o‘rtasida taqsimlangan. Agar ular bo‘lmasa, er yoki xotin merosni to‘liq olgan (1931-modda). Agar dastlabki ikkala parantella avlodlari bo‘lsa, er yoki xotin merosning  $\frac{1}{4}$  qismini, agar bitta parantella avlodlar qolgan bo‘lsa  $\frac{1}{2}$  qismini olgan.

Birinchi darajali nasl-nasablar (parantellalar) meros olishda boshqa nasl-nasablarni (parantellalarni) istisno qilgan. Eng muhimi, meros olayotgan parantellalar ichida merosni hamma qarindoshlar emas, balki ushbu parantella boshlig‘i olgan.

GFK qonun bo‘yicha meros bilan bir qatorda vasiyat bo‘yicha merosni ham tartibga soladi. Unda “qarindosh yoki er yoki xotinni qonuniy merosdan mahrum qilish” (1938-modda) huquqi bilan vasiyat erkinligi prinsipi e‘lon qilindi. German kodeksi meros qoldiruvchining yaqin

qarindoshlari manfaatlari yo'lida vasiyat erkinligini oshkora chekladi. Qonuniy merosxo'rlarga ajratilishi lozim bo'lgan "majburiy ulushlar" ana shunday cheklash bo'ldi. Merosdan "majburiy ulush" olishga haqqi bor shaxslar qonuniy merosning yarmi miqdorida merosdan hissa ajratilishini talab qilishlari mumkin edi. Bunda majburiy hissa olishga huquqli shaxslar merosxo'r hisoblanmaydilar.

**Savdo huquqi.** Germaniyada Fuqarolik kodeksi bilan bir qatorda Savdo Kodeksi ham harakatda bo'ldi. Buni bir qator tarixiy shart-sharoitlar taqozo qilgan edi. Ulardan asosiysi mamlakatning ko'p asrlik siyosiy va huquqiy tarqoqligi munosabati bilan savdoni yagona huquqiy tartibga solish zaruriyati bo'lgan edi.

XIX asrning 30-yillarida Germaniyada sanoat to'ntarilishining boshlanishi yagona German savdo huquqiga asos solgan hujjatlarni – 1847-yilda yagona German veksel ustavining, 1861-yilda esa birinchi umumgerman Savdo kodeksining yaratilishiga olib keldi.

Veksel muomilasini tartibga soluvchi normalarning birinchi navbatda birxillashtirishi vekselning tovar aylanmasida turli mulkiy ehtiyojlarni qondirilishidagi muhim ahamiyatidan kelib chiqdi. Germaniyaning 1847-yilgi veksel ustavi veksel huquqi sohasida XVIII-XIX asrlardagi german huquqiy tafakkurining asosiy yutuqlarini qabul qilib oldi. Unda vekselning o'ziga xos "germancha" tipi mustahkamlandi. Bu veksel tipi o'zining mavhumiyligi, rasmiyligi, umumiyligi bilan ajralib turgan.

**1861-yilgi Umumgerman savdo qonunomasi** (Prussiyaning 1857-yilgi Savdo kodeksi bunga asos qilib olingan edi) beshta kitobdan iborat edi: "Savdo tabaqalari haqida", "Savdo shirkatlari haqida", "Umumiy hisob foydasiga alohida savdo bitimlari tuzish uchun yashirin shirkat va birlashmalar haqida", "Savdo bitimlari haqida" va "Dengiz savdosi haqida". 1861-yilgi Savdo kodeksida savdogar – "savdo ishlarini kasb qilib olgan shaxs" markaziy siymo sifatida chiqqan. Shu sababli savdo huquqi "savdogarlarning maxsus xususiy huquqi" sifatida tushunilgan. Bu 1861-yilgi Savdo kodeksida savdogarlarning savdo korxonalarini tashkil qilishi bilan bog'liq masalalarning ancha to'liq tartibga solinganligida namoyon bo'ldi.

Pruss savdo loyihasidan Savdo kodeksiga savdogarlar firmasi, savdo oborotidagi vakillik, savdo hujjatlari va boshqalarga bag'ishlangan qator qayta ishlangan normalar o'tdi. Birinchi yagona german Savdo kodeksining xususiyati unda savdo huquqining mustaqil subyekti (yuridik shaxslar) sifatida chiquvchi savdo shirkatlarining mulkiy mustaqilligi prinsipining izchil o'tkazilishi bo'ldi.

1861-yilgi Savdo kodeksi hali yagona fuqarolik huquqi mavjud bo'lmagan sharoitlarda tuzilganligi uchun ma'lum darajada Fuqarolik kodeksi funksiyasini ham bajarishga qaratilgan edi. Shu sababli unda qator fuqarolik-huquqiy qoidalar, jumladan, bitimlar haqidagi umumiy qoidalar va hokazolar mustahkamlangan edi.

1871-yilda Germaniyaning birlashtirilishi natijasida german iqtisodining hamma sohalarida misli ko'rilmagan o'sish yuz berdi, qator yangi shakldagi xususiy huquqiy birlashmalar (sanoat shirkatlari, mas'uliyati cheklangan shirkatlar, mustamlaka shirkatlari va boshqalar) vujudga keldi. Bular esa savdo qonunchiligini tubdan isloh zaruriyatini tug'dirdi. Buning natijasi 1897-yilgi yangi Savdo kodeksining qabul qilinishi bo'ldi. Bu Kodeks hozirgi kunda ham Germaniyada amal qilishda davom etmoqda. Uning yaratilishiga 1896-yilgi Germaniya Fuqarolik kodeksining qabul qilinishi bevosita turtki bo'ldi.

1897-yilgi Savdo kodeksi 1861-yilgi Savdo qonunnomasidan farq qilib, hech qanday umumiy qoidalar belgilamadi va faqat savdo aylanmasida harakatda bo'lgan o'ziga xos prinsiplar va institutlarni mustahkamladi. U to'rtta kitobdan iborat qilib tuzildi. Birinchi kitob Savdo korxonalarining tashkil etilishi va faoliyatiga bag'ishlandi. Ikkinchi kitobga Savdo shirkatlari: aksiyadorlik jamiyatlari, kommindit shirkatlari, shuningdek maxfiy shirkatlar haqidagi normalar kiritildi. Uchinchi kitobda alohida savdo bitimlari tuzish masalalari ko'rib chiqildi. Oxirgi – to'rtinchi kitob esa dengiz savdosini tartibga soldi. Bunda dengiz sug'urtasiga oid normalar ham belgilandi.

Germaniya iqtisodida XIX asrning oxirida yuz bergan o'zgarishlar german qonun chiqaruvchisining savdo huquqi subyektini belgilashga sifat jihatidan yangicha yondashuvini taqozo qildi. Bu 1897-yilgi Savdo kodeksida o'z ifodasini topdi. Endilikda nafaqat savdogarlarga, balki barcha yirik tadbirkorlar, vositachilar, ishlab chiqaruvchilarga ham tijoratchilar deb qarala boshlandi. Ularning huquqiy maqomini belgilash uchun 1897-yilgi Savdo kodeksiga “to'liq” va “to'liq bo'lmagan” tijoratchi, “majburiyat bo'yicha”, “zarurat bo'yicha”, “xohish bo'yicha” va “shakl bo'yicha” tijoratchi degan tushunchalar kiritildi. Bu savdo huquqini “savdogarlarning alohida xususiy huquqi”dan tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi normalarning maxsus majmuasiga aylantirdi.

**Jinoyat huquqi.** Germaniya imperiyasining 1871-yilgi Konstitutsiyasi 4-moddasida “fuqarolik, jinoyat va protsessual qonunlar asoslarini chiqarish” faqat imperiyaning vakolatlari doirasiga kirishi o'rnatildi. Ushbu qoidaga asosan 1871-yilning may oyidanoq imperiya hududida Germaniya imperiyasining Jinoyat kodeksi harakat qila boshladi.

Bu kodeks 1870-yilgi Shimoliy-German ittifoqining Jinoyat qonunnomasi normalarini qabul qilib olgan edi.

Germaniya imperiyasining Jinoyat kodeksi, Fransiyaning 1810-yilgi Jinoyat kodeksiga o‘xshab, jinoyat huquqining “klassik” maktabi g‘oyaviy asoslariga tayandi. Germaniyada o‘sha vaqtda Y.Gegel, I.Kant, A.Feyerbax, K.Binding va boshqalar ana shunday maktabning yorqin vakillari edilar. Ular faqat sodir etilgan vaqtda to‘g‘ridan-to‘g‘ri qonun bilan taqiqlangan xatti-harakatlargagina jinoyat deb qaradilar, jazoning asosiy ahamiyatini sodir etilgan jinoyat uchun haqli qasos (jazo)da ko‘rdilar. 1871-yilgi Jinoyat kodeksining bevosita muallifi german huquqshunosi Adolf Leonard bo‘lgan.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, Germaniya imperiyasining **1871-yilgi Jinoyat kodeksi** uch qismdan iborat edi. Uning dastlabki ikki qismi jinoyat huquqining umumiy masalalariga bag‘ishlandi. Bunda huquqbuzarliklarni bir-biridan ajratish va jinoiy jazo tayinlash prinsiplari, shuningdek suiqasd, ishtirokchilik va boshqa institutlar bayon qilindi. Uchinchi qism (kitob) Jinoyat kodeksining maxsus qismi hisoblanib, jinoyatlar va jazolarning muayyan turlarini mustahkamladi.

1871-yilgi Jinoyat kodeksi GFKdan farqli o‘laroq juda tez amalga kiritildi. Uni amalga kiritish chog‘ida faqat bitta masala – o‘lim jazosiga yo‘l qo‘yish mumkinligi haqidagi masala yuzasidan tortishuvlar bo‘lgan edi, chunki o‘sha vaqtda Saksoniya va boshqa qator german davlatlarida o‘lim jazosi bekor qilingan edi.

1871-yilgi Jinoyat kodeksida hamma jinoiy xatti-harakatlar ular uchun nazarda tutilgan jazolarning og‘irligiga qarab jinoyatlar, nojo‘ya ishlar va politsiyachilik huquqbuzarliklariga ajratildi.

Germaniya imperiyasining mavjud tuzumini buzish uchun juda og‘ir jazo nazarda tutildi. Kodeksning 80 va 81-moddalariga binoan imperator hayotiga tajovuz qilish, imperiyaning davlat tuzumini zo‘rlilik bilan o‘zgartirishga urinish, taxt vorisligi tartibini o‘zgartirish kabilar davlatga xiyonat qilish hisoblangan. Ushbu ko‘rsatilgan xatti-harakatlarni keltirib chiqarish maqsadida faqat bir marta oshkora chiqqanlik yoki asarlar tarqatganlik uchun aybdor 10 yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum etilgan. Qonunlarga yoki hokimiyatning boshqa qarorlariga bo‘ysunmaslikka undab (qiziqtirib) majlislarda nutqlar so‘zlash, asarlar yoki rasmlar tarqatish uchun katta miqdorlarda jarima yoki ikki yilgacha turma jazolari nazarda tutilgan. 116-moddada ommaviy joylarda to‘plangan va mansabdor shaxslarning uch marta buyrug‘idan keyin ham

tarqalmagan shaxslar uchun qattiq jinoiy javobgarlik o'rnatilgan. Agar bunda to'planganlar qarshilik ko'rsatsalar, u holda isyonchilar (qo'zg'onchilar) sifatida jazolanganlar.

Jazolar tizimida ozodlikdan mahrum qilish, jarima, mol-mulkni musodara qilish, huquqlarni cheklash bilan bir qatorda o'lim jazosi ham mavjud edi. 1871-yilgi Jinoyat kodeksi ancha qattiq bo'lishiga qaramay, unda alohida liberallashtirish alomatlari ham mavjud edi. Masalan, o'lim jazosini tinchlik vaqtlarida faqat ikkita holatda: davlatga xiyonat qilganlik uchun va rejalashtirilgan tarzda qasddan odam o'ldirgani uchun jazo chorasi sifatida qo'llashga yo'l qo'yilgan. Germaniya imperiyasining Jinoyat kodeksi alohida german davlatlari jinoiy qonunlaridan farqli o'laroq, o'rta asrlar qoldig'i sifatida qoralangan tan jazolari qo'llashni istisno qildi.

**Mehnat va ijtimoiy sohalardagi qonunchilik.** XIX asrning oxirida german huquqining rivojlanish tendensiyasi uning asta-sekin "umumlashtirilishi"da o'z ifodasini topdi. Bu reyxstagda sotsial-demokratlarning faol mavqega ega bo'lganligi bilan izohlanadi. XIX asrning 70-yillarida korxonaga egalari va yollanma ishchilar o'rtasida ish vaqtini va mehnatga haq to'lash shartlarini belgilash bo'yicha bitimlar (tarif bitimlari) tuzishni tartibga soluvchi maxsus normalar majmuasi shakllana boshladi. Bu oqibatda boshqa normalar bilan birga huquqning Yangi sohasi – "mehnat huquqi"ning shakllanishiga shart-sharoit yaratdi.

Germaniyada birinchi tarif bitimi 1873-yilda matbaa sanoati sohasida tuzilgan edi. Uning faol ishtirokchilari Shimoliy Germaniya ittifoqining 1869-yilgi Sanoat ustavi bilan birinchi marta oshkora faoliyatga o'tgan kasaba uyushmalari bo'lgandi. Ushbu ustav erkin tadbirkorlik prinsipi bilan bir qatorda sanoat birlashmalari erkinligini ham mustahkamladi. Masalan, 152-moddada "bundan buyon mayda ishlab chiqaruvchilar, shogirdlar (yordamchi ishchilar), shuningdek fabrika ishchilari uchun ularning o'zaro ancha yaxshi mehnat sharoitlariga va haq to'lanishiga erishish maqsadlarida tuziladigan bitimlari bo'yicha mavjud taqiqlar va jinoiy-huquqiy farmoyishlar" bekor qilinadi deb e'lon qilingan edi.

Bu vaqtda vujudga kelgan kasaba uyushmalari orasida 1890-yil "Sotsialistlarga qarshi qonun" bekor qilingandan keyin keng tarqalgan sotsial-demokratlar rahbarligida tashkil etilgan erkin kasaba uyushmalari ancha faol edilar. Kasaba uyushmalari kasblariga qarab uyushgan ishchilarning mehnat sharoitini va ish haqini tartibga solib turadigan kollektiv shartnomalar tuzishni talab qilib chiqdilar. Dastlabki

muvaffaqiyatli tuzilgan kollektiv shartnomalar kasaba uyushmalarining obro'sini oshirib yuborgan edi. Sotsial-demokratlar ta'siri ostida bo'lgan kasaba uyushmalarida 1890-yildayoq 350 mingga yaqin a'zo bor edi, 1900-yilga borib ikki barobar oshib ketdi. Kasaba uyushmalari uyushtirgan 1890-yil 1-may nomoyishida "8 soatlik ish kuni uchun!", "mehnatni qonun yo'li bilan himoya qilishni joriy etish uchun!" degan shiorlar ilgari surilgan edi. Bunday harakatlar ta'sirida Germaniya hukumati 1894-yilda sotsial-demokratlarga qarshi tayyorlayotgan va "isyonchilarga qarshi qonun loyihasi" deb atalgan yangi "favqulodda qonun"ni amalga oshirishdan voz kechishga majbur bo'lgan edi.

"Erkin kasaba uyushmalari" K.Marksning "mehnat bilan kapital o'rtasida kelishuv bo'lishi mumkin emas" degan klassik nazariyasi ta'sirida uzoq vaqtgacha korxonalar egalari bilan bitimlar tuzishga qarshi chiqib keldilar. Faqat 1899-yildan bunday bitimlar ishchilar manfaatlarini hayotga tatbiq etish vositalaridan biri sifatida ko'riladigan bo'ldi.

Germaniyaning ijtimoiy sohadagi birinchi qonuni 1871-yilgi Moddiy javobgarlik haqidagi qonun bo'ldi. Bu qonun temiryo'l korxonalar egalari ularda qurilish hamda temiryo'llar va ularning sostavlarini ta'mirlash bilan band bo'lgan xodimlar bilan yuz bergan baxtsiz hodisalar uchun maxsus javobgarligini o'rnatdi. Bunday hollarda ish beruvchining yetkazilgan zararni to'lash majburiyati xodimning aybdor yoki aybdor emasligiga bog'liq bo'lmagan. Temiryo'llarning qonun chiqaruvchi tomonidan "xavfi baland manba" sifatida ko'rilishi va bu sohada korxonalar egalari maxsus javobgarligining o'rnatilishi ishchilarni baxtsiz hodisalardan majburiy sug'urta qilish g'oyasining o'rnatilishiga olib keldi. Bu esa temiryo'l korxonalar egalari ahvolini bir muncha yaxshilanishiga imkon berdi.

XIX asrning 80-yillarida Germaniyada ijtimoiy sug'urta haqida bir qator qonunlar qabul qilindi. Masalan, 1883-yilda ishchilarning tibbiy sug'urtasi haqidagi qonun, 1884-yilda baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish haqidagi qonun va boshqalar shular jumlasidandir. Bunday qonunlarning so'nggisi 1889-yilgi "Nogironlik va keksalik holatida sug'urta qilish haqida"gi qonun bo'ldi. 1911-yilgi imperiya (davlat) sug'urtasi haqidagi qaror oqibatda Ijtimoiy kodeks degan nom oldi. Bu qaror juda katta hajmga ega bo'lib, oltita kitobdan iborat tuzildi va Germaniyada o'sha vaqtda harakat qiluvchi hamma ijtimoiy-huquqiy nomalarni birlashtirdi.



## Qisqacha xronologik jadval

- 1640-yil 3-noyabr** – Angliyada uzoq parlamentning ochilishi.
- 1649-yil 30-yanvar** – Angliyada qirol Karl I qatl etildi.
- 1651-yil** – Angliyada parlament tomonidan “Navigatsion akt” qabul qilindi.
- 1653-yil** – Angliyada “Boshqarish quroli” qabul qilindi.
- 1653 – 1658-yillar** – Angliyada Kromvel Protektorati.
- 1660 – 1685-yillar** – Angliyada Styuartlar sulolasining qayta tiklanishi.
- 1670-yil** – Fransiyada “Katta jinoyat ordonansi” chiqarildi va jinoiy sud ish yuritishda inkvizitsion (tergov-qidiruv) jarayoni batamom rasmiylashtiril-di.
- 1670-yil** – Angliyada “torilar” va “vigilar” partiyalari shakllandi.
- 1679-yil** – Angliyada “Habeas korpus akt” qabul qilindi.
- 1688-yil** – Angliyada davlat to‘ntarishi – “Shonli inqilob” bo‘lib o‘tdi.
- 1689-yil** – Angliyada Huquqlar haqida Bill qabul qilindi.
- 1701-yil** – Angliyada “Taxt vorisligi haqidagi akt” qabul qilindi.
- 1720-yil** – Angliyada hukumat roziligisiz aksiyadorlik jamiyatlari tuzishning taqiqlanishi haqida qonun qabul qilindi.
- 1775 – 1783 yillar** – Shimoliy Amerika mustamlakalarining mustaqillik uchun urushi.
- 1776-yil 4-iyul** – AQSHning Mustaqillik deklaratsiyasi qabul qilindi.
- 1781-yil 1- mart** – AQSHning Konfederatsiya moddalari qabul qilindi.
- 1787-yil** – AQSH Konstitutsiyasi qabul qilindi.
- 1788-yil** – Fransiyada General shtatlarga saylovlar bo‘lib o‘tdi.
- 1789-yil 5-may** – Fransiyada General shtatlar majlislari ochildi.
- 1789-yil 17-iyun** – Fransiyada Milliy Majlis e‘lon qilindi.
- 1789-yil 9-iyul –1791 yil 30 sentabr** – Fransiyada Ta‘sis majlisi ishladi.
- 1789-yil 14-iyul** – Bastiliya olindi, Buyuk fransuz inqilobi boshlandi.
- 1789-yil 26-avgust** – Fransiyada Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi qabul qilindi.
- 1791-yil** – AQSHda Huquqlar haqidagi Bill qabul qilindi. Konstitutsiyaga dastlabki o‘nta tuzatish kiritildi.
- 1791-yil** – Fransiyaning birinchi Konstitutsiyasi qabul qilindi.
- 1791-yil 16-fevral** – Fransiyada ishlab chiqarish va korporatsiyalarning sexchilik tuzumi bekor qilindi.
- 1792-yil 21-sentabr** – Fransiyada birinchi respublika e‘lon qilindi.
- 1793-yil 21-yanvar** – Fransiya qirol Lyudovik XVI qatl etildi.
- 1793-yil 2-iyun – 1794 yil 27 iyul** – Fransiyada Yakobinchilar diktaturasi.
- 1793-yil 17-sentabr** – Fransiyada “Shubhali shaxslar haqida” dekret qabul qilindi.
- 1794-yil** – Germaniyada Umumdavlat qonunchiligi kuchga kiritildi.
- 1799-yil 9-10-noyabr** – Fransiyada davlat to‘ntarishi o‘tkazildi, hokimiyat tepasiga Napoleon Bonapart keldi.
- 1803-yil** – AQSHda Oliy sud tomonidan qonunlarning konstitutsiyaviyligini tekshirish amaliyoti boshlandi.
- 1804-yil 21-mart** – Fransiya fuqarolik kodeksi qabul qilindi. U 1807 yildan “Napoleon Kodeksi” deb atala boshladi.
- 1808-yil** – Fransiyada Jinoyat jarayoni kodeksi qabul qilindi.

**1810-yil** – Fransiyada Jinoyat kodeksi qabul qilindi.  
**1814-yil 4-iyun** –Fransiyada Konstitutsiyaviy Xartiya qabul qilindi.  
**1828-yil** – AQSHda Demokratik partiya tuzildi.  
**1830-yil 14-avgust** – Fransiyada yangi Konstitutsiyaviy Xartiyaning e’lon qilinishi.  
**1832-yil** – Angliyada birinchi saylov qonuni qabul qilindi va birinchi parlament islohoti o‘tkazildi.  
**1842-yil** – Skotlend-Yardoda qidiruv bo‘limi tashkil qilindi.  
**1844-yil** – Angliyada kompaniyalarni majburiy tartibda ro‘yxatdan o‘tkazish haqida qonun qabul qilindi.  
**1847-yil** – Angliyada ayollar va o‘smirlar uchun 10 soatlik ish kuni haqida qonun qabul qilindi.  
**1848-yil** – Fransiyada ish kuni maksimumi haqida qonun qabul qilindi.  
**1854-yil** – AQSHda Respublikachilar partiyasigi asos solindi.  
**1856-yil** – Angliyada kompaniyalar haqida qonun qabul qilindi.  
**1858-yil** – Angliyada ajrashishga ruxsat etildi.  
**1861-yil** – Amerika janubiy shtatlari konfederatsiyasi tuzildi, AQSHda fuqarolar urushi boshlandi.  
**1861 – 1865-yil** – AQSHda fuqarolar urushi.  
**1862-yil 20-may** – AQSH da gomstedlar haqida qonun qabul qilindi.  
**1863-yil 1-yanvar** – AQSH da Prezident A.Linkolning negr-qullarni ozod qilish haqidagi proklamatsiyasi e’lon qilingan.  
**1865 – 1870-yil** – AQSHda – Konstitutsiyaga tuzatishlar kiritishning ikkinchi sikli, negrlar qulchiligini bekor qilinishi va ularning fuqarolik huquqlarini tenglashtirilishi.  
**1867 – 1877-yil** – AQSHda “Janubning qayta qurilishi” .  
**1867-yil** – Angliyada ikkinchi saylov qonuni qabul qilindi va ikkinchi parlament islohoti o‘tkazildi.  
**1867 – 1868-yil** – Yaponiyada fuqarolar urushi va inqilob.  
**1871-yil 19 yanvar** – Germaniya imperiyasining e’lon qilinishi.  
**1871-yil** –Germaniya jinoyat qonunnomasi qabul qilindi.  
**1872-yil** – Angliyada saylovlarda yashirin ovoz berish joriy qilindi.  
**1880-yil** – Angliyada ishlab chiqarishda jarohat olganligi natijasida jismoniy zarar yoki o‘lim uchun ish beruvchining javobgarligi haqida qonun qabul qilindi.  
**1881-yil 29 iyul**– Fransiyada matbuot erkinligi haqida qonun qabul qilindi.  
**1882-yil** –Yaponiyada hangi Jinoyat kodeksi va matbuot va ommaviy yig‘ilishlar haqida qonun qabul qilindi.  
**1884 – 1885-yil** – Buyuk Britaniyada uchinchi parlament islohoti o‘tkazildi.  
**1890-yil 2-iyun** – AQSHda Sherman (trestlarga qarshi) qonuni qabul qilindi.  
**1897-yil** – Germaniyada Savdo qonunnomasi amalga kiritildi.  
**1898-yil** – Yaponiyada Fuqarolik kodeksi qabul qilindi

## **Mavzular bo'yicha tavsiya qilinadigan adabiyotlar:**

1. История государства и права зарубежных стран Учеб. / К.И. Батыр, И.А. Исаев, Г.С. Кнопов и др. // Под ред. К.И. Батыра. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2007. – 498 с.
2. История государства и права зарубежных стран. Учебник для вузов: в 2 т. – 3-е изд., перераб. и доп. – Т.2: Современная эпоха / Отв. ред. д.ю.н., проф. Н.А. Крашенинникова. – М.: Норма, 2006. – 816 с.
3. Рубаник В.Е. История государства и права зарубежных стран: учебник / В.Е.Рубаник. – Москва: КНОРУС, 2017. – 488 с.
4. История государства и права зарубежных стран: учебное пособие / коллектив авторов; под ред. М.Б.Смоленского. – Москва: КНОРУС, 2018. – 382 с.
5. Хрестоматия по всеобщей истории государства и права. Т. II. /Под ред. К.И.Батыра и Е.В.Поликарповой. – М.: Юристь, 1996.
6. Графский В. Г. Всеобщая история права и государства: Учебник для вузов. – М.: НОРМА, 2000. – 744 с.
7. Марченко М.Н. Источники права. – М.: Велди Проспект, 2008. – 760с.
8. Муқимов З. Чет мамлакатлар давлати ва ҳуқуқи тарихи. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – 508 б.
9. Одилқориев Х.Т. Давлат ва ҳуқуқ тарихи: ИИВ таълим муассасалари учун дарслик / Х.Т. Одилқориев, Н.П.Азизов, Ҳ.Р.Мадиримов. – Тошкент: ИИВ Академияси, 2013. – 380 б.

## **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Парламентаризм: Опыт зарубежных стран /Сост.: И.Комилов, Ф.Баклова, А.Абдуллаев. Под общ. ред. Р.М.Алимова. – Т.: Шарқ, 2002. – 256 с.
2. Саидов А.Х. Сравнительное правоведение. – М.: Норма, 2000. – 401 с.
3. Мухамедов Ҳ.М. Янги даврда Англия давлати. – Т.: Адолат, 2000. – 56 б.
4. Мухамедов Ҳ. М. Янги давр ҳуқуқи (хорижий мамлакатлар давлати ва ҳуқуқи тарихи бўйича маъруза ва семинар машғулоти учун материаллар). – Т.: Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти, 2011. – 160 б.
5. Мухамедов Ҳ.М. АҚШнинг ташкил топиши ва янги даврда конституциявий ривожланиши. – Т.: ТДЮИ, 2004. – 48 б.
6. Мухамедов Ҳ.М. Франциянинг янги даврда конституциявий ривожланиши. – Т.: ТДЮИ, 2004. – 84 б.

7. Саидов. А.Х. Ҳозирги замон асосий ҳуқуқий тизимлари. – Т.: 2004. – 428 б.

### **Xorijiy adabiyotlar:**

1. Haigh Christopher. Кембриджская историческая энциклопедия Великобритании и Ирландии. – Cambridge University Press, 1990. – P. 30.

2. Chibnall, Marjorie. Дебаты о Норманнском завоевании. — Manchester University Press, 1999. – P. 115–122.

3. Ross, D. (2002). Хронология Шотландской Истории. Глазго: Geddes & Grosset. – С . 56.

4. Lodge Richard. История Англии – От Реставрации до смерти Вильяма III (1660–1702). – Read Books, 2007. – P. 8.

5. Canny Nicholas. Истоки Империи, Оксфордская История Британской Империи Том I. – Oxford University Press, 1998. – ISBN 0-19-924676-9 Mackie, J.D. История Шотландии. – Лондон: Penguin, 1991. – P. 18-19.

**HAYDARALI MUHAMEDOV**

**XORIJIY MAMLAKATLAR  
DAVLATI VA HUQUQI TARIXI  
(Yangi davr davlati va huquqi)**

Darslik

*Muharrirlar: S.Tosheva, K.Abduvaliyeva,  
X.Yuldasheva.*

*Musahhah: R.Yunusova.*

*Texnik muharrir: N.Niyazova.*

*Kompyuterda sahifalovchi: D.Rajapov.*

Bosishga ruxsat etildi: 28.08.2018.

Hajmi: 21,3. Adadi: 80. Buyurtma № 27.

Toshkent davlart yuridik universiteti  
“Tipografiya” bo‘limida chop etildi.  
Toshkent shahri, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy.